O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ERKIN XOJIYEV, TO‘LQIN XOJIYEV

MA’MURIY HUQUQ

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2008

Erkin Xojiyev, To'lqin Xojiyev. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – 608 b.

Ushbu darslikda mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish sharoitida davlat boshqaruvining mazmun-mohiyati, ma'muriy huquq predmeti, uslubi, tizimi va manbalari, ma'muriy-huquqiy normalar va munosabatlar; ma'muriy huquq subyektlari, ma'muriy huquqiy shakllar va uslublar, ma'muriy javobgarlik, ma'muriy jarayon va ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish, shuningdek, davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlash singari asosiy ma'muriy-huquqiy institutlar yoritib berilgan.

Darslik «Ma'muriy huquq» fani dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga, ta'lim muassasalari aspirantlari va o'qituvchilariga, shuningdek, ma'muriy huquq masalalari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar doirasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: **M.X.RUSTAMBOYEV** – yuridik fanlar doktori, professor

Taqrizchilar: **A.R.RAHMONOV** – yuridik fanlar doktori, professor;
A.S.TURSUNOV – yuridik fanlari doktori

ISBN 978–9943–10–124–1

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.

SO'Z BOSHI

O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning xalqining manfaatlariga mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir. Bozorga o'tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning roli jiddiy o'zgaradi. Bozor iqtisodiyotining o'zini-o'zi tartibga soluvchi mexanizmlari tobora katta rol o'ynaydi.

Demokratik prinsiplarga asoslangan erkin bozor munosabatlariga o'tish izchil tarzda eskicha tartiblarga barham berish, uning o'rniga yangi bozor tartiblarini bosqichma-bosqich joriy eta borish, iqtisodda, siyosatda, madaniy-ma'naviy hayotda tub islohotlarni amalga oshirish yo'li bilan jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish orqali amalga oshiriladi.

Bu jarayonda fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish, davlat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, kadrlarni tayyorlash masalasi birinchi galdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»dan kelib chiqqan holda ta'lim sohasida tub islohotlar olib borilib, ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash asosiy vazifa etib belgilandi. O'tgan vaqtlar mobaynida o'rta, o'rta-maxsus kasb-hunar va oliy ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishni to'liq amalga oshirish, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirishni ta'minlash, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish belgilandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ko'rsatib o'tganlaridek, «...ta'lim darslikdan boshlanadi. Achchiq bo'lsa ham tan olishga majburmiz, deyarli barcha sohada

darsliklarimiz ahvoli bugungi va ertangi kun talablari darajasida emas».

Shu sababli, tayyorlangan «Ma'muriy huquq» darsligi amaldagi qonunchilik asosida davlat boshqaruvining nazariy-huquqiy masalalarini yoritib berishni, boshqaruvni tashkil etish va amalga oshirish amaliyotiga e'tiborni kuchaytirishni, uni qayta tashkil etishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishni, davlat boshqaruvini kadrlar bilan ta'minlashni samarali tashkil etishni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Ma'muriy huquq — O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining yirik, murakkab va rivojlangan tarmoqlaridan biridir. Bu uning tartibga solinuvchi predmetining o'ziga xos xususiyatlaridan, munosabatlarning keng qamrovliligidan kelib chiqadi, jamiyat va davlat hayotining turli sohalarida boshqaruv faoliyati bilan bog'liq holda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining barcha sohalarida yuz berayotgan keng ko'lamli islohotlar kabi davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlar ham borgan sari chuqurlashib, bozor munosabatlari asosida yangi mustaqil davlatchilikni barpo etish jarayonlari tezlashtirildi.

Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish davrida davlat boshqaruvini to'g'ri tashkil etish va uni amalga oshirish — ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini erkinlashtirish, jamiyat va davlat oldida turgan asosiy vazifalarni ro'yobga chiqarishda katta ahamiyatga ega.

Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish olib borilayotgan ma'muriy islohotlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, boshqaruvning mazmun-mohiyatini o'zgartirish, uning samaradorligini oshirish, boshqaruvda optimal mexanizmni yaratishdan iborat.

Hozirgi kunda «Ma'muriy huquq» fani o'zagini tashkil etuvchi davlat boshqaruvi mazmuniga bo'lgan qarashlarning, ma'muriy-huquqiy normalar va institutlarning, davlat boshqaruvi tizimini tashkil etishning odatiy yo'lining qayta ko'rib chiqilishi mazkur fanga hamda ta'lim berish jarayoniga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi. Bu birinchi navbatda, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, siyosiy va ma'muriy islohotlarning ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan ta'siri bilan izohlanadi.

«Ma'muriy huquq» darsligida, mualliflar, davlat boshqaruvi va uning asosiy prinsiplari; ma'muriy huquq predmeti, uslubi, tizimi va manbalari; ma'muriy-huquqiy normalar va munosabatlar; ma'-

muriy huquq subyektlari; ma'muriy huquqiy shakllar va uslublar; ma'muriy javobgarlik; ma'muriy jarayon va ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish, shuningdek, davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlash singari asosiy ma'muriy-huquqiy institutlarga yangicha yondashgan.

* * *

Ushbu darslikni tayyorlash va nashr etishda bevosita ko'maklashgan aziz va mehribon ota-onajonimiz — ***Xojiyev Tuyg'un*** va ***Abdullayeva Gulsara***larga chuqur minnatdorchiligimizni bildirib, hamma vaqt sog'-salomat xalqimiz xizmatida bo'lib yurishlarini tilab qolamiz.

Darslikni tayyorlashda o'zlarining qimmatli maslahatlari bilan yordam bergan Toshkent Davlat yuridik instituti jamoasiga, xususan, «Ma'muriy va moliya huquqi» kafedrasi mudiri dotsent A.A.Li, o'qituvchi F.B.Isayeva va boshqa kafedra a'zolariga samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

MUALLIFLAR.

UMUMIY QISM

BIRINCHI BO'LIM

DAVLAT BOSHQARUVI VA MA'MURIY HUQUQ

1-bob. DAVLAT BOSHQARUVINING UMUMIY TAVSIFI

1-§. Boshqaruv tushunchasi va turlari. Ijtimoiy boshqaruv

«Ma'muriy huquq» atamasi lotincha «*administratio*» so'zidan olingan bo'lib, «*boshqaruv huquqi*» ma'nosini anglatadi. Shu sababli, «Ma'muriy huquq» fanining mazmun-mohiyatini ochib berishdan avval boshqaruv, davlat boshqaruvi tushunchalarining mohiyatini anglab olish lozim bo'ladi.

Boshqaruv davlat paydo bo'lmasdan oldin vujudga kelgan bo'lib, kimnidir yoki nimanidir yoxud qandaydir faoliyatni «*yo'naltirish, unga rahbarlik qilish*» ma'nosini anglatadi.

Huquqshunos olim Yu.N.Starilovning fikricha,[1] boshqaruv — bu boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan maqsadga muvofiq va doimiy ta'sir etish jarayoni hisoblanadi. Bunda boshqaruv obyekti sifatida turli xildagi hodisalar va jarayonlar, jumladan, inson, jamoa, ijtimoiy jamoatchilik, mexanizmlar, texnologik jarayonlar va boshqalar namoyon bo'lishi mumkin. Boshqaruv subyektining obyektga nisbatan ta'siri — boshqaruv tizimiga bevosita bog'liqdir. Boshqaruv tizimi — bu boshqaruv jarayonini ta'minlovchi mexanizm, ya'ni maqsadga muvofiq va kelishilgan holda funksiyalanuvchi o'zaro bog'liq elementlardir. Boshqaruv jarayonidagi bu elementlar orqaga qaytish prinsipi asosida yagona tizimga birlashadi.

Yu.M.Kozlovning fikricha, boshqaruv nimaga yoki kimgadir rahbarlik qilishdir. Lekin bu boshqaruvning to'liq mazmunini ochib bera olmaydi. Birinchi navbatda «*rahbarlik qilish*» tushunchasini

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004. С. 19.

o'zining mazmunini, uning funksional ahamiyatini aniqlab olish lozim bo'ladi.[1]

XX asrning 60-yillarida turli sohalardagi boshqaruv jarayonini o'rganuvchi fan – *kibernetika*[2] vujudga keldi. Matematik apparat, matematik mantiq va funksiya nazariyasidan foydalanib, avtomatik tartibga solish, axborot va ilmiy bilimning ko'pgina boshqa sohalaridagi eng muhim tajribalarni (yutuqlarni) birlashtirish imkonini berdi.

Kibernetika – boshqaruv, aloqa, kontrol, tartibga solish, qabul qilish, saqlash va axborotni qayta ishlash kabi masalalarni o'rganuvchi fan sifatida vujudga keldi. Bunda boshqaruv tushunchasiga, boshqaruv jarayonlariga, uning prinsiplariga, yagona tizimni tashkil etuvchi turli elementlarning o'zaro aloqasiga alohida e'tibor qaratilgan. Boshqaruv mazmunini ochib beruvchi *«tizim»* tushunchasi esa quyidagi xususiyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi:

a) boshqaruvning maqsadi va vazifalari;

b) boshqaruv subyekti va obyekti;

d) boshqaruv funksiyalari;

e) boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi;

f) tizim elementlarining yagonaligi, mustaqilligi va o'zaro aloqasi;

g) faoliyatning ma'lum bir shakl va uslublari.[3]

Kibernetika fanidan kelib chiqqan holda, boshqaruv to'g'risida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1) boshqaruv – bu turli xildagi (biologik, texnik, ijtimoiy) tashkil etilgan tizim funksiyasi bo'lib, ularning yaxlitligini ta'minlaydi, ya'ni ularning oldida turgan vazifalarning amalga oshirilishiga erishiladi, uning tuzilmasi va faoliyatining o'rnatilgan tartibi saqlab turiladi;

2) boshqaruv u yoki bu tizim elementlarining o'zaro munosabatlari manfaatiga xizmat qiladi;

3) boshqaruv yaxlit tizimning ichki sifatini tashkil etadi, uning asosiy elementlari bo'lib o'zini-o'zi tashkil etish (boshqarish)ga asoslanuvchi va doimiy munosabatda bo'luvchi *subyekt* (boshqaruvchi element) va *obyekt* (boshqariluvchi element) hisoblanadi;

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: «ЗЕРЦАЛО», 1998. С. 4.

[2] Берг А.И. Кибернетика – наука об оптимальном управлении. М.: 1964; Винер Н. Кибернетика и общество. М.: 1958.

[3] Кнорринг В.И. Искусство управления: Учебник. М.: 1997. С. 6.

4) boshqaruv nafaqat tizimni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro ichki munosabatini, balki turli xildagi ierarxik darajadagi tizimlar mavjudki, ular ham ichki, ham tashqi xususiyatdagi boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni nazarda tutadi;

5) boshqaruv o'z mohiyatiga ko'ra subyektning obyektga nisbatan boshqaruvchilik ta'sirini anglatib, uning mazmunini tizimni tartibga solish va uning funksiyalanishini ta'minlashni tashkil etadi. Boshqaruv – maqsadga muvofiq tartibga solingan ta'sir etish bo'lib, subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatda qo'llaniladi va subyekt tomonidan bevosita amalga oshiriladi;

6) boshqaruv obyektining subyektga, ya'ni boshqariluvchi elementning boshqaruvchi elementga bo'ysunganida mavjud bo'lishi mumkin.

G.V.Atamanchukning fikricha, boshqaruv – bu maqsadga muvofiq, ya'ni insonlar tomonidan o'zlarining ijtimoiy hayot faoliyatlariga ongli ravishda, oldindan belgilangan tartibda tashkil etish va tartibga solish ta'siri bo'lib, bevosita (o'zini-o'zi boshqarish shaklida) yoki maxsus tuzilgan organlar va tuzilmalar (davlat organlari, jamoat birlashmalari) orqali amalga oshirilishi mumkin.[1]

Boshqaruvning mazmunini ochib berish maqsadida, menejment sohasining yetuk namoyondalaridan biri A.Fayol, quyidagi uning funksiyalari (operatsiyalari)ni ko'rsatib o'tadi: *texnik operatsiyalar* (ishlab chiqarish, ajratish va qayta ishlash); *tijorat operatsiyalari* (xarid qilish, sotish va ayirboshlash); *moliyaviy operatsiyalar* (vositalarni jalb qilish va ularga egalik qilish); *sug'urta operatsiyalari* (mol-mulkni va shaxslarni sug'urtalash va muhofaza qilish); *hisob operatsiyalari* (buxgalteriya, kalkulatsiya, hisobga olish, statistika va h.k.lar); *ma'muriy operatsiyalar* (istiqbolni belgilash, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish).

Ma'muriy operatsiyalar mazmuniga to'xtalib, A.Fayol: boshqarish – bu:

– *istiqbolni belgilash,* ya'ni kelajakda sodir bo'lishini hisobga olish va harakat dasturini ishlab chiqish;

– *tashkil etish,* ya'ni tashkilotning moddiy va ijtimoiy organizmini qurish;

– *farmoyish berish,* ya'ni xodimlarni belgilangan tartibda ishlashga majbur etish;

---

[1] Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: Курс лекций. М.: 1997. С. 29–30.

— *muvofiqlashtirish,* ya'ni barcha harakatlarni va kuchlarni birlashtirish, o'zaro aloqasini belgilash;

— *nazorat qilish,* ya'ni barcha harakatlarning o'rnatilgan tartib va farmoyishlar asosida amalga oshirilishini ta'minlash, — deb ko'rsatadi.[1]

Bundan tashqari, A.Fayol, boshqaruv tizimining bir necha turlarini ham ko'rsatib o'tadi:

a) *texnik tizim* (energiya, axborot-hisoblash, texnologik jarayon);

b) *ijtimoiy-iqtisodiy tizim* (sohalar, ma'lum bir korxonalar, xizmat ko'rsatish sohasi);

d) *tashkiliy tizim* (insonlarning faoliyatini tartibga solish).

Qoida bo'yicha, jamiyatning ko'pgina a'zolari ma'lum bir tashkilotlarga birlashadi, ya'ni inson mavjud bo'lishining asosiy xususiyatlaridan biri — bu tashkiliy munosabatlardir.[2]

O.S.Vixanskiy ko'rsatib o'tishicha, insonlar tashkilotlarga ma'lum bir vazifalarni hal etish maqsadida birlashadi. Har bir tashkilotda uning oldida turgan maqsad va vazifalarga erishish uchun zarur bo'lgan boshqaruv jarayoni turadi.[3]

Yu.N.Starilov boshqaruv jarayoni mohiyatini yoritib berish maqsadida, uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

a) tizimni tashkil etish zaruriyati va uning funksiyalanishi;

b) tizimga maqsadga muvofiq ta'sir etish (bu orqali oldindan belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlovchi munosabat va aloqalarning tartibga solinishiga erishiladi);

d) boshqaruv subyekti va obyektining mavjudligi;

e) boshqaruv ishtirokchilari o'rtasidagi aloqani bog'lovchi asosiy vosita sifatida — axborotning mavjudligi;

f) boshqaruv tuzilishida ierarxik tizimlar (elementlar, ichki tizimlar, sohalar, tarmoqlar)ning mavjudligi;

g) boshqaruv obyektining boshqaruv subyektiga bo'ysunishining turli shakllaridan, boshqaruvning uslublari, usullari va vositalaridan foydalanish.[4]

---

[1] Фаёл А. Общее и промышленное управление // Управление — это наука и искусство. М.: 1992. С. 11—12.

[2] Ko'rsatilgan asar. 2-bet.

[3] Виханский О.С., Наумов А.И. Менежмент: человек, стратегия, организация, процесс. М.: 1996. С. 8—9.

[4] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004. С. 21—22.

Ba'zi bir yuridik adabiyotlarda, boshqaruvning quyidagi turlari ko'rsatib o'tilgan:

– m*exanik, texnik boshqaruv* (texnika, mashina, texnologik jarayonlarni boshqarish);

– *biologik boshqaruv* (tirik organizmlar hayot faoliyati jarayonlarini boshqarish);

– *ijtimoiy boshqaruv* (ijtimoiy jarayonlarni, insonlar va tashkilotlarni boshqarish).[1]

Mazkur boshqaruv turlari o'zining ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari, boshqaruv funksiyalari va operatsiyalarining amalga oshirilishi bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy boshqaruv. Ijtimoiy boshqaruv – umumiy boshqaruvning bir ko'rinishi bo'lib, kibernetika fani orqali tadqiq qilinadi. Huquqshunos olim Yu.M.Kozlovning fikricha, boshqaruv – bu birinchidan, murakkab tizimga maqsadga muvofiq ta'sir etishdir; ikkinchidan, tashkil etilgan turli tabiatli tizim funksiyasidir.[2]

Murakkab tizim deganda – turli elementlar yig'indisidan iborat bo'lgan tizim nazarda tutiladi. Boshqaruv jarayoni ham aynan mana shunday murakkab harakatchan tizimda o'z ifodasini topadi. U – o'zboshimchalikni bartaraf etish, tashkilotchilikni amalga oshirish, ichki va tashqi omillarning ta'siriga qaramasdan uning sifat jihatdan aniqligini saqlab turish, tizim elementlarini mazkur muhit obyektiv qonuniyatlariga mos kelishini ta'minlash maqsadida kerakdir.

Boshqaruv axborot bilan chambarchas bog'liqdir. Tizimning bir normada bo'lishi uchun u axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, yuborish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Bir butun tizim tarkibiy qismlarining aloqasi va tartibga solinganligiga *axborot* orqali erishish mumkin. Axborot ma'lum bir signallar orqali yuboriladi. Signallar o'zida ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishga majbur qiluvchi boshqaruv ta'sirini mujassamlashtiradi.

Boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu uning *orqaga qaytish (qayta aloqa)*ga, ya'ni maqsadga muvofiqlikni hisobga olish mexanizmi, buyruq va harakatlar natijasiga ega ekanligidadir. Bu boshqaruv obyektining holati va buyruqning ijro etilishi to'g'risidagi axborotlarni olish uchun zarurdir. Qayta aloqa sababli

---

[1] Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: Курс лекций. М.: 1997. С. 29–30.

[2] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: «ЗЕРЦАЛО», 1998. С. 4.

tizimda axborot kanallarining chegaralangan zanjiri vujudga keladi, tashqi muhit o'zgarishlariga qarama-qarshi turuvchi belgilangan butunlikka ega bo'ladi. Qayta aloqa orqali keladigan axborot — boshqaruvchiga tizimni tartibga solish, yangi buyruqlarni berish va eskilarini aniqlashtirish imkoniyatini beradi.

Boshqaruvning umumiy maqsadi bo'lib — *gomeostazis*, ya'ni tizim va muhit o'rtasidagi harakatchan tenglikni ta'minlash, ta'sir etuvchi omillarga qaramasdan uning sifat jihatdan aniqligini saqlash, tizim elementlari, shuningdek, tizim va tashqi muhit o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga barham berish hisoblanadi.

Agarda boshqaruv, Yu.N.Starilovning fikricha, tizimga xos bo'lgan ichki organlar, mexanizmlar va boshqa omillar yordamida amalga oshirilayotgan bo'lsa, bu *o'zini-o'zi boshqarish*dir. Aksariyat ijtimoiy va biologik tizimlar o'zini-o'zi boshqaradi. Bularning har birida ikki ichki tizimni: *boshqariluvchi* (boshqaruv obyekti) va *boshqaruvchi* (boshqaruv subyekti)ni ko'rsatib o'tish mumkin. Lekin insonlar tomonidan tashkil etilgan ko'pgina ijtimoiy va texnik tizimlar (masalan, huquq, avtomobil va boshqalar) o'zini-o'zi bosh-qarishga ega emas.

Ijtimoiy boshqaruv tushunchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u boshqaruvning asosiy turlaridan biri bo'lib, ma'lum bir insonlarning boshqalariga nisbatan ijtimoiy ahamiyatli jarayonlarni tartibga solish va ijtimoiy tizimning rivojlanishini ta'minlash maqsadida axborot yordamida ta'sir etishidir.

Ijtimoiy boshqaruvning mazmun-mohiyati uning o'ziga xos xususiyatlari orqali belgilanadi. Jumladan, Yu.M.Kozlov ijtimoiy boshqaruvning ijtimoiy hayotning asosiy omili sifatida uning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

a) *ijtimoiy boshqaruv — insonlarning birgalikdagi faoliyati mavjud bo'lganida amalga oshirilishi mumkin.* Insonlarning birgalikdagi faoliyati, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar, umumiy vazifalarni bajarish, umumiy maqsadga erishish — o'z-o'zidan mavjud bo'lishi mumkin emas. Boshqaruv insonlarni aynan birgalikda faoliyat yuritishi uchun ularni jamoalarga jipslashtiradi;

b) *ijtimoiy boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri bo'lib — insonlarning birgalikdagi faoliyati va ularning o'zaro aloqasini tashkillashtirish hisoblanadi.* Bu orqali birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining yakka tartibdagi harakatlari muvofiqlashtiriladi, bunday faoliyatni tartibga soluvchi va uning tabiatidan kelib chiquvchi umumiy funksiyalar bajariladi;

d) *ijtimoiy boshqaruvning asosiy ta'sir etish obyekti bo'lib — birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining xulq-atvori, ularning o'zaro munosabati hisoblanadi;*

e) *ijtimoiy boshqaruv inson xulq-atvorini tartibga soluvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'lib, bu maqsadga ijtimoiy aloqalar orqali erishadi.* Bu aloqalar, birinchi navbatda ijtimoiy boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha subyekt va obyekt o'rtasida vujudga keladi;

f) *ijtimoiy boshqaruv — insonlar, ya'ni boshqaruv munosabatlari ishtirokchilari irodasining bo'ysunishiga asoslanadi.* Chunki ularning munosabatlari ongli-irodali munosabatlardir. Boshqaruvchining irodasi boshqariluvchining irodasiga qaraganda ustundir. Aynan mana shunda ijtimoiy boshqaruvning hokimiyat xususiyatiga ega ekanligi namoyon bo'ladi, ya'ni boshqaruv subyekti — hokimiyat irodasini shakllantiradi va amalga oshiradi, boshqaruv obyekti esa unga bo'ysunadi;

g) *ijtimoiy boshqaruv uni amalga oshirishning maxsus mexanizmiga muhtojdir.* Bu boshqaruv subyektlari, ya'ni boshqaruv (davlat yoki jamoat) organlari tariqasida tashkil etilgan ma'lum bir insonlar guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Ularning faoliyati o'ziga xos ahamiyatga va maxsus shaklga ega bo'lib, boshqaruv faoliyati hisoblanadi.[1]

Yu.N.Starilov esa ijtimoiy boshqaruvning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

1. *Ijtimoiy boshqaruv* — insonlarni (ma'lum bir individlarni, guruhlarni, jamiyatni) boshqarish bo'lib, insonlar o'zaro munosabatining alohida ko'rinishi hisoblanadi.

Inson — ijtimoiy mavjudotdir. Chunki u jamiyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Inson hayotining muhim xususiyatlaridan biri esa ijtimoiy hayotning turli sohalarida birgalikda ularning faoliyat yuritishi hisoblanadi. Birlashish — inson mavjud bo'lishining asosiy vositasidir. Insonlarning jamoasi ma'lum bir tashkilot shakliga ega bo'lib, u harakatlarni muvofiqlashtirish va yo'naltirish, uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ularni umumiy maqsad sari bo'ysundirishda xizmat qiladi.

Ijtimoiy boshqarish — insonlarga rahbarlik qilishni (masalan, harbiy xizmatga chaqirish, o'quv yurtlariga qabul qilish) anglatadi. Lekin ayrim hollarda u narsalarga ta'sir etish vositasi, ishlab chiqarish jarayonida insonlarning belgilangan faoliyat yuritishini,

[1] Ko'rsatilgan asar. 5—6-betlar.

moddiy boyliklarni taqsimlashni ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Boshqaruv subyekti ijtimoiy munosabatlarga insonlarning irodasi va ongi orqali ta'sir etadi.

2. *Inson harakati* – ongli, irodali, maqsadga muvofiq harakatdir. Iroda – inson ongini tartibga soluvchi, qo'yilgan maqsadga erishish uchun uning faoliyatini yo'naltiruvchi xislatdir. Birgalikda faoliyat yuritish – yagonalikni, harakatlarning tartibga solinganligini, turli insonlar irodasining oldindan kelishilganligini talab etadi. Maqsadning, irodaning birligi mavjud bo'lganida, harakatlarning yagonaligi bo'ladi.

Ijtimoiy boshqaruvning ikkinchi o'ziga xos xususiyati aynan mana shunda, ya'ni u insonlarning irodasiga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi. Ma'lum bir insonlar irodasining boshqalar irodasidan ustun turishi, boshqalarning irodasini bo'ysundirish qobiliyatini hokimiyat deb atashadi. Hokimiyat – bu harakatlarni vertikal iyerarxik muvofiqlashtirish bo'lib, turli insonlarning harakatlarini ta'minlovchi boshqaruvning muhim va zaruriy vositasi hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, «hokimiyat» va «mulkchilik» tushunchalari bir-biriga juda yaqindir. Mulkchilik – molmulkdan foydalanish, egalik qilish va tasarruf etish hisoblansa, hokimiyat – inson harakatlaridan foydalanish va tasarruf etishdir.

3. *Ijtimoiy boshqaruv*ning yana bir xususiyati shundaki, boshqariluvchilarning yuqori darajadagi mustaqillikka, irodaning erkinligiga ega bo'lishidir. Ijtimoiy boshqaruvning obyekti: insonlar, jamoalar – iroda va ongga, o'rab turgan muhitni tahlil qilishga, xulq-atvor (yurish-turish)ning ma'lum bir ko'rinishlarini tanlab olish xususiyatiga egadir.

Ijtimoiy tizimda boshqaruv subyektlari va obyektlarining birlashishigina emas, balki ularning o'rni va ijtimoiy roli o'zgarib turishi ham ma'lum bir ahamiyatga ega.

Inson tabiati turli-tumandir, u har xil ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida namoyon bo'lishi, turli ijtimoiy o'rinni egallashi, texnik vositalarni hamda ayrim hollarda insonlarni boshqarishi mumkin. Ongli, maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hamma vaqt ham inson hayotiy faoliyatining barcha tomonlarini qamrab ola olmaydi, balki boshqaruvni normasidan ortiq amalga oshirish insonga (jamiyat va shaxs rivojlanishiga) zarar keltirishi ham mumkin.

Jamiyatda boshqaruv obyektning mustaqilligini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Turli insonlarning (fuqaro,

harbiy xizmatchi, voyaga yetmagan va h.k.lar) boshqaruvdagi mustaqilligi bir xil emas. Lekin hozirgi kunga qadar biron bir boshqaruv subyekti inson faoliyatiga (boshqaruv obyektiga) to'laligicha ta'sir eta olmagan.

Jamiyatda boshqaruv bilan bir qatorda fan, san'at, turli xildagi jarayonlar (migratsiya, jinoyatchilik, tabiiy hodisalar) mavjudki, inson faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

4. *Insonlarni boshqarish* ongli ravishda amalga oshiriladi. Bu jarayonda maqsad va dasturlar ishlab chiqiladi, ularni amalga oshirish vositalari belgilanadi.

Aksariyat hollarda ijtimoiy boshqaruvning maqsadi sifatida tizimni takomillashtirish, uning sifat xususiyatlarini o'zgartirish, muhitni o'zining ehtiyojlariga moslashtirish namoyon bo'ladi.

5. *Ijtimoiy boshqaruv* — insonning axborotni to'plashi va saqlashi hamda uni ijtimoiy tarbiya orqali berishidir. Insonlar ajdodlarning tajribasini mustahkamlash, saqlash va keyingi avlodga berish, yakka tartibdagi (individual) tajribani jamoaga qo'llash, uzoq masofaga axborotni tezlik bilan yuborish uchun maxsus vositalarni yaratgan.

Insonlarni boshqarishning turli-tuman ko'rinishlari mavjud bo'lib, u aniq bir shart-sharoitlarda amalga oshiriladi.

Boshqaruv munosabatlari — ijtimoiy munosabatlarning bir turi hisoblanadi.

Yu.N.Starilov o'zining ilmiy ishlarida ijtimoiy boshqaruvning o'zini bir necha guruhga ajratadi. Jumladan, hokimiyat ta'siri darajasiga ko'ra — davlatni, shaharni, ma'lum bir sohani, korxonani boshqarish; mulkchilik xususiyatiga ko'ra — davlat, mahalliy, xususiy notijorat va xususiy tijorat boshqaruvlari. [1]

B.N.Gabrichidze esa boshqaruvning ikki ko'rinishini ko'rsatib o'tadi:

a) *jamiyatni boshqarish (ijtimoiy boshqaruv)* — ijtimoiy hayotga yoki uning ko'p yoxud ayrim sohalariga ta'sir etish, ijtimoiy ishlarni boshqarish;

b) *davlatni boshqarish* — davlat hayotini davlat olib borayotgan siyosatga moslashtirish maqsadida davlatning yoki uning institutlarini maqsadga muvofiq ta'sir etishidir.[2]

---

[1] Ko'rsatilgan asar. 23—26-betlar.

[2] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право: Учебник. — М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 7.

Demak, yuqoridagilarga asoslanadigan bo'lsak, ijtimoiy boshqaruv turli xildagi xususiyatlarga egadir. Ijtimoiy boshqaruv keng ma'noda – ijtimoiy aloqalarni tashkil etish tariqasida tushuniladi. Bunday ma'noda, ijtimoiy boshqaruvning vazifa va funksiyalari barcha davlat organlari va vakolatli jamoat birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ijtimoiy boshqaruvning elementi sifatida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy boshqaruvning obyektini – butun jamiyat, undagi ijtimoiy aloqalar tashkil etadi.

Ijtimoiy boshqaruv maxsus ma'noga ham ega bo'lishi mumkin, ya'ni u – davlat faoliyatining bir ko'rinishi hisoblangan davlat boshqaruvi sifatida namoyon bo'ladi.

2-§. Davlat boshqaruvi tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari va turlari

«Davlat boshqaruvi» atamasi milliy va xorijiy adabiyotlarda hamda amaldagi qonunchiligimizda keng qo'llaniladi.

Davlat boshqaruvi tushunchasini aniqlab olishdan avval, boshqaruvning davlat-huquqiy xususiyati va davlat boshqaruvi nazariyasining tuzilishi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish lozim.

G.V.Atamanchukning fikricha, davlat boshqaruvi obyektiv va subyektiv omillarga egadir. Davlat boshqaruvi – subyektivdir, chunki u insonlar (davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar) ongi va harakatining mahsulidir. Boshqaruvning mazmuni uchun boshqaruv subyektlari javobgar bo'ladi. Obyektiv nuqtayi nazardan esa davlat boshqaruvi quyidagi ko'rinishga ega: *tabiat – maqsad – funksiya – tuzilish – jarayon – prinsiplar.*[1]

Davlat boshqaruvi – ommaviy ehtiyoj va manfaatlarni anglash, ularni baholash va tarkibiy qismlarga ajratish, aniq maqsadlarni qo'yish, ma'lum bir qarorlarni ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash uchun mavjuddir. Shu sababli, davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirishning ijtimoiy mexanizmi o'zaro bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisalarning, ya'ni *ehtiyoj – manfaat – maqsad – qaror – harakat – natija*ning yagona zanjiri sifatida namoyon bo'ladi.

Yu.N.Starilovning ko'rsatishicha, boshqaruv fani – boshqaruv nazariyasi, boshqaruv siyosati va ma'muriy huquq nazariyasini o'z

---

[1] Атаманчук Г.В. Обеспечение рациональности государственного управления. М.: 1990. С. 33-49.

ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, davlat boshqaruvi nazariyasi predmeti va ma'muriy huquq predmeti o'zaro yaqin bo'lib hisoblanadi. Uning fikricha, *davlat boshqaruvining umumiy nazariyasi quyidagi muhim elementlardan tashkil topadi*: davlat boshqaruvi maqsadi va vazifalari; boshqaruv funksiyalarining boshqa davlat faoliyatining funksiyalari bilan o'zaro munosabati; davlat boshqaruvi organlarining boshqa davlat organlari bilan o'zaro munosabati; davlat boshqaruvini va uning tizimini tashkil etish; davlat boshqaruvida insonning tutgan o'rni va roli.

*Davlat boshqaruvi nazariyasining asosiy sohalari*ni esa:

a) boshqaruv personali (ommaviy xizmat);

b) rahbarlik va boshqaruvdagi o'zaro munosabat;

d) budjet;

e) tashkil etish, rejalashtirish;

f) axborot va axborot texnologiyasi;

g) qonunchilik tashkil etadi.

Hozirgi jarayonda boshqaruv fani, Yu.N.Starilov fikricha, quyidagi yo'nalishlarda – davlat boshqaruv nazariyasi; boshqaruvni tashkil etish; budjet va moliya; personal va boshqaruvni tashkil etish; boshqaruv personali va rahbarlik; axborot va boshqaruv tizimi; hududiy va mahalliy boshqaruv siyosati; huquq va boshqaruv; boshqaruv va o'rab turgan muhit; rejalashtirish va qaror qabul qilish; davlat, boshqaruv va iqtisodiyot; boshqaruv va ijtimoiy siyosat; xalqaro tartib va boshqaruv munosabatlari yo'nalishlari bo'yicha rivojlanib bormoqda.[1]

Davlat boshqaruvi tushunchasiga turlicha yondoshish mumkin. Ko'pgina hollarda, davlat boshqaruvi qonun chiqarish va odil sudlov faoliyati doirasidan tashqarida bo'lgan davlat va davlat-hokimiyat subyektlarining faoliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat boshqaruvi murakkab harakatchan tizimga ega bo'lib, uning har bir elementi ijtimoiy hayotni tartibga solishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yuridik adabiyotlarda davlat boshqaruvining tizimlilik xususiyatiga alohida e'tibor beriladi. Chunki bu faoliyatga boshqaruv aktlarini qabul qiluvchi va amalga oshiruvchi boshqaruvchilar (davlat xizmat-chilari va mansabdor shaxslar), shuningdek, fuqarolar hamda moliyaviy, tashkiliy va moddiy resurslar jalb qilingandir. Davlat boshqaruvining tizimliligi – belgilangan maqsad va vazifa-

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 26–29.

larga erishishni va boshqaruv funksiyalarini samarali amalga oshirishni ta'minlaydi.

Davlat boshqaruviga berilgan barcha ta'riflarda uning asosiy mazmuni – *davlatning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'lgan amaliy ta'sir etishi* ko'rsatib o'tilgan.

G.V.Atamanchuk davlat boshqaruvining quyidagi uchta zaruriy belgisini ko'rsatib o'tadi:

1) boshqaruv ta'siri – davlat hokimiyati kuchiga tayanadi;

2) davlat boshqaruvining jamiyatdagi barcha sohalarni qamrab olishi;

3) tizimlilik.[1]

Yu.N.Starilovning fikricha, davlat boshqaruvi ijro hokimiyatini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladi. Tashkiliy nuqtayi nazardan, *davlat boshqaruvi* – boshqaruv subyekti (davlat, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar)ning boshqaruv obyekti (jamiyat, fuqarolar)ga nisbatan hokimiyat ta'siri hisoblanadi. Yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, *davlat boshqaruvi* – bu qonun asosida va uni amalga oshirish maqsadida turli sohalarda (ijtimoiy-madaniy, xo'jalik va ma'muriy-siyosiy qurilish) davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshiruvchi ijro hokimiyati organlarining maqsadga muvofiq tashkil etilgan, qonunosti, ijrochilik-farmoyish berish va tartibga solishga qaratilgan faoliyatidir.[2]

Yu.M.Kozlovning ko'rsatishicha, davlat boshqaruvi – har qanday davlat faoliyati singari qaror qabul qilish, uni ijro etish va uning ijrosi ustidan nazoratlni amalga oshirishdan iboratdir.[3]

Davlat boshqaruvi, Gabrichidze B.N.ning fikricha, bu davlat nomidan va davlat ko'rsatmasiga binoan amalga oshiriladigan boshqaruv, ya'ni fuqarolik jamiyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish, huquqiy va demokratik davlatni mustahkamlash sohalarida amalga oshiriladigan ijrochilik va farmoyish berish faoliyatidir.[4]

Demak, davlat boshqaruvi keng ma'noda – davlatning tartibga solish faoliyati hisoblanib, maxsus subyektlarning ijtimoiy muno-

---

[1] Ko'rsatilgan asar. 35–39-betlar.

[2] Ko'rsatilgan asar. 30–31-betlar.

[3] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: «ЗЕРЦАЛО», 1998. С.7.

[4] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право: Учебник. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 12.

У-6859

sabatlarga ta'sir etishidir. Tor ma'noda esa, davlat boshqaruvi — bu ma'muriy, ya'ni davlat hokimiyati ijro organlarining respublika va ma'muriy-hududiy bo'linmalar doirasidagi faoliyatidir.

Davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari. Davlat boshqaruvi mazmun-mohiyatini yoritib berishda uning o'ziga xos xususiyatlarini ham ko'rsatib o'tish lozim.

Davlat boshqaruvi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1) *davlat boshqaruvi* — ijro hokimiyatini amalga oshirishga qaratilgan hamda qonun chiqarish va odilsudlov faoliyatidan shakli, uslublari va mazmuniga ko'ra ajralib turadigan alohida faoliyat turi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi — bu qonunlar va boshqa normativ (qonunosti) hujjatlarni qo'llash bo'yicha olib boriladigan ijrochilik va farmoyish berish faoliyatidir;

2) *davlat boshqaruvi* — huquqni qo'llash bilan bir vaqtda ma'muriy huquq ijodkorligi (huquq o'rnatish) faoliyatini amalga oshiradi. Davlat boshqaruvi organlari huquq ijodkorligi shunda namoyon bo'ladiki, ular vakolat doirasida boshqa huquq subyektlari (boshqaruv obyekti) uchun majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar, ma'muriy yurisdiksiyaviy (huquqni himoya qilish) faoliyatni yuritadilar;

3) *davlat boshqaruvi* — qonunlarni ijro etish, shuningdek, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish zarurati vujudga kelgan hamma joyda amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi davlat va jamiyat hayotining muhim sohalarida — xo'jalik-iqtisodiy qurilish, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy sohalarda amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi nafaqat davlatga qarashli bo'lgan obyektlarni, balki nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlarni ham qamrab oladi (bunda davlat boshqaruvi tartibga solish va kontrol-nazorat faoliyati sifatida namoyon bo'ladi);

4) *davlat boshqaruvi* — bu ijro hokimiyati funksiyalanishining obyektiv qonuniyatlariga asoslangan va davlat manfaatlarini, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan doimiy va rejali faoliyatdir. Davlat boshqaruvi jarayonida davlat vazifalari va funksiyalari amalga oshiriladi;

5) *davlat boshqaruvi* — davlat tomonidan tuziladigan va yagona davlat boshqaruvi organlari tizimini tashkil etadigan ijro hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat nomidan va davlat ko'rsatmasiga binoan harakat qiladigan ushbu organlar davlat-hokimiyat xususiyatiga ega bo'lgan vakolatlarga ega bo'ladilar va kompetensiya doirasida faoliyat yuritadilar;

6) *davlat boshqaruvi* – qonuniylik prinsipiga amal qiladi, ya'ni ijro hokimiyati organlarining faoliyati qonunlarga va boshqa normativ hujjatlarga asoslanadi. Boshqaruv faoliyati davlat organlari tomonidan faqatgina ularga berilgan vakolat doirasidagina amalga oshiriladi;

7) *davlat boshqaruvi* – vertikal (subordinatsiyaviy, ierarxik) va gorizontal aloqalar va munosabatlar asosida tashkil etiladi. Boshqaruv jarayonida eng ko'p tarqalgan munosabatlar vertikal bo'lib, boshqaruv subyektlarining ma'muriy va intizomiy bo'ysinuvi asosida vujudga keladi. Oxirgi vaqtlarda boshqaruv jarayonida boshqaruv subyektlarining tengligiga asoslangan yangi shakldagi gorizontal munosabatlarning vujudga kelishini ham kuzatish mumkin (masalan, ijro hokimiyati organlari o'rtasida vakolatlarni qayta taqsimlash, ommaviy yoki ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzish va h.k.lar);

8) *davlat boshqaruvi* – tashkil etish prinsipiga asoslanadi, ya'ni unga butun boshqaruv mexanizmining maqsadga muvofiq va doimiy funksiyalanishini ta'minlovchi xilma xil shakllar xosdir. Davlat boshqaruvi organlarining tashkillashtirish faoliyati ham tashqi, ham ichki ma'muriy funksiyalarni ijro etishni o'z ichiga oladi;

9) *davlat boshqaruvi* – yurisdiksiyaviy xususiyatga ega bo'lgan vakolatlarni ham o'z ichiga oladi, ya'ni ijro hokimiyati organlari tomonidan «majburlovchi» boshqaruvni amalga oshirishning ma'muriy tartibini (suddan tashqari) ta'minlaydi (masalan, ma'muriy jazo yoki ma'muriy ogohlantiruv yoxud ma'muriy cheklov choralarini qo'llash).

Ijtimoiy hayotda davlat boshqaruvining tutgan o'rni va ahamiyati, Yu.M.Kozlovning fikricha, quyidagilar bilan belgilanadi:

a) davlat boshqaruvi – yagona davlat hokimiyatini amalga oshirish bo'yicha aniq faoliyat turi bo'lib, davlat hokimiyatining boshqa turlaridan o'zining funksional va kompetensiyaviy xususiyatiga qarab ajralib turadi;

b) davlat boshqaruvi – ijro etish va farmoyish berish xususiyatidagi faoliyat bo'lib, uning asosiy maqsadi qonunlar va qonunosti hujjatlarini hayotga tatbiq qilish hisoblanadi;

d) davlat boshqaruvi – maxsus subyektlar, ya'ni davlat boshqaruvi (ijro hokimiyati) organlari tomonidan amalga oshiriladi;

e) davlat boshqaruvi – xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilishga doimiy va bevosita rahbarlik qilish jarayonida amalga oshiriladigan ijrochilik faoliyatidir;

f) davlat boshqaruvi – qonunosti faoliyati bo'lib, qonun asosida va uni ijro etish maqsadida amalga oshiriladi; qonunchilik faoliyatiga nisbatan ikkilamchi hisoblanadi.[1]

Davlat boshqaruvi turlari. Davlat boshqaruvi mazmunini ochib berishda uni turlarga bo'lish ham ma'lum bir ahamiyatga egadir. Yuridik adabiyotlarida davlat boshqaruvining bir necha turlari ko'rsatib o'tilgandir. Jumladan, Yu.N.Starilov davlat boshqaruvini uch turga bo'ladi:

a) *ichki davlat boshqaruvi* – ijro hokimiyati organlari tomonidan mazkur organlar tizimini tashkil etish va faoliyat yuritishining huquqiy tartibotini ta'minlash, ya'ni boshqaruv vazifalarini bajarish maqsadida amalga oshiriladi;

b) *tashqi davlat boshqaruvi* – ijro hokimiyati organlari tomonidan «tashqi» vakolatlarni, ya'ni davlat ma'muriyati tuzilishiga kirmaydigan va huquq subyektlariga qaratilgan vakolatlarni amalga oshirish (masalan, ro'yxatga olish, litsenziya berish) maqsadida olib boriladi;

d) *ichki tashkiliy davlat boshqaruvi* – bunda qonun chiqaruvi, sud, prokuratura va boshqa davlat organlari tomonidan ijro hokimiyati organlariga taalluqli bo'lmagan ijrochilik va farmoyish berish funksiyalari amalga oshiriladi.[2]

Aksariyat davlat boshqaruvi munosabatlari ommaviy (ma'muriy) huquq bilan, ba'zi birlari esa fuqarolik huquqi bilan tartibga solingandir. Shu sababli, davlat boshqaruvini *mustaqil («suveren») davlat boshqaruvi*ga va *«xususiy-huquqiy» (fuqarolik-huquqiy) shakldagi davlat boshqaruvi*ga bo'lish mumkin. Bu boshqaruv ko'rinishlari turli huquqiy shakllar bilan amalga oshiriladi.

«Suveren» boshqaruv – bu «majburlovchi», ya'ni ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini qo'llashni nazarda tutuvchi boshqaruvdir. Bunda davlat organlari va mansabdor shaxslar – ta'minlash, ogohlantirish, cheklash, jazolash va qayta tiklash xususiyatidagi choralarni qo'llaydi. Bundan tashqari, bu jarayonda fuqarolar huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish, obyektlar tomonidan mulkka egalik qilish huquqi vaqtincha chegaralab qo'yilishi mumkin. «Majburlovchi» boshqaruvning asosiy prinsipi – qonuniylik hisoblanadi.

---

[1] Ko'rsatilgan asar. 8-9-betlar.

[2] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 35.

Ma'muriy-huquqiy adabiyotlarda «xususiy-huquqiy» (fuqarolik-huquqiy) boshqaruv muammosiga ko'p e'tibor berilmagan. Boshqaruvning bunday turi faqatgina davlatning ijtimoiy munosabatlarda mustaqil («suveren») ishtirokchisi sifatida namoyon bo'lmaganida mavjud bo'lishi mumkin. Bunday munosabatlarning ishtirokchilari teng huquqlarga ega bo'ladi.

Yu.N.Starilovning fikricha, davlat boshqaruvining xususiy sohasi – boshqaruvning moddiy (iqtisodiy) ehtiyojlarini qamrab oladi, ya'ni davlat xususiy shaxs sifatida namoyon bo'lib, turli xildagi shartnomalarni tuzadi. Bunday shartnomalar jumlasiga: boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlash maqsadida tuziladigan oldi-sotdi shartnomasi, xizmat ko'rsatish va lizing shartnomalari va h.k.larni kiritish mumkin. Mazkur shartnomalarda davlat nafaqat byurtmachi yoki iste'molchi sifatida, balki boshqa tadbirkorlar singari, foyda oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.[1]

Davlat boshqaruvini tashkil etish prinsipiga qarab:

a) *umumiy boshqaruv* – har qanday boshqaruv faoliyatiga (sohasiga) qaratilgan va bir xil mexanizm, shakl va uslublarda amalga oshiriladigan boshqaruv;

b) *maxsus boshqaruv* – ma'lum bir sohalarga va tarmoqlarga (masalan, qurilish, moliya, qishloq xo'jaligi, ichki ishlar va h.k.lar) qaratilgan boshqaruvga bo'lish mumkin.

3-§. Davlat boshqaruvi funksiyalari

Davlat boshqaruvi funksiyalari to'g'risida batafsil tushuncha hosil qilish uchun **«davlat funksiyasi»** va **«huquq funksiyasi»** atamalarini bilib olish lozim. Bu ikkala kategoriya o'zaro bog'liq bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Ular ko'pgina o'xshash tomonlar bilan bir qatorda, o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir.

Davlat va huquq nazariyasi fanidan kelib chiqadigan bo'lsak, *davlat funksiyasi* uning siyosati, maqsadi, vazifalari va vakolatlari bilan belgilanadigan ma'lum bosqich (davr)dagi faoliyatning asosiy yo'nalishlaridir. Davlat o'z funksiyalarini ado etish uchun qonun chiqaruvchilik, ijro etuvchilik va sudlov faoliyatini olib boradi. Davlat o'z funksiyalarini amalga oshirishda ishontirish, rag'batlantirish va majbur etish uslublaridan foydalanadi. Mazkur shakllar va uslublarning qo'llash darajasi davlat funksiyalarining hajmi, davri, tizimi, xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Davlat funksiya-

[1] O'sha joyda.

larini tasniflash (guruhlarga, turlarga bo'lish) esa, davlatning mohiyatini chuqurroq anglashga, uning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaqqolroq namoyish etishga ko'maklashadi. Odatda, davlat funksiyalari ikkiga: ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi.

huquq funksiyasi – ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir etishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi. huquq, avvalo, jamiyat hayotining turli jabhalariga – iqtisodiyotga, siyosatga, ijtimoiy sohaga, madaniy-ma'naviy munosabatlarga ta'sir etadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy mazmundagi umumijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Huquq funksiyalari quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

a) huquq funksiyalari huquqning mohiyatidan kelib chiqadi va uning jamiyatdagi vazifasi bilan belgilanadi. Funksiya – huquq mohiyatining ijtimoiy munosabatlar mazmunida ifodalanishidir;

b) huquq funksiyalari – ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishning shunday yo'nalishiki, ularni amalga oshirish ehtiyoji huquqning ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi zaruriyatidan kelib chiqadi;

d) funksiyalar huquqning eng muhim sifatlarini ifoda etadi va jamiyat rivojining hozirgi bosqichida huquq oldida turgan tub vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi;

e) huquq funksiyalari ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soluvchi faol harakati yo'nalishini aks ettiradi. Shu bois, huquq funksiyalarining muhim belgilaridan biri uning harakatlanishi, ta'sir etishidir;

f) huquq funksiyalari doimiylik xususiyatiga ega, bu ularning uzluksizligi, uzoq muddat harakatlanishini anglatadi.[1]

Davlat boshqaruvi davlat faoliyatining bir ko'rinishi hisoblanar ekan, unga davlat funksiyalari xos bo'lib hisoblanadi. Lekin shu bilan birga, boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi funksiyalar ham mavjuddir.

Boshqaruv funksiyalari muammosini o'rganish – boshqaruv tuzilishi va tizimini tashkil etish, boshqaruv organlarining obyektiv ehtiyojlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Boshqaruv funksiyalari – bu boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan aniq yo'naltirilgan ta'sir etishi (tashkil etish, tartibga solish, nazorat qilish) hisoblanadi.

---

[1] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining hududshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotlan uchun \ Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U. – T.: «Iqtisodiyot va hudud talabalari dunyosi» nashriyot uyi, 2000. 173, 223-b.

Boshqaruv funksiyalari aniq mazmunga ega bo'lib, boshqaruvning uslublari va shakllari yordamida (masalan, majburlov choralari, huquqiy aktlarni qabul qilish, bo'ysinuvchilik ta'siri va h.k.lar) amalga oshiriladi.

Yuridik adabiyotlarda boshqaruv funksiyalari bilan bir qatorda boshqaruv organlarining funksiyalari (ya'ni, ularning obyektga nisbatan boshqaruv ta'siri)ni ham uchratish mumkin. Lekin hozirgi jarayondagi dolzarb masalalardan biri — bu boshqaruv funksiyalarining boshqaruv organlari funksiyalaridagi aniq o'rnini va huquqiy o'rnatilishini belgilab olish hisoblanadi.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda boshqaruv funksiyalari ijro hokimiyati (davlat boshqaruvi) organlarining funksiyasi tariqasida ko'rsatib o'tilgandir.

Umumiy holda, davlat va uning organlarining funksiyalari — bu davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, uning ijtimoiy holatini belgilaydi, inson va fuqarolar huquqlari va erkinliklarining amalga oshirilishini, davlat va jamiyatni samarali hamda bir normada boshqarishni ta'minlaydi.

Davlat boshqaruvi funksiyalari obyektiv qonuniyatlar bilan izohlanadi. har bir funksiyaning mazmuni davlat va davlat boshqaruvi oldida turgan maqsad, boshqaruv obyekti xususiyatlari bilan belgilanadi hamda davlat boshqaruvi organlarining obyektlarga tashkiliy-huquqiy · ta'sir ko'rsatishining yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Davlat boshqaruvining asosiy funksiyalari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *davlat boshqaruvi organlari faoliyatini axborot bilan ta'minlash funksiyasi*, ya'ni davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni yig'ish, olish, qayta ishlash va baholash;

2) *davlat boshqaruvi tizimi rivojlanishining istiqbolini belgilash funksiyasi.* Istiqbolni belgilash — bu professional tajriba va amaliyot hamda ilmiy-nazariy yutuqlarga asoslangan ma'lumotlarga tayanib, davlat boshqaruvi va boshqaruv organlari faoliyati rivojlanishidagi o'zgarishlarni, shuningdek, ma'lum bir hodisalar va jarayonlarning natijalarini oldindan ko'ra bilishdir. Istiqbolni belgilash boshqaruv qarorlarini qabul qilishda juda muhimdir. Boshqaruvning bu funksiyasisiz ijtimoiy jarayonlarning natijalarini, istiqboldagi jamiyat holatini, davlat organlari faoliyatining samaradorligini aniqlash mumkin emas;

3) *rejalashtirish funksiyasi* – bu davlat boshqaruvi tizimidagi u yoki bu jarayonlarning yo'nalishlarini, rivojlanishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, davlat funksiyalarining amalga oshirilishini belgilash hisoblanadi. Bundan tashqari, rejalashtirish funksiyasi orqali davlat faoliyati va boshqaruvini takomillashtirish va isloh qilishning maqsad va vazifalari hamda yo'nalishlari belgilanadi. Mazkur funksiyani amalga oshirish jarayonida davlat boshqaruvi turli sohalardagi aloqalarning rivojalanish dasturlari, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari faoliyati va tuzilishini o'zgartirish hamda yaxshilash bo'yicha dasturlar ishlab chiqiladi;

4) *tashkil etish funksiyasi* – bu o'rnatilgan tartib va prinsiplarga asoslanib davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, boshqaruv tizimida boshqaruvchi va boshqariluvchining tuzilishini belgilashdir. Tor ma'noda, tashkil etish – davlat organlari, davlat personali, davlat boshqaruvi jarayonlari tuzilishini belgilash hisoblanadi. Tashkil etish faoliyati – davlat boshqaruvi organlarining funksiyalanishini ta'minlovchi harakatlar va qarorlarni o'z ichiga oladi;

5) *farmoyish berish funksiyasi*, ya'ni davlat organlari vakolatlarini va mansab majburiyatlarini amalga oshirish, davlat faoliyatining belgilangan tartibini ta'minlash bo'yicha vujudga keladigan boshqaruv munosabatlarini kundalik tartibga solishdir. Farmoyish berish – bu rahbar davlat xizmatchilari (mansabdor shaxslar) tomonidan tegishli ko'rsatmalarni berishdir;

6) *rahbarlik qilish funksiyasi* – davlat organlari (davlat xizmatchilari), boshqariluvchi obyektlar faoliyatining va ayrim harakatlarining qoidalarini va normalarini o'rnatish hisoblanadi. Rahbarlik qilish bilan bir qatorda «*umumiy rahbarlik*» atamasi ham mavjud. Umumiy rahbarlik – bu davlat faoliyati mazmunini belgilashdir;

7) *muvofiqlashtirish funksiyasi* – bu turli davlat boshqaruvi organlari (davlat xizmatchilari) faoliyatini davlat boshqaruvining umumiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun yo'naltirishdir. Muvofiqlashtirish orqali boshqaruv faoliyatining tizimi tashkil etiladi va uning funksiyalanishi ta'minlanadi. Masalan, bir necha mustaqil davlat organlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'zining tashkiliy tuzilmasiga, maqsad va vazifalariga ega bo'lsa hamda ma'lum bir muammoni ularning birgalikdagi faoliyati orqali hal etish lozim bo'lganda, muvofiqlashtirish vakolatiga ega bo'lgan davlat organini tashkil etish ehtiyoji vujudga keladi;

8) *nazorat qilish funksiyasi* – davlat boshqaruvi tizimi va uning tuzilishining o'rnatilgan standart va normalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini, davlat organlari faoliyatini va ayrim boshqaruv

subyektlari harakatining natijalarini, davlat boshqaruvida belgilangan va amalga oshirilgan holatlarni o'rganish va baholashdir. Nazorat qilish – bu boshqaruv faoliyatining sifati ustidan kuzatish, kamchilik va xatolarni hamda boshqaruv harakatlarining va qabul qilingan aktlarning qonuniylik va maqsadga muvofiqlik prinsiplariga mos kelishini aniqlashdan iborat. Davlat faoliyatining ma'lum bir sohalarida u yoki bu harakatlarni amalga oshirish ustidan davlat hokimiyati organlari nazoratni o'rnatadilar. Nazoratni amalga oshirish vaqtida ketma-ketlik, asoslantirilganlik, oshkoralik, obyektivlik, qonuniylik va tezkorlikka amal qilish kerak. Nazoratning keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri – *nazorat* hisoblanadi. Nazorat, odatda, ma'lum bir harakatlarning (qarorlarning) qonuniyligini tekshirish maqsadidagina amalga oshiriladi (*kontrol va nazoratning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari ushbu darslikning 26-bobida ko'rsatib o'tilgan*);

9) *tartibga solish funksiyasi* – bu davlat boshqaruvi tizimini va uning funksiyalanishini tashkil etish jarayonida boshqaruv uslublari va usullaridan foydalanishdir. Tartibga solish – jamoat tartibini va xavfsizligini, iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligini, demokratik raqobat asoslarini, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida boshqaruv obyektlari hamda turli huquq subyektlari uchun umummajburiy bo'lgan ko'rsatmalarni o'rnatish hisoblanadi. Tartibga solish funksiyasi bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, normativ huquqiy akt orqali ma'lum bir sohadagi xulq-atvor qoidalarini belgilash yoki boshqaruvning aniq jarayonlarini (sertifikatlash, litsenziyalash, soliqqa tortish, ro'yxatga olish va h.k.lar) o'rnatish;

10) *hisobga olish funksiyasi* – miqdor shaklida ifodalangan axborotlarni, moddiy resurslar harakatini, boshqaruv faoliyatini amalga oshirish natijalarini, davlat organlari vakolatlarini, davlat boshqaruv qarorlarini, boshqaruv uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarning mavjudligi va harakatini inobatga olishdir. hisobga olish funksiyasi – qandaydir predmetlarning, hujjatlarning, faktlarning mavjudligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

4-§. Davlat boshqaruvining asosiy prinsiplari

Davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarini uning prinsiplarida ko'rishimiz mumkin. Har qanday davlat faoliyati singari davlat boshqaruvi ham, ma'lum bir prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Prinsiplarga bo'ysinishlik xosdir. Boshqaruv prinsiplari obyektiv qonuniylikni aniqlashning va undan aql-idrok bilan foydalanish shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Prinsiplarga so'zsiz rioya qilish lozimdir. Agar boshqaruv prinsiplari buzilsa, u bevosita amaliy vazifalarni hal etishga to'sqinlik qiladi.

Boshqaruv prinsiplari turli-tumandir. Shu bilan birga, ular chambarchas bog'liqdir. Prinsiplarning ba'zi birlariga rioya qilish boshqalarining amalga oshirilishiga ko'maklashadi va aksincha, ma'lum bir prinsipga rioya etmaslik boshqalarining buzilishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarini tahlil qiladigan bo'lsak, davlat boshqaruvining quyidagi asosiy prinsiplarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1) qonunning ustunligi va hamma uchun majburiyligi prinsipi. Bu prinsipga asosan O'zbekiston Respublikasining barcha qonunlari va boshqa huquqiy normalari muqaddas bo'lib, ularga barchaning amal qilishi lozim. Bu prinsip asosiy qonunimiz bo'lgan — Konstitutsiyaning 15-moddasida o'z ifodasini topgan. Unga binoan O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari qat'iy intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat jihatidan ustuvor bo'lmasa, qonunlar va milliy an'analar, urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar hurmat qilinmasa, demokratik huquqiy davlatni barpo etib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda u asosda qabul qilingan qonunlar oldida barcha birday mas'uldir. Qaysi bir jamiyatda qonunlar bajarilmay qog'ozda qolib ketsa, unday jamiyat aslo ravnaq topmaydi, adolatga erisha olmaydi. Qonun amalda bo'lishi kerak. Qonun qabul qilindimi, uning ijrosi ham qat'iy bo'lmog'i lozim. Aynan shu yerda davlat boshqaruvining asosiy vazifasini ko'rishimiz mumkin, ya'ni davlat boshqaruvi — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarini ijro etishga xizmat qiladi.

Demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri — barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashdir. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi:

birinchidan — ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iyan hukmronligini, hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, fuqaro qonunga bo'ysunish majburiyatidan holi bo'lishi mumkin emasligini anglatadi;

ikkinchidan — asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun yo'li bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganlik uchun huquqiy javobgarlikka tortiladi.

Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim. Zotan, ulug' bobokalonimiz Amir Temur ta'kidlaganidek, «Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik baladi».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonda yangi jamiyat qurish va bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun barcha kishilarning qonunga amal qilishini muhim prinsip deb hisoblab, o'zining «Qonun va adolat ustuvorligining hayotbaxsh manbayi» nutqida: «Qonun, yana bir bor qonun — katta-yu kichik, jinsidan, millati, e'tiqodi va mansabidan qat'i nazar, — barchamiz uchun ustuvor bo'lmog'i darkor!», - deb ko'rsatadi[1];

2) qonuniylikning yagonaligi prinsipi. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlar bir xilda qo'llanilishini, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish yo'liga o'tdi. Jahon tajribasidan ma'lumki, insonning asosiy huquq hamda erkinliklarini qat'iy himoya qilmasdan va uni amalda ta'minlamasdan turib, jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas.

Inson huquqlarini tushunib yetish uchun nihoyatda muhim bo'lgan odamlarning tabiiy tengligi g'oyalari qadim yunon mutafakkirlari Protagor, Antifont, Likofron va qadim Xitoy donishmandi Konfutsiylarning siyosiy hamda huquqiy ta'limotlarida ilgari surilgan. Huquq subyekti va qonun oldidagi tenglik tushunchalarini ishlab chiqishdagi xizmatlar qadimgi Rim huquq-

---

[1] Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. — T.: «O'zbekiston», 1999. 252-b.

shunoslariga tegishli. Sitseron «hamma qonun ta'siri ostida bo'lishi kerak», deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasida qonunning yagonaligi va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi:

birinchidan – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari uning barcha hududida amal qilishini hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlar qonun asosida qabul qilinib, ularga zid bo'lmasligini, talab qiladi;

ikkinchidan – O'zbekiston qonunlari uning ijtimoiy va davlat tuzumini, barcha millat va elatlarning manfaatlarini qo'riqlaydi;

uchinchidan – O'zbekiston Respublikasining butun hududida qonunlar bir xilda qo'llaniladi;

3) davlat boshqaruvining xalq manfaatlari yo'lida amalga oshirilishi prinsipi. Konstitutsiyaning 7-moddasiga binoan xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Huquqiy demokratik davlatlarning olib boradigan siyosatlarini xalqning xohish-irodasi belgilab berishi lozim. Mazkur siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekistondagi barcha fuqarolarning farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Jumladan, Konstitutsiyaning 14-moddasida davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi, deb ko'rsatilgan;

4) davlat boshqaruvida xalqning ishtiroki prinsipi. O'zbekiston Respublikasida qonuniylikni ta'minlashda va huquqiy tartibotni mustahkamlashda keng omma ishtirok etadi. Bu holatni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir necha moddalarida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Konstitutsiyaning 9-moddasiga binoan jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga binoan esa O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tizimini bosqichma-bosqich shakllantirish – mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat

va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omilidir. «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan siyosiy konsepsiyaning asl mohiyati jamiyatni boshqarishda asta-sekin nodavlat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirok etishini tobora kengaytirishda ko'rinadi. Barcha demokratik davlatlarda bo'lgani kabi bizning davlatimizda ham jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tizimlarining mavqeyi oshib bormoqda.

Konstitutsiyaning 35-moddasiga binoan esa har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Demak, fuqarolarning siyosiy faolligi davlat organlariga, ularning mansabdor shaxslariga murojaat qilishi orqali ham amalga oshiriladi;

5) davlat boshqaruvining aholi madaniy darajasi bilan bog'liqligi prinsipi. Qonuniylik aholi madaniy darajasi bilan, davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi.

Insonlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati qancha yuqori bo'lsa, qonuniylik va huquq tartibot ta'minlanadi, qonun buzilishi shunchalik kam bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-iyundagi «huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida»gi Farmonliga[1] ko'ra huquqiy demokratik davlat qurilishi, qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolat qaror topishini ta'minlash, ma'naviy va madaniy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish, aholining huquqiy bilimi va ongini yuksaltirish, jamiyatni siyosiy faolligini oshirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va jamoatchilik fikrini o'rganish borasidagi ishlarni yaxshilash maqsadida:

a) aholining huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar – davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi;

b) respublikada huquqiy davlat qurilishi yo'lida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar va bu borada qabul qilingan qonunlar mohiyatini aholi tomonidan chuqur anglab yeti-

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari. 1995–1999. – T.: «Adolat», 2000, 153–157-betlar.

shiga har tomonlama ko'maklashish – davlat boshqaruv, huquqni muhofaza qilish idoralari, o'quv yurtlari hamda huquqshunos olimlarning eng dolzab vazifasi ekanligi ko'rsatib o'tildi.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 29-avgustda «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»[1] to'g'risidagi qarori ham qabul qilindi. Milliy dasturning asosiy vazifasi sifatida – huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirib, keng xalq o'rtasida huquqiy tarbiyani mustahkamlab, aholi madaniy darajasini ko'tarish vazifasi belgilab qo'yildi;

6) davlat boshqaruvining demokratik jarayonlar bilan bog'langanligi prinsipi. Davlat boshqaruvi demokratiya bilan uzviy bog'liqdir. Xalq davlat hokimiyatini o'zi ishonch bildirib saylagan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda hokimiyat organlari orqali amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Davlat boshqaruvi – demokratik tartiblarga bo'ysunishni talab qiladi, demokratik tartiblar, o'z navbatida, qonuniylikni mustahkamlash va rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Yu.M.Kozlov va L.L.Popov davlat boshqaruvining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadilar:

1) *jamiyat hayotida shaxs va uning manfaatlari ustunligi prinsipi.* Boshqaruv davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida, birinchi navbatda shaxs va uning manfaatlari ustunligini inobatga olishi lozim. Aynan davlat boshqaruvini amalga oshirish orqali shaxslarning huquqlari va erkinliklari amalga oshiriladi, ularning muhofazasi ta'minlanadi;

2) *davlat boshqaruvi hokimiyat tizimining bo'linishi asosida amalga oshirilishi prinsipi.* Davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishi, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi keng qabul qilingandir. Davlat boshqaruvining samarali amalga oshirilishi uchun, albatta, davlat organlarining ho-

[1] Ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997, №9.

kimiyat-vakolatlari qonuniy tartibda aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lishi lozim. Mazkur prinsip – har bir davlat organining qanday faoliyat bilan shug'ullanishini, qanday vakolatlarga ega ekanligini, ya'ni davlat organlari faoliyatining doirasini belgilab beradi;

3) *qonuniylik prinsipi.* Har qanday faoliyat, shu jumladan, davlat boshqaruvi ham, birinchi navbatda qonunlar asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi lozim. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari qonunlarga tayangan holda o'z faoliyatlarini olib borishlari lozim;

4) *oshkoralik prinsipi.* Davlat boshqaruvi sohasida insonlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan har qanday qonun hujjati, ommaga e'lon qilinmasdan turib tatbiq etilishi mumkin emas. Davlat boshqaruvining samarali amalga oshirilishida – davlat organlarining faoliyati, qabul qilinayotgan qonun hujjatlariga nisbatan fuqarolar (jamoat birlashmalari) bildirgan fikrlarni inobatga olish ham katta ahamiyatga egadir;

5) *javobgarlik prinsipi.* Qonunchilikda davlat organlarining, uning mansabdor shaxslarining va fuqarolarning qonun talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida, majburlov choralari ham o'rnatiladi. Bu nafaqat davlatning, balki jamiyatning ham, alohida shaxslarning ham huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.[1]

Ba'zi bir huquqshunos olimlar davlat boshqaruvining asosiy prinsiplari bilan bir qatorda, tashkiliy prinsiplarni ham ko'rsatib o'tishadi. Masalan, X.R.Alimov o'zining ilmiy ishlarida, davlat boshqaruvining quyidagi tashkiliy prinsiplarini yoritib beradi:

– *funksiya va vakolatlarni taqsimlash prinsipi.* Mazkur prinsip orqali davlat boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlar hamda funksiyalar taqsimlanadi. Har bir davlat organi, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari o'zlarining oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun, o'zining quyi tuzilmasi o'rtasida vakolatlarni taqsimlashi lozim;

– *kompetensiya doirasida javobgarlik prinsipi.* Ushbu prinsip davlat organlari, ularning mansabdor shaxslarining berilgan vakolat doirasida javobgarlikka tortilishi mumkinligini nazarda tutadi;

– *boshqaruvda sohaviylik va hududiylikni inobatga olish prinsipi.* Mazkur prinsip davlat boshqaruvi qaysi sohada va qanday shaxslar doirasi bo'yicha amalga oshirilishini belgilab beradi;

---

[1] Административное право: учебник / Под ред. Ю. М.Козлова, Л.Л.Попова. – М.: «Юрист», 2000.

— *kollegiallik prinsipi.* Amaldagi qonun hujjatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har bir davlat boshqaruvi organida yakka tartibda amalga oshiriladigan boshqaruv bilan bir vaqtda, kollegial boshqaruv ham mavjuddir. Davlat boshqaruvining deyarli barchasida turli ko'rinishdagi kengash va hay'atlar tuziladi. Kengash va hay'atlar tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv — kollegial boshqaruv hisoblanadi.[1]

Davlat boshqaruvining prinsiplari yuridik adabiyotlarda turlicha ko'rsatib o'tilgandir. Lekin ularning barchasi bir maqsad sari yo'naltirilgan bo'lib, davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirishni tartibga soladi.[2]

5-§. Davlat boshqaruvi va ijro hokimiyati

Ijro hokimiyati — O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi muhim kategoriyalardan biridir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan, barcha rivojlangan davlatlar singari, hokimiyat tizimining uchga bo'linishi prinsipini, ijro hokimiyati tushunchasini mustahkamladi. Jumladan, Konstitutsiyaning 11-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

Konstitutsiyaning 89-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir.

Konstitutsiyaning 98-moddasiga binoan esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Demak, ijro hokimiyati tushunchasi, birinchi navbatda Asosiy qonunda o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari. «*davlat boshqaruvi*» atamasi ham qonun hujjatlarida tez-tez uchrab turibdi. Bularning har birining mazmuni va ularning o'zaro munosabati qanday, degan savol vujudga kelishi mumkin.

Ijro hokimiyati — abstrakt siyosiy-huquqiy kategoriya bo'lib, davlat hokimiyati mavjudligini ko'rsatadi, qonunlarni va uning normalarini hayotga tatbiq qilish maqsadida amalga oshiriladi, davlat

---

[1] Alimov X.R. Ma'muriy huquq. Darslik. –T.: 1995-y., 6-b.

[2] Xojiev Ye.T., Samijonov F.R. Ma'muriy qonunchilik tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: 2005, 12–13-betlar.

organlarining doimiy funksiyalanishini, insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlaydi. Ijro hokimiyatining mazkur funksiyalarini bajarish orqali boshqaruv harakatlari amalga oshiriladi va boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. «Davlat boshqaruvi» atamasi esa, amaliy tashkiliy-huquqiy ma'noga ega. Davlat boshqaruvi — bu ijro hokimiyatini amalga oshirish shaklidir. Davlat boshqaruvi — bu davlat mexanizmining samarali va maqsadga muvofiq ishlashini ta'minlovchi davlat faoliyatidir. Huquq ijodkorligi, hokimiyat vakolatlarini va davlat majburlovini amalga oshirish hamda tartibga solish davlat boshqaruvining ajralmas elementlari hisoblanadi.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda ijro hokimiyati — siyosiy-huquqiy, davlat boshqaruvi esa — tashkiliy-huquqiy kategoriya sifatida ko'rsatib o'tiladi. Bu ikkala davlat-huquqiy kategoriya ham mavjud bo'lishga haqlidir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, davlat boshqaruvisiz davlat hokimiyati mexanizmining ishlashini tasavvur qilib bo'lmaydi.

«Ijro hokimiyati» tushunchasi «davlat boshqaruvi» tushunchasiga qaraganda torroq bo'lib, uning samarali funksiyalanishi — davlat boshqaruvi tizimini tashkil etish darajasiga bog'liqdir. Shu bilan birga, ijro hokimiyati — davlat boshqaruvi jarayonida amalga oshiriladigan hokimiyat vakolatlarining hajmi va xususiyatlarini belgilab beradi. Ijro hokimiyati organlari davlat boshqaruvi tashkiliy tuzilmasining asosini tashkil etib, turli ijtimoiy jarayonlarga, insonlarning harakatlari va faoliyatiga bevosita boshqaruv ta'sirini ko'rsatadi. Ijro hokimiyati boshqaruv shaklida va boshqaruv jarayonlari vositasida amalga oshiriladi.

Ijro hokimiyati — bu ma'lum bir munosabatlar tizimi bo'lib, uning asosiy elementlaridan birini — boshqaruv tashkil etadi. Ijro hokimiyati — davlat apparati maxsus tuzilmalari (davlat boshqaruv organlari)ning faoliyati orqali ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi.

Demak, davlat boshqaruvi — davlat faoliyatining shunday turiki, uning doirasida davlat hokimiyatining bir bo'lagi bo'lgan ijro hokimiyati amalga oshiriladi.

Yu.M.Kozlovning ko'rsatishicha, ma'muriy huquq fanini o'rganish — ijro hokimiyati tushunchasini va uning ijtimoiy ahamiyatini aniqlab olishdan boshlanadi. Ijro hokimiyati — alohida turdagi kategoriya hisoblanadi. Ijro hokimiyati — davlat hokimiyatining bir ko'rinishi bo'lib, u yoki bu masala bo'yicha qabul qilingan qarorlarni ijro etishdan iboratdir. Ijro hokimiyati faoliyati jarayonida

ijrochilik bilan bir vaqtda uning ikkinchi asosiy elementi – farmoyish berish ham vujudga keladi. Boshqacha aytganda, ijrochilikni farmoyish berishsiz tasavvur qilish mumkin emas.[1]

Ijro hokimiyati mohiyatiga ko'ra, A.P.Alyoxin fikricha, davlat boshqaruvi faoliyatining mazmunini tashkil etadi hamda birinchi navbatda uning funksional yo'naltirilganligini (ijrochilikni) ifoda etadi.[2]

Demak, ***ijro hokimiyati*** – bu birinchi galda davlat hokimiyatining asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

birinchidan – ijro hokimiyatini amalga oshirish jarayonida u yoki bu masala bo'yicha qabul qilingan qaror ijro etiladi. Ijro hokimiyati shunday davlat faoliyatiki, unda qonun va boshqa normativ hujjatlarda ifodalangan huquq normalari qo'llaniladi (ijro etiladi). Bu orqali – amaldagi qonunchilik talablarini bevosita va to'g'ridan-to'g'ri ijro etish; ijro hokimiyati ta'siri ostida bo'lgan obyektlarning normal va samarali ishini ta'minlash; fuqarolar huquqlari va erkinliklarining amalga oshirilishini, davlatning jamiyat oldidagi majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash maqsadiga erishiladi;

ikkinchidan – ijro hokimiyati – o'zini namoyon etishning alohida huquqiy shakllariga: normativ va yakka tartibdagi aktlarni qabul qilish vakolatiga ega. Mazkur shakllar orqali ijro hokimiyatini amalga oshirish jarayonidagi barcha asosiy vazifalar hal etiladi. Yuridik adabiyotlarda bu aktlar boshqaruvning huquqiy aktlari sifatida ham ko'rsatib o'tiladi;

uchinchidan – ijro hokimiyati – aniq subyekt ifodalanishiga ega, ya'ni ijro hokimiyatini amalga oshirish maxsus subyektlar zimmasiga yuklangan. Shu sababli, davlat-hokimiyat mexanizmida alohida bo'g'inni tashkil etuvchi ijro hokimiyati organlari mavjud.

Qonun hujjatlariga binoan ijro hokimiyati organlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, hokimlar boshchilik qiladigan ijroiya apparati va boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari kiradi.

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. – 2-е изд., прераб. и доп. – М.: «Юрист», 2003. С. 7-8.

[2] Алехин А.П., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. –М.: 1994. С. 13.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Boshqaruvning umumiy tushunchasi.
2. Boshqaruv mazmunini yoritib berishda kibernetika fanining ahamiyati.
3. Ijtimoiy hayotda ijtimoiy boshqaruvning tutgan o'rni.
4. Ijtimoiy boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Davlat boshqaruvi tushunchasi.
6. Davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Davlat boshqaruvi nazariyasi.
8. Davlat boshqaruvining turlari.
9. Davlat boshqaruvi funksiyalari va huquq funksiyalarining o'zaro nisbati.
10. Davlat boshqaruvi funksiyalari.
11. Davlat boshqaruvining asosiy prinsiplari.
12. Davlat boshqaruvining tashkiliy prinsiplari.
13. Davlat boshqaruvi va ijro hokimiyatining o'zaro nisbati.
14. Ijro hokimiyati tushunchasi.

2-bob. MA'MURIY HUQUQ –HUQUQ TARMOG'I SIFATIDA

1-§. Ma'muriy huquq tushunchasi

Oldingi bobda ko'rsatib o'tilganidek, ma'muriy huquq davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni, ya'ni davlat organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyatida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Davlat boshqaruvi o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hayotning eng muhim tomonlarini qamrab oladi. Bu jarayonda xo'jalik tashkilotchilik, ijtimoiy-madaniy ishlar amalga oshiriladi, ma'muriy-siyosiy masalalar hal qilinadi.

Davlat boshqaruvini tashkil etish va boshqaruvni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan turli-tuman ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi – *ma'muriy huquq* tarmog'ini tashkil etadi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish – munosabatlarning barcha ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalarini ma'muriy huquq normalarida mustahkamlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday qoidalarni o'rnatish orqali, davlat boshqaruvi va u bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda vujudga keladigan funksiyalarni amalga oshirishning muayyan huquqiy tartibini yaratadi.

Aniq ijtimoiy munosabat ma'muriy munosabat bo'lib, *birinchidan* – unda tegishli davlat organi, albatta qatnashadi; *ikkinchidan* – davlat boshqaruvi organi unga berilgan vakolatlardan foydalanganida ma'muriy huquqning tartibga solish ta'siriga uchraydi.

Davlat boshqaruvi organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning deyarli barchasi ma'muriy huquq normalari yordamida amalga oshiriladi.

Yu.N.Starilov ko'rsatib o'tishicha, ma'muriy huquq – ommaviy (davlat) huquqining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, ijro ho-

kimiyati organlari tizimini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishi sohasidagi munosabatlarni, samarali davlat xizmatini tashkil etishni, ijro hokimiyati funksiyalanishida qonuniylikni ta'minlashni tartibga soladi.

Ma'muriy huquq – huquq tizimining yirik, murakkab va rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu uning tartibga solinuvchi predmetining o'ziga xos xususiyatlaridan, munosabatlarning keng qamrovliligidan kelib chiqadi. Ijro hokimiyati, boshqaruv faoliyati va boshqaruvning o'zi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olganligi sababli, ma'muriy huquq – huquq tizimida markaziy o'rinni egallaydi hamda boshqa huquq tarmoqlariga ta'sir ko'rsatadi yoki, aksincha, ularning ta'siriga uchraydi.

Ma'muriy huquqda ommaviy manfaatlar quyidagi huquqiy vositalar orqali o'rnatiladi va amalga oshiriladi:

1) ommaviy manfaatlarni huquqiy tartibga solish, uning xususiyatlarini, mazmuni va turlarini o'rnatish;

2) ommaviy manfaatlarning ustunligini normativ hujjatlarda tan olish, ularga bevosita rioya etilishini va majburiyligini, ommaviy manfaatlarni himoya qilishning shakllari va turlarini o'rnatish;

3) ommaviy manfaatlar buzilgan taqdirda, yuridik javobgarlik choralarini belgilash.[1]

Ma'muriy huquq normalari davlat huquqi normalaridan kelib chiqqan holda, avvalo davlat boshqaruviga xos bo'lgan xususiyatlarni va uning boshqa davlat faoliyati turlari bilan (konunchilik, sud, prokuror nazorati) o'zaro munosabatini, shuningdek, davlat boshqaruvi prinsiplarini mustahkamlaydi.[2]

Ma'muriy huquq – davlat huquqi normalarini yanada aniqlashtirib va to'ldirib, fuqarolarning ko'pgina huquq va majburiyatlarini, ularning boshqaruv organlari orqali amalga oshirish mexanizmini hamda ushbu huquqlarni har qanday buzilishlardan himoya qilishni belgilaydi.

Ma'muriy huquq – davlat organlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini, uning vazifa va maqsadlarini, vakolatlari hamda huquqiy maqomining boshqa tomonlarini, tuzilishi va faoliyat jarayonini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq – boshqariluvchi obyektlarnnng aloqalarini tartibga solib turadi. Ushbu normalar rejalashtirish tartibini, mod-

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 57-63.

[2] Xudoyberdieva V.J., Xojiev Ye.T. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI nashriyoti, 2000. 35–36-betlar.

diy resurslarni taqsimlashni, ish haqini belgilashni ham mustahkamlaydi.

Ma'muriy huquq – jamoat tashkilotlari va jamoat organlarining huquqiy maqomini o'rnatishda katta ahamiyatga egadir.

Ma'muriy huquq nafaqat boshqaruvni, balki boshqariluvchi faoliyatni ham tartibga soladi.

Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy (ommaviy) huquqning xususiy huquqdan farqlash muammosiga va uning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'muriy huquq va xususiy huquq tarmoqlarini farqlovchi bir necha nazariyalar mavjuddir. Jumladan, *manfaatlar nazariyasi* – alohida huquqiy normalar (prinsiplar) bilan ta'minlanadigan manfaatlar turini belgilab beradi, shuningdek, aniq ijtimoiy manfaatlarni va harakatlarni huquqiy tartibga solishning yo'nalishlarini ko'rsatib beradi. Masalan, bu nazariyaga ko'ra, ma'muriy huquq – davlat manfaatlariga, xususiy huquq esa xususiy manfaatlarga xizmat qiladi. Ma'muriy huquq – ijtimoiy-davlat hayoti asoslarini, davlat, uning organlari va xizmatchilarining funksiyalanishi prinsiplarini o'rnatish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimidir. Lekin manfaatlar nazariyasi ma'muriy huquq va xususiy huquq o'rtasidagi farqni to'liq va aniq ochib bera olmaydi. Chunki, ko'pgina huquqiy normalar bir vaqtning o'zida ham ommaviy manfaatlarni, ham xususiy manfaatlarni tartibga soladi.

Subordinatsiya (bo'ysinuvlik) nazariyasi – ma'muriy huquq va xususiy huquqni farqlashdagi asosiy nazariya bo'lib, huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarning xususiyatini belgilab beradi. Ushbu nazariya ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida bo'ysinuvning mavjud bo'lishini ko'rsatib beradi. Ma'muriy huquqda yuqori turuvchi va quyi turuvchi subyektlar bir-biri bilan bo'ysinuv orqali bog'langandir. Xususiy huquqda esa munosabatlarda ishtirok etuvchi huquq subyektlari bir xildagi, teng huquqiy maqomga ega. Ma'muriy huquq – munosabatlarni normativ hujjatlar bilan tartibga solishning bir tomonlama xususiyatiga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Mazkur nazariya tashkil etish, cheklov va majburlov vositalari orqali davlatning (hokimiyat boshqaruv faoliyatining) ustunligini ifodalaydi.

Huquqiy normalarning taalluqliligi va tatbiq etilishi nazariyasi – huquqiy normalarning turli huquq subyektlariga qo'llanilishini ko'rsatadi. Ma'muriy huquq – davlat va boshqa vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan o'rnatiladigan hamda davlat va davlat tuzilmalari, nodavlat tuzilmaylari, fuqarolar o'rtasidagi

munosabatlarni tartibga solishda qo'llaniladigan huquqiy normalarni o'zida ifoda etadi.

Demak, ma'muriy huquqni ommaviy va xususiy huquq tarmoqlari bilan farqlaganda, ularning har biri xususiyatlari aniqlanganda – uning mazmunini tushunib olish mumkin. ***O'zbekiston Respublikasi ma'muriy huquqi*** – bu O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining mustaqil tarmog'i bo'lib, davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat.

2-§. Ma'muriy huquq predmeti

Ma'muriy huquq ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar guruhini tartibga solib, mazkur munosabatlar uning predmetini tashkil etadi. *Huquqiy tartibga solish predmeti* – bu ijtimoiy munosabatlar doirasidir.

Ijtimoiy munosabatlar o'zining xususiyatiga ko'ra huquq normalari o'rtasidagi alohida bog'liqlikni vujudga keltiradi va ularni yaqinlashtiradi. Shu sababli, ijtimoiy munosabatlar huquq normalarini ma'lum bir tarmoqqa birlashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat va huquq nazariyasi fani[1]ga ko'ra *huquqiy tartibga solish predmeti quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi*:

– huquqiy tartibga solish predmeti subyektlari;

– subyektlarning xulq-atvori, xatti-harakatlari;

– atrof-muhit obyektlari;

– ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi ijtimoiy faktlar (hodisa va harakatlar).

Demak, huquqiy tartibga solish predmeti – bu huquqiy ta'sir doirasidagi barcha ijtimoiy munosabatlardir.

Huquqiy tartibga solish predmeti shaxslar o'rtasida vujudga keladigan va bekor bo'ladigan aniq munosabatlar doirasi bo'lib, ular obyektiv ravishda huquqiy tartibga solishga muhtojdir.

Jamiyatda vujudga keladigan munosabatlar turlicha bo'lgani holda, ular muayyan *umumiy xususiyatlar*ga ham egadir: *birinchidan*, bu munosabatlar – shaxslar uchun hayotiy muhim bo'lgan munosabatlardir; *ikkinchidan*, bu munosabatlar – stixiyali tarzda

[1] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun / Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U.: / Mas'ul muharrir: X.B.Boboev, H.T.Odilqoriyev / – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000 y. 318–319-betlar.

bo'lmay, balki doimo aniq maqsadga yo'naltirilgan munosabatlardir; *uchinchidan*, bu munosabatlar – barqaror, ya'ni takrorlanib turadigan munosabatlardir; *to'rtinchidan*, bu munosabatlar – shaxslarning xatti-harakatlari orqali ifodalanganligi sababli, ularni nazorat qilish mumkin.

Ma'muriy huquq fani olimlarining aksariyati[1], ma'muriy huquqning predmetiga davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan quyidagi ijtimoiy munosabatlar guruhini kiritadi:

1) tashkiliy jihatdan biri ikkinchisiga bo'ysunadigan davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi munosabatlar (masalan, vazirlik va davlat qo'mitalarining ularga bo'ysungan boshqarma va bo'limlari o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar);

2) *bir-biriga bo'ysunmaydigan davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi munosabatlar* (masalan, ikki vazirlik, vazirlik va davlat qo'mitasi o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar);

3) *davlat boshqaruvi organlari va ularga bo'ysunadigan korxona, muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar*;

4) *davlat boshqaruvi organlari va jamoat birlashmalari o'rtasidagi munosabatlar*;

5) *davlat boshqaruvi organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar.*

Qayd etilgan barcha ijtimoiy munosabatlarda davlat organi ishtirok etadi. Bu qonuniydir, chunki boshqaruv faoliyati davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllaridan biridir.

Davlat boshqaruvi sohasida davlat nomidan harakat qiladigan va uning xohish-irodasini ifodalaydigan organning ishtirokisiz, ma'muriy huquq predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar bo'lishi mumkin emas. Shu sababli, ikki fuqaro o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar – ma'muriy-huquqiy munosabatlar hisoblanmaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida shartnomalar asosida vujudga keladigan munosabatlar ham ma'muriy huquq predmetiga kirmaydi, chunki ular fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan shartnoma munosabatlari hisoblanadi.

---

[1] Алехин А.П., Кармоликий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. – «Зерцало», 1998; Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др./ – Т.: «Адолат», 1999; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004; Козлов Ю.М. Административное право. – М.: «Юрист», 2003; **Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004.**

3-§. Ma'muriy huquqning tartibga solish uslubi

Huquq tizimida huquq tarmoqlariga ajratishning asoslaridan biri – bu huquqiy tartibga solish uslubidir.

Har bir huquq tarmog'ining huquqiy tartibga solish predmeti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uslubi ham o'ziga xos bo'lishini taqozo etadi.

Huquqiy tartibga solish uslubi – jamiyatdagi mavjud munosabatlarga huquq ta'sirida qo'llaniladigan usul, vosita va yo'llar yig'indisidan iboratdir. Huquqiy tartibga solish uslubi uzoq tarixiy jarayonda shakllangan bo'lib, davlat undan huquq normalarini yaratishda va ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi aloqlarni tartibga solishda foydalanadi.

Huquqiy tartibga solish uslublarini mazmun-mohiyatiga ko'ra ikki guruhga: dispozitiv va imperativ uslublarga bo'lish mumkin.[1]

Har qanday huquq tarmog'i singari ma'muriy huquq ham, o'zining tartibga solish uslubiga egadir. Ma'muriy huquq tartibga solish funksiyasini amalga oshirib, davlat boshqaruvi jarayonidagi munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini tartibga soluvchi huquqiy vositalar yoki uslublarning muayyan majmuyidan foydalanadi.

Tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi bo'yicha, ya'ni predmet bo'yicha amaldagi huquq tarmoqlari ko'pincha o'zaro juda yaqin bo'lib, ayrim hollarda o'zlarining asosiy ko'rinishlarida hatto bir-biriga mos ham keladi.

Huquqning har qanday tarmog'i huquqning o'z tabiatida joylashgan ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etishning uch uslubidan foydalanadi, bular: ***yozma buyruq, ko'rsatma; man etish, taqiqlash; ruxsat berish.***

Yozma buyruq, ko'rsatma – huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatni amalga oshirish, ya'ni boshqacha emas, balki aynan shunday harakat qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri yuridik majburiyatni zimmaga yuklash. ***Man etish, taqiqlash*** – amalda bu ham ko'rsatma, ammo u teskari, ya'ni huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatlarni amalga oshirmaslik bo'yicha yuridik majburiyatni zimmaga yuklashdir.

---

[1] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun / Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U.: / Mas'ul muharrir: Boboyev X.B., Odilqoriyev H.T. / - T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000-y. 320-b.

Ruxsat berish – huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatlarni o'z xohishi bo'yicha amalga oshirish uchun yuridik ruxsat berilishidir.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning ko'rsatilgan uslublaridan huquqni u yoki bu tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalaniladi.

Qayd etilganidek, ma'muriy huquq tartibga solishning o'z predmetiga ega bo'lib, xususan, bu – davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Ushbu faoliyat davlat faoliyatining boshqa turlaridan o'zining vazifalari, maqsadli yo'nalishi va namoyon bo'lish shakllari bilan farq qiladi.

Ma'muriy huquqiy tartibga solishga davlat organi yoki mansabdor shaxs tomonidan chiqariladigan ko'rsatmalar xosdir. Ma'muriy munosabatlarning boshqa tomoni ushbu ko'rsatmaga bo'ysunishga majbur. Bu shuni anglatadiki, davlat organining hokimiyat ko'rsatmalari yordamida davlat amalda o'zining boshqaruv faoliyati sohasidagi vakolatlarini amalga oshiradi.

Ma'muriy huquqiy tartibga solish uchun boshqa bir xususiyat ham xos bo'lib, u bir tomonning o'z xohish-irodasini bildirishidir.

Demak, davlat nomidan harakat qiladigan va ma'muriy munosabatlarda uning manfaatlarini ifoda etadigan, yuqorida ko'rsatilgan organlarning o'z xohish-irodasini bildirishi – bir tomonlama va majburiy bo'lishi yaqqol ko'rinadi. Bunda, davlat boshqaruvi faoliyati sohasida tomonlarning yuridik jihatdan tengsizligi vujudga keladi.

Aynan mana shu sababli, *ma'muriy huquqning asosiy uslubi, ya'ni* ma'muriy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish uslub va vositalari – ***davlat-hokimiyat ko'rsatmalari uslubi*** hisoblanadi. Ushbu uslubning qo'llanishi jamiyatning muhim ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan boshqaruvni tashkil etish va amalga oshirish zarurati bilan belgilanadi.

Ma'muriy huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga xos bo'lgan davlat-hokimiyat ko'rsatmalari mazmuni turlichadir. Davlat boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xohish-irodasining bir tomonlamaligi va majburiyligi nafaqat ma'muriy huquq tomonidan belgilanadigan to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar uchun, balki taqiqlar uchun ham tegishlidir. Ular, shuningdek, ma'muriy munosabatlar tomonlariga axloq qoidalarini mustaqil tanlash huquqini beradigan ruxsat berishga ham xosdir. Biroq ruxsat berilgan harakatlarni bajarish ma'muriy huquq normalari

bilan belgilangan qat'iy umumiy qoida doirasida amalga oshirilishi shart. Bu ma'nodagi ruxsat berish bir tomonlama xususiyatdagi ko'rsatmani go'yoki to'ldiradi, o'ziga tegishli huquqlarni amalga oshirish to'g'risidagi masalani mustaqil hal etish huquqiga ega bo'lgan tomon esa, yuridik jihatdan ma'muriy huquqning umumiy qoidalariga bo'ysinadi.

Ma'muriy huquq ayrim hollarda bir tomonlama hujjatni qabul qilishdan oldin u yoki bu masalalarni birgalikda kelishish, muhokama etish va ko'rib chiqish kerakligini nazarda tutadi. Davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlarning ko'rsatmalari ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ko'pincha tavsiyalar bilan birga beriladi. Boshqacha aytganda, ma'muriy huquqiy tartibga solishning asosiy uslubi – davlat-hokimiyat ko'rsatmalari kelishish va tavsiyalar berish kabi uslub va usullar bilan to'ldirilishi mumkin.

Shunday qilib, ma'muriy huquq predmeti bilan ma'muriy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos birlashuvi ma'muriy huquqni huquqning mustaqil tarmog'iga ajratish imkonini beradi.

4-§. Ma'muriy huquqning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o'rni

Boshqaruv jarayonida turli xildagi huquq normalari ta'siri ostida bo'ladigan va ma'muriy huquq predmeti doirasiga kirmaydigan munosabatlar tartibga solinadi. Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi turli tarmoqlarining o'zaro munosabati vujudga keladi.

Ma'muriy huquq fani konstitutsiyaviy huquq va moliya huquqi fanlariga juda yaqin turadi. Lekin shu bilan birga bu huquq tarmoqlari o'zining tartibga solish predmeti (ijtimoiy munosabatlar doirasi) va o'ziga xos xususiyatlariga qarab bir-biridan farqlanadi.

Konstitutsiyaviy huquq fani huquq tizimida alohida o'rinni egallaydi. Unda davlatning ijtimoiy tuzilishi va davlat siyosatining asoslari, davlat bilan shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilish, davlat organlari tizimining asoslari, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, ekrinliklari va burchlari ifodalanadi. Konstiutsiyaviy huquq fanining predmeti ma'muriy huquq fanining predmetidan kengdir. Jumladan, konstitutsiyaviy huquq barcha davlat organlari uchun umumiy bo'lgan tashkil etish va faoliyat ko'rsatish prinsiplarini belgilab beradi. Ma'muriy huquq normalari esa, yuqoridagilarga asoslanib, davlat boshqaruvida ularni qo'llashni tartibga soladi.

Konstitutsiyaviy huquq fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini belgilab beradi. Ma'muriy huquq esa ularni amalga oshirish tartibini belgilab beradi, yanada aniqlashtiradi; fuqarolarning huquqiy maqomini boshqa huquq va majburiyatlar bilan to'ldiradi; fuqarolar tomonidan huquq, erkinlik va majburiyatlar bajarilishining boshqaruv mexanizmini belgilab beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan fuqarolar davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga egadir. Ushbu jarayon konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solingan. Ma'muriy huquq esa, mana shu shikoyatlarning qaysi organga tegishliligini, shikoyatni ko'rib chiqish muddati va tartibini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq ***moliya huquqi*** bilan ham bog'liqdir. Moliya huquqi davlatning moliyaviy faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni, ya'ni davlat va mahalliy organlar oldida turgan vazifa va funksiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Moliya huquqining asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasi milliy daromadini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Davlatning moliyaviy faoliyati o'z mazmuniga ko'ra, davlat boshqaruvining bir ko'rinishi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olganda, moliya huquqining tartibga solish predmeti ma'muriy huquqqa qaraganda torroqdir.

Moliya huquqida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda to'g'ridan-to'g'ri buyruq berish uslubi (ma'muriy huquq singari) qo'llaniladi.

Davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining moliya sohasidagi vakolatlarining mazmunini moliya huquqi normalari, ularni amalga oshirish jarayonini esa ma'muriy huquq normalari tartibga soladi. Demak, davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining vakolat doirasini belgilovchi huquqiy normalar bir vaqtning o'zida ham ma'muriy huquq, ham moliya huquqi normasi hisoblanadi.

Ma'muriy huquq moliya sohasidagi boshqaruv munosabatlarini tartibga solsa, moliya huquqi moliyaviy munosabatlarning o'zini tartibga soladi.

Uzoq vaqt mobaynida bu huquq tarmoqlari (konstitutsiyaviy, ma'muriy va moliya huquqi) yagona tarmoq sifatida o'rganib kelingan. Keyinchalik jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi,

yangi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi bilan konstitutsiyaviy huquqdan ma'muriy huquq, ma'muriy huquqdan esa moliya huquqi ajralib chiqdi. Hozirgi vaqtda moliya huquqi tarmog'ining o'zida ham yangi mustaqil tarmoqlarning (masalan, soliq huquqi, bank huquqi va h.k.lar) vujudga kelayotganini ko'rish mumkin.

Ma'muriy huquq ***fuqarolik huquqi*** bilan chambarchas bog'liqdir. Bu ikki huquq tarmog'i ayrim holatlarda bir xildagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, lekin turli uslublar yordamida. Masalan, vakolatli davlat organining buyrug'iga binoan bir xo'jalik tashkiloti boshqasiga bino yoki inshootni beradi. Bunda davlat boshqaruv organi hokimiyat uslubidan foydalanadi, ya'ni ma'muriy huquq yordamida ikki xo'jalik yurituvchi tashkilotning mulkiy munosabati tartibga solinadi. Fuqarolik huquqi esa mazkur tashkilotlar o'rtasida vujudga keladigan shartnoma munosabatlarining mazmunini belgilab beradi.

Fuqarolar ishtirokidagi ko'pgina fuqarolik-huquqiy munosabatlari davlat boshqaruv aktlari orqali vujudga kelishi mumkin. Ba'zi hollarda esa mulkiy munosabatlar davlat boshqaruvi aktining o'zidan to'g'ridan-to'g'ri (yani shartnomasiz) kelib chiqishi mumkin.

Ayrim hollarda davlat boshqaruv organlari davlat organi sifatida emas, balki fuqarolik huquqi normalari asosida harakat qiluvchi – yuridik shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, jamiyatda vujudga keladigan ayrim ijtimoiy munosabatlar ma'muriy huquqning ham fuqarolik huquqining ham tartibga solish predmeti tariqasida namoyon bo'lishi mumkin. Lekin bu munosabatlar turli xildagi tartibga solish uslubiga ega. Fuqarolik huquqida ishtirok etuvchi tomonlar teng huquqlarga ega bo'ladi. Ma'muriy huquqda esa hamma vaqt bir tomonda davlat organi (mansabdor shaxs) ishtirok etganligi sababli, munosabat ishtirokchilarining biri ikkinchisiga nisbatan ustun turadi, ya'ni davlat manfaatini ko'zlab harakat qilayotgan tomon ikkinchi tomonga majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni beradi.

Ba'zi bir ma'muriy huquq normalari ***mehnat huquqi*** normalari bilan o'zaro bog'liq. Ma'muriy huquq normalari mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi davlat boshqaruv organlarining (masalan, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari) vakolatini belgilab beradi. Mehnat munosabatlari sohasidagi boshqaruv aktlarining mazmunini mehnat huquqi, ushbu aktlarni chiqarish tartibini ma'muriy huquq belgilaydi. Masalan, fuqaro korxona bilan mehnat shartnomasini tuzganida mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarga kirishadi. Korxona rahbarining

xodimni ishga qabul qilish to'g'risida chiqargan buyrug'i – ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadi. Davlat apparatidagi xizmat ma'muriy huquq tomonidan ham, mehnat huquqi tomonidan ham tartibga solinadi.

Ma'muriy huquq ***jinoyat huquqi*** bilan ham chambarchas bog'liq. Ma'muriy huquq o'zida ko'pgina umummajburiy bo'lgan qoidalarni (masalan, yo'l harakati, pasport tizimi, sanitariya va h.k.lar) mujassamlashtiradi. Ma'muriy huquq fani qanday huquqbuzarliklar ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ularni ko'rib chiqish tartibini, ma'muriy javobgarlik va jazoni belgilab beradi. Jinoyat huquqi esa, qanday xatti-harakatlar jinoyat hisoblanishi va bular uchun qanday jinoiy javobgarlik choralari qo'llanilishini belgilab beradi. Bu ikki huquq tarmog'i bir-birining normalarini harakatga keltirishi mumkin. Masalan, takroran ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish jinoiy javobgarlik normalarini, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan qilmishlar esa ma'muriy javobgarlik normalarini harakatga keltiradi.[1]

Demak, ma'muriy huquqning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida, uni huquq tizimining boshqa tarmoqlari bilan o'zaro munosabatini, ya'ni bir-biriga o'xshash hamda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish lozim bo'ladi.

5-§. Ma'muriy huquq tizimi

Huquq tizimi – huquqning ichki tuzilishi, tarkibi bo'lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatni hamda nisbatni belgilab beradi.[2]

Huquq tizimi – jamiyatda mavjud bo'lgan va doimo rivojlanib boradigan ijtimoiy munosabatlarning ifodasi bo'lib, u huquq normalarining umumiy va farqli xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Huquq tizimi: *birinchidan*, ijtimoiy munosabatlarning mazmuni bilan bog'liq holda, obyektiv ravishda shakllanadi; *ikkinchidan*, u yaxlit tizim sifatida huquqning ichki tuzilishini ko'rsatadi; *uchinchidan*, huquq normalarining muayyan guruhlarga birlashishini

---

[1] Xudoyberdiyeva V.J., Xojiyev Ye.T. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. – T.; TDYuI nashriyoti, 2000. 38–40-betlar.

[2] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun / Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U.: / Mas'ul muharrir: Boboyev X.B., Odilqoriyev H.T. / – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000-y. 312–314-betlar.

ko'rsatadi; *to'rtinchidan*, huquq normalarining va ular birlashgan guruhlarning o'zaro farqlanishini ko'rsatadi; *beshinchidan*, ijtimoiy munosabatlar xususiyatlari va ularning o'ziga xosligi huquq normalarining ma'lum darajada ixtisoslashuvini taqozo etadi.

Ma'lumki, tizimlar nazariyasiga ko'ra, har qanday tizimning tarkibiy qurilishi muayyan qoidalar va mezonlar asosida tashkil topadi. Biron-bir tizimni chuqurroq anglash uchun, tizim asosida yotadigan shu mezonlarni aniqlash ahamiyatga molikdir.

Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalariga ham ularning o'zaro uzviy bog'liqligi xos bo'lib, bu bog'liqlik nafaqat ularni chiqargan hokimiyat va boshqaruv organlarining holati hamda ushbu normalarni qo'llash sohasi bilan, balki huquqiy tartibga solish predmetining ichki tuzilmasi qonuniyatlari bilan ham belgilanadi. Demak, ma'muriy huquq o'zining ichki tuzilmasi yoki tizimiga, ya'ni ko'plab bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan elementlarga ega bo'lib, ularda ma'muriy-huquqiy normalar muayyan izchillikda birlashadi va joylashadi.

Har qanday mustaqil huquq tarmog'iga uning butunligi, tizimliligi va tuzilishga ega ekanligi xosdir. Bu holat ma'muriy huquqda yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, yagona predmet va tartibga solish uslubining mavjudligi – huquq tarmog'ini tashkil etuvchi huquqiy normalarning o'zaro aloqasini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq – huquqiy normalarning bir butun (yaxlit) tizimi bo'lib, predmet, maqsad, prinsiplar, tartibga solish uslubini birlashtiradi. Huquqiy normalar bir-biriga mos kelishi, yagona prinsiplarga asoslanishi, yagona atamalarni qo'llashi lozim. Huquq tarmog'i ichida turli yuridik kuchga ega bo'lgan, umumiy va maxsus huquqiy normalarning subordinatsiyasi (bo'ysinuvi) mavjud bo'ladi.

Ma'muriy huquq tarmog'ining asosiy tamoyillariga – samaradorlik, qonuniylik, oshkoralik, davlat va shaxsning o'zaro javobgarligini kiritish mumkin.

Ma'muriy huquqning asosiy maqsadiga esa quyidagilar kiradi:

a) amalga oshirilishi ijro hokimiyatining funksiyalanishi bilan bog'liq bo'lgan fuqarolarning, ular jamoalarining huquqlari va erkinliklarini bajarilishiga imkoniyat yaratib berish;

b) ijro (ma'muriy) hokimiyatning samarali faoliyat yurishiga sharoit yaratib berish;

d) ma'muriy faoliyatda demokratik jarayonlarning amalga oshirilishini huquqiy ta'minlash;

e) jamiyat va uning barcha institutlarining mavjud bo'lishi uchun iqtisodiy, moddiy baza rivojlanishiga imkoniyat yaratib berish;

f) fuqarolar va jamiyatni ma'muriy o'zboshimchalikdan, suiiste'molliklardan himoya qilish. Fuqarolar va davlatning mavjud bo'lishi va rivojlanishi – ma'muriy-huquqiy tartibga solish orqali qay darajada yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish ta'minlanganligiga bog'liqdir.

Ma'muriy huquq tizimi deganda, uning davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar bilan obyektiv belgilangan ichki tuzilishi, ma'muriy-huquqiy normalarning muayyan izchillikda birlashishi va joylashishini tushunish lozim[1].

Ma'muriy huquq tizimi – ma'muriy-huquqiy normalar va institutlarni birlashtiradi.

Bundan tashqari, yuridik adabiyotlarda, «*ma'muriy huquq tizimi*»dan «*ma'muriy huquq fani tizimi*» farqlanadi. ***Ma'muriy huquq fani tizimi*** ma'muriy huquq tizimiga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– ***ma'muriy-huquqiy normalar*** – ma'muriy huquq fani tizimining boshlang'ich elementi bo'lib, davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki tasdiqlanadigan hamda ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini (xatti-harakatini) belgilab beradigan qoidalardir;

– ***ma'muriy-huquqiy institutlar*** – ma'muriy huquq fani tizimining alohida guruhi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Odatda, ma'muriy-huquqiy institutlar – ma'muriy-huquqiy normalarning uncha katta bo'lmagan barqaror guruhi bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir turini tartibga solishga qaratiladi. Ma'muriy huquq tarmog'i o'z ichiga qator institutlarni oladi va ular tarmoqning tarkibiy qismi, bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda ular muayyan mustaqillik xususiyatiga ega. Zero, ma'muriy-huquqiy institutlar ma'lum darajada mustaqil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi;

– ***ma'muriy huquq fani bo'limlari (guruhlar)*** – ma'muriy huquq fani tizimining yirik tarkibiy qismi bo'lib, o'zida bir necha

---

[1] Алёхин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. – «Зерцало», 1998; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004; Козлов Ю.М. Административное право. – М.: «Юрист», 2003; Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004.

ma'muriy-huquqiy institutlarni birlashtiradi. Ma'muriy huquq fani tizimida o'zaro yaqin (o'xshash) ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ma'muriy-huquqiy institutlar birlashib, ma'muriy huquq fanining bo'limlari (guruhlarini) tashkil etadi. (masalan, davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari, davlat boshqaruvi prinsiplari, davlat boshqaruvi funksiyalari singari ma'muriy-huquqiy institutlar o'zining yaqinligiga qarab yagona bo'limga birlashgan.)

Har qanday huquq fani singari ma'muriy huquq fani tizimi ham ikki qismga bo'lingan.

1. **Umumiy qism** — bunda davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonining umumiy tomonlarini belgilab beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar (ma'muriy-huquqiy institutlar, bo'limlar) nazarda tutilgan. Ma'muriy huquq fani tizimining umumiy qismi quyidagi institutlardan iborat:

— *davlat boshqaruvi tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari va asosiy prinsiplari;*

— *davlat boshqaruvi subyektlari va ularning huquqiy maqomi;*

— *davlat boshqaruvi shakllari va uslublari;*

—*davlat boshqaruvida ma'muriy-huquqiy majburlov choralari;*

— *ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy javobgarlik;*

— *ma'muriy jarayon;*

— *davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlash.*

2. **Maxsus qism** — bunda jamiyatning alohida sohalarida amalga oshiriladigan davlat boshqaruvining xususiyatlarini belgilab beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar (ma'muriy-huquqiy institutlar, bo'limlar) ko'rsatib o'tilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— *iqtisodiyot sohalarini boshqarish* (sanoat, qishloq va suv xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, yo'l xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalari);

— *ijtimoiy-madaniy sohalarni boshqarish* (ta'lim, fan, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish);

— *ma'muriy-siyosiy faoliyat sohasini boshqarish* (mudofaa, davlat xavfsizligi, ichki ishlar, tashqi ishlar, adliya);

— *tarmoqlararo boshqa sohalarni boshqarish* (tabiatni muhofaza qilish, moliya va kredit tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyat, davlat statistikasi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish va h.k.lar).

Huquq tizimining ilmiy asoslanganligi, uning obyektiv mavjud munosabatlar asosida tuzilishi ma'muriy-huquqiy normalarning eng

to'g'ri qo'llanishi uchun imkon beradi hamda qonunchilikni mustahkamlashga va ma'muriy huquq tomonidan o'zining vazifalarini bajarishga yordam beradi.

6-§. Ma'muriy huquq manbalari

Ma'muriy-huquqiy normalar ko'p sonli huquqiy hujjatlarda (manbalarda) mustahkamlangan.

Huquq manbalari – huquqiy normalar ifodasining tashqi shakllari, huquq mavjud bo'lishining shakllari hisoblanadi.

Huquq manbasi deganda – mazkur jamiyat tomonidan huquqni tushunish xususiyati bilan belgilangan ijtimoiy normalarni majburiy deb bilish uslubini tushunish kerak. Tarixda majburiy normalar mavjud bo'lishining uch shakli ma'lum: normativ-huquqiy hujjatlar, sud presendenti va huquqiy odat.

O'zbekiston huquq tizimining roman-german turiga kiradigan o'ziga xosligi, normativ-huquqiy hujjatlarning ma'muriy huquq manbasi sifatidagi ustuvorligini belgilaydi.

Respublikamizda mulkchilikning xilma-xil shakllarini vujudga keltirish va ularga teng shart-sharoitlar yaratib berish, korxona, muassasa va tashkilotlar o'rtasida raqobatni avj oldirish, boshqarishning oldingi uslubidan (ma'muriy-buyruqbozlik) butunlay voz kechish, iqtisodiy omil va vositalarni keng joriy etish – bozor munosabatlarining tub negizidir. Ushbu jarayonda davlat boshqaruvi faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Bu qonunchilikning asosini – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi.

Bizga ma'lumki, ***O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – ma'muriy huquqning asosiy manbasi sifatida, davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirishning boshlang'ich huquqiy asoslarini belgilab bergan.

Konstitutsiyaning bir necha moddalari bevosita davlat boshqaruvini huquqiy tartibga solishga qaratilgandir. Jumladan, Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston – suveren demokratik respublika, deb ko'rsatilgan. Mazkur moddada o'zbek davlatchiligining tub mohiyati, ya'ni O'zbekiston suveren davlat ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Suverenitet – har qanday davlatning eng muhim, ajralmas belgilaridan biridir.

O'zbekiston – demokratik davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir.

O'zbekistonda davlatni boshqarish shakli respublikadir. Respublika – xalq hokimiyati demakdir. Respublika – eng asosiy umuminsoniy huquqiy boyliklardan biri. Boshqaruvning respublika shakli davlat idoralari vakolatlarini aniq belgilab berishni, qonun chiqaruvchi va ijroiya organlarining saylab qo'yilishini anglatadi.

Konstitutsiyaga binoan, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar (2-modda).

Mazkur konstitutsiyaviy norma orqali fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyatining mavjudligi demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan hisoblanadi. Davlat qonun doirasida insonlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermog'i lozim. Shuning uchun ham, davlat xalq irodasini ifodalamog'i, uning manfaatlari, xohish-istaklariga xizmat qilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

Mazkur konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida o'zining davlat hokimiyatini va davlat boshqaruvi organlarining tizimini belgilab beradi. Konstitutsiyaning beshinchi bo'limi aynan shu masalarni yoritib berishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi (7-modda).

Demak, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati, shu jumladan, boshqaruv faoliyati qonunlarda nazarda tutilgan tartibda

tashkil etilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat organlari faqatgina qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan vakolat doirasida harakat qilishlari mumkin.

Davlat organlarining Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz itoat etishi va shu asosda faoliyat ko'rsatishi huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin (10-modda).

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi (11-modda).

Mazkur konstitutsiyaviy norma orqali davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyat tartibi – vakolatlarning taqsimlanishi prinsipi asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Hokimiyat tizimining bo'linishi prinsipi huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biridir.

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ko'rsatib o'tganidek: «Davlatning faol islohotchilik mavqeyida butun diqqat-e'tiborni iqtisodiyotni sog'lomlashtirish muammolarini birinchi navbatda hal etishga, qonuniylik va huquq-tartibotga rioya qilishga, eski iqtisodiy munosabatlarni bozor munosabatlariga aylantirishga qaratish ijtimoiy barqarorlik uchun mustahkam negizni vujudga keltiradi».[1]

O'zbekiston ijtimoiy adolat jamiyatidir. Kuchli ijtimoiy siyosat adolatli jamiyat va demokratik davlat barpo etishning asosiy mezonidir.

Ma'muriy huquqning asosiy manbalaridan yana biri – bu 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kiritilgan ***O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi***dir. Ushbu kodeksga binoan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini,

[1] Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom., – T.: 1996, 322-b.

shuningdek, bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks – qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Ma'muriy-huquqiy normalar boshqa Kodekslarda ham o'z ifodasini topgan, ya'ni davlat boshqaruvi jarayonida ijro hokimiyati organlari faoliyatini, fuqarolar va nodavlat tashkilotlarining boshqaruv sohasidagi huquq va majburiyatlarini tartibga solishga qaratilgan normalarni quyidagilarda ham uchratish mumkin:

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan ***havo kodeksi*** – O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan foydalanishga hamda undan foydalanuvchilarning barchasi faoliyatiga, shu jumladan, aviatsiya faoliyatiga taalluqli munosabatlarni tartibga soladi;

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan va 1998-yil 1-yanvardan kuchga kiritilgan ***Soliq kodeksi*** – soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlarini belgilaydi, soliq ishlarini yuritish tartibotini va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni tartibga solib turadi;

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan ***Bojxona kodeksi*** – tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o'tish; bojxona nazorati; bojxona rasmiylashtiruvi; bojxona to'lovlari; dastlabki qarorlar; chet ellik shaxslarning ayrim toifalari uchun boj imtiyozlari; nazorat ostida tovar yetkazib berish; bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik; bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritish; jazolar berish to'g'risidagi qarorlarni ijro etishni tartibga soladi;

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 4-aprelda qabul qilingan ***Shaharsozlik kodeksi*** – shaharsozlik faoliyati obyektlari va subyektlarini; davlat organlarining shaharsozlik faoliyati sohasidagi vakolatlarini; shaharsozlik hujjatlari, Davlat shaharsozlik kadastrini; O'zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishning shaharsozlik jihatidan rejalashtirilishini; aholi punktlari va shahar atrofi zonalari hududlaridan foydalanish tartibini belgilab beradi.

Ma'muriy huquqning keng tarqalgan manbalaridan yana biri — bu ***O'zbekiston Respublikasining qonunlari***dir. Bir necha davlat boshqaruvi organlarining huquqiy maqomi joriy qonunlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan:

1) O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan *«VAZIRLAR MAHKAMASI TO'G'RISIDA»gi Qonuni.*[1] Mazkur qonunga binoan O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi — hukumati O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir;

2) O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan *«MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI TO'G'RISIDA»gi QONUN*ga[2] binoan mahalliy davlat hokimiyat organlariga hokim rahbarlik qiladigan ijroiya apparat va vakillik organlari kiradi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir;

3) O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan *«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY BANKI TO'G'RISIDA»gi QONUNI*[3] respublikada bank tizimini boshqaruvchi davlat organi — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomini belgilab beradi. Qonunga binoan Markaziy bank yuridik shaxs hisoblanadi va u davlatning mutlaq mulkidir. Markaziy bank — o'z sarf-xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan *«DAVLAT SOLIQ XIZMATI TO'G'RISIDA»gi QONUNI*[4] - O'zbekiston Respublikasida davlat soliq xizmati organlarini tashkil etish tartibini, ularning huquqiy maqomini belgilab beradi. Qonunning 1-moddasiga binoan davlat soliq xizmati organlari soliqlar,

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 №9-10, 138-m.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 №9, 320-m.

[3] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 №12, 247-m.

[4] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 №9, 232-m.

yig'imlar va boshqa to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida budjetga tushishini ta'minlash maqsadlarida tuziladi. Davlat soliq xizmati organlariga – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent shahar davlat soliq bosh boshqarmalari, viloyatlar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlarning davlat soliq inspeksiyalari kiradi;

5) O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan *«DAVLAT BOJXONA XIZMATI TO'G'RISIDA»gi QONUNI*[1] – davlat bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beradi. Bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining yagona boj xona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi. O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari – bojxona organlaridir.

Ma'muriy-huquqiy normalar ***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti***, ***O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi***, shuningdek, ***davlat va mahalliy organlar normativ hujjatlari***da ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvini tartibga solishda davlat organlarining huquqiy maqomini belgilab beruvchi Nizom va Ustavlar ham ma'lum bir ahamiyatga ega.

Nizom – muayyan davlat tuzilmalarini (masalan, vazirliklar, davlat qo'mitalarining) tashkil etish tartibini, tuzilishini, vazifasi, funksiyasi va vakolatlarini belgilab beruvchi majmuyi tizimlashtirilgan aktdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari o'z faoliyatlarini qonunlar hamda nizomlar asosida amalga oshiradilar. Nizom – boshqaruv aktlarining eng ko'p tarqalgan turlaridan biridir. Nizom muayyan huquq ijodkorlik organi yoki vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Eng ahamiyatli sohalarga taalluqli va yuridik kuchi yuqoriroq bo'lgan nizomlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ustav – boshqaruvning u yoki bu sohasidagi muayyan idora va tashkilotlarning faoliyatini tartibga soluvchi normalarni o'zida aks ettiruvchi aktdir. Boshqaruv sohasida bevosita ishtirok etuvchi ko'pgina davlat idoralarining, korxona, muassasa va tashkilotlar-

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 №9, 230-m.

ning faoliyati tegishli tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan ustavlar asosida tartibga solinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik aviatsiyasini boshqaruvchi – O'zbekiston Milliy Aviakompaniyasining faoliyati Ustav asosida tartibga solinadi.

Bizning Respublikamiz huquq tizimida *sud presendenti* ma'muriy huquq manbasi rolini o'ynamaydi, chunki oliy sud instansiyalari – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Oliy xo'jalik sudi o'z qarorlarida sud amaliyoti bo'yicha faqat tushuntirishlar beradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy huquq tushunchasi.
2. Ma'muriy huquq va ommaviy huquqning o'zaro munosabati.
3. Ma'muriy huquq va xususiy huquqning o'zaro munosabati.
4. Ma'muriy huquqning tartibga solish predmeti (ijtimoiy munosabatlar doirasi).
5. Ma'muriy huquqning tartibga solish uslubi.
6. Ma'muriy huquqning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o'rni.
7. Ma'muriy huquq va konstitutsiyaviy huquqning o'zaro munosabati.
8. Ma'muriy huquq va moliya huquqining o'zaro munosabati.
9. Ma'muriy huquq va fuqarolik huquqining o'zaro munosabati.
10. Ma'muriy huquq va mehnat huquqining o'zaro munosabati.
11. Ma'muriy huquq va jinoyat huquqining o'zaro munosabati.
12. Ma'muriy huquq tizimi.
13. Ma'muriy huquq fani tizimi.
14. Ma'muriy huquq manbalari tushunchasi.
15. Ma'muriy huquq manbasi sifatida – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
16. Ma'muriy huquq manbasi sifatida – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
17. Ma'muriy huquqning boshqa manbalari.

3-bob. MA'MURIY-HUQUQIY NORMALAR

1-§. Ma'muriy-huquqiy normalar tushunchasi va xususiyatlari

Davlat va huquq nazariyasi faniga ko'ra, huquq — ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi vosita sifatida, doimo muayyan xulq-atvor, xatti-harakat qoidasi sifatida o'zini namoyon etadi.[1]

Har qanday huquq tarmog'ining mazmun-mohiyati va ijtimoiy yo'nalishi huquqiy normalar xususiyati bilan belgilanib, ularning yig'indisi huquq tizimi u yoki bu tarmog'ining mazmunini tashkil etadi.

Huquqiy norma («norma») so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, «*qoida*», «*namuna*» ma'nosini anglatadi. Har bir huquq normasi o'zida biron-bir xatti-harakat, xulq-atvor, muayyan yurish-turish qoidasini ifodalaydi.

Huquqning har bir tarmog'i, shu jumladan, ma'muriy huquqning normalari har qanday huquq normasi uchun xos bo'lgan umumiy belgilarga, shuningdek, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega.

Ma'muriy-huquqiy normalar — muayyan xatti-harakat qoidalaridan iborat bo'lib, davlat tomonidan belgilanadi, boshqa ijtimoiy normalardan, masalan, axloq normalaridan farqlanadi. Shu sababli, ularga rioya etish majburiy bo'lib, ular buzilgan hollarda, davlatning majburlov choralari qo'llaniladi.

Boshqa huquq tarmoqlarining normalari kabi, ma'muriy-huquqiy normalar ushbu munosabatlar subyektlarining yuridik va majburiyatlarini aniqlash, shuningdek, ular tomonidan huquqlar buzilgan va majburiyatlar bajarilmagan hollarda javobgarlikni belgilash yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Demak, ma'muriy-huquqiy normalar — ma'muriy huquq tarmog'ining boshlang'ich elementi sifatida, quyidagi *umumiy xususiyatlar*ga ega:

---

[1] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun / Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U.: / Mas'ul muharrir: Boboyev X.B., Odilqoriyev H.T. / — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000-y. 281—284-betlar.

birinchidan – ma'muriy-huquqiy normalar davlat tomonidan o'rnatiladi va ularning bajarilishi majburiy hisoblanadi;

ikkinchidan, ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini, xatti-harakatini tartibga soladi;

uchinchidan – ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining yuridik huquqlari va majburiyatlarini aniqlab beradi;

to'rtinchidan – huquqlar buzilganda yoki majburiyatlar bajarilmaganida davlatning majburlov choralari orqali ijtimoiy munosabatlarni himoya qiladi.

Ma'muriy-huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyatlari – ma'muriy huquq predmeti hamda huquqiy tartibga solish uslubining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ma'muriy-huquqiy normalar – O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi boshqa tarmoqlarining normalaridan farqli ravishda, maxsus qo'llanish sohasiga ega bo'lib, bu davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlardir. Shu sababli, ma'muriy-huquqiy normalarning mazmunini davlat boshqaruvi jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan xatti-harakatlar doirasi tashkil etadi. Ular yordamida davlat organlari, mansabdor shaxslar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, jamoat tashkilotlari va jismoniy shaxslarning davlat boshqaruvi sohasida qachon va qanday tartibda harakat qilganlarida qonunchilik talablari aniq va maqsadga muvofiq bo'lishi belgilanadi. Shu bilan birga, ma'muriy-huquqiy normalarda qanday harakatlarni amalga oshirish mumkin va qaysilaridan o'zini tiyish kerakligi ko'rsatiladi.

Ma'muriy huquq normalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatning birorta holatiga ko'rsatma beriladi yoki unga belgilangan shart-sharoitlarda rioya etilganida ruxsat beriladi va nihoyat, muayyan harakatlarni amalga oshirish man etiladi. Shu tariqa, davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining davlat, jamiyat va shaxs manfaatlariga muvofiq keladigan huquqlari va majburiyatlarini belgilash orqali, ular xatti-harakatining o'rnatilgan huquqiy tartibi yaratiladi.

Ma'muriy-huquqiy normalarning boshqa bir xususiyati shundan iboratki, ular xususiy emas, balki ommaviy manfaatlarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

Ma'muriy huquqning tartibga solish uslubi bilan belgilangan ma'muriy-huquqiy normalarning alohida xususiyatlariga imperativlik (buyruq berish) xususiyati kiradi, ularda muayyan harakat-

larni amalga oshirish uchun qat'iy yozma buyruqlar, ko'rsatmalar mavjud bo'ladi.

Ma'muriy-huquqiy normalarning imperativligi yana shunda ifodalanadiki, munosabatlar ishtirokchilari o'z ixtiyori bilan uning ko'rsatmalarini o'zgartirish huquqiga ega emas.

Bundan tashqari, davlat boshqaruvi sohasida normativ va davlat hokimiyat xususiyatga ega bo'lgan ko'rsatmalar mavjud bo'lmasa, ma'muriy-huquqiy normalarni amalga oshirib bo'lmaydi.

Ma'muriy-huquqiy normalarning imperativligi turli shakllarda ifodalanib, *birinchidan*, ma'muriy munosabatlar va ularni tartibga solish maqsadlariga; *ikkinchidan*, ushbu munosabatlar subyektlari huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Ayrim hollarda ma'muriy-huquqiy normalarning imperativligi to'g'ridan-to'g'ri beriladigan ko'rsatma shaklida ifodalanib, ma'muriy munosabatlar subyektlari zimmasiga aynan shunday harakat qilish majburiyatini yuklaydi va shu bilan bevosita ishtirokchilar tomonidan munosabatlar shartlari hamda xususiyatini o'zgartirish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Boshqa hollarda imperativlik nisbatan yengil shakllarda namoyon bo'ladi. Bunda ma'muriy huquq normalari bajarilishi shart bo'lgan harakatning bir xil ma'nodagi modeliga ega bo'lmaydi va u davlat boshqaruvi sohasida tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu subyekt tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatini nazarda tutadi. Bu *birinchidan,* ma'muriy huquq normalarida nazarda tutilgan holatlardan birini tanlash imkoniyatini berish; *ikkinchidan,* o'z ixtiyori bo'yicha harakat qilish yoki harakat qilmaslik imkoniyatining berilishi, ya'ni ma'muriy huquq normalarida nazarda tutilgan harakatni amalga oshirish yoki uni amalga oshirishdan voz kechishdir.

Demak, ma'muriy-huquqiy normalarning davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga, ularning turli ishtirokchilariga bo'lgan tartibga solish ta'siri — faol harakat qilishni aniq belgilash, shuningdek, o'z ixtiyori bo'yicha, umumiy qoidalar doirasida, harakat qilish imkoniyatini berishdan iboratdir.

Huquqshunos olim Yu.M.Kozlovning fikricha, ma'muriy huquq o'zining tartibga solish funksiyasini huquqiy normalar orqali amalga oshiradi hamda ular quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi:

— davlat boshqaruvining butun bir tizimini tashkil etish va uning funksiyalanishini tartibga solishni ta'minlash;

— davlat boshqaruvi sohasida fuqarolarning va ularning nodavlat tuzilmalarining konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarini samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

– davlat boshqaruvida ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvor (yurish-turish) doirasini belgilash;

– davlat boshqaruvi sohasida ommaviy-huquqiy manfaatlarning bevosita ifodalanishini ta'minlash;

– tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasida qonuniylik va davlat intizomini ta'minlash.[1]

Yuqoridagilarni inobatga olib, ***ma'muriy-huquqiy normalar*** – bu davlat tomonidan o'rnatilgan, davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida ushbu munosabatlar subyektlarining yuridik huquqlari va majburiyatlarini belgilaydigan, shuningdek, huquqlar buzilganda yoki majburiyatlar bajarilmaganda ularning javobgarligini o'rnatadigan va majburiy choralar bilan ta'minlanadigan xulq-atvor qoidalaridir.

2-§. Ma'muriy-huquqiy normalarning tuzilishi

Ma'muriy-huquqiy normalar, huquqning har qanday tarmog'i singari o'zining ichki mantiqiy tuzilishiga ega bo'lib, ayni paytda ular o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir.

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy-huquqiy normalarning tuzilishi (tarkibi) bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning aksariyatida huquqiy normalar uch qismga bo'lingan:

1. Ma'muriy-huquqiy normalarning gipotezasi.

Gipoteza – huquqiy normaning harakatga kelishini va uning dispozitsiyasi qanday sharoitlarda amalga oshirilishini, shuningdek, hayotiy sharoit va mavjud holatlarni belgilab beradi.

Gipotezada shartlar shakllanib, ular mavjud bo'lgan hollarda norma talablariga asoslanish lozim.

Gipotezalar ikki shaklda namoyon bo'ladi:

a) mutlaq aniq gipoteza – bunda huquqiy normaning qanday holatda harakatga kelishi aniq ko'rsatib o'tiladi.

Masalan, O'zR MJtKning 13-moddasida «*Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortiladilar*», degan norma nazarda tutilgan. Mazkur norma – mutlaq aniq gipotezada berilgan bo'lib, normaning qaysi vaqtda harakatga kelishi aniq belgilangan (ushbu misolimizda gipoteza «*16 yoshga to'lgan*»);

---

[1] Административное право: учебник / Под ред. Ю.М.Козлова, Л.Л.Попова. – М.: «Юрист», 2000. С. 52-53.

b) nisbiy aniq gipoteza – bunda normaning harakatga kelishi aniq ko'rsatib o'tilmay, normaning harakati boshqa normaning amalga oshirilishidan vujudga keladi.

Masalan, O'zR MJtKning 25-moddasiga binoan «*Jarima – ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir*». Mazkur norma – nisbiy aniq gipotezada berilgan bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo chorasini belgilovchi normalarning amalga oshirilishi bilan harakatga keladi.

Demak, gipoteza – huquqiy normaning tarkibiy qismi bo'lib, uning qachon va qanday vaziyatda harakatga kelishini belgilab beradi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, aksariyat ma'muriy-huquqiy normalarning gipotezasi nisbiy aniq holatda beriladi.

2. Ma'muriy-huquqiy normalarning dispozitsiyasi.

Dispozitsiya – huquqiy normaning bir qismi bo'lib, unda huquq tarmog'i tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari, xatti-harakatlari doirasi ko'rsatib o'tiladi.

Huquqiy norma dispozitsiyasida – ko'rsatma, ruxsat berish, man etish, ya'ni ma'muriy munosabatlar ishtirokchilari xulq-atvorining mazmuni ko'rsatib o'tiladi.

Huquqiy normalardagi dispozitsiya qismi turli ko'rinishlarda ifodalangan bo'lishi mumkin;

a) huquqiy norma – gipoteza, dispozitsiya va sanksiyadan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan, O'zR MJtKning 41-moddasiga binoan «*haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish, – eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi*». Mazkur norma yuqorida aytilgan uchala qismdan ham iborat;

b) huquqiy normada dispozitsiya qismi bilan bir qatorda, uning qaysi holatda harakatga kelishi (gipoteza) nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Masalan, O'zR MJtKning 39-moddasiga binoan «*Ma'muriy jazoni qo'llanish ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni bajarilmaganligi uchun ma'muriy jazo qo'llanilgan vazifani bajarishdan ozod etmaydi*». Ushbu norma gipoteza va dispozitsiyadan iborat;

d) huquqiy normada faqatgina dispozitsiya qismi ko'rsatib o'tilgan bo'lishi mumkin.

Masalan, O'zR MJtKning 1-moddasiga binoan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Kodeks, O'zbe-

kiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengashining Qarorlari, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining Qarorlaridan iboratdir. Mazkur normaga e'tibor beradigan bo'lsak, u faqatgina dispozitsiyadan, ya'ni davlat ko'rsatmasidan iborat.

3. Ma'muriy-huquqiy normalarning sanksiyasi.

Ko'pgina huquqshunos olimlarining fikricha, huquqiy normalarning sanksiyasi – bu ma'muriy-huquqiy normalar dispozitsiyasida mavjud bo'lgan talablarning bajarilmaganligi uchun javobgarlik choralarini nazarda tutuvchi tarkibiy qism sifatida ta'riflashadi. Ular huquqiy normalar sanksiyasi mazmunining bir tomonlama xususiyatini, ya'ni faqatgina javobgarlikdan iborat ekanligini ko'rsatishadi. Mazkur qarashlarning tarafdorlari «*huquqiy norma sanksiyasi*» va «*javobgarlik sanksiyasi*» tushunchalarini bir o'ringa qo'yishadi.

Bizningcha, sanksiya – bu huquqiy norma dispozitsiyasi qismida ko'rsatib o'tilgan xatti-harakatga nisbatan ta'sir chorasi bo'lib, ham salbiy (negativ), ham ijobiy (pozitiv) xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

Huquqiy norma sanksiyasi turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, davlat va huquq nazariyasi faniga binoan, huquqiy normalarning sanksiyalarida dispozitsiya qismida ko'rsatib o'tilgan talablarni bajarmaganlik uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan javobgarlik yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag'batlantirish turi va o'lchovi ifodalangan bo'ladi.[1]

Demak, ***sanksiya*** – bu huquqiy normaning tarkibiy qismi bo'lib, unda dispozitsiyasi qismida belgilangan talabning bajarilishi yoki bajarilmaganligi uchun qo'llaniladigan ta'sir etish choralari nazarda tutiladi.

1-misol. O'zR MJtKning 47-moddasiga binoan «*Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning*

[1] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun / Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U.: / Mas'ul muharrir: Boboyev X.B., Odilqoriyev H.T. / – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000-y. 285-b.

ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi, — eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi». Ushbu norma sanksiyasi javobgarlik xususiyatiga egadir.

2-misol. O'zR Mehnat kodeksining 180-moddasiga binoan *«Xodimlar mehnat sohasida davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin»*. Mazkur norma sanksiyasi rag'batlantirish xususiyatiga egadir.

Shunday qilib, ma'muriy-huquqiy normalar har qanday huquq tarmog'ining normalari singari ma'lum bir tarkibiy qismga egadir. huquqiy normalar gipoteza, dispozitsiya va sanksiyadan iborat bo'ladi.

3-§. Ma'muriy-huquqiy normalarning tasnifi

Ma'muriy-huquqiy normalar o'zining tartibga solish yo'nalishi va unga muvofiq holda yuridik mazmuni bilan nihoyatda xilma-xildir. Shu sababli, davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ma'muriy-huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun ularni tasniflash katta ahamiyatga egadir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy normalarning turlicha tasnifi mavjud bo'lib, ularning ayrimlari to'la ravishda asoslantirilmagan. Masalan, huquq tarmog'i tomonidan bajariladigan funksiyalarga qarab huquqiy normalar tartibga soluvchi va muhofaza etuvchi normalarga ajratiladi. huquqiy normalarni huquqiy tartibga solish jarayonida qanday faoliyatni bajarishiga qarab, ya'ni ularni ixtisoslashuvi bo'yicha tasniflash ham jiddiy e'tirozlarga sabab bo'ladi. Ushbu tasnif bo'yicha, masalan, definitsiya-normalar va prinsip-normalar farqlanadi. Ushbu tasnif huquq normasining asl mazmun-mohiyati bilan bog'liq bo'lgan obyektiv reallikni aks ettirmaydi.

Aksariyat huquqshunos olimlari ma'muriy-huquqiy normalarni ikki guruhga: *moddiy* va *protsessual* normalarga bo'ladi. Bunday tasniflash mezoni sifatida ayrim hollarda ma'muriy-huquqiy normalar mazmuni, boshqa hollarda esa ma'muriy-huquqiy tartibga solish predmetining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Moddiy ma'muriy-huquqiy normalar — davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha bo'ladigan munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari hajmi va mazmunini, shuningdek, ularning javobgarligini belgilaydi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonun-

ning[1] 7-moddasiga binoan «*Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi*». Mazkur norma moddiy huquqiy norma bo'lib, O'zR Vazirlar Mahkamasining vakolatini belgilab bergan.

Protsessual ma'muriy-huquqiy normalar — tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari uchun moddiy ma'muriy-huquqiy normalarda nazarda tutilgan, davlat boshqaruvi sohasidagi yuridik huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi. Boshqacha aytganda, ular davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha faoliyat tartibini belgilaydi va amaldagi qonunchilik bilan belgilangan ushbu faoliyatdagi jarayon qoidalariga rioya etilishini talab qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun[2]ning 22-moddasiga binoan «*Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari (hokimliklar) boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning strukturasi, ularni tashkil etish tartibi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi*». Ushbu norma mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari va majburiyatlarini bevosita amalga oshirishga ko'maklashuvchi prosessual huquqiy norma hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining boshqa tarmoqlaridan[3] farqli ravishda, ma'muriy huquqda, odatda, moddiy va prosessual normalar yagona manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Jumladan, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi moddiy va protsessual normalar yagona qonun hujjatida — O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida o'z ifodasini topgan.

Ma'muriy-huquqiy normalarni ularning aniq yuridik mazmuniga qarab tasniflanishi alohida ahamiyat kasb etadi. U huquqning barcha tarmoqlari uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish uslubining u yoki bu doirasi: ko'rsatma berish, man etish va ruxsat berishga asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan ma'muriy-huquqiy normalarning uch turi ajratiladi: *majburiyat yuklovchi, taqiqlovchi va vakolat beruvchi* normalar.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 №9-10, 138-m.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993 №9, 320-m.

[3] Masalan, fuqarolik huquqi va jinoyat huquqida moddiy va protsessual normalar ikkita mustaqil manbalarda: Fuqarolik va Fuqarolik-protsessual kodekslarida, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslarida berilgan.

Majburiyat yuklovchi ma'muriy-huquqiy normalar ushbu normalar gipotezasida nazarda tutilgan ,sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda, muayyan harakatlarni, albatta, amalga oshirish lozim bo'lgan yuridik hokimiyat ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi.

Majburiyat yuklovchi ma'muriy-huquqiy normalar shaxsni qandaydir xatti-harakatni sodir etishga majbur qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasiga binoan «*Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar*».

Taqiqlovchi ma'muriy-huquqiy normalar – ushbu normalar u yoki bu harakatlarni amalga oshirishning taqiqlanishini nazarda tutadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonunning[1] 6-moddasiga binoan «*Notariusning, notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslarning, shuningdek, amalga oshirilayotgan notarial harakatlardan xizmat vazifasini bajarish munosabati bilan xabardor bo'lib qolgan shaxslarning o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotlarni oshkor qilishi, shu jumladan, mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin ham oshkor qilishi taqiqlanadi*». Mazkur huquqiy norma orqali notarius yoki tegishli shaxs tomonidan ma'lumotlarni oshkor qilish mumkin emasligi (taqiq) belgilangan.

A.Lining ko'rsatib o'tishicha, taqiqlovchi normalar – bevosita va vositali xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bevosita shakldagi normalarda tadqiq to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tiladi. Vositali shakldagi taqiq esa barcha huquqiy normalarda mavjud bo'lib, ularda u yoki bu huquqbuzarlikning yuridik tarkibi nazarda tutiladi.[2]

Vakolat beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar – davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilariga yuridik hokimiyat ko'rsatmalari doirasida o'z ixtiyori bo'yicha harakat qilish imkoniyatini nazarda tutadi, ya'ni bu yerda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar ham, man etishlar ham yo'q. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda qabul qilingan «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunning[3] 3-moddasiga binoan «*O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat organlariga arizalar, tak-*

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 №2, 42-m.

[2] Ли А.А. Финансовое право Республики Узбекистан. Учебник для юридических вузов / Отв.ред.: М.Х.Рустамбаев. – Т.: Ташкентский гос. юридический институт, 2003. С. 57.

[3] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 №1, 7-m.

liflar va shikoyatlar bilan murojaat etish huquqiga ega». Mazkur normada ko'rsatib o'tilgan huquq bevosita fuqaroning erkiga bog'liq bo'lib, uning xohish-irodasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, vakolat beruvchi huquqiy normalarda shaxsning harakat qilish doirasi aniq ko'rsatib o'tiladi. Shaxs faqatgina mana shu doirada harakat qilib, o'zining xohish-irodasini ifoda etishi mumkin.

Ma'muriy-huquqiy normalarni *asosiy (dastlabki)* va *hosila* normalarga bo'lishimiz mumkin. Agar normada umumiy xususiyatga ega bo'lgan qoidalar mustahkamlangan bo'lsa — ***asosiy***, umumiy qoidalarni rivojlantirishga, aniqlashtirishga qaratilgan normalar — ***hosila*** normalar hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatib o'tilgan aksariyat normalar (asosiy) O'zbekiston Respublikasining joriy qonunlari bilan (hosila), joriy qonunlarning normalari (asosiy) qonunosti normativ hujjatlar bilan (hosila) aniqlashtiriladi va rivojlantiriladi.

Misol, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasiga binoan «*O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega»*. Mazkur norma asosiy norma hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonunning[2] 2-moddasiga binoan esa «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga zo'r ehtirom bilan qarash O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir». Mazkur norma hosila normasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, huquqshunos olimlar huquqni muhofaza qiluvchi normalar sanksiyalarining aniqligiga qarab — *mutlaq aniq* yoki *nisbatan aniq* normalarga bo'lishadi. ***Mutlaq aniq sanksiyali norma***da aniq bitta davlatning majburlov chorasi ko'rsatib o'tiladi. Masalan, O'zR MJtKning 51-moddasiga binoan «*Qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, mehnatga biron bir shaklda ma'muriy tarzda majburlov, — eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi»*.

Nisbatan aniq sanksiyali norma esa turli xil jazo choralarining birini yoki huquqiy ta'sir choralarining birini qo'llashni nazarda tutadi. Masalan, O'zR MJtKning 183-moddasiga binoan «*Mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqa-*

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 №1, 52-m.

rolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurishturish qoidalarini qasddan mensimaslik, eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi». Bunday sanksiyalar muqobil sanksiyalar deb ham ataladi.

Ma'muriy-huquqiy normalarni munosabat subyektlariga nisbatan harakatiga qarab ham *umumiy* va *maxsus* normalarga bo'lish mumkin. ***Umumiy normalar*** barcha huquq subyektlariga taalluqli bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasiga binoan «*Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart*».

Maxsus normalar esa aholining muayyan guruhiga yoki aniq belgilangan doiradagi subyektlarga taalluqli bo'ladi. Masalan, mansabdor shaxslarga, voyaga yetmagan shaxslarga, harbiy xizmatchilarga yoki boshqa shaxslar doirasiga qaratilgan normalar mavjuddir.

Demak, ma'muriy-huquqiy normalar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi va ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining xatti-harakatini, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

4-§. Ma'muriy-huquqiy normalarning harakati

Huquqiy normalarni hayotga samarali tatbiq etishning muhim sharti — ularning harakat doirasini aniq belgilash hisoblanadi. **Huquqiy normalarning harakatlanishi** — ularda nazarda tutilgan yuridik oqibatlarning vujudga chiqishidir. Yuridik adabiyotlarga binoan huquqiy normalarning harakati (amal qilishi) quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

1) ma'muriy-huquqiy normalarning harakatlanish mavzusi. Ma'muriy-huquqiy normalar davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladigan turli mazmundagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Masalan, davlat organlarida xizmatni o'tash tartibini belgilovchi normalar, davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlashga qaratilgan normalar, ma'muriy huquq subyektlarining huquqiy maqomini belgilab beruvchi normalar yoki ma'muriy javobgarlikni belgilovchi normalar va h.k.lar;

2) ma'muriy-huquqiy normalarning vaqt bo'yicha harakatlanishi (amalda bo'lishi). Normalarning vaqt bo'yicha harakatla-

nishi — norma nazarda tutilgan qonun yoki boshqa normativ hujjatning yuridik kuchga kirishi yoki uni yo'qotish vaqtini anglatadi. *Normativ hujjatlar* odatda: a) qonun yoki boshqa normativ hujjatda ko'rsatib o'tilgan muddatda; b) matbuotda e'lon qilingan vaqtdan boshlab; d) aksariyat normalar 10 kunlik muddat o'tishi bilan yuridik kuchga ega bo'lib, normalarni harakatga keltiradi.

Normativ hujjatlar o'zining yuridik kuchini quyidagi holatlarda to'xtatadi: a) normativ hujjatning amal qilishi belgilangan muddat o'tishi bilan; b) vakolatli davlat organining normativ hujjatni bekor qilish to'g'risidagi qarorining chiqarilishi; d) yangi hujjatning qabul qilinishi bilan eskisini bekor qilish.

Normativ hujjatlar o'zining yuridik kuchini yo'qotishi bilan, undagi normalarning harakati ham to'xtaydi.

Normalarning kuchga kirishi va amalda bo'lishini aniq belgilash muhim ahamiyatga egadir. Chunki ular belgilangan vaqtdan boshlab so'zsiz bajarilishi lozim bo'ladi.

Ma'muriy-huquqiy normalar vaqt bo'yicha harakatlanishida *orqaga qaytish kuchi*ga ega bo'lishi mumkin. Jumladan, O'zR MJtKning 9-moddasiga binoan «*Ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar orqaga qaytish kuchiga egadir, ya'ni ushbu hujjatlar chiqqunga qadar sodir etilgan huquqbuzarlik hollariga ham taalluqlidir. Ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni belgilovchi yoki javobgarlikni kuchaytiruvchi hujjatlar esa orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmaydi*»;

3) ma'muriy-huquqiy normalarning makonda (hududda) harakatlanishi. Odatda, ma'muriy-huquqiy normalarni o'zida ifoda etgan normativ hujjatlar butun respublika hududida harakatda bo'ladi. Lekin ba'zi bir normalarning makon bo'yicha harakatlanishi doirasi aniq belgilangan bo'lishi mumkin. Masalan, qonunlar butun respublika miqyosida harakatda bo'lsa, mahalliy hokimiyat organlarining normativ hujjatlari ma'lum bir hududlarda (viloyat, tuman, shahar miqyosida) harakatda bo'ladi. Bundan tashqari, korxona, muassasa yoki tashkilotlar doirasida harakatda bo'luvchi normalar ham mavjud.

Ayrim hollarda ma'muriy-huquqiy normalar davlatlararo miqyoslarda amal qilishi mumkin. Bu normalar ikki tomonlama bitimlarga muvofiq bir necha davlatlar hududida yuridik kuchga ega bo'ladi;

4) ma'muriy-huquqiy normalarning shaxslar doirasi bo'yicha harakatlanishi. Huquqiy normalarning asosiy vazifasi bo'lib — ular tomonidan tartibga solinishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlar,

shuningdek, munosabat subyektlarining doirasini aniqlab berish hisoblanadi. Ma'muriy-huquqiy normalarning shaxslar doirasi bo'yicha harakati, aksariyat holatlarda ularning egallab turgan maqomiga bog'liq bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining qonunlari barcha fuqarolarga nisbatan tatbiq qilinishi mumkin. Lekin mazkur qonunlardagi normalarning ayrimlari xorijiy fuqarolarga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi (masalan, saylash huquqi yoki harbiy xizmatni o'tash majburiyati) yoki yuridik shaxslarning huquqiy maqomini belgilovchi normalar fuqarolarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatangina javobgarlik normalari harakatga kelishi mumkin va h.k.lar.

Demak, har qanday huquq tarmog'i normasi singari ma'muriy-huquqiy normalar ham vaqt bo'yicha, makon va shaxslar doirasi bo'yicha harakatda bo'ladi.

Odatda, ma'muriy-huquqiy normalarning vaqt bo'yicha harakatlanishi – normativ hujjatning yuridik kuchiga, makon bo'yicha harakati – uni o'rnatgan davlat organi (mansabdor shaxs)ning tutgan o'rniga, shaxslar doirasi bo'yicha harakati esa – shaxsning maqomiga bog'liq bo'ladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy-huquqiy normalarning tushunchasi.
2. Ma'muriy-huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Ma'muriy-huquqiy normalarning imperativligi.
4. Ma'muriy-huquqiy normalarning tuzilishi.
5. Ma'muriy-huquqiy normalarning gipotezasi.
6. Ma'muriy-huquqiy normalarning dispozitsiyasi.
7. Ma'muriy-huquqiy normalarning sanksiyasi.
8. Ma'muriy-huquqiy normalarning tasnifi.
9. Moddiy va prosessual ma'muriy-huquqiy normalar.
10. Majburiyat yuklovchi, taqiqlovchi va vakolat beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar.
11. Ma'muriy-huquqiy normalarning vaqt, makon va shaxslar doirasi bo'yicha harakati.

4-bob. MA'MURIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

1-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari

Huquqiy normalar o'z vazifa va funksiyalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradi. Huquqiy munosabatlar – o'zaro subyektiv huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxslar o'rtasida, huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosida vujudga keldigan aloqalardir.

Huquqiy munosabat, bu birinchi navbatda, tomonlar o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettirishdir. Munosabat tomonlari bir-biri oldida tegishli subyektiv huquq va majburiyatlarni o'taydilar. Tomonlarning huquq va majburiyatlari bir-biri bilan o'zaro mutanosib tarzda bog'liq bo'lib, ya'ni bir tomonning huquqiga ikkinchi tomonning majburiyati yoki ikkinchi tomonning huquqi birinchi tomonning majburiyatiga muvofiq keladi.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy munosabatlarning tabiati masalasi ancha munozarali. Bir guruh olimlar huquqiy munosabatlarni *ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi* sifatida ko'rsatib o'tishadi.[1]

Ikkinchi guruh olimlari esa, huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi hisoblanmasligini, ular faqatgina *ijtimoiy munosabatlarning yuridik shakli, ifodasi* sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.[2]

Davlat va huquq nazariyasi fani[3]ga ko'ra ***huquqiy munosabatlar*** quyidagi xususiyat va maxsus belgilar bilan tavsiflanadi:

1) huquqiy munosabatlar – ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan munosabatlardir. Chunki ular jamiyatda insonlar o'rtasida vujudga

---

[1] Явич Л.С. Право и общественные отношения. – М.: 1987; Общая теория права. Под ред. В.К.Бабаева. – Н.Новгород, 1993. С. 405-407.; Гревев Ю.И. Правовые отношения и осуществление права. – Л.: 1987. С. 29-42.

[2] Лазарев В.В., Липен С.В. Теория государство и права. – М.: 1998. С. 290–291.

[3] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun / Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U.: / Mas'ul muharrir: Boboyev X.B., Odilqoriyev H.T. / – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000-y. 290–296-b.

keladi, insonlarning faoliyati, xulq-atvori bilan bog'liq bo'ladi. Huquqiy munosabat har qanday ijtimoiy munosabat singari insonlar ongli faoliyatining natijasidir;

2) *huquqiy munosabatlar – huquq normalarining insonlar xulq-atvoriga ta'siri natijasida vujudga keladigan munosabatlardir.* Huquqiy norma va huquqiy munosabat o'zaro bog'liq bo'lib, biridan ikkinchisi vujudga keladi. Huquqiy normalar bilan tartibga solingan munosabatlargina, huquqiy munosabat hisoblanadi.

Ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi, A.P.Dubinning fikricha[1], ixtiyoriy hodisa bo'lmay, balki qonuniy jarayondir. huquqiy normalar tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlardan, huquqiy voqelikdan bevosita kelib chiqishi kerak. Chunki huquqiy normalarga munosabatlarni vujudga keltirishdan avval, ushbu munosabatlar ichki rivojlanishning oqibati, ularning zarurligi, mohiyatining ta'siri bo'lishi kerak;

3) huquqiy munosabat – kishilarning o'zaro subyektiv huquqlari va yuridik majburiyatlari vositasidagi aloqalaridir. Bu aloqalar huquq normalari bilan mustahkamlangan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish orqali vujudga keladi;

4) huquqiy munosabat – irodaviy munosabatdir. Huquqiy normalarda davlatning muayyan irodasi ifoda etiladi. Shu bilan birga huquqiy munosabat vujudga kelishi uchun uni ishtirokchilarining ham irodasi talab qilinadi. Ba'zi bir huquqiy munosabatlar uning barcha ishtirokchilarining irodasi bilan vujudga kelishi mumkin;

5) *huquqiy munosabat – davlat tomonidan qo'riqlanadigan munosabatlardir.* Huquqiy normalarda davlat irodasi va manfaatlari ifoda etilganligi sababli, ular asosida vujudga keladigan munosabatlar davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Agar huquqiy normalarda belgilangan talablar ixtiyoriy ravishda bajarilmasa, davlatning majburlov choralari harakatga keladi.

Demak, huquqiy munosabatlar – huquqiy normalar asosida vujudga keladigan va davlat tomonidan qo'riqlanadigan hamda insonlarning faoliyati va xulq-atvori bilan bog'liq bo'lgan irodaviy munosabatlardir.

Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarga boshqa barcha huquqiy munosabatlar singari umumiy xususiyatlar xosdir.

Davlat boshqaruvi jarayonida turli-tuman munosabatlar vujudga kelib, turli huquq tarmoqlari bilan tartibga solinadi. Jumladan,

---

[1] Дубин А.П. Диалектика правоотношения. – Саратов. 1984. С. 13.

davlat boshqaruvi sohasidagi aksariyat huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat, moliya va boshqa huquq tarmoqlarining normalari asosida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar o'rtasida ma'muriy-huquqiy munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar – bu ma'muriy huquq normalari asosida vujudga keladigan munosabatlardir.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar o'zining tuzilishiga ko'ra, munosabat *subyekti*, *obyekti* va *mazmuni*ga ega.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ***subyekti*** bo'lib, unda ishtirok etuvchi tomonlar, ya'ni boshqaruv jarayonida ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan (davlat boshqaruv organlari, mansabdor shaxslar) yoki boshqacha ma'muriy-huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslar (fuqarolar, jamoat birlashmalari) hisoblanadi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ***obyekti*** bo'lib esa, ma'muriy huquq subyektlarining harakatlari (qarorlari), ularning ijobiy yoki salbiy xulq-atvori hisoblanadi. «*Obyekt*» so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, «*mavzu*» degan ma'noni anglatadi. Har qanday huquqiy munosabat ma'lum bir jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan muayyan bir vazifani bajaradi. Shu sababli, obyektsiz huquqiy munosabat bo'lishi mumkin emas.

Ko'pgina huquqshunos olimlarning fikricha, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning obyektini – yagona, ya'ni davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi ma'muriy huquq subyektlarining xatti-harakatlari tashkil etadi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ***mazmuni***ni – ma'muriy huquq subyektlarining huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, taqiqlar, cheklovlar tashkil etadi.

Huquqshunos olim D.N.Baxrax, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning mazmuniga yuqoridagilardan tashqari, ularni amalga oshirish, ijro etish, ularga rioya etish va himoya qilishning ***protsessual-huquqiy tartibi***ni ham kiritadi.[1]

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar mazmunining asosiy elementi bo'lib – ommaviy huquqlar va majburiyatlar tashkil etadi. Subyektlar mazkur huquqlar va majburiyatlarni amalga oshirish orqali ommaviy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga aylanadi.

Demak, ma'muriy-huquqiy munosabatlar huquqiy munosabatlarning bir turi bo'lib, o'zining mazmuni, xususiyatlari va ishtirokchilari bilan boshqa huquqiy munosabatlardan ajralib turadi.

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С. 108.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar (keng tarqalgan konsepsiyalardan biri) quyidagi *o'ziga xos xususiyatlar*ga ega:

a) bu munosabatlar – davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladi;

b) bu munosabatlarda hamma vaqt davlat boshqaruvi organi ishtirok etadi;

d) bu – bo'ysinuvga asoslangan munosabatlar bo'lib, unda ishtirok etuvchi tomonlar yuridik jihatdan teng emas.[1]

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning *o'ziga xos xususiyatlari* (yana bir konsepsiyaga binoan) quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

a) bu munosabatlar – davlat boshqaruvi jarayonida (yoki sohasida) vujudga keladi;

b) bu munosabatlarning majburiy subyekti bo'lib davlat nomidan ommaviy-huquqiy manfaatlarni ko'zlab harakat qiluvchi davlat boshqaruvi (ijro hokimiyati) organlari hisoblanadi;

d) bu munosabatlar – hokimiyat-bo'ysinuv va tomonlarning yuridik teng emasligi bilan tavsiflanadi;

e) bu munosabatlar – ommaviy yoki individul manfaatlarni qondirish maqsadida boshqaruv vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha vujudga keladi;

f) bu munosabatlar – tashkillashtirish xususiyatiga ega, ya'ni ular davlat boshqaruvining boshqaruv obyektiga tashkilotchilik ta'siri doirasida vujudga keladi;

g) bu munosabatlar – qonuniylikni ta'minlashning alohida huquqiy tartibi va o'zining huquqiy himoyasi bilan ajralib turadi.[2]

Alimov X.R.ning ko'rsatishicha, *ma'muriy-huquqiy munosabatlar quyidagi xususiyatlarga ega* bo'lishi mumkin:

a) ma'muriy-huquqiy munosabatlar davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladi;

b) ma'muriy-huquqiy munosabatlarning bir tomonida hamma vaqt davlat organi, mansabdor shaxs yoki boshqaruv huquqiga ega bo'lgan jamoat birlashmasi ishtirok etadi;

d) ma'muriy-huquqiy munosabatlar bir tomonning xohishi bilan vujudga kelib, ikkinchi tomonning roziligini talab etmaydi;

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. – «Зерцало», 1998. С. 70-82.

[2] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С. 105-116.

e) ma'muriy-huquqiy munosabat ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan nizolar, aksariyat hollarda ma'muriy tartibda hal qilinadi.[1]

Yuqoridagilarga asoslanadigan bo'lsak, ma'muriy-huquqiy munosabatlar — davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladi; munosabatning majburiy ishtirokchisi bo'lib davlat organlari namoyon bo'ladi; munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari munosabat turini belgilab beradi. ***Ma'muriy-huquqiy munosabatlar*** — bu davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan, ijro etish va farmoyish berish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solingan huquqiy munosabatlarning bir turidir.

2-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar ma'muriy-huquqiy normalarda nazarda tutilgan sharoitlar mavjud bo'lganida vujudga keladi. Ma'muriy-huquqiy normalar o'z-o'zidan bevosita ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi. Balki, ma'muriy-huquqiy munosabatlar vujudga kelishining shartlarini, holatlarini va mezonlarini belgilab beradi. Bu — ***yuridik faktlar*** bo'lib, norma talabidan kelib chiqqan holda tomonlar o'rtasida ma'lum bir huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi holatlardir.

Yuridik faktlar ma'muriy-huquqiy munosabatlarning zaruriy sharti, aniq talabi sifatida maydonga chiqadi.

Jamiyatda turli-tuman holatlar va shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ularning hammasi ham yuridik fakt bo'lib hisoblanmaydi. Muayyan hodisa va holatlarni yuridik fakt deb ye'tirof etish, davlatning xohish-irodasiga bog'liqdir.

Yuridik faktlar nafaqat ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, balki o'zgartirishi yoki bekor qilishi ham mumkin.

Yuridik faktlar ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda katta ahamiyatga egadir.

Yuridik faktlar huquqiy norma bilan huquqiy munosabat o'rtasidagi bog'lovchi vositadir.

Yuridik faktlar turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarga ko'ra yuridik faktlar:

---

[1] Alimov X.R. Ma'muriy huquq. — T.: 1995.

a) *huquqni yaratuvchi*;
b) *huquqni o'zgartiruvchi*;
d) *huquqni bekor qiluvchi* faktlarga bo'linadi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar harakatlar va hodisalar singari yuridik faktlardan vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi mumkin.

Harakatlar – bu huquq subyektlari tomonidan o'z xohish-irodalarini ifodalashning natijasidir.

Aksariyat ma'muriy-huquqiy munosabatlar *harakatlar*dan vujudga kelib, ular subyektning faol xulq-atvori bilan bog'liq bo'ladi. Harakatlar ikkiga bo'linadi:

a) ***qonuniy harakatlar*** – hamma vaqt ma'muriy-huquqiy normalar talabiga mos keladi. Bunda yuridik fakt sifatida munosabat ishtirokchilarining qonunga muvofiq harakati namoyon bo'ladi.

Qonuniy harakatlar o'z navbatida ikki ko'rinishga ega:

– *davlat boshqaruvi organlarining huquqiy aktlari*; huquqiy aktlar normativ yoki yakka (individul, ma'muriy) aktlarga bo'linadi. Huquqiy aktlarda qonunga muvofiq harakatlar muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishini nazarda tutib sodir etiladi. Bunday harakatlarda – huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishiga qaratilgan iroda ifodalanadi;

– *yuridik xatti-harakatlar*;

b) ***qonunga xilof harakatlar*** – ma'muriy-huquqiy normalar talablariga mos kelmaydigan, ularni buzadigan harakatlardir. Bu - davlat boshqaruvi sohasiga xos bo'lgan intizomiy va ma'muriy nojo'ya harakatlardir. Shaxsning *harakatsizligi* ham aynan mana shu guruhga kiradi (masalan, ichki ishlar xodimi tomonidan jamoat tartibini saqlashga qaratilgan choralarning ko'rilmasligi).

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishiga asos bo'ladigan ikkinchi yuridik fakt – bu ***hodisalar***dir. Hodisalar odamlarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda sodir bo'ladigan faktlardir (insonning tug'ilishi, ma'lum bir yoshga etishi, o'limi, tabiiy ofat va boshqalar).

3-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning turlari

Davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan ma'muriy-huquqiy munosabatlar turli-tuman bo'lib, ularni bir necha asoslarga ko'ra tasniflash (guruhlash, turlarga bo'lish) mumkin.

Huquq nazariyasiga asoslanib, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vazifasi va funksional belgilanishiga qarab, ularni ikkiga bo'lish mumkin:

a) ***tartibga soluvchi munosabatlar***, ya'ni huquq subyektlarining mo'tadil xulq-atvori, huquqqa muvofiq xatti-harakatlarining natijasida vujudga keladigan munosabatlar;

b) ***muhofaza qiluvchi munosabatlar***, ya'ni huquqbuzarlikni sodir etish va bu uchun davlatning majburlov choralarini qo'llash zaruriyati asosida vujudga keladigan munosabatlar.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda huquqiy munosabatlarning ***moddiy*** va ***protsessual*** turlarga bo'linishi ham ko'rsatib o'tilgan.

Moddiy huquqiy munosabatlar — bu moddiy ma'muriy-huquqiy normalar asosida vujudga keladigan hamda huquq subyektlari tomonidan huquq va majburiyatlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardir.

Protsessual huquqiy munosabatlar — davlat-hokimiyat xususiyatiga ega bo'lib, huquqiy munosabat subyektlarining subyektiv protsessual huquqlari va majburiyatlarini belgilash va tartibga solishda namoyon bo'ladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning turlari bo'yicha huquqshunos olimlar o'rtasida yagona fikr mavjud emas. Jumladan, A.P.Alexinning fikricha[1], ma'muriy-huquqiy munosabatlar shartli ravishda quyidagilarga bo'linishi mumkin:

a) asosiy va ***yordamchi*** (asosiy bo'lmagan) ma'muriy-huquqiy munosabatlar — bevosita boshqaruv ta'sirini (subyekt — obyekt») ifoda etuvchi munosabatlar bo'lib, unda davlat boshqaruvi faoliyati yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur munosabatlar «buyruq — ijro» formulasiga asoslangan bo'lib, birinchi navbatda yuqori turuvchi va quyi turuvchi davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi, rahbar — mansabdor shaxs bilan unga xizmat bo'yicha bo'ysinuvchi xodim o'rtasidagi, davlat boshqaruv organlari (mansabdor shaxs) bilan ma'lum bir ma'muriy-huquqiy majburiyatga ega bo'lgan shaxs o'rtasidagi munosabatlardir.

Ushbu munosabatlar u yoki bu obyektga bevosita boshqaruv ta'siri doirasidan tashqarida bo'lgan, lekin boshqaruvni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardir. Asosiy ma'muriy-huquqiy munosabatlar boshqaruv mazmunini ifoda etsa, yordamchi ma'muriy-huquqiy munosabatlar boshqaruv mazmuni bilan bog'liq bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri uni ifoda etmaydi.

Yordamchi ma'muriy-huquqiy munosabatlar davlat boshqaruvi jarayonida vujudga kelsa ham, ularning asosiy vazifasi boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga bevosita ta'siri hisoblanmaydi.

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. — «Зерцало», 1998. С. 83-91.

Bu munosabatlar asosiy ma'muriy-huquqiy munosabatlarga, ya'ni bevosita boshqaruv ta'sirini amalga oshirishga ko'maklashadi. Masalan, davlat boshqaruvini amalga oshirish maqsadida biron bir normativ hujjatni tayyorlash bo'yicha ikki boshqaruv subyekti o'rtasida vujudga keladigan va bo'sinuvga asoslanmagan munosabatlar – yordamchi ma'muriy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bunday munosabatlar turli-tuman bo'lib, davlat boshqaruvini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib beradi;

b) subordinatsiyaviy (bevosita bo'ysunuvga asoslangan) va ***koordinatsiyaviy*** (muvofiqlashtiruvchi) ma'muriy-huquqiy munosabatlar.

Boshqaruv subyekti yuridik irodasining avtoritarligiga asoslangan munosabatlar – *subordinatsiyaviy*, avtoritarlik mavjud bo'lmagan munosabatlar – *koordinatsiyaviy* hisoblanadi. Lekin shu narsani ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, davlat boshqaruvining yuqori turuvchi va quyi turuvchi subyektlari o'rtasidagi munosabatlarda muvofiqlashtirish – yuridik-hokimiyat xususiyatiga ega bo'lishi, ya'ni muvofiqlashtirish subordinatsiyaviy ham bo'lishi mumkin. Masalan, vazirlik tomonidan unga bo'ysinuvchi boshqarma faoliyatini muvofiqlashtirishi. Mazkur munosabat birinchi navbatda, muvofiqlashtirish maqsadida vujudga kelgan, lekin ular o'rtasidagi tashkiliy jihatdan bevosita bo'ysinuv muvofiqlashtirishni subordinatsiyaga aylantiradi.

Ayrim hollarda muvofiqlashtirish yuridik-hokimiyat xususiyatiga ega bo'lmasligi, bo'ysinuv bilan bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Shu sababli ham ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subordinatsiyaviy va koordinatsiyaviy turlarga bo'linishi shartli hisoblanadi;

d) vertikal va gorizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlar.

Vertikal ma'muriy-huquqiy munosabatlar – ma'muriy-huquqiy tartibga solishning mohiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvi faoliyatiga xos bo'lgan boshqaruv subyekti va obyekti o'rtasidagi subordinatsiyaviy aloqalarni anglatadi. Vertikal ma'muriy-huquqiy munosabatlar aynan hokimiyat munosabatlaridir. Mazkur munosabatlar bo'ysinuv mavjud bo'lgan tomonlar o'rtasida vujudga keladi hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farq qilgan holda, ularda tomonlarning tengligi mavjud emas. Vertikallik deganda – bir tomonda yuridik-hokimiyat vakolatlari mavjudligini, ikkinchi tomonda esa bunday vakolatlarning mavjud emasligini (masalan, fuqarolar) yoki vakolat doirasi torroq ekanligi (masalan, quyi turuvchi organ) tushunish lozim. Aynan vertikal ma'muriy-huquqiy

munosabatlarda boshqaruv subyektining u yoki bu obyektga bevosita boshqaruv ta'siri amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vertikalligini anglatuvchi quyidagi xususiyatlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

– vertikal munosabatlarning asosiy (bosh) ko'rsatkichi hisoblangan – «*tomonlar tengsizligi*»ning mavjudligi; boshqaruv subyektida yuridik-hokimiyat vakolatlarining mavjudligi;

– tomonlarning tengsizligi bir tomoning (boshqaruv obyekti) ikkinchi tomonga (boshqaruv subyekti) *bo'ysinishi*, ya'ni «hokimiyat – bo'ysunuv»ga asoslanishi;

– ma'muriy-huquqiy munosabatlarda bo'ysunuv hamma vaqt ham aniq namoyon bo'lmaydi. Masalan, fuqaro yoki nodavlat tashkiloti boshqaruv subyektiga (ijro hokimiyatiga) tashkiliy jihatdan bo'ysunmagan yoxud ijro hokimiyati organlarining hammasi ham to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvga ega emas. Lekin mazkur hollarda ham tomonlarning tengsizligi yaqqol namoyon bo'ladi;

– davlat boshqaruvi sohasida bo'ysunuv to'g'risida gapirganda, birinchi navbatda *tashkiliy jihatdan bo'ysinuv*ni nazarda tutish lozim;

– vertikal xususiyatdagi aksariyat ma'muriy-huquqiy munosabatlar bo'ysunuv mavjud bo'lmagan tomonlar o'rtasida ham vujudga kelishi mumkin. Lekin bu holda ham bir tomon o'z vakolati doirasida o'ziga bo'ysunmagan ikkinchi tomon uchun majburiy bo'lgan huquqiy aktni qabul qilishi mumkin;

– davlat boshqaruvi sohasida kontrol-nazorat faoliyati keng doirada amalga oshirilib, uning subyektlari sifatida ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar)ning o'zi namoyon bo'ladi. Masalan, maxsus tashkil etiladigan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan ma'muriy nazorat yuridik-hokimiyat xususiyatiga ega bo'lib, tashkiliy jihatdan bo'ysinmagan boshqaruv obyektlariga nisbatan amalga oshiriladi;

– ma'muriy-huquqiy normalarda ko'rsatib o'tilgan talablar doirasida boshqaruv subyektlari ularga bo'ysinmagan shaxslarga (fuqarolarga, nodavlat tuzilmalariga) o'zlarining yuridik-hokimiyat irodasini ifoda etishi mumkin va h.k.lar.

Demak, vertikal ma'muriy-huquqiy munosabatlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv ta'sirini amalga oshirish hamda bir tomon yuridik-hokimiyat irodasining ustunligi bilan ifodalanadi.

Gorizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlarda bir tomonning ikkinchi tomonga nisbatan yuridik-hokimiyat irodasining ustunligi

mavjud emas. Ma'lum bir ma'noda, gorizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlarda tomonlar teng hisoblanadi. Gorizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlar vertikal ma'muriy-huquqiy munosabatlar singari ko'p tarqalgan emas. Chunki ular qaysidir ma'noda ma'muriy-huquqiy tartibga solish doirasidan chetda qolgan. Lekin davlat boshqaruvi sohasida bunday munosabatlarning vujudga kelishi mumkin.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda tomonlarning tengligini tan olish — ma'muriy-huquqiy tartibga solishning mazmuniga, shuningdek, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning xususiyatlariga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli, bunday munosabatlarning boshqaruv sohasida vujudga kelishi shubha ostiga olingan. Lekin boshqaruvdagi gorizontallik xususiyatini to'g'ri anglaganda, bunday shubhalarga o'rin qolmaydi. Bu uchun quyidagi xususiyatlarga e'tibor qaratish lozim:

birinchidan — tomonlar o'rtasida bo'ysinuvning mavjud emasligi, tomonlarning bir xildagi huquqiy darajaga ega ekanligi, yuridik tenglikning formal emas, balki haqiqatda mavjud bo'lishi;

ikkinchidan — boshqaruv munosabatlarida bu ikkala xususiyat (*bo'ysinuvning mavjud emasligi* va *yuridik tenglik*)ning bir vaqtda mavjud bo'lishi;

uchinchidan — bir tomonning ikkinchi tomonga qaratilgan yuridik-hokimiyat irodasining bo'lmasligi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlar o'rtasida gorizontal munosabatlarni ajratib olish mushkuldir. Chunki ular vertikal munosabatlar singari yaqqol namoyon bo'lmaydi. Lekin boshqaruv amaliyotiga asoslanib, gorizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

— *bevosita boshqaruv ta'siriga ko'maklashuvchi munosabatlar.* Bu munosabatlar vertikal munosabatlarga xizmat qiladi, ya'ni bir tomonlama yuridik-hokimiyat qarorini qabul qilish uchun shart-sharoitlar yaratib berishga qaratiladi. Gorizontal munosabatlar bir darajada bo'lgan boshqaruv subyektlari o'rtasida vujudga keladi. Masalan, birgalikda normativ hujjatni qabul qilish uchun tayyorgarlik ko'rish; hamkorlikda boshqaruv harakatlarini amalga oshirish; birgalikda qo'shma tadbirlarni (majlislarni) olib borish; idoralararo, maslahat yoki muvofiqlashtiruvchi kengashlarni tashkil etish bo'yicha munosabatlar;

— *bevosita boshqaruv ta'siri amalga oshirilgandan keyin vujudga keladigan munosabatlar*, ya'ni bir tomonlama tartibda qabul qi-

lingan qarorning samarali ijro etilishiga sharoitlar yaratib berish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

— *ma'muriy-protsessual xususiyatdagi munosabatlar.* Bunday munosabatlarda ham tomonlar teng huquqli darajaga ega bo'ladi. Masalan, fuqarolarning shikoyatlarini, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar. Bu munosabatlarning mazmunini ma'muriy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish tashkil etadi;

— turli xildagi shartnoma shakliga ega bo'lgan *ma'muriy-kelishuv xususiyatiga ega bo'lgan munosabatlar.* Masalan, u yoki bu lavozimdagi ishga qabul qilish to'g'risida oldindan kelishuv.

Yu.M.Kozlov, yuqoridagi ma'muriy-huquqiy munosabat turlaridan tashqari *tashqi* va *ichki tashkiliy* munosabatlarni ham ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, ma'muriy-huquqiy munosabatlar:

a) davlat boshqaruvi organlari ichki faoliyatining doirasida vujudga keladigan munosabatlarga (masalan, tuzilmaviy va kadrlar masalasini hal etish, boshqaruv apparati xodimlarining majburiyatlarini, ularning javobgarligini belgilash);

b) boshqaruvning tashqi sohasi doirasida, ya'ni boshqaruv obyektlariga nisbatan bevosita boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarga bo'linadi.[1]

Yu.N.Starilov esa ma'muriy-huquqiy munosabatlarga to'xtalib, ularning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tadi:

1) maqsadiga ko'ra:

a) muhofaza etuvchi munosabatlar;

b) tartibga soluvchi munosabatlarga bo'linishi mumkin;

2) ishtirokchilariga ko'ra:

a) davlat apparatiga tegishli bo'lgan ishtirokchilar (davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari) o'rtasidagi munosabatlar;

b) ijro hokimiyati organlari va davlat korxona, muassasa, tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlar;

d) ijro hokimiyati organlari va jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari o'rtasidagi munosabatlar;

e) ijro hokimiyati organlari va nodavlat tijorat tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlar;

f) ijro hokimiyati organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarga bo'linadi;

3) faoliyat yo'nalishiga ko'ra:

---

[1] Административное право: учебник / Под ред. Ю.М.Козлова, Л.Л.Попова. — М.: «Юрист», 2000. С. 77-84.

a) umumiy vakolatli ijro hokimiyati organlarining munosabatlari;

b) sohaviy vakolatli ijro hokimiyati organlarining munosabatlari;

d) sohalararo vakolatli ijro hokimiyati organlarining munosabatlari;

e) ichki tashkiliy munosabatlarga bo'linadi;

4) ishtirokchilar o'zaro aloqalarining yuridik xususiyatiga ko'ra:

a) vertikal munosabatlar;

b) gorizontal munosabatlarga bo'linadi;

5) ichki tashkiliy (va fuksional ichki tashkiliy) ma'muriy-huquqiy munosabatlar;

6) subordinatsiyaviy, koordinatsiyaviy va reordinatsiyaviy ma'muriy-huquqiy munosabatlar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Yu.N.Starilov boshqa huquqshunos olimlaridan farqli ravishda, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning reordinatsiyaviy turini ham ko'rsatib o'tgan. Uning fikricha, *reordinatsiyaviy ma'muriy-huquqiy munosabatlar* – bu boshqariluvchi subyektning boshqaruv subyektiga, ya'ni quyidan yuqoriga qarab ta'sir etish (orqaga qaytish)dir. Masalan, fuqarolarning davlat boshqaruvi organlariga murojaati bilan vujudga keladigan munosabatlar – reordinatsiyaviy ma'muriy-huquqiy munosabat hisoblanadi.[1]

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar tushunchasi.
2. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyekti.
3. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning obyekti.
4. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning mazmuni.
5. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Yuridik faktlar.
7. Harakatlar.
8. Hodisalar.
9. Tartibga soluvchi va muhofaza qiluvchi ma'muriy-huquqiy munosabatlar.
10. Asosiy va yordamchi ma'muriy-huquqiy munosabatlar.
11. Subordinatsiyaviy va koordinatsiyaviy ma'muriy-huquqiy munosabatlar.
12. Vertikal va gorizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlar.

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С. 105–116.

IKKINCHI BO'LIM

MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTLARI

5-bob. MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTLARI TUSHUNCHASI, ULARNING HUQUQ LAYOQATI VA MUOMALA LAYOQATI

1-§. Ma'muriy huquq subyekti tushunchasi

Har bir huquq tarmog'i o'zining subyektlariga ega bo'lib, ular tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

«*Huquq subyekti*»dan «*huquqiy munosabat subyekti*»ni farqlash lozim. Oldingi boblardan ma'lumki, huquqiy munosabat subyekti – bu aniq bir huquqiy munosabatning ishtirokchisidir. Huquq subyekti esa bu huquqiy munosabatlarda ishtirok eta oladigan hamda subyektiv huquqlar va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslardir.

Huquq subyektlari huquqiy munosabatlarga kirishganida, huquqiy munosabat subyektiga aylanishi mumkin. Lekin huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan huquq subyektlari o'zlarining oldingi holatini yo'qotmaydi. huquq subyektlari bir vaqtning o'zida bir necha huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan olganda, huquq subyekti huquqiy munosabat subyektiga qaraganda kengroq tushunchadir.

Yuridik adabiyotlarda huquq subyektlari bo'yicha turlicha fikrlar bildirilgan. Aksariyat huquqshunos olimlarining fikricha, ma'muriy huquq subyektlari ikkiga bo'linadi: **individual subyektlar** va **jamoa subyektlar**.

Jumladan, Yu.M.Kozlovning ko'rsatishicha, *individul subyektlar* – bu fuqarolar, xorijiy davlatning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, davlat xizmatchilaridir.

Jamoa subyektlariga – turli ko'rinishdagi davlat va nodavlat tashkilotlari kiradi. Birinchi guruhga – ijro hokimiyati organlari, davlat korxonalari va muassasalari hamda ularning birlashmalari (masalan, korporatsiya, konsern va h.k.lar), ijro hokimiyati organ-

larining ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan tuzilmaviy bo'linmalari (masalan, departamentlar) kiradi. Ikkinchi guruhga esa jamoat birlashmalari (partiyalar, kasaba uyushmalari, ommaviy harakatlar), xususiy korxona va tashkilotlar hamda boshqa tijorat va notijorat tuzilmalari kiradi.[1]

Yu.N.Starilovning fikricha, ma'muriy huquq subyektlari doirasini aniqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan ular ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari sifatida namoyon bo'lib, davlat boshqaruvi vazifalari va funksiyalarini amalga oshiradilar; davlat boshqaruvi sohasida tartibga solish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, farmoyish berish, kontrol-nazorat vakolatlarini amalga oshiradilar; yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarni ko'rib chiqadilar va h.k.lar.

Ma'muriy huquq subyektlari sifatida ma'muriy qonunchilik normalari bilan o'rnatilgan asoslarda, davlat boshqaruvini amalga oshirishda ishtirok etuvchi jismoniy va yuridik shaxslar (tashkilotlar) namoyon bo'ladi. Ma'muriy huquq subyektlari — ommaviy boshqaruv faoliyati tomonlarining biri bo'lib, qonunchilik bilan ma'lum bir huquqlarga, majburiyatlarga, vakolatlarga, javobgarlikka, ma'muriy-huquqiy munosabatlarga kirishish qobiliyatiga ega bo'lgan boshqaruv munosabatlarining ishtirokchilaridir. Ma'muriy huquq subyektlari tomonidan ularga berilgan huquqlar va majburiyatlarni bajarish aniq bir huquqiy munosabat doirasida amalga oshiriladi.[2]

Yu.N.Starilov ham Yu.M.Kozlov singari, ma'muriy huquq subyektlarini ikkiga: individual va jamoa subyektlariga bo'ladi. *Individual subyektlar* — fuqarolar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lib, ular ijro hokimiyati va ommaviy boshqaruv organlari bilan qat'iy va doimiy tashkiliy aloqalarda bo'lmaydi. Fuqarolar, masalan, qandaydir harakatni sodir etish zarurati bilan ularga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish, tegishli davlat organining ruxsatini (litsenziya) olish, huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni buzadigan ijro hokimiyati organlarining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilish orqali ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: «Юрист», 2003. С. 26.

[2] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. — М.: «Норма», 2004. С. 121—124.

Davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslar ham ma'muriy huquqning individual subyektlari hisoblanadi. Ular davlat hokimiyati organlarida davlat mansablarini egallaydilar, mazkur organlar bilan qat'iy va doimiy aloqalarda bo'ladilar; ularning maqomi normativ huquqiy aktlar bilan bir xilda tartibga solinadi; davlat organlari vakolatlarini amalga oshiradilar va ma'lum bir davlat-hokimiyat vakolatiga ega bo'ladilar; davlat organlari nomidan harakat qiladilar va qarorlar qabul qiladilar.

Ma'muriy huquqning *jamoa subyektlari* – bu insonlar guruhi bo'lib, tashqi munosabatlarda mustaqil subyekt sifatida ishtirok etadilar; ularni tashkil etish tartibi va faoliyati normativ huquqiy aktlar bilan tartibga solinadi. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda jamoa subyektlari o'z nomlaridan harakat qiladilar; qonun va boshqa normativ hujjatlarda ularning huquqlari va ma'lum bir majburiyatlari belgilab qo'yiladi.

B.N.Gabrichidzening ko'rsatib o'tishicha, ma'muriy huquqning subyektlari bo'lib:

a) *davlat hokimiyati organlari*;

b) *jamoat birlashmalari*;

d) *korxona va tashkilotlarning ma'muriyati*;

e) *fuqarolar* hisoblanadi.

Ma'muriy huquq subyektlari o'zining tabiati, huquqiy maqomi va boshqa belgilariga ko'ra bir-biridan farqlanadi.[1]

L.I.Solovevaning fikricha, ma'muriy-huquqiy muno-sabatlarning subyektlari deganda – davlat boshqaruvi sohasida huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan va ularni amalga oshira oladigan aniq tomonlar tushuniladi. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lib:

a) *davlat organlari*;

b) boshqaruv organi yoki jamoat birlashmasi nomidan harakat qiladigan hamda boshqaruv sohasida yuridik-hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan *mansabdor shaxslar*;

d) *korxona, muassasa va tashkilotlar*;

e) *jamoat birlashmalari*;

f) *fuqarolar*.[2]

---

[1] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право: Учебник. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С.63.

[2] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др./ – Т.: «Адолат», 1999. С. 26–27.

2-§. Ma'muriy huquq subyektlarining huquq layoqati va muomala layoqati

Ma'muriy huquq subyekti hamma vaqt huquq subyekti hisoblanadi. Huquqning subyektlari bir vaqtning o'zida bir necha huquq tarmoqlarining subyekti sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, fuqaro bir vaqtning o'zida ma'muriy, fuqarolik yoki mehnat huquqi tomonidan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar subyekti bo'lishi mumkin. Mazkur huquqiy munosabatlarning mohiyati — huquq layoqati tushunchasi, uning xususiyati, mazmuni va hajmi orqali yoritib beriladi.

Ma'muriy ***huquq layoqati*** va ***muomala layoqati*** — subyektlar ma'muriy-huquqiy holatining asosini tashkil etadi.

Subyektning huquq layoqati uning yuridik huquq va majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Odatda, u aniq bir shaxsning subyektiv huquq va subyektiv majburiyatga ega bo'lish qobiliyatini anglatadi.

Ma'muriy huquq layoqati — huquq subyekti umumiy huquq layoqatining bir turi bo'lib, qonunchilik bilan o'rnatilgan va davlat tomonidan kafolatlangan hamda aniq bir subyektning (fuqaro, davlat organi, davlat xizmatchisi, mansabdor shaxs, nodavlat tuzilmalari va h.k.lar) turli huquqiy munosabatlarda ishtirok etish qobiliyatini anglatadi.

Ma'muriy huquq layoqati — bu ma'lum bir huquqlarga ega bo'lish va majburiyatlarni bajarish, harakatlarni amalga oshirish va qarorlar qabul qilish, ma'muriy ish qo'zg'atish va ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish, huquqiy normalarni buzish va qonun bilan o'rnatilgan talablarga rioya etmaganlik uchun javobgarlikka tortilish qobiliyatiga ega bo'lishdir.

Shunday qilib, ma'muriy huquq layoqati aniq bir ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishida, mazkur huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining aniq huquq va majburiyatlarga ega bo'lishida xizmat qiladi. Ma'muriy huquq subyektlari tomonidan huquq va majburiyatlarning amalga oshirilishi — huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi yuridik faktlar bilan ta'minlanadi. Ma'muriy huquq subyektining huquqiy layoqati — unga nisbatan yuridik javobgarlikni qo'llash qobiliyatini ham vujudga keltiradi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar faqatgina uning subyektlari huquq layoqatiga ega bo'lganidagina, ya'ni huquqiy munosabatlarga kirishish uchun asos bo'ladigan huquq va majburiyatlarga ega bo'lganida vujudga kelishi mumkin. Qonunchilik hujjatlari bilan ma'lum bir huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan ma'muriy-hu-

quqiy munosabatning har bir ishtirokchisi – ma'muriy huquqning subyekti sifatida tan olinadi.

Ma'muriy huquqning har bir subyekti o'ziga xos ma'muriy huquq layoqatiga egadir. Masalan, fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati o'zining mazmuni va xususiyatlariga ko'ra ijro hokimiyati organlarining, jamoat birlashmalarining yoki boshqa tashkilotlarning ma'muriy huquq layoqatidan farqlanadi. Bundan tashqari, ma'muriy qonunchilikka kiritiladigan o'zgarishlar – ma'muriy huquq layoqatining mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar tomonidan ma'muriy huquq layoqatining amalga oshirilishini jismoniy shaxsning yoki boshqaruv organi (mansabdor shaxs)ning xohish-irodasini ifoda etishisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'muriy huquq subyektining huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bo'yicha ifodalangan irodasi – huquq layoqatini yuridik mazmun bilan boyitadi.

Demak, ***ma'muriy huquq layoqati*** – bu subyekt tomonidan u uchun o'rnatilgan huquqlar, erkinliklardan foydalanish, shuningdek, majburiyatlarni bajarish, vakolatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Ma'muriy huquq subyektining ma'muriy huquq layoqati uning ma'muriy huquqiy holatini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, huquq layoqati – tegishli sharoitlar mavjud bo'lganida huquq subyektini huquqlar va erkinliklardan foydalanuvchi, majburiyatlar yuklash hamda yuridik javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan shaxs sifatida namoyon qiladi.

Ma'muriy huquqning barcha subyektlari o'ziga xos ma'muriy huquqiy maqomga egadir. Shuning uchun ham oldingi yuridik adabiyotlarda hamda hozirgi adabiyotlarda «Ma'muriy huquq subyektlari» bo'limi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) fuqarolar, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ma'muriy-huquqiy maqomi;

b) davlat boshqaruvi (ijro hokimiyati) organlarining ma'muriy-huquqiy maqomi;

d) davlat xizmatchilarining ma'muriy-huquqiy maqomi;

e) korxona, muassasa va tashkilotlarning (davlat va nodavlat korxona va tashkilotlari, xo'jalik birlashmalari, jamoat birlashmalari va h.k.lar) ma'muriy-huquqiy maqomi.

Shu bilan birga, ma'muriy huquq subyektlarining huquq layoqati umumiy xususiyatga ham ega bo'lishi mumkin. Jumladan, Yu.N.Starilovning ko'rsatib o'tishicha, subyektlarning huquq layoqatini umumiy va o'ziga xos xususiyatlari ma'muriy huquqning predmeti va tartibga solish uslubiga asoslanadi.

Ma'muriy huquq subyektlarining huquq layoqatidagi *umumiylik* quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, *ma'muriy huquq layoqatini amalga oshirish jarayonida namoyon bo'luvchi boshqaruvning mazmunida.* Ma'muriy huquq subyektlari ijro hokimiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, davlat boshqaruvning turli funksiyalarini amalga oshiradilar (bu barcha subyektlarga tegishlidir);

ikinchidan – *ma'muriy huquq subyektlarining tashkiliy aloqalarni va ommaviy boshqaruv tizimidagi munosabatlarni vujudga keltiruvchi maxsus huquq va majburiyatlarga ega bo'lishida* (barcha subyektlarga tegishli);

uchinchidan – *ma'muriy huquq subyektlarining ayrimlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning yuridik-hokimiyat xususiyatiga ega bo'lishida* (ijro hokimiyati organlari va mansabdor shaxslarga tegishli);

to'rtinchidan – *davlat-majburlov vakolatlarini, ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini amalga oshirishda* (maxsus subyektlarga tegishli);

beshinchidan – *ishtirokchilari fuqarolar bo'lgan huquqiy munosabatlarning muhofazasini ta'minlashda* (barcha subyektlarga tegishli);

oltinchidan – *boshqaruv jarayonida vujudga kelgan nizomi o'rnatilgan protsessual qoidalar doirasida ma'muriy va sud tartibida ko'rib chiqishning huquqiy kafolatlarida* (barcha subyektlarga tegishli).[1]

Ma'muriy-huquqiy normalar bilan o'rnatilgan huquq layoqatiga ega bo'lgan subyektlar, ularga berilgan huquq layoqatini amalda ro'yobga chiqarishlari orqali, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilariga aylanadilar. Shu sababli, m'muriy huquq subyektlari ma'muriy huquq layoqati bilan bir vaqtda ma'muriy muomala layoqatiga, ya'ni ularga tegishli bo'lgan boshqaruv sohasidagi huquqlarni amalga oshirish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Jismoniy yoki yuridik shaxsning ***muomala layoqati*** – bu ularning o'z qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) bilan huquqlarga ega bo'lishi va amalga oshirishi, o'zlariga va boshqa shaxslarga majburiyatlarni vujudga keltirishi, ularni bajarishi hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishidir.

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С. 126-127.

Ma'muriy muomala layoqati, Yu.N.Starilovning fikricha, normativ o'rnatilgan va ma'muriy huquq subyektiga tegishli bo'lgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishga imkon beradigan «faol» va «ijodiy» asoslarga egadir, ya'ni huquq subyekti tomonidan unga tegishli huquqlar va erkinliklardan, vakolatlardan foydalanish, boshqaruv sohasida qonuniylikni ta'minlash, boshqaruv funksiyalarini bajarish, boshqaruvning ma'muriy-huquqiy shakl va uslublarini, ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini qo'llash hisoblanadi. Muomala layoqati — bu subyektlar tomonidan ularga tegishli bo'lgan huquq va erkinliklarni amalga oshirishning, shuningdek, o'rnatilgan majburiyatlarni bajarishning muhim sharoitidir.[1]

Ma'muriy muomala layoqati — jismoniy shaxs yoki davlat ma'muriyati vakilining ma'lum bir huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan o'z xatti-harakatlarini anglashi va to'g'ri baholashi, ularga amal qilishi hamda ularni qo'llashning qonuniy ekanligini kafolatlash qobiliyatidir. Muomala layoqati shaxsning ma'lum bir qobiliyati sifatida quyidagi elementlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin:

— o'zlariga tegishli bo'lgan huquqlarni mustaqil amalga oshirish;

— o'rnatilgan vakolatlarni amalga oshirish va boshqaruvning huquqiy aktlarini qabul qilish;

— ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini qo'llash;

— fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini tan olish, kafolatlash va himoya qilish;

— fuqarolarga, davlat organiga yoki yuridik shaxsga keltirilgan zarar uchun huquqiy javobgarlikka tortilish;

— ma'muriy yoki intizomiy huquqbuzarlik (nojo'ya xatti-harakat) sodir etganda, tegishlicha ma'muriy yoki intizomiy javobgarlikka tortilish.

Ma'muriy huquq subyektlarida ma'muriy muomala layoqati turlicha vujudga keladi. Muomala layoqati vujudga kelishining asosiy sharti bo'lib, subyektlar huquqlari, majburiyatlari va vakolatlarining xususiyatlari hisoblanadi.

Ma'muriy qonunchilik ma'muriy huquq subyektlarining muomala layoqatini turli asoslarga ko'ra belgilaydi:

a) yoshga qarab (masalan, fuqarolarning umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishi 16 yoshdan boshlanadi yoki fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi 18 yoshdan boshlanadi);

---

[1] O'sha joyda.

b) mansabni egallaganlik holatiga qarab (masalan, davlat-hokimiyat vakolatlarini faqatgina maxsus huquqiy normalar bilan vakolat berilgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi);

d) huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarishning huquqiy tartibiga qarab (masalan, favqulodda holatlarda shaxslarning huquqlari cheklab qo'yilgan bo'lishi mumkin);

e) ro'yxatga olish yoki boshqa ma'muriy jarayonlarni olib borish natijasiga qarab (masalan, ma'muriy huquq subyekti hisoblangan ayrim tashkilotlar o'z faoliyatini faqatgina tegishli tartibda ularning ustavi ro'yxatga olingandan yoki ruxsatnoma (litsenziya) berilgandan so'ng amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi).

Ma'muriy muomala layoqatiga ega bo'lishning huquqiy asoslari normativ huquqiy aktlarda o'rnatiladi.

Demak, jismoniy va yuridik shaxslarning ma'muriy huquq subyekti sifatida namoyon bo'lishi, ma'muriy-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi ko'p jihatdan huquq subyekti ekanligiga, ya'ni ma'muriy huquq layoqati va ma'muriy muomala layoqatining mavjudligiga bog'liqdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy huquq subyekti tushunchasi.
2. Ma'muriy huquq subyekti turlari.
3. Individual subyektlar.
4. Jamoa subyektlari.
5. Ma'muriy huquq layoqati.
6. Ma'muriy muomala layoqati.

6-bob. JISMONIY SHAXSLAR – MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA

1-§. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ma'muriy-huquqiy holatining tushunchasi

Ma'muriy huquqning asosiy subyektlaridan biri – bu fuqarolardir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar – ma'muriy-huquqiy munosabatlarga kirishib, ma'lum bir subyektiv huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari mumkin.

Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi (ma'muriy-huquqiy munosabatlardagi) huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari, javobgarligining yig'indisi – ***fuqarolarning ma'muriy-huquqiy holati***ni tashkil etadi. Bu munosabatlar fuqarolarning ma'muriy huquqning boshqa subyektlari bilan, masalan, davlat hokimiyati organlari bilan, davlat va nodavlat tashkilotlari, korxona, muassasa va jamoat birlashmalari hamda ularning mansabdor shaxslari bilan o'zaro aloqasi natijasida vujudga keladi.

Fuqarolarning huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslardan, qonun hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuniga ko'ra fuqarolik huquq hamda majburiyatlarni keltirib chiqaradigan harakatlaridan vujudga keladi. Jumladan, fuqarolik huquq va majburiyatlari:

a) qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan;

b) qonunda huquq va majburiyatlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan davlat organlari yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hujjatlaridan;

d) qonun yo'l qo'yadigan asoslarda mol-mulk olish natijasida;

e) fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;

f) boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;

g) fuqarolarning boshqa harakatlari natijasida vujudga kelishi mumkin.

Fuqarolarning ma'muriy-huquqiy holati konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan – *fuqaro huquqiy holati*ning ajralmas qismi hisoblanadi.

Fuqarolarning ma'muriy-huquqiy munosabatlardagi huquq va majburiyatlari–ularning konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi hamda ma'muriy-huquqiy aktlarda o'z ifodasini topadi.

Fuqarolar o'zlariga tegishli bo'lgan huquqlarini, shu jumladan, ularni himoya qilish huquqini ham o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar.

Fuqarolar o'z huquqlarini amalga oshirishdan voz kechishi bu huquqlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Fuqarolar o'z huquqlarini amalga oshirishi bilan boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Fuqarolar o'z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma'naviy prinsiplari va axloqiy normalarini hurmat qilishlari lozim.

Fuqarolarning boshqa shaxsga zarar yetkazishiga, boshqacha shakllarda huquqni suiiste'mol qilishiga, shuningdek, huquqni uning maqsadiga zid tarzda amalga oshirishga qaratilgan harakatlariga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning ma'muriy-huquqiy holatini amalga oshirishda – fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati va ma'muriy muomala layoqatiga ega bo'lishi, katta ahamiyatga egadir.

Fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati inson tug'ilishi bilan vujudga keladi. Ma'muriy huquq layoqati – fuqaroning tug'ilishi bilan qonunchilikda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishni anglatadi.

Huquq layoqati inson shaxsi bilan bevosita bog'liq bo'lib, uni cheklash yoki undan mahrum etilishi mumkin emas. Amaldagi qonunchilikka binoan, ma'muriy huquq layoqati – qonunda belgilangan tartibda faqatgina sud tomonidan cheklanishi mumkin.

Fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati uning vafot etishi bilan bekor bo'lishi mumkin.

Fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati ma'muriy huquq layoqatidan farq qilgan holda, ma'lum bir yoshdan vujudga keladi. Fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati – bu fuqarolarning o'z xatti-harakatlari bilan davlat boshqaruvi sohasidagi huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari va amalga oshirishlari tushuniladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati *16 yoshdan, qisman* vujudga keladi. Masalan, 16 yoshga to'lgan fuqarolar[1] pasport olishga majburdirlar yoki ma'muriy huquqbuzarliklarning subyekti 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxslar[2] bo'lishi mumkin. Bu huquqbuzarliklar, asosan, davlat boshqaruvi jarayonida sodir etiladi.

Fuqarolar *18 yoshga to'lganda to'la* ma'muriy muomala layoqatiga ega bo'ladilar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'rsatib o'tilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishlari mumkin. Masalan, Vatanni himoya qilish burchi yoki saylash huquqi 18 yoshdan[3] vujudga keladi.

Ba'zi holatlarda fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati, ya'ni o'zlarining harakatlari bilan davlat boshqaruvi sohasidagi huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari, masalan: 21 yoshdan[4] (xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylanish huquqi); 25 yoshdan[5] (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylanish huquqi); 35 yoshdan[6] (O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylanish huquqi) vujudga kelishi mumkin.

Fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati sud organlari tomonidan cheklanishi mumkin. Masalan, jinoyat sodir etib fuqaro ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan bo'lsa, bunday shaxslar ularga tegishli bo'lgan ayrim huquq va majburiyatlarni (misol uchun, saylash va saylanish huquqi, umumiy harbiy majburiyat) amalga oshira olmaydilar.

---

[1] O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risidagi NIZOM // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 26-fevraldagi 2240-son Farmoniga 1-ILOVA.

[2] O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994-yil. 2015-XII son Qonuni bilan tasdiqlangan. Keyingi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan birgalikda.

[3] Umumiy Harbiy majburiyat va Harbiy xizmat to'g'risida 2002-yil. 12-dekabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002. №12, 217-m.

[4] Xalq deputatlari viloyat, tuman va shaHar Kengashlariga saylov to'g'risida 1994-yil. 5-may Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1994. №5, 125-m.

[5] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida 2003-y. 29-avgust Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 №9-10, 132-m.

[6] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 8-dekabr 1992-yilda qabul qilingan. / Konstitutsiyaga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan O'zR 28.12.1993-y. 989-XII son Qonuni, O'zR 24.04.2003-yil. 470-II-son Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi[1]ga binoan ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo'lgan asoslar bekor bo'lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va unga belgilangan vasiylikni bekor qiladi.

Spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilish natijasida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo'yilishi mumkin. Unga homiylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni mustaqil tuzish huquqiga ega. U boshqa bitimlarni homiyning roziligi bilangina tuzishi, shuningdek, ish haqi, pensiya va boshqa daromadlar olishi hamda ularni tasarruf etishi mumkin. Biroq, bunday fuqaro o'zi tuzgan bitimlar bo'yicha va yetkazgan zarari uchun mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo'ladi. Fuqaroning muomala layoqati cheklanishiga sabab bo'lgan asoslar bekor bo'lsa, sud uning muomala layoqatini cheklashni bekor qiladi. Fuqaroga belgilangan homiylik sud qarori asosida bekor qilinadi.

Vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to'liq layoqatli bo'lmagan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi.

Vasiylar va homiylar o'z himoyalaridagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatsiz himoya qiladilar.

Demak, fuqarolar o'zlarining ma'muriy-huquqiy holatini, faqatgina ma'muriy huquq layoqati va ma'muriy muomala layoqati mavjud bo'lganida, amalga oshirishlari mumkin.

2-§. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlari

Fuqarolar ma'muriy-huquqiy holatining tarkibiy qismini — bu fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlari va erkinliklari, majburiyatlari, javobgarligi tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib

[1] O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. — T.: «Adolat», 1996-y.

chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlari va erkinliklari, birinchi galda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan belgilangan bo'lib, bularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1) yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir;

2) har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega;

3) hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas;

4) jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas;

5) har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas;

6) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir;

7) har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir;

8) hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega;

9) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi bosh-

qarish referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi;

10) fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar;

11) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar;

12) har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega;

13) har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir;

14) har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega;

15) har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega;

16) har kim bilim olish huquqiga ega;

17) har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Fuqarolar ma'muriy-huquqiy holatining ikkinchi asosiy tarkibiy qismi — bu fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi burchlari va majburiyatlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi *fuqarolari quyidagi burchlarni bajaradilar*:

1) fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar;

2) fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar;

3) fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar;

4) fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar;

5) O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosinining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlari va majburiyatlari Konstitutsiyasidan tashqari, amaldagi qonun hujjatlari bilan ham belgilanadi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, fuqarolarning ma'muriy huquqiy holati tarkibiga kiruvchi huquqlar va majburiyatlarni to'rtta guruhga birlashtirish mumkin:

*birinchi guruh*ni – fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillari orqali ishtirok etishi, davlat xizmatida bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan huquqlar va majburiyatlar tashkil etadi. Davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish juda keng tushuncha bo'lib, mohiyatiga ko'ra, mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Fuqarolarning huquq va majburiyatlari bu guruhining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ularni amalga oshirish fuqarolarning faolligini, xohish-irodasini ifoda etishlarini talab etadi;

*ikkinchi guruh*ni – tashkil etuvchi fuqarolarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish nafaqat fuqarolarning faolligini, balki davlat organlari va mansabdor shaxslarning aralashuvini ham talab qilinadi. Jumladan, davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning yordamisiz yoki qo'llab-quvvatlashisiz fuqarolar mitinglar, namoyishlar o'tkazish huquqini, o'z manfaatlarini himoya qilish uchun birlashish huquqini, davlat organlariga yakka tartibda yoki jamoa bo'lib murojaat qilish huquqini, davlat organlari (mansabdor shaxslar)ning qonunga zid xatti-harakatlari (qarorlari) oqibatida yetkazilgan zararni qoplash huquqini amalga oshira olmaydi;

*uchinchi guruh*ni – guruhni tashkil etuvchi fuqarolarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish – davlat organlari va mansabdor shaxslardan bu huquqlarni himoya qilish, davlat tomonidan kafolatlash, ularni amlaga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratib berish bo'yicha funksional faoliyatni amalga oshirilishini talab qiladi;

Davlat boshqaruvi sohasidagi fuqarolar huquq va majburiyatlarining *to'rtinchi guruhi* – davlat organlari faoliyatida fuqarolar ishtiroki bilan bog'liqdir. Masalan, bunga – fu-qarolarning davlat organlari faoliyatida ilmiy-texnik, ekspert, maslahatchi, sohaviy yoki ishchi komissiyalarining a'zosi sifatida ishtirok etishi bilan bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlar kiradi.

Fuqarolar davlat boshqaruvi sohasida o'zlarining huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirish orqali turli ma'muriy-huquqiy munosabatlarga kirishadilar. Bu munosabatlar quyidagilar asosida *vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi* mumkin:

– fuqarolar tomonidan o'zlarining huquqlarini amalga oshirishlari (masalan, davlat organiga murojaat qilish, oliy o'quv yurtlariga kirish);

– fuqarolarning o'z majburiyatlarini bajarishi (masalan, fuqaroning 16 yoshga to'lganda pasport olishi);

– davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishi (masalan, asossiz ravishda shikoyatni ko'rib chiqishni rad etish);

– fuqarolar tomonidan majburiyatlarning bajarilmaganligi (masalan, belgilangan tartibda harbiy xizmatni o'tamaganlik).

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun[1]ga binoan ***O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi*** – shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o'zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo'lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolar oldida, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi esa davlat oldida mas'uldir.

O'zbekiston Respublikasi – O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida o'z fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi – fuqarolikni olish asoslaridan qat'i nazar, barcha uchun teng hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy turmushning barcha sohalarida ta'minlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni bir vaqtda O'zbekiston Respublikasining ham fuqarosidir.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'ladilar:

1. Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, mashg'ulotining turi va shajarasidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar.

2. Davlat yo'llanmasi bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992, №3, 159-m.

shaxslar, agar ular O'zbekiston Respubliksining hududida tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmasalar va O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan bo'lsalar.

3. Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, pasport olingunga qadar esa — tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki shaxsning fuqaroligiga doir ma'lumotlar bo'lgan o'zga hujjat — O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlar deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan erkak yoki ayolning chet el fuqarosi bilan yoxud fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan nikohdan o'tishi, shuningdek, bunday nikohning bekor qilinishi er yoki xotinning fuqaroligi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi.

Er-xotindan birining fuqaroligi o'zgarishi ikkinchisining fuqaroligi o'zgarishiga olib kelmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining chet elda yashashi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishiga olib kelmaydi.

Chet elda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekiston Respublikasining himoyasi va homiyligidan foydalanadilar.

Basharti, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi chet davlatga topshirilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan shaxsning chet davlat fuqaroligiga mansubligi tan olinmaydi.

Amaldagi qonunga binoan ***O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi:***

1) tug'ilganda;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida;

3) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha;

4) qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.

Tug'ilgan paytida ota-onasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bola, O'zbekiston Respublikasi hududida yoxud O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan quyidagi hollarda bola O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bo'lsa;

2) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug'ilgan bo'lsayu, ota-onasi yoki ularning biri shu vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsa.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan bo'lsa, agar bu vaqtda ota-ona O'zbekistondan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bolaning fuqaroligi ota-onaning yozma tarzda ifodalangan kelishuvi bilan belgilanadi.

Ota-onasidan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi yo'q shaxs bo'lgan yoxud noma'lum bo'lgan taqdirda, bola qaerda tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Onasining fuqaroligi bo'lmagan bolaning otasi belgilanib, u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa, 14 yoshga yetmagan bola, qaerda tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bolasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasi noma'lum bo'lgan va O'zbekiston hududida yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z iltimosnomalariga ko'ra, kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish shartlari quyidagilardan iborat:

1) chet el fuqaroligidan voz kechish;

2) so'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik.

Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslarga, basharti? ular shu yerda tug'ilgan va hech bo'lmasa ota-onasidan biri, buvasi yoki buvisi O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, taalluqli bo'lmaydi;

3) qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olish va bajarish.

Amaldagi qonunga binoan ***O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi quyidagi hollarda to'xtatiladi:***

1) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish oqibatida;

3) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;

4) qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

Qonunda belgilangan tartibda shaxsning iltimosnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat etiladi.

Quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yo'qotiladi:

1) shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi natijasida;

2) agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmagan bo'lsa;

3) agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shak-shubhasiz ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni chiqqan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo'qotiladi.

3-§. Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari

Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlari va majburiyatlarining amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, davlat tomonidan turli xildagi kafolatlar o'rnatilgandir. Bu kafolatlarning asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatib o'tilgandir. Jumladan, Konstitutsiyaning 43-moddasiga binoan davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi:

Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasi).

Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasi).

Fuqarolar huquqlari va erkinliklarining kafolatlari jumlasiga, asosan ***iqtisodiy***, ***siyosiy***, ***tashkiliy*** va ***huquqiy kafolatlar*** kiradi.

1) fuqarolar huquqlari va erkinliklarining iqtisodiy kafolatlari – sanoatning samarali ishlashini; mustahkam moliyaviy va pul tizimini; ish haqining, pensiya va nafaqalarning o'z vaqtida berilishini; aholi yashash darajasining minimumi hamda ular manfaati yaxshilashini ta'minlashga xizmat qiladi;

2) fuqarolar huquqlari va erkinliklarining siyosiy kafolatlari orqali shaxsning jamiyat va davlatda tutgan o'rni; inson huquqlari va erkinliklarining oliy qadriyat ekanligi; ko'p partiyaviylik; fikrlarning xilma xilligi; mustahkam davlat hokimiyati ta'minlanadi;

3) fuqarolar huquqlari va erkinliklarining tashkiliy kafolatlari – huquqni muhofaza qiluvchi, nazoratni amalga oshiruvchi organlar tizimining faoliyati bilan bog'liq bo'lib, amaldagi qonunlar asosida hamda qonun hujjatlarini ijro etish maqsadida hamda fuqarolarga berilgan huquqlar va majburiyatlarning hayotga tatbiq etilishini ta'minlashga qaratiladi;

4) fuqarolar huquqlari va erkinliklarining yuridik kafolatlari. Yuridik kafolatlarni ikkiga: sud va suddan tashqari turlarga bo'linadi. Bunda, fuqarolar huquqlari va erkinliklarining kafolati bo'lib-butun qonunchilik hisoblanadi.

Yu.M.Kozlovning fikricha, qonunlar va qonunosti hujjatlarining fuqarolar huquqlari va erkinliklarining chinakam kafolati bo'lishi uchun quyidagilar talab qilinadi:

birinchidan – davlatda fuqarolar huquqlari va erkinliklarini bekor qiluvchi yoki cheklab qo'yadigan qonunlar va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi mumkin emas;

ikkinchidan – fuqarolar huquqlari va erkinliklari ayrim holatlarda va asosiy qonunda belgilangan tartibda cheklanishi mumkin. Masalan, konstitutsiyaviy yoki davlat tuzumini himoya qilish, shaxslarning sog'lig'i, huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, davlatning mudofaasini va xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida fuqarolar huquqlari va erkinliklari cheklanishi mumkin;

uchinchidan – qonunchilikda fuqarolarning cheklanishi mumkin bo'lmagan huquqlari va erkinliklari ko'rsatib o'tilishi mumkin. Masalan, insonlarning yashash huquqi, shaxslarning qadr-qimmati, sha'ni, shaxsiy hayotning daxlsizligi, vijdon erkinligi va boshqalar;

to'rtinchidan – fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga dahldor bo'lgan normativ hujjatlarning rasmiy holda ommaga e'lon qilinmagan bo'lsa, qabul qilinishi mumkin emas.[1]

---

[1] Административное право: учебник / Под ред. Ю.М.Козлова, Л.Л.Попова. – М.: «Юрист», 2000. С.130.

Demak, joriy qonunlarda fuqarolar huquqlari va erkinliklarining yuridik kafolatlari ta'minlangan bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» ma'ruzasida ko'rsatib o'tilganidek, ***O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti*** – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirishdir.

Bu boradagi asosiy vazifa – mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lmish matbuot, televidenie, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan iborat.

Xalqimiz ommaviy axborot vositalaridan mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida xolis va tezkor axborotlar olishni, shu bilan birga, birinchi navbatda, hokimiyat organlari va boshqaruv tuzilmalari faoliyati haqidagi tanqidiy fikrlarni, islohotlar va yangilanishlar yo'lidan ilgari borishimizga to'siq bo'lib turgan nuqsonlar, hayotdagi dolzarb muammolar xususida oshkora, professional tahliliy materiallarni kutadi.

Ayni paytda, shuni ham qayd etish zarurki, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikri va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga munosabatini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki to'g'risida so'z yuritib bo'lmaydi, degan tushuncha jamoatchiligimiz o'rtasida tobora kuchayib va mustahkamlanib bormoqda.[1]

4-§. Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hamda joriy qonunlarida fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning ikki tartibi: sud va ma'muriy tartibi o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida fuqa-

[1] Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloH etishdir. – T.: «O'zbekiston», 2005.

rolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning ***sud tartibi*** ko'rsatib o'tilgan.

Fuqarolarning huquqlari va ekrinliklarini sud tartibida himoya qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda «Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuni[1] qabul qilindi. Ushbu qonunga binoan har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan ***sudga murojaat qilish huquqi***ga ega.

Davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarning *sudga shikoyat qilishga loyiq kollegial yoki yakka tartibdagi xatti-harakatlari (qarorlari)* jumlasiga:

– fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzgan;

– fuqaroning o'z huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishiga monelik tug'dirgan;

– fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlar (qarorlar) kiradi.

Qonunga binoan sudlar fuqarolarning huquqlari yoki erkinliklarini buzadigan har qanday xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadilar, bundan:

tekshirilishi qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mutlaq vakolatlari doirasiga kiritilgan xatti-harakatlar (qarorlar);

qonun hujjatlarida ustidan sudga shikoyat qilishning o'zgacha tartibi belgilangan xatti-harakatlar (qarorlar) mustasnodir.

Fuqaro o'z huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan shikoyat bilan bevosita sudga yoki tobelik tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga murojaat qilish huquqiga ega.

Tobelik tartibida yuqori turuvchi organ, mansabdor shaxs shikoyatni bir oylik muddatda ko'rib chiqishlari shart. Agar fuqaroning shikoyatini qanoatlantirish rad qilingan bo'lsa yoki u shikoyat bergan kundan boshlab bir oy mobaynida javob olmagan bo'lsa, sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqli.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 №9, 183-m.

Shikoyatni huquqlari, erkinliklari buzilgan fuqaro yoki uning vakili, shuningdek, fuqaroning iltimosiga ko'ra jamoat birlashmasining, mehnat jamoasining vakolat berilgan vakili berishi mumkin.

Shikoyat fuqaroning xohishiga qarab yo u yashaydigan joydagi sudga yoki organ joylashgan yerdagi yoxud xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilinayotgan mansabdor shaxsning ish joyidagi sudga beriladi.

Harbiy xizmatchi o'zining huquqlari va erkinliklarini buzayotgan harbiy boshqaruv organlari va harbiy mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat bilan harbiy sudga, shuningdek, yuqori turuvchi mansabdor shaxslarga murojaat qilishga haqli.

Sud shikoyatni ko'rib chiqishga qabul qilgach:

tegishli organlar va mansabdor shaxslardan zarur materiallarni talab qilib oladi;

fuqaroning iltimosiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan shikoyat qilinishiga sabab bo'lgan xatti-harakat (qaror)ning ijrosini to'xtatib turish masalasini hal qiladi.

«Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunga binoan ***sudga shikoyat bilan murojaat qilish uchun quyidagi muddatlar belgilanadi:***

— fuqaro o'z huquqlari va erkinliklari buzilganligidan xabar topgan kundan boshlab uch oy;

— fuqaro yuqori turuvchi organ, mansabdor shaxsning shikoyatni qanoatlantirishni rad etish haqidagi yozma bildirishini olgan kundan boshlab bir oy;

— agar fuqaro o'z shikoyatiga yozma javob olmagan bo'lsa, shikoyat berganidan keyin bir oy muddat o'tgan kundan boshlab bir oy.

Shikoyat berishning uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan muddati sud tomonidan tiklanishi mumkin.

Fuqaroning davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyati sud tomonidan fuqaroviy sudlov ishlarini yuritish qoidalari asosida ko'rib chiqiladi.

Shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud qaror chiqaradi. Sud shikoyatning asosliligini aniqlagach, ustidan shikoyat berilgan xatti-harakatni (qarorni) qonunsiz deb topadi, fuqaroning

talablarini qanoatlantirish majburiyatini yuklaydi yoki uning buzilgan huquqlari va erkinliklarini o'zgacha yo'l bilan tiklaydi.

Agar ustidan shikoyat berilgan xatti-harakatni (qarorni) sud fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzmaydigan qonuniy xatti-harakat (qaror) deb topsa, u shikoyatni qanoatlantirishni rad etadi.

Sudning qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuqori sudga shikoyat berilishi mumkin.

Sudning qonuniy kuchga kirgan qarori barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiy va uni bajarish shart.

Sudning qarori xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berilgan organ yoki mansabdor shaxsga, shuningdek, fuqaroga qaror qonuniy kuchga kirgach kechi bilan o'n kun ichida yuboriladi.

Qaror bajarilganligi haqida sudga va fuqaroga sud qarori olingan kundan boshlab kechi bilan bir oy ichida xabar qilinishi shart. Qaror bajarilmagan taqdirda sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan chora-tadbirlarni ko'radi.

Shikoyatni ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'lgan sud xarajatlari, sud shikoyatni qanoatlantirishni rad etish haqida qaror chiqargan taqdirda fuqaro zimmasiga yoki sud organ yoxud mansabdor shaxsning xatti-harakatlari (qarorlari)ni qonuniy emas, deb topgan taqdirda ular zimmasiga yuklatilishi mumkin.

5-§. Fuqarolarning murojaatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'zlarining davlat boshqaruvi sohasidagi ishtiroklarini murojaat qilish huquqi orqali amalga oshirishlari mumkin. Fuqarolarning murojaat qilish huquqi O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda qabul qilingan «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonun[1]ni bilan tartibga solinadi. Qonunga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat etish huquqiga ega.

Fuqarolarning murojaat etish huquqidan foydalanishlari boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 №1, 7-m.

Fuqarolarning murojaatlari og'zaki yoki yozma shaklda kiritiladi. Fuqarolarning og'zaki va yozma murojaatlari bir xil ahamiyatga ega.

Fuqarolarning murojaatlari yakka tartibda yoki jamoa tomonidan berilishi mumkin.

Fuqarolarning murojaatlari ariza, taklif yoki shikoyat ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Ariza – fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosi bayon etilgan murojaatidir.

Taklif – fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarini o'z ichiga olgan murojaatidir.

Shikoyat – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi bayon etilgan murojaatidir.

Murojaatlarda fuqaroning familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan, ariza, taklif yoki shikoyatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.

Yozma murojaatlarda murojaat etuvchining imzosi bo'lishi lozim. Murojaatga shaxsiy imzo qo'yish imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaatlar uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ham yozib qo'yiladi.

Fuqaroning familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yoki u haqda soxta ma'lumotlar ko'rsatilgan, shuningdek, imzo qo'yilmagan yozma murojaatlar – *anonim* deb hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.

Fuqarolarning davlat organlariga gazetalar, jurnallar, televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari tahririyatlari orqali kelib tushgan murojaatlari qonunda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqiladi.

Davlat organlarida fuqarolarni qabul qilish tashkil etiladi. Fuqarolarni qabul qilish rahbar yoki boshqa mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Qabul belgilangan kun va soatlarda, fuqarolar uchun qulay vaqtda o'tkaziladi, qabul jadvali fuqarolar e'tiboriga yetkaziladi.

Fuqaro og'zaki murojaat etayotganda o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko'rsatishi kerak.

Fuqaroni qabul qilish, agar uning bir necha bor qilgan murojaati asossiz, qonunga xilof xususiyatda bo'lsa yoki uning murojaati bo'yicha qaror qabul qilib bo'lingan bo'lsa, rad etilishi mumkin.

Davlat organlarida fuqarolarni qabul qilish tartibi mazkur organlar rahbarlari tomonidan belgilanadi.

Fuqarolarning murojaat etish huquqi ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi. Hech kim biron bir murojaatni himoya etishga yoki unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majbur qilinishi mumkin emas.

Fuqarolar murojaat etish huquqidan foydalanayotganda ularni jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyiga qarab kamsitish taqiqlanadi.

Fuqarolarning murojaatlari, albatta, qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi kerak.

Fuqaro uning murojaatini qabul qilish va ko'rib chiqish asossiz ravishda rad etilganligi ustidan bo'ysinuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki bevosita sudga shikoyat berishga haqli.

Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishda fuqarolarning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlar ularning roziligisiz, shuningdek, davlat siri yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir hisoblangan ma'lumotlar va agar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kamsitadigan bo'lsa, boshqa axborotlar davlat organlari xodimlari tomonidan oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Murojaatga taalluqli bo'lmagan, fuqaroning shaxsiga doir ma'lumotlarni surishtirib bilishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqaroning iltimosiga binoan uning shaxsiga doir biron bir ma'lumot oshkor etilmasligi kerak.

Fuqarolarni hamda ularning oila a'zolarini o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish yoki himoya qilish maqsadida davlat organlariga murojaat etganliklari uchun ta'qib qilish man etiladi.

Fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlari ularda qo'yilgan masalalarni hal etish vakolat doirasiga kiradigan davlat organiga bevosita yoki bo'ysinuv tartibida yuqori turuvchi organga beriladi.

Fuqaro ariza, taklif va shikoyatni shaxsan berishga, shuningdek, bu boradagi vakolatni o'z vakiliga berishga yoki murojaatini aloqa vositalari orqali yuborishga haqli. Voyaga yetmaganlar hamda muomalaga layoqatsiz shaxslar manfaatlarini ko'zlab ariza, taklif va shikoyat ularning vakillari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda berilishi mumkin.

Ariza, taklif va shikoyatga ular yuzasidan ilgari qabul qilingan, fuqarodagi mavjud qarorlar (yoki ularning nusxalari), shuningdek, ariza, taklif va shikoyatni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar ilova qilinishi mumkin.

Fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlar berishi uchun muddat belgilanmaydi. Ayrim hollarda muayyan davlat organining ariza, taklif va shikoyatni ko'rib chiqish imkoniyatiga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini o'z vaqtida ro'yobga chiqarish, ularning qonuniy manfaatlari himoya etilishini ta'minlash zaruratiga bog'liq bo'lsa, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra, bunday davlat organlariga ariza, taklif va shikoyatlarni berish muddati belgilanishi mumkin.

Bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga ariza yoki shikoyat fuqaroga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzuvchi harakatlar (harakatsizlik) sodir etilganligi yoki qarorlar qabul qilinganligi ma'lum bo'lib qolgan paytdan e'tiboran uzog'i bilan bir yil ichida berilishi mumkin. Uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan muddat ariza yoki shikoyatni ko'rib chiquvchi davlat organi tomonidan tiklanadi.

Fuqarolarning davlat organiga kelib tushgan murojaatlari ana shu organning o'zi yoki zimmasiga murojaatlarni ko'rib chiqish vazifasi yuklatilgan mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqiladi.

Fuqarolarning murojaatlari, agar ular qo'yilgan masalalarni hal etish vakolat doirasiga kirmaydigan davlat organiga yuborilgan bo'lsa, uzog'i bilan besh kunlik muddat ichida tegishli organlarga jo'natiladi va bu haqda fuqaroga xabar qilinadi. Murojaatlarni ko'rib chiqishi uchun boshqa davlat organlariga asossiz ravishda berish yoki qarori yoxud harakati ustidan shikoyat qilinayotgan davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning o'ziga jo'natish man etiladi. Agar fuqarolarning murojaatlarida ularni tegishli organlarga jo'natish uchun zarur ma'lumotlar bo'lmasa, bu murojaatlar xuddi shu muddat mobaynida asoslantirilgan tushuntirish bilan fuqaroning o'ziga qaytariladi.

Fuqarolarning murojaatlarini har taraflama mufassal va xolisona ko'rib chiqish uchun qo'shimcha axborotlar, ma'lumotnomalar va materiallarga zarurat paydo bo'lsa, mazkur murojaatni ko'rib chiqayotgan davlat organining mansabdor shaxsi qo'shimcha axborot to'plashi mumkin.

Fuqarolarning murojaatini ko'rib chiqayotgan davlat organi zarur hollarda murojaatni, joyning o'zida ko'rib chiqilishini ta'minlashi kerak.

Alohida hollarda, murojaat etgan shaxsning o'zi yoki boshqa shaxs yo'qligida murojaatni ko'rib chiqishning imkoni bo'lmasa, ular davlat organining mansabdor shaxsi tomonidan chaqirilishi mumkin.

Fuqarolarning murojaatlari bo'yicha qabul qilingan qarorlarni davlat organining rahbari yoki boshqa vakolatli mansabdor shaxsi imzolaydi.

Agar ariza, taklif yoki shikoyatda bayon qilingan masalalar hal etilayotganda xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tekshirish zarurati vujudga kelsa, bu ish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Fuqarolarning takliflari tushgan kundan e'tiboran *bir oygacha bo'lgan muddat* ichida ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno va bu haqda taklif kiritgan shaxsga o'n kunlik muddat ichida ma'lum qilinadi.

Ariza yoki shikoyatlar masalani mohiyatan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga tushgan kundan e'tiboran *bir oygacha bo'lgan muddat ichida*, qo'shimcha o'rganishni va tekshirishni talab etmaydigan ariza yoki shikoyatlar esa *o'n besh kun*dan kechiktirmay ko'rib chiqiladi.

Ariza yoki shikoyatni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallar talab qilib olish yoki boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ariza yoki shikoyatni ko'rib chiqish muddati tegishli davlat organi rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan *bir oyga uzaytirilishi* mumkin va bu haqda ariza yoki shikoyat bergan shaxsga ma'lum qilinadi.

Murojaat davlat organlari tomonidan ko'rib chiqilayotganda fuqaro:

— murojaatning ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborot olish;

— vajlarini shaxsan bayon etish va izohlar berish;

— murojaatni tekshirish materiallari hamda ko'rib chiqish natijalari bilan tanishish;

— qo'shimcha materiallar taqdim etish yoki ularni boshqa organlardan so'rab olish to'g'risida iltimos qilish;

— advokat yoki o'z vakili xizmatlaridan foydalanish *huquqiga ega*.

Murojaatni ko'rib chiqayotgan davlat organlarining mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashlari shart.

Davlat organlari fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishda qonunga xilof harakatlarning (harakatsizlikning) darhol oldini olishga doir chora-tadbirlar ko'rishlari, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelayotgan sabablar va sharoitlarni aniqlashlari, murojaat qilganliklari muno-

sabati bilan fuqarolar ta'qib qilinishining belgilangan tartibda oldini olishlari shart.

Fuqaroning murojaatini ko'rib chiqqan davlat organi unga murojaatni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida va qabul qilingan qarorning mohiyati haqida yozma shaklda xabar qilishi shart.

Ariza yoki shikoyat yuzasidan qaror qabul qilgan davlat organining mansabdor shaxsi, agar fuqaro qarorga rozi bo'lmasa, unga qabul qilingan qaror ustidan shikoyat berish tartibini tushuntirishi shart.

Fuqaroning murojaatini ko'rib chiqqan davlat organi, uning mansabdor shaxsi murojaatni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilingan qaror ijrosini nazorat qilishi, agar fuqaroga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi natijasida zarar yoki ma'naviy ziyon yetkazilgan bo'lsa, qonunda belgilangan tartibda zararning o'rnini qoplash yoki ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilishga doir chora-tadbirlar ko'rishi ham shart.

Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqayotgan davlat organlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari buzilishini vujudga keltiruvchi sabablarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish maqsadida arizalar, takliflar va shikoyatlarni belgilangan tartibda umumlashtiradilar hamda tahlil etib boradilar.

Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni davlat hokimiyati va boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida ta'minlaydilar.

Fuqarolarning murojaatlarini qabul qilishni va ko'rib chiqishni asossiz ravishda rad etish, ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, qonunga zid qaror qabul qilish, fuqaroning buzilgan huquqlari tiklanishini hamda shikoyat munosabati bilan qabul qilingan qaror bajarilishini ta'minlamaganlik, fuqaroga uning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishni asossiz ravishda rad etish yoki fuqarolarning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlarni ularning roziligisiz oshkor etish, fuqaroni murojaat qilganligi uchun ta'qib qilish, shuningdek, fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Fuqaroning arizasi yoki shikoyati qanoatlantirilgan taqdirda ana shu murojaat bo'yicha qonunga xilof qaror qabul qilgan davlat organi ariza yoki shikoyat berish va uni ko'rib chiqish munosabati bilan fuqaroga yetkazilgan zararning o'rnini, tegishli davlat orga-

nining talabi bilan ariza yoki shikoyatni ko'rib chiqish uchun joylarga borish munosabati bilan sarf qilingan xarajatlarni qoplaydi hamda ana shu vaqt ichida yo'qotilgan ish haqini to'laydi. Fuqaroga yetkazilgan ma'naviy ziyon ham sud tartibida kompensatsiya qilinishi mumkin.

Fuqaroning arizasi yoki shikoyatini ko'rib chiqishda qonun talablari buzilganligi munosabati bilan unga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash maqsadida davlat organi tomonidan to'langan mablag'lar aybdor mansabdor shaxsdan regress tartibida undirib olinishi mumkin.

Fuqaroning tuhmat va haqoratdan iborat ariza, taklif yoki shikoyat berganligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Bila turib soxta ma'lumotlar bayon etilgan murojaatlarni tekshirish munosabati bilan davlat organi tomonidan sarf qilingan xarajatlar fuqarodan sudning qaroriga binoan undirib olinishi mumkin.

Fuqarolarning murojaatlari munosabati bilan zararning o'rnini qoplash va ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi nizolar sud tartibida ko'rib chiqiladi.

6-§. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ma'muriy-huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari bir xildagi huquq va majburiyatlarga egadir.

Xorijiy fuqaro — bu O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmagan va xorijiy davlat fuqaroligi mavjud bo'lgan jismoniy shaxsdir.

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun[1]ning 11-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar — ***fuqaroligi bo'lmagan shaxslar*** deb hisob-lanadi.

Xorijiy fukarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ba'zi bir huquqlaridan, jumladan,

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992, №3, 159-m.

saylash va saylanish huquqidan, davlat boshqaruvida bevosita va bilvosita (masalan, o'zini-o'zi boshqarish organlari, referendum) ishtirok etish huquqidan, jamoat birlashmalariga (masalan, siyosiy partiyalarga, kasaba uyushmalariga) uyushish huquqidan foydalanmaydilar. Ularning huquqlari va erkinliklari O'zbekiston Respublikasining maxsus hujjatlari asosida belgilanadi.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan bir xil majburiyatlarga egadir. Ularga nisbatan Vatanni himoya qilish burchi, ya'ni umumiy harbiy majburiyatni o'tash yuklatilishi mumkin emas.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrdagi Qarori bilan tasdiqlangan «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishlari qoidalari»[1] bilan tartibga solinadi. Ushbu qoidalarga binoan xorijiy fuqarolar shu jumladan, MDH qatnashchilari bo'lgan davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashashlari yoki vaqtincha bo'lishlari mumkin. Mazkur Qoidalar:

a) O'zbekiston Respublikasida bo'luvchi xorijiy fuqarolarni kelish vizasining amal qilish muddatiga vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish;

b) xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash uchun ruxsatnomalar berish;

d) xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida yurishlari;

e) qonunchilikni va mazkur qoidalarni buzganliklari uchun xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishlari muddatlarini qisqartirish va bu yerdan chiqarib yuborish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida vaqtincha bo'luvchi xorijiy fuqarolar o'zlarini qabul qiluvchi tashkilotlar (vazirliklar, idoralar, mulkchilik shakllari va faoliyat turidan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlar, xorijiy davlatlarning doimiy vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo'lmagan) notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari)ni, **shuningdek, xususiy ishlar bo'yicha ularni O'zbekiston Respub-**

[1] O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlar to'plami. 1996. №11.

likasiga taklif qilgan shaxslarni xabardor qilgan holda xohishlariga ko'ra mehmonxonalarda yoki boshqa turar joylarda yashaydilar.

O'zbekiston Respublikasidagi xorijiy fuqarolar pasportlari yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlarni o'zlari bilan olib yurishga va ularni vakolatli organlar vakillarining talabiga ko'ra ko'rsatishga majburdirlar.

Qabul qiluvchi tashkilotlar xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida va mazkur qoidalarda nazarda tutilgan ularning huquqlari va majburiyatlarini o'z vaqtida tushuntirib qo'yishni, xorijiy fuqarolar bilan munosabatlarda belgilab qo'yilgan huquqiy normalarning aniq bajarilishini ta'minlaydilar, xorijiy fuqarolarning tegishli hisobini yuritadilar, shuningdek, ularning O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli ichki ishlar bo'limlarida o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash, ularning respublika hududida yurishlari va ularga belgilangan bo'lish muddatlari tugashi bilan O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketishlari uchun javobgar bo'ladilar.

Xorijiy fuqarolarni xususiy ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga taklif qilgan va ularga turar joy bergan shaxslar bu fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ichki ishlar boshqarmasining tegishli bo'limlarida o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash chora-tadbirlar ko'rishga va ularga belgilangan bo'lish muddatlari tugashi bilan O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketishlarida ko'maklashishga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasida turgan xorijiy fuqarolar uning qonunchiligiga va mazkur Qoidalarga rioya qilishga majburdirlar.

Xorijiy fuqarolar, shuningdek, mansabdor shaxslar va O'zbekiston Respublikasining boshqa fuqarolari tomonidan mazkur qoidalar talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni o'z vakolatlari doirasida ichki ishlar organlari va Tashqi ishlar vazirligi joylardagi hokimiyat organlari va O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda amalga oshiradilar.

Xorijiy fuqarolarni vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish, ularga doimiy, yashash va O'zbekiston Respublikasi hududida yurishlari uchun ruxsatnomalar berish tartibi O'zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlariga asosan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda Tashqi Ishlar vazirligi va Ichki Ishlar vazirligi tomonidan tenglik asosida o'zgartirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida vaqtincha bo'luvchi fuqarolar O'zbekiston Respublikasi hududida *vaqtincha ro'yxatdan o'tish* asosida yashaydilar.

Xorijiy fuqarolarni vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mehmonxonalar, davolash muassasalari, sanatoriylar, dam olish uylarining mas'ul shaxslari tomonidan kelib joylashgan shaxslarning hisobi yuritiladi.

Xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan akkreditatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasiga olti oygacha muddatga kelgan xorijiy fuqarolarning shaxsiy va xizmat avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida hisobga olinishi kerak. Xorijiy fuqarolar o'z transport vositalarini O'zbekiston Respublikasiga olti oydan ortiq muddatga olib kelishlar, bu transport vositalari Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlarida milliy raqam belgilarini almashtirgan holda ro'yxatga olinadi.

Halqaro haydovchilik guvohnomalari O'zbekiston Respublikasi hududida avtotransport vositalarini boshqarish uchun haqiqiy hisoblanadi. Yo'l harakati to'g'risidagi konvensiyaning tegishli talablariga javob beradigan milliy haydovchilik guvohnomalari O'zbekiston Respublikasi hududida ularning tasdiqlangan tarjimasi mavjud bo'lganda haqiqiy hisoblanadi.

Xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashashlari mumkin. Buning uchun ularda ruxsatnoma va yashash guvohnomalari bo'lishi kerak.

Xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash uchun ruxsatnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularning bergan ariza-anketalari asosida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi xorijiy fuqarolar doimiy turar joylari yoki vaqtincha yashab turgan joylaridagi ichki ishlar organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risidagi Nizomga muvofiq ro'yxatdan o'tkaziladilar (vaqtincha ro'yxatdan o'tkaziladilar).

Tashqi Ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida yurishlari tartibi, agar O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo'lgan xalqaro bitimlarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ikki tomonlama shartnomalar va tenglik asosida belgilanadi.

Mazkur qoidalarni buzganlik uchun xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Mazkur qoidalarning talablariga rioya qilishga majbur bo'lgan shaxslar (shu jumladan, xorijiy fuqarolarni respublikaga xususiy ishlar bo'yicha taklif qilgan yoki ularga xizmat ko'rsatayotgan shaxslar) tomonidan ularning buzilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini yoki mazkur qoidalarni buzgan xorijiy fuqaroning O'zbekiston Respublikasida belgilangan bo'lish muddati qisqartirilishi mumkin.

Qonunchilikda belgilangan hollarda xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Xorijiy fuqaro o'zining O'zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborilishi va O'zbekiston Respublikasida bo'lishi muddatini qisqartirish to'g'risidagi qaror ustidan O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda va asosda shikoyat qilishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari deyarli bir xildir. Ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zlarining huquqlari va erkinliklarini sud yoki ma'muriy tartibda himoya qilishlari mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonun[1]ga binoan, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlarida o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, chet ellik fuqarolar qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqlidirlar.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mazkur qonunga muvofiq sudga shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonun[2]ga binoan esa xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi davlat organlariga qonunga muvofiq murojaat etish huquqiga ega.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z zimmalaridagi majburiyatlarni bajarmaganida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha yuridik javobgarlikka tortilishi mumkin.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 №9, 183-m.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 №1, 7-m.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning aksariyati umummajburiy qoidalarni buzishda ifodalanishi mumkinligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ularga nisbatan odatda, ma'muriy-huquqiy majburlov choralari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks[1]ining 17-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar umumiy asosda ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Immunitetga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan ushbu Kodeksning O'zbekiston Respublikasi qatnashchi bo'lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo'lmagan qismi qo'llaniladi.

Oxirgi vaqtlarda fuqarolarning yangi toifasi, ya'ni xorijiy fuqaro yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lgan — *«qochoqlar»* toifasi ham paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasida qochoqlarning huquqiy holati xalqaro shartnomalar va maxsus qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Qochoqlarning huquqiy holati Birlashgan Millatlar tashkilotining rezolutsiyasi bilan 1950-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Qochoqlar holati haqida»gi Konvensiya, 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan «Qochoqlar holati haqida»gi Bayonnoma asosida tartibga solinadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Fuqarolarning ma'muriy-huquqiy holati tushunchasi.
2. Fuqarolar huquq va majburiyatlarining vujudga kelish asoslari.
3. Fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati tushunchasi.
4. Fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati tushunchasi.
5. Fuqarolar huquq layoqati va muomala layoqatining cheklanishi.
6. Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlari va erkinliklari.
7. Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi majburiyatlari.
8. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi va uni olish asoslari.
9. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi va yo'qotilishi asoslari.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. — T.: «Adolat», 2000-y.

10. Fuqarolar huquqlari va erkinliklarining iqtisodiy kafolatlari.
11. Fuqarolar huquqlari va erkinliklarining siyosiy kafolatlari.
12. Fuqarolar huquqlari va erkinliklarining tashkiliy kafolatlari.
13. Fuqarolar huquqlari va erkinliklarining huquqiy kafolatlari.
14. Fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqi.
15. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlarning sudda ko'rib chiqilishi tartibi.
16. Fuqarolarning murojaatlari.
17. Ariza.
18. Taklif.
19. Shikoyat.
20. Fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi.
21. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ma'-muriy-huquqiy holati.
22. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'z-bekiston Respublikasida bo'lishi.

7-bob. O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI

1-§. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tushunchasi

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi – fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga binoan shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari ***o'zini-o'zi boshqarish organlari*** bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun[1] bilan tartibga solinadi.

Qonunga binoan ***fuqarolar*** shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalarda o'zini-o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari (vakillar yig'ilishi) orqali amalga oshiradilar.

Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, yetiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, bevosita hamda o'zlarining saylab qo'yiladigan vakillari orqali o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshirishda teng huquqlarga egadir.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yan-

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 №5, 110-m.

gilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» ma'ruzasi[1]da o'zini-o'zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq, fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozimligi ko'rsatib o'tildi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari – demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik va jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam ***prinsiplari***ga asoslanib o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi – O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshiriladi. Shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalar fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishining hududiy birliklaridir.

Shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishining tegishli organlari fikrini hisobga olgan holda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Mahallani tuzish, qo'shib yuborish, bo'lish va tugatish, shuningdek, uning chegaralarini belgilash va o'zgartirish fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining tashabbusiga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari:

a) fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadilar;

b) ularning ishlariga aralashishga yo'l qo'ymaydilar;

d) fuqarolarga o'zini-o'zi boshqarishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashadilar.

2-§. Fuqarolar yig'inini chaqirish tartibi va fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini saylash

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni[2]ga binoan *fuqarolar yig'ini* – fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), yig'in kengashi tomonidan zaruratga qarab, lekin *yilning har choragida kamida bir marta* chaqiriladi.

Amaldagi qonunga binoan fuqarolar yig'ini:

---

[1] Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: «O'zbekiston», 2005.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 №5, 110-m.

a) xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining;

b) tuman, shahar hokimining;

d) o'n sakkiz yoshga to'lgan va mazkur hududda doimiy yashovchi fuqarolarning kamida uchdan bir qismi tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin.

Fuqarolarning yig'ini – fuqarolar yig'inida qatnashish huquqiga ega bo'lgan barcha aholining yarmidan ko'prog'i hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Fuqarolar yig'inini olib borish uchun *rayosat* saylanadi. Yig'inni – fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) yoki raisning maslahatchilaridan biri olib boradi. Barcha masalalar bo'yicha qarorlar ochiq yoki yopiq ovoz berish orqali oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Har bir yig'inda – yig'in o'tkazilgan sana, hozir bo'lgan fuqarolar soni, kun tartibi va qabul qilingan qarorlar ko'rsatilgan holda *bayonnoma* yuritiladi. Fuqarolar yig'inining bayonnomasi va qarorini fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) va mas'ul kotibi imzolaydilar. Rais (oqsoqol) yo'qligida, fuqarolar yig'inining bayonnomasini raisning maslahatchilaridan biri va mas'ul kotib imzolaydi.

Fuqarolar yig'inini chaqirishning imkoni bo'lmagan taqdirda, *fuqarolar vakillarining yig'ilishi* o'tkaziladi. Yig'ilishga hovlilar, uylar, ko'chalar, mahallalar, mavzelar, dahalardan fuqarolarning namoyandalari vakil qilinadilar. Vakillar sonini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish ishlari bo'yicha tegishli tumanlar va sha-harlar muvofiqlashtirish kengashi belgilaydi.

Fuqarolar vakillarining yig'ilishi – unda vakillarning kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir va bunday yig'ilish amaldagi qonunda fuqarolar yig'inlarini o'tkazish tartibiga nisbatan qo'yiladigan talablarga muvofiq o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'inida shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlarning vakillari o'z faoliyatlariga doir masalalar bo'yicha maslahat ovozi bilan ishtirok etishga haqlidir.

Shaharcha, qishloq va ovul hamda shahardagi, shaharchadagi, qishloqdagi va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli), shuningdek, uning maslahatchilari saylovini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-aprelda qabul qilingan «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi Qonuni[1] bilan tartibga solinadi.

---

[1] «O'zbekiston Respublikasi qonun Hujjatlari to'plami», 2004-yil, 25-son, 285-modda.

Mazkur qonunga binoan *fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi* demokratizm, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylashda tegishli hududda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqiy hamda milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy hamda ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadirlar.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylashda fuqarolar yig'inining har bir ishtirokchisi bir ovozga ega.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida fuqarolarning ishtirok etishi ixtiyoriy hamda erkindir. Fuqarolarga ularni saylovda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida, shuningdek, ularning o'z xohish-irodasini erkin bildirishiga ta'sir ko'rsatishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylash huquqiga saylov kuni *o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolar* egadirlar.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida fuqarolarning ishtirok etish huquqlarini biron bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish ochiq va oshkora amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari *ikki yarim yil muddatga* saylanadi.

Davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlari fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga ko'maklashishlari, zarur hollarda ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta'minlashlari shart.

Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar hamda shaharlar hududida tegishincha fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi *Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar komissiyalari* tuziladi.

Komissiyalar tarkibiga, qoida tariqasida, fuqarolar yig'inlarining, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari kiritiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish uchun fuqarolar yig'ini yoki uning kengashi qarori bilan saylov davri uchun fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha *ishchi guruhi* tuziladi.

Ishchi guruhi tarkibiga, qoida tariqasida, fuqarolar yig'inining, tegishli hududda joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillari kiritiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga *nomzodlar ko'rsatish* tegishli hududda yashovchi aholining fikrini hisobga olgan holda ishchi guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga ko'rsatilgan nomzodlarga doir hujjatlar tuman yoki shahar hokimi bilan kelishish uchun tegishli tuman yoki shahar komissiyasiga saylovdan kamida o'n kun oldin topshiriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga nomzodlar, qoida tariqasida, oliy ma'lumotli bo'lishi va saylov kuni tegishli hududda doimiy yashab turgan bo'lishi, shuningdek, tashkilotchilik qobiliyatiga, hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi kerak.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) maslahatchilarining miqdoriy tarkibi hovlilar, uylar, ko'chalar, mahallalar, mavzelar va dahalardan vakillikni hisobga olgan holda fuqarolar yig'ini tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) maslahatchilari vazifasiga nomzodlar fuqarolar yig'ini ko'rib chiqishi uchun fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) tomonidan taqdim etiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylash ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Ovoz berish shakli to'g'risidagi qaror fuqarolar yig'ini tomonidan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi bo'yicha ovoz berish natijalarini aniqlash uchun fuqarolar yig'ini tomonidan kamida uch kishidan iborat tarkibda sanoq komissiyasi saylanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari saylovi ochiq ovoz berish orqali o'tkazilayotganida ovoz berish har bir nomzod bo'yicha takliflarning kelib tushish tartibiga qarab, qo'l ko'tarish yo'li bilan o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari saylovi yashirin ovoz berish orqali o'tkazilayotganida fuqarolar yig'ini ishtirokchilariga sanoq komissiyasi tomonidan ovoz berish byulletenlari beriladi.

Ovozlar sanoq komissiyasi tomonidan, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari vazifasiga har bir nomzod bo'yicha sanab chiqiladi.

Ovozlarni sanash natijalari bo'yicha sanoq komissiyasi tomonidan bayonnoma tuziladi. Bayonnoma sanoq komissiyasining raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi. Bayonnoma sanoq komissiyasining raisi tomonidan o'qib eshittiriladi va fuqarolar yig'ini tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqarolar yig'inida hozir bo'lgan fuqarolarning yarmidan ko'pining ovozini olgan nomzod fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi vazifasiga saylangan hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi yakunlari bo'yicha fuqarolar yig'ini qaror qabul qiladi hamda mazkur qaror fuqarolar yig'inida raislik qiluvchi tomonidan o'qib eshittiriladi.

Fuqarolar yig'ini bayonnomasi ikki nusxada tuzilib, bitta nusxasi saylov yakunlarini umumlashtirish uchun tegishli tuman yoki shahar komissiyasiga taqdim etiladi.

Tuman va shahar komissiyalari fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi yakunlariga doir umumlashtirilgan ma'lumotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat yoki Toshkent shahar komissiyasiga topshiradi.

Agar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida fuqarolar yig'inida ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarning yarmidan kami ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb topiladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi fuqarolar vakillarining yig'ilishlarida o'tkazilgan taqdirda, agar yig'ilishda fuqarolar vakillarining uchdan ikki qismidan kami ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb topiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari saylovi chog'ida yo'l qo'yilib, oqibat natijada ovoz berish yakunlariga ta'sir qilgan qoidabuzarlik tufayli saylov sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi vazifasiga ikki nafardan ortiq nomzod ko'rsatilgan va ulardan birontasi ham saylanmagan bo'lsa, fuqarolar yig'ini eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod bo'yicha takroriy ovoz berishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'proq olgan nomzod, basharti uni yoqlab berilgan ovozlar soni unga qarshi berilgan ovozlar sonidan ko'p bo'lsa, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi vazifasiga saylangan hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchisi *takroriy saylovi* quyidagi hollarda o'tkaziladi:

1) avvalgi saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa;

2) takroriy ovoz berish fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi saylanganligini aniqlash imkonini bermasa;

3) fuqarolar yig'inida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi vazifasiga ko'pi bilan ikki nafar nomzod ko'rsatilgan hamda ulardan birontasi ham saylanmagan bo'lsa.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchisi takroriy saylovi ushbu g'onunning talablariga rioya etilgan holda ko'pi bilan bir oylik muddat ichida o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi natijalari asosida fuqarolar yig'ini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolar yig'ini kengashini shakllantiradi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va fuqarolar yig'ini taftish komissiyasini, shuningdek, ma'muriy komissiyani saylaydi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi natijalari yuzasidan fuqarolar yig'ini qabul qilgan qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

3-§. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tuzilishi va ularning vakolatlari

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuniga binoan shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar ***fuqarolarining yig'inlari*** — fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlaridir.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari — mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga turadi.

Fuqarolar yig'ini o'zi tasdiqlagan ***nizom*** asosida faoliyat yuritadi. Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi nizomda: fuqarolar yig'inining nomi; hududi; fuqarolar yig'ini va uning organlari vakolatlari; uni chaqirish tartibi; fuqarolar yig'ini kengashini tuzish tartibi, fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini, shuningdek, fuqarolar yig'ini organlarining boshqa mansabdor shaxslarini saylash tartibi; fuqarolar yig'ini komissiyalarini tuzish tartibi; fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) va rais maslahatchilarining vakolatlari; fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi faoliyatining moliyaviy asosi; fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organini qayta tashkil etish va uning faoliyatini tugatish tartibi.

Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi namunaviy nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini hamda shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini tegishli ravishda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining hamda shahardagi mahalla fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakolatlariga qonun hujjatlari bilan berilgan istalgan masalani o'zi ko'rib chiqish uchun olish va hal etish huquqiga ega.

«Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun[1]ga binoan ***shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini***:

1) fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislarini va a'zolarini saylaydi, yilning har choragida ularning hisobotlarini eshitadi;

2) fuqarolar yig'inining taftish komissiyasini hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ma'muriy komissiyani saylaydi, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

3) belgilangan tartibda raisning (oqsoqolning) maslahatchilari va fuqarolar yig'ini kengashi devonining miqdor tarkibini belgilaydi, raisning (oqsoqolning) taqdimnomasiga ko'ra fuqarolar yig'inining mas'ul kotibini tayinlaydi;

4) kengash, taftish komissiyasi va ma'muriy komissiya faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, yilning har choragida ularning hisobotlarini eshitadi;

5) fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organining faoliyat dasturini va xarajatlar smetasini, hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlash, aholi punktlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 №5, 110-m.

6) qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, shuningdek, o'z qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

7) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalarining a'zoligiga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga tavsiya etadi;

8) xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladi;

9) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga, xalq deputatlari viloyat Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish uchun fuqarolarning nomzodlari bo'yicha hokimiyatning tegishli vakillik organlariga takliflar kiritadi;

10) to'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar beradi;

11) yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi. Fuqarolar yig'inlarining hisobotlar to'g'risidagi bayonnomalari tegishli viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadilar, fuqarolarning murojaatlari bajarilishini nazorat qiladilar;

12) atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;

13) fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'z mablag'larini shakllantiradi, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi;

14) obodonlashtirish ishlarini o'tkazish, umumiy foydalanishdagi joylarni ta'mirlash, shuningdek, kam ta'minlangan oilalarning uylari va kvartiralarini ta'mirlashda yordam ko'rsatish uchun aholidan ixtiyoriylik asosida mablag' yig'ish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

15) obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va sanitariya-tozalash ishlari o'tkazish uchun tegishli hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlarning mablag'laridan shartnoma asosida foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

16) o'z hududidagi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini ixtiyoriylik asosida birlashtirish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

17) pul mablag'lari sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

18) atrof-muhitni muhofaza qilishga ko'maklashadi;

19) guzarlar barpo etishga doir masalalarni ko'rib chiqadi;

20) ma'muriy-hududiy birliklar va mahallalarning chegaralarini o'zgartirish, mahallalar, ko'chalar, maydonlar va boshqa obyektlarning nomini o'zgartirish to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

21) yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi tuman komissiyasiga o'z vakilini yuboradi;

22) uy-joy mulkdorlarining shirkatlariga majburiy to'lovlarni yig'ish, issiqlik va elektr energiyasidan, issiq va sovuq suvdan tejamli foydalanish yuzasidan tadbirlar o'tkazishda, tegishli hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, uy-joylar va hovlilarni namunali saqlash yuzasidan ixtiyoriy ishlarni tashkil etishda ko'maklashadi;

23) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Shahardagi mahalla fuqarolar yig'ihi ushbu vakolatlardan tashqari, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va bolali muhtoj oilalarga nafaqalar tayinlash masalalarini hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan mablag'lardan o'z o'rnida va samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'inlariga ko'maklashadi, markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan mablag'lardan qanday foydalanilayotganligi to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi.

Fuqarolar yig'inining qarorlarini bajarish va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining fuqarolar yig'inlari oraliq davridagi joriy faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislari va yig'inning mas'ul kotibidan iborat tarkibda ***fuqarolar yig'inining kengashi*** tuziladi.

«Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun[1]ga binoan ***fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli):***

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 №5, 110-m.

1) fuqarolar yig'inini chaqiradi;

2) rais maslahatchilarining, mas'ul kotibning, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar hamda ma'muriy komissiya raislari va a'zolarining nomzodlarini saylash uchun fuqarolar yig'iniga taqdim etadi;

3) qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, fuqarolar yig'ini va uning kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir ishlarni tashkil etadi;

4) davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, sudda, yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fuqarolarning manfaatlarini ifodalaydi;

5) fuqarolar yig'ini mablag'larini qonun hujjatlariga muvofiq tasarruf etadi;

6) egasiz mol-mulkni, shuningdek, meros tariqasida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organiga o'tgan mol-mulkni saqlash chora-tadbirlarini ko'radi;

7) fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi nomidan shartnomalar, shu jumladan, mehnat shartnomalari tuzadi;

8) kam ta'minlangan oilalarning, shuningdek, tabiiy ofatlardan jabr ko'rgan fuqarolarning moddiy va uy-joy-maishiy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida tegishli organlarga takliflar kiritadi;

9) o'z hududi doirasida yashovchilarni hisobga olib borishni, shuningdek, tegishli hududda jamoat tartibini ta'minlashda, shu jumladan, fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashishga doir ishlarni tashkil etadi;

10) voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoatchilik ishini tashkil etadi, ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirishga ko'maklashadi;

11) ichki ishlar organlarining profilaktika bo'yicha tegishli inspektori bilan birgalikda «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

12) yarashtiruv komissiyasida raislik qiladi;

13) tegishli hududda bayram kunlari va muhim sanalar bilan bog'liq ommaviy tadbirlar o'tkazilishini tashkil qiladi;

14) ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining, diniy qarashlarni majburan singdirish hollarining oldini olishga doir ishlarni uyushtiradi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etadi;

15) fuqarolarni qabul qiladi, ularning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqadi;

16) fuqarolarga ularning oilaviy va mulkiy ahvoli to'g'risida ma'lumotnomalar hamda hujjatlar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar berilishini ta'minlaydi;

17) fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda tegishli organlarga taqdimnomalar kiritadi;

18) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) belgilangan namunadagi guvohnomaga ega bo'ladi.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olishning quyidagi turlarini belgilangan tartibda bajarishlari mumkin:

a) tug'ilish;

b) o'lim;

d) nikoh tuzish va nikohdan ajratish;

e) otalikni belgilash.

Aholi punktida notarius bo'lmagan taqdirda, shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) qonunga muvofiq quyidagi *notarial harakatlarni* amalga oshiradilar:

a) vasiyatnomalarni tasdiqlaydilar;

b) ishonchnomalarni tasdiqlaydilar, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;

d) meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radilar;

e) hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chir-malarning to'g'riligini shahodatlaydilar, ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar nusxalari bundan mustasno;

f) hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydilar.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

Raisning (oqsoqolning) vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatiladi: u o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilganda; fuqarolar yig'ini qaror qabul qilganda; u belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganda; unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etishni uning kengashi hamda fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi.

Raisning maslahatchilari o'rtasida vazifalarni taqsimlash fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) taqdimnomasi bo'yicha yig'in tomonidan amalga oshiriladi.

Taftish komissiyasi – fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun tuziladi.

Ma'muriy komissiya – ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasidagi ishlarni ko'rib chiqish uchun tuziladi.

Taftish komissiyasi va ma'muriy komissiya o'z faoliyatida mustaqildir va faqat fuqarolar yig'iniga hisobdordir. Taftish komissiyasi va ma'muriy komissiya o'z faoliyatini fuqarolar yig'ini tasdiqlaydigan nizomlar asosida amalga oshiradi. Taftish komissiyasi va ma'muriy komissiya to'g'risidagi namunaviy nizomlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari tegishli hududda yashovchi fuqarolar, shuningdek, shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida joylashgan yuridik shaxslar (ularning mansabdor shaxslari) tomonidan ijro etilishi shart.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qarorlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qarorlari ularni qabul qilgan organlar va mansabdor shaxslar tomonidan bekor qilinishi yoki sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish ishlari bo'yicha respublika kengashi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar ***muvofiqlashtirish kengashlari*** tuziladi.

Fuqarolar yig'ini kengashining majlisi fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) tomonidan, zaruratga qarab, lekin oyida kamida bir marta o'tkaziladi. Fuqarolar yig'ini kengashining majlisi, agar uning ishida kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Qaror, agar uni fuqarolar yig'ini kengashining hozir bo'lgan a'zolaridan yarmidan ko'prog'i yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Fuqarolar yig'ini kengashining qarori ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Fuqarolar yig'ini kengashi o'z ***devon***iga ega bo'lishi mumkin, uning xodimlari soni yig'in tomonidan belgilanadi. Yig'inning mas'ul kotibi va kengash devoni xodimlari yig'inni, kengash majlisini o'tkazishga doir materiallarni tayyorlaydilar, yig'inning, kengashning va raisning (oqsoqolning) qarorlari ijrochilarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydilar, ish yuritilishini amalga oshiradilar.

Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), mas'ul kotibi va kengash devoni xodimlari fuqarolar yig'inining mablag'lari hisobiga ham, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy budjet mablag'lari hisobiga ham ta'minlanishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan qurilgan, olingan yoki qonunda belgilangan tartibda ularga berilgan jamoat, ijtimoiy-maishiy va boshqa maqsaddagi obyektlar, shuningdek, transport vositalari, xo'jalik anjomlari va boshqa ko'char hamda ko'chmas mulk ularning ***mulki*** hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'z mulki bo'lgan obyektlarni vaqtinchalik yoki doimiy foydalanish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berishga, ijaraga topshirishga, belgilangan tartibda o'z tasarrufidan chiqarishga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq ushbu mol-mulk bilan bog'liq boshqa bitimlar tuzishga haqlidir.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi o'z mablag'laridan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan *byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayr-ehsonlari*dan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag'lardan tashkil topadi.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag'lari bank muassasasidagi mustaqil hisobvaraqda saqlanadi hamda belgilangan tartibda ular tomonidan mustaqil foydalaniladi va bu mablag'larning olib qo'yilishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'inining kengashi moliyaviy mablag'lardan foydalanilganligi to'g'risida yilning har choragida fuqarolar yig'ini oldida hisob beradi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatining hisobini yuritadi hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy statistika va soliq organlariga hisobot taqdim etadi.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining murojaatlari davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, ularning mansab-

dor shaxslari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qonunda belgilangan muddatda ko'rib chiqilishi shart.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qayta tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish – ma'muriy-hududiy birliklar, shuningdek, mahalla qo'shilganda, bo'linganda, tugatilganda fuqarolar yig'inining qaroriga binoan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'inlari, mahallalar raislari va kotiblarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini, mas'uliyatlarini yanada oshirish va ularni ijtimoiy himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 23-apreldagi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Farmon asosida fuqarolar yig'inlari, mahallalar raislari va kotiblarining maoshlari ish haqi to'lashning yagona tarif setkasi bo'yicha ikki razryadga oshirildi, shuningdek, katta hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida alohida obro'-t'iborga ega bo'lgan kishilarni ijtimoiy faoliyatga keng jalb etish maqsadida fuqarolar yig'inlari va mahallalarning nafaqadagi raislariga nafaqalar to'la miqdorda to'lanishi belgilandi.

Mazkur farmonga binoan fuqarolar yig'inlari va mahallalar O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunida belgilangan vakolatlarini amalga oshirishlari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimliklari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi:

1) fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini chuqur tahlil qilish, ularga amaliy yordam berish;

2) mahallalar va fuqarolar yig'inlari samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish, ulaning asosiy faoliyatini aholini ijtimoiy-siyosiy hayotga keng jalb etishni ta'minlash, maishiy-xo'jalik, madaniy-ma'rifiy masalalarni hal qilishga yo'naltirish;

3) joylardagi jamoat tashkilotlarining ish faoliyatlarini mahallalar bilan uzviy bog'langan holda olib borishni tashkil qilish.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tushunchasi.
2. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari.
3. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining prinsiplari.

4. Fuqarolar yig'inini chaqirish tartibi.
5. Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini saylash.
6. Fuqarolarning yig'ini va ular faoliyatining huquqiy asoslari.
7. Fuqarolar yig'inining vakolatlari.
8. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ning vakolatlari.
9. Fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olish.
10. Notarial harakatlarni amalga oshirish.
11. Taftish va ma'muriy komissiyalar.
12. Muvofiqlashtiruvchi kengashlar.
13. Fuqarolar yig'ini devoni.
14. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari mulki.
15. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

8-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

1-§. O‘zbekiston Respublikasida Prezidentlik institutining vujudga kelishi

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshladi. Prezidentlik boshqaruv uslubi – shu tizimning o‘zagi hisoblanadi. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimining paydo bo‘lishi 1985-yil aprelda boshlangan qayta qurish jarayonlari bilan, ayniqsa, 1988–1989-yillardayoq avj olib ketgan iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan bog‘liq edi.

O‘zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimining paydo bo‘lishi, ayniqsa, uning huquqiy maqomining belgilanishi uch bosqichni o‘z ichiga oladi.[1]

Birinchi bosqich – 1990-yil mart-oktabr oylaridan iborat.

1990-yil 24-martda O‘zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta’sis etish hamda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qonun[2] qabul qilindi. Unga ko‘ra, respublikamizda Prezident lavozimi ta’sis qilindi. Bunda demokratik jarayonlarni yanada rivojlantirish, siyosiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy idoralarining o‘zaro aloqasini takomillashtirish maqsad etib qo‘yildi. Shu munosabat bilan respublika Konstitutsiyasi Prezident haqidagi yangi 12-bob bilan to‘ldirildi. Undagi konstitutsiyaviy qoidalar bir necha guruhga bo‘lindi:

a) Prezidentni saylash;
b) Prezidentning vakolatlari;
d) Prezidentning boshqa idoralar bilan munosabati;
e) Prezident faoliyatining demokratik qoidalari va h.k.lar.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyatining oliy idoralari // O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. – T.: «Adolat», 1995, 112–126-betlar.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1990, №10-11, 197-m.

Ikkinchi bosqich – 1990-yil 1-noyabrdan yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

1990-yil 1-noyabrda «O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» maxsus Qonun qabul qilindi. Natijada, mavjud Prezidentlik hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya – boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilib, keyingisi Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi.[1] Prezident ayni bir vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi bo'lib qoldi, Prezident va hukumat apparati birlashtirildi. Endilikda Prezident nafaqat davlat boshlig'i sifatida farmonlar, balki hukumat boshlig'i sifatida farmoyish va qarorlar ham qabul qiladigan bo'ldi. Bundan tashqari, o'sha vaqtda Vitse-prezident lavozimi ham ta'sis etilgan edi. Lekin o'zini oqlamaganligi sababli 1992-yil 4-yanvardagi qonun bilan tugatilib, O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimi ta'sis etildi.[2] U Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiladi va uning ishini tashkil etadi, deb belgilandi.

Uchinchi bosqich – O'zbekistonning mustaqillik Konstitutsiyasi bilan boshlanadi.

2-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi

Respublikamizda prezidentlik institutining vujudga kelishi va takomillashuvida 1991-yil 18-noyabrida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonun[3] katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini O'zbekiston Respublikasi fuqarolari *umumiy*, *teng* va *to'g'ridan-to'g'ri* saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *yetti yil muddatga* saylanadi.

O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashish huquqiga ega.

Ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoliga, irqiy yoki milliy mansubligiga, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabatiga,

---

[1] O'zbekiston Prezidentning 1990-yil 15-noyabrdagi Farmoni // «Sovet O'zbekistoni» gazetasi, 1990-y., 21-noyabr.

[2] «Xalq so'zi» gazetasi. 1992-yil, 8-yanvar.

[3] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992, №1, 34-m.

mashg'ulot turi va xususiyatiga qarab O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqini biron-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sudning hukmiga muvofiq ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashmaydilar.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash bo'yicha saylovoldi kompaniyasida va ovoz berishda ixtiyoriy ravishda qatnashadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha ovoz berish yashirin bo'lib, fuqarolar tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Fuqarolarning xohish-iroda bildirishlari ustidan nazorat etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi bitta ovozga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradilar.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek, har bir saylov uchastkasida saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan bittadan kuzatuvchi, matbuot, televidenie va radio vakillari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasining davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni boshqa mablag'lar hisobidan moliyaviy ta'minlash va o'zga tarzda moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Saylovni o'tkazishning qonunda nazarda tutilgan qoidalari hamda tartibini buzuvchi shaxslar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash va Prezidentlikka saylanish, saylovoldi tashviqoti olib borish huquqlarini erkin ravishda amalga oshirishiga zo'ravonlik, aldash, tahdid qilish yoki boshqa yo'l bilan qarshilik ko'rsatuvchi shaxslar, shuningdek,

soxta saylov hujjatlari tuzgan, ovozlarni atayin noto‘g‘ri sanab chiqqan, ovoz berish yashirinligini buzgan yoki ushbu g‘onun boshqacha tarzda buzilishiga yo‘l qo‘ygan saylov komissiyalarining a’zolari, davlat va jamoat organlarining mansabdor shaxslari qonunda belgilangan yo‘sinda javobgar bo‘ladilar.

Nomzodlarning sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan soxta ma’lumotlarni e’lon qilgan yoki boshqa yo‘sinda tarqatgan, saylov komissiyalari a’zolariga nisbatan haqoratomuz munosabatga yo‘l qo‘ygan shaxslar ham javobgarlikka tortiladilar.

Ovoz berish kuniga besh kun qolganda hamda ovoz berish kuni jamoat fikri so‘rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini va o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish (e’lon qilish), shuningdek, ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet tarmog‘iga) joylashtirish taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘yicha saylov kompaniyasi boshlanganligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazuvchi saylov okruglarini Markaziy saylov komissiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri chegaralari doirasida tuzadi.

Markaziy saylov komissiyasi saylov okruglari ro‘yxatlarini saylovchilar sonini hamda okrug saylov komissiyalari qaerda joylashganligini ko‘rsatgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga kamida *yetmish besh kun* qolganida e’lon qiladi.

Saylov uchastkalari tumanlar, shaharlar, shaharlardagi tumanlarning chegaralarini inobatga olgan holda, saylovchilarga mumkin qadar ko‘proq qulaylik yaratish maqsadida tuziladi. Saylov uchastkalari harbiy qismlarda ham tuziladi va qismlar joylashgan yerdagi saylov okruglariga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida, sanatoriylar, dam olish uylari, kasalxonalar va boshqa doimiy ishlaydigan davolash muassasalarida, fuqarolarning olis va borish qiyin bo‘lgan yerlardagi turar joylarida saylov uchastkalari tuzilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tashkil etish va uni o‘tkazish quyidagi saylov komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi:

1) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar va bevosita fuqarolar egadirlar.

Siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida olti oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan taqdirdagina O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatishi mumkin.

Saylash huquqiga ega bo'lgan har bir fuqaro yoki fuqarolar guruhi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatish uchun kamida uch yuz nafar saylovchidan iborat saylovchilar tashabbuskor guruhini tuzishi mumkin.

Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni ro'yxatga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro'yxatga olingan shaxsga ushbu qonunga muvofiq ro'yxatga olinganlik guvohnomasi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni ro'yxatga olish saylovga o'ttiz besh kun qolganida tugallanadi.

Saylovoldi tashviqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga, siyosiy partiyalarga, saylovchilar tashabbuskor guruhlariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq beriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovchilar bilan yig'ilishlarda hamda saylovchilar uchun qulay bo'lgan boshqa shaklda uchrashuvlar o'tkazishda teng huquq beriladi.

Davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalarning, muassasalarning, tashkilotlarning rahbarlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishni tashkil etishda, zarur ma'lumot va axborot materiallari olishda yordam ko'rsatishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod 15 nafarga qadar ishonchli vakillarga ega bo'lishga haqlidir. Ishonchli vakillar:

— nomzodga saylov kampaniyasini o'tkazishda yordam beradilar, uni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylash, uchun targ'ibot olib boradilar;

— davlat va jamoat tashkilotlari saylov komissiyalari bilan bo'ladigan munosabatlarda nomzodning manfaatini himoya qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning taqdimnomasiga ko'ra ishonchli vakillarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatga oladi. Markaziy saylov komissiyasi ularga tegishli guvohnomalar beradi.

Ovoz berish saylov kuni soat 6 dan soat 20 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to'g'risida uchastka saylov komissiyasi saylovchilarni saylovdan kamida o'n kun oldin xabardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida, harbiy qismlarda, fuqarolarning olis va borish qiyin bo'lgan yerlardagi turar joylarida, shuningdek, sanatoriylar va dam olish uylarida, kasalxonalar hamda boshqa doimiy ishlaydigan davolash muassasalarida tuzilgan saylov uchastkalarida uchastka saylov komissiyasi, basharti ro'yxatga kiritilgan barcha saylovchilar ovoz berib bo'lgan bo'lsa, istalgan vaqtda ovoz berish tugaganligini elon qilishi mumkin.

Ovoz berish maxsus ajratilgan binolarda o'tkaziladi, ularda yashirin ovoz berish uchun yetarli miqdorda kabinalar yoki xonalar jihozlanishi, saylov bulletenlari berish uchun joylar ajratilishi hamda saylov qutilari o'rnatilishi kerak.

Har bir saylovchi shaxsan ovoz beradi, boshqa kishilar uchun ovoz berishga yo'l qo'yilmaydi.

Ovoz beruvchilar saylov bulletenlarini yashirin ovoz berish uchun ajratilgan kabina yoki xonada to'ldiradilar. Bulletenlarni to'ldirish vaqtida ovoz beruvchidan boshqa biron-bir kishining hozir bo'lishi taqiqlanadi. Bulletenni mustaqil ravishda to'ldirish imkoniga ega bo'lmagan saylovchi o'z xohishiga ko'ra, saylov komissiyasining a'zolaridan, kuzatuvchilardan va nomzodlarning ishonchli vakillaridan boshqa biron kishini kabina yoki xonaga taklif qilishga haqli.

Uchastka saylov komissiyasi saylov uchastkasida har bir nomzod bo'yicha berilgan ovozlarni alohida-alohida sanab chiqadi.

Ovozlarni sanab chiqish natijalari uchastka saylov komissiyasi majlisida ko'rib chiqiladi va bayonnomada aks ettiriladi. Bayonnoma komissiya raisi, komissiya raisining o'rinbosari, komissiya kotibi va a'zolari tomonidan imzolanadi hamda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda tegishli okrug saylov komissiyasiga yuboriladi.

Okrug saylov komissiyasi uchastka saylov komissiyalarining bayonnomalari asosida okrug bo'yicha saylovchilarning umumiy sonini; saylov bulletenlari hamda varaqalari olgan saylovchilarning sonini; ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning sonini; har bir nomzodni yoqlab berilgan ovozlar sonini; haqiqiy emas deb topilgan bulletenlar va varaqalar sonini aniqlaydi.

Okrug bo'yicha saylov natijalari saylov komissiya majlisida aniqlanadi va bayonnomada aks ettiriladi. Bayonnoma komissiya raisi, komissiya raisining o'rinbosari, komissiya kotibi va a'zolari tomonidan imzolanadi hamda belgilangan tartibda Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi.

Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan olingan bayonnomalar va O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida tuzilgan uchastka saylov komissiyalaridan olingan bayonnomalar asosida respublika bo'yicha saylovchilarning umumiy sonini; saylov byulletenlari hamda varaqalari olgan saylovchilarning sonini; ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning sonini; har bir nomzodni yoqlab berilgan ovozlar sonini; haqiqiy emas deb topilgan bulletenlar sonini aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ikkita nomzod ishtirok etgan taqdirda, ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning nisbiy ko'pchilik ovozini olgan nomzod saylangan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ikkitadan ortiq nomzod ishtirok etgan taqdirda, agar nomzodlarning hech biri ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pining ovozini ololmagan bo'lsa, saylovchilarning ovozini eng ko'p olgan ikki nomzod ishtirokida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

Saylov vaqtida yoxud ovozlarni sanab chiqish chog'ida yo'l qo'yilgan hamda ovoz berish yakunlariga ta'sir etgan qoidabuzarliklar sababli saylov umuman yoki ayrim okruglar yoxud ayrim saylov uchastkalari bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Ayrim okruglar yoki uchastkalarda saylov haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ana shu okruglar, uchastkalar bo'yicha ovoz berish natijalari, basharti bu natijalarsiz ham saylov umuman bo'lib o'tgan deb topilishi mumkin bo'lsa, Markaziy saylov komissiyasining qaroriga binoan saylovning umumiy natijalaridan chiqarib tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakunlari to'g'risidagi axborot saylovdan keyin o'n kundan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan matbuotda e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari rasmiy tarzda e'lon qilingan kundan e'tiboran kechi bilan ikki oy ichida Oliy Majlis yig'ilishida qasamyod qilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishadi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vakolatlarini yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimga kirishgunga qadar bajaradi.

3-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy holati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy holati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi 89–97-moddalarida ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan ***O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:***

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur choratadbirlar ko'radi;

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan

tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

5) o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasining schyot davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalar yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

8) ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashlarining tasdig'iga kiritadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar

hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi;

17) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;

19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi;

24) O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

25) ushbu Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yohud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek, Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti betobligi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qo'shma qaroriga ko'ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o'n kun muddat ichida palatalarning qo'shma favqulodda yig'ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oygacha bo'lgan muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumxalq saylovi o'tkazilishi shart.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni[1]ga binoan O'zbekiston Respub-

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-y., 3–4-sonlar.

likasi Prezidenti o'z vakolatlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq samarali amalga oshirishi uchun zarur sharoitlar yaratish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan, shuningdek konstitutsiyaviy vakolat muddati tugab yoki sog'lig'i holatiga ko'ra, iste'foga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga zarur sharoitlar va kafolatlar yaratib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti daxlsizlik va immunitetga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining daxlsizligi uning turarjoy va xizmat xonalariga, bagajiga, shaxsiy va xizmat transport vositalariga, yozishmalariga, foydalanadigan aloqa vositalariga, shuningdek, unga tegishli hujjatlarga tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining eks-prezidenti ham butun hayoti mobaynida daxlsizlik va immunitetga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining eks-prezidenti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarini bajarish bilan bog'liq harakatlar uchun jinoiy va boshqa xil javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Unga nisbatan ushlab turish, so'roq qilish, tintuv o'tkazilishi yoki uning shaxsi ko'zdan kechirilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning oila a'zolariga davlat muhofazasi beriladi.

O'zbekiston Respublikasining eks-prezidentiga doimiy yoki vaqtincha turgan joylarida umrbod davlat muhofazasi beriladi. O'zbekiston Respublikasi eks-prezidentining butun hayoti davrida uning oila a'zolariga ham davlat muhofazasi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi eks-prezidentining davlat muhofazasi va xavfsizligini ta'minlash qonun hujjatlarida belgilangan normalar va talablarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilinishiga, shuningdek, uning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi hamda bunday harakatlar qonun bilan ta'qib qilinadi. Bu qoida O'zbekiston Respublikasining eks-prezidentiga nisbatan ham o'z kuchini saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muddati o'ttiz olti ish kunidan iborat yillik haq to'lanadigan ta'til beriladi.

O'zbekiston Respublikasining eks-prezidenti yoshidan qat'i nazar amaldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oylik mansab maoshining 70 foizi miqdorida umrbod oylik pul ta'minoti olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi eks-prezidentining hayoti va sog'lig'i davlat budjeti mablag'lari hisobidan amaldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yillik mansab maoshiga teng summada majburiy davlat sug'urtasidan o'tkaziladi.

Eks-prezidentning bevasi, hayot kechirishning boshqa manbalari borligidan qat'i nazar, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida qarorgohlar beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti barcha aloqa turlari bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga maxsus maqsaddagi avtotransport, shuningdek, mamlakat ichkarisidagi va chet ellarga qilinadigan safarlar uchun maxsus jihozlangan samolyot va vertolyot beriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oila a'zolariga ham xizmat avtotransportidan foydalanish huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va u bilan birga yashayotgan oila a'zolariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi hamda sanatoriy-kurortda davolanish ta'min etiladi.

O'zbekiston Respublikasiniig eks-prezidentiga davlat hisobidan xizmat kvartirasi (turar joyi) va shahar tashqarisidagi — Toshkent viloyatidagi (Toshkent viloyatining Qaynarsoy tabiiy chegarasida joylashgan) qarorgohi mulk qilib berilib, tegishli xizmatlar ko'rsatiladi va muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining eks-prezidenti maxsus, hukumat aloqalari hamda davlat organlari ixtiyoridagi boshqa aloqa turlaridan O'zbekiston Respublikasi hududida bepul foydalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining eks-prezidentiga davlat hisobidan ikkita haydovchisi bo'lgan avtomobil birkitib qo'yiladi, xizmat transporti bilan xizmat ko'rsatish ham ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi eks-prezidentining u bilan birga yashayotgan yoki unga hamrohlik qilayotgan oila a'zolari ham xizmat transportidan foydalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlarini ijro etish tugallangan kunda O'zbekiston Respublikasining eks-prezidenti va uning oila a'zolari tibbiy xizmat hamda sanatoriy-kurortda davolanish bo'yicha ega bo'lgan imtiyozlar va afzalliklar ularda umrbod saqlanib qoladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik institutining vujudga kelishi.
2. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik huquqiy maqomining belgilanishi bosqichlari.
3. O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovining huquqiy asosi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga qo'yiladigan talablar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik va uni o'tkazish tartibi.
6. Saylov komissiyalari.
7. Markaziy saylov komissiyasi va uning vakolatlari.
8. Ovoz berish tartibi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakunlari.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy holati.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari.

9-bob. DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI

1-§. Davlat organlari tushunchasi va xususiyatlari

Davlat — o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuchga, ya'ni davlat mexanizmiga egadir. Mexanizm davlatning nimadan tashkil topganligini ko'rsatuvchi tarkibiy va predmetli ifodasidir. *Davlat mexanizmi* — davlat organlari va boshqa tashkilotlarining davlat hokimiyatini, vazifa va funksiyalarini amalga oshirishning yaxlit ierarxik, ya'ni bo'ysunuvga asoslangan tizimidir.

Davlat mexanizmining boshlang'ich va asosiy tarkibiy elementlaridan biri — bu davlat organlaridir. ***Davlat organlari*** — davlat funksiyalarini amalga oshiradigan va hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining bo'g'inidir.

Davlat va huquq nazariyasi faniga ko'ra, *davlat organlarining mazmun-mohiyatini ochib beruvchi xususiyatlarga quyidagilar kiradi:*

1) davlat organi — davlat mexanizmining bir bo'lagi sifatida, ma'lum bir mustaqillikka (avtonomiyaga) egadir. Davlat organlari davlat mexanizmida o'z o'rniga ega bo'lib, uning boshqa qismlari bilan o'zaro aloqada bo'ladi;

2) *davlat organi* — turli munosabatlarda davlat nomidan harakat qiluvchi xizmatchilardan iborat bo'ladi. Aynan davlat xizmatchilarining harakatlarida u yoki bu davlat organining faoliyati namoyon bo'ladi;

3) *davlat organlari* ichki tarkibiy tuzilmaga egadir, ya'ni ular yagona maqsad atrofida birlashgan bo'linmalardan iborat bo'ladi;

4) *davlat organlari* ma'lum bir hajm va mohiyatga ega bo'lgan davlat-hokimiyat vakolatiga egadir;

5) *davlat organlari*ning funksiyalanishini — davlat tomonidan moliyaviy mablag' ajratish orqali ta'minlanadi;

6) *davlat organlari* — davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish uchun, ma'lum bir shakl va uslublardan foydalanadi.

Davlat organi o'zining mohiyatiga ko'ra qandaydir tashkilotni, fuqarolarning jamoasini anglatadi. Bunday fuqarolarning jamoasi

davlat faoliyatining u yoki bu turini amalga oshirish uchun davlat tomonidan tashkil etiladi.

Davlat o'z organlarini bevosita tashkil etadi yoki ularni tashkil etish tartibini belgilaydi, ularning funksiyalanishining asosiy qoidalarini o'rnatadi, davlat nomidan va davlat manfaatini ko'zlab harakat qilishi uchun ularga ma'lum bir vakolatlarni berib qo'yadi.

Davlat organlarining barchasi, yagonalikda – *davlat apparati*ni tashkil etadi. Davlat apparati orqali davlat oldida turgan vazifa va funksiyalar amalga oshiriladi.

Davlat – fuqarolarning siyosiy tashkiloti bo'lganligi sababli, tashkil qilinadigan davlat organlari hokimiyat vakolatiga ega boladi.

Davlat-hokimiyat vakolati keng qamrovli tushuncha bo'lib, asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) davlat nomidan va davlat manfaatini ko'zlab huquqiy akt chiqarish;

b) ularning amalga oshirilishini – tarbiyalash, ishontirish va rag'batlantirish choralarini qo'llash orqali ta'minlash;

d) huquqiy aktlardan kelib chiqadigan talablar ijro etilishini nazorat qilish;

e) huquqiy aktlarni himoya qilish, ya'ni huquqiy aktlarda nazarda tutilgan talablar buzilganda, ularni majburiy choralar qo'llash orqali himoya qilish.[1]

Davlat organlari to'g'risida batafsil tushuncha hosil qilish uchun, ularni fuqarolarning boshqa jamoalaridan, masalan jamoat tashkilotlaridan farqlash lozim. Jamoat tashkilotlari davlat tomonidan emas, balki fuqarolar yoki mehnat jamoasi tomonidan, davlat organi esa davlat tomonidan tashkil etiladi. Ba'zi hollarda davlat o'z organlari orqali jamoat tashkilotlarini tashkil etish asoslarini va tartibini, faoliyat yo'nalishlarini belgilab berishi mumkin. Davlat organlari davlat-hokimiyat vakolatiga ega, ya'ni davlat nomidan va davlat manfaatini ko'zlab butun mamlakat bo'yicha yoki ma'lum bir hududlar (viloyat, tuman, shahar) bo'yicha harakat qiladi. Jamoat tashkilotlari ham ma'lum bir vakolatlarga ega, lekin bu vakolatlar davlat-hokimiyat vakolati hisoblanmaydi. Jamoat tashkilotlarining vakolati ma'lum bir belgilangan doirada, masalan, jamoat tashkiloti doirasida yoki jamoat xodimlariga nisbatan harakatda bo'ladi.

---

[1] Xudoyberdiyeva V., Xojiyev Ye.T.. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. – T.: 2001, 35-b.

Davlat organlarining o'ziga xos xususiyatlarini korxonalar bilan taqqoslab ko'rganda ham ko'rish mumkin. Jumladan, davlat organlari davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirib, o'zlarining xatti-harakatlari bilan bevosita moddiy boyliklar yaratmaydilar. Korxonalar esa bevosita ishlab chiqarish bilan, moddiy boyliklarni yaratish bilan shug'ullanadi.

Bundan tashqari, har bir davlat organining o'ziga xos xususiyatini uning huquqiy maqomida ko'rishimiz mumkin. Davlat organlarining huquqiy maqomi quyidagi asosiy jihatlar bilan belgilanadi:

– davlat organlarining o'z faoliyatini qonun asosida hamda qonunni ijro etish maqsadida amalga oshirishi;

– davlat organlarining barchasi bevosita yoki yuqori turuvchi organlari orqali davlat hokimiyati organlariga bo'ysunishi va nazorat qilinishi;

– davlat organlarining o'z vakolati doirasida harakat qilishi hamda operativ mustaqillikka ega bo'lishi;

– quyi turuvchi davlat organining yuqori turuvchi davlat organiga bo'ysinishi;

– yuqori turuvchi davlat organi chiqargan huquqiy aktlarning quyi organlar uchun majburiyligi va boshqalar.

Demak, ***davlat organlari***:

birinchidan – davlat mexanizmi (apparati)ning bir qismi hisoblanadi;

ikkinchidan – davlat-hokimiyat vakolatiga ega bo'ladi;

uchinchidan – davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladi;

to'rtinchidan – ma'lum bir tashkiliy tuzilmaga ega bo'ladi;

beshinchidan – ularning faoliyati bevosita ishlab chiqarish bilan, moddiy boyliklarni yaratish bilan bog'liq emas.

2-§. Ijro hokimiyati organlari tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Turli huquq sohalari mutaxassislarining davlat organlari va xususan ijro hokimiyati organlari tushunchasi, mazmuni va ahamiyati muammolariga bag'ishlangan ko'pdan-ko'p ilmiy izlanishlari mavjuddir. 90-yillarning boshlaridan, ya'ni sobiq Ittifoqning parchalanishi, yangi davlat tuzilmalarining shakllanishi va rivojlanishi bilan, bu muammoga bo'lgan e'tibor yanada kuchayib bordi. Bu ayniqsa, davlatlar tomonidan asosiy qonunning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi bilan yanada jonlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya asosida davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipining o'rnatilishi bilan, davlatning – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlariga bo'linishi mustahkamlandi.

Ijro hokimiyati organlari – davlat hokimiyatining bir bo'g'ini bo'lib, davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan hamda davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan siyosiy tashkilotdir.

Yu.N.Starilovning fikricha, ijro hokimiyati subyektlari o'rnatilgan kompetensiya[1] doirasida davlat boshqaruvini amalga oshiradilar. *Ijro hokimiyati* – davlat boshqaruvi organlari tizimidan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas. Ijro hokimiyati – bu uning organlarini, ya'ni normativ tartibda o'rnatilgan maqsad, vazifa, kompetensiya, tuzilma va boshqaruv personali (davlat xizmatchilari)ga ega bo'lgan davlat boshqaruvi organlarini tashkil etish va ular funksiyalanishining tizimidir.

Ijro hokimiyati organlari – bu hokimiyat organlari tizimining bir qismi bo'lgan, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni ijro etish va ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladigan, boshqaruv harakatlarining maxsus shakl va uslublaridan foydalanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradigan, tegishli tuzilishga, kompetensiyaga, davlat-hokimiyat vakolatlariga va davlat xizmatchilari shtatlariga ega bo'lgan tashkilotdir.[2]

A.P.Alexinning ko'rsatib o'tishicha, ijro hokimiyati organlari tashkiliy, funksional va huquqiy jihatdan asoslantirilgan tashkilotdir, ya'ni:

a) ijro hokimiyati organlari qandaydir boshqa tashkilotning tarkibiga, tuzilmaviy bo'linmasiga kirmaydi (*tashkiliy asos*);

b) ijro hokimiyati organlarining asosiy maqsadi – o'rnatilgan funksiyalar doirasida jamiyat hayotining xo'jalik, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy sohalariga rahbarlik qilish bo'yicha boshqaruv, ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirish hisoblanadi (*funksional asos*);

---

[1] Aksariyat yuridik adabiyotlarda kompetensiya – davlat organining vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va javobgarligining tizimi sifatida talqin qilinadi. Masalan, qarang: Лазарев Б.М. Компетенция органов управления. – М.: Юрид. лит. 1972.

[2] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 186.

d) ijro hokimiyati organlari – huquqiy aktlar bilan o'rnatilgan o'zining kompetensiyasiga egadir (*huquqiy asos*).[1]

Ijro hokimiyati organlarining tushunchasi hokimiyat bo'linishi prinsipidan kelib chiqadi, uning mazmuni esa–ijro hokimiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Yu.M.Kozlovning fikricha, ijro hokimiyati organlari – mazkur davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi asosiy subyekt bo'lib, uning ishtirokisiz davlat-boshqaruv faoliyatini ro'yobga chiqarish, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish mumkin emas. Bundan tashqari, ma'muriy huquq boshqa subyektlarining ma'muriy huquqiy holati, aynan mana shu davlat organlarining faoliyatida namoyon bo'ladi.[2]

Ijro hokimiyati organi, B.N.Gabrichidzening fikricha, ijro hokimiyati mexanizmi (tizimi)ning tarkibiy qismi bo'lib, ijro hokimiyati sohasida davlat ko'rsatmasiga ko'ra va davlat nomidan harakat qiladi; ijro etish va farmoyish berish xususiyatidagi faoliyatni amalga oshiradi; o'zining kompetensiyasiga ega; o'zining tuzilishiga ega; faoliyatning o'ziga xos bo'lgan shakllari va uslublarini qo'llaydi.[3]

Ijro hokimiyati organlari – davlatning ijro hokimiyati amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mazkur organlar mazmuni va uslublariga ko'ra, o'ziga xos bo'lgan davlat faoliyatini – *davlat boshqaruvini* amalga oshiradilar.

Ijro hokimiyati organlari o'zining *davlat-huquqiy tabiatiga ko'ra*, o'zini-o'zi boshqarish organlaridan, *funksional ahamiyatiga ko'ra* esa davlat hokimiyatining boshqa organlaridan, shuningdek, davlat korxona va muassasalaridan farqlanadi.

Ijro hokimiyati organlari davlatning normal funksiyalanishini ta'minlash maqsadida vakillik (qonunchilik) va sud organlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabatlar turli xildagi tashkiliy shakllarda namoyon bo'lishi mumkin (masalan, kelishuv komissiyalari yoki vakillik organlarining majlislarida ijro hokimiyati organi mansabdor shaxsining ma'lumotlarini tinglash).

Ijro hokimiyati organlari mustaqil organlar bo'lib, yuridik mazmuniga ko'ra, ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. – «Зерцало», 1998. С. 128–132.

[2] Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Юрист», 2003. С. 75–80.

[3] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 68.

oshirib, huquqiy aktlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish bo'yicha davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'ladilar. Ular keng doiradagi huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va huquqni himoya qilish bo'yicha vakolatlarga ega bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ijro hokimiyati organlarining mustaqilligi, huquq bilan belgilangan doirada bo'ladi. Ularga nisbatan «*taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish mumkin*» degan qoida tatbiq etilmaydi.

Ijro hokimiyati organlari—huquqiy aktlar bilan belgilangan vakolat doirasida, ma'lum bir tartibda va o'rnatilgan huquqiy shakllarda harakat qilishlari mumkin.

Ijro hokimiyati organlari huquqiy holatining muhim xususiyatlaridan biri — bu ular faoliyatining qonunosti xususiyatiga ega ekanligidadir. Ular o'z faoliyatlarida Konstitutsiya va qonunlarning talablariga qat'iy rioya qilishlari, bajarishlari va o'z vakolatlari doirasida ularning boshqalar tomonidan bajarilishiga ko'maklashishlari lozim.

A.P.Alyoxinning ko'rsatib o'tishicha, ijro hokimiyati organlari - budjet tomonidan moliyalashtiriladi, yuridik shaxs maqomiga, ya'ni fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi.[1]

Yu.M.Kozlov esa, fuqarolik huquq layoqati ijro hokimiyati organlari huquqiy holatining xususiyati hisoblanmaydi. Yuridik shaxs kategoriyasini ularga nisbatan qo'llab bo'lmaydi, chunki u ijro hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat-boshqaruv faoliyati bilan bog'liq emas, deb ko'rsatadi.[2]

Yu.M.Kozlov, ***ijro hokimiyati organlarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari***ni ko'rsatib o'tadi:

1. Ijro hokimiyati organi — qonunchilik va sud hokimiyati organlari singari *davlat apparatining alohida bo'g'ini hisoblanadi.* Ijro hokimiyati organlari davlat nomidan uning siyosatini turli sohalarda — xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy sohalarda amalga oshiradilar; ma'lum bir hajmdagi davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'ladilar;

2. Ijro hokimiyati organlariga beriladigan *davlat-hokimiyat vakolatlari* ularning huquqlarida o'z ifodasini topadi hamda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. — «Зерцало», 1998. С. 128-132.

[2] O'sha joyda.

a) davlat nomidan majburiy bo'lgan huquqiy aktlarni qabul qilish. Bunday aktlar – bevosita ularga bo'ysunivchi korxona va muassasalarga yoki quyi turuvchi ijro hokimiyati organlariga yoki kimga bo'ysunishi va qanday mulk shaklida bo'lishidan qat'i nazar, barcha korxona va muassasalarga yoki jamoat (nodavlat) tashkilotlariga yoxud keng shaxslar doirasiga (shu jumladan, fuqarolarga) majburiylik xususiyatiga ega;

b) huquqiy aktlar bilan o'rnatilgan talablar va qoidalarga rioya etilishi ustidan kuzatuv (nazorat)ni amalga oshirish;

d) huquqiy aktlar talablarining bajarilishini ta'minlash va ularni turli xildagi buzilishlardan davlatning ta'sir choralarini, masalan, ishontirish, tushuntirish, rag'batlantirish yoki majburlov choralarini qo'llash orqali himoya qilish.

3. Davlat-hokimiyat vakolatlari barcha davlat hokimiyati organlariga berilganligi sababli, unda ijro hokimiyati organlari vakolatining doirasini o'rnatish muhim ahamiyatga egadir.

Ijro hokimiyati organlari davlat-hokimiyat vakolatlaridan, faqatgina boshqaruv faoliyatida foydalanadi.

Ijro hokimiyati organlari – xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilishga rahbarlik qilish jarayonida qonunlar va qonunosti hujjatlarining ijro etilishini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi. Shu sababli, ularga tegishli bo'lgan davlat-hokimiyat vakolatlari, ijro etish va farmoyish berish yoki davlat boshqaruv faoliyati amalga oshiriladigan sohalar doirasida bo'ladi.

Qonunchilik hokimiyati organlari ham qonunlarni qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish orqali, mazkur sohalarda rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Sud hokimiyati organlari esa ushbu sohalarda, umuman rahbarlikni amalga oshirmaydi.

Demak, ijro hokimiyati organlarining funksional ahamiyati bo'lib, ijrochilik hisoblanadi.

4. *Ijro hokimiyati organlari o'z faoliyatlarini qonun asosida va qonunlarni ijro etish maqsadida amalga oshiradi*, ya'ni ularning faoliyati qonunosti xususiyatiga egadir. O'zlarining faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida mazkur organlar qonun talablarini, shuningdek, davlat boshqaruvi sohasida o'zlari tomonidan o'rnatilgan talablar va qoidalarning bevosita amalga oshirilishini tashkil etadilar.

5. *Respublika va mahalliy miqyosda harakat qiluvchi ijro hokimiyati organlari yagona davlat ma'muriyati tizimini tashkil etadi.* Mazkur tizim doirasida har bir bo'g'in, ya'ni aniq bir ijro hokimiyati organi operativ mustaqillikka ega bo'ladi. Bu unga tegishli

bo'lgan vakolatlar hajmi va javobgarlik doirasi singari, mazkur organlarning kompetensiyasi (vakolati)da ifodalangan. Ijro hokimiyati organlarining kompetensiyasi Konstitutsiyada, joriy qonunlarda hamda boshqa normativ hujjatlarda o'z ifodasini topadi.

6. Ijro hokimiyati organlari korxona va muassasa singari, *fuqarolarning ma'lum bir jamoasi* bo'lib, ma'muriy-boshqaruv personali (xodimlari)dan yoki davlat xizmatchilaridan iborat. Lekin bunday jamoaning maqsadi korxona va muassasaning maqsadlaridan farq qiladi; ikkinchidan esa ijro hokimiyati organini tashkil etuvchi mazkur jamoa doirasida ma'lum bir tashkiliy-huquqiy aloqalar vujudga keladi, funksional majburiyat va huquqlar taqsimlanadi, shuningdek, yuklatilgan ish bo'yicha javobgarlik belgilanadi. Bu – davlat-xizmat munosabatlari bo'lib, mazkur organning xodimlari – davlat xizmatchilari hisoblanadi.

7. Ijro hokimiyati organlari – *tashkiliy tuzilishga, ya'ni bo'ysunivchi tuzilmaviy bo'linmalarni tashkil etishni nazarda tutuvchi ichki qurilishga* ega bo'lgan davlat organidir.

8. Har bir ijro hokimiyati organi – *davlat boshqaruvi faoliyatining ma'lum bir hududiy yoki predmetli doirasiga ega.* Ijro hokimiyati organlarining faoliyati ma'lum bir hududlarda, masalan, butun davlat yoki ma'lum bir ma'muriy-hududiy birliklar doirasida amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, ijro hokimiyati organlari umumiy yoki maxsus ahamiyatga ega bo'lgan (predmetli) boshqaruv funksiyalarini, masalan, tartibga solish, ruxsat berish, nazorat va farmoyish berish kabi funksiyalarni amalga oshirishlari mumkin.[1]

Tabiiyki, savol tug'ilishi mumkin, davlat korxona va muassasalarida tashkil etiladigan ijro organlarining tutgan o'rni qanday? Ularni ijro hokimiyati organlari umumiy tizimining bo'g'ini sifatida ko'rib chiqish mumkinmi?

Davlat tizimidagi *korxona va muassasalarning ma'muriyati* (ijro organlari) – ijro hokimiyati organlari singari harakat qiladilar, lekin ularning faoliyati aniq belgilangan doirada bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, ijro hokimiyati organlari o'zlarining vakolatlarini tashqarida, ya'ni huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi boshqaruv obyektlariga nisbatan amalga oshiradilar. Korxona va muassasa ma'muriyati esa, o'zining vakolatlarini faqatgina ichki tuzilmaga nisbatan amalga oshirishlari mumkin. Shu sababli,

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Юрист», 2003. С. 75–80.

ularning vakolatlari — korxona, muassasa xodimlariga nisbatan majburiy kuchga ega bo'ladi.

Demak, ijro hokimiyati organi — bu hokimiyat bo'linishi prinsipiga asoslanib, davlat tomonidan jamiyatning xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy hayotining turli sohalarida ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirish yuklatilgan hamda ma'lum bir davlat-hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat hokimiyati mexanizmining bo'g'ini hisoblanadi.

3-§. Ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari

Ijro hokimiyati organlari tizimi deganda — ijro hokimiyati organlarining yig'indisi va ular o'rtasida kompetensiyani taqsimlash asosida o'zaro munosabatlarining tizimi tushuniladi. Tizimlilik — ijro hokimiyatini tashkil etuvchi hamda uni amalga oshiruvchi subyektlar o'rtasida — *faoliyat olib borish predmeti va vakolatlarning taqsimlanishi*ni belgilab beradi.

Yuridik adabiyotlarda, ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari turlicha ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, A.P.Alyoxinning ko'rsatib o'tishicha, ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplariga:

a) *ijro hokimiyati organlarining davlat tuzilishiga mos kelishi prinsipi*;

b) *markazlashganlik va markazlashmaganlikning o'zaro bir vaqtda mavjudligi prinsipi*;

d) *qonuniylik prinsipi* kiradi.[1]

Yu.M.Kozlovning fikricha, prinsiplar — ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va ular faoliyatining muhim siyosiy-huquqiy va tashkiliy-huquqiy asoslari bo'lib, quyidagilardan iboratdir:

1) *ijro hokimiyatining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishiga mos ravishda tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi prinsipi*;

2) *ijro hokimiyati organlari faoliyatining qonuniyligi prinsipi*;

3) *davlat boshqaruvi faoliyati obyektlarining xususiyatlarini inobatga olish prinsipi*;

4) *ijro hokimiyati organlarini tashkil etishda va ularning faoliyat yuritishida kollegiallik va yakkaboshchilikning birgalikda mavjud bo'lishi prinsipi*;

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. — «Зерцало», 1998. С. 137-141.

5) *ijro hokimiyati organlarining javobgarligi prinsipi.*[1]

Ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari, B.N.Gabrichidzening ko'rsatishicha, quyidagilardir:

– *ijro hokimiyati organlarining davlat tuzilishiga mos kelishi prinsipi;*

– *ijro hokimiyati organini huquqiy tartibga solish prinsipi;*

– *ijro hokimiyati organlarining tizimliligi prinsipi;*

– *funksiyalarning markazlashganligi va markazlashmaganligi hamda bu muammoni tizim ichida hal etish prinsipi;*

– *funksiya va vakolatlarning taqsimlanganligi prinsipi;*

– *professionallik va kompetentlik prinsipi;*

– *qonuniylik prinsipi;*

– *oshkoralik prinsipi;*

– *funksiya va vakolatlarning ketma-ketligi va ularning ma'lum bir qismining bir ijro hokimiyatidan ikkinchisiga berilishi prinsipi;*

– *ijro hokimiyati organlarining qonunchilik va sud hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabati va hamkorlikda funksiyalanishi prinsipi;*

– *ijro hokimiyati organlarini tashkil etishda fuqarolarning ishtiroki prinsipi;*

– *ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va funksiyalanishi jarayonida nazoratni amalga oshirish prinsipi.*[2]

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va ular faoliyati prinsiplarining tasnifi shartli bo'lib, bu masalaga yangicha yondashishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va joriy qonunlari bilan o'rnatilgan tartibdan kelib chiqqan holda hamda huquqshunos olimlarning ijro hokimiyati tizimini tashkil etish va ular faoliyatining prinsiplari bo'yicha bildirgan qarashlarini e'tiborga olib, ***O'zbekiston Respublikasi ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va ular faoliyatining quyidagi asosiy prinsiplari***ni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1) *Ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etilishining O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishiga mos kelishi prinsipi.* Mazkur prinsip – konstitutsiyaviy, keng qamrovli qoida bo'lib, nafaqat ijro

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Юрист», 2003. С. 80–82.

[2] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 71.

hokimiyatining, balki O'zbekiston davlati tashkiliy-huquqiy tuzilishining xususiyatini belgilab beradi. .

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi – suveren demokratik respublikadir.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat.

Demak, O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishiga unitarlik xususiyati xos bo'lib, aynan shu asosda ijro hokimiyati organlari tizimi tashkil etiladi (lekin unitarlik so'zini asl ma'nosida tushunish kerak emas. Chunki, O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi aralash shaklga ega, ya'ni unitarlik va federativ davlat tuzilishlarining xususiyatlarini o'z ichiga olgandir);

2) *Ijro hokimiyati organlarining fuqarolar oldida mas'ulligi prinsipi.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasiga binoan, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

Konstitutsiyaning 14-moddasiga binoan esa davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi;

3) *Ijro hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishda va amalga oshirishda qonuniylik prinsipi.*

Mazkur prinsip nafaqat ijro hokimiyati organlariga, balki barcha shaxslarga taalluqlidir. Qonuniylik prinsipi – konstitutsiyaviy asosga ega bo'lib, unga amal qilish shartdir.

Ijro hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida tashkil etilishi, shuningdek, o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkin.

4) *Ijro hokimiyati organlari faoliyatida markazlashganlik va markazlashmaganlikning mavjud bo'lishi prinsipi.*

Markazlashganlik ijro hokimiyati organlari tizimining yagonaligidan kelib chiqadi. Markazlashtirganlik – quyi turuvchi organlarning yuqori turuvchi organlarga bo'ysunishi, yuqori turuvchi organlar normativ hujjatlarining quyi organlar uchun majburiyligida, ayrim hollarda yagona predmet va vakolatlar doirasida birgalikda faoliyatni amalga oshirishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Markazlashmaganlik esa qonunchilik aktlari bilan ma'lum bir ijro hokimiyati organi zimmasiga faoliyat predmeti va vakolat-

larning yuklatilishi bo'lib, tashqaridan (yuqori turuvchi organning) aralashuvisiz mustaqil amalga oshirishdir. Bunda vertikallik bo'yicha faoliyat predmeti va vakolatlarning taqsimlanishi, mavjud bo'lmaydi.

5) *Ijro hokimiyati sohasida funksiyalar va vakolatlarning taqsimlanganligi prinsipi.*

Ushbu prinsip ijro hokimiyati organlari faoliyatining predmeti va vakolatlar doirasining tizimga kiruvchi organlar o'rtasida taqsimlanishini belgilab beradi. Har bir ijro hokimiyati organi aniq faoliyat va vakolatlar doirasiga ega bo'ladi, undan tashqariga chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

6) *Ijro hokimiyati organlari faoliyatining kollegiallik va yakkaboshchilik asosida tashkil etilishi prinsipi.*

Mazkur prinsip ijro hokimiyati organlarini tashkil etishda va ular faoliyatini amalga oshirishda, davlat boshqaruv faoliyatining muhim masalalarini hal etishda jamoa fikrining hisobga olinishini ta'minlaydi. Shu maqsadda, ijro hokimiyati organlari tizimida turli xildagi maslahat, muvofiqlashtiruvchi kengash va hay'atlar tashkil etiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida deyarli barcha vazirliklar va davlat qo'mitalari tizimida Kengash va hay'atlar faoliyat ko'rsatadi.

Shu bilan birga ijro hokimiyati organlari faoliyatida yakkaboshchilik ham mavjuddir. Yakkaboshchilik – ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirishda, shuningdek, tegishli boshqaruv tartibini o'rnatishda zarur bo'lgan intizomni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kollegiallik – boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalidir, yakkaboshchilik esa – davlat-boshqaruv faoliyatining ajralmas belgisidir.

Ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplariga *xalq hokimiyatchiligi, oshkoralik, insonlar va fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, javobgarlik* kabi prinsiplarni ham kiritishimiz mumkin.

4-§. Ijro hokimiyati organlarining tasnifi

Ijro hokimiyati organlarining turli darajalarda tashkil etilishi sababli va faoliyatining keng qamrovli xususiyatga ega ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ularni bir necha asoslarga qarab guruhlarga ajratish, ya'ni tasniflash mumkin.

Yu.M.Kozlovning ko'rsatishicha, ijro hokimiyati organlari bir-biridan, faoliyatining mazmuniga ko'ra va o'zining aniq yo'nalishiga qarab farqlanadi. Ularni quyidagi turlarga guruhlash mumkin:

1) *faoliyatning hududiy doirasiga ko'ra*: davlat va mahalliy organlarga bo'linadi;

2) *kompetensiya xususiyatlariga ko'ra*: umumiy, sohaviy, sohalararo yoki maxsus kompetensiyali ijro hokimiyati organlariga bo'linadi;

3) *tashkil etish tartibi va uslublariga ko'ra*: davlat boshlig'i, qonunchilik organi, yuqori ijro hokimiyati organlari tomonidan tashkil etiladigan davlat organlariga bo'linadi.

Ayrim hollarda saylash uslubining ham mavjudligini ko'rish mumkin. Lekin saylash orqali ijro hokimiyati organlari tashkil etilmaydi, balki ularning mansabdor shaxslari saylanishi mumkin[1];

4) *ichki sohaviy masalalarni hal etish tartibi bo'yicha*: kollegial va yakkaboshchilik asosidagi ijro hokimiyati organlariga bo'linadi;

5) *tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra*: hukumat, vazirliklar, davlat qo'mitalari, komissiyalar, xizmatlar, nazorat organlari, agentliklar, meriya[2]lar, departamentlar, inspeksiyalar va boshqalarga bo'linadi.[3]

Huquqshunos olim A.P.Alyoxin ham ijro hokimiyati organlarini turli asoslarga ko'ra va birinchi navbatda davlat tuzilish, tashkiliy shakllari, kompetensiya xususiyatlari, sohaga taalluqli masalalarni hal etish tartibiga ko'ra tasniflanishini ko'rsatib o'tadi.

Yu.M.Kozlovdan farqli ravishda, u ijro hokimiyati organlari kompetensiyasining xususiyatiga ko'ra bo'linishida, *ichki sohaviy kompetensiyali organlar*ni ham ko'rsatib o'tadi.[4]

Starilov Yu.N. ham ijro hokimiyati organlari tizimini, yuqoridagi huquqshunos olimlari singari davlat tuzilishi, tashkiliy shakllari, kompetensiya xususiyatlari, sohaga taalluqli masalalarni hal etish tartibiga ko'ra tasniflanishini ko'rsatib o'tadi.[5]

---

[1] Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga binoan ayrim ijro Hokimiyati organlarining mansabdor shaxslari saylanishi mumkin. Masalan, ularda viloyat ma'muriyatlarining boshliqlari saylanadi.

[2] Rossiya Federatsiyasida quyi ijro Hokimiyati organlaridan biri — meriyalardir.

[3] Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: «Юрист», 2003. С. 83—85.

[4] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. — «Зерцало», 1998. С. 132—137.

[5] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004. С. 194—198.

Davlat organlarining ular tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat yo'nalishiga qarab bo'linishi ham keng tarqalgandir. Davlat organlarining bunday bo'linishi, birinchi navbatda davlat tuzumiga, davlat oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga bog'liqdir.

Davlat organlarini faoliyat yo'nalishiga ko'ra quyidagilarga bo'lish mumkin:

– davlat hokimiyati organlari;
– davlat boshqaruvi organlari;
– sud organlari;
– davlat nazorati organlari.

Davlat organlarining bunday bo'linishi davlat hokimiyatining bo'linish prinsipiga asoslanadi. Har bir davlat hokimiyati organining o'z faoliyat yo'nalishi mavjuddir.

X.R.Alimov davlat boshqaruvi organlari tasnifiga to'xtalib, ularning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tadi:

1) *tashkil etish asoslariga ko'ra*: Konstitutsiya asosida va joriy qonunlar asosida tashkil etiladigan organlar;

2) *kompetensiyasining xususiyatiga ko'ra*: umumiy, maxsus, sohaviy va aralash kompetensiyali organlar;

3) *soha ichidagi masalalarni hal etish tartibiga ko'ra*: kollegial va yakkaboshchilik organlar;

4) *faoliyat hududiga ko'ra*: markaziy va mahalliy organlar;

5) *moliyalashtirish manbasiga ko'ra*: budjet organlari va xo'jalik hisobidagi organlar.[1]

Bundan tashqari, davlat boshqaruvi organlarining huquqiy maqomiga ko'ra bo'linishini ham ko'rsatib o'tadi:

a) oliy ijro etish va farmoyish berish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari;

b) markaziy sohaviy ijro etish va farmoyish berish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari;

d) mahalliy ijro etish va farmoyish berish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari;

e) korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'muriyatlariga (ijro organlariga) bo'linadi.[2]

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, ko'pgina huquqshunos olimlari ijro hokimiyati organlarini tasniflashda deyarli bir xil asoslarni ko'rsatib o'tadilar.

---

[1] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / – Т.: «Адолат», 1999. С. 138–146.

[2] Alimov X.R. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: 1995.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga asoslanib, ijro hokimiyati organlarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1) ***faoliyatining hududiy doirasiga ko'ra*** ijro hokimiyati organlari uch guruhga bo'linadi:

a) *oliy ijro hokimiyati organi* (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi);

b) *markaziy ijro hokimiyati organlari* (bunga respublika miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari, korporatsiya, assosiatsiya, kompaniya va boshqalar);

d) *mahalliy ijro hokimiyati organlari* (markaziy ijro hokimiyati organlarining boshqarma va bo'limlarini, hokim boshchilik qiladigan ijroiya apparatni kiritish mumkin);

2) ***tashkil etish asoslariga ko'ra*** ijro hokimiyati organlari quyidagilarga bo'linadi:

a) *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida tashkil etiladigan organlar* (masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi);

b) *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida tashkil etiladigan organlar* (masalan, vazirliklar, davlat qo'mitalari).

Ba'zi adabiyotlarda[1], ijro hokimiyati organlarining tashkil etilishiga ko'ra bo'linishi quyidagicha ko'rsatib o'tilgan:

– *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tashkil etiladigan davlat organlari.* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga ko'ra, Prezident ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi;

– *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etiladigan davlat organlari.* «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonun[2]ga binoan Vazirlar Mahkamasi o'zi tashkil qiladigan xo'jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi;

– *vazirliklar, davlat qo'mitalari va xo'jalik boshqaruvi organlari (korporatsiya, assosiatsiya, kompaniya va boshqalar) tomonidan tashkil etiladigan davlat organlari.* Amaldagi qonunchilikka binoan, markaziy davlat organlariga o'zlarining oldida turgan vazifa va

---

[1] Xudoyberdiyeva V., Xojiyev Ye.T. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. – T.: 2000.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 №9-10, 138-m.

funksiyalardan kelib chiqqan holda, ma'lum bir tuzilmalarni, masalan, boshqarma, bo'lim va boshqa birliklarini tashkil etishlari mumkin;

— *mahalliy organlar tomonidan tashkil qilinadigan organlar.* O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni[1]dan kelib chiqadigan bo'lsak, mahalliy hokimiyat organlari o'z tuzilmalarida turli xildagi organlarni, komissiyalarni tashkil etishlari mumkin;

3) ***ijro hokimiyati organlari vakolatlarining hajmi va xususiyatiga ko'ra***, ular quyidagilarga bo'linishi mumkin:

a) *umumiy vakolatli davlat organlari.* Bu guruh davlat organlariga — O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi va hokimlarni kiritish mumkin. Bu davlat organlari, vakolat doirasida, barcha sohalarga taalluqli bo'lgan qarorlarni qabul qilishlari mumkin. Masalan, amaldagi qonunchilikda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqarishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, uning vakolati mana shu sohalar doirasida amalga oshiriladi;

b) *sohaviy vakolatga ega bo'lgan davlat organlari.*

Bu davlat organlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchidan, *bir soha bo'yicha vakolatli davlat organlari* — bu organlar o'z faoliyatini aniq bir soha bo'yicha amalga oshiradi; ikkinchidan, *sohalararo vakolatli davlat organlari* — bu organlar bir necha sohalar bo'yicha harakat qilish vakolatiga ega bo'ladi.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda, bir soha bo'yicha harakat qiluvchi davlat organlariga — vazirliklar, sohalararo vakolatli davlat organlariga — davlat qo'mitalari kiritilgan.

Lekin hozirgi sharoitda vazirliklarning — sohalararo harakatini, davlat qo'mitalarining esa — bir soha bo'yicha harakatlanishini kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, yuridik adabiyotlarda *maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari* ham ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan kelib chiqadigan bo'lsak, ijro hokimiyati organlari vakolatining xususiyatiga ko'ra, ularni maxsus vakolatli organlarga bo'lish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ko'pgina davlat organlari (inspeksiyalar va boshqa davlat idoralari) maxsus vakolatlarga egadir;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993, №9, 320-m.

4) Ijro hokimiyati organlari ***tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra*** quyidagilarga bo'linadi: a) *hukumat* (Vazirlar Mahkamasi); b) *vazirliklar*; d) *davlat qo'mitalari*; e) *agentliklar*; f) *qo'mitalar*; g) *komissiyalar*; h) *markazlar*; i) *davlat aksionerlik kompaniyalari*; j) *davlat uyushmalari*; k) *davlat konsernlari*; l) *davlat korpo-ratsiyalari*; m) *davlat assosiatsiyalari*; n) *departamentlar*; o) *inspek-siyalar* va boshqalar;

5) ***Ijro hokimiyati organlarida rahbarlikni amalga oshirish shakliga ko'ra*** ular quyidagilarga bo'linadi:

a) *yakkaboshchilikka asoslangan organlar*;

b) *kollegial organlar*;

d) *yakkaboshchilik va kollegial rahbarlik uyg'unlashgan (ya'ni aralash shakldagi) organlar.*

O'zbekiston Respublikasida aksariyat ijro hokimiyati organlarida yakkaboshchilik bilan kollegial rahbarlikning uyg'unlashganligini ko'rish mumkin;

6) ***mablag' bilan ta'minlanishiga ko'ra*** Ijro hokimiyati organlari ikkiga bo'linadi:

a) *davlat va mahalliy budjet mablag'laridan moliyalash-tiriladigan organlar.* Mazkur davlat organlari ishlab chiqarish yoki moddiy boyliklarning muomalasi bilan bevosita bog'liq bo'lmay, mulkiy mustaqillikka ega emas; ularning majburiyatlari uchun davlat javobgardir;

b) *xo'jalik hisobidagi organlar.* Ushbu davlat organlari mulkiy mustaqillikka ega bo'lib, asosiy va muomala vositalariga ega; o'z majburiyatlari bo'yicha o'zlarining mulki bilan bevosita javobgar bo'ladilar; ularning faoliyati moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, pulli xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liqdir.

Oxirgi vaqtlarda ijro hokmiyati organlarini mablag' bilan ta'minlashning *aralash shakli* ham namoyon bo'lmoqda. Bu guruhga kiruvchi davlat organlari xarajatlarining ma'lum bir qismi budjetdan, ma'lum bir qismi esa xo'jalik yuritishdan qoplanadi.

5-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-bob 98-moddasida va 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonuni[1]ga binoan,

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 №9-10, 138-m.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasi hukumati, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi hamda ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida:

– kollegiallik;

– demokratiya va qonuniylik;

– O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga asoslanadi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari kiradilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i o'z lavozimi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi hamda uni vazifasidan ozod qiladi.

Vazirlar Mahkamasining a'zolarini Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlaydi va vazifasidan ozod qiladi.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

– iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi, mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyoti-ning huquqiy mexanizmini ishga solish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi;

– xo'jalik yuritishning yangi shakllari – konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga yordamlashadi, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi talab-ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

– O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini hamda ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko'rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

– boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida takliflar ishlab chiqadi;

– fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

– fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning mehnat qilishga, ijtimoiy va huquqiy himoyalanishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi;

– sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi;

– O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini, davlat chegaralari qo'riqlanishini ta'minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

– davlat boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o'tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, yirik avariyalar va falokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko'radi;

– O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko'radi;

— tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtirib hamda yo'naltirib boradi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat boshqaruvining boshqa organlari haqidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan ta'minlanadigan davlat boshqaruvi boshqa organlarining markaziy devoni xodimlari sonini va ular ta'minotiga ajratiladigan mablag'lar miqdorini belgilaydi.

Vazirlarning o'rinbosarlari, davlat qo'mitalari raislarining o'rinbosarlari hamda davlat boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari va ularning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlarini hamda ularning boshqaruvlarining a'zolarini, shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hay'atlarining a'zolarini tasdiqlaydi.

Vazirlar Mahkamasi zarurat bo'lganda o'z vakolatiga kiruvchi davlat boshqaruvining ayrim masalalarini hal etishni, agar bu masalalarning hal etilishi qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi hukumatining mutlaq vakolatlariga kiritilgan bo'lmasa, vazirliklar, davlat qo'mitalari va o'z bo'ysinuvidagi davlat boshqaruvi boshqa organlariga berishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining hujjatlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hollarda ularni bekor qilish huquqiga ega.

Yangi shakllantirilgan Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko'rib chiqish uchun o'z vakolatlari davridagi faoliyati dasturini taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining asosiy ko'rsatkichlarini va unga kiritiladigan o'zgartishlarni ishlab chiqadi hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari Vazirlar Mahkamasi muayyan a'zosining o'zi rahbarlik qilayotgan davlat yoki xo'jalik boshqaruvi organi faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitishlari hamda zarur bo'lganda uni iste'foga chiqarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taklif kiritishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari majlislarida, palatalarning qo'mitalari majlislarida hozir bo'lish va axborot berishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari tomonidan Vazirlar Mahkamasi yoki uning muayyan a'zolari faoliyatiga taalluqli masalalar qo'yilgan taqdirda Bosh vazir shu masalalar yuzasidan zarur tushuntirishlar olish va tushuntirishlar berishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo'mitalarining O'zbekiston Respublikasi hukumati faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi. Tavsiyalar va takliflarni ko'rib chiqish natijalari haqida hamda ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tegishli qo'mitalariga kelishilgan muddatda ma'lum qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidan, Qonunchilik palatasi deputatidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatidan, Senat a'zosidan O'zbekiston Respublikasi hukumatining yoki unga bo'ysunuvchi davlat yoxud xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatiga doir parlament so'rovi olgan Vazirlar Mahkamasi yoxud O'zbekiston Respublikasi hukumati a'zosi qonun bilan belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli palatalarining majlislarida og'zaki yoki yozma javob berishi shart.

Vazirlar Mahkamasi:

— Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan o'zaro hamkorlik qiladi, uning O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining hamda Oliy Majlis pala-

talarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish masalalariga doir boshqa hujjatlar qanday bajarilayotganligi haqidagi ma'lumotlarini eshitadi;

— Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining takliflarini ko'rib chiqadi;

— vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari tomonidan tarmoqlararo va mintaqaviy o'ta muhim kompleks dasturlarni amalga oshirishda Qoraqalpog'iston Respublikasi huquqlariga rioya etilishini ta'minlaydi, bunda chiqib qoladigan bahsli masalalarni hal etadi;

— Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlarining ijro etilishini o'z vakolati doirasida to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasini iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlantirishga, tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga taalluqli masalalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etilayotganda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining fikri hisobga olinadi.

Vazirlar Mahkamasi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Doimiy vakolatxonasi bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

— hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirilishini ta'minlash bilan bog'liq masalalarda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

— viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etilishi talab qilinadigan masalalarga doir takliflarini ko'rib chiqadi, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining bajarilish jarayonini nazorat qiladi, ularning amalga oshirilishi yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarini taklif qilish hamda ularning axborotlarini eshitishga haqli;

— vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlaydi, bunda chiqib qoladigan bahsli masalalarni hal etadi;

— hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat devonining soni va namunaviy tuzilmasini belgilaydi;

— viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qonun hujjatlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlari ijrosini to'xtatib qo'yish hamda ularni bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi va qonun hujjatlariga muvofiq ularga zarur ko'mak ko'rsatadi.

Davlat boshqaruvining, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning eng muhim masalalari Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladi. Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining majlislarini Bosh vazir o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qilishga haqli.

Quyidagilar faqat Vazirlar Mahkamasining majlislarida ko'rib chiqiladi:

— O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini ishlab chiqish va ijro etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumati tasarrufidagi aniq maqsadli davlat fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalari;

— boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, O'zbekiston Respublikasini va uning ayrim mintaqalarini iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish dasturlari loyihalari;

— davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi hamda O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzi ko'lamini oshirish to'g'risidagi takliflar;

— soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini belgilash hamda o'zgartirish to'g'risidagi takliflar;

— davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish dasturlarining loyihalari hamda xususiylashtirishdan olingan mablag'lardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi takliflar;

— belgilab qo'yilgan davlat narxlari qo'llaniladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar ro'yxati;

— qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonunlar loyihalari;

— davlatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolash to'g'risidagi takliflar.

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi hamda uning samarali ishlashi uchun shaxsan javob beradi.

Bosh vazir:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazirning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

– Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi;

– Vazirlar Mahkamasining qarorlarini imzolaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi;

– davlat va xo'jalik boshqaruvining Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

– O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» ma'ruzasi[1]da davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa – bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat. Shu boradagi asosiy vazifalardan biri – *Bosh vazir va umuman, mamlakat hukumatining rolini va shu bilan birga, mas'uliyatini kuchaytirish* hisoblanadi.

Bosh vazir o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi.

Bosh vazir yo'qligida uning vazifasini Bosh vazir o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Bosh vazirning o'rinbosarlari vazifalar taqsimotiga muvofiq o'zlari rahbarlik qilayotgan tarmoqdagi ishlarning ahvoli uchun javob beradilar, tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni, ularning ishini nazorat qilishni amalga oshiradilar hamda ularga topshiriqlar beradilar, Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga kiritilgan takliflarni hamda qaror va farmoyishlarning loyihalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqadilar.

---

[1] Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari:

— o'zlariga topshirilgan faoliyat sohasi uchun javob beradilar;

— Vazirlar Mahkamasining majlislarida masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadilar;

— Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi masalalarni ko'rib chiqish haqida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining loyihalarini tayyorlash tashabbusi bilan chiqishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi **Vazirlar Mahkamasining Rayosati** Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bosh vazirning qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi hukumatining boshqa a'zolari ham kiritilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi *doimiy komissiyalar* tuzadi va ularning vazifalari, vakolatlari hamda faoliyat tartibini belgilaydi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvining ayrim masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash, Vazirlar Mahkamasining qarorlari loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ayrim topshiriqlarini bajarish uchun Vazirlar Mahkamasining *muvaqqat komissiyalari va boshqa ishchi organlari* tuzilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar hamda farmoyishlar qabul qiladi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi yoki o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari **Vazirlar Mahkamasining qarorlari** shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari **Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari** shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Vazirlar Mahkamasi o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi ustidan bevosita yoki vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari orqali nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi qarorlari O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to'plamida e'lon qilinadi, keng ommaga darhol yetkazish zarur bo'lgan taqdirda esa ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum qilinadi.

Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislariga tayyorgarlik ko'rish, tegishli qarorlar loyihalarini, tahliliy, axborot va boshqa materiallarni tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda tekshirib borish uchun **Vazirlar Mahkamasining devoni** faoliyat ko'rsatadi.

Vazirlar Mahkamasining devoni va uning tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining devoni asosiy tarkibiy bo'linmalari rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi.

6-§. Vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 8-bandiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — Ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi.

Har bir davlatda, uning vazifalari va funksiyalarini amalga oshirilishini tashkil etilishiga qarab, vazirliklar va davlat qo'mitalarining turlari belgilanadi.

Vazirlik — ijro hokimiyati tizimining asosiy organlaridan biri hisoblanadi. Vazirliklar belgilangan sohada davlat siyosatini va boshqaruvini amalga oshirish, shuningdek, mazkur sohadagi ijro etuvchi organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil

etiladi. Demak, vazirlikning ma'muriy-huquqiy maqomi ikki asosiy holat bilan belgilanadi:

birinchidan – vazirlik sohaviy organ sifatida faoliyat ko'rsatadi;

ikkinchidan – muvofiqlashtiruvchi davlat organi sifatida harakat qiladi.[1]

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ba'zi vazirliklar azaldan mavjud (masalan, ichki ishlar, mudofaa, ta'lim, madaniyat, moliya, adliya va boshqalar), boshqalari esa ma'lum bir holatlardan yoki davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil topadi (masalan, Favqulodda Vaziyatlar vazirligi).

Vazirliklar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi. Vazirliklarning ba'zi birlari esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysundirilgan (masalan, Ichki ishlar, mudofaa vazirligi).

Vazirlik o'z faoliyatida – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Oliy Majlisning qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, o'zining Nizomiga amal qiladi.

Nizom – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olinadi.

Nizomda – ularning huquqiy maqomi, faoliyatining asosiy yo'nalishlari, vazifalari, funksiyalari, tashkiliy asoslari va boshqa umumiy masalalar belgilab beriladi.

Vazirlik o'z ishini davlat boshqaruvining boshqa organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Vazirlikning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari – vazirliklar, idoralar, joylardagi hokimiyat va boshqaruv organlari, xo'jalik birlashmalari, korxonalar va muassasalar, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Vazirlik yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob raqamlariga va boshqa hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z

---

[1] Административное право: учебник / Под ред. Ю.М.Козлова, Л.Л.Попова. – М.: «Юрист», 2000. С. 176–179.

nomi yozilgan muhrga, shuningdek, tegishli muhrlar va shtamplarga ega bo'ladi.

Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan *Vazir* boshchilik qiladi. Vazir Vazirlikka yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

Vazir:

a) vazirlik, uning tasarrufidagi muassasalar, tashkilotlar va o'quv yurtlari faoliyatiga rahbarlik qiladi;

b) o'z vakolatlari doirasida tasarrufidagi barcha tashkilotlar va muassasalar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar hamda farmoyishlar chiqaradi, ko'rsatmalar va topshiriqlar beradi;

d) vazirlik vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha normativ hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

e) vazir o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

d) vazir o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining, shuningdek, tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlarining ular zimmasiga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun mas'uliyati darajasini belgilaydi;

f) Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida vazirlik markaziy apparatining shtat jadvalini, hududiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlarni, tasarrufidagi muassasalar, tashkilotlar va korxonalarning nizomlari va ustavlarini tasdiqlaydi;

h) vazirlik markaziy apparati xodimlarini va vazirlikka bevosita bo'ysinuvchi muassasalar, tashkilotlar va korxonalarning rahbarlarini, hududiy bo'linmalar rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi;

i) vazirlik markaziy apparati xodimlarini moddiy rag'batlantirish shart-sharoitlarini belgilaydi;

j) alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni belgilangan tartibda davlat faxriy unvonlari, yorliqlar va mukofotlar berishga taqdim etadi;

k) qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'ladi.

Vazirlikda — Vazir hay'at raisi, lavozimiga ko'ra vazir o'rinbosarlaridan, shuningdek, vazirlik va uning tizimining boshqa rahbar xodimlaridan iborat tarkibda *hay'at* tashkil etiladi.

Hay'at a'zolari, Vazir va uning o'rinbosarlaridan tashqari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hay'at tasarrufidagi tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning faoliyatini takomillashtirish, kadrlarni tanlash va ularni joy-joyiga qo'yish, muhim hujjatlar loyihalarini tayyorlash, qabul qilingan qarorlar ijrosini tekshirishning muhim masalalarini ko'rib chiqadi, tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi.

Hay'at qarorlari Vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

Vazir bilan hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda Vazir kelib chiqqan kelishmovchiliklar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikrini Vazirlar Mahkamasiga ma'lum qilishlari mumkin.

Vazirliklar zarur hollarda hamda o'z oldida turgan vazifalarni bajarilishini ta'minlash maqsadida qo'shma normativ-huquqiy aktlarni ham chiqarishlari mumkin.

Vazirlikda ilmiy-texnik muammolarni ko'rib chiqish va asoslantirilgan qarorlarni qabul qilish maqsadida ilmiy-texnik, maslahat kengashlari, ekspertizalar va turli xildagi komissiyalar tashkil qilinishi mumkin. Ular to'g'risidagi nizomlar vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirliklar — bosh boshqarma, boshqarma, departament, bo'lim va boshqa xildagi hududiy bo'linmalardan (tuzilmalardan) tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Davlat qo'mitasi — ijro hokimiyatining markaziy organlaridan biri bo'lib, kollegiallik asosida tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, shuningdek, faoliyatning ma'lum bir sohasida tartibga solish vazifasini bajaradi.

Davlat qo'mitalarining vazirliklardan farqi shundaki, birinchidan, ular kollegial organlar toifasiga kiradi; ikkinchidan, ular tarmoqlararo muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

Davlat qo'mitalari vazirliklar singari ularga yuklatilgan sohalarda muvofiqlashtirish va umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Shu jihatidan bu ikkala davlat organi bir-biriga o'xshab ketadi, ya'ni ularni yaqinlashtiradi. Amaliyotda vazirlikning davlat qo'mitasiga va aksincha, davlat qo'mitasining vazirlikka aylantirish holatlari uchrab turadi. Lekin ularning farqini ma'muriy-huquqiy maqomini aniqlash orqali belgilash mumkin.

Davlat qo'mitalari, vazirliklar singari, o'z faoliyatlarida — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi

qonunlariga, Oliy Majlisning qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, o'zining Nizomiga amal qiladi.

Davlat qo'mitalarining nizomlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olinadi.

Davlat qo'mitalari nizomida — ularning huquqiy maqomi, faoliyatining asosiy yo'nalishlari, vazifalari, funksiyalari, tashkiliy asoslari va boshqa umumiy masalalar belgilab beriladi.

Davlat qo'mitalari o'z ishini davlat boshqaruvining boshqa organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Davlat qo'mitalarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari — vazirliklar, idoralar, joylardagi hokimiyat va boshqaruv organlari, xo'jalik birlashmalari, korxonalar va muassasalar, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Davlat qo'mitalari — yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob raqamlariga va boshqa hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, shuningdek, tegishli muhrlar va shtamplarga ega bo'ladi.

Davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan *Rais* tomonidan boshqariladi.

Davlat qo'mitasida Rais va lavozimi bo'yicha rais o'rinbosarlaridan, shuningdek, davlat qo'mitasining boshqa a'zolaridan iborat tarkibda hay'at (kengash) tashkil etiladi. Qo'mita hay'ati (kengashi) tarkibi Raisning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Hay'at (kengash) majlislarida davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy masalalari ko'rib chiqiladi hamda tegishli bayonnomalar va qarorlar qabul qilinadi.

Davlat qo'mitasida turli mutaxassislardan iborat ilmiy-texnik kengashlar, davlat ekspertizasi kengashlari va turli xildagi maslahat kengashlari tashkil qilinishi mumkin.

Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo'yish, shuningdek, respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2003-yil 9-dekabrda «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga binoan, *respublika davlat boshqaruvi organlari*ga – vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, shuningdek, ular huzurida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari kiradi.

Ushbu Farmondagi ilovaga binoan Respublika davlat boshqaruvi organlari quyidagilardir:

I. Vazirliklar

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
3. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.
4. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi.
8. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi.
9. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi.
10. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi.
11. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar vazirligi.
12. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar vazirligi.
13. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
14. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi.

II. Davlat qo'mitalari

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi.

6. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi.

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi.

9. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo'yicha davlat qo'mitasi.

III. Agentliklar

1. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi.

2. O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi.

3. O'zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi.

4. O'zbekiston «O'zkommunxizmat» agentligi.

5. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi.

6. O'zbekiston mualliflik huhuqini himoya qilish respublika agentligi.

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Qimmatbaho metallar agentligi.

8. «O'zarxiv» agentligi.

IV. Qo'mitalar

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita.

V. Markazlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalar markazi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Sifat» O'zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi.

VI. Inspeksiyalar

1. O'zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xo'jaligi obyektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat don inspeksiyasi.

6. O'zbekiston Respublikasi Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi.

7. O'zbekiston Respublikasi Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

Mazkur Farmonga binoan, ***Respublika Davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari*** quyidagilardan iborat:

— O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar amalda ro'yobga chiqarilishini, ularning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat amalga oshirilishini ta'minlash;

— tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta'minlash;

— mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda

ularni amalga oshirishni tashkil qilish, iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, aholining ta'lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy sohada umumdavlat boshqaruv tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish;

– tegishli huquqiy muhitni yaratish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;

– soliqlar, bojxona to'lovlarini yig'ish, davlat daromadlarini taqsimlash yo'li bilan xazinaga oid vazifalarni amalga oshirish.

Bozor islohotlarining hozirgi bosqich talablariga binoan, iqtisodiyotni boshqarishni yanada erkinlashtirish, ma'muriy islohotlarni chuqurlashtirish, korporativ boshqaruvi norma va prinsiplarini keng joriy etish, xo'jalik birlashmalarini unifikatsiyalash va ular faoliyatini tashkil qilish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2003-yil 22-dekabrda «Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga binoan, ***xo'jalik boshqaruvi organlari*** bo'lib, tarkibiga kiruvchi korxonalarning xo'jalik birlashmasiga tegishli bo'lgan aksiya paketlari orqali ana shu korxonalarning xo'jalik boshqaruvini amalga oshiruvchi aksiyadorlik kompaniyalari, shu jumladan, davlat-aksiyadorlik kompaniyalari; muassis-korxonalar tomonidan ular faoliyatiga ko'maklashish uchun muassis-korxonalarning aksiyalari paketlarini boshqarish huquqisiz ayrim umumiy vazifalarni ularga topshirish yo'li bilan ixtiyoriylik asosida tashkil qilinadigan uyushmalar hisoblanadi.

Xo'jalik birlashmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

– tarmoq va iqtisodiyot sohalarini barqaror rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash;

– marketing tadqiqotlarini tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni (ishlar, xizmatlarni) o'zlashtirish, ularning jahon bozorlariga kirib borishiga ko'maklashish;

– korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ushbu maqsadlarga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishda yordam berish;

– ular tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarga axborot xizmatlari ko'rsatish;

– kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish.

Mazkur Farmonga ko'ra, davlat boshqaruvi, shu jumladan, taqsimlash vazifalari, shuningdek, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatiga ma'muriy aralashuv – xo'jalik boshqaruvi organlarining vakolatiga kirmaydi.

7-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlari

Oldingi paragraflarda O'zbekiston Respublikasining tanlagan taraqqiyot yo'liga qisqacha to'xtalib o'tgan edik. O'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kuchli ijroiya hokimiyati zarur. Hayot taqozosiga ko'ra tarixiy sinalgan an'analarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasida ***hokimlik instituti*** vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan 1991-yil 18-noyabrda Toshkent shahrida hokimlik lavozimining tashkil etilishi, bu boradagi birinchi qadam bo'ldi.

1992-yil 4-yanvarda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyati idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonun[1] qabul qilindi. Bunda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos shartlari etiborga olinib, avvalo, ijroiya hokimiyatini mustahkamlash nazarda tutilgan edi.

Mahalliy davlat hokimiyatini isloh qilishda – davlat qurilishi borasida tarixan shakllangan milliy, an'anaviy tajribalardan, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribalaridan muvaffaqiyatli foydalanildi.

Toshkent shahrida, barcha viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik lavozimi joriy etildi hamda ular zimmasiga vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqarish mas'uliyati yuklatildi.

1992-yil aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham hokimlik lavozimini joriy etish borasida qonun qabul qilindi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham hokimlik instituti mustahkamlab qo'yildi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992, №3, 146-m.

1993-yil 2-sentabrda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunni qabul qildi. Qonun va qabul qilingan boshqa normativ hujjatlar hokimlik institutini amalda qo'llash uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Qisqa muddat ichida hokimlar amaliy ishlari bilan o'zlarini, bir tomondan umumdavlat, ikkinchi tomondan mahalliy manfaatlarni ifoda etuvchi, shuningdek, mamlakatda tinchlik va barqarorlik kafolati sifatida namoyon bo'ldi.

Mahalliy hokimiyat organlari deganda – viloyat, tuman, shahar hokimlari boshchilik qiladigan ijroiya apparati va vakillik organlari (viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari) tushuniladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi 99–104-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni[1]da nazarda tutilgan. Unga ko'ra, ***mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi***:

– qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

– hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

– mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish;

– fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

– normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari – O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati – 5 yil.

Viloyat hokimlari va Toshkent shahri hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993, №9, 320-m.

qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashadilar, o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi berilgan vakolatlari doirasida umum manfaatni ifodalovchi tadbirlar o'tkazish, qo'shimcha korxonalar, xo'jalik tashkilotlari tuzish uchun, turli tarmoqlar va boshqaruv sohalarida faoliyatlarni uyg'unlashtirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasining, O'zbekiston Respublikasi boshqa viloyatlari, shaharlari va tumanlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan shartnomalar asosida o'zaro munosabatlar o'rnatishga haqlidirlar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi *qarorlar* qabul qiladi.

Viloyat, tuman, shahar hokimi *qarorlar* qabul qiladi va *farmoyishlar* chiqaradi.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan hamda chiqargan hujjatlar imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, basharti ana shu hujjatlarda o'zga tartib belgilanmagan bo'lsa.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutloq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o'ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq o'zi sotib olgan obyektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to'liq amalga oshiradi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining molmulki, budjet mablag'lari, budjetdan tashqari fondlarning va aniq maqsadga qaratilgan fondlarning mablag'lari ***viloyat, tuman, shahar mulki***dir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muhandislik infratuzilmasi obyektlari va boshqa obyektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek, ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin.

Xalq deputatlari Kengashi, hokim viloyat, tuman, shahar mulki obyektlarini O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan doirada boshqaradi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi hamda viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli viloyat, tuman, shahar mulkida bo'lgan obyektlarni O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan tartibda va doirada vaqtincha yoki doimiy egalik qilish va foydalanish uchun berishga haqlidir.

Viloyat, tuman, shahar hokimi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga yer berishga, bu subyektlarning yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini to'xtatib qo'yishga, shuningdek, yerlarni olib qo'yishga haqli bo'lib, qabul qilingan bu xususdagi qarorlar xalq deputatlari tegishli Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarini – budjet mablag'lari, budjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, shuningdek, respublika (viloyat, Toshkent shahri) budjetidan ajratilgan subvensiyalar va dotatsiyalar tashkil etadi.

Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan birgalikdagi dasturlarni, shu jumladan, hududlararo dasturlarni pul bilan ta'minlash uchun boshqa viloyatlar, tumanlar, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning moliya resurslari bilan shartnoma asosida birlashtirilishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi viloyat, tuman, shahar budjeti va uning ijrosiga doir hisobotlarni tasdiqlaydi.

Viloyat, tuman, shahar budjeti loyihalarini tayyorlash, uning ijrosini hokim amalga oshiradi. Budjet loyihasi hokim tomonidan daromadlar manbai va xarajatlar yo'nalishlari ko'rsatilgan holda taqdim etiladi.

Ijroiya organlarini pul bilan ta'minlash budjetda nazarda tutilgan miqdorlarda amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari tegishincha tumanga bo'ysinuvchi shahar hamda shahardagi tuman budjetini va uning ijrosiga doir hisobotlarni ham tasdiqlaydilar.

*Viloyat, tuman, shahar budjeti daromadlari*ga: O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq olinadigan soliqlar va yig'imlar; viloyat, tuman va shaharga qarashli mol-mulkni ijaraga berish yoki sotishdan keladigan tushumlar; qonunlarda nazarda tutilgan hollarda viloyat, tuman, shahar mulki hisoblangan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tekshirish vaqtida aniqlangan yashirib qolingan yoki kamaytirib ko'rsatilgan daromadlarining muayyan qismi; O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq boshqa tushumlar kiritiladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi: fuqarolar, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalaridan; O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan; o'zga mablag'lardan tarkib topadigan budjetdan tashqari fondlar hosil qilishi mumkin.

Budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari bankdagi maxsus schyotlarda turadi, ularni olib qo'yish mumkin emas, ular tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga binoan sarflanadi.

Xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar Kengashi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq viloyat, shahar valuta fondi tashkil etish va ulardan xalq deputatlari Kengashining qarorlariga binoan foydalanishga haqlidir.

Viloyat, tuman, shahar ijroiya hokimiyatiga hokim boshchilik qiladi. Hokim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari hamda o'rinbosarlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi. Tuman, shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi.

Shahardagi tuman, tumanga bo'ysinuvchi shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Hokimning o'rinbosarlari hokim tomonidan belgilangan vazifalar taqsimotiga muvofiq ish bajaradilar. Hokim yo'qligida yoki u zimmasidagi vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan taqdirda uning vakolatlarini birinchi o'rinbosar yoki hokimning topshirig'iga binoan uning o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Hokim, uning o'rinbosarlari, hokimlikning boshqa xodimlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mansabdor shaxslari boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari (hokimliklar) boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning strukturasi, ularni tashkil etish tartibi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimligi apparatining namunaviy strukturasi va shtatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy tuzilmasi va shtatlari esa yuqori turuvchi hokim tomonidan belgilab qo'yiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy tuzilmasi va shtatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan belgilab qo'yiladi.

Basharti, qonunlarda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishning o'zga tartibi belgilanmagan bo'lsa, ijroiya hokimiyati tuzilma bo'linmalarining rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokimning taqdimiga

binoan – xalq deputatlari Kengashi tomonidan sessiyalar oralig'idagi davrda esa – hokim tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar, bu xususda qabul qilingan qaror xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi.

Basharti, qonunlarda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishning o'zga tartibi belgilanmagan bo'lsa, shahardagi tuman yoki tumanga bo'ysunadigan shahar ijroiya hokimiyati tuzilma bo'linmalarining rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokim tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Viloyat, tuman va shahar hokimi:

1) qonunlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlarining, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi;

2) jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq choratadbirlar ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli ishlarni tashkil etadi;

3) viloyat, tuman va shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, viloyat, tuman, shahar budjetining asosiy ko'rsatkichlarini va ularning ijrosiga doir hisobotlarni xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga taqdim etadi;

4) o'z o'rinbosarlari va ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi qarorlarni xalq deputatlari Kengashi tasdig'iga taqdim etadi;

5) hokimlik devoni bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

6) quyi turuvchi hokimlarning qarorlarini, basharti ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlariga, shuningdek, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashi va hokimning qarorlariga zid bo'lsa, bekor qiladi va xalq deputatlari Kengashiga quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlarining hujjatlarini bekor qilish to'g'risida taqdimnoma kiritadi;

7) rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining ishini nazorat qiladi;

8) xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlarni bajarmaganliklari uchun mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda taqdimnoma kiritadi;

9) davlat mukofotlari bilan taqdirlashga doir iltimosnomalarni qarab chiqadi va takliflar kiritadi;

10) respublika va xorijda viloyat, tuman hamda shaharning rasmiy vakili sifatida ish ko'radi;

11) aholini qabul qilishni tashkil etadi, fuqarolarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini qarab chiqadi.

Hokim rejalashtirish, budjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo'jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo'l xo'jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o'z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Hokimlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, hukumat hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi.

Hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Davlat organlari tushunchasi va xususiyatlari.
2. Davlat-hokimiyat vakolatining mazmuni.
3. Ijro hokimiyati organlarining tushunchasi.

4. Ijro hokimiyati organlarining o'ziga xos xususiyatlari.

5. O'zbekiston Respublikasida ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etish va ular faoliyatining prinsiplari.

6. Ijro hokimiyati organlarining tasnifi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari bilan o'zaro munosabati.

10. Bosh vazir va uning vakolatlari.

11. Bosh vazir o'rinbosarlari, Vazirlar Mahkamasi a'zolari va ularning vakolatlari.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining normativ hujjatlari.

13. Vazirliklar va ularning huquqiy maqomi.

14. Vazir va uning vakolatlari.

15. Vazirlik hay'ati.

16. Davlat qo'mitalari va ularning huquqiy maqomi.

17. Davlat qo'mitasi Raisi va uning vakolatlari.

18. Davlat qo'mitasi hay'ati.

19. Respublika boshqaruv organlari va ularning asosiy vazifalari, funksiyalari.

20. Xo'jalik boshqaruvi organlari va ularning asosiy vazifalari, funksiyalari.

21. Hokimlik institutining vujudga kelishi.

22. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi.

23. Hokimlar va ularning vakolatlari.

1-§. Ma'muriy huquq va davlat xizmatining o'zaro munosabati

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlarning shakllanishi va chuqurlashib borishi, davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy bo'linishi va samarali ijro hokimiyatining tashkil etilishi, davlatchilikni mustahkamlash zaruriyati, zamonaviy huquqiy demokratik davlatni barpo etish, davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyotining o'zgarishi – bularning barchasi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqaruv sohasidagi ma'muriy-huquqiy va ma'muriy-protsessual o'zgarishlarni ta'minlashga qaratilgandir. Bu holat, ma'muriy huquqning huquq sohasi, qonunchilik tarmog'i, o'quv fani va o'quv kursi sifatida yangilanishini va qayta tashkil etilishini taqozo etadi.

Ma'muriy qonunchilik – ko'pgina ichki sohalarga ega ekanligi, doimiy harakatda bo'lishi va o'zgarib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday holatni «Ma'muriy huquq» fanida ham kuzatish mumkin. Masalan, besh yil avval, davlat xizmati to'g'risida, faqatgina ma'muriy huquqning instituti sifatida gapirish mumkin edi. Hozirda esa, qonunchilikning rivojlanishi bilan, davlat xizmati o'zining mustaqil predmetiga va tartibga solish uslublariga ega bo'lmoqda, ya'ni mustaqil huquq sohasi sifatida shakllanmoqda.

Davlat xizmati, asta-sekinlik bilan, kuchli huquqiy bazaga ega bo'lib bormoqda hamda yaqin kelajakda huquq tizimining mustaqil sohasi sifatida joriy etilishi mumkin.

«***Davlat xizmati***» atamasi to'rt asosiy aspektda, ya'ni huquqning tegishli sohasi; qonunchilik sohasi; huquqiy fanlarning sohasi; oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan o'quv fani sifatida qo'llanilishi mumkin.

Davlat xizmati masalasiga bag'ishlangan yuridik adabiyotlarni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, «*Davlat xizmati*» o'quv kursi va uning predmeti muammosi olimlar o'rtasida muhokama qilinmagan, yetarlicha e'tibor berilmagan. Shuning uchun ham bu masalalarni muhokama qilishda turlicha fikrlarning vujudga kelishi

mumkin. Ba'zi bir olimlar «xizmat huquqi» atamasining o'zini qo'llash maqsadga muvofiq emas deb ko'rsatsa, ba'zi birlari xizmat huquqini ma'muriy huquqning ichki sohasi sifatida, uchinchi guruh olimlari esa xizmat huquqini kompleks soha tarkibiga kiritadi. Bundan tashqari, xizmat huquqi mustaqil huquq sohasi ekanligi to'g'risidagi qarashlar ham mavjud.

Jumladan, Yu.N.Starilov o'zining ilmiy ishlarida davlat xizmatini mustaqil huquq sohasi sifatida asoslab berishga harakat qilgan. Shu bilan birga uning ko'rsatishicha, xizmat huquqi — ma'muriy huquqning maxsus qismi bo'lib, davlat xizmatini tashkil etishdan boshlab toki uning funksiyalanishigacha bo'lgan jarayonni, ya'ni: ijro hokimiyati, davlat boshqaruvi, ma'muriy huquq subyektlari, davlat boshqaruv organlari, boshqaruv uslublari va ma'muriy-huquqiy shakllar, davlat majburlovi, ma'muriy javobgarlik, ijro hokimiyatidagi kontrol va nazorat kabi ma'muriy-huquqiy institutlarni o'zida birlashtiradi.[1]

Huquqshunos olim B.N.Gabrichidzening fikricha, davlat xizmati o'quv kursini o'rganish jarayonida — falsafiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy fanlar (birinchi navbatda, konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq fanlari) bo'yicha bilimlarni, uslub va shakllarni birlashtirish lozim bo'ladi.[2]

Bundan tashqari, ba'zi bir huquqshunos olimlar xizmat huquqini kompleks huquq sohalari tarkibiga kiritib, uni o'rganishda quyidagilarga e'tiborni qaratishni ko'rsatib o'tadi:

— davlat xizmat munosabatlarining vujudga kelish tartibi va uning huquqiy oqibatlari;

— davlat xizmat munosabatlarining o'zgarishi;

— davlat xizmatchilarining huquqlari va majburiyatlari;

— davlat xizmatchilarining o'z vazifalarini bajarmaganligidan kelib chiqadigan oqibatlar;

— intizomiy javobgarlikni qo'llash;

— davlat xizmati munosabatlarida huquqiy va ijtimoiy himoya va boshqalar[3].

Ma'muriy huquqning davlat xizmati bilan o'zaro munosabati shu bilan izohlanadiki, ularning har ikkalasi ham tartibga solishning umumiy predmetiga egadir. Lekin shu bilan birga ularning tartibga

---

[1] Старилов Ю.Н. Служебное право. Учебник. — М.: «БЭК», 1996, С.4-5.

[2] Габричидзе Б.Н., Коланда В.М. Принцип профессионализма в государственной службе // Государство и право. 1995. №2. С. 19—26.

[3] Бахрах Д.Н. Государственная служба в Российской Федерации. Екатеринбург, 1995.

solish predmetida ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud. Jumladan, ma'muriy huquqning predmetiga davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar kirsa, davlat xizmatining predmetiga davlat xizmatini tashkil etish va uni amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

Davlat xizmati munosabatlari nafaqat davlat organlarining ijrochilik faoliyati jarayonida, balki davlat hokimiyatining boshqa sohalarida ham vujudga keladi. Davlat xizmati predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarning aksariyatini, konstitutsiyaviy, mehnat, moliya, jinoyat va boshqa huquq tarmoqlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar tashkil etadi.

Davlat xizmatchilari keng ko'lamdagi vazifalarni amalga oshirishi sababli, xizmat munosabatlari nafaqat davlat boshqaruvi, balki yurisdiksiyaviy (huquqni muhofaza qilish) faoliyat sohasida ham vujudga keladi.

Demak, davlat xizmati predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarni davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayoni bilan bog'lashning o'zi yetarli emas. Davlat xizmati munosabatlari davlat faoliyatining deyarli barcha sohalarida vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi mumkin. Lekin davlat xizmati va ma'muriy huquq o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ham ko'rsatib o'tish lozim. Davlat xizmatini tashkil etishdan boshlab toki uni o'tashgacha, davlat xizmat munosabatlarining bekor bo'lishigacha bo'lgan jarayonda ma'muriy huquq normalari ishtirok etadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, davlat xizmati va ma'muriy huquq o'rtasidagi o'zaro munosabatni belgilashda «***davlat-xizmat munosabatlari***»ning tutgan o'rni kattadir. Davlat-xizmat munosabatlari bir necha o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

birinchidan — bu munosabatlar davlat-huquqiy munosabatlari bo'lib hisoblanadi, ya'ni davlat-xizmat munosabatlari ommaviy huquq (davlat, ma'muriy) normalari bilan tartibga solinadi va ko'pgina hollarda xususiy-huquqiy tartibga solishdan xolidir;

ikkinchidan — davlat-xizmat munosabatlari — alohida huquqiy munosabatlar bo'lib, davlat xizmatchilarining maqomi bilan bog'liqdir;

uchinchidan — davlat-xizmat munosabatlari — davlat xizmatchilarining ishonch, xizmat va sadoqat munosabatlaridir;

to'rtinchidan — davlat-xizmat munosabatlari — davlat-huquqiy hokimiyat munosabatlaridir;

beshinchidan — davlat-xizmat munosabatlari — davlat lavozimini boshqarish bilan bog'liq, ya'ni davlat xizmatchisi dav-

latning funksiyalarini amalga oshirib, ma'lum bir davlat vazifa va funksiyalarini bajaradi.[1]

2-§. Davlat xizmati tushunchasi va mazmuni

Davlat xizmati mohiyatini va uning asosiy xususiyatlarini aniqlashdan oldin, insonlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali faoliyat turlari to'g'risida tushuncha hosil qilish lozim. Bularni quyidagi shakllarga bo'lish mumkin:

1) tovarlar, moddiy boyliklar ishlab chiqarish, ma'lum bir xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish;

2) nomoddiy (ma'naviy) boyliklar yaratish (masalan, kitoblar, maqolalar yozish, kino va videofimlar yaratish, ssenariylar tayyorlash);

3) ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirish (masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash va h.k.lar);

4) davlat xizmatini amalga oshirish:

a) ijtimoiy-madaniy sohalarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish) boshqarish;

b) iqtisodiyot sohalarini (sanoat, qishloq va suv xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari) boshqarish;

d) ma'muriy-siyosiy sohalarni (mudofaa, davlat xavfsizligi, adliya, ichki ishlar, tashqi ishlar) boshqarish;

5) nodavlat, jamoat, diniy, xalqaro, xorijiy tashkilotlarda faoliyat ko'rsatish;

6) jamiyatning turli sohalarida ma'lum bir ehtiyojlarni qondirish maqsadida ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish va boshqalar.[2]

D.N.Baxraxning fikricha, insonlarning, shuningdek, davlat va jamiyatning maqsadga muvofiq faoliyat yo'nalishlaridan biri – bu xizmatdir. Bu tushuncha turli ma'nolarda: insonning faoliyat turi, ijtimoiy-huquqiy institut, davlat organlarining maxsus tizimi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Xizmat – boshqaruvdan, davlat faoliyatini amalga oshirishdan, boshqaruvni ta'minlashdan, aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatishdan iborat.[3]

Xizmatning (shu jumladan, ijtimoiy foydali faoliyatning) asosiy turi – bu davlat xizmati hisoblanadi. Ko'pgina darsliklarda davlat xizmati davlat organlarida mehnat qiluvchilarning davlat oldida

---

[1] Xojiyev Ye.T. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – T.: 2004. 8–9-b.

[2] Алехин А.П., Козлов Ю.М., Кармолицкий А.А. Административное право Российской Федерации. – М.: «Зерцало», 1996. С. 76-236.

[3] Бахрах Д.Н. Административное право. – М.: 1993, С. 97.

turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishga qaratilgan mehnat faoliyati sifatida ko'rsatib o'tiladi.[1]

V.M.Manoxinning fikricha, «Davlat xizmatining mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini, davlat xizmatining vazifa va funksiyalarini — davlat vazifalari, funksiyalari, davlat faoliyati shakllarining o'zaro nisbati orqali aniqlash mumkin».[2]

Turli tashkilotlarning xizmatchilari o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida o'ziga xos munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlarning mazmunini xizmat turi hamda xizmat olib borilayotgan tashkilotning o'ziga xos xususiyatlari belgilab beradi. Jumladan, xizmat munosabatlari:

birinchidan — davlat-xizmat munosabatlariga;

ikkinchidan — jamoat birlashmalarida va boshqa nodavlat (xususiy, tijorat) tashkilotlarida amalga oshiriladigan faoliyatga bo'linadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, xizmatchilarning qanday lavozim egallashi va qaysi tashkilotda o'z majburiyat va vazifalarini bajarishiga qarab, ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

a) davlat organlarining xizmatchilari;

b) mahalliy organlarining xizmatchilari;

d) davlat korxonalari, muassasalari, tashkilotlari va birlashmalarining xizmatchilari;

e) nodavlat tashkilotlarning xizmatchilari;

f) jamoat birlashmalarining xizmatchilari va h.k.lar.

Yu.M.Kozlovning fikricha, *davlat xizmati* — davlat organlarida amalga oshiriladigan hamda ishchilarining mehnatidan mazmuni va shakli jihatidan farq qiladigan har qanday faoliyat tushuniladi.[3]

Davlat xizmatiga bunday yondashish mehnat faoliyatining ikki shakliga asoslanadi: *birinchidan*, bevosita moddiy boyliklarni, tovarlarni yaratish (ishlarni bajarish); *ikkinchidan*, boshqaruvni, rahbarlikni, kontrol va nazoratni amalga oshirish. Bunda — ma'naviy boyliklar yaratilishi yoki davlat organlarining funksiyalari amalga oshirilishi mumkin.

Davlat va mahalliy organlaridagi xizmatning zaruriyati — davlatning mavjud bo'lishidan, uning vazifa va funksiyalaridan, shuningdek, davlat organlarini (qonunchilik, ijro etish va sud hokimiyati) tashkil etish ehtiyojidan kelib chiqadi.

---

[1] Административное право. — М.: 1985. С. 123.

[2] Манохин В.М. Государственная служба. — М.: 1966. С. 5.

[3] Административное право. Под.ред. Ю.М.Козлова. — М.: 1973. С. 136—137.

Aynan xizmatchilar ko'pgina davlat organlari tuzilmasida, muassasa va tashkilotlarida, boshqaruv hamda boshqariluvchi tizim ichida personal sifatida harakat qiladi; ularning o'z vazifalarini vijdonan bajarishi esa davlat va jamiyatda huquqiy tartibotni o'rnatishda xizmat qiladi.

D.N.Baxraxning fikricha, davlat xizmati tushunchasini bir necha ma'nolarda ko'rib chiqish mumkin:

ijtimoiy ma'noda – davlat xizmati ijtimoiy kategoriya bo'lib, davlat tashkilotida ma'lum bir lavozimni egallab turgan shaxs tomonidan davlatning ko'rsatmasiga ko'ra ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirishdir;

siyosiy ma'noda – davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, davlatning maqsad va vazifalariga barcha ishlab chiqilgan siyosiy kuch va vositalar orqali erishish; davlat xizmati jamiyatdagi muvozanatning asosiy ko'rinishidir;

huquqiy ma'noda – davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy o'rnatish bo'lib, mansab majburiyatlari, xizmatchilarning vakolatlari, davlat organlarining kompetensiyasi bajarilishi ta'minlanadi. Davlat xizmati murakkab ijtimoiy-huquqiy institutlardan biri bo'lib, uni o'rganish davlat xizmatining ijtimoiy va huquqiy asoslarini tahlil qilishni talab qiladi. Bu institut davlat-xizmat munosabatlarini tartibga soluvchi normalar yig'indisidan iborat bo'lib, u orqali xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlari, ularga belgilanadigan cheklovlar, javobgarlik hamda davlat xizmatini o'tash, ya'ni xizmat munosabatlarining vujudga kelishi va bekor bo'lishi tartibga solinadi. Demak, davlat xizmati huquqiy institut bo'lib, turli huquq sohalarining normalaridan tashkil topgan kichik institutlarni o'z ichiga oladi;

tashkiliy ma'noda – davlat xizmati davlat apparatining tashkiliy-funksional elementlari bilan aloqada bo'ladi. U quyidagi elementlardan tashkil topgan tizim sifatida namoyon bo'ladi: davlat apparati faoliyatining tashkiliy va protsessual asoslarini tashkil etish, lavozimlarning qurilishi va ularning huquqiy ko'rinishi, xodimlarni aniqlash, baholash. Davlat xizmati davlatni mustahkamlashning huquqiy asosi bo'lib, davlat hokimiyatini belgilaydi va fuqarolik jamiyatining normal funksiyalanishini ta'minlaydi.[1]

Davlat va mahalliy organlarida amalga oshiriladigan xizmat, – Yu.N.Starilovning fikricha, – bu ommaviy xizmat bo'lib, ommaviy hokimiyat organlarida amalga oshiriladigan xizmatdir. Odatiy nazariya nuqtayi nazaridan davlat xizmati deganda – davlat korxo-

[1] Бахрах Д.Н. Административное право. – М.: 1993. С. 102.

nalari, muassasalari, tashkilotlari va birlashmalarida amalga oshiriladigan xizmat tushuniladi. Xususiy tashkilotlarning, korxonalarning, banklar va boshqa korxona va tashkilotlarning xizmatchilarini, faqatgina ijtimoiy nuqtayi nazardan, xizmat munosabatlari tizimiga kiritish mumkin.

Oxirgi vaqtlarda ko'pgina rivojlangan davlatlarda xalq noiblari (deputatlar) tomonidan olib borilayotgan xizmat professional ish sifatida namoyon bo'lmoqda. Ularda deputatlar davlat xizmatchilari hisoblanmaydilar. Davlatda oliy mansablarni egallab turgan shaxslar ham (Prezident, vakillik va ijro hokimiyati organlarining rahbarlari, vazirlar va boshqalar) davlat xizmatida emas. Ular ommaviy-huquqiy xizmat maqomiga ega hamda o'z vazifalarini ma'lum bir davrda amalga oshirishlari mumkin. Masalan, G'arbiy Yevropa yoki Amerika Qo'shma Shtatlarini olib qaraydigan bo'lsak, ulardagi oliy mansabdor shaxslar ommaviy xizmat tarkibiga kiritilmagan.

Lekin mazkur davlatlarning ommaviy xizmat tizimi bilan tanishib chiqqanda, ba'zi bir qarama-qarshiliklarni ko'rish mumkin (masalan, mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini «*vaqtinchalik*» bajarish bilan davlat xizmatiga «*umrbod*» tayinlash prinsipi o'rtasida). Muhim davlat-ma'muriy funksiyalar – davlat xizmatiga hech qanday aloqasi bo'lmagan xususiy shaxslar (masalan, xususiy notariuslar) tomonidan bajariladi.[1]

Davlat xizmati tushunchasini keng ma'noda olib ko'radigan bo'lsak, bu davlat organlari tomonidan boshqaruvning kadrlar funksiyasini amalga oshirish, davlat organlari apparatida doimiy yoki vaqtincha mansabni egallab turgan hamda davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan barcha shaxslarning faoliyatidir.[2]

V.M.Manoxin tomonidan davlat xizmatiga berilgan tushuncha yuridik adabiyotlarda keng qo'llanilmoqda. Uning fikricha, *davlat xizmati* – bu davlat organlarini va boshqa tashkilotlarini tashkil etish va huquqiy tartibga solish bo'yicha davlat faoliyatining bir bo'lagi hisoblanadi, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati esa davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishga qaratiladi.

Lekin yuqorida berilgan ta'rifga nisbatan ko'pgina olimlar o'z e'tirozlarini bildirishgan. Jumladan, B.M.Lazarev uning quyidagi

---

[1] Старилов Ю.Н. Служебное право. – М.: «БЕК», 1996. С. 131.

[2] Hojiyev Ye.T. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI nashriyoti, 2004. 14-b.

kamchiliklarini ko'rsatib o'tgan: birinchidan, davlat xizmati davlat xizmatchisi atamasi bilan belgilangan; ikkinchidan, davlat xizmatchilari nafaqat davlat funksiyalarini, balki boshqa faoliyat turini ham amalga oshiradilar (masalan, shifokorlar, ilmiy xodimlar, o'qituvchilar va boshqalar); uchinchidan, Manoxin V.M. tomonidan berilgan ta'rifda ikki holat, ya'ni davlat xizmati hamda uni tashkil etish va tartibga solishga qaratilgan faoliyat umumlashtirilgan.

Lazarev B.M. davlat xizmatiga quyidagicha ta'rif beradi: «*davlat xizmati* – davlatga xizmat qilish, ya'ni uning talabi bilan ma'lum bir pul mukofoti evaziga davlat organida davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha bo'ladigan faoliyatdir».[1]

Davlat xizmati davlat apparatini boshqarishni tashkil etish va huquqiy tartibga solish bo'yicha davlat faoliyatining asosiy turlaridan biri bo'lib, davlat oldida turgan vazifalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatining asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilangan prinsiplar va boshqa holatlarga asoslanib, davlat funksiyalarini amalga oshirish, uning vazifalarini bajarish, jamiyat va fuqarolar ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlashdan iboratdir.

Hozirgi vaqtda asosiy masalalardan biri – bu O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatining umumiy tomonlarini tartibga soluvchi yagona qonun qabul qilishdir. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 1995-yil 5-iyulda «Rossiya Federatsiyasida davlat xizmatining asoslari to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan bo'lib, davlat xizmatiga taalluqli bo'lgan asosiy masalalar huquqiy jihatdan tartibga solingan. Mazkur qonunning 2-moddasiga binoan *davlat xizmati deganda* – davlat organlari vakolatlarini ta'minlash bo'yicha olib boriladigan professional faoliyat tushuniladi. Ushbu qonundan kelib chiqqan holda, davlat xizmatining quyidagi xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan:

1) davlat xizmati – professional faoliyat, ya'ni davlat xizmatchisining davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatidir;

2) mazkur faoliyatni olib borish jarayonida davlat organlarining kompetensiyasi amalga oshiriladi;

3) bu faoliyat davlat organlarining funksiyalanishini ta'minlashga qaratilgandir;

---

[1] Лазарев Б.М. Государственная служба. – М.: 1993. С.5-6.

4) bunday faoliyat mansab majburiyatlarining ijro etilishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, mansab majburiyatlari davlat xizmatiga emas, balki davlat xizmatchisiga tegishli bo'ladi. Bu yerda, biz davlat xizmati tushunchasining shaxsiy aspektini ko'rishimiz mumkin.

Davlat xizmati tushunchasi *funksional ma'noga* ham ega. Unga ko'ra davlat xizmati – davlat faoliyatining, davlat organlarining, ma'muriy-boshqaruv tuzilmalari faoliyatining alohida turi hisoblanadi.

Davlat xizmatchilarining faoliyati turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, davlat xizmatchilari:

1) farmoyish berish, tartibga solish xususiyatidagi vakolatlarni amalga oshiradilar;

2) boshqaruv tizimida huquqning turli subyektlariga nisbatan huquqiy-hokimiyat ko'rsatmalarini amalga oshiradilar;

3) yurisdiksiyaviy harakatlarni amalga oshiradilar, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslar hamda huquqning boshqa subyektlariga nisbatan davlat majburlov choralarini qo'llaydilar (masalan, intizomiy, ma'muriy va boshqalar);

4) tashkiliy harakatlarni va moddiy-texnik operatsiyalarni amalga oshiradilar (masalan, majlislar, yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazish);

5) fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradilar.

Davlat xizmatchilarining faoliyati muhim huquqiy oqibatlarga olib keladi, chunki ularning faoliyati jarayonida huquqiy munosabatlar vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi mumkin. Davlat xizmatchilari faoliyatining barcha shakllari davlat tomonidan amalga oshiriladigan rahbarlikning zaruriy elementlari bo'lib, davlat hokimiyatini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Xizmatchilar aksariyat hollarda ma'muriy funksiyalarni amalga oshiradilar (masalan, boshqaruv, tashkillashtirish, nazorat, rejalashtirish, hisobga olish, rahbarlik va boshqalar). Boshqaruv xizmatchilari o'zining maqsadi, vazifalari, mazmuni va natijalari jihatidan ijtimoiy mehnat bilan band bo'ladi. Bunday faoliyat jarayonida, qoida bo'yicha, moddiy boyliklar bevosita yaratilmaydi. Bu faoliyat asosan ijtimoiy rivojlanishning, davlat qurilishining maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarini ishlab chiqish, aniq bir davlat-ijtimoiy organizmni tashkil etish, jamiyat faoliyatini tartibga solishga qaratiladi. Xizmatchilarning mehnati – insonlarning ongiga ta'sir etuvchi intellektual, ruhiy, javobgar faoliyat turi bo'lib hisoblanadi.

Davlat xizmatining umumiy xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, davlat xizmatchilarining davlat xizmatini davlat organida nazarda tutilgan shtat jadvali asosida olib borishi;

ikkinchidan, davlat xizmatchilarining belgilangan pul mukofoti evaziga davlat organi vakolatlarini, mansab majburiyatlarini amalga oshirishi.[1]

V.I.Fadeyev o'zining ilmiy ishlarida mahalliy davlat hokimiyati organlarida amalga oshiriladigan xizmatni to'la darajada asoslab beradi. Uning fikricha, mahalliy organlarda xizmatni o'tash jarayonida quyidagi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi mumkin:

a) mahalliy organlarni tashkil etish bo'yicha bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar;

b) mahalliy organlar va uning mahalliy mulkni, mahalliy xo'jalikni boshqarish, mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish bo'yicha organlarning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar;

d) qonun hujjatlari asosida davlatning ayrim vakolatlarining mahalliy organlar tomonidan amalga oshirilishi, qonunlarni hamda yuqori turuvchi organlar huquqiy aktlari ijro etilishini tashkil etish va amalga oshirish jarayonlarida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar;

e) mahalliy organlar tomonidan konstitutsiyaviy huquqni va sud himoyasini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar.

Bundan tashqari, mahalliy organlardagi xizmat quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1) bu xizmat – ommaviy xizmatning alohida turi hisoblanadi, ya'ni mahalliy ommaviy hokimiyat organidagi xizmatdir;

2) bu – mahalliy organlardagi professional faoliyat bo'lib, uning amalga oshirilishi bilan mahalliy xizmatchilar mahalliy budjetdan mablag' oladilar. Mahalliy xizmatchilar mahalliy organlardagi ma'lum bir lavozimlarda xizmatni olib boruvchi shaxslardir;

3) bu – mahalliy organlar vakolatlarini ijro etish bo'yicha bo'ladigan faoliyatdir, ya'ni mahalliy tuzilmaga bo'ysundirilgan faoliyatdir;

4) bu – doimiy asosda tashkil etiladigan faoliyatdir, ya'ni mahalliy organlar xizmatchilari mahalliy organlarning faoliyatini

---

[1] Hojiyev Ye.T. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI nashriyoti, 2004. 17-b.

doimiy, cheklanmagan muddatda amalga oshiradilar. Lekin ularni saylanadigan mansabdor shaxslardan (ma'lum bir muddatlarda xizmatni olib boradigan shaxslardan) farqlay olish lozim. Mahalliy organlar xizmatchilarining «*doimiy asosli*» faoliyati mahalliy organlar xizmatining professionalizmini, uning muvozanatini ta'-minlaydi. [1]

Alimov X.R. davlat xizmatiga to'xtalib, uning quyidagi asoslarga ko'ra tasniflanishini ko'rastib o'tadi:

birinchidan – *davlat faoliyatining turlari (shakllari)ga qarab davlat xizmati:* a) xalq deputatlari Kengashlarida amalga oshiriladigan xizmat; b) davlat boshqaruvi organlarida amalga oshiriladigan xizmat; d) sud organlarida amalga oshiriladigan xizmat; e) prokuratura organlarida amalga oshiriladigan xizmatga bo'linadi;

ikkinchidan – *faoliyat turiga ko'ra davlat xizmati:* a) moddiy ishlab chiqarish sohasidagi xizmat; b) ijtimoiy foydali faoliyatning boshqa sohalaridagi xizmatga bo'linadi;

uchinchidan – *farmoyish berish vakolatlariga ega bo'lish xususiyatlariga ko'ra davlat xizmatchilari:* a) farmoyish berish vakolati berilgan xizmat; b) bunday vakolat berilmagan xizmatga bo'linadi.[2]

3-§. Davlat xizmati prinsiplari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir necha moddalari bevosita davlat xizmati bilan bog'liq bo'lib, uning asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi. Masalan, davlat xizmatida qonuniylik, inson va fuqarolar huquqlari va erkinliklarining ustunligi, davlat xizmati sohasida vakolatlarning taqsimlanganligi, davlat xizmatida ishtirok etuvchi fuqarolarning tengligi va boshqa konstitutsiyaviy prinsiplarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini tashkil etishning asosiy prinsiplaridan biri – bu ***davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligidir.*** Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Bu holat huquqiy demokratik davlat qurishning asosiy belgisidir. Davlat, uning organlari insonlar uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga binoan O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning va qonunlarning ustunligi so'zsiz

---

[1] Фадеев В.И. Муниципальное право России. – М.: 1994. С.6.

[2] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / – Т.: «Адолат», 1999. С. 106.

tan olinadi. Davlat xizmatchilari amaldagi qonunchilik hujjatlariga tayanib, faqatgina davlat organining vakolat doirasida o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari, qonunchilik bilan ularga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida bajarishlari, berilgan huquqlardan to'g'ri foydalanishlari, belgilangan tartibga rioya qilishlari lozim. ***Qonuniylik prinsipi***ga binoan davlat xizmatini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi huquq normalariga asoslanishi hamda jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini ta'minlagan holda amalga oshirilishi lozim.

Davlat xizmati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatib o'tilgan davlat hokimiyatining tizimi asosida, ya'ni ***hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi asosida tashkil qilinadi***. Davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Hokimiyat organlari bir-biridan mustaqil bo'lib, ularning har biri davlat oldida turgan ma'lum bir vazifa va funksiyalarni amalga oshiradilar. huquqiy demokratik davlat qurishning muhim belgilaridan biri — bu davlat vakolatlarini hokimiyat organlari o'rtasida taqsimlashdir.

Qonunchilikka binoan ***fuqarolar davlat xizmatida bevosita ishtirok etishlari mumkin***. Bunday ishtirok — davlat xizmatida ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish yoki davlat organlariga murojaat qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga binoan fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Konstitutsiyaning 35-moddasiga binoan esa har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif, shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Shu holatni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, davlat xizmatida bevosita ishtirok etishga faqatgina O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigina ega bo'lib hisoblanadilar.

Davlat xizmatida ishtirok etuvchi barcha fuqarolar bir xildagi huquqlarga ega bo'lib, millati, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa belgilaridan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Davlat xizmatida fuqarolarning faoliyat ko'rsatishida, mansab yoki lavozim bo'yicha harakatlanishida davlat tomonidan teng shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Yuridik adabiyotlarda davlat xizmatining asosiy prinsiplaridan tashqari, tashkiliy-funksional prinsiplari ham ko'rsatib o'tilgan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *yuqori davlat organi (mansabdor shaxs) tomonidan chiqarilgan qarorlarning quyi turuvchi organlar (davlat xizmatchilari) uchun majburiyligi prinsipi.*

Bu prinsip orqali davlat xizmatidagi quyidagi asosiy holatlar belgilab beriladi: birinchidan, yuqori davlat organi yoki rahbar tomonidan chiqarilgan qarorlar quyi turuvchi organlar va davlat xizmatchilari tomonidan bajarilishi majburiydir; ikkinchidan, chiqariladigan qarorlar qonuniy bo'lishi, ya'ni qarorlar uni chiqarish vakolatiga ega bo'lgan davlat organi (mansabdor shaxs) tomonidan vakolat doirasida chiqarilishi lozim; uchinchidan, bu qarorlar qonun talablariga zid kelmasligi lozim.

Bu prinsip orqali davlat organlarining normal funksiyalanishi ta'minlanadi;

2) *davlat xizmatida o'rnatiladigan asosiy talablarning yagonaligi prinsipi.*

Mazkur prinsipga binoan davlat xizmati va davlat xizmatchilariga o'rnatiladigan barcha talablar, ya'ni davlat xizmatini tashkil etish, davlat xizmatiga kirish, xizmatchilarga qo'yiladigan malakaviy talablar, mansab majbariyatlarini bajarishga qo'yilgan talablar, davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish, xizmatchilarga nisbatan intizomiy javobgarlikni qo'llash, malakasini oshirish va boshqa talablar qonunchilikda bir xil belgilanadi;

3) *davlat xizmatini amalga oshirishda oshkoralik prinsipi.*

Davlat xizmatini amalga oshirishda oshkoralik prinsipi yordamida davlat organlari va davlat xizmatchilarining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni olish ta'minlanadi. Har qanday davlat xizmati oshkoralik prinsipi asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi lozim. Oshkoralik prinsipi orqali bir tomondan fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishi, ikkinchi tomondan esa davlat oldida turgan vazifalarni hal etishda fuqarolarning fikrini e'tiborga olish ta'minlanadi.

Davlat xizmatida oshkoralikni ta'minlash uchun quyidagilar zarurdir: birinchidan, fuqarolar fikrini inobatga olish mexanizmini tashkil etish; ikkinchidan, davlat organlari, davlat xizmatchilari faoliyatiga nisbatan fuqarolar bildirgan fikrlar muhofazasining huquqiy sharoitini yaratish; uchinchidan, axborot vositalari orqali davlat organlari va davlat xizmatchilarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida oshkoralikni ta'minlash.

4) *qabul qilinadigan qarorlar, o'z vazifasini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun davlat xizmatchilarining javobgarligi prinsipi.*

Mazkur prinsip davlat xizmatchilari tomonidan o'zlarining mansab majburiyatlarini vijdonan va to'g'ri bajarishlarini ta'minlaydi.

Davlat xizmatchilari tomonidan qabul qilinadigan har qanday qaror qonuniy, maqsadga muvofiq va boshqaruv aktlariga qo'yiladigan talablarga mos bo'lishi lozim.

Davlat xizmatchisining o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoxud mansab vakolatlaridan chetga chiqishi, ularga nisbatan javobgarlik choralarini qo'llashga olib keladi;

5) *davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish prinsipi.*

Amaldagi qonunchilikda davlat xizmatchilari uchun quyidagi ijtimoiy himoya vositalari o'rnatilgandir: haqi to'lanadigan mehnat ta'tili; davlat hisobidan tibbiy xizmatdan foydalanish; davlat xizmatchilari tomonidan o'z vazifalarini bajarish jarayonida ularning va oila a'zolarining sha'ni, qadr-qimmatini hamda boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish; transport va boshqa aloqa vositalari bilan ta'minlash va boshqalar.

4-§. Davlat xizmati maqsadi, vazifalari va funksiyalari

O'zbekiston Respublikasida ***davlat xizmatining asosiy maqsadi*** bo'lib — davlat funksiyalarini amalga oshirish, uning vazifalarini bajarish, jamiyat xotirjamligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchilik hujjatlari bilan o'rnatilgan prinsiplar va boshqa holatlar asosida ommaviy manfaatlarni qondirish hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda[1] davlat xizmatining vazifalariga deyarli barcha huquqshunos olimlari bir xilda yondashgan. Ularning fikricha, ***davlat xizmatining asosiy vazifalari***ga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, fuqarolik jamiyati qurish uchun shart-sharoitlar yaratib berish, ishlab chiqarish, shaxsning erkin hayot kechirishini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, ekrinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

2) davlat organlari oldida turgan funksiyalarning amalga oshirilishi uchun ijtimoiy-siyosiy va davlat-huquqiy sharoitlarni tashkil etish;

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. — «Зерцало», 1998; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. — М.: «Норма», 2004; Козлов Ю.М. Административное право. — М.: «Юрист», 2003; Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право. — М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004.

3) davlat organlariga berilgan kompetensiyadan kelib chiqqan holda ularning samarali faoliyatini ta'minlash;

4) davlat xizmati va davlat xizmatchilarining professional faoliyati sharoitlarini takomillashtirish;

5) davlat organlari va davlat xizmatchilari faoliyatida oshkoralik prinsipining amalda bo'lishini ta'minlash, qonuniylikka rioya etish, davlat xizmatida ma'muriy-buyruqbozlik, korrupsiya va boshqa negativ holatlarga barham berish;

6) davlat organlarida xizmatchilarning qobiliyatini, muomalasini yaxshilash, boshqaruv ishining samaradorligini oshirish;

7) davlat xizmatchilari malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va ta'minlash;

8) davlat organlarini davlat xizmatiga yaroqli bo'lgan hamda o'zining mansab majburiyatlarini bajara oladigan yuqori malakali xizmatchilar bilan to'ldirish;

9) davlat organlari xizmatchilari faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, axborot, moddiy-moliyaviy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni tashkil etish;

10) kadrlarni tanlash, xizmat bo'yicha harakatlanish tartibini, malakali sinovlarni, attestatsiyalarni o'tkazish, malaka darajalarini berish, muvozanat va javobgarlik choralarini belgilash va h.k.lar.

O'zbekiston Respublikasida, Alimov X.R.ning ko'rsatishicha, davlat xizmatining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1) O'zbekiston Respublikasi xalqi manfaatlarini ko'zlab davlat funksiyalarini amalga oshirish;

2) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining qarorlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hokimiyat va boshqaruv organlarining boshqa normativ hujjatlarini ijro etish;

3) faoliyatning o'rnatilgan maqsadlari va vakolatlariga qat'iy rioya etgan holda, respublika va mahalliy organlarning samarali ish faoliyatini ta'minlash;

4) fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishini va himoya qilinishini ta'minlash;

5) boshqaruv faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish va ilmiy-texnik jarayonning eng ilg'or vositalaridan foydalanish, professional darajani oshirib borish va boshqalar.[1]

---

[1] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / – Т.: «Адолат», 1999.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xizmatining har bir turi normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan o'zlarining vazifalariga egadir.

B.Mirbobov, O.Husanovlarning ko'rsatishicha, davlat xizmatining asosiy maqsadi – davlatning Konstitutsiya va qonunlarini amalga oshirish hisoblanadi. Shu maqsadda ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) davlatni aholi bilan aloqasini, davlat xizmatining obro'-e'tiborini ta'minlovchi ijtimoiy-siyosiy va davlat-huquqiy asoslarini shakllantirish;

2) markaziy va mahalliy davlat organlari apparatini samarali ishlashi va rivojlanishini ta'minlash;

3) mehnatni ilmiy tashkil etish, fan yangiliklaridan, texnika yutuqlaridan foydalanish, jahon tajribasini qo'llash orqali davlat apparati faoliyatini doimiy takomillashtirib borish;

4) davlat boshqaruvini demokratlashtirish, uning faoliyatida oshkoralik va ochiqlik uchun sharoit yaratish, qonuniylikni ta'minlash, byurokratizm va korrupsiya ko'rinishlariga barham berish;

5) davlat organlari jamoasida sog'lom muhit, ishchanlik sifatlarini, tashabbuskorlik, ijodkorlikni vujudga keltiruvchi sharoitlarni ta'minlash;

6) davlat boshqaruvi xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish tizimini vujudga keltirish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, xodimlarni xizmat pillapoyasidagi adolatli siljishiga imkoniyat yaratish;

7) davlat boshqaruviga xizmatga qabul qilish, xizmatni o'zgartirish, yuqori ko'tarilish, xodimlar faoliyatini baholash, rag'batlantirish, javobgarlik tartiblarini aniqlash.[1]

Davlat xizmatining vazifalari – davlat organining huquqiy maqomiga, davlat xizmatchisining qanday mansab va lavozimni egallab turganiga bog'liq bo'ladi.

Davlat xizmatining funksiyalari masalasini ko'rib chiqish nafaqat uning asosiy maqsadini, balki davlat xizmatidagi hal etilmagan muammolarni aniqlashga yordam beradi. Davlat xizmati funksiyalari orqali davlat xizmatini huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlar bartaraf etiladi, davlat xizmatini takomillashtirish va qayta tashkil etishning yo'nalishlari ishlab chiqiladi.

---

[1] B.Mirboboyev, O.Husanov, A.Begmatov. O'zbekistonda davlat xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy masalalari. – T.: «Akademiya», 2005. 25–26-betlar.

Davlat xizmatining funksiyasi to'g'risida batafsil tushuncha hosil qilish uchun «*huquq funksiyasi*» va «*davlat funksiyasi*» atamalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, bir-biriga ta'sir etishini, o'xshashlik va o'ziga xos xususiyatlarini bilish lozim (*Qarang:* ushbu darslikning 1-bobi, 3-§).

T.N.Radko davlat xizmatining funksiyalariga tushuncha berar ekan, davlat va huquq funksiyalarining birligi, o'xshash tomoni shundan iboratki, ular davlat va huquqning mohiyatini va ijtimoiy yo'nalishini belgilab beradi va aksariyat holatlarda umumiy vazifalarni hal etishga qaratiladi. Huquq funksiyasining davlat funksiyasidan farqi shundaki, **birinchidan,** ularning o'ziga xos xususiyatlari; **ikkinchidan,** bu funksiyalarni amalga oshirish yo'llari, uslub va shakllari turlichadir; **uchinchidan**, amalga oshiriladigan funksiyalarning soni va turlari bir-biriga to'g'ri kelmaydi; **to'rtinchidan,** funksiyalarni amalga oshirish doirasi turlichadir.[1]

Davlat xizmatining funksiyalari – bu davlat xizmati instituti huquqiy normalarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy tartibga solish maqsadiga erishish hamda davlat xizmatining ijtimoiy va davlat-huquqiy rolini bajarishidir.

Funksiyalar davlat xizmatini tashkil etish va bu faoliyatni bevosita amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan davlat-xizmat munosabatlariga ta'sir etishning aniq yo'nalishlari hisoblanadi.

Davlat xizmati funksiyalari bilan bir qatorda, davlat xizmati huquqiy institutining funksiyalari to'g'risida ham to'xtalib o'tish lozim.

Davlat xizmati huquqiy institutining asosiy funksiyasi – bu davlat-xizmat munosabatlarini to'g'ri va to'liq huquqiy tartibga solishdir, ya'ni davlat qurilishini, davlat apparatini tashkil etish, samarali funksiyalanishini ta'minlash, inson va fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masadida davlat-xizmat munosabatlarini tashkil etishdir. Huquq funksiyalari – ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning xarakterini ifoda etadi.

Davlat xizmati funksiyalarining vujudga kelishi – uning maqsadi va vazifalari, davlat-xizmat munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Davlat xizmati bir necha huquq sohalari bilan tartibga olinadi. Bu huquq sohalari ichida ma'muriy huquq normalari yetakchi

---

[1] Радко Т.Н., Толстик В.А. Функции права. Н.Новгород. 1995. С. 33-34.

o'rinlardan birini egallaydi. Shu sababli ham davlat xizmati instituti ma'muriy huquq sohasining asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Demak, huquq funksiyalari davlat-xizmat munosabatlarini tartibga soluvchi mexanizmda ishtirok etuvchi ma'muriy huquq normalarining xususiyatlarini, yo'nalishlarini belgilab beradi.

Davlat xizmati huquqiy institut sifatida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

ta'minlash funksiyasi, ya'ni davlat va uning organlarining vazifa va funksiyalarini bajarish. Davlat organlari murakkab tizimga ega bo'lib, ularning har biri o'zining vazifa va funksiyalariga egadir. Davlat xizmati aynan shu organlarning kompetensiyasini amalga oshirish, ijtimoiy jarayonlarga samarali ta'sir etish maqsadida tashkil etilgandir;

integrativ (birlashtirish) funksiyasi, ya'ni davlat xizmati fuqarolar va insonlarning manfaatlarini, ijtimoiy muvozanatni ta'minlash va himoya qilish, davlat apparatining funksiyalanishi, kafolatlar tizimini yaratilishining huquqiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu funksiya orqali siyosiy tizimning, davlat apparatining, insonlarning, butun jamiyatning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlarga erishishning va manfaatlar qondirilishining barcha elementlarini birlashtirish mumkin;

tartibga solish funksiyasi. Davlat xizmati instituti davlat xizmatchilarining huquqiy maqomini (huquqlari, majburiyatlari, vakolatlari, javobgarlik, cheklovlar va h.k.larni) belgilab berish orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Tartibga solish funksiyasi o'z ichiga davlat xizmatining *tashkiliy funksiyasini* ham oladi, ya'ni tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tashkiliy shaklga ega bo'ladi;

kommunikativ funksiyasi. Bu funksiya davlat apparatining ichidagi, davlat organlaridagi jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni izlash, olish va ulardan samarali foydalanishga, shuningdek, davlat organlarining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi ijtimoiy fikrlardan foydalanishga qaratilgan. Aksariyat holatlarda kommunikativ funksiya — *axborot funksiyasi* deb ataladi;

muhofaza qilish funksiyasi. Bu funksiya davlat va jamiyat hayotidagi munosabatlar tizimida qonuniylikni ta'minlash va qo'llab-quvvatlash maqsadida vakolatli davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan ogohlantiruv, majburlov va qayta tiklov choralarini qo'llashlikni ta'minlaydi.

Davlat xizmati huquq funksiyalari bilan bir qatorda davlat ma'muriyatining, boshqaruv apparatining, davlat organlarining,

oxir oqibat davlatning, uning organlarining funksiyalarini va davlat xizmatchilarining funksiyalarini ham amalga oshiradi.

Davlat xizmati funksiyalarining turlari va tasnifiga to'xtalganda, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan – *tartibga solish funksiyasi*, aniq dasturlarni (masalan, xususiylashtirish, investisiyaviy faoliyat, mudofaa va xavfsizlik va boshqalarni) tayyorlashga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish; davlatning xo'jalik faoliyatini tartibga solish (masalan, xo'jalik munosabatlarini, tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish, turli mulk shakllarining tengligini ta'minlash, mulkdorlarning, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va boshqalar); davlatga qarashli korxonalar va muassasalarni boshqarish; nodavlat (tijorat) korxonalarining faoliyatini tartibga solish;

ikkinchidan – *majburlov funksiyasi* – aniq bir holatlarda qonunchilikda o'rnatilgan davlatning majburlov choralarini qo'llash. Bu funksiya demokratik huquqiy tartibni o'rnatishning asosiy vositalaridan biridir;

uchinchidan – *ta'minlov-tiklov funksiyasi* – fuqarolar va insonlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va shaxslarning himoyasini kuchaytirish;

to'rtinchidan – *tashkiliy funksiya* – davlat xizmati tizimini tashkil etish va unda qonuniylik va intizomni ta'minlash, kadrlar siyosatini amalga oshirish;

beshinchidan – *huquq ijodkorligi funksiyasi,* ya'ni huquqiy aktlarni tayyorlash va qabul qilish;

oltinchidan – *nazorat funksiyasi*, davlat organlari faoliyatida davlat kontroli va nazoratini ta'minlash.

V.V.Voroshina, davlat xizmati funksiyalarini umumiy, maxsus va yordamchi funksiyalarga bo'ladi. Davlat xizmatining umumiy funksiyalari – boshqaruv subyektlari va obyektlari o'rtasidagi maxsus yo'nalishdagi umumiy aloqalar bo'lib, barcha boshqaruv aloqalariga xosdir. Umumiy funksiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

davlat organlari faoliyatinining axborot ta'minoti, ya'ni davlat faoliyatini (boshqaruvini) amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, olish, qayta ishlash va baholash;

davlat xizmati tizimining rivojlanishini tahlil qilish, ya'ni davlat xizmatida, davlat organlarining faoliyatida ma'lum bir o'zgarishlarni va ularning natijalarini tahlil qilish;

rejalashtirish – davlat faoliyati (davlat funksiyalari) tizimida u yoki bu jarayonning yo'nalishlarini, sifat ko'rsatkichlarini belgilash;

davlat xizmati rivojlanishining yo'nalishlarini, maqsad va vazifalarini belgilash;

farmoyish berish, ya'ni davlat vakolatlarini va mansab majburiyatlarini bajarish bo'yicha vujudga keladigan davlat-xizmat munosabatlarini operativ (kundalik) tartibga solish, davlat faoliyati rejimi (tartibi)ni ta'minlash;

rahbarlik, davlat organlari, boshqariladigan obyektlar faoliyatining va ayrim harakatlarining yo'nalishlarini, qoidalarini va normalarini o'rnatish;

muvofiqlashtirish, ya'ni davlat xizmatining umumiy maqsad va vazifalarini bajarish uchun turli davlat organlari faoliyatini yo'naltirish.

Davlat xizmatining maxsus funksiyalari — boshqaruv obyektining xususiyatlarini namoyon qiladi (uslubiy, texnik rahbarlik yoki maxsus davlat nazorati). Maxsus funksiyalar umumiy funksiyalarni to'ldirib, ularga xizmat qiladi. Masalan, davlat organlari faoliyatining axborot ta'minoti, uning rivojlanishini tahlil qilish, rejalashtirish kabi umumiy funksiyalarni to'ldirishda jamoat fikrini o'rganish funksiyasi (maxsus funksiya) xizmat qiladi. Davlat xizmatining maxsus funksiyalari turli-tuman bo'lib, davlat organlari turli yo'nalishlarda faoliyatni amalga oshirganligi sababli, ularning doirasini aniq belgilash mushkuldir. Davlat xizmatining maxsus funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *davlat organlari xizmatchilarining sonini, moddiy, moliyaviy va mehnat xarajatlarining normalarini ishlab chiqish va olib borish;*

2) *davlat organini saqlashga ketadigan moliyaviy va boshqa moddiy xarajatlarni asoslab berish;*

3) *davlat xizmatchilari faoliyatining samaradorligini, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;*

4) *turli davlat organlarida tadqiqotlarni olib borish;*

5) *davlat-xizmat munosabatlarini o'rnatuvchi normativ huquqiy aktlarni ishlab chiqish* va boshqalar.

Davlat xizmatining yordamchi funksiyalari esa bu davlat organlarining umumiy va maxsus funksiyalar doirasida faoliyat ko'rsatishida xizmat qilishdan iborat. *Yordamchi funksiyalar*ga — moddiy va texnik ta'minotni, yuridik xizmatni, ish qog'ozlarini yuritishni kiritish mumkin.[1]

---

[1] Волошина В.В. Правовые проблемы регулирования государственной службы. — М.: 1993. С. 12—13.

5-§. Davlat xizmatchilari tushunchasi

Davlat xizmatchilari – huquqning individual subyektlaridan iborat bo'lgan ijtimoiy guruh bo'lib, ma'lum bir haq evaziga davlat organlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshiradilar.

Har bir tashkil etiladigan tashkilot uning normal funksiyalanishi uchun maxsus tayyorlangan xizmatchilardan iborat bo'lgan ma'lum bir personalga ega bo'lishi lozim. Tashkilotlarning turiga qarab huquq obyektlarining quyidagi xizmatchilarini: davlat (davlat organlari), mahalliy organlar, jamoat birlashmalari nodavlat, tijorat, notijorat, diniy, xususiy, xalqaro tashkilotlarning xizmatchilarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Ko'pgina insonlar ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'uldir: jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida turli funksiyalarni amalga oshiradilar; moddiy boyliklar yaratadilar, ya'ni tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, tarbiyaviy va ta'lim funksiyalarini amalga oshiradilar, davlat-hokimiyat harakatlari va huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajaradilar, turli xildagi qarorlarni qabul qiladilar.

Xizmatchilar to'g'risida batafsil tushuncha hosil qilish maqsadida, ularning faoliyatini jamiyatning turli tashkilotlarida (korxona, muassasalarida) band bo'lgan boshqa shaxslar faoliyati bilan taqqoslash kerak:

1) xizmatchilar turli tashkilotlarda (davlat, mahalliy, nodavlat, tijorat, notijorat, jamoat, diniy) ma'lum bir lavozimlarni egallaydilar;

1) ularning faoliyati aqliy xususiyatga ega, ya'ni ular bevosita moddiy boyliklarni yaratmaydilar. Lekin xizmatchilar moddiy ishlab chiqarish sohasida ham faoliyat yuritishi mumkin, masalan, tashkiliy, ishlab chiqarish jarayonini texnologik ta'minlash, loyihalarni tayyorlash, marketing, tadqiqot faoliyati va boshqalar;

2) xizmatchilar hokimiyat faoliyatini (tashkillashtirish, farmoyish berish, rahbarlik, nazorat) amalga oshiradilar hamda tegishli tashkiliy-farmoyish berish va ma'muriy-xo'jalik vakolatlariga ega bo'ladi; ular davlat va jamoat majburlov choralarini qo'llashlari mumkin. har qanday tashkilotdagi xizmatchilar, asosan boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradilar (bunda, boshqaruv funksiyasi deganda, turli huquq subyektlarining faoliyatini tartibga soluvchi vosita sifatida tushunmoq lozim);

3) xizmatchilar o'zlarining vakolatlarini, funksiyalarini, qoida bo'yicha, ma'lum bir haq evaziga amalga oshiradilar.

Xizmatchilar o'rtasida davlat va mahalliy organlarda faoliyat ko'rsatuvchi xizmatchilarni alohida ko'rsatib o'tish lozim. Davlat va mahalliy organlarining xizmatchilari davlat va mahalliy organlarning manfaatlarini ko'zlab, ularning nomidan harakat qiladilar hamda davlat va mahalliy ma'muriyatning vakillari bo'lib hisoblanadilar.

Davlat va mahalliy organlarning xizmatchilari davlat va mahalliy organlar oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshiradilar.

Davlat xizmatchisi, keng ma'noda, davlat vazifa va funksiyalarini nafaqat davlat organlarida, balki davlatning boshqa tashkilot, muassasa va korxonalarida amalga oshiradigan huquqning individual subyektidir.

Davlat xizmatchisi – bu davlat organlari vakolatlarini bajarishni ta'minlash bo'yicha professional faoliyatni amalga oshiruvchi shaxsdir. Davlat xizmatchisi va davlat (davlat organi) o'rtasida davlat-xizmat munosabatlari vujudga kelib, ular o'zaro huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Davlat xizmatchisi, tor ma'noda davlat xizmatida davlat lavozimini egallagan, ya'ni davlat ma'muriyatining tuzilmalari tizimida ma'lum bir mansabni egallaydigan, pul mukofoti evaziga mazkur davlat organining funksiyalarini amalga oshiradigan shaxsdir.

Davlat xizmatchilarining aksariyati ijro-farmoyish berish (tashkillashtirish) vakolatlarini va ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirish bilan shug'ullanadilar. Faqatgina ayrim davlat xizmatchilari maxsus davlat lavozimlarini egallaydilar, masalan, odilsudlovni va prokuror nazoratini (ya'ni, huquqni muhofaza qilish faoliyatini) amalga oshiradilar.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda davlat xizmatchisiga quyidagicha ta'rif beriladi: ***davlat xizmatchisi*** – bu davlat ma'muriyati apparatida bevosita yoki bilvosita ma'lum bir haq evaziga domiy yoki vaqtincha xizmat majburiyatlarini amalga oshiruvchi shaxsdir.[1] Bunda «*xizmatchi tomonidan xizmat majburiyatlarining bajarilishi*» asosiy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi.

---

[1] Старилов Ю.Н. Служебное право. – М.: «БЕК», 1996; Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. – «Зерцало», 1998; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004; Козлов Ю.М. Административное право. – М.: «Юрист», 2003; Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004.

Davlat xizmatchisi tushunchasini uch ma'noda ko'rib chiqish mumkin:

birinchidan — davlat-huquqiy nuqtayi nazaridan davlat xizmatchisi — bu turli xususiyatdagi va ahamiyatdagi vakolatlarga ega bo'lgan davlatning (davlat organlarining) «xizmatkori» hisoblanadi. Xizmatchilar davlatni davlat ma'muriyatining ichidagi turli ijtimoiy munosabatlarda yoki tashqi aloqalarda davlat nomidan harakat qiladi. Davlat xizmatchisi — davlat va jamiyat taraqqiyotining mahsuli bo'lib, davlat funksiyalarini amalga oshiradi;

ikkinchidan — ma'muriy-huquqiy nuqtai nazaridan davlat xizmatchisi — maxsus hokimiyat, tashkillashtiruvchi-farmoyish beruvchi vakolatlarga ega. Davlat xizmatchisi yurisdiksiyaviy (huquqni muhofaza qiluvchi) choralar va vakolatlarni amalga oshirish va ma'muriy-huquqiy sanksiyalarni qo'llash huquqiga ega bo'lgan hokimiyat vakilidir;

uchinchidan — jinoyat-huquqiy nuqtayi nazaridan davlat xizmatchisi — jinoiy javobgarlikning maxsus subyekti hisoblanadi (davlat xizmatchisi — mansabdor shaxs — mansab jinoyatlari uchun javobgarlikka tortiladilar).

Har bir davlat xizmatchisi egallab turgan lavozimidan kelib chiquvchi ma'lum bir vazifalarni bajarishi kerak. Davlat lavozimi — bu davlat xizmatchisining ish (xizmat) joyi hisoblanadi. har bir davlat lavozimi davlat xizmatining asosiy elementlaridan biri bo'lgan shtat birligiga kiritiladi. Shtat jadvali davlat organi (tashkiloti)da tashkil etilgan lavozimlardan iboratdir. Davlat tashkilotlarida lavozimlar davlat hokimiyati subyektlari tomonidan farmoyish berish tartibida tashkil etiladi.

Xizmatchi ma'lum bir lavozimni uzoq vaqt davomida (masalan, butun faoliyati davomida) egallashi mumkin. Davlat xizmatchisi davlat organida faoliyat yuritishi jarayonida lavozim bo'yicha harakatlanishi mumkin, ya'ni davlat xizmatida malaka darajalar joriy etilgan. Malaka darajalar davlat xizmatchisiga bir lavozimdan ikkinchi lavozimni egallashini (masalan, yuqoriga yoki pastga qarab harakatlanishini) belgilab beradi. Ular butun professional hayot jarayonida davlat xizmatchisini davlat bilan bog'lab turadi hamda davlat va jamiyatdagi munosabatlarning muvozanatini ta'minlaydi. G'arbiy Yevropa davlatlarining ko'pchiligida, agar davlat lavozimi bekor qilinadigan bo'lsa, lavozimni egallagan shaxs ishdan bo'shatilishi mumkin emas, chunki u olgan malaka darajasi boshqa davlat lavozimini egallash huquqini beradi. Malaka darajasi davlat xiz-

matchisi uchun himoya hisoblanadi. Aynan mana shu jihatlari bilan malaka darajasi davlat lavozimidan ajralib turadi.[1]

Alimov X.R. davlat xizmatchisiga to'xtalib, unga quyidagicha tushuncha beradi: *davlat xizmatchisi* – bu davlat-hokimiyat vakolati doirasida ma'lum bir haq evaziga davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshiruvchi shaxsdir. Davlat xizmatiga faqatgina O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kirishi mumkin.[2]

D.M.Ovsyankoning fikricha: *davlat xizmatchisi* – qonun bilan o'rnatilgan tartibda ma'lum bir pul mukofoti evaziga davlat xizmatidagi davlat lavozimi bo'yicha majburiyatlarni amalga oshiruvchi fuqaro hisoblanadi. Davlat xizmatchilari orqali butun jamiyat sohalariga taalluqli bo'lgan davlat organlarining vakolatlari amalga oshiriladi.[3]

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchisi tushunchasini quyidagicha belgilash mumkin:

birinchidan, davlat xizmatchisi – bu 18 yoshga to'lgan, davlat tilini bilgan, ma'lum bir bilimga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosidir. Davlat xizmatchisi davlat-xizmat munosabatlarining bir tomonini tashkil etadi. Davlat organi hamda xizmatchi o'rtasida mehnat shartnomasi tuzilib, unga ko'ra xizmatchi davlat organining vakolatlarini, davlat funksiyalarini bajaradi, davlat qurilishining ma'lum bir maqsadlariga erishish uchun maxsus vazifalarni hal etadi, davlat (davlat organi) esa, o'z navbatida, xizmatchi oldida: uning huquqlari va manfaatlarini o'rnatadi va ta'minlaydi, ijtimoiy-huquqiy kafolatlar, javobgarlik, pul mablag'i bilan ta'minlash kabi majburiyatlarga ega bo'ladi. Davlat xizmatchisi ma'muriyatning vakili, davlat byurokratining bir qismi hisoblanadi. Davlat xizmatchilarining barcha harakatlari davlat nomidan va uning ko'rsatmasi asosida amalga oshiriladi, davlat esa davlat xizmatchisi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi va tegishli holatlarda ularga nisbatan majburlov choralarini qo'llaydi. Davlat xizmatchisi faqatgina davlat organida davlat mansabini egallashi mumkin;

ikkinchidan, davlat xizmatchisi faoliyati davlat xizmatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari talablariga mos kelishi kerak;

---

[1] Xojiyev Ye.T. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI nashriyoti, 2004. 48–49-betlar.

[2] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / – Т.: «Адолат», 1999.

[3] Административное право: учебник / Под ред. Ю.М.Козлова, Л.Л.Попова. – М.: «Юрист», 2000. С.211.

uchinchidan, davlat xizmatchisi qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda davlat xizmatining pul bilan ta'minlanadigan davlat lavozimini egallaydi. Qonunchilik davlat xizmatchisi faoliyatining mazmunini, uning huquqiy holatini, faoliyatning maqsadi, vazifasi va asosiy yo'nalishlarini, huquqlarni, majburiyatlarni, javobgarlikni, cheklovlarni, kafolatlarni belgilab beradi. Davlat lavozimlarini faqatgina davlat xizmatchilari egallashlari mumkin;

to'rtinchidan, davlat xizmatchisiga qonunchilikda belgilangan tartibda malaka darajalari beriladi;

beshinchidan, davlat xizmatchisi davlat funksiyalarini, davlat organlarining vakolatlarini bajaradilar, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy-siyosiy sohalarda (davlatning moliyaviy faoliyati, madaniyatni rivojlantirish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, bojxona, bank ishi, soliqqa tortish, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, ichki ishlar, tashqi siyosiy faoliyat va h.k.larda) davlat vazifalarini amalga oshiradilar;

oltinchidan, davlat xizmatchisi aksariyat hollarda yuridik oqibatlarni keltirib chiqaruvchi harakatlarni amalga oshiradilar (masalan, boshqaruv qarorlarini qabul qiladilar, jazoga tortadilar). Bunday harakatlar yuridik faktlar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Davlat xizmatchilarining bunday harakatlari davlat va jamiyat hayotida turli ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirishi, o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin;

yettinchidan, davlat xizmatchilarining faoliyati, qoida bo'yicha ishlab chiqarish xususiyatiga ega emas. Lekin ularning faoliyati, umuman ishlab chiqarish bilan bog'liq emas, degan xulosaga kelmaslik lozim. Chunki, davlat xizmatchilari ishlab chiqarish jarayoniga uni yo'naltirish, boshqarish, loyihalarni tayyorlash va boshqa funksiyalar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Davlat xizmatchilari o'z faoliyatlari orqali insonlar ongiga, iqtisodiy hayotga, ishlab chiqarishning texnologik jarayoniga, mehnat jamoalarini tashkil etilishi va faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatadi.

6-§. Davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi va ular uchun o'rnatilgan kafolatlar

Davlat xizmatchilari uchun davlat xizmatiga kirish, uni o'tash hamda davlat xizmati bekor bo'lishining maxsus shartlari o'rnatilgan. Davlat xizmatchilari ularga berilgan vakolatlarni va funksiyalarni davlat ma'muriyati ichida ham, tashqi huquq subyektlariga

(fuqarolarga, boshqa tashkilotlarga) nisbatan ham amalga oshiradilar.

Fuqaro davlat xizmatiga kirishi bilan quyidagi to'rt elementdan iborat bo'lgan «*organizm*»ga birlashadi:

birinchidan — egallanadigan davlat lavozimi;

ikkinchidan — aniq malaka darajasining mavjudligi;

uchinchidan — davlat xizmatchilarining belgilangan shtat birligiga kirishi;

to'rtinchidan — mansab majburiyatlari bilan belgilanadigan davlat xizmatchisining maxsus o'rni, ya'ni rahbar, mansabdor shaxs, hokimiyat vakili va boshqalar.[1]

Davlat xizmati va davlat xizmatchisi bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlar huquqiy jihatdan tartibga solingan bo'lishi kerak.

Davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi — bu davlat-xizmat munosabatlarining mazmuni (mohiyati)dir. Xizmatchilarning huquqiy maqomi ularning huquqlarini, majburiyatlarini, javobgarligini o'rnatish orqali belgilanadi. Davlat-xizmat munosabatlarining o'zgarishi bilan davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi ham o'zgaradi, masalan, ishdan bo'shatish, fuqarolikni yo'qotish, pensiyaga chiqish va h.k.lar.

Davlat xizmatchilarining maqomi — bu differensiyalangan kompleks tizim bo'lib, vertikal va gorizontal tuzilishga ega.

Har bir davlat xizmatchisi normativ huquqiy aktlar bilan belgilangan hamda davlat xizmati huquqiy institutining markaziy elementi hisoblangan huquqiy holatga egadir. Davlat xizmatining boshqa elementlari esa davlat xizmati va xizmatchilariga xizmat qilish maqsadida o'rnatiladi, ya'ni ular davlat xizmatchilari huquqiy maqomini aniqlashtiradi va ularning to'la amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

Davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi qonunchilik bilan o'rnatilgan va davlat tomonidan kafolatlangan huquq, erkinlik, majburiyat, cheklovlar, javobgarliklarning yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi normativ hujjatlari, davlat organlarining Nizom va Ustavlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Masalan, Vazirlar Mahkamasida faoliyat ko'rsatuvchi xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi va boshqalar O'zbekiston Respublikasi

[1] Старилов Ю.Н. Служебное право. — М.: «БЕК». 1996. С. 318.

Konstitutsiyasi, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining ish tartibi va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Davlat xizmatchilari huquqiy maqomining mazmuni – davlat xizmatchilarining kategoriyasiga, davlat xizmati olib boriladigan sharoitlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Davlat xizmatchisi maqomiga ega bo'lish masalasi juda muhimdir. Amaldagi qonunchilik hujjatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, fuqaro davlat xizmatchisi maqomiga ega bo'lishi – davlat organi bilan mehnat shartnomasi tuzishi va uni ma'lum bir davlat lavozimiga qabul qilish to'g'risidagi qaror chiqishi vaqtidan vujudga keladi.

Davlat xizmatchisi maqomiga ega bo'lish bilan fuqaro va davlat organi o'rtasida davlat-xizmat munosabatlari vujudga keladi.

Davlat xizmatchisi o'z maqomini davlat-xizmat munosabatlarining tugashi bilan yo'qotadi. Davlat-xizmat munosabatlari: ishdan bo'shatish, pensiyaga chiqish va boshqa holatlarda bekor bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda normativ aktlarda davlat xizmati bekor bo'lishining aniq muddatlari ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Davlat xizmatchilari huquqiy maqomining asosiy elementlaridan biri – bu ***davlat xizmatchisining huquqlari*** bo'lib, davlat xizmatining oshkoraligini, samarali funksiyalanishini asoslab beradi.

Davlat xizmatchisi – O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida o'rnatilgan konstitutsiyaviy huquqlarga egadir. Lekin davlat-xizmat faoliyati nuqtai nazaridan, davlat xizmatchisi huquqiy maqomining asosiy elementini xizmat huquqlari tashkil etadi. Xizmat huquqlarining amalga oshirilishi bilan davlat xizmatining funksiyalanishi ta'minlanadi. Xizmat huquqlari mansab majburiyatlarini bajarish bilan bevosita bog'liqdir, ba'zi holatlarda xizmat huquqlari qonunchilik aktlari bilan o'rnatilgan mansab majburiyatlarini bajarish maqsadida amalga oshiriladi.

Amaldagi qonunchilikdan kelib chiqqan holda, davlat xizmatchilarining huquqlarini uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

1) *xizmatchilarning huquqiy maqomini va uning huquqiy kafolatini ifoda etuvchi huquqlar.* Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

– davlat xizmatchisi egallaydigan davlat lavozimi bo'yicha huquq va majburiyatlarni belgilovchi hujjatlar bilan, masalan, ish sifatini belgilovchi omillar, davlat xizmati bo'yicha harakatlanish, mansab majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-texnik sharoitlar bilan tanishib chiqish;

– shaxsiy hujjatidagi barcha ma'lumotlar bilan tanishib chiqish;

– uning talabiga ko'ra xizmat tekshiruvlarini, masalan, xizmatchining sha'ni, qadr-qimmatiga yetkazilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni rad etish maqsadida o'tkazish;

– davlat xizmatchisining davlat xizmati bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal etish maqsadida tegishli davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish huquqi va boshqalar;

2) *xizmat majburiyatlarini bevosita bajarish bilan bog'liq bo'lgan huquqlar.* Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

– belgilangan tartibda, mansab majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotlarni va materiallarni olish;

– belgilangan tartibda, mansab majburiyatlarini bajarish uchun korxona, muassasa va tashkilotlarda bo'lish;

– mansab majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilish va tayyorlashda ishtirok etish;

– tegishli budjet mablag'lari hisobidan malakasini oshirish, qayta tayyorlanish;

– davlat xizmatini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

3) davlat xizmatchisining lavozim faolligini oshirishga, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni amalga oshirishga va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan huquqlari:

– vakant (vaqtincha bo'sh) lavozimni egallash bo'yicha tanlovda o'z xohishiga ko'ra ishtirok etish;

– ish faoliyatining natijalari va ish staji, malakasining darajasiga ko'ra, lavozim bo'yicha yuqoriga qarab harakatlanish, mablag' bilan ta'minlanishini oshirish;

– davlat xizmatidagi ish stajiga qarab pensiya ta'minoti olish;

– o'zining huquqlarini, ijtimoiy-iqtisodiy va professional manfaatlarini himoya qilish maqsadida kasaba uyushmalariga birlashish;

– mansab okladidan kelib chiqqan holda pul bilan ta'minlanish, malaka darajasidan kelib chiqqan holda esa qo'shimcha mablag'lar olish, ish faoliyatining natijalariga ko'ra mukofotlar olish;

– har yili haq to'lanadigan mehnat ta'tiliga chiqish (mehnat ta'tilining muddati davlat tashkilotining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi);

– davlat xizmati stajiga davlat xizmatchisining boshqa davrdagi mehnat faoliyatini qo'shilishini talab etish (masalan, bu holat xizmatchining pensiyaga chiqishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin);

– davlat xizmatchisining va uning oila a'zolarining tibbiy xizmatdan foydalanishi;

– davlat lavozimlarini bajarish bilan bog'liq holda sog'liqqa yoki mulkka yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar bo'yicha majburiy davlat sug'urtasi;

– davlat xizmatini o'tash vaqtida sog'lig'i yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi sababli, davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug'urtalanish va boshqa huquqlarga egadir.

Davlat xizmatchisiga davlat xizmatini o'tash xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qonunchilikda belgilangan tartibda, xizmat uylari, xizmat avtotransporti berilishi mumkin.

Davlat xizmatchilarining majburiyatlari ularning xizmat faoliyatlarining mohiyatini xarakterlaydi, chunki davlat (davlat organi) fuqaroni unga ma'lum bir mansab majburiyatlarini yuklash maqsadida ishga qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilarining majburiyatlari turli qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Majburiyatlarning mazmuni va turlari davlat tashkilotining o'z oldiga qo'ygan maqsadi, vazifasi va funksiyalariga qarab belgilanadi.

Amaldagi qonunchilikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatchilariga *umumiy bo'lgan majburiyatlar*ga – konstitutsiyaviy tuzumni qo'llab-quvvatlash va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlarga, shuningdek, ularning vakolatlarini tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash.

Davlat xizmatchilari majburiyatlarining asosiy xususiyati shundaki, ular nafaqat davlat xizmati sha'niga dog' tushuruvchi yoki davlat organiga zarar yetkazuvchi harakatlardan, balki «davlat xizmatchilarining davlat va jamiyat manfaatlariga zid harakatlarni sodir etmoqda», degan fikrlarning paydo bo'lishidan saqlanishi lozim.

Davlat xizmatchisi xizmat majburiyatlaridan davlat xizmati sha'niga dog' tushirish, davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning faoliyatini qoralashda foydalanishi mumkin emas.

Davlat xizmatchilarining asosiy majburiyatlaridan biri – bu *vijdonan mansab majburiyatlarini bajarish*dir. Qonunchilik va boshqa normativ hujjatlar bilan davlat xizmatchilarining funksiyalari va vakolatlari aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular xizmatchilar tomonidan to'g'ri va aniq bajarilishi lozim. Mansab majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik – nojo'ya harakat, huquqbuzarlik, ba'zi hollarda esa jinoyat hisoblanishi mumkin.

Davlat xizmatchilari ularning egallab turgan lavozimlaridan kelib chiqqan holda o'rnatilgan huquqlarni va yuklangan majburiyatlarni bajarishga majburdir. Bu talablar davlat xizmatchisiga

lavozim bo'yicha vakolatlar hajmi va doirasi to'g'risida aniq tasavvur hosil qilishiga majbur qiladi.

Davlat xizmatchilarining o'z vakolatlarini amalga oshirish majburiyati davlat organida o'rnatilgan xizmat tartibiga rioya qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Davlat xizmatchilari fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ommaviy manfaatlarni ta'minlash maqsadida mansab majburiyatlarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'ladilar.

Agar davlat xizmatchilari o'z vakolatlaridan boshqa maqsadlarda foydalansalar yoki vakolat doirasidan chetga chiqadigan bo'lsalar, ularning harakati xizmat nojo'ya harakati, ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sifatida tasniflanishi mumkin.

Davlat xizmatchilarining asosiy majburiyatlaridan yana biri — bu *fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishi va muhofaza etilishini ta'minlash* hisoblanadi. Davlat xizmatchilari fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini tan olishga, ularning qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish va ta'minlashga majburdirlar. Fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat xizmatchilari uchun muhim kategoriyalardir. Davlat xizmatchilari tomonidan mazkur majburiyatning bajarilishi ijtimoiy munosabatlarning muvozanatini, qonuniylik tartibiga rioya qilinishini ta'minlaydi, umumiy huquq tartibotni kafolatlaydi. Fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilingan ekan, davlatning asosiy vazifalaridan biri bajarilgan bo'lib hisoblanadi.

Davlat xizmatchilari yuqori turuvchi davlat organining (davlat xizmatchisining) farmoyishlarini, buyruqlarini va boshqa xildagi ko'rsatmalarini, qonunga zid bo'lganlaridan tashqari, ijro etishga majburdir. Davlat xizmati bo'ysinuvlik ierarxiyasi prinsipiga asoslanar ekan, davlat xizmatchilari o'zlaridan yuqori turgan, bo'ysinuv asosida, rahbarlarning vakolat doirasida berilgan buyruqlarini, farmoyishlarini, ko'rsatmalarini va boshqa qonuniy qarorlarini ijro etishga majburdirlar.

Davlat xizmatchilari barcha farmoyishlarni shaxsiy javobgarlik asosida amalga oshiradilar. Shuning uchun ham ijro etish uchun olingan farmoyish davlat xizmatchisi tomonidan qonuniylik va davlat manfaatlariga mos kelish nuqtayi nazaridan baholanishi lozim.

Davlat xizmatchilari mansab majburiyatlarini bajarib borish maqsadida *o'zining malaka darajasini saqlash va oshirib borish* majburiyatiga ega. Davlat xizmatchisi davlat xizmatiga kirar ekan,

xizmat funksiyalarini va mansab majburiyatlarini sifatli bajarishga tayyor bo'lishi kerak. U o'zining ishchanlik xususiyatlariga ko'ra egallanadigan davlat lavozimi talablariga mos kelishi kerak.

Nazariy va amaliy ta'lim olish barcha davlat xizmatchilarining xizmat majburiyati hisoblanadi. Qoida bo'yicha, professional tayyorgarlik — malaka darajasini berishda, maxsus unvon olishda talab qilinadi.

Davlat xizmatchilari o'zlarining xizmat faoliyatlarini olib borish jarayonida bir davlat organi doirasida turli ahamiyatdagi funksiyalarni amalga oshiradilar. Davlat xizmatchisi lavozimi bo'yicha yuqori ko'tarilganida, yanada murakkab bo'lgan majburiyatlarni bajarishiga to'g'ri keladi. Boshqa tomondan, kasblarning evolutsiyasi sodir bo'lishi mumkin, masalan, ba'zi birlari tugashi, paydo bo'lishi yoki uning mazmuni o'zgarishi mumkin.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, davlat xizmatchilari doimo o'z professional malakalarini oshirib borishlari lozim, davlat xizmatchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash esa ularning majburiyatiga aylanadi.

Davlat xizmatchisi *xizmat etikasi normalariga rioya qilishi* kerak. Davlat xizmatchisi o'zining professional burchini bajarishi shart. U o'zining xizmat majburiyatlarini vijdonan, adolatli, jamiyat manfaatlarini e'tiborga olgan holda bajarishi lozim.

Davlat xizmatchilari *davlat sirini hamda qonun hujjatlari bilan himoya qilinadigan boshqa sirlarni saqlash* majburiyatiga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan davlat xizmatchisi mansab vakolatlarini ijro etish orqali ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni sir saqlashi lozim. Lekin shu bilan birga, qonunchilikda, qaysi holatlarda davlat, xizmat va boshqa qonun bilan qo'riqlanadigan sirni oshkora etish mumkinligi ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Masalan, davlat xizmatchisi jinoyat ishining qo'zg'atilishi munosabati bilan yoki qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda davlat, xizmat siri hisoblangan ma'lumotni oshkor qilishi mumkin.

Davlat xizmatchilari vakolat doirasiga kiradigan turli murojaatlarni (fuqarolarning, korxona, muassasa va tashkilotlarning ariza, shikoyat va takliflarini) o'z vaqtida ko'rib chiqishga majbur. Jumladan, asosiy qonunimiz — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasiga binoan har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga egadir. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgi-

langan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda qabul qilingan «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonun[1]ning 12-moddasiga binoan fuqarolarning murojaatlari, albatta qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi kerak.

Alimov X.R. ko'rsatishicha, *davlat xizmatchilari o'zlarining mansab majburiyatlarini va funksiyalarini amalga oshirishda:*

1) davlat xizmatining maqsadlariga va vazifalariga qat'iy rioya qilish;

2) qonunlarga, davlat manfaatlariga, mansab ko'rsatmalariga asoslanib faoliyat ko'rsatish, vakolat doirasiga kiruvchi davlat organlarining va yuqori turuvchi mansabdor shaxslarning qarorlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;

3) o'z faoliyatini doimo takomillashtirish va professional malakasini oshirib borish;

4) davlat va xizmat sirlarini saqlash;

5) fuqarolarning qadr-qimmatini va shaxsini hurmat qilish, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish va himoya qilish;

6) ma'muriy hokimiyat sohasida qonuniylikni ta'minlash;

7) xizmat etikasiga rioya qilish;

8) boshqaruv madaniyati darajasini oshirib borish, boshqaruv ishiga yangi zamonaviy uslub va shakllarni tatbiq qilish;

9) qonunchilik bilan o'rnatilgan ish kuni vaqtida xizmatda bo'lish;

10) qonun hujjatlarga tayangan holda murojaatlarni (ariza, shikoyat va takliflarni) o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqish;

11) davlat xizmatchilari maqomi va tegishli davlat mansabi bilan o'rnatilgan boshqa majburiyatlarni bajarishlari lozim.[2]

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasiga binoan davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. Mazkur konstitutsiyaviy normadan kelib chiqqan holda, davlat xizmatini amalga oshiruvchi fuqarolarning ham qonunchilik hujjatlari bilan o'rnatilgan huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan ta'minlanadi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003. 1-son, 7-m.

[2] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / – Т.: «Адолат», 1999. С. 123.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga binoan esa har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Demak, davlat xizmatchilari huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolati konstitutsiyaviy asosga egadir.

Davlat xizmatchilari o'zlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda qonunchilikda o'rnatilgan barcha vositalardan foydalanadilar.

Davlat xizmatchilari uchun o'rnatilgan kafolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan tashqari, amaldagi qonunchilik hujjatlarida ham o'z ifodasini topgandir.

Davlat xizmatchilari uchun o'rnatilgan kafolatlar ularning bajaradigan xizmat majburiyatlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Davlat xizmatchilari tomonidan mansab majburiyatlarining sifatli bajarilishini, qonunchilik bilan o'rnatilgan huquqlarni amalga oshirilishini ta'minlash uchun qonun chiqaruvchi xizmat faoliyatining asosiy kafolatlarini o'rnatadi.

Davlat xizmatchilari uchun kafolat — bu qonunchilikda o'rnatilgan davlat xizmatchilari maqomining ijtimoiy-huquqiy tomonini xarakterlovchi asosiy holatlardir.

Amaldagi qonunchilikni tahlil qilish orqali ***davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan quyidagi kafolatlar***ni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

birinchidan — mansab majburiyatlarining bajarilishini ta'minlovchi ish sharoitlarining joriy etilishi;

ikkinchidan — qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan nazarda tutilgan pul ta'minoti va boshqa xildagi to'lovlar (masalan, ijtimoiy, kompensatsion to'lovlar va h.k.lar);

uchinchidan — pul bilan ta'minlanadigan har yilgi mehnat ta'tili;

to'rtinchidan — davlat xizmatchisi va uning oila a'zolarining tibbiy xizmatdan foydalanishi;

beshinchidan — qayta tayyorlanish va malakasini oshirish (pul ta'minoti saqlangan holda);

oltinchidan — xizmatchilarning majburiy ijtimoiy davlat sug'urtasi va h.k.lar.

Qonunchilik hujjatlarida davlat xizmatchilari uchun boshqa kafolatlar ham o'rnatilgan bo'lishi mumkin.

7-§. Davlat xizmatchilariga qo'yiladigan etik talablar, cheklovlar va taqiqlar

Davlat xizmati davlat xizmatchilarining etikasi, ma'naviyati, axloqiy jihatlari bilan uzviy bog'liqdir. Davlat xizmatchilariga ishga kirishda ham, xizmatni o'tash jarayonida ham quyidagi ***etik talablar*** qo'yilishi lozimdir:

birinchidan – yuqori ma'naviy prinsiplarga asoslanish, davlatga sodiqlik; davlat xizmatchilari davlat manfaatlarini o'zining individual (shaxsiy) manfaatlaridan ustun qo'yishi lozim;

ikkinchidan, – davlat xizmati prinsiplariga rioya etishi;

uchinchidan – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini himoya qilishda hamma vaqt tayyor turishi; davlatga sodiqlik bo'yicha bergan qasamyodini buzmasligi, davlat lavozimi bo'yicha berilgan qonuniy talablarni bajarishi;

to'rtinchidan – davlat vazifalari va funksiyalarini bajarish jarayonida samarali va kam xarajatli uslublarni izlashi va qo'llashi;

beshinchidan – davlat xizmati faoliyatida bir subyektga qaraganda ikkinchi subyektga alohida imtiyozlar berilmasligi;

oltinchidan – o'z manfaati yoki oila a'zolari manfaatlari uchun davlat xizmat mansabidan foydalanmasliklari;

yettinchida – davlat xizmat majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan va'dalarni bermasliklari;

sakkizinchidan – mansab majburiyatlarini bajarish jarayonida olgan maxfiy ma'lumotlarni shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanmaslik;

to'qqizinchidan – tijorat faoliyati bilan shug'ullanmasliklari;

o'ninchidan – davlat organlaridagi korrupsiyaga qarshi doimiy kurash olib borish;

o'n birinchidan – mehnat faoliyatining rejimi (tartibi)ga rioya qilish va fuqarolar va hamkasblari bilan yaxshi muomalada bo'lish;

o'n ikkinchidan – davlat xizmat mansabidan qasddan yoki boshqa manfaatlar yo'lida foydalanmasliklari va h.k.lar.

Davlat xizmatchisi sha'niga putur yetkazadigan nojo'ya xatti-harakatlarni, masalan, umumetirof etilgan normalar va qoidalarni qo'pol buzish, qonun talablarini qasddan buzish, vijdonsizlik oqibatida nohush oqibatlarni keltirib chiqarish, davlat xizmatiga sodiqlik to'g'risidagi qasamyodni buzish va boshqa shunga o'xshash harakatlarni sodir etgan xizmatchilar davlat organida ishlashi va xizmat vakolatlarini amalga oshirishi mumkin emas. Bu xatti-harakatlar oqibatida nafaqat davlat xizmatchisining sha'ni, balki

davlat organlarining manfaatlariga ham putur yetkaziladi. Shu sababli, davlat xizmatchilari har qanday holatda ham davlat (davlat organi) sha'nini saqlab qolishi lozim.

Davlat xizmatiga kirish vaqtida davlat xizmatchilari nafaqat huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi, balki ular faoliyatida qonunchilik bilan ma'lum bir cheklovlar va taqiqlar ham o'rnatilishi mumkin. Davlat xizmatchilari huquqini cheklash ularning davlat funksiyalarini bajarishi bilan, xizmat vakolatlarini amalga oshirishi bilan tavsiflanadi. Davlat xizmatidagi bunday cheklovlar va taqiqlar, birinchi navbatda davlat xizmatining normal va samarali funksiyalanishini ta'minlaydi, davlat xizmatchilari tomonidan mansab vakolatlaridan foydalanishining huquqiy chegaralarini o'rnatadi, mansab majburiyatlarini mustaqil amalga oshirishi uchun sharoit tug'diradi.[1]

Davlat xizmatchilari uchun o'rnatilgan cheklovlar va taqiqlar ular tomonidan xizmatni o'tashining butun muddati jarayonida amalda bo'ladi.

Davlat xizmatchilari uchun o'rnatilgan cheklovlar va taqiqlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan – davlat xizmatchisi boshqa haq to'lanadigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas (pedagogik, ilmiy faoliyat bundan mustasno). Davlat xizmatchisi o'zini davlat xizmatiga bag'ishlashi lozim. Agar davlat xizmatchisi bunday cheklovni buzgan holda boshqa faoliyat bilan ham shug'ullansa, u davlat xizmatini yoki boshqa faoliyatni tanlashi lozim bo'ladi;

ikkinchidan – davlat xizmatchilari uchun tadbirkorlik faoliyati bilan shaxsan yoki boshqalar orqali shug'ullanish taqiqlangan. Davlat xizmatchilari shaxsan yoki boshqalar orqali ishlab chiqarish bilan, tovarlar va boshqa mahsulotlarni sotish bilan, foyda olish maqsadida ishlarni bajarish yoki pulli xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanishi mumkin emas;

uchinchidan – davlat xizmatchisi uchinchi shaxslarning vakili bo'lishi mumkin emas, ya'ni davlat xizmatchisi davlat xizmatida bo'lgan hamda unga ma'lum bir jihatdan bo'ysungan uchinchi shaxslarga vakillik qilishi taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligidan kelib chiqadigan bo'lsak, shaxs vakil sifatida ishonchnoma asosida harakat qiladi. Ishonchnomada bir shaxs nomidan ikkinchi shaxsning

---

[1] Ноздрачев А. Правоограничения государственных служащих // Право и экономика. 1995. №15.

bitimlarni tuzishi yoki boshqa huquqiy harakatlarni amalga oshirishi ko'rsatib o'tiladi. Agar bunday ishonchnoma davlat organiga yo'naltirilgan bo'lsa hamda vakil davlat xizmatchisi bo'lib hisoblansa, ishonchnoma haqiqiy hisoblanmasligi lozim;

to'rtinchidan – davlat xizmatchisi xizmatdan tashqari vaqtda moddiy-texnik, moliyaviy va axbort vositalaridan, davlatning boshqa mulkidan va xizmat ma'lumotlaridan foydalanishi taqiqlanadi;

beshinchidan – davlat xizmatchilari jismoniy va yuridik shaxslardan mansab majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan har qanday mukofot va sovg'alarni olishi taqiqlanadi.

Amaldagi qonunchilikdan kelib chiqadigan bo'lsak, bunday taqiqlangan sovg'alarga: pul mukofoti, ssudalar, xizmatlar, dam olish va transport harajatlarni qoplash va boshqalar kiradi;

oltinchidan – jismoniy va nodavlat yuridik shaxslar hisobidan xizmat safariga yoki xorijiy safarga borish taqiqlanadi;

yettinchidan – davlat xizmatchisining xizmat vakolatidan foydalanib davlat organlarida jamoat birlashmalarini (kasaba uyushmasidan tashqari) tashkil etishi yoki uning manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi mumkin emas va boshqalar.

Amaldagi qonunchilikda davlat xizmatining xususiyatlaridan kelib chiquvchi boshqa xildagi cheklovlar va taqiqlar ham o'rnatilishi mumkin.

8-§. Davlat xizmatchilarining tasnifi

Barcha davlat xizmatchilarini turli asoslarga ko'ra guruhlarga bo'lishimiz, ya'ni tasniflashimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqqan holda, ya'ni *hokimiyatning uchga bo'linishi*ni e'tiborga oladigan bo'lsak, barcha davlat xizmatchilarni uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

birinchidan – qonunchilik hokimiyati organlarining xizmatchilari. Bizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasida qonunchilik hokimiyati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat;

ikkinchidan – ijro hokimiyati organlarining xizmatchilari. Davlat va uning apparatining funksiyalanishi ijro hokimiyati organ-

lari tomonidan amalga oshiriladi. Ijro hokimiyati organlari tashkiliy-boshqaruv va ijro-farmoyish berish faoliyatini amalga oshiradi;

uchinchidan – sud hokimiyati organlarining xizmatchilari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi va xo'jalik sudidan, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo'jalik sudlaridan iborat.

Davlat xizmatchilarining tasnifi yuridik adabiyotlarda turlicha berilgan. Jumladan, huquqshunos olim D.M.Ovsyankoning fikricha, davlat xizmatchilarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1) *davlat hokimiyati organlarining faoliyat doirasiga qarab davlat xizmatchilari:* respublika miqyosida harakat qiluvchi xizmatchilar; mahalliy miqyosda harakat qiluvchi xizmatchilar;

2) *davlat xizmatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilarini:* fuqarolik davlat xizmatchilari; militarlangan davlat xizmatchilari (masalan, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xizmatchilari);

3) *hokimiyatning bo'linish prinsipidan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilari;* qonunchilik hokimiyati organlarining xizmatchilari; ijro hokimiyati organlarining xizmatchilari; sud hokimiyati organlarining xizmatchilari;

4) *mansab vakolatlarining hajmiga ko'ra davlat xizmatchilari:* mansabdor shaxslar; mansabdor shaxslar tarkibiga kirmaydigan boshqa xizmatchilar;

5) *xizmat muddatining davomiyligiga ko'ra davlat xizmatchilarini:* ma'lum bir muddatga tayinlanadigan (saylanadigan) xizmatchilar; belgilanmagan muddatda tayinlangan xizmatchilar; sinov muddati bilan tayinlangan xizmatchilar va boshqalarga bo'linadi[1].

Alimov X.R. o'zining «Административное право Республики Узбекистана» kitobida davlat xizmatchilarining quyidagi to'rtta guruhini ko'rsatib o'tadi:

1) ***rahbarlar***.

Rahbarlar mazkur davlat organining, korxona, muassasa va tashkilotning funksiyalarini amalga oshirib, unga bo'ysundirilgan davlat xizmatchilari apparatining ish faoliyatini yo'naltiradi; ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, intizomiy javobgarlikka tortish,

[1] Административное право. – М.: «Юрист», 2000, С. 211–216.

moliyaga hamda tovar-moddiy boyliklarga egalik qilish, rag'batlantirish, mazkur organ nomidan imzo chekish va boshqa yuridik ahamiyatli harakatlarni sodir etish huquqiga ega bo'ladi.

Demak, rahbarlar davlat-hokimiyat vakolatlarini amalga oshirib, rahbarlik qilayotgan organ faoliyati uchun shaxsiy javobgar hisoblanadi.

Rahbarlar o'zlariga bo'ysungan organlar, korxona, muassasa va tashkilotlarning operativ (ya'ni kundalik) va xo'jalik faoliyatiga aralashish, ularning ishini yo'naltirish, nazorat qilish, majburiy ko'rsatmalarni berish huquqiga egadir. Rahbarlar tarkibiga vazirlarni, davlat qo'mitalarining raislarini, boshliqlarni, boshqaruvchilarni, direktorlarni, rektorlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Mazkur toifadagi davlat xizmatchilari yuridik adabiyotlarda ko'pincha mansabdor shaxslar sifatida ifoda etiladi. Lekin davlat xizmatchilarining aksariyati davlat tashkilotida ma'lum bir davlat mansabini egallagani sababli, ularni mansabdor shaxslar jumlasiga kiritish mumkin. Shu sababli, har qanday davlat xizmatchisini (mansabdor shaxsni) rahbarlar tarkibiga kiritish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 15-modda ikkinchi qismiga binoan mulk shaklidan qat'i nazar korxona, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan shaxs, basharti unga rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat vazifalari yoki moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan bo'lsa, mansabdor shaxs deb hisoblanadi.[2]

Ko'rinib turibdiki, mansabdor shaxs bo'lib rahbarlar ham, nazorat funksiyasini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa xizmatchilar ham (masalan, ichki ishlar organlarining xodimlari, sanitariya nazorati organlarining xodimlari va h.k.lar) hisoblanadi;

2) ***asosiy tarkib*** — davlat xizmatchilari tasnifining ikkinchi asosiy va muhim ahamiyatli guruhi bo'lib, mazkur organga yuklatilgan funksiyalarning deyarli barchasini bajaradi. Asosiy tarkibga kiruvchi davlat xizmatchilari rahbarlar tomonidan amalga oshiriladigan yuridik ahamiyatli harakatlarni sodir etmaydilar (masalan, ishga olish, ishdan bo'shatish, faoliyatni yo'naltirish va h.k. lar). Bu guruh davlat xizmatchilariga — muhandislarni, iqtisodchilarni, agronomlarni, arxitektorlarni, shifokorlarni, o'qituvchilarni, ilmiy xodimlarni va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ayrim hollarda rahbarlar tomonidan yuri-

[2] O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. — T.: «Adolat», 2005.

dik ahamiyatli harakatlarning amalga oshirilishi mutaxassislarga bog'liq bo'ladi. Masalan, rahbar xodimni mehnatdan vaqtincha bo'shatish to'g'risidagi buyruqni, shifokorning ma'lumotnomasiz chiqarishi mumkin emas. Davlat xizmatchilari asosiy tarkibining harakatlari, oxir oqibat davlat organi, korxona, muassasa va tashkilot faoliyatining sifatini ham belgilab beradi. Asosiy tarkibning ishiga qarab davlat organing faoliyatiga baho beriladi. Shu sababli, ham davlat organida xizmatchilarning asosiy tarkibini shakllantirishda kadrlarni tanlash va ularni joy-joyiga qo'yish masalasiga katta e'tibor beriladi;

3) ***yordamchi xizmatchilar*** – davlat xizmatchilarining mazkur guruhini davlat organining normal funksiyalanishi uchun zarur bo'lgan yordamchi funksiyalarni amalga oshiruvchi xizmatchilar tashkil etadi.

Yordamchi xizmatchilar davlat organining normal funksiyalanishi uchun sharoit yaratib beradi. Yordamchi xizmatchilar tarkibiga – ish yurituvchilar, kuryerlar, mashinistkalar, laborantlar, ekspeditorlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Yordamchi xizmatchilarning faoliyat doirasiga: xizmat hujjatlarini, statistik ma'lumotlarni tayyorlash; hujjatlarni yuborish va boshqa yordamchi-texnik harakatlarni amalga oshirish kiradi.

Yordamchi xizmatchilarning faoliyati yuridik ahamiyatga ega emas. Masalan, qo'lda yozilgan xizmat hujjatining mashinistka tomonidan terilishi, tegishli rahbar tomonidan imzo qo'yilmaguncha yoki muhrlanmaguncha yuridik ahamiyatga ega bo'lmaydi;

4) ***ma'muriy hokimiyat vakillari*** – davlat xizmatchilarining alohida guruhi hisoblanadi. Ma'muriy hokimiyat vakillari – davlat xizmatchilarining shunday guruhiki, ular o'z vakolatlari doirasida boshqa shaxslarga, xizmat bo'ysinuvidan qat'i nazar, bajarilishi majbur bo'lgan ko'rsatmalarni berishi mumkin. Hokimiyat vakillariga sudyalarni, prokurorlarni, deputatlarni, Qurolli kuchlar, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlar tarkibiga kiruvchilarni va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Hokimiyat vakillari umumiy xususiyatdagi vakolatlarni amalga oshiradilar, masalan, xizmat yuzasidan ularga bo'ysunmagan shaxslarga majburiy farmoyishlar berish, ma'muriy ta'sir etish choralarini qo'llash va h.k.lar. Ma'muriy hokimiyat vakillari davlat-hokimiyat vakolatiga ega bo'lib, aniq davlat organi nomidan va uning ko'rsatmasiga binoan harakat qiladilar.[1]

---

[1] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / – Т.: «Адолат», 1999. С. 113–116.

Yu.N.Starilov barcha davlat xizmatchilarini quyidagi asosiy xususiyatlariga qarab guruhlarga bo'linishini ko'rsatadi:

1) *davlat-xizmat huquqiy munosabatlarining davom etishiga qarab* davlat xizmatchilarni:

a) umrbod davlat lavozimiga tayinlanadigan xizmatchilar.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, yuqoridagi holatni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 97-moddasiga binoan vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi;

b) ma'lum bir muddatga davlat lavozimiga tayinlanadigan xizmatchilar, ular alohida huquqiy hujjatlar bilan o'rnatiladi;

d) muddati belgilanmagan holda davlat lavozimiga tayinlanadigan xizmatchilar;

e) sinov muddati belgilangan holda davlat lavozimiga tayinlanadigan xizmatchilar;

2) *harakat doirasiga qarab* davlat xizmatchilarini: respublika xizmatchilari; mahalliy xizmatchilar;

3) *bilim darajasiga va professional tayyorgarlikka qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda* davlat xizmatchilari: oliy; bosh; katta; kichik guruhlarga kiruvchi va boshqa davlat xizmatchilarga bo'linadi.[1]

Demak, davlat xizmatchilarini qonunchilik hujjatlari bilan o'rnatilgan holatlardan kelib chiqqan holda turli asoslarga ko'ra bir necha guruhlarga bo'lishimiz, ya'ni tasniflashimiz mumkin.

9-§. Davlat xizmatini o'tash tushunchasi va tartibi

Davlat xizmati huquqiy institutida — davlat xizmatini o'tash asosiy element bo'lib hisoblanadi. Bu davlat-xizmat munosabatlarining vujudga kelishi bilan, ya'ni xizmatchining tegishli lavozimni egallashi, lavozim bo'yicha harakatlanishi, xizmatchilarning faoliyatini baholash va attestatsiyadan o'tkazish hamda davlat-xizmat munosabatlarining tugashi bilan bekor bo'luvchi jarayondir.

Davlat xizmatini o'tash instituti — boshqaruv apparatiga xodimlarni tanlashdan, xizmat bo'yicha harakatlanishni amalga oshirishdan, davlat xizmatidan bo'shatish uslublarini o'rnatish va amalga oshirishdan boshlanadi.[2]

---

[1] Старилов Ю.Н. Служебное право. — М.: «БЕК», 1996. С.3 45—355.

[2] Аппарат управления государства. Ч. 2. — М.: 1977. С. 205.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, ***davlat xizmatini o'tash*** davlat xizmati huquqiy institutining ichki instituti bo'lib, ***quyidagilarni tartibga soluvchi huquqiy normalar*** **yig'indisidan** ***iborat***dir:

1) davlat lavozimini egallash;

2) turli davlat organlari xodimlarining maxsus professional tayyorgarligi;

3) o'rindoshlik;

4) xizmatchilar tomonidan o'zlarining mansab majburiyatlarini bajarishi va huquqlarini amalga oshirishi;

5) malaka darajalarning, maxsus unvonlarning berilish tartibi;

6) xizmatchilarni rag'batlantirish va ularni javobgarlikka tortish;

7) davlat xizmatchilarining attestatsiyasi;

8) xizmat bo'yicha harakatlanish;

9) xizmatning sharoitlari;

10) davlat xizmatchilarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi (kafolatlar, imtiyozlar, kompensatsiyalar);

11) davlat xizmatining tugashi asoslari va uslublari.

D.M.Ovsyankoning fikricha, ***davlat xizmatini o'tash ikki turdagi huquqiy aktlar bilan tartibga solinadi***. Bu huquqiy aktlar bir-biridan yuridik oqibatlarni vujudga keltirishi bilan farqlanadi.

Birinchi huquqiy akt – bu *normativ huquqiy aktlar* bo'lib, ular orqali barcha fuqarolar tomonidan o'taladigan davlat xizmatining umumiy tartibi o'rnatiladi. Normativ aktlar orqali davlat xizmatiga qabul qilish tartibi, sinov muddatini o'tash, attestatsiya o'tkazish tartibi, davlat xizmati sharoitlarining xususiyatlari, mansablarni egallash, malaka darajalarni, ilmiy unvonlarni berish va boshqa masalalar belgilab beriladi.

Ikkinchi huquqiy akt – bu *individual (yakka tartibdagi yoki ma'muriy) aktlar*. Individual aktlar aniq bir fuqaro uchun davlat-xizmat huquqiy munosabatlarini vujudga keltirishda, o'zgartirishda va bekor qilishda yuridik fakt sifatida xizmat qiladi.[1]

Davlat xizmatini o'tash davlat xizmati institutining asosiy elementi bo'lib, unda davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi amalga oshiriladi. Davlat xizmatini o'tash - siyosiy va ma'muriy davlat lavozimlarini to'ldirish faoliyati bo'lib, davlat ma'muriyatida mansablarning davlat xizmatchilari o'rtasida ketma-ketlikda almashinuvini, davlat-xizmat huquqiy munosabatlari o'zgarishini o'z ichiga oladi. Har bir davlat xizmatchisi yakka tartibdagi lavozim

---

[1] Административное право: учебник / Под ред. Ю.М.Козлова, Л.Л.Попова. – М.: «Юрист», 2000. С. 222.

(xizmat) yo'nalishiga egadir. Shuning uchun ham amalda davlat xizmatini o'tash ham individualdir.[1]

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan davlat xizmatiga qabul qilishning, sinov muddatini o'tashning tartibi, davlat xizmati sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlari, xizmatchilarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi, davlat lavozimlarini egallash va boshqalar belgilab berilgandir.

Amaldagi qonunchilikka binoan ***davlat xizmatiga kirish huquqi***ga, qoida bo'yicha, davlat tilini biladigan, professional ta'limga ega bo'lgan, davlat xizmatiga qo'yilgan talablarga javob bera oladigan O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari egadir. Davlat xizmatiga ishga kirishda, shuningdek, uni o'tash jarayonida ma'lum bir, masalan, millati, tili, jinsi, kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, e'tiqodi va boshqa belgilarga qarab cheklovlarning qo'yilishi mumkin emas.

Davlat xizmatini o'tashning asosiy belgisi – bu ***davlat lavozimini egallash***dir. Davlat lavozimini egallash fuqaroning mansab huquqlari, majburiyatlari, cheklovlar va huquqiy javobgarlikning subyektiga aylanganidan dalolat beradi. Davlat lavozimlarini egallashda qonunchilikda o'rnatilgan hollarda ba'zi bir cheklovlar o'rnatilishi mumkin. Jumladan, fuqarolar quyidagi hollarda davlat xizmatida bo'lishi yoki davlat lavozimini egallashi mumkin emas:

birinchidan – fuqaro sud hukmi bilan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan bo'lsa;

ikkinchidan – sud tomonidan fuqaroning belgilangan muddatda davlat lavozimini egallashi taqiqlangan bo'lsa;

uchinchidan – tibbiy muassasaning xulosasiga ko'ra, davlat majburiyatlarini bajarishga noloyiq bo'lsa;

to'rtinchidan – o'zaro yaqin qarindoshlarning bo'ysinuv asosida davlat xizmatini bitta davlat organida o'tashi va boshqa holatlar.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabr qonuni bilan tasdiqlangan Mehnat kodeksining 79-moddasiga binoan o'zaro yaqin qarindosh yoki quda-anda bo'lgan shaxslarning (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari), basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunuv yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo'lsa, bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari taqiqlanadi. Bu qoidadan istis-

[1] Xojiyev Ye.T. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI nashriyoti, 2004. 77-b.

nolar O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanishi mumkin.[1]

Amaldagi qonunchilikga binoan *fuqarolar davlat xizmatiga kirishda quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:*

– pasport yoki uning o'rnini bosadigan boshqa hujjatni;

– mehnat daftarchasini (birinchi marotaba ishga kirayotgan shaxslar bundan mustasno). O'rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasi o'rniga asosiy ish joyidan olgan ma'lumotnomani;

– harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar tegishincha harbiy biletni yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnomani;

– tegishli ko'rinishdagi tibbiy ma'lumotnomani;

– qonun hujjatlariga muvofiq maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega shaxslargina bajarishi mumkin bo'lgan ishlarga kirayotganda oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtini tamomlaganligi to'g'risidagi diplomni yoxud mazkur ishni bajarish huquqini beradigan guvohnomani va boshqa tegishli hujjatni taqdim etadi.

Maxsus qonun hujjatlari bilan davlat xizmatiga kirishda boshqa talablar ham qo'yilishi mumkin.

Ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxsdan qonun hujjatlarida ko'rsatilmagan hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.

Davlat xizmatiga kirish maqsadida taqdim etilgan hujjatlar, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirishdan o'tkazilishi mumkin.

Davlat xizmatini o'tash sharoitlariga esa quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

– xizmat vaqtining, har yilgi mehnat ta'tilining davomiyligi; qo'shimcha mehnat ta'tillari;

– xizmatchilarning pul ta'minoti;

– imtiyozlar, kafolatlar va kompensatsiyalar;

– davlat ijtimoiy sug'urtasi;

– xizmat uyi, xizmat avtotransporti bilan ta'minlash tartibi;

– xizmat safarida bo'lganda ijtimoiy-maishiy va texnik-xususiyatdagi xizmatlar.

Davlat-xizmat huquqiy munosabatlarining vujudga kelishida ikki asosiy huquqiy hujjatni: birinchidan, mehnat shartnomasi; ikkinchidan, fuqaroni davlat xizmatidagi davlat lavozimiga tayinlash to'g'risidagi buyruqni farqlay olish lozim.

---

[1] O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: «Adolat», 1996.

Fuqaroning davlat xizmatiga kirishi ***mehnat shartnomasi*** bilan rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga binoan mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

Mehnat shartnomasini tuzish haqidagi kelishuvdan oldin qo'shimcha holatlar (tanlovdan o'tish, lavozimga saylanish va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Xodim o'rindoshlik asosida ishlash to'g'risida, basharti bu qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan bo'lsa, mehnat shartnomalari tuzishi mumkin.

Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Mehnat shartnomasining shakli O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan namunaviy shartnomani hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Mehnat shartnomalari: nomuayyan muddatga; besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga; muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuzilishi mumkin.

Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.

Davlat xizmatida mehnat shartnomasi quyidagi maqsadda dastlabki ***sinov sharti*** bilan ham tuzilishi mumkin: xodimning topshirilayotgan ishga layoqatliligini tekshirib ko'rish; xodim mehnat shartnomasida shartlashilgan ishni davom ettirishning maqsadga muvofiqligi haqida bir qarorga kelishi.

Dastlabki sinovni o'tash haqida mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi lozim. Bunday shartlashuv bo'lmagan taqdirda xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan deb hisoblanadi.

Homilador ayollar, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar, korxona uchun belgilangan minimal ish joylari hisobidan ishga yuborilgan shaxslar ishga qabul qilinganda, shuningdek, olti oygacha muddatga ishga qabul qilish haqida xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzilganda dastlabki sinov belgilanmaydi.

Dastlabki sinov muddati uch oydan oshib ketishi mumkin emas. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri va xodim uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan boshqa davrlar dastlabki sinov muddatiga kiritilmaydi.

Dastlabki sinov davrida xodimlarga mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari va korxonada o'rnatilgan mehnat shartlari to'liq tatbiq etiladi. Dastlabki sinov davri mehnat stajiga kiritiladi.

Dastlabki sinov muddati tugagunga qadar har bir taraf ikkinchi tarafni uch kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir. Bunday holda ish beruvchi mehnat shartnomasini sinov natijasi qoniqarsiz bo'lgandagina bekor qilishi mumkin.

Agar dastlabki sinov muddati tugagunga qadar taraflardan birortasi ham mehnat shartnomasini bekor qilishni talab qilmagan bo'lsa, shartnomaning amal qilishi davom etadi va bundan keyin uni bekor qilishga umumiy asoslarda yo'l qo'yiladi.

Davlat xizmatini o'tashdagi asosiy elementlardan yana biri — bu ***davlat xizmatchilarining xizmat bo'yicha harakatlanishi***dir. Davlat xizmatchilarining xizmat bo'yicha harakatlanishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

— xodimning xizmat bo'yicha harakatlanishi maqsadida yuqori lavozimni egallashi;

— bir xil ahamiyatdagi lavozimni egallashi;

— quyi lavozimga o'tkazilishi;

— o'qishga kirishi munosabati bilan lavozimidan ozod qilish, shuningdek, o'qishni tamomlaganidan so'ng lavozimga tayinlanishi.

Davlat xizmatchisining xizmat (lavozim yoki mansab) bo'yicha harakatlanishi tegishli rahbarning buyrug'i bilan rasmiylashtirilishi lozim.

10-§. Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish

Davlat xizmatini takomillashtirish va tartibga solishni xizmatchilarni doimiy attestatsiyadan o'tkazishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Attestatsiya qoidalarini ishlab chiqish va o'tkazish tartibi hamda xizmat bo'yicha harakatlanish bevosita bog'liq bo'lgan jarayonlardir.

Davlat xizmatini o'tashda davlat xizmatchilarining attestatsiyasidan o'tkazish huquqiy instituti katta ahamiyatga egadir. Mazkur huquqiy institut O'zbekiston Respublikasining turli qonun hujjatlari bilan tartibga solingan.

Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida gapirishdan oldin shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, yuridik adabiyotlarda bu masala unchalik yoritib berilmagandir.

Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish huquqiy instituti – davlat xizmatini tashkil etish, turli davlat organlari vakolatlarini amalga oshirish va ta'minlash bo'yicha vazifa va majburiyatlarni bajarish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.

Attestatsiya, tor ma'noda, xizmatchilarning professional, ishchanlik va shaxsiy xislatlariga baho berish, uning xizmat-lavozim talablariga mos kelishini tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

Yu.N.Starilovning fikricha, *davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish* – davlat xizmatchisining professional tayyorgarlik darajasini va egallagan davlat lavozimi talablariga loyiqligini tekshirish, shuningdek, davlat xizmatchisiga malaka daraja berish masalasini hal etish maqsadida o'tkaziladi. Demak, qonun chiqaruvchi tomonidan attestatsiyaning ikki asosiy vazifasi belgilab qo'yilgan:

birinchidan – xizmatchining egallagan lavozimiga loyiq yoki loyiq emasligini belgilash, ya'ni professional tayyorgarlik darajasini aniqlash;

ikkinchidan – navbatdagi malaka darajasini berish.[1]

Attestatsiya keng ma'noda, quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

– amaliyotda davlat xizmati prinsiplariga rioya etish;

– davlat xizmati tizimida qonuniylikni ta'minlash;

– davlat organlarining professional kadrlar majmuasini tashkil etish;

– davlat xizmatchisining xizmat bo'yicha harakatlanishi maqsadida ularning potensial imkoniyatlarini aniqlash;

– davlat xizmatchisiga javobgarlik choralarini qo'llash; intizomni va javobgarlikni oshirish;

– xizmatchilarning xizmat zinapoyasi bo'yicha harakat-anishini ta'minlash;

– davlat xizmati muvozanatini ta'minlash;

– davlat xizmatchilarining malakasini oshirishni tartibga solish;

– davlat xizmati tizimida huquqbuzarliklarga va korrupsiyaga qarshi kurash va ogohlantirish va boshqalar.

Boshqa rus olimlarining fikricha esa, attestatsiya davlat xizmatiga kadrlarni tanlash bo'yicha faoliyatni takomillashtirish, xizmatchilarning malakasini oshirish, ularni joy-joyiga qo'yish, xizmatchilarning professional tayyorgarlik darajasini aniqlash, egal-

[1] Старилов Ю.Н. Служебное право. – М.: БЕК. 1996. С. 398–413.

lagan lavozimiga loyiqligi, shuningdek, navbatdagi malaka darajasini berish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladigan yuqori turuvchi davlat organlarining faoliyatidir.[1]

Attestatsiya davlat xizmatchilarining professional xislatlariga baho berishdir. Ayrim hollarda attestatsiya aniq maqsadlarga erishish va aniq qo'yilgan vazifalarni hal etish maqsadida ham o'tkazilishi mumkin.

Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish organlarning rahbarlari zimmasiga yuklatiladi. Attestatsiyani o'tkazish maqsadida attestatsiya komissiyasi tuziladi, attestatsiya o'tkazish jadvali tasdiqlanadi, attestatsiyadan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxslar doirasi belgilanadi hamda attestatsiya komissiyasi uchun zarur bo'lgan hujjatlar tayyorlanadi.

Attestatsiya attestatsiyadan o'tkazilayotgan shaxs ishtirokida amalga oshiriladi. Agar xizmatchi uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagan bo'lsa, uning ishtirokisiz ham o'tkazilishi mumkin.

Attestatsiya komissiyasi taqdim etilgan hujjatlar bilan tanishib chiqadi, attestatsiyadan o'tkazilayotgan xizmatchi hamda zarurat tug'ilgan hollarda uning rahbari eshitiladi. Attestatsiyadan o'tkazilayotgan xizmatchilarning professional va shaxsiy xislatlarini muhokama qilish obyektiv va belgilangan talablar asosida amalga oshirilishi lozim.

Xizmatchining xizmat faoliyatiga baho berish – egallagan lavozimi bo'yicha qo'yilgan talablarga loyiq kelishi, tegishli davlat organi oldida qo'yilgan vazifalarning bajarilishida uning ishtirokini aniqlash, u tomonidan amalga oshiriladigan ishning qiyinligi, ish faoliyatining natijalari va boshqalarga asoslanadi. Bundan tashqari, attestatsiya vaqtida xizmatchilarning professional bilimi, ish tajribasi, malakasini oshirishi va qayta tayyorlanishi, shuningdek, tashkilotchilik xislatlari (tegishli mansab guruhlari uchun) inobatga olinishi lozim.

Attestatsiya natijalariga ko'ra attestatsiya komissiyasi davlat organi rahbariga:

davlat xizmatchisini lavozimga ko'tarish;

navbatdagi malaka darajasini berish;

xizmatning maxsus sharoitlari (mushkulligi, ishning maxsus tartibi va h.k.lar) uchun qo'shimcha haqni o'zgartirish;

---

[1] Административное право: учебник / Под ред. Ю.М.Козлова, Л.Л.Попова. – М.: «Юрист», 2000. С. 224.

yuqori lavozimga ko'tarish uchun zaxiraga kiritish kabi asoslantirilgan tavsiyalarni berishi mumkin.

Attestatsiya natijalariga ko'ra davlat xizmatchilariga quyidagi uch turdagi baho berilishi mumkin:

birinchidan – egallagan davlat lavozimiga loyiqligi;

ikkinchidan – xizmat faoliyati yuzasidan attestatsiya komissiyasi ko'rsatmalarini bajargan taqdirda, egallagan lavozimiga loyiqligi;

uchinchidan – egallagan davlat lavozimiga loyiq emasligi.

Agar davlat xizmatchisi egallab turgan davlat lavozimiga noloyiq deb topilgan bo'lsa, u malakasini oshirishga yoki qayta tayyorlanishga yoxud boshqa davlat lavozimiga o'tkazilishi mumkin.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, attestatsiyalarni faoliyat sifatida ham olib ko'rishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan, ***attestatsiya faoliyati bir necha elementlaridan tashkil topadi***, ya'ni:

1) attestatsiyani o'tkazishni tashkil etuvchi va attestatsiya oldida turgan vazifalarni hal etuvchi – ***subyekt***. Attestatsiya subyekti – bu xizmatchining professional, ishchanlik, shaxsiy xislatlarini hamda faoliyatining natijalarini baholovchi shaxslar guruhi (kollegiyasi) hisoblanadi. Attestatsiya subyekti – bu attestatsiya komissiyasi bo'lib, professional, prinsipial xizmatchilardan iborat;

2) xizmatchilar tomonidan mansab majburiyatlari va funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha munosabatlarni ifodalovchi – ***obyekt***. Attestatsiya obyekti maxsus normativ akt talabiga binoan attestatsiyadan o'tkaziladigan davlat xizmatchilaridir;

3) attestatsiyaning aniq natijalariga erishish maqsadida amalga oshiriladigan – ***jarayon***.

Attestatsiya jarayoni o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) attestatsiyaning maqsad va vazifalarini belgilash;

b) tayyorlov tadbirlarini ishlab chiqish;

d) attestatsiyalanadigan xizmatchi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, o'rganish, analiz qilish va umumlashtirish;

e) xizmatchilarni baholash tizimini ishlab chiqish;

d) xizmatchilarni attestatsion baholash, davlat xizmatidagi davlat lavozimiga loyiqligini aniqlash;

f) attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiyalarni tayyorlash;

i) attestatsiya natijalariga ko'ra yuqori davlat organi yoki rahbar tomonidan davlat xizmatchisiga malaka darajasini berish, moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirish, yuqori lavozimga tayinlash uchun zaxiraga kiritish kabi qarorlarning qabul qilish tartibini o'rnatish;

h) attestatsiya natijalarini – attestatsiya komissiyasi baholarini va tavsiyalarini amalga oshirish tartibini shakllantirish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan attestatsiya elementlarining o'zaro aloqasi, ularning birligini,tashkil etadi.

Davlat xizmatchilarining attestatsiyasi shunday faoliyatki, uning jarayonida attestatsiya komissiyasi tomonidan, davlat lavozimiga loyiqlik darajasini aniqlash maqsadida, ilmiy asoslangan tartibda xizmatchilarning ishchanlik, shaxsiy va professional xislatlariga, xizmat faoliyati jarayoniga va natijalariga baho beriladi.

B.P.Kurashvilining fikricha, attestatsiya shunday faoliyatki, uning samarali amalga oshirilishi natijasida quyidagilar to'liq hajmda aniqlab beriladi: attestatsiyasini tayyorlash; baholashni amalga oshirish hamda xizmatchilarning ishini nazorat qilish; attestatsiya natijalariga ko'ra tegishli yuqori organ yoki tegishli rahbar tomonidan qarorning qabul qilinishi; xizmatchilarning, shuningdek, ma'muriyaning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha attestatsiya komissiyasining tavsiyalarini amalga oshirish; attestatsiyalarni o't-kazish va ularning natijalari bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal etish; attestatsiya natijalari; ilg'or attestatsiya tajribasini tatbiq etish va boshqalar.[1]

Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish — kadrlar siyosati va davlat xizmatini boshqarishda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning huquqiy vositasi hisoblanib, davlat organlarida maqsadga muvofiq yo'naltirilgan kadrlar siyosatini tashkil etish va amalga oshirishni ta'minlaydi.

Nazariy-huquqiy nuqtayi nazardan davlat xizmatchilarining attestatsiyasi huquqiy institut sifatida davlat xizmatini o'tash instituti tarkibidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisidan iborat bo'ladi. Attestatsiya huquqiy instituti tarkibiga kiruvchi normalar xizmatchilarni baholashni tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning belgilangan tartibini o'rnatadi.

Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish quyidagi funksiyalarni bajaradi: baholash, nazorat, xizmatchilar bilan ishlashni yaxshilash hamda siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, kommunikativ, axborot, muvozanatni saqlash va boshqalar.

Attestatsiya faoliyatining mazmuni va mohiyati uning prinsiplari orqali ochib beriladi. ***Attestatsiya prinsiplari***ga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) attestatsiyaning partiyadan holiligi;

2) attestatsiyaning umumiyligi;

3) oshkoralik;

---

[1] Курашвили Б.П. Очерки теории государственного управления. — М.: 1987. С. 166—167.

4) kollektiv baholash;
5) attestatsiyaning davriyligi (tizimga ega ekanligi);
6) baholashning kompleks ravishda amalga oshirilishi;
7) baholashning obyektivligi;
8) baholashning va tavsiyalarning asoslanganligi.

Demak, davlat xizmatini o'tashda, davlat xizmatchilarining xizmat bo'yicha harakatlanishida, xizmatchilarga navbatdagi malaka darajasini berishda attestatsiyalarni o'tkazishning o'rni kattadir.

11-§. Davlat xizmatchilarini rag'batlantirish

Davlat xizmati sohasida davlat xizmatchilarini rag'batlantirish va javobgarlikka tortish alohida ahamiyatga egadir.

Rag'batlantirish – davlat organining, mansabdor shaxsning yoki boshqa subyektning xizmatchi ehtiyojlariga, manfaatlariga, irodasiga, amaliy maqomiga, shuningdek, uning davlat-xizmat faoliyatiga ta'sir ko'rsatishidir.

Rag'batlantirish – intizomning, mehnat sifatining yaxshilanishiga ko'maklashadi, xizmatchilarning tashabbuskorlik va javobgarlik ruhida tarbiyalaydi.

Rag'batlantirish hamma vaqt ma'lum bir huquqiy asosga tayanadi. U – o'z vaqtida, obyektiv va ma'lum bir ahamiyatli bo'lishi kerak. Rag'batlantirish shunday qo'llanilishi lozimki, u boshqaruv ishining yuqori natijalariga erishish vositasi (stimuli)ga aylanishi lozim. Bu ma'noda rag'batlantirish muvozanatga keltirishning turi (shakli) sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat xizmati huquqiy institutini ko'rib chiqish vaqtida, rag'batlantirish masalasiga to'xtalib o'tmaslik mumkin emas, chunki aksariyat davlat xizmati to'g'risidagi normalarni o'z ichiga olgan qonunchilik hujjatlarida aynan shu atamadan foydalaniladi.

Rag'batlantirish individual yoki kollektiv, mazmuniga ko'ra esa – moddiy, ma'naviy yoki aralash bo'lishi mumkin.

D.M.Ovsyankoning fikricha: *rag'batlantirish* – davlat xizmatchilari tomonidan o'z mansab majburiyatlarini vijdonan va muvaffaqiyatli bajarishi, uzoq muddatli xizmati, muhim va alohida muhim vazifalarni bajargani uchun qo'llaniladi. Rag'batlantirish – davlat xizmatchilarini tarbiyalashning hamda xizmat intizomini mustahkamlashning asosiy vositalaridan biridir.[1]

---

[1] Административное право: учебник / Под ред. Ю.М.Козлова, Л.Л.Попова. – М.: «Юрист», 2000. С. 227.

Davlat xizmatchilariga nisbatan rag'batlantirish choralarini qo'llash bunday chorani qo'llash huquqiga ega bo'lgan organ yoki rahbar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ular qonunchilikda belgilangan tartibda va vakolat doirasida rag'batlantirish choralarini qo'llashlari mumkin.

Amaldagi qonunchilikda davlat xizmatchilarining ma'naviy va moddiy ko'rinishdagi turli rag'batlantirish choralari nazarda tutilgan.

Davlat xizmatchilarini rag'batlantirish uchun quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

– o'z oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi;
– vazifa va ko'rsatmalarni muddatidan oldin bajarishi;
– xizmatchining tashabbuskorligi;
– vazifalarni vijdonan bajarishi va intizomliligi.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabr Qonuni bilan tasdiqlangan Mehnat kodeksining 180-moddasiga binoan ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin. Rag'batlantirish turlari, ularni qo'llash tartibi, afzallik va imtiyozlar berish jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalari va boshqa lokal hujjatlarda, jamoa kelishuvlarida, intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarda belgilab qo'yiladi. Xodimlar mehnat sohasida davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga binoan ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar rag'batlantirish turlariga kirmaydi.[1]

12-§. Davlat xizmatchilarining javobgarligi

Amaldagi qonunchilikda nafaqat davlat xizmatchilarini rag'batlantirish, balki yuridik javobgarlikka: intizomiy, ma'muriy, moddiy va jinoiy javobgarlikka tortish ham nazarda tutilgan.

Davlat xizmatchilarining yuridik javobgarligi deganda – xizmatchilarining qonunga xilof qilmishiga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan u yoki bu turdagi jazo choralarini qo'llash tushuniladi.

Yuridik adabiyotlardan kelib chiqqan holda, qonunga xilof qilmishni, ikkiga: ya'ni huquqbuzarlik va jinoyatga bo'lish mumkin.

---

[1] O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: «Adolat», 1996.

Davlat xizmatchilarining yuridik javobgarligi xizmatchilar tomonidan qonun talablarining bajarilmaganligi, mansab majburiyatlariga befarq qarashi, davlatga, jamoat birlashmalariga moddiy zarar yetkazishi, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzishi oqibatida vujudga kelishi mumkin.

Davlat xizmatchilari javobgarligining asoslaridan biri — bu fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga olib keladigan harakat yoki harakatsizlikdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasiga binoan har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayri-qonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.[1]

Davlat xizmatchilarining javobgarligi qonuniylikni yoki xizmat intizomini buzgan taqdirda, u tomonidan mansab majburiyatlari bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida vujudga kelishi mumkin.

Davlat xizmatchilari javobgarligining asosiy turlaridan biri — bu ***intizomiy javobgarlikdir***.

Demokratik jamiyat, uning iqtisodiy asoslari, mehnatni tashkil etish prinsiplari hamda iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy qurilish va ma'muriy-siyosiy faoliyatni boshqarish — barcha a'zolarning yagonaligi va intizomliligi, qat'iy jamiyat va davlat intizomi, shuningdek, xizmat intizomining yuqori tashkilotchiligini talab etadi.

Intizomiy javobgarlik davlat xizmatchisini davlat lavozimiga tayinlash vakolatiga ega bo'lgan organ yoki rahbar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Davlat xizmatchilarining intizomiy javobgarligi lavozim nojo'ya qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) uchun qo'llaniladi. Chunki mehnat (xizmat) intizomiga rioya qilish hamda davlat intizomini mustahkamlash davlat xizmatchilarining asosiy majburiyatlaridan biridir.

Davlat xizmatchilarining intizomiy javobgarligi — ular tomonidan yuklatilgan majburiyatlarning bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida vujudga keladigan yuridik javobgarlikning bir turidir.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1995, 9-son, 183-m.

Intizomiy javobgarlik – lavozim nojo'ya qilmishini sodir etgan davlat xizmatchilariga ma'muriyat vakili (rahbar, boshliq) tomonidan intizomiy jazo choralarini qo'llashni anglatadi.

Davlat xizmatchilarining intizomiy javobgarligi:

1) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bilan;
2) O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan;
3) intizom ustavlari va maxsus nizomlar bilan;
4) ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilanadi.

Davlat xizmatchilarining intizomiy javobgarligini belgilovchi asosiy hujjatlardan biri – bu O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi hisoblanadi. Mazkur kodeksga binoan korxonada mehnat tartibi ish beruvchi kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib tasdiqlaydigan ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilanadi.

Xalq xo'jaligining ba'zi tarmoqlarida xizmatchilarning ayrim toifalari uchun intizom to'g'risidagi ustav va nizomlar amal qiladi.

Davlat xizmatchisi o'z mehnat vazifalarini halol, vijdonan bajarishi, mehnat intizomiga rioya qilishi, ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini o'z vaqtida va aniq bajarishi, texnologiya intizomiga, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga rioya qilishi, ish beruvchining mol-mulkini avaylab asrashi shart.

Xizmatchining mehnat vazifalari – ichki tartib qoidalarida, intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarda, korxonada qabul qilinadigan lokal hujjatlarda (jamoa shartnomalarida, yo'riqnomalar va hokazolarda), mehnat shartnomasida aniq belgilab qo'yiladi.

Davlat organi (tashkilot) xizmatchilar mehnatini tashkil qilishi, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini yaratib berishi, mehnat va ishlab chiqarish intizomini ta'minlashi, mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etishi, xodimlarning ehtiyoj va talablariga e'tibor bilan qarashi, ularning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilab borishi shart.

Davlat organi (tashkilot) xizmatchining mehnat vazifalari doirasiga kirmaydigan ishlarni bajarishni, qonunga xilof yoki xizmatchi va boshqa shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'diruvchi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar qilishni talab etishga haqli emas.

Har bir xizmatchi o'ziga yuklatiladigan mehnat vazifalari doirasi bilan oldindan tanishtirilishi lozim.

Mehnat intizomi — halol mehnat uchun rag'batlantirish va mukofotlash uslublari bilan normal tarzda ishlashga zarur tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarni yaratib berish, noinsof xizmatchilarga nisbatan jazo choralarini qo'llash orqali ta'minlanadi.

Xizmatchiga mehnat intizomini buzganligi uchun vakolatli organ yoki rahbar quyidagi *intizomiy jazo choralari*ni qo'llashga haqli:

1) xayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima;

3) ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin;

4) mehnat shartnomasini bekor qilish.

Yuqorida nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llash taqiqlanadi.

Intizomiy jazolar ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organlar) tomonidan qo'llaniladi.

Intizomiy jazo qo'llanilishidan avval xizmatchidan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xizmatchining tushuntirish xati berishdan bosh tortishi uning ilgari sodir qilgan nojo'ya xatti-harakati uchun jazo qo'llashga to'siq bo'la olmaydi.

Intizomiy jazoni qo'llashda sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning qay darajada og'ir ekanligi, shu xatti-harakat sodir etilgan vaziyat, xizmatchining oldingi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi.

Har bir nojo'ya xatti-harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo qo'llanishi mumkin.

Intizomiy jazo — bevosita nojo'ya xatti-harakat aniqlangandan keyin, ammo bu xatti-harakat aniqlangandan boshlab, xizmatchining kasal yoki ta'tilda bo'lgan vaqtini hisobga olmasdan, uzog'i bilan bir oy ichida qo'llaniladi.

Nojo'ya xatti-harakat sodir etilgan kundan boshlab olti oy o'tganidan, moliya-xo'jalik faoliyatini taftish etish yoki tekshirish natijasida aniqlanganda esa — sodir etilgan kundan boshlab ikki yil o'tganidan keyin jazoni qo'llab bo'lmaydi. Jinoiy ish boyicha ish yuritilgan davr bu muddatga kirmaydi.

Intizomiy jazo berilgani to'g'risidagi buyruq (farmoyish) yoki qaror xizmatchiga ma'lum qilinib, tilxat olinadi.

Intizomiy jazoning amal qilish muddati jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yildan oshib ketishi mumkin emas. Agar xizmatchi shu muddat ichida yana intizomiy jazoga tortilmasa, u intizomiy jazo olmagan deb hisoblanadi.

Intizomiy jazoni qo'llagan organ yoki rahbar o'z tashabbusi bilan xizmatchining iltimosiga binoan, mehnat jamoasi yoki xizmatchining bevosita rahbari iltimosnomasiga ko'ra jazoni bir yil o'tmasdan oldin ham olib tashlashga haqli.

Intizomiy jazo ustidan yakka mehnat nizolarini ko'rish uchun belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Mehnat nizosini ko'rib chiqayotgan organ sodir etilgan nojo'ya xatti-harakat qanday vaziyatda yuz berganligini, xizmatchining oldingi xulq-atvorini, mehnatga bo'lgan munosabatini, intizomiy jazoning sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning og'irlik darajasiga qanchalik mos kelishini, ish beruvchining intizomiy jazo berish tartibiga rioya qilganligini hisobga olib, xizmatchiga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazoni g'ayriqonuniy deb topish va uni bekor qilish to'g'risida qaror chiqarishga haqli.

Davlat xizmatchilarining intizomiy javobgarligini davlat xizmatchilarining ma'muriy javobgarligidan farqlay olish lozim. Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, davlat xizmatchilarining intizomiy javobgarligi lavozim nojo'ya xatti-harakati oqibatida vujudga keladi. Ma'muriy javobgarlik esa - ma'muriy nojo'ya xatti-harakat uchun, ya'ni vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan o'rnatilgan umummajburiy qoidalarni buzganlik uchun qo'llaniladi. Intizomiy javobgarlik odatda, davlat organi rahbari tomonidan qo'llanilsa, ma'muriy javobgarlik vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mansabdor shaxslari tomonidan qo'llaniladi. Intizomiy javobgarlikni qo'llashda bo'ysinuvlik mavjud bo'lsa, ma'muriy javobgarlikni qo'llashda aybdor shaxsning javobgarlikni qo'llovchi organ yoki mansabdor shaxsga bo'ysunishi shart emas.

Ayrim hollarda huquqbuzarlik intizomiy nojo'ya xatti-harakatning ham, ma'muriy nojo'ya xatti-harakatning ham belgilarini o'zida ifoda etgan bo'lishi mumkin hamda bu huquqbuzarlik ikki turdagi javobgarlikni vujudga keltiradi. Masalan, mansabdor shaxs tomonidan mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi intizomiy javobgarlikni va ma'muriy javobgarlikni qo'llashga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan ma'muriy nojo'ya xatti-harakat (huquqbuzarlik) uchun nafaqat fuqarolar, balki mansabdor shaxslar (davlat xizmatchilari) ham javobgarlikka tortiladi.

Davlat xizmatchilari ma'muriy javobgarligining asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan o'rnatilgan umummajburiy qoidalarni buzish, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlikni sodir

etish hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik deganda — qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda, amalga oshiriladi.[1]

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 15-moddasiga binoan mansabdor shaxslar boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash, tabiiy muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga va bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishi lozim.

Masalan, fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (43-modda); hujjatlar bilan tanishib chiqishni asossiz ravishda rad etish (44-modda); fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish (46-modda) sanitariya qonunchiligini buzish va boshqalar (O'zR MjtKda ko'rsatib o'tilgan yuzdan ortiq moddalar) uchun mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi nazarda tutilgan.

Harbiy xizmatchilarning va boshqa shaxslarning ma'muriy javobgarligi boshqa tartibda hal qilinadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 16-moddasiga binoan harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Mazkur shaxslar yo'l harakati qoidalarini, ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash qoidalarini, bojxona qoidalarini buzganliklari uchun umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoqqa olish choralari qo'llanilishi mumkin emas. Muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarga jarima solinishi mumkin emas.

---

[1] O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik o'g'risidagi kodeksi. — T.: «Adolat», 2005.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar jumlasiga kirmaydigan, intizom ustavlari yoki intizom to'g'risidagi maxsus qoidalar tatbiq etiladigan boshqa shaxslar, ana shu ustav yoki qoidalarda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun intizomiy javobgar bo'ladilar, boshqa hollarda esa umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 23-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun quyidagi *ma'muriy jazo choralari* qo'llanilishi mumkin:

1) jarima;

2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish;

3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish;

4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish;

5) ma'muriy qamoqqa olish.

Qoida boyicha, davlat xizmatchilari (mansabdor shaxslar) ma'muriy javobgarlikning maxsus subyekti hisoblanadi.

Bundan tashqari, mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo tariqasida jarima qo'llanilganida, fuqarolarga nisbatan qo'llaniladigan jarima miqdoridan yuqori bo'ladi.

Yu.N.Starilovning ko'rsatishicha, davlat xizmatchilari ma'muriy javobgarlikka tortilganda, ularga nisbatan, odatda ikkita ma'muriy jazo chorasi — ogohlantirish va jarima jazolari qo'llanilishi mumkin.[1]

Amaldagi qonunchilikda mansabdor shaxslar (davlat xizmatchilari) tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish (jinoyat) sodir etilganida, ***jinoiy javobgarlik*** qo'llanilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabr qonuni bilan tasdiqlangan Jinoyat kodeksining 14-moddasiga binoan Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan ***jinoyat*** deb topiladi. Ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar etkazadigan

[1] Старилов Ю.Н. Служебное право. — М.: «БЕК», 1996. С.428.

yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi.[1]

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga binoan davlat xizmatchilarining jinoiy javobgarligi asosan:

– hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (205-modda);

– hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (206-modda);

– mansabga sovuqqonlik bilan qarash (207-modda);

– hokimiyat harakatsizligi (208-modda);

– pora olish (210-modda);

– pora berish (211-modda);

– pora olish berishda vositachilik qilish (212-modda) va boshqalardan vujudga keladi.

Davlat xizmatchilariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan quyidagi jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

a) jarima;

b) muayyan huquqdan mahrum qilish;

d) axloq tuzatish ishlari;

e) xizmat boyicha cheklash;

f) qamoq;

g) intizomiy qismga jo'natish;

h) ozodlikdan mahrum qilish.

Mahkumlarga asosiy jazolardan tashqari harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi qo'shimcha jazo ham qo'llanilishi mumkin:

a) harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish;

b) mol-mulkni musodara qilish.

Xizmat boyicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazolar faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo'shimcha jazo tariqasida ham qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ***davlat xizmatchilarining moddiy javobgarligi*** O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 185-moddasiga binoan mehnat shartnomasining bir tarafi (ish beruvchi yoki xodim) mehnat sohasidagi vazifalarni

[1] O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: «Adolat», 2005.

bajarishi munosabati bilan boshqa tarafga yetkazgan zararini ushbu Kodeks va mehnat to'g'risidagi boshqa normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarga muvofiq qoplaydi.

Mehnat shartnomasi yoki unga qo'shimcha ravishda tuzilgan yozma shakldagi kelishuvda, shuningdek, jamoa shartnomasida mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi aniqlashtirib qo'yilishi mumkin. Shartnoma boyicha ish beruvchining xodim oldidagi javobgarligi Mehnat kodeksida nazarda tutilganidan kam, xodimning ish beruvchi oldidagi javobgarligi esa nazarda tutilganidan ko'p bo'lmasligi kerak.

Zarar yetkazilganidan keyin mehnatga oid munosabatlarning bekor qilinganligi mehnat shartnomasi taraflarini moddiy javobgarlikdan ozod qilishga sabab bo'lmaydi.

Mehnat shartnomasining bir tarafi o'zining g'ayrihuquqiy aybli xulq-atvori (harakati yoki harakatsizligi) natijasida boshqa tarafga yetkazgan zarari uchun, basharti ushbu Kodeksda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, moddiy javobgar bo'ladi.

Taraflarning har biri o'ziga yetkazilgan moddiy zararning miqdorini isbotlab berishi shart.

O'z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilganligi natijasida xodimga, boquvchisi ish bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda esa — uning oila a'zolariga yetkazilgan har qanday zararni (shu jumladan, ma'naviy zararni) ish beruvchi, basharti qonunda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, to'liq hajmda to'laydi.

Ma'naviy zarar (jismoniy yoki ruhiy azoblar) pul shaklida yoki boshqa moddiy shaklda hamda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi kelishuvga muvofiq ravishda, xodim mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda esa — ish beruvchi va vafot etgan xodimning oila a'zolari o'rtasidagi kelishuvga muvofiq ravishda belgilangan miqdorda qoplanadi. Ma'naviy zararni qoplash yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, bu masala sudda ko'rib chiqiladi.

Xodim ish beruvchiga bevosita yetkazilgan haqiqiy zararni to'lashi shart.

Bevosita yetkazilgan haqiqiy zarar deganda ish beruvchining mavjud mol-mulki (shu jumladan, ish beruvchi uchinchi shaxslardan ijaraga olgan mol-mulk) amalda kamayganligi yoki yomon holatga kelganligi, shuningdek, ish beruvchining ortiqcha to'lovlar qilish zarurati tushuniladi.

Xodim ish beruvchiga bevosita yetkazilgan haqiqiy zarar uchun ham ish beruvchi boshqa shaxslarga ytkazilgan zararni to'lashi natijasida kelib chiqqan zarar uchun ham moddiy javobgar bo'ladi.

Agar zarar, uni bartaraf etish mumkin bo'lmagan kuchlar, normal xo'jalik tavakkalchiligi oqibatida, oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa natijasida kelib chiqqan bo'lsa, xodimning moddiy javobgarligi istisno etiladi.

Agar Mehnat kodeksda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, xodim yetkazilgan zarar uchun o'zining o'rtacha oylik ish haqi miqdori doirasida moddiy javobgar bo'ladi.

Yetkazilgan zarar uchun quyidagi hollarda xodimga to'liq moddiy javobgarlik yuklatiladi:

1) maxsus yozma shartnoma asosida unga ishonib topshirilgan qimmatliklarning saqlanishini ta'minlamaganlik uchun;

2) bir gallik hujjat asosida olingan qimmatliklarning saqlanishini ta'minlamaganlik uchun;

3) qasddan zarar yetkazilganda;

4) alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazilganda;

5) xodimning sud hukmi bilan aniqlangan jinoiy harakatlari natijasida zarar yetkazilganda;

6) tijorat sirlari oshkor etilganda;

7) qonunlarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda.

Ish beruvchi zararni muayyan xodimlardan undirish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin yetkazilgan zarar miqdorini belgilash va uning kelib chiqish sababini aniqlash maqsadida tekshirish o'tkazish shart. Bunday tekshirish o'tkazilish uchun ish beruvchi tegishli mutaxassislar ishtirokida komissiya tuzishga haqli.

Zararning kelib chiqish sababini aniqlash uchun xodimdan tushuntirish xati talab qilinishi shart. Xodimning tushuntirish xati berishdan bo'yin tovlashi ish beruvchi uni yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgarlikka tortishiga mone bo'la olmaydi. Xodim barcha tekshirish materiallari bilan tanishish huquqiga ega.

Ish beruvchiga zarar yetkazishda aybdor bo'lgan xodim uni ixtiyoriy ravishda qisman yoki to'liq to'lashga haqli.

Xodim va ish beruvchining kelishuviga binoan zararni to'lash muddati kechiktirib qoplanishiga yo'l qo'yiladi. Bunday holda xodim ish beruvchiga to'lov muddatlarini aniq ko'rsatib zararni qoplash haqida yozma majburiyat beradi.

Agar zararni ixtiyoriy ravishda to'lash haqida yozma majburiyat bergan xodim mehnatga oid munosabatlarni bekor qilsa va zararni to'lashdan bo'yin tovlasa, qarzning uzilmay qolgan qismi notarial idoralarning ijro hujjatlari asosida undiriladi.

Ish beruvchining roziligi bilan xodim yetkazilgan zararni qoplash uchun unga bahosi teng mol-mulk berishi yoki buzilgan mol-mulkni tuzatib berishi mumkin.

O'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda yetkazilgan zarar summasi aybdor xodimdan ish beruvchining farmoyishiga muvofiq undiriladi. Farmoyish zarar yetkazilganligi aniqlangan kundan boshlab bir oy ichida chiqarilishi mumkin.

Yetkazilgan zararning xodimdan undirilishi lozim bo'lgan summasi uning o'rtacha oylik ish haqidan oshib ketsa yoki zarar aniqlangan kundan keyin bir oylik muddat o'tgan bo'lsa, zarar sud tartibida undiriladi.

Ish beruvchining mol-mulkiga yetkazilgan zararni undirish haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy huquq va davlat xizmatining o'zaro munosabati.
2. Ijtimoiy foydali faoliyat tushunchasi va turlari.
3. Davlat xizmati tushunchasi.
4. Davlat xizmatining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Mahalliy organlardagi xizmat tushunchasi.
6. Davlat xizmati prinsiplari.
7. Davlat xizmati maqsadi.
8. Davlat xizmatining asosiy vazifalari.
9. Davlat xizmati funksiyalari.
10. Davlat xizmati instituti funksiyalari.
11. Davlat xizmatchilari tushunchasi.
12. Davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi.
13. Davlat xizmatchilarining huquqlari.
14. Davlat xizmatchilarining majburiyatlari.
15. Davlat xizmatchilariga o'rnatilgan kafolatlar.
16. Davlat xizmatchilariga qo'yiladigan yetik talablar.
17. Davlat xizmatchilariga qo'yiladigan cheklovlar.
18. Davlat xizmatchilariga qo'yiladigan taqiqlar.
19. Davlat xizmatchilarining tasnifi.
20. Davlat xizmatini o'tash tushunchasi.
21. Davlat xizmatiga kirish.

22. Davlat lavozimini egallash.
23. Davlat xizmatini o'tash sharoitlari.
24. Davlat xizmatida mehnat shartnomasi.
25. Davlat xizmatida sinov muddati.
26. Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish.
27. Attestatsiya faoliyati.
28. Attestatsiya prinsiplari.
29. Davlat xizmatchilarini rag'batlantirish.
30. Davlat xizmatchilarining yuridik javobgarligi tushunchasi.
31. Davlat xizmatchilarining intizomiy javobgarligi.
32. Davlat xizmatchilarining ma'muriy javobgarligi.
33. Davlat xizmatchilarining jinoiy javobgarligi.
34. Davlat xizmatchilarining moddiy javobgarligi.

11-bob. NODAVLAT TASHKILOTLARI – MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA

1-§. Nodavlat notijorat tashkilotlari

Nodavlat notijorat tashkilotlari – davlat boshqaruvi jarayonida ma'lum bir huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari sifatida namoyon bo'lishlari mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonun[1]iga binoan tartibga solinadi. Ushbu Qonun nodavlat notijorat tashkilotlarining, shuningdek, xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarining, xalqaro hamda chet el nodavlat notijo tashkilotlari vakolatxonalari va filiallarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini-o'zi boshqarish tashkilotidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, nodavlat notijorat tashkilotlari boshqa jamoat birlashmalaridan farq qilgan holda, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

a) jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy tashkil etiladi;

b) o'zini-o'zi boshqaradi;

d) daromad (foyda) olish faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanmaydi.

«Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunga binoan, nodavlat notijorat tashkilotlari quyidagi maqsadlarda tashkil etilishi mumkin:

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlsi Axborotnomasi. 1999, 5-son, 115-m.

1) jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

2) demokratik qadriyatlarni himoya qilish;

3) ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish;

4) ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish;

5) xayriya faoliyatini amalga oshirish.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko'mak ko'rsatishi mumkin.

Davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotining davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni qabul qilish;

– nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatga olish (qayta ro'yxatga olish), ularning faoliyat ko'rsatishi va faoliyatini tugatish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratib berish;

– nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy foydali dasturlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

– nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro ijtimoiy hamkorlik;

– nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

Nodavlat notijorat tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlariga kirishi, ular bilan to'g'ridan to'g'ri xalqaro aloqalar o'rnatishi, hamkorlik to'g'risida tegishli bitimlar tuzishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti, agar uning ta'sis hujjatlarida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, faoliyat muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

«Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunga binoan **nodavlat notijorat tashkiloti quyidagi huquqlarga ega:**

1) o'z a'zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;

2) ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

3) davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;

4) o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish;

5) ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

6) ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;

7) o'z ramziy belgilarini ta'sis etish;

8) o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazish;

9) qonun hujjatlariga muvofiq vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish.

Nodavlat notijorat tashkiloti qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

Nodavlat notijorat tashkiloti:

1) qonun hujjatlariga rioya etishi;

2) o'z mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta'minlashi;

3) nodavlat notijorat tashkilotini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi o'tkazayotgan tadbirlarga erkin kirish imkonini berishi;

4) ro'yxatdan o'tkazuvchi soliq va statistika organlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlar taqdim etishi shart.

Nodavlat notijorat tashkiloti qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

Nodavlat notijorat tashkilotining vakolatxonasi — u turgan yerdan tashqarida joylashgan alohida bo'linma bo'lib, nodavlat notijorat tashkilotining manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotining filiali — u turgan yerdan tashqarida joylashgan alohida bo'linma bo'lib, uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan, vakolatxona vazifalarini amalga oshiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotining vakolatxonalari va filiallari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi mumkin.

Xalqaro hamda chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari yuridik shaxslardir.

Nodavlat notijorat tashkilotlari quyidagi shakllarda tashkil etilishi mumkin:

a) *jamoat birlashmasi* – ma'naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi.

Jamoat birlashmasi qatnashchilari mazkur birlashmaga mulk qilib bergan mol-mulklariga, shu jumladan, a'zolik badallariga bo'lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a'zo sifatida qatnashayotgan jamoat birlashmasining majburiyatlari boyicha javob bermaydilar, mazkur birlashma esa o'z a'zolarining majburiyatlari boyicha javob bermaydi;

b) *ijtimoiy (jamoat) fond* – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

Jamoat fondiga uning muassislari (muassisi) yoki vasiyat qiluvchi tomonidan o'tkazilgan mol-mulk fondning mulkidir. Fond muassislari (muassisi) yoki fond vasiyatnoma boyicha tashkil etilganida vasiyatnomani ijro etuvchi fondning majburiyatlari boyicha javob bermaydi, fond esa muassislarning (muassisning) yoki vasiyatnomani ijro etuvchining majburiyatlari boyicha javob bermaydi;

d) *muassasa* – ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tusdagi vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti;

e) *qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shakllarda.*

Nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish, shuningdek, umumiy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) shaklida birlashmalar tuzishi mumkin.

O'z ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida hamda bitta yoki undan ko'proq chet el davlati hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan xalqaro tashkilot – *xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti* deb hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti uning muassislari (a'zolari) qarori asosida qonun hujjatlariga muvofiq tuziladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining uyushmalari (ittifoqlari) kamida ikkita nodavlat notijorat tashkiloti tashabbusi bilan tuzilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotining tashabbuskorlari yoki muassislari ta'sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishni

chaqiradilar, unda ustav qabul qilinadi hamda rahbar organlari tuziladi.

Nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlari quyidagilardan iborat:

1) muassislar (a'zolar) tomonidan tasdiqlangan ustav;

2) qatnashchilar tomonidan tuzilgan ta'sis shartnomasi va ular tasdiqlagan ustav — uyushma (ittifoq) uchun.

Nodavlat notijorat tashkiloti ta'sis hujjatlarining talablari nodavlat notijorat tashkilotining o'zi uchun, uning muassislari va qatnashchilari (a'zolari) uchun majburiydir.

Ta'sis shartnomasida taraflar (muassislar) nodavlat notijorat tashkilotlari uyushmasini (ittifoqini) tuzish majburiyatini oladilar, uni tuzish sohasida birgalikda faoliyat ko'rsatish tartibini, unga o'z mol-mulkini berish hamda uning faoliyatida ishtirok etish, nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatini boshqarish, muassislarning uning tarkibidan chiqish shartlarini belgilab beradilar. Ta'sis shartnomasiga muassislarning kelishuviga binoan boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, o'n sakkiz yoshga to'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxslar nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilari (a'zolari) bo'lishi mumkin.

Yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotiga o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar, bolalarning nodavlat notijorat tashkilotiga esa o'n yoshga to'lgan shaxslar a'zo bo'lishi mumkin. Nodavlat notijorat tashkilotiga a'zo bo'lish, a'zolikdan mahrum bo'lish shartlari va tartibi, shu jumladan, yoshiga ko'ra a'zolikdan chiqish shartlari tegishli nodavlat notijorat tashkilotlarining ustavlari bilan belgilanadi.

Rasmiy hujjatlarda u yoki bu nodavlat notijorat tashkilotiga a'zolik yoki uning faoliyatidagi ishtirokchiligining ko'rsatilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning nodavlat notijorat tashkilotiga mansubligi yoki mansub emasligi ularning huquqlari va erkinliklarini cheklash uchun asos bo'la olmaydi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilari (a'zolari) bo'lishi mumkin, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro shartnomalarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Nodavlat notijorat tashkiloti bayroq, emblema, vimpel va boshqa ramziy belgilarga ega bo'lishi mumkin. Nodavlat notijorat tashkilotining ramziy belgilari davlat ramziy belgilariga o'xshamasligi kerak.

Nodavlat notijorat tashkilotining ramziy belgilari ustavga muvofiq uning rahbar organi tomonidan tasdiqlanadi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Nodavlat notijorat tashkilotini qayta tashkil etish uning yuqori organi qaroriga binoan birlashish, qo'shilish, bo'linish, ajralib chiqish va o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, xalqaro hamda chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari, respublika, viloyatlararo nodavlat notijorat tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq va ovul hududlarida faoliyat olib boradigan nodavlat notijorat tashkiloti Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xalqaro hamda chet el nodavlat notijorat tashkilotlari vakolatxonalari va filiallarining chet el fuqarolari bo'lgan xodimlarini, shuningdek, ularning qaramog'idagi oila a'zolarini belgilangan tartibda akkreditatsiya qilishni amalga oshiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotini ro'yxatga olgan organ uning faoliyati ustavda belgilangan maqsadlarga hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiqligini nazorat qiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni qabul qilib olgan adliya organi ularni ikki oylik muddat ichida ko'rib chiqadi hamda nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi va qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran uch kun ichida muassislarga davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida guvohnoma yoki qonun hujjatlarining qaysi qoidalari buzilganligi davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga olib kelganligi haqida aniq ko'rsatilgan hujjat beradi.

Davlat ro'yxatidan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlari yuridik shaxslarning hamma tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lgan yagona davlat reyestriga kiritiladi.

«Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunga binoan *nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish quyidagi hollarda rad etilishi mumkin*:

1) nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlari O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishni, suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga putur yetkazishni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitishni, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiladi. Fuqarolarning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qilishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa;

2) hujjatlar ro'yxat boyicha to'liq taqdim etilmagan yoki ular lozim darajada rasmiylashtirilmagan bo'lsa;

3) hujjatlar ustav qabul qilingan paytdan boshlab ikki oylik muddat o'tganidan keyin taqdim etilgan bo'lsa;

4) ilgari xuddi shu nomdagi nodavlat notijorat tashkiloti ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa;

5) nodavlat notijorat tashkilotini tuzishning qonunda belgilangan tartibi buzilgan bo'lsa yoki uning ta'sis hujjatlarida konunga nomuvofiqliklar bo'lsa;

6) ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan ta'sis hujjatlarida atayin noto'g'ri ma'lumotlar keltirilganligi aniqlangan bo'lsa;

7) nodavlat notijorat tashkilotining nomi yoki ramziy belgilari ma'naviyatga fuqarolarning milliy va diniy tuyg'ulariga daxl qilsa;

8) nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlarida harbiylashtirilgan birlashmalar tuzish nazarda tutilgan bo'lsa.

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish ta'sis hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga zid qoidalar mavjud bo'lgan boshqa hollarda ham rad etilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishning rad etilishi rad etish sabablari bartaraf etilgan taqdirda hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun takroran taqdim etishga to'siqinlik qilmaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilganligi, shuningdek, ro'yxatdan o'tkazish muddatlari buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar nodavlat notijorat tashkilotining o'zini davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan tartibda va muddatlarda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Nodavlat notijorat tashkiloti xalqaro nodavlat notijorat tashkilotiga yoki uning filialiga aylantirilgan taqdirda uni qayta ro'yxatdan o'tkazish majburiydir.

Binolar, inshootlar, turar joylar, uskunalar, inventar, pul mablag'lari, shu jumladan, chet el valyutasidagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk — ***nodavlat notijorat tashkilotining mulki*** bo'lishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotining mulki qonun bilan muhofaza qilinadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti o'z majburiyatlari yuzasidan qonunlarga muvofiq, mol-mulki bilan javob beradi.

Nodavlat notijorat tashkilotining mol-mulkini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

1) kirish va a'zolik badallari, agar ular ustavda nazarda tutilgan bo'lsa;

2) muassislardan, qatnashchilardan (a'zolardan) bir marotaba va muntazam ravishda keladigan tushumlar;

3) ixtiyoriy mulkiy badallar va ehsonlar;

4) tadbirkorlik faoliyatidan olingan, faqat ustav maqsadlari uchun ishlatiladigan daromadlar (foyda);

5) qonunlarda taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Nodavlat notijorat tashkiloti qonun bilan taqiqlanmagan hamda o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq bo'lgan faoliyatning har qanday turini amalga oshirishi mumkin.

Xalqaro hamda chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari hamda bunday vakolatxonalarning (filiallarning) xodimlari O'zbekiston Respublikasi hududida biron bir siyosiy faoliyatda va vakolatxona yoki filialning ustavda belgilangan maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan boshqa faoliyatda ishtirok etishga haqli emas. Ularning siyosiy partiyalar hamda ommaviy harakatlar tomonidan o'tkaziladigan amaliy harakatlar va tadbirlarni moliyalashtirishiga, shuningdek, bunday tashkilotlarni tuzish tashabbusi bilan chiqishiga hamda shunday tashkilotlar tuzishni qo'llab-quvvatlashiga yo'l qo'yilmaydi.

Nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan ayrim faoliyat turlari faqat litsenziyalar asosidagina amalga oshirilishi mumkin. Bunday faoliyat turlarining ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq o'z ustav maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlar, yig'imlar hamda budjetga va budjetdan tashqari fondlarga boshqa to'lovlar to'laydi, shuningdek, imtiyozlardan foydalanadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti o'z faoliyatining natijalari hisobini yuritadi hamda ro'yxatdan o'tkazuvchi, soliq va statistika organlariga belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etadi.

Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati u O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarini buzgan taqdirda sud tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan, shuningdek, ustav maqsadlariga zid harakatlar sodir etilgan taqdirda prokuratura organlari yoki adliya organlari ko'rsatilgan qoidabuzarliklar to'g'risida mazkur nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organlariga taqdimnoma kiritadi hamda bu qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatini belgilaydi. Agar bu qoidabuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati prokuratura va adliya organlarining taqdimnomasi asosida sudning qarori bilan olti oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib qo'yiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish uning yuqori organi qaroriga binoan yoki sud tartibida amalga oshiriladi.

Nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilari (a'zolari) yoki nodavlat notijorat tashkilotini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan organ davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi adliya organi bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini tayinlaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

2-§. Jamoat birlashmalari

O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma — ***jamoat birlashmasidir***.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari,

ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmalarining huquqiy maqomi — O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonuni[1] bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga binoan inson huquqlari to'g'risidagi Umumiy deklaratsiyaga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslanib, fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo'yiladi.

Jamoat birlashmalari:

— fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish;

— fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish;

— kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish;

— ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish;

— aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish;

— madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sog'lomlashtirish va sport ishlarini o'tkazish;

— tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish;

— vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991, 4-son, 76-m.

– respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash;

– qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek, konstitutsiyaviy tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo'ravonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan, sinfiy shuningdek, irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek, diniy xarakterga ega partiyalar, ularning filiallari va boshqa struktura bo'laklari tashkil etish taqiqlanadi.

Jamoat birlashmalari va ularning idoralari tomonidan qonuniy va demokratik yo'l bilan shakllantirilgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda hokimiyat vakolatlariga ega bo'lganlarga nisbatan g'ayridemokratik tarzda quch ishlatib tazyiq o'tkazish taqiqlanadi. Qonuniy ravishda amal qilib turgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda mansabdor shaxslarga demokratik uslubda hal etish bahonasi bilan tazyiq o'tkazishga bo'lgan har qanday urinishga qonun bilan barham beriladi.

Aholining salomatligi va axloqiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladigan jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyati qonunga muvofiq ta'qib qilinadi.

«O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonunga binoan ***jamoat birlashmalari:***

a) o'z a'zolari (qatnashchilari)ning ixtiyoriyligi;

b) teng huquqliligi;

d) o'zini-o'zi boshqarish;

e) qonuniylik;

f) oshkoralik asosida tuziladi va harakat qiladi.

Barcha jamoat birlashmalari o'z ustavlarida, boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari doirasida ish ko'radilar.

Fuqaroning jamoat birlashmasi faoliyatida qatnashishi yoki qatnashmasligi uning huquqlari va erkinliklarini cheklash yoki unga

imtiyozlar berish uchun, shu jumladan, davlat tashkilotida lavozimni egallash sharti yoki qonunda ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik uchun asos bo'la olmaydi.

Mehnat to'g'risidagi qonunlar, shuningdek, mehnatkashlarning ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy sug'urta qildirish to'g'risidagi qonunlar jamoat birlashmalari apparati xodimlariga nisbatan joriy etiladi.

Davlat jamoat birlashmalari huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi hamda Konstitutsiyaga muvofiq ular o'z ustavlaridagi vazifalarni bajarishlari uchun shart-sharoit yaratilishiga kafolat beradi.

Davlat yoshlar va bolalar tashkilotlariga moddiy va ma'naviy madad beradi, ularga nisbatan imtiyozli soliq siyosati o'tkazilishini ta'minlaydi, bolalar tashkilotlariga, maktab, maktabdan tashqari muassasalar binolaridan, klublardan, madaniyat saroylari va uylaridan, sport inshootlari va boshqa inshootlardan bepul yoki imtiyozli shartlar bilan foydalanish huquqini beradi.

Qonunda ko'zda tutilgan hollardan tashqari davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmalari manfaatlariga daxldor masalalar qonunlarda ko'zda tutilgan hollarda tegishli jamoat birlashmalari ishtirokida yoki ular bilan kelishilgan holda davlat idoralari va xo'jalik tashkilotlari tomonidan xal qilinadi.

Jamoat birlashmalari faoliyat hududiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1) *respublika jamoat birlashmalari* — Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun respublika hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalaridir. Bunda siyosiy partiyaning kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan kamida yigirma ming, kasaba uyushmasining esa kamida uch ming a'zosi bo'lishi kerak;

2) *mahalliy jamoat birlashmalari* (viloyat, tuman, shahar, posyolka va qishloq jamoat birlashmalari).

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa butun shahar hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari — *viloyat, Toshkent shahar jamoat birlashmalari*ga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun tuman (shahar) hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari — *tuman (shahar) jamoat birlashmalari*ga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati posyolka, qishloq hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari — *posyolka, qishloq jamoat birlashmalari*ga kiradi.

Zarurat paydo bo'lgan hollarda *viloyatlararo* va *tumanlararo* jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari ixtiyoriylik asosida jamoat birlashmalarining ittifoqlariga uyushishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi. Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta'sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o'zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

O'zbekiston Respubliksi fuqarolari jamoat birlashmasi a'zolari (qatnashchilari) bo'ladilar. Siyosiy partiyalardan tashqari jamoat birlashmalarining ustavida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning birlashmaga a'zo bo'lishlari ko'zda tutilishi mumkin.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalaridan tashqari jamoat birlashmalarining faoliyatida ularning ustavlarida ko'zda tutilgan hollarda jamoa a'zolari: korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mehnat jamoalari, fuqarolarning birlashmalari ishtirok etishlari mumkin.

Jamoat birlashmasi faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri — bu ularning ustavidir. *Ustav*da: jamoat birlashmasining nomi, maqsadi va vazifasi; jamoat birlashmasining ichki tuzilishi, uning o'z faoliyatini amalga oshiradigan hudud; jamoat birlashmasi a'zoligiga qabul qilish shartlari va tartibi, agar birlashma ro'yxatda qayd etiladigan a'zolarga ega bo'lsa, bunday hollarda undan chiqish shartlari va tartibi; jamoat birlashmasi a'zolari (qatnashchilari)ning huquqlari va burchlari; jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlari rahbar idoralarining vakolatlari va ularni tuzish tartibi, ularning vakolat muddati; jamoat birlashmasi hamda tashkilotlarning mablag'lari va boshqa mol-mulkini hosil qilishning pul bilan ta'minlanish manbalari; jamoat birlashmasining rahbar idorasi qaerda joylashganligi; jamoat birlashmasi ustaviga o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritish tartibi; jamoat birlashmasi faoliyatini to'xtatish tartibi va boshqalar nazarda tutiladi. Ustavda jamoat birlashmasi faoliyatiga taalluqli boshqa qoidalar ham ko'zda tutilishi

mumkin. Jamoat birlashmasining ustavi amaldagi qonunlarga zid bo'lmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi xalqaro, jamoat tashkilotlarining respublika, viloyatlararo birlashmalarining ustavlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida jamoat birlashmasining ustavini ro'yxatga olish tartibi Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Viloyat, tuman, shahar, posyolka, qishloq hududida yoki ikki va undan ortiq tuman, shahar, posyolka, qishloq hududida faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining ustavlari viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklarining adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatga olinadi.

Jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olish uchun ustav qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida mazkur jamoat birlashmasi rahbar idorasi a'zolari tomonidan imzolangan va shu a'zolar har birining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, istiqomat joyi ko'rsatilgan ariza topshiriladi.

Ustavni ro'yxatga olish haqidagi ariza u topshirilgan kundan boshlab ikki oy muddatda ko'rib chiqiladi.

Jamoat birlashmalari ustavlariga kiritilgan o'zgartirishlar, qo'shimchalar ham ustavlarni ro'yxatga olish tartibi va muddatlariga muvofiq ro'yxatga olinishi lozim.

Jamoat birlashmalari ustavlarini ro'yxatga oluvchi idoralar ana shu birlashmalar ro'yxatini tuzib boradilar.

Jamoat birlashmasi yoki uning tashkilotlari (idoralari) ularning ustavlari ro'yxatga olingan kundan yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar.

Xalqaro jamoat birmashmalarining, ularning bo'linmalarining filiallari, shu jumladan, ommaviy harakatlari va ularning tarmoq bo'linmalarining, shuningdek, respublika va mahalliy jamoat birlashmalari (ommaviy harakatlarining) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida va uning joylardagi idoralarida o'z ustavlarini ro'yxatdan o'tkazmagan bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmalari ramz sifatida o'z timsoliga, bayrog'iga va vimpeliga ega bo'lishi mumkin. Jamoat birlashmalarining timsollari ustavga muvofiq, ularning rahbar idoralari tomonidan tasdiqlanadi. Bayroqlar va vimpellar belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Jamoat birlashmalarining faoliyati ularni qayta tashkil etish (qo'shilish, birlashish, ajralish) yoki tugatish yo'li bilan ***to'xtatilishi mumkin***.

Jamoat birlashmalari ularning s'ezdlari (konferensiyalari) yoki umumiy yig'ilishlari qarori bilan qaytadan tashkil etiladi. Jamoat birlashmalarini qayta tashkil etgandan so'ng yangidan tuzilgan jamoat birlashmasining ustavi qonunda ko'zda tutilgan tartibda ro'yxatga olinadi.

Jamoat birlashmasi syezd (konferensiya) yoki umumiy yig'ilish qaroriga muvofiq, yoxud qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan asoslarda va tartibda tugatiladi.

Syezd (konferensiya) yoki umumiy yig'ilish qaroriga muvofiq tugatilgan jamoat birlashmasining mol-mulki uning ustavida ko'zda tutilgan maqsad yo'lida sarflanadi.

Jamoat birlashmalari qonun oldida tengdirlar.

Jamoat birlashmalarining huquqlari quyidagilardan iboratdir:

1) jamoat birlashmalari ustavlarda, dasturiy, boshqa hujjatlarda belgilangan maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish uchun o'z maqsadlari va faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatadi;

2) qonunda ko'zda tutilgan hollarda va tartibda esa:

a) davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi;

b) davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi;

d) davlat va jamoat idoralarida o'z a'zolari (qatnashchilari) nomidan ish yuritadi va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi;

e) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi.

Jamoat birlashmalari qonunlarda belgilab qo'yiladigan tartibda ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadilar hamda faqat ustavdagi vazifalarni bajarish maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va xo'jalik hisobidagi tashkilotlarni tashkil etadilar.

Jamoat birlashmalarining ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari ana shu birlashmalar a'zolari (qatnashchilari) o'rtasida qayta taqsimlanmaydi va undan faqat ustav vazifalarini bajarish uchun foydalaniladi; jamoat birlashmalari o'z mablag'laridan hatto o'z ustavida ko'rsatilmagan bo'lsa ham xayriya maqsadlari yo'lida foydalanishlariga yo'l qo'yiladi.

Jamoat birlashmalari, ularning tashkilotlari binolar, inshootlar, uy-joy fondi, uskunalar, asboblar, madaniy-ma'rifiy va sog'lomlashtirish maqsadlari uchun mo'ljallangan mulklarga, pul mablag'iga, aksiyalarga, boshqa qimmatbaho qog'ozlarga hamda ularning ustavlarida ko'zda tutilgan faoliyatni moddiy ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'zga mol-mulkka, shuningdek, intellektual mulk obyektlariga egalik qilishlari mumkin. Birlashmalarning ustavlarida ko'rsatilgan maqsadlarga muvofiq ularning mablag'i hisobidan barpo etilgan nashriyotlar, boshqa korxonalar, xayriya, muassasalari jamoat birlashmalarining mulki bo'lishi mumkin.

Jamoat birlashmalarining pul mablag'lari:

– agar ustavda ko'zda tutilgan bo'lsa, birlashmaga kirish va a'zolik badallarini to'lashdan;

– ixtiyoriy ravishda o'tkazilgan pul va xayriyalardan;

– ustavga muvofiq o'tkazilgan leksiyalar, ko'rgazmalar, sport tadbirlari hamda boshqa tadbirlar, lotereyalar tushumlaridan, ishlab chiqarish, xo'jalik va noshirlik faoliyatidan olinadigan daromadlardan;

– qonun bilan taqiqlanmagan boshqa tushumlardan tashkil topadi.

Jamoat birlashmalarining mulki qonun bilan muhofaza qilinadi.

Ittifoqlarning va ularga kiruvchi birlashmalarning ana shu ittifoq va unga qo'shilgan birlashmalarga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish, tasarruf etishga doir vakolatlari jamoat birlashmalari ittifoqlarining ustavlarida belgilab qo'yiladi.

Jamoat birlashmalari ommaviy axborot vositalarini ta'sis etishga hamda amaldagi matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunlarga muvofiq noshirlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidirlar.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan ***jamoat birlashmalarining faoliyati ustidan quyidagi davlat organlarining nazorati o'rnatildi:***

1) *soliq idoralari* – jamoat birlashmalarini mablag' bilan ta'minlash va ular daromadlarining manbalarini, ular olgan mablag' miqdorini va soliqlar to'g'risidagi qonunlarga muvofiq soliq to'lanishini nazorat qiladi;

2) *prokuratura idoralari* – jamoat birlashmalarining qonunlarni bajarishini nazorat qiladi;

3) *adliya organlari* – jamoat birlashmasi faoliyatining maqsadlariga taalluqli ustav qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi. Ro'yxatga oluvchi idora jamoat birlashmasining rahbar organidan

qabul qilingan qarorlarni taqdim etishni talab qilishga, jamoat birlashmalari o'tkazadigan tadbirlarda qatnashish uchun o'z vakillarini yuborishga, jamoat birlashmasi ustaviga rioya qilish bilan bog'lik masalalar yuzasidan jamoat birlashmasi a'zolaridan va boshqa fuqarolardan tushuntirish olishga haqlidir.

Jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunni buzish amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy, ma'muriy, moddiy yoki o'zga javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jamoat bilashmalari to'g'risidagi Qonunni buzganlik uchun bu ishda aybdor bo'lgan davlat va jamoat idoralarining mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar javobgar bo'ladilar.

Jamoat birlashmasi, shu jumladan, o'z ustavini ro'yxatdan o'tkazmagan jamoat birlashmasi jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunni buzgan taqdirda qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Jamoat birlashmasi uning ustavida belgilab qo'yilgan maqsadlar va vazifalar doirasidan chetga chiqadigan yoki qonunni buzadigan xatti-harakatlari sodir etgan taqdirda ana shu jamoat birlashmasining rahbar idorasi jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olgan idora yoki prokuror tomonidan yozma ravishda ogohlantirilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va o'z ustavlariga muvofiq xalqaro jamoat (nohukumat) birlashmalariga qo'shilishi, bevosita xalqaro aloqalar o'rnatishlari, tegishli bitimlar tuzishlari mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasida tuzilgan jamoat birlashmasining faoliyati ustavga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida va bitta yoki undan ko'proq xorijiy davlat hududida amal qilsa, u xalqaro jamoat birlashmasi deb e'tirof etiladi.

Basharti, chet elda tuzilgan xalqaro jamoat birlashmasi tarkibiga respublika jamoat birlashmasi kollektiv a'zo sifatida kirsa, respublika jamoat birlashmasining ustavi ham qonunga muvofiq ro'yxatga olinishi kerak.

O'z faoliyatini xorijiy davlat hududida ham amalga oshiradigan jamoat birlashmasi zarur o'zgartishlar va qo'shimchalar qiritilgan ustavini qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirigiga taqdim etadi.

Tinchlikni mustahkamlashni, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni, insonparvarlik faoliyatining o'zga turlarini maqsad qilib qo'ygan jamoat birlashmalari qonunda belgilangan imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

3-§. Siyosiy partiyalar

Siyosiy partiya – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasiga binoan siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonun[1]iga, O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-aprelda qabul qilingan «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonun[2]ga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek, o'z ustavlari asosida amalga oshiradilar.

Siyosiy partiyalar quyidagi prinsiplar asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi:

1) fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish;

2) partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish;

3) a'zolarining teng huquqliligi;

4) o'zini-o'zi boshqarish;

5) qonuniylik;

6) *oshkoralik.*

Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi:

1) konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi;

2) O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997, 2-son, 36-m.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2004, 5-son, 86-m.

3) urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi;

4) xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi; milliy va diniy ruhdagi partiyalar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir paytning o'zida faqat bitta siyosiy partiyaga a'zo bo'lishi mumkin.

Partiyaga mansubligiga ko'ra fuqaroning huquqlarini har qanday cheklash, xuddi shuningdek, unga imtiyozlar yoki ustunliklar berish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — respublika barcha fuqarolarining huquq va erkinliklariga rioya qilinishining kafili sifatida prezidentlik vakolatlarini bajarish muddati davomida siyosiy partiyaga a'zolikni yoki unda ishtirok etishni to'xtatib turishi yoxud butunlay to'xtatishi shart.

Quyidagilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar:

a) sudyalar;

b) prokurorlar va prokuratura tergovchilari;

d) ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari;

e) harbiy xizmatchilar;

f) xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» ma'ruzasida siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishdagi roli va ta'sirini tubdan kuchaytirish ko'rsatib o'tildi.

Shu munosabat bilan partiyalar aholi o'rtasida obro'-e'tibor qozonish maqsadida izchil ish olib borishi, siyosiy tajriba orttirishi, siyosiy yetuklikka intilishi va eng muhimi, moliyaviy mustaqillikka erishish, jamiyatda o'z o'rnini topish va o'zining doimiy saylovchilariga tayanish uchun faol harakat qilishi kerak. Dasturi va yo'nalishidan qat'i nazar, shak-shubhasiz, barcha partiyalarimiz mana shunday yo'lni bosib o'tishi muhim ahamiyatga ega.

Odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y

berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda bu tashkilotlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.[1]

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va ular mansabdor shaxslarining siyosiy partiyalar ichki ishlariga aralashishlari yoxud, agar faoliyat qonunga hamda o'z ustavlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo'lsa, ular faoliyatiga u yoki bu tarzda to'sqinlik qilishlari man etiladi.

Siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Siyosiy partiyalar tashkilotlarining tadbirlari asosan, ularning a'zolarini ishdan tashqari vaqtida va ana shu partiyalar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi. Xususiy ish beruvchilarning o'z xodimlaridan ular mehnat vazifalarini bajarayotgan paytda partiya nomidan siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishni talab qilishi man etiladi.

Siyosiy partiyalar apparati xodimlariga nisbatan mehnat to'g'risidagi, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta haqidagi qonun hujjatlari tatbiq etiladi.

Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi.

Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlash, a'zolar tarkibini shakllantirish hamda ta'sis syezdi yoki konferensiyasini chaqirish boyicha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim.

Tashkiliy qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab yetti kunlik muddatdan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o'z tashabbusi, qo'mitaning tarkibi, rahbari (yetakchisi), joylashgan manzili hamda ta'sis syezdi yoki konferensiyasi chaqiriladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozim.

Tashkiliy qo'mita tuzilgan kundan boshlab uzog'i bilan uch oy faoliyat ko'rsatish huquqiga egadir.

Siyosiy partiya ta'sis syezdida yoki konferensiyasida tuziladi.

Ta'sis syezdi yoki konferensiyasi partiya ustavi va dasturini qabul qiladi, uning saylab qo'yiladigan organlarini tuzadi.

---

[1] Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: «O'zbekiston», 2005.

Siyosiy partiyaning ustavida: partiyaning nomi, maqsadi va vazifalari; partiyaning tuzilishi; partiya a'zoligiga qabul qilish va undan chiqish shartlari va tartibi; partiya a'zolarining huquq va majburiyatlari; partiya va uning tashkilotlari rahbar organlarining vakolatlari hamda ularni tuzish (chaqirish) tartibi, ularning vakolat muddatlari; partiya rahbar organlarining faoliyatini nazorat qilish tartibi; partiya va uning tashkilotlari mablag'larini shakllantirish hamda boshqa mol-mulkini sotib olish manbalari; partiya rahbar organi joylashgan manzil; partiya ustavi va dasturini qabul qilish, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish tartibi; partiya faoliyatini qayta tashkil etish yoki to'xtatish tartibi ko'rsatib o'tiladi.

Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. Siyosiy partiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun ustav qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy muddat ichida: partiya rahbar organining kamida uch a'zosi imzolagan ariza; ustav; dastur; ta'sis syezdi yoki konferensiyasining bayoni; ro'yxatdan o'tish yig'imi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjati; qonun talablari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan, mazkur partiyaga birlashish istagini bildirgan yigirma ming nafar O'zbekiston Respublikasi fuqarosining o'zlari imzo qo'ygan ro'yxati, saylab qo'yiladigan organlarning a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar, rahbar organ a'zolarining vakolatlari; shu jumladan, ro'yxatdan o'tkazish jarayonida yoxud munozaralar kelib chiqqan taqdirda sudda partiya nomidan ishtirok etish huquqi berilganligi to'g'risidagi partiya oliy organining qarori taqdim etiladi.

Siyosiy partiyani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza u tushgan kundan boshlab bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqish natijalariga binoan siyosiy partiyani ro'yxatga olish yoki ro'yxatga olishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qaror qabul qilingach, uzog'i bilan uch kun muddat ichida u siyosiy partiya rahbar organiga beriladi yoki pochta orqali jo'natiladi.

Siyosiy partiya ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi va u o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Siyosiy partiya ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi xabar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Agar siyosiy partiyaning ustavi, maqsadlari, vazifalari va faoliyat uslubi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonun hujjatlariga zid bo'lsa yoki oldinroq xuddi shunday nomdagi siyosiy

partiya yoki jamoatchilik harakati ro'yxatga olingan bo'lsa, bu partiya ro'yxatga olinmaydi.

Siyosiy partiyani ro'yxatga olish rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi taqdim etilgan hujjatlar qonun hujjatlarining qaysi qoidalariga zid ekanligini ko'rsatgan holda bu xususda partiya rahbar organining vakolatli a'zosiga yozma tarzda xabar qiladi. Ushbu siyosiy partiya rahbar organining vakolatli a'zolari ro'yxatga olish rad etilganligi to'g'risida xabarnoma olingan kundan e'tiboran bir oy ichida hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonun hujjatlariga butunlay muvofiq holga keltirgan taqdirdagina partiyani ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga takror murojaat etishga haqlidirlar.

Siyosiy partiyani ro'yxatga olishni rad etish ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonunni, boshqa qonun hujjatlarini yoki o'z ustavini buzgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonun hujjatlarining yoki ustavning qaysi normalari buzilganligini ko'rsatgan holda bu xususda partiya rahbar organlariga yozma tarzda xabar qiladi va bunday buzishlarni bartaraf etish uchun muddat belgilaydi. Agar buzishlar belgilangan muddat davomida bartaraf etilmasa, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi *siyosiy partiyaning faoliyatini olti oygacha muddatga to'xtatib turishi* mumkin.

Siyosiy partiyaning faoliyati to'xtatib turilgan taqdirda, shu muddat davomida partiyaning har qanday ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishi, saylovlarda ishtirok etishi man qilinadi.

Siyosiy partiyaning faoliyati:

– partiyaning o'z ustaviga muvofiq tarqalib ketishi orqali, bu haqda partiya oliy organi uch kunlik muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga xabar qiladi;

– partiya qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xatti-harakatlarni sodir etgan hollarda yoki o'z faoliyati to'xtatib qo'yilganidan so'ng bir yil muddat ichida o'sha xatti-harakatlarni takror sodir etgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining qarori bilan tugatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining siyosiy partiya faoliyati tugatilganligi to'g'risidagi rasmiy xabari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan kundan boshlab siyosiy partiyaning faoliyati tugaydi.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

1) o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;

2) saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

3) qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

4) partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

5) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

6) O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlarini o'rnatish.

Siyosiy partiyalarning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi fraksiyalari — siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida o'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi. Fraksiyalar fraksiyaning rahbari bergan tegishli ariza va ta'sis hujjatlariga asosan Oliy Majlis tomonidan ro'yxatga olinadi.

Siyosiy partiya fraksiyasining rahbari Oliy Majlis Kengashi tarkibiga kiradi.

Fraksiyalarning faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Kotibiyati tomonidan ta'minlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlaridagi partiya guruhlari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlar ta'sis yig'ilishlarida o'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi. Partiya guruhlari partiya guruhining rahbari bergan ariza yoki ta'sis hujjatlariga asosan tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ro'yxatga olinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlaridagi partiya guruhlarining fao-

liyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish shu organning tegishli tarmoq bo'linmalari tomonidan ta'minlanadi.

Siyosiy partiyalar mulkida – bino, inshoot, uskunalar, nashriyot, transport vositalari, shuningdek, ustavda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa mol-mulk bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonun[1]iga binoan ***siyosiy partiyalarni moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat***:

– kirish va a'zolik badallari, agar siyosiy partiyaning ustavida bunday badallar to'lash nazarda tutilgan bo'lsa;

– qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan qonun hujjatlariga muvofiq ajratiladigan mablag'lar;

– O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va fuqarolari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan xayriya yordami.

Qonuniylik, oshkoralik va siyosiy partiyalarning teng huquqliligi – *siyosiy partiyalarni moliyalashtirishning asosiy prinsiplaridir.*

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning mazkur partiyalar a'zolari va jamoatchilik uchun ochiqligi siyosiy partiyalarning o'zi tomonidan ta'minlanadi.

Siyosiy partiyalar o'z faoliyatining moliyalashtirilishi hajmi va manbalari haqida axborot e'lon qilib turishi kerak.

Siyosiy partiyalar moliyaviy va boshqa mablag'lardan qonunda hamda ustavlarida nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanadi. Bu mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalarning mol-mulki va pul mablag'lari siyosiy partiya a'zolari o'rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

Siyosiy partiyalarga, ularning muassasalari va tashkilotlariga bank muassasalarida bittadan ortiq hisob-kitob varag'iga, shuningdek, chet el banklarida hisobvaraqlarga ega bo'lish taqiqlanadi.

Siyosiy partiya, agar u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari boyicha «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuniga muvofiq Qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini olgan bo'lsa, o'zining ustavda

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2004, 5-son, 86-m.

nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi.

Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining yillik hajmi shu mablag'larni ajratish mo'ljallanayotgan yildan oldingi yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining ikki foizini qonunchilik palatasiga o'tkazilgan oxirgi saylovda saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolar soniga ko'paytmasi miqdorida shakllantiriladi.

Siyosiy partiyalarning qonunchilik palatasiga va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organlariga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish belgilangan tartibda faqat ana shu maqsadlar uchun ajratiladigan davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalarni saylovda boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish va moddiy jihatdan o'zgacha tarzda qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalarning qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining bir deputatlikka nomzod hisobiga to'g'ri keladigan miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Siyosiy partiyaning qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'lari shu partiyadan qonunchilik palatasi deputatligiga ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatga olingandan keyin ro'yxatga olingan nomzodlar soniga muvofiq hajmda siyosiy partiyaning hisob-kitob varag'iga belgilangan tartibda o'tkaziladi.

«Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonunga binoan *qonunchilik palatasiga saylovda siyosiy partiyalarning ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari siyosiy partiya tomonidan*:

1) saylovoldi ko'rgazmali tashviqot vositalarini nashr qilishga;

2) qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning televidenie, radio orqali va boshqa ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini tashkil etishga;

3) qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga;

4) qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakillari va bevosita saylov okrugida saylovoldi tashviqotini o'tkazish uchun jalb qilinadigan boshqa faollar ishini tashkil etishga;

5) saylov kompaniyasini o'tkazishga doir umumpartiyaviy tadbirlarga sarflanishi kerak.

Agar Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari boyicha siyosiy partiya fraksiya tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini ololmagan bo'lsa, siyosiy partiyaning Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari mazkur partiyaning boshqa manbalardan olgan mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qaytarilishi kerak.

Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalarining faoliyatini tashkiliy, texnikaviy jihatdan va boshqa tarzda ta'minlash uchun ajratiladigan davlat mablag'lari qonunchilik palatasining xarajatlar smetasida nazarda tutiladi.

Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish manbai O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag'laridir.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'lari siyosiy partiyalarning hisob-kitob varaqlariga belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Moliya yili uchun ajratilgan, lekin shu yil mobaynida siyosiy partiya tomonidan foydalanilmagan davlat mablag'lari moliya yili tugaganidan keyin bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qaytarilishi kerak.

Siyosiy partiya davlat mablag'larini olishdan voz kechishga haqli.

Siyosiy partiyani davlat tomonidan moliyalashtirish partiya faoliyati to'xtatib turilgan yoki tugatilgan taqdirda, *to'xtatib turiladi yoxud tugatiladi.*

Siyosiy partiya ustav faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki tugatish uchun quyidagilar ham asos bo'lishi mumkin:

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda siyosiy partiyaning qayta tashkil etilganligi (boshqa siyosiy partiyalarga qo'shib yuborish va qo'shib olish bundan mustasno);

– qonun talablarining siyosiy partiya tomonidan bajarilmaganligi;

– siyosiy partiya davlat mablag'laridan belgilanmagan maqsadda foydalanganligi, shu jumladan, ustavda nazarda tutilgan faoliyati uchun ajratilgan mablag'lardan saylovda ishtirok etishni moliyalashtirish uchun foydalanganligi.

Siyosiy partiya ustav faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Davlat tomonidan moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi qaror ustidan siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilishi mumkin.

Siyosiy partiya qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilganda siyosiy partiyaning huquqiy vorisi davlat tomonidan moliyalashtirilish huquqiga ega bo'ladi.

Siyosiy partiya xayriya yordamini faqat O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar bundan mustasno) va fuqarolaridan pul shaklida hamda mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tarzida va faqat ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun olish huquqiga ega.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasining bir yuridik shaxsidan bir yil mobaynida olgan xayriya yordami summasi xayriya yordami berilgan yilning 1-yanvaridagi holatiga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining besh ming baravaridan oshmasligi lozim.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasining bir fuqarosidan bir yil mobaynida olgan xayriya yordami summasi xayriya yordami berilgan yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining besh yuz baravaridan oshmasligi lozim. Ushbu cheklash siyosiy partiya a'zolari partiya ustaviga asosan to'laydigan a'zolik badallariga tatbiq etilmaydi.

Siyosiy partiyalarga pul mablag'lari shaklidagi, mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tariqasidagi (shu jumladan, grantlar ajratish, texnik yordam ko'rsatish, safarlar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida o'tkaziladigan treninglar, seminarlar, konferensiyalar bilan bog'liq xarajatlarga haq to'lash orqali) xayriya yordami quyidagilar tomonidan berilishiga yo'l qo'yilmaydi:

— chet davlatlar;

— chet davlatlarning yuridik shaxslari, ularning vakolatxonalari va filiallari;

— xalqaro tashkilotlar, ularning vakolatxonalari va filiallari;

— chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar;

— chet el fuqarolari;

— fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, diniy tashkilotlar va nomi yashirilgan yoki faqat taxallusi ko'rsatilgan shaxslar tomonidan siyosiy partiyalarga pul mablag'lari shaklida, mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tarzida xayriya yordami berilishiga ham yo'l qo'yilmaydi.

Siyosiy partiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda moliyaviy hamda buxgalteriya hisobdorligini amalga oshiradi.

Siyosiy partiya har yili qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda hamda tartibda moliya organlariga, davlat soliq xizmati organlariga, O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi va Adliya vazirligiga hisobot davrida olingan hamda sarflangan moliyaviy va boshqa mablag'lar to'g'risida moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

Siyosiy partiyaning moliyaviy hisobotida siyosiy partiyaning hisob-kitob varag'iga hisobot davrida kelib tushgan mablag'larning manbalari va miqdorlari to'g'risidagi, shu mablag'larning sarflanishi haqidagi, siyosiy partiyaning qiymati ham ko'rsatilgan mol-mulki to'g'risidagi, shuningdek, mazkur partiyaning davlat ro'yxatidan o'tganligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari va fuqarolaridan xayriya yordami pul mablag'laridan boshqa shaklda olingan taqdirda, siyosiy partiya uni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq pul ifodasida baholaydi va tegishli ma'lumotlarni, shu jumladan, xayriya yordami beruvchi haqidagi ma'lumotlarni siyosiy partiyaning moliyaviy hisobotiga kiritadi.

Siyosiy partiyaning moliyaviy hisobotida davlat mablag'larining kelib tushishi va sarflanishi alohida qismda nazarda tutiladi. Bunda siyosiy partiya tomonidan Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etish uchun sarflangan mablag'lar alohida hisobga olinadi.

Siyosiy partiyalar har yili barchaning e'tibori uchun o'z budjetlarini e'lon qiladi va o'z faoliyatini moliyalashtirish manbalari to'g'risida qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi.

Siyosiy partiyaning hisobotiga uning Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini va ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun hisobot yilida partiyaning hisob-kitob varag'iga kelib tushgan hamda sarflangan davlat mablag'lari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, hisob palatasi va Adliya vazirligining xulosasi ilova qilinadi.

Moliyaviy va boshqa mablag'larning kelib tushishi hamda siyosiy partiyalarning ulardan belgilangan maqsadda foydalanishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi amalga oshiradi.

Moliyaviy va boshqa mablag'larning kelib tushishini hamda siyosiy partiyalarning ulardan belgilangan maqsadda foydalanishini tekshirish Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida o'ndan bir qismidan iborat deputatlar guruhining murojaatiga binoan qonunchilik palatasi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

4-§. Kasaba uyushmalari

Kasaba uyushmalari – ko'ngilli jamoat tashkiloti bo'lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o'z a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan mehnatkashlarni birlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 59-moddasiga binoan, kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir.

Kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun[1]i bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunga binoan, mehnatkashlar, shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan shaxslar hech qanday tafovutsiz o'z xohishlariga ko'ra va oldindan ijozat olmay turib, ixtiyoriy ravishda kasaba uyushmalari tuzish huquqiga, shuningdek, ustavlarga rioya etish sharti bilan kasaba uyushmalariga kirish huquqiga egadirlar.

Mehnatkashlar korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda va boshqa ish joylarida kasaba uyushmalari tuzishga haqlidirlar.

Ishlamaydigan pensionerlarning kasaba uyushmasi a'zoligiga kirish yoki undan chiqish tartibi kasaba uyushmalarining ustavlari bilan yo'lga solib boriladi.

Kasaba uyushmalari ixtiyoriylik asosida respublika va boshqa hududiy hamda tarmoq birlashmalari tuzishlari, shuningdek, ularga kirishlari mumkin.

Kasaba uyushmalarining ustavlari «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.

Barcha kasaba uyushmalari teng huquqlardan foydalanadilar.

Kasaba uyushmalari o'z faoliyatida davlat boshqaruv idoralaridan, xo'jalik idoralaridan, siyosiy va boshqa jamoat tashkilotlaridan mustaqildirlar, ular oldida hisobdor emaslar va ular tomonidan nazorat qilinmaydilar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Kasaba uyushmalarining huquqlarini cheklaydigan yoki shu huquqlarning amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladigan tarzdagi har qanday aralashuv man etiladi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992, 9-son, 344-m.

Kasaba uyushmalari mustaqil ravishda:

– o'z ustavlarini ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar;

– uyushma tuzilishini belgilaydilar;

– rahbar idoralarini saylaydilar;

– o'z faoliyatlarini tashkil etadilar;

– yig'ilishlar, konferensiyalar, plenumlar, qurultoylar o'tkazadilar.

Kasaba uyushmalari o'z ustavlarida belgilangan maqsadlarga va vazifalarga muvofiq ravishda boshqa mamlakatlarning kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilish, o'z xohishiga ko'ra xalqaro va boshqa kasaba uyushmalari birlashmalariga va tashkilotlariga kirish huquqiga egadirlar.

Fuqarolarning kasaba uyushmalariga mansubligi yoki mansub emasligi ularning qonunlarda kafolat berilgan mehnat, ijtimoy-iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari va erkinliklari biron bir tarzda kamsitilishiga sabab bo'lmaydi. Mehnatkashlarni ishga qabul qilish, xizmat pog'onalariga ko'tarish, shuningdek, ishdan bo'shatish uchun muayyan kasaba uyushmasiga mansublikni, unga kirish yoki undan chiqishni shart qilib qo'yish taqiqlanadi.

«Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunga binoan ***kasaba uyushmalari faoliyatini to'xtatish:***

1) uning a'zolari qarori asosida ustavda belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

2) ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga zid bo'lgan hollarda, bu faoliyat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining qarori bilan taqiqlanishi mumkin.

Kasaba uyushmalari faoliyatini boshqa biron bir idoraning qarori bilan taqiqlashga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi mehnatga va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid qonun hujjatlari ishlab chiqishda qatnashish huquqiga egadir.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi mehnatga va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid normativ hujjatlar qabul qilish to'g'risidagi takliflarni tegishli davlat boshqaruvi, xo'jalik va kooperativ idoralariga taqdim etishga haqlidir.

Davlat boshqaruvi va xo'jalik idoralari mehnatkashlarning mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari hamda manfaatlariga daxldor normativ hujjatlarni O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashini kamida bir hafta oldin xabardor etgan holda qabul qiladilar.

«Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunga binoan ***kasaba uyushmalari***:

1) o'z a'zolarining mehnat qilish huquqini himoya etadilar;

2) aholini ish bilan ta'minlash davlat siyosati ishlab chiqilishida qatnashadilar;

3) korxonalarda ishdan holi etib olinadigan shaxslarni ijtimoiy jihatdan himoya qilishning qonunlar asosida jamoa shartnomasida belgilab qo'yiladigan choralarini taklif etadilar;

4) aholini ish bilan ta'minlashning ahvolini va bu sohadagi qonunlarga rioya etilishini nazorat qilib boradilar;

5) ma'muriyat, mulkdor yoki ular vakil qilgan boshqaruv idorasi bilan jamoa muzokaralari olib borishda va jamoa shartnomalari, bitimlari tuzishda ustuvor huquqqa egadirlar, ularning bajarilishini nazorat qiladilar;

6) mehnat sharoiti va mehnatga haq to'lash, mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashga, mehnatkashlarning uy-joy sharoitiga, ularni ijtimoiy sug'urtaga, ularni sog'liqni saqlash va madaniyatga taalluqli manfaatlarini, pensiya ta'minoti sohasidagi huquqlarini himoya qiladilar;

7) o'z vakolatlari doirasida mehnatkashlarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoya qilish tadbirlarini ishlab chiqishda, turmush darajasining asosiy mezonlarini, narx-navo indeksi o'zgarishiga qarab tovon to'lash miqdorini aniqlashda qatnashadilar, qonunda belgilab qo'yilgan kun kechirishning eng past darajasiga hamda pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdoriga rioya etilishini nazorat qiladilar;

8) ma'muriyat, mulkdor yoki ular vakil qilgan boshqaruv idorasi mehnat va kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunlarga rioya etishlarini nazorat qilib boradilar, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilishga haqlidirlar;

9) mehnatkashlarning mehnat huquqlarini himoya qilib, da'vo ariza bilan sudga murojaat qilishga haqlidirlar;

10) kasaba uyushmasi a'zosi bilan ma'muriyat o'rtasida paydo bo'lgan yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiqadi va ular yuzasidan qonunlarga muvofiq tegishli qarorlar qabul qiladilar;

11) mehnatga doir amaldagi qonunlarning jamoa shartnomasi, bitimi shartlarining buzilishi, mehnat va turmushning yangi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini belgilash yoki mavjud shart-sharoitlarini o'zgartirish bilan bog'liq masalalarga doir jamoa mehnat nizolarini ko'rib chiqishda qatnashadilar;

12) ma'muriyatdan, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralaridan mehnat hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan

bog'liq masalalar yuzasidan belgilab qo'yilgan statistika hisoboti doirasida bepul ma'lumotlar olishga haqlidirlar;

13) ma'muriyat jamoa shartnomasi shartlarini buzuvchi qaror qabul qilgan taqdirda, kasaba uyushmalari ana shu qoidabuzarlikni bartaraf etish to'g'risida ma'muriyatga taqdimnoma kiritishga haqlidir;

14) O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda aholining ko'chib yurishi, ish bilan ta'minlanishi, mehnat, narx-navo belgilash va ijtimoiy ta'minot masalalariga doir davlatlararo bitimlar tuzilishida, xalq deputatligiga nomzodlar ko'rsatilishda, saylov mavsumida ularni qo'llab-quvvatlashda ishtirok etishlari mumkin.

Davlat va xo'jalik idoralarining ma'muriyati, jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar kasaba uyushmalarining huquqlariga rioya etishlari, ularning faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashishlari shart. Bu idoralar va shaxslar, kasaba uyushmalari huquqlarini buzganliklari yoki ularning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilganliklari uchun qonunlarda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Davlat va xo'jalik idoralarining ma'muriyati jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar kasaba uyushmalarining vakillari shu kasaba uyushmasi a'zolari ishlayotgan korxonalarga ustavda belgilangan vazifalarni va qonunlarda belgilab qo'yilgan huquqlarni amalga oshirish uchun kirishlariga to'sqinlik qilishga haqli emas.

Quyidagilarga intizomiy jazo berilishi mumkin emas:

— ishlab chiqarishdagi ishidan ozod qilinmagan holda kasaba uyushmalari idoralari tarkibiga saylangan xodimlar shu idoraning roziligi olinmasdan turib;

— korxona bo'linmalaridagi kasaba uyushmalari idoralarining rahbarlari — tegishli kasaba uyushmasi idorasining roziligi olinmasdan turib;

— korxonadagi kasaba uyushmasi idoralarining rahbarlari, kasaba uyushmasi tashkilotchilari — tegishli kasaba uyushmasi birlashma-sining roziligi olinmasdan turib.

Ishlab chiqarishdagi asosiy ishidan ozod qilinmagan holda kasaba uyushmasi idoralari tarkibiga saylangan shaxslarni ma'muriyat tashabbusi bilan ishdan bo'shatishga, ishdan bo'shatishning umumiy tartibiga rioya qilishdan tashqari, ular a'zo bo'lgan kasaba uyushmasi idorasining roziligi olingandan keyingina, korxonadagi kasaba uyushmasi idoralarining raislari va a'zolarini ma'muriyatning tashabbusi bilan ishdan bo'shatishga esa yuqoridagilardan tashqari, faqat tegishli kasaba uyushmasi birlashmasining roziligi olinganidan keyingina yo'l qo'yiladi.

Kasaba uyushmasi tashkilotchilari va kasaba uyushmasi guruhlari tashkilotchilarini ma'muriyat tashabbusi bilan ishdan bo'shatishga tegishli kasaba uyushmasi birlashmasi idorasining roziligi olingan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Kasaba uyushmalari saylab qo'yiladigan idoralarining ishlab chiqarishda o'zining asosiy ishidan ozod qilinmagan a'zolariga jamoat shartnomasi, bitimida belgilab qo'yiladigan shartlarga muvofiq, jamoa manfaatlari yo'lida jamoatchilik vazifalarini bajarishlari uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda, ishdan bo'sh vaqt beriladi, shuningdek, qisqa muddatli kasaba uyushmasi o'quviga qatnagan vaqtlarida, ularning o'rtacha ish haqi saqlab qolinadi.

Kasaba uyushmalarining saylab qo'yiladigan idoralari a'zolari delegat sifatida kasaba uyushmalari tomonidan chaqiriladigan qurultoylarda, konferensiyalarda, shuningdek, kasaba uyushmalarining plenumlari va rayosatlari ishida qatnashgan vaqtlari uchun kasaba uyushmalari mablag'i hisobidan o'rtacha ish haqi miqdorida haq to'lanib, ishlab chiqarishdagi ishlaridan ozod qilinadilar.

Kasaba uyushma idoralaridagi saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanganligi tufayli ishdan ozod qilingan xodimlarga saylov vakolatlari tugaganidan so'ng avvalgi o'z ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) bo'lmagan taqdirda, o'sha korxonada yoki xodimning roziligi bilan boshqa korxonada avvalgisiga teng keladigan boshqa ish (lavozim) beriladi.

Tegishli ish (lavozim) berish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, oldingi ish joyidagi korxona ma'muriyati, korxona tugatilgan taqdirda esa kasaba uyushmasi xodim uchun ishga joylashish davrida o'rtacha ish haqini saqlab qoladi, lekin bu muddat olti oydan oshmasligi kerak, malakasini o'zgartirish uchun o'qish chog'ida esa bir yil muddatgacha o'rtacha ish haqi saqlab turiladi.

Kasaba uyushmasi idoralari tarkibiga saylangan xodimlarning saylov vakolatlari tugaganidan so'ng ikki yil davomida ma'muriyat tashabbusi bilan ishdan bo'shatilishiga yo'l qo'yilmaydi, korxonaning butunlay tugatilishi yoki xodimning qonunga muvofiq ishdan bo'shatilishiga olib keladigan xatti-harakatlar sodir etish hollari bundan mustasnodir.

Kasaba uyushmalari va ularning idoralari qonunlarga muvofiq yuridik shaxs hisoblanadilar.

Kasaba uyushmalari mulkka egalik huquqi asosida o'zlariga qarashli bo'lgan mol-mulk va pullarga egalik qiladilar, ulardan foydalanadilar va ularni tasarruf etadilar. Kasaba uyushmalari davlat, xo'jalik, kooperativ va boshqa jamoat tashkilotlarining majburiyat-

lari uchun javob bermaydilar, o'z navbatida ular ham kasaba uyushmalarining majburiyatlari uchun javob bermaydilar.

Kasaba uyushmasi budjeti mablag'ining manbalari, mablag'ni shakllantirish va undan foydalanish tartibi kasaba uyushmalari ustavida belgilab beriladi.

Kasaba uyushmalarining moliyaviy faoliyati ularning o'z ustavlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Kasaba uyushmalariga qarashli korxonalar va tashkilotlar daromadlarining manbalari, ular olgan mablag' miqdori va to'lagan soliq miqdori davlat moliya idoralari va soliq inspeksiyalari tomonidan qonunlarga muvofiq ravishda nazorat qilinadi.

Kasaba uyushmalari o'z ustavlarida qayd etilgan maqsad va vazifalarga muvofiq ravishda belgilab qo'yilgan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, kasaba uyushmalarining banklarini, sug'urta va aksionerlik jamiyatlarini, qo'shma tijorat korxonalarini barpo etish, noshirlik faoliyati bilan shug'ullanish, turli fondlar tuzish huquqiga egadirlar.

Jamoa shartnomasi tuzish chog'ida qabul qilingan qarorga muvofiq korxona kasaba uyushmalariga o'z balansida turgan yoki o'zi ijaraga olgan binolar, xonalar, inshootlar va boshqa obyektlarni, shuningdek, dam olishni tashkil etish, mehnatkashlar va ularning oila a'zolari bilan madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan dam olish maskanlarini, bolalar-o'smirlar lagerlari va boshqa sog'lomlashtirish lagerlarini bepul foydalanish uchun beradi.

Korxona kasaba uyushmalariga jamoa shartnomasida belgilangan maqsadlar uchun qonunlarda belgilab qo'yilgan miqdorda mablag' o'tkazadi.

Korxonada ish olib boradigan kasaba uyushmalarining faoliyati uchun boshqa moddiy sharoitlarni yaratish jamoa shartnomasi (bitimi) bilan tartibga solinadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Nodavlat notijorat tashkilotlar.
2. Jamoat birlashmalari.
3. Siyosiy partiyalar.
4. Kasaba uyushmalari.

UCHINCHI BO'LIM

MA'MURIY-HUQUQIY SHAKLLAR

12-bob. MA'MURIY-HUQUQIY SHAKLLAR VA ULARNING TURLARI

1-§. Ma'muriy-huquqiy shakllar tushunchasi

Shakl – bu ma'lum bir hodisa yoki harakat mazmunining tashqi ko'rinishidir. Masalan, ta'lim jarayoni – ma'ruzalar yoki amaliy mashg'ulotlarni olib borish (ya'ni ta'lim shakllari) orqali namoyon bo'ladi.

Har qanday faoliyat singari davlat boshqaruvi faoliyati ham, ma'lum bir shakllarda ifodalanadi. Davlat boshqaruvi shunday jarayonki, unda ko'pgina shaxslar, tashkilot va organlar ishtirok etadi. Bu jarayonda ijro hokimiyati organlarining (boshqaruv faoliyati asosiy subyektining) vazifalari, funksiyalari va vakolatlari amalga oshirilganligi sababli, birinchi navbatda mazkur hokimiyat subyektlari faoliyati shakllari muammosi vujudga keladi. Ushbu faoliyatning shakllarini aniqlash orqali davlat-boshqaruv faoliyatining mazmunini chuqurroq anglash mumkin.

Boshqaruv shakli, Yu.N.Starilovning fikricha, davlat organi, uning tarkibiy bo'linmalari va mansabdor shaxslar faoliyatining ma'lum bir qismi hisoblanadi. Boshqaruvning shakli – aniq subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan ma'lum bir harakatlarda ifodalanib, boshqaruv faoliyatining, boshqaruv ta'sirining mazmunini yoritib beradi. Boshqaruv shakllari huquqiy mazmunga ega, ya'ni normativ huquqiy akt orqali o'rnatiladi. Ba'zi hollarda boshqaruv shakllari normativ o'rnatilmagan bo'lishi ham mumkin va bularni boshqaruvning huquqiy shakllari jumlasiga kiritish mumkin emas.[1]

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С.305.

Ma'lumki, davlat hokimiyati uning har qanday ko'rinishida ham o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi. Balki, o'zini namoyon qilish maqsadida, davlat — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud sohasida harakat qilishi lozim bo'ladi. Aynan uning tegishli subyektlarining aniq harakatlarida mazkur hokimiyatning mazmuni va yo'nalishlari namoyon bo'ladi.

Boshqaruv organlari (mansabdor shaxslar) o'zlarining kundalik amaliy faoliyatlarida turli xildagi harakatlarni amalga oshiradilar. Bunda davlat organining yoki uning vakili (mansabdor shaxs)ning kompetensiyasi — u yoki bu boshqaruv sohasida ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini belgilab beradi. Jumladan, ba'zi bir ijro hokimiyati organlari qonunosti huquqiy normalarni, ya'ni davlat boshqaruvi jarayonida yoki uning ayrim sohalarida xulq-atvor qoidalarini o'rnatish vakolatiga; boshqalari esa, boshqaruv munosabatlarining u yoki bu subyektiga qaratilgan aniq yuridik hokimiyat ko'rsatmalarini berish vakolatiga; uchinchisi esa, kontrol-nazorat funksiyalarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lishi mumkin. Ularning barchasi o'z faoliyatlarini yoki bo'ysinuvchi subyektlarning faoliyatini tashkil etish maqsadida ma'lum bir harakatlarni amalga oshiradilar; turli ko'rinishlardagi fuqarolar va jamoat birlashmalarining ehtiyojlarini qondiradilar.

Ijro hokimiyati subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan turli xildagi harakatlar — davlat boshqaruvining mazmun-mohiyatini ifoda etadi, boshqaruv vazifalari va funksiyalari, ya'ni davlat-boshqaruv faoliyati qanday amalga oshirilishi to'g'risida tasavvur hosil qilishga olib keladi.

Ijro hokimiyati organlari o'zining funksiyalarini bevosita davlat nomidan amalga oshirar ekan, ular faoliyatining tashqi ko'rinishi (shakli) huquq normalari bilan tartibga solingan bo'lishi kerak. U yoki bu davlat organining huquqiy maqomini belgilab beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar, ular faoliyatining tashqi ko'rinishi (shakllari)ni ham belgilab beradi.

X.R.Alimovning fikricha, davlat boshqaruvi funksiyalari va uslublari uning mazmunini tashkil etadi. Har qanday faoliyat mazmuni ma'lum bir shaklga, ya'ni tashqi ko'rinishga ega bo'lishi lozim. Shu sababli, boshqaruv faoliyatining shakli deganda — uning mazmuni tashqi ko'rinishining u yoki bu usulini tushunish lozim.[1]

---

[1] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / — Т.: «Адолат», 1999. С.173—174.

Yu.M.Kozlovning fikricha, boshqaruv faoliyatining shakllari – ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar) harakatining tashqi ifodalanishi bo'lib, ularning kompetensiyasi doirasida amalga oshiriladi va ma'lum bir oqibatlarni vujudga keltiradi. Mazkur subyektlarning harakatlari – o'zining xususiyati, ahamiyati va vujudga keltiruvchi oqibatlariga ko'ra turli xildir.

Boshqaruv shakllari:

a) ijro hokimiyatini amalga oshirish shakllari;

b) ichki apparat xususiyatidagi faoliyat shakllari sifatida namoyon bo'ladi.[1]

A.G.Chernyavskiy ham Yu.M.Kozlov singari boshqaruv shakllarini ijro hokimiyati organlari faoliyatining tashqi ko'rinishini ifodalanishini va ularning vakolat doirasida amalga oshirilishini ko'rsatib, boshqaruv shakllariga to'g'ridan-to'g'ri yuridik ta'sir ko'rsatmaydigan shakllarni ham kiritadi. Uning fikricha, boshqaruv shakllari – boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati mohiyatini ifodalaydi. Boshqaruv shaklini tanlash – davlat funksiyalarini maqsadga muvofiq bajarish, boshqaruvning maqsadiga erishish uchun kam vaqt talab etadigan kuch va vositalardan foydalanishni belgilab berishi lozim.[2]

Boshqaruv shakllarining mazmun-mohiyatini ochib berishda «boshqaruvning maqsadi», «boshqaruv funksiyalari», «boshqaruv vazifalari», «vakolat», «kompetensiya» singari terminlarga alohida e'tiborni qaratish lozim. Mazkur tushunchalar aniq bir boshqaruv sohasida *boshqaruv uslubi*ni tanlashda ham xizmat qiladi. *Boshqaruv funksiyalari* – boshqaruv faoliyatining mazmunini belgilab beradi. *Boshqaruv maqsadi*ga – boshqaruv subyektlari tomonidan foydalaniladigan barcha boshqaruv shakllari bo'ysindirilgan. Boshqaruv organlari boshqaruv shakllari orqali o'zlarining *vakola*tlarini, *kompetensiya*sini amalga oshiradi.

Boshqaruvning maqsadiga erishish uchun boshqaruv shakllari – boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, boshqaruv jarayonining mazmuni *boshqaruv funksiyalari, boshqaruv uslublari* va *boshqaruv shakllari* orqali yoritib beriladi. Boshqaruv nazariyasi aynan mana shu kategoriyalarga asos-

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право. Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Юрист», 2003. С. 139–140.

[2] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право: Учебник. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 204–205.

lanadi. Boshqaruv amaliyoti esa mazkur kategoriyalarning rivojlanishiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Boshqaruv shakllari boshqa hokimiyat organlari faoliyatining shakllaridan, ya'ni qonun ijodkorligi (qonunchilik faoliyati) va odilsudlov (sud faoliyati)dan farq qiladi. Boshqaruv shakllari davlat va jamiyat hayotining, boshqaruvning barcha sohalarida davlat funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

G'arbiy Yevropaning ma'muriy huquq darsliklarida boshqaruvning bir necha turlari ko'rib chiqilgan. Masalan, nemis olimlari tomonidan boshqaruvning quyidagi shakllari ko'rsatib o'tiladi:

1) huquq ijodkorligi (qarorlar, ustavlar, ma'muriy ko'rsatmalar);

2) ma'muriy aktlar;

3) ommaviy-huquqiy shartnomalar;

4) oddiy ma'muriy harakatlar;

5) xususiy-huquqiy ma'muriy faoliyat (masalan, subsidiyalar berish).[1]

Bunda nemis olimlari tomonidan boshqaruv qarorlarining ko'pgina turlari tahlil qilinib, ommaviy boshqaruvni amalga oshirishda rejalashtirishning katta ahamiyatga ega ekanligi alohida ko'rsatib o'tiladi.

Boshqaruv aktlarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, boshqaruv faoliyatida ulardan foydalanish orqali davlat organlarining vakolatlari amalga oshiriladi, boshqaruv tartibi, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, boshqaruv harakatlarining qonuniyligi, oshkoralik va ijtimoiy fikrni hisobga olish va boshqalar ta'minlanadi.

Boshqaruv organlari va mansabdor shaxslar har bir holatda aniq boshqaruv shaklini qo'llaydilar. Boshqaruv harakatlarining u yoki bu shaklini tanlash esa ma'lum bir qoidalar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, ular mazkur organ (mansabdor shaxs) kompetensiyasiga, yo'nalishiga (ahamiyatiga), boshqaruv faoliyatining funksiyalari va uslublariga, hal qilinadigan masalalar xususiyatiga, boshqaruv ta'siri maqsadlariga, aniq obyekt xususiyatlariga mos kelishi kerak. Boshqaruv shakllari tegishli boshqaruv organi (mansabdor shaxs) faoliyati doirasiga kiruvchi obyektlargagina qo'llanilishi mumkin.

---

[1] Рихтер И., Шупперт Г.Ф. Судебная практика по административному праву: Учеб. Пособие. Пер. с нем. — М.: 2000. С. 135–492.

Boshqaruv organlari o'z vazifa va funksiyalarini amalga oshirish jarayonida turli xildagi ma'muriy-huquqiy shakllardan foydalanadilar. *Boshqaruv faoliyati shakllari* – boshqaruv faoliyati mazmuniga mos kelishi kerak, ya'ni boshqaruvning u yoki bu funksiyasini amalga oshirishda maqsadga muvofiq va kam vaqt talab etadigan kuch va vositalardan foydalanish lozimdir.

Davlat boshqaruvi jarayonida normativ huquqiy hujjatlar (ustavlar, nizomlar, instruksiyalar) bilan o'rnatilgan boshqaruv shakllaridan foydalaniladi. Boshqacha aytganda, boshqaruv jarayonida davlatning u yoki bu vazifasini hal etish, u yoki bu funksiyasini amalga oshirishning *ruxsat berilgan* (ya'ni normativ hujjatlar bilan belgilangan) shakllaridan foydalaniladi. Aks holda, boshqaruv harakatlari va ularning mazmuni shubha ostiga olinishi, normativ hujjatlar talabiga mos kelmasligi mumkin. Lekin bu boshqaruv subyektining o'z xohishiga ko'ra harakatlanish imkoniyatidan mahrum etilganligini anglatmaydi. Boshqaruv subyekti har bir holat boyicha boshqaruv vazifalarini hal etish jarayonida u yoki bu shaklni tanlashga ijodiy yondoshishi mumkin.

Boshqaruv shakllaridan foydalanishning samaradorligi – ularning protsessual shaklini o'rnatish orqali ta'minlanadi. Boshqacha aytganda, boshqaruv faoliyati *huquqiy* (ma'muriy-huquqiy) tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak. Unda boshqaruv harakatlarini amalga oshirishning asoslari, ularni amalga oshirish zaruriyati, boshqaruv qarorlari loyihalarining eng muhim jihatlari, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish, boshqaruv qarorlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish nazarda tutilishi lozim.

2-§. Ma'muriy-huquqiy shakllarning turlari

Davlat boshqaruvi faoliyatining tashqi ko'rinishlari turli xil bo'lganligi sababli, uni har xil asoslarga ko'ra tasniflash mumkin.

Ko'pgina ma'muriy huquq darsliklarida boshqaruv organlari faoliyatining tashqi ko'rinishi «*davlat boshqaruvi shakllari*», ba'zilarida «*boshqaruv harakatlari*», uchinchisida esa "*ijro hokimiyatini amalga oshirish shakllari*» sifatida talqin qilinadi. Lekin bularning barchasi ma'muriy-huquqiy shakllar bo'lib, yagona maqsadga qaratilgandir.

Amaliyotda boshqaruv shakllarini tanlash ko'pgina holatlarga, masalan, ijro hokimiyati organi (mansabdor shaxs)ning kompetensiyasi, boshqaruv obyekti xususiyatlari (fuqaro yoki tashkilot), boshqaruv harakatlarini amalga oshirish maqsadlari (boshqaruv

ta'siri yoki o'z faoliyatini tashkil etish), mazkur harakatdan kelib chiqadigan oqibatlarning xususiyatlari, ushbu harakatlarning huquqiy tartibga solinganlik darajasi va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Ijro hokimiyatini amalga oshirishga qaratilgan harakat (shakl)-lar, albatta, huquqiy tartibga solingan bo'ladi. Masalan, bunga — hamma vaqt aniq yuridik oqibatlarni keltirib chiqaruvchi huquqiy aktlarni qabul qilishga qaratilgan harakatlarni kiritish mumkin.

Umumiy asoslarga ko'ra, ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar) qonun talablari va kompetensiya doirasidan chetga chiqmagan holda, o'z faoliyatlarining shakllarini tanlashda mustaqildirlar.

Boshqaruv shakllari turli yuridik ahamiyatga ega bo'lgan ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Ularning ba'zi birlari konstitutsiyaviy normalar (masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti) va qonunlar bilan (masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi), boshqalari esa qonunosti aktlari bilan (masalan, vazirlik, davlat qo'mitasi) tartibga solinadi. Davlat organlarining ichki tashkiliy faoliyati shakllari ham ma'lum bir normalar bilan tartibga solingan bo'lib, tashkilot ichidagi u yoki bu organning faoliyati doirasida bo'ladi (masalan, instruksiyalar, yo'riqnomalar).

Davlat boshqaruvi shakllari boyicha keng doirada ilmiy tadqiqotlar E.Starossyak tomonidan olib borilgan bo'lib, uning monografiyasida boshqaruv shakllarining quyidagi turlari ko'rsatib o'tilgan:

birinchidan — umummajburiy normalarni o'rnatish;

ikkinchidan — ma'muriy aktlarni qabul qilish;

uchinchidan — shartnomalarni tuzish;

to'rtinchidan — ijtimoiy-tashkiliy faoliyatni amalga oshirish;

beshinchidan — moddiy-texnik harakatlarni bajarish.[1]

Yu.M.Kozlov boshqaruv shakllariga to'xtalib, ularni ikki guruhga ajratadi:

1) ***huquqiy shakllar*** — hamma vaqt ma'lum bir yuridik oqibatlarni vujudga keltiradigan harakatlar. Bu huquqiy oqibatlarni bevosita keltirib chiqaruvchi ijro hokimiyati subyektlarining har qanday harakatlari hisoblanadi. Bunday harakatlarda yuridik hokimiyat vakolatlari o'z ifodasini topadi. Mazkur guruhga kiruvchi harakatlarning xususiyatlari — boshqaruvning huquqiy aktlarida yaqqol namoyon bo'ladi;

---

[1] Старостсяк Е. Правовые формы административной деятельности. — М.: 1959. С. 47.

2) ***nohuquqiy shakllar*** – ushbu shakllar boshqaruvning huquqiy aktlarini qabul qilishni nazarda tutmaganligi sababli, yuridik oqibatlarni to'g'ridan-to'g'ri vujudga keltirmaydi. Ular huquqiy shakllarga xos bo'lgan - ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi. Nohuquqiy shakllar huquqiy shakllarni qo'llashga yoki ularni keyinchalik amalga oshirilishiga ko'maklashuvchi turli xildagi tashkiliy harakatlar hisoblanadi.[1]

Yu.N.Starilovning fikricha, boshqaruvning huquqiy shakllari huquqiy mazmunga ega bo'lib, tegishli huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradi. Boshqaruvning huquqiy shakllari quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

birinchida, – ularning normativ aktlarda ifodalanganligi;

ikkinchidan – davlat-hokimiyat tabiatiga ega ekanligi;

uchinchidan – boshqaruv harakatlarining va boshqaruv organlari (mansabdor shaxslar) vakolatlarining qonunosti xususiyatiga ega ekanligi;

to'rtinchidan – uning mazmunini – ijro etish va farmoyish berish faoliyatini tashkil etishi.

Yu.N.Starilov boshqaruv shakllarining quyidagi turlarini ko'rsatib o'tadi:

1) normativ huquqiy aktlarni qabul qilish;

2) individual huquqiy aktlarni qabul qilish;

3) ommaviy-huquqiy shartnomalarni tuzish (masalan, ma'muriy shartnomalarni, xalqaro bitimlarni);

4) qonun va boshqaruv akti asosida yuridik ahamiyatli harakatlarni amalga oshirish (ma'muriy bayonnomalarni tayyorlash, davlat ro'yxatini olib borish, farmoyish berish va nazorat tadbirlarini amalga oshirish, ma'lum bir faoliyat turini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi hujjatlarni berish);

5) tashkiliy harakatlarni amalga oshirish;

6) moddiy-texnik harakatlarni bajarish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan boshqaruv shakllarining birinchi to'rtta guruhi – huquqiy, qolganlari esa nohuquqiy hisoblanadi.

Bundan tashqari, boshqaruvning huquqiy shakllari ikkiga: a) ommaviy-huquqiy; b) xususiy-huquqiy bo'lishi mumkin.

Boshqaruvning ommaviy-huquqiy shakli – ommaviy huquq bilan o'rnatiladi va mustaqil boshqaruv vakolatlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi. Boshqaruvning xususiy-huquqiy shakli

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право. Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Юрист», 2003. С.142.

ma'lum bir darajada fuqarolik huquqi normalari bilan ham tartibga solinadi. Lekin ulardan ommaviy boshqaruv oldiga qo'yilgan maqsadga erishish va uning vazifalarini hal etish uchun foydalaniladi.[1]

Boshqaruv shakllarining huquqiy va nohuquqiy shakllarga bo'linishi, ularning boshqa turlarga ham tasniflanishini inkor etmaydi. Boshqaruv jarayonidagi barcha harakatlarni boshqaruv huquqiy aktlari jumlasiga kiritish mumkin emas. Ijro hokimiyati organlari o'z faoliyatlarida boshqa yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni ham, amalga oshirishlari mumkin.

A.G.Chernyavskiy barcha boshqaruv shakllarini — huquqiy shakllar sifatida ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, huquqiy shakllar ham, nohuquqiy shakllar ham ma'lum bir ma'noda huquqiy bo'lib, tegishli yuridik bazaga ega, shuningdek, huquqiy aktlar va ko'rsatmalarga asoslanadi. Har qanday boshqaruv shakli asosida huquq talabi turadi. Boshqaruv shakllari — bu harakatlar va huquqiy aktlar yig'indisi bo'lib, qonunchilik hujjatlari asosida ma'muriy huquq subyektlariga tegishli bo'lgan maqsad va vazifalar, funksiyalar va vakolatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi hamda ular quyidagilarga bo'linadi:

a) normativ huquqiy aktlarni qabul qilish;
b) individual (ma'muriy) aktlarni qabul qilish;
d) shartnomalarni tuzish;
e) tashkiliy harakatlarni bajarish;
f) moddiy-texnik operatsiyalarni amalga oshirish.[2]

Boshqa huquqshunos olimlar[3] esa ma'muriy huquqiy shakllarning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tishadi:

1) ***yuridik ifodalanishiga*** **ko'ra**: *asosiy* (huquqiy aktlarni qabul qilish, ma'muriy shartnomalarni tuzish, qimmatli qog'ozlarni chiqarish) va ularga *asoslanuvchi*, ya'ni ma'lum bir yuridik oqibatlarni keltirib chiqaruvchi va yuridik yo'nalishga ega bo'lgan harakatlar (masalan, ro'yxatga olish, ruxsat berish, kontrol, nazorat, litsenziya berish, cheklash va h.k.lar).

Boshqaruv harakatlari hamma vaqt huquqiy aktlarni qabul qilishga yoki ma'muriy shartnomalarni tuzishga sabab bo'luvchi yuridik ahamiyatli hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liqdir. Shu

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004. С. 310—311.

[2] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право: Учебник. — М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 205—206.

[3] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. — М.: «ЗЕРЦАЛО», 1998. С. 225-226.

sababli yuridik ahamiyatli harakatlarni sodir etish (shuningdek, taftish o'tkazish, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomani tuzish va h.k.lar) boshqaruv organlari (mansabdor shaxslar) faoliyatining huquqiy shakllari jumlasiga kiradi. Bunday tashkiliy-huquqiy harakatlarning oqibati, shuningdek, yuridik ahamiyatli hujjatlarni tuzish (taftish akti, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma) nafaqat huquqiy aktlarni qabul qilishga, balki ularga huquqiy asos bo'lib ham xizmat qiladi;

2) ***kelib chiqadigan oqibatlarga*** **ko'ra**: *ijobiy tartibga soluvchi harakatlar* yoki davlat boshqaruvi sohasidagi *salbiy holatlarga ta'sir ko'rsatuvchi harakatlar*;

3) ***yo'nalishiga ko'ra***: davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi harakatlar (*tashqi yo'nalish*) yoki bo'ysinuvchi boshqaruv personaliga ta'sir ko'rsatuvchi harakatlar (*ichki yo'nalish*);

4) ***hajmiga ko'ra***: *umummajburiy* yoki *aniq obyektga qaratilgan harakatlar*;

5) ***subyekt tomonidan ifodalanishiga*** **ko'ra**: *bir tomonlama ifoda etiladigan harakatlar* (masalan, huquqiy aktlar) yoki *ikki va ko'p tomonlama ifoda etiladigan harakatlar* (masalan, ma'muriy huquqiy shartnomalar);

6) ***qo'llash tashabbusiga ko'ra***: *ijro hokimiyati subyektlari va mahalliy ma'muriyat tashabbusiga ko'ra* yoki *yuqori turuvchi organ tashabbusiga ko'ra* yoxud *boshqaruv munosabatlari boshqa ishti-rokchilarining tashabbusiga ko'ra* qo'llaniladigan harakatlar;

7) ***qo'llash shartlariga ko'ra***: *normal sharoit* yoki *favqulodda (harbiy) holat* tartibida qo'llaniladigan harakatlar;

8) ***davlat hokimiyatining boshqa subyektlariga bo'lgan munosabatga ko'ra***: *qonunchilik (vakillik) organlari* yoki *sud organlari* bilan bo'ladigan munosabatlarda qo'llaniladigan harakatlar;

9) ***boshqaruv obyektining xususiyatlariga*** **ko'ra**: *yuridik shaxslar* yoki *fuqarolarga qaratilgan harakatlar*;

10) ***yuridik mazmuniga ko'ra***: *ruxsat beruvchi, taqiqlovchi, ko'rsatma beruvchi* harakatlar;

11) ***kompetensiya doirasiga kiruvchi masalalarni hal etish xususiyati va uslubiga ko'ra***: *protsedurali* (masalan, boshqaruv qarorini tayyorlash va qabul qilish) va *protsessual* (masalan, ma'muriy ish yuritish jarayonidagi) harakatlar.

Yu.N.Starilov o'zining ilmiy ishlarida, boshqaruvni amalga oshirishning ommaviy-huquqiy shakllari bilan xususiy-huquqiy shakllar o'rtasidagi chegarani aniq belgilashni ko'rsatib, ommaviy-

huquqiy shakllarni uch guruhga bo'ladi: a) *huquqni o'rnatish*; b) *ommaviy boshqaruv irodasini o'rnatish*; d) *aniq ma'muriy aktlar.*[1]

X.R.Alimovning fikricha, boshqaruv faoliyati shakllari:

1) ***huquqiy shakllar***:

a) *huquq normalarini o'rnatish* (boshqaruv aktlarini qabul qilish);

b) *huquq normalarini qo'llash* (amaldagi huquq normalari asosida yuridik ahamiyatli harakatlarni amalga oshirish);

2) ***nohuquqiy shakllar***:

a) *tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish*;

b) *moddiy-texnik operatsiyalarni amalga oshirish.* [2]

Ba'zi yuridik adabiyotlarda «boshqaruv shakllari» atamasi o'rnida «*ma'muriy huquq subyektlari tomonidan vakolatlarni amalga oshirishning huquqiy shakllari*» tushunchasi ishlatilgan va ularning quyidagi turlari ko'rsatib o'tilgan:

1) davlat boshqaruvining huquqiy aktlari;

2) boshqaruv organi apparati ichidagi huquqiy aktlar va tashkiliy harakatlar;

3) ma'muriy huquq subyektlarining murojaatlari;

4) ma'muriy huquq subyektlarining fuqarolik-huquqiy shartnomalarda ishtirok etishi;

5) sudda, xo'jalik sudida va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda (xo'jalik-moliyaviy nizolarni ko'rib chiqish vaqtida) ma'muriy huquq subyektlarining ishtirok etishi;

6) ma'muriy huquq subyektlarining o'rnatilgan tartibni va xavfsizlikni ta'minlash (texnika xavfsizligi qoidalari, sanitariya-epidemiologiya qoidalari, yong'in xavfsizligi qoidalari va h.k.lar) sohasida ko'pgina majburiyatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'lishi.[3]

Demak, yuqorida keltirilgan huquqshunos olimlarining tadqiqotlariga asoslanadigan bo'lsak, boshqaruv faoliyatining (boshqaruv harakatlarining) asosiy ikki shaklini ko'rsatib o'tish mumkin:

1) ***boshqaruv faoliyatining (boshqaruv harakatlarining) huquqiy shakllari***, ya'ni ma'lum bir yuridik mazmunga ega bo'lgan va yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan shakllar. Mazkur shakllar

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 318.

[2] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / – Т.: «Адолат», 1999. С. 173–174.

[3] Манохин В.М., Адушкин Ю.С., Багишаев З.А. Российское административное право: Учебник. – М.: 1996. С. 141-142.

boshqaruv organlari faoliyatining asosiy shakllari bo'lib, davlat vazifa va funksiyalarini maqsadga muvofiq va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Huquqiy shakllar o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi:

a) *huquqiy (normativ va individual) aktlarni qabul qilish*;

b) *ma'muriy huquqiy shartnomalarni tuzish*;

d) *yuridik ahamiyatli boshqa harakatlarni amalga oshirish*;

2) ***boshqaruv faoliyatining (boshqaruv harakatlarining) nohuquqiy shakllari***, ya'ni boshqaruvning huquqiy shakllariga asoslanuvchi va ularning amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi shakllar bo'lib, tashkiliy va moddiy-texnik tadbirlar orqali namoyon bo'ladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Shakl tushunchasi.
2. Boshqaruv shakli tushunchasi.
3. Ijro hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan shakllar.
4. Boshqaruv shakllarining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Ma'muriy-huquqiy shakllarning tasnifi.
6. Boshqaruvning huquqiy shakllari.
7. Boshqaruvning nohuquqiy shakllari.
8. Boshqaruv harakatlarining turlari.

13-bob. BOSHQARUVNING HUQUQIY AKTLARI

1-§. Boshqaruvning huquqiy aktlari tushunchasi va yuridik ahamiyati

Ma'muriy huquq nazariyasida *boshqaruv huquqiy akti instituti* alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning doirasida davlat boshqaruvining eng muhim funksiyalari amalga oshiriladi. Tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari va harakatlari, qoida boyicha, normativ yoki normativ bo'lmagan huquqiy aktlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Boshqaruvning huquqiy aktlari ommaviy boshqaruv oldida turgan maqsad va vazifalarga erishish uchun boshqaruv harakatlarini amalga oshirishning muhim huquqiy shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruvning huquqiy aktlari muammosiga bo'lgan huquqshunos olimlarining ko'pdan-ko'p ilmiy ishlari mavjud bo'lib, ularning aksariyati o'quv yurtlarida boshqaruv huquqiy aktlari (ma'muriy huquqiy aktlar)ni o'rganishga qaratilgan maxsus fanni kiritish tarafdoridir.[1]

Boshqaruv huquqiy aktlari, hozirgi vaqtda, keng normativ asosga egadir, ya'ni bunday aktlarni qabul qilish va uning tartibi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda o'z ifodasini topgan.[2]

Boshqaruv huquqiy aktlarini qabul qilish – ijro hokimiyati organlari faoliyatining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Huquqiy aktlar orqali mazkur subyektlarning vazifalari, funksiyalari va vakolatlari, ya'ni kompetensiyasi bevosita amalga oshiriladi.

---

[1] Тихомиров Ю.А., Котелевская И.В. Правовые акты: Учеб. практ. и справ. Пособие. – М.: 1999. С.3.; Костенников М.В. Прововые акты органов исполнительной власти. Их разработка и принятие. М.: 2000; Князев С.Д. Административное право: Учеб. пособие. Владивосток. 1997. С. 51–56.

[2] Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, 1-2-son, 8-m.

Boshqaruvning huquqiy aktlari deganda – ijro hokimiyati subyektlarining bir tomonlama hokimiyat ko'rsatmalarini ifodalash, yuridik oqibatlarni vujudga keltirish va bajarilishi majburiy bo'lgan aktlar tushuniladi.

Huquqiy aktlar – boshqaruv qarorlarining yuridik ko'rinishi bo'lib hisoblanadi. Ijro hokimiyati organi (mansabdor shaxs) vakolat doirasida huquqiy akt qabul qilish orqali umumiy (normativ) yoki individual (yakka, ma'muriy) ahamiyatdagi masalalarni hal etadi.

Huquqiy akt – ijro hokimiyati subyektining bir tomonlama yuridik hokimiyat irodasini namoyon etib, *birinchidan*, davlat-boshqaruv faoliyatining hokimiyat tabiatini ifodalaydi; *ikkinchidan*, uning yordamida ijro hokimiyati organlarining vazifa va funksiyalari amalga oshiriladi.

Boshqaruvning huquqiy akti – *imperativlik* xususiyatiga ega bo'lib, uning talablari qaysi subyektga qaratilgan bo'lsa, uning uchun majburiy hisoblanadi.

Huquqiy aktlarning ijrosi, uning talablarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxslarni yuridik javobgarlikka tortish tahdidi bilan ta'minlanadi.

Boshqaruvning huquqiy aktlari:

birinchidan – davlat boshqaruvi sohasida xulq-atvor qoidalarini o'rnatadi;

ikkinchidan – aniq bir ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi yuridik fakt sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, vazir o'z buyrug'i bilan tegishli sohada faoliyat yurituvchi barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, korxona va muassasalar uchun majburiy bo'lgan qoidalar o'rnatishi mumkin. Shuningdek, uning shaxsni ma'lum bir lavozimga tayinlash to'g'risidagi buyrug'i bilan aniq davlat-xizmat munosabatlari vujudga kelishi mumkin.

Boshqaruvning har qanday ko'rinishdagi huquqiy akti qonunosti xususiyatiga ega bo'ladi, ya'ni ular vakolatli davlat organlari tomonidan Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib va ularni ijro etish maqsadida qabul qilinadi.

A.G.Chernyavskiyning fikricha, davlat boshqaruv aktlari ijro hokimiyati faoliyatining boshqa shakllaridan farq qilgan holda quyidagi *o'ziga xos xususiyatlarga ega*dir:

1) boshqaruv aktlari – bu ijro hokimiyati subyektlarining, ya'ni ma'muriy huquq subyekti hisoblangan ijro hokimiyati organlari yoki korxona va muassasa ma'muriyatining yuridik hokimiyat irodasini ifodalashdir. Bu aktlar – ma'muriy hokimiyatning maqsad

va funksiyalarini amalga oshirishning muhim vositalaridan biri bo'lib, ijro etish va farmoyish berish faoliyatining asosiy shakli hisoblanadi. Boshqaruv aktlari – boshqaruv subyektlari tomonidan mamlakatning xo'jalik, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy sohalariga kundalik hamda bevosita rahbarlik qilish jarayonida qabul qilinadigan qarorlardir. Boshqaruv aktlari o'rtasida ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan qabul qilinadigan aktlar alohida ahamiyatga egadir;

2) boshqaruv aktlari – ijro hokimiyati yoki ma'muriy huquqning vakolatli boshqa subyekti tomonidan qabul qilinishi mumkin. Bu aktlar – boshqaruv qarorlarining huquqiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi;

3) boshqaruv aktlari – adresatga (ya'ni qaysi shaxsga qaratilgan bo'lsa) imperativlik, majburiylik xususiyatiga ega, unda bir tomon (ma'muriy huquq subyekti)ning tegishli irodasi ifodalangan bo'ladi;

4) boshqaruv aktlari – xulq-atvor qoidalarini, ma'lum bir tartibni o'rnatish va tartibga solish xususiyatiga egadir;

5) boshqaruv aktlari – ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishida huquqiy baza bo'lib xizmat qiladi.

Demak, ***boshqaruv akti*** – bu boshqaruv qarorlarining huquqiy ko'rinishi bo'lib, ma'muriy huquqning tegishli subyekti (ijro hokimiyati organi, korxona va muassasa ma'muriyati, mansabdor shaxs) tomonidan bir tomonlama tartibda erkni ifodalash aktidir; qonunchilikda ko'rsatilgan shaklga ega bo'lgan va ijro hokimiyati sohasida vazifa va funksiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ma'muriy-huquqiy normalarni o'rnatish hamda ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan aktdir.[1]

Yu.N.Starilovning fikricha, boshqaruvning huquqiy aktlariga quyidagi *xususiyatlar* xosdir:

1) huquqiy akt – boshqaruv vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun, boshqaruv jarayonining o'rnatilgan qoidalari asosida tayyorlangan va qabul qilingan boshqaruv qarorining bir ko'rinishidir. Boshqaruv qarori o'z mohiyatiga ko'ra boshqaruv subyektlarining rejalashtirilgan va nazarda tutilgan harakatlar natijasi hisoblanadi;

---

[1] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право: Учебник. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 208–209.

2) huquqiy akt – kompetensiya doirasida vakolatli boshqaruv subyekti (davlat organi, mansabdor shaxs) tomonidan qabul qilinadi;

3) huquqiy akt – bir tomonlama tartibda, ya'ni ommaviy boshqaruvning maxsus organi yoki mansabdor shaxs tomonidan qabul qilinadi. Boshqaruv akti qaratilgan subyektlar hokimiyat irodasini ifodalovchi subyektning harakatiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Shu bilan birga, boshqaruv akti qaratilgan shaxslar yoki tashkilotlar huquqiy akt harakati jarayonida uning asoslanganligini va qonuniyligini aniqlashga (masalan, sudda ishni ko'rib chiqish orqali) harakat qilishlari mumkin. Huquqiy akt sud tartibida yoki ma'muriy tartibda ko'rib chiqilishi va qonunga zid deb topilishi mumkin;

4) huquqiy akt – boshqaruv organining yuridik hokimiyat irodasini ifodalash bo'lib, unda davlat-hokimiyat vakolatlari o'z ifodasini topadi. Huquqiy aktning namoyon bo'lishi davlat va jamiyat manfaatlari bilan izohlanadi va u aniq munosabatlarni tartibga solishga, umummajburiy qoidalarni o'rnatishga, shuningdek, boshqaruv jarayonida vujudga keladigan nizolarni hal etishga qaratilgan bo'ladi;

5) huquqiy akt – boshqaruv sohasidagi xulq atvor (yurish-turish)ning majburiy qoidalarini, huquq normalarini belgilab beradi yoki aniq bir boshqaruv munosabatlarini tartibga soladi;

6) huquqiy akt – davlat boshqaruvi sohasida subyektlarning namunali xulq-atvor doirasini belgilab beradi. U ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun huquqiy asosni yaratadi yoxud bunday munosabatlarni bevosita vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishida yuridik fakt sifatida xizmat qiladi;

7) huquqiy aktlarning qonuniyligi, ya'ni ularning huquqqa mos kelishi yoki qonunosti xususiyatiga ega ekanligi;

8) huquqiy akt – boshqaruv organlari (mansabdor shaxslar) faoliyati jarayonida foydalaniladigan yuridik ahamiyatli hujjatlarning bir ko'rinishi hisoblanib, bir tomonlama hokimiyat irodasini ifodalashni nazarda tutmagan va yuridik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotnoma, xulosa, bayonnoma, taftish akti, inventarizatsiya, tekshirish hujjatlari orqali namoyon bo'ladi;

9) huquqiy akt – maxsus shaklga hamda qabul qilish (tasdiqlash)ning alohida tartibiga egadir. Odatda, ular belgilangan jarayonga, ya'ni loyihani tayyorlash, kelishish, muhokama qilish,

ekspertizadan o'ztkazish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va e'lon qilish tartibiga rioya qilgan holda yozma shaklda qabul qilinadi.[1]

Boshqaruvning huquqiy aktlariga, uning yozma shaklda qabul qilinishi xosdir. Lekin boshqaruv aktlari og'zaki shaklda ham bo'lishi mumkin. Masalan, harbiy sohadagi boshqaruv munosabatlarida yoki rahbar bilan unga bevosita bo'ysinuvchi xodim o'rtasidagi xizmat munosabatlarida og'zaki shakldagi boshqaruv aktlari qo'llanilishi mumkin.

Boshqaruv huquqiy aktlari faqatgina boshqaruv sohasi bilan chegaralanmaydi. Huquqiy aktlar orqali boshqa huquq tarmoqlari predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar ham (masalan, moliyaviy, mehnat, ekologik) tartibga solinadi.

Boshqaruvning huquqiy aktlari qonun hujjatlarini yanada aniqlashtirish maqsadida ko'pgina masalalarni hal etadi.

Boshqaruv aktlarining asosiy xususiyatlaridan yana biri – bu ularning *yuridik ahamiyatga ega* ekanligidir, ya'ni:

birinchidan – boshqaruv huquqiy aktlari – yuridik faktlar sifatida namoyon bo'ladi, huquqiy munosabatlarni vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishida, huquq subyektlari huquqiy maqomiga yangicha tus berishda faktik asos bo'lib xizmat qiladi (masalan, lavozimga tayinlash to'g'risidagi buyruq – davlat xizmatchisi huquqiy maqomini vujudga keltiradi);

ikkinchidan – boshqaruv huquqiy aktlari – huquq normalarini o'rnatadi, o'zgartiradi va bekor qiladi; keng doiradagi shaxslar ishtirok etgan munosabatlarni bir xilda tartibga soladi; boshqaruv tartibini, ma'muriy majburlov choralarini qo'llash imkoniyatini belgilab beradi;

boshqaruvning normativ yoki individual aktlari u yoki bu subyektning xulq-atvorini, unga huquqlar berish yoki aniq majburiyatlar yuklash orqali yoxud ikkalasini ham o'rnatish orqali tartibga soladi;

uchinchidan – boshqaruv aktlari boshqa huquqiy aktlarning qabul qilinishida xizmat qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida Vazirlar Mahkamasining qarori, Vazirlar Mahkamasining qarori asosida vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki boshqa organlarning normativ hujjatlari qabul qilinadi;

to'rtinchidan – boshqaruv huquqiy aktlari ma'lum bir yuridik jarayonda (masalan, sudlar tomonidan fuqarolik, ma'muriy yoki jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda) dalil sifatida namoyon bo'ladi;

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 321–323.

beshinchidan – boshqaruv huquqiy aktlari u yoki bu harakatlarni amalga oshirishda, shuningdek, boshqa huquqiy aktlarning harakatga kelishida yoki jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari va erkinliklarining amalga oshirilishida xizmat qiladi. Masalan, yuridik shaxsni davlat ro'yxatiga olganlik to'g'risidagi qaror mazkur shaxsning turli fuqarolik-huquqiy yoki ma'muriy-huquqiy munosabatlarda ishtirok etish imkoniyatini beradi;

oltinchidan – boshqaruv aktlari huquqiy vositalar, jumladan: ma'muriy huquq sohasida davlat siyosatini o'z vaqtida amalga oshirish; ma'muriy islohotlarni olib borish; davlat boshqaruvi maqsadlariga erishish; ijro hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar, davlat va mahalliy xizmatchilar funksiyalanishini amalga oshirish; fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv huquqiy aktlarining xususiyatlari uning mohiyatini va yuridik tabiatini, shuningdek, uning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

2-§. Boshqaruv huquqiy aktlarining funksiyalari

Boshqaruv huquqiy aktlarining funksiyalari – bu boshqaruv munosabatlariga tartibga soluvchilik ta'sirini ko'rsatib, boshqaruvning maqsadiga erishishni va vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Boshqaruv aktini qabul qilishda unda o'rnatilgan normalar davlat boshqaruvining o'ziga ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir ko'rsatishning xususiyatiga qarab, boshqaruv aktlarining quyidagi funksiyalarini ko'rsatib o'tish mumkin:

birinchidan – *ommaviy manfaatlarni ta'minlash funksiyasi.*

Ma'muriy huquq normalari, birinchi navbatda, ommaviy manfaatlarni ifoda etish, himoya qilish va ta'minlash maqsadida o'rnatiladi. Huquqiy aktlar boshqaruvning asosiy shakli sifatida, butun jamiyat, uning ijtimoiy guruhlari, davlat va fuqarolar manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgandir. Ijro hokimiyati organlari boshqaruv huquqiy aktlarini qabul qilish vaqtida, avvalo fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlariga tayanadilar. Boshqacha aytganda, ommaviy manfaatlarni ta'minlash maqsadida boshqaruv jarayoni (boshqaruv aktlarini qabul qilish va ijro etish jarayoni) harakatga keladi;

ikkinchidan – *moddiy-huquqiy tartibga solish funksiyasi.*

Boshqaruv huquqiy aktlari qonunchilik asosida aniq munosabatlarni o'rnatib, vujudga kelgan holat boyicha individual (yakka)

subyektlarga aniq imkoniyatlar va xulq-atvor qoidalarini tanlash imkoniyatini beradi. Boshqaruv aktlari qonun hujjatlarining aniq bir normalarini amalga oshirib yoki qo'llab, ma'lum bir natijaga erishishga xizmat qiladi;

uchinchidan – *boshqaruv-protsessual funksiyasi.*

Boshqaruv aktlarini qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan protsessual harakatlar yig'indisi – *boshqaruv aktlarini qabul qilish jarayoni*ni tashkil etib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqaruv aktlarining va xususan, normativ-huquqiy hujjatlarning tayyorlanishi, qabul qilinishi, davlat ro'yxatiga olinishi, e'lon qilinishi va kuchga kiritilishi tartibi aniq mustahkamlab qo'yilgan;

to'rtinchidan – *ijro etish funksiyasi.*

Boshqaruv huquqiy aktlarining mazkur funksiyasi boshqaruv harakatlari va ularni amalga oshirish tartibini o'rnatish orqali, davlat boshqaruvi faoliyatini ta'minlaydi;

beshinchidan – *ma'muriy-protsessual funksiya* (qonunga zid harakatlar va qarorlarni sud tartibida ko'rib chiqish ma'nosida).

Mazkur funksiya to'g'risida gapirganda, avvalo, himoya qilish funksiyasi nazarda tutiladi, ya'ni zamonaviy ma'muriy huquq nazariyasi huquqlar va qonuniy manfaatlarni buzuvchi har qanday boshqaruv aktining sud tartibida ko'rib chiqilishi mumkinligini nazarda tutadi. Qayerda boshqaruv aktini qabul qilish imkoniyati mavjud bo'lsa, u yerda mazkur aktni sud tartibida ko'rib chiqish mumkinligi, albatta mavjud bo'lishi kerak.

Boshqaruv huquqiy aktlari ushbu funksiyani amalga oshira borib, ma'muriy huquq ijodkorligidagi kamchiliklarni bartaraf etishning muhim huquqiy vositasi hisoblangan – ma'muriy yustitsiya (ma'muriy sud jarayoni) uchun zamin yaratadi.

3-§. Boshqaruv huquqiy aktlarining tasnifi

Boshqaruv aktlarining tasnifi nafaqat huquqiy aktlar institutining mazmun-mohiyatini yoritib berishda, balki boshqaruv aktlarini amalda qo'llash, ularni izlash va ular bilan ishlash jarayonida ham katta ahamiyatga egadir.

Huquqshunos olimlarining aksariyati boshqaruv huquqiy aktlarini ***yuridik xususiyatlari (mazmuni)ga ko'ra*** ikki guruhga bo'ladi:

1) Normativ-huquqiy aktlar

Normativ-huquqiy akt – bu davlatning vakolatli organi tomonidan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan

umummajburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorligi aktidir.

Normativ-huquqiy aktlar — qonunosti, ma'muriy huquq ijodkorligi (huquq o'rnatuvchi) akti bo'lib, unda:

a) huquq normalari ko'rsatib o'tiladi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hamda yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normalar yanada aniqlashtiriladi, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmi nazarda tutiladi;

b) boshqaruv sohasidagi xulq-atvor qoidalari belgilab beriladi;

d) ijro hokimiyati organlari va uning tuzilmasining tashkiliy-huquqiy maqomi o'rnatiladi;

e) fuqarolarning, jamoat birlashmalarining huquqlari va erkinliklari ta'minlanishining mexanizmi belgilanadi;

f) zaruriy taqiq va cheklovlar o'rnatiladi;

g) davlat boshqaruvi sohasida maxsus huquqlar beriladi va majburiyatlar yuklanadi;

h) boshqaruv munosabatlari turli ishtirokchilarining o'zaro aloqasi va ular faoliyatini muvofiqlashtirish tashkil etiladi;

i) ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar hayotga tatbiq qilinadi (masalan, xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish).

Davlat organlari tomonidan chiqariladigan barcha huquqiy aktlar hamma vaqt ham normativ akt bo'lib hisoblanmaydi. Faqatgina umumiy huquq va majburiyatlarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi aktlargina normativ huquqiy akt bo'la oladi. Normativ huquqiy aktlar orqali:

a) umummajburiy qoidalar o'rnatiladi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi;

b) normalar bilan belgilangan huquq va majburiyatlar ifoda etiladi;

d) ularda o'rnatilgan normalarni bajarish majburiydir hamda ularni bajarmagan taqdirda huquqiy oqibatlarni (masalan, javobgarlikni) vujudga keltiradi.

Normativ-huquqiy aktlarni qabul qilish vakolati ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar)ning kompetensiyasi bilan belgilanadi.

Normativ-huquqiy aktlar *umumiy vakolatli organlar* (masalan, Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, viloyat, tuman, shahar hokimlari) hamda *sohaviy vakolatli organlar* (vazirliklar, davlat qo'mitalari, xo'jalik boshqaruv organlari) tomonidan qabul qilinadi.

Normativ-huquqiy aktlar o'rtasida umummajburiy qoidalarni o'rnatuvchi va ma'muriy javobgarlik choralari bilan himoya qili-

nuvchi aktlarni (masalan, yo'l harakati qoidalari, sanitariya qoidalari, jamoat joyida bo'lish qoidalari va h.k.lar) alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Demak, normativ-huquqiy aktlar davlat boshqaruvi sohasida ma'lum bir xulq-atvor qoidalarni o'rnatish orqali bir xil turdagi boshqaruv munosabatlarini tartibga soladi. Aksariyat normativ huquqiy aktlar huquq o'rnatuvchi aktlar bo'lib hisoblanadi. Ular orqali – davlat boshqaruvi sohasidagi davlat intizomi o'rnatiladi; fuqarolar va nodavlat tashkilotlari huquqiy maqomini amalga oshirishning ma'muriy-huquqiy mexanizmi ta'minlanadi; ma'lum bir cheklov va taqiqlar o'rnatiladi; ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar)ning huquqiy maqomi belgilanadi; boshqaruv munosabatlari turli subyektlarining o'zaro munosabatlari tartibga solinadi va boshqalar.

Normativ-huquqiy aktlar orqali davlat boshqaruv faoliyatining joriy va istiqboldagi eng muhim masalalari hal etiladi.

2) Individual huquqiy aktlar

Boshqaruvning individual huquqiy aktlari, normativ huquqiy aktlardan farq qilgan holda, huquqni qo'llash (ijro etish) aktlari bo'lib hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida, ular, farmoyish beruvchi aktlar hisoblanib, ijro hokimiyati subyektlarining aniq va to'g'ri yuridik hokimiyat irodasini ifodalaydi. Ular o'zida belgilanmagan doiradagi subyektlarga umummajburiy bo'lgan huquq normalarini ifoda etmaydi.

Boshqaruvning individual aktlari aniq bir shaxslarning huquq va majburiyatlarini o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi aktlardir.

Boshqaruvning individual huquqiy aktlari yordamida yakka tartibdagi ma'muriy ishlar hal qilinadi (masalan, ro'yxatga olish, litsenziya berish va h.k.lar).

Individual aktlar hamma vaqt aniq shaxsga (adresatga) qaratilgan bo'ladi. Masalan, biron bir shaxsni davlat xizmatining u yoki bu lavozimiga tayinlash to'g'risidagi buyruq aniq shaxs uchun huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi.

Individual aktlar ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi yuridik faktlar sifatida namoyon bo'ladi. Ular davlat boshqaruvi faoliyatida vujudga keladigan joriy masalalarni operativ (kundalik) hal etishning huquqiy vositasi hisoblanadi.

Lekin individual aktlar normativ aktlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Individual aktlarning

normativ aktlar bilan o'zaro munosabati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) normativ aktlar individual aktlarning qabul qilinishida huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi;

b) individual aktlar normativ aktlarni qo'llashning shakli bo'lib hisoblanadi.

Yu.N.Starilov boshqaruvning normativ va individual aktlaridan tashqari, ***aralash huquqiy aktlar***ni ham ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, aralash huquqiy aktlarda boshqaruv faoliyatining aniq bir subyektiga qaratilgan normativ va individual ko'rsatmalar nazarda tutiladi.[1]

Boshqaruv huquqiy aktlarini yana bir necha asoslarga ko'ra tasniflash mumkin. Jumladan:

1) ***boshqaruv aktining funksional vazifasi va ahamiyatiga*** **ko'ra** ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

a) davlat organlari faoliyatini *axborot bilan ta'minlash*ga, ya'ni davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotlarni yig'ish, olish, qayta ishlash, baholashga qaratilgan aktlar;

b) davlat boshqaruvi tizimini, davlat organlarini, davlat boshqaruvi normalarini (standartlarini) rivojlantirishning *istiqbolini belgilash* va *modellashtirish* tartibini o'rnatishga qaratilgan aktlar;

d) *rejalashtirish*ni (ya'ni, davlat boshqaruvi sohasidagi u yoki bu jarayon rivojlanishining yo'nalishlarini, o'sish sur'atlarini, miqdor va sifat ko'rsatkichlarini) belgilab beruvchi aktlar;

e) *tashkil etish funksiyasi*ni amalga oshirish, ya'ni davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishga qaratilgan aktlar;

f) *farmoyish berish*ni nazarda tutuvchi, ya'ni davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan boshqaruv munosabatlarini operativ (kundalik) tartibga solishga qaratilgan aktlar;

g) *rahbariy qoidalarni o'rnatuvchi, ta'minlovchi* (davlat organlari, davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, boshqaruv obyektlari faoliyatining va ularning ayrim harakatlari qoidalarini va normativlarini), shuningdek, umumiy rahbarlikni ta'minlovchi (masalan, boshqaruv faoliyatining mazmunini belgilovchi) aktlar;

h) muvofiqlashtirish potensialiga ega bo'lgan, ya'ni davlat boshqaruvining umumiy maqsadi va vazifalariga erishish uchun

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С.336.

turli davlat organlari faoliyatining kelishilgan holda amalga oshirilishida – *muvofiqlashtirish funksiyasi*ni bajaruvchi aktlar;

i) turli sohalarda *kontrol va nazorat*ni olib borish tartibini belgilovchi, ya'ni amaldagi davlat boshqaruvi tizimining va uning tuzilmasining o'rnatilgan talablar va normalar (standartlar)ga mos kelishi yoki mos kelmasligini, davlat organlarining umumiy funksiyalanishini, shuningdek, boshqaruv subyektlarining aniq harakatlari natijalarini o'rganuvchi va ularni baholovchi aktlar;

j) *tartibga solish funksiyasi*ni bajaruvchi, ya'ni davlat boshqaruvi tizimini va uning funksiyalanishini tashkil etish jarayonida boshqaruv uslublari va usullaridan foydalanishni, shuningdek, jamoat tartibi va xavfsizligini, iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligini, raqobatning demokratik asoslarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida boshqaruv obyektlari va huquqning turli subyektlari uchun umumajburiy talablarni o'rnatuvchi aktlar;

2) ***boshqaruv aktlarini* qo'llash *sohasiga* ko'ra** ular:

a) *tarmoqqa tegishli bo'lgan aktlar* (masalan, davlat boshqaruviga);

b) *sohaga tegishli bo'lgan aktlar* (masalan, iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy sohalarga);

d) *soha ichidagi aktlarga* (masalan, ta'lim, fan, madaniyat, mudofaa, ichki ishlar) bo'linadi;

3) ***makonda (hududda) harakatiga* ko'ra** boshqaruv aktlari:

a) *ma'lum bir hudud boyicha* (masalan, O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, ma'muriy-hududiy birliklarda) harakat qiluvchi aktlarga

b) *lokal xususiyatga ega bo'lgan* (ya'ni hududning ma'lum bir qismida, aniq bir tashkilot, mehnat jamoasi doirasida harakat qiladigan) aktlarga bo'linadi. Lokal huquqiy aktlar ijro hokimiyati organlari tomonidan ichki tashkiliy munosabatlarni tartibga solish maqsadida qabul qilinadi;

4) ***boshqaruv aktining harakatga kelish vaqtiga ko'ra***:

a) *darhol*, ya'ni uning imzolanishi bilan harakatga keladigan aktlar;

b) *aktning o'zida ko'rsatilgan vaqtdan* boshlab harakatga keladigan aktlar;

d) *boshqa aktda ko'rsatilgan vaqtdan* boshlab harakatga keladigan aktlar;

e) *normativ o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatiga olingan va e'lon qilingan vaqtdan* boshlab harakatga keladigan aktlarga bo'linadi;

5) ***boshqaruv aktlarining harakatda*** **bo'lishiga** ***ko'ra:***

a) *muddati aniq ko'rsatilmagan aktlar*, ya'ni bu aktlarni belgilanmagan muddat davomida qo'llash mumkin; bu aktlar qonunda belgilangan tartibda bekor qilinmaguncha harakatda bo'ladi;

b) *muddati ko'rsatilgan aktlar.*

Boshqaruv aktida ko'rsatilgan muddat o'tishi bilan u o'z kuchini yo'qotadi, harakatdan to'xtaydi;

d) *vaqtinchalik* aktlar, ya'ni belgilanmagan muddat davomida harakat qiluvchi, lekin uzoq vaqtga mo'ljallanmagan, ma'lum bir holatga bog'liq bo'lgan aktlarga bo'linadi;

6) ***boshqaruv aktlarini ifodalash shakliga ko'ra:***

a) *yozma aktlar.*

Boshqaruvning yozma huquqiy aktlari – belgilangan talablarga asosan rasmiylashtirilgan yozma hujjat bo'lib, unda talablar, ko'rsatmalar, holatlar, qoidalar va boshqalar nazarda tutiladi;

b) *og'zaki aktlar.*

Boshqaruvning og'zaki aktlari (ular odatda, buyruqlar, farmoyishlar, komandalar, ko'rsatmalar shaklida bo'ladi) yozma rasmiylashtiruvni talab etmaydi. Chunki ular har kunlik boshqaruv vazifalari va funksiyalarini bajarish maqsadida, boshqaruvga tezda va operativ aralashuvni nazarda tutadi;

d) *konklyudent aktlar.*

Boshqaruv huquqiy aktlarining konkludent shakli – turli xildagi belgilar, masalan, yo'l harakati belgilari, ovoz va boshqa signallar orqali amalga oshiriladi. Bunda tegishli hokimiyat subyektining irodasi aniq bir harakatlarda, belgilarda, signallarda o'z ifodasini topadi;

7) ***boshqaruv aktlarini qabul qiluvchi organlar kompetensiyasining xususiyatlariga*** **ko'ra,** ular quyidagilarga bo'linadi:

a) *umumiy boshqaruv organlarining* (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimiyat organlari) *aktlari.*

Bu aktlar hamma vaqt umumiy kompetensiyali organlar tomonidan qabul qilinadi; boshqaruvning barcha sohalarida umumiy masalalarni hal etishga qaratilgan bo'ladi; boshqa aktlarga qaraganda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu aktlar orqali ommaviy boshqaruvning umumiy funksiyalari va asosiy vazifalari amalga oshiriladi;

b) *sohaviy boshqaruv organlarining aktlari.*

Bu aktlar davlat boshqaruvining aniq bir sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yoki vujudga kelgan nizolarni hal etishga qaratilgandir;

d) *sohalararo boshqaruv organlarining aktlari.*

Bu aktlar sohalararo kompetensiyali davlat boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadi va birinchi navbatda davlat boshqaruvining bir necha sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni hal etishga qaratiladi. Mazkur aktlar muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kimga qaratilgan bo'lsa, ular tomonidan bajarilishi shartdir;

e) *kontrol-nazorat organlarining aktlari.*

Bu huquqiy aktlarda nazorat mazmunining asosiy holatlari, nazorat doirasi va vazifalari, kontrol-nazorat faoliyatini amalga oshirish tartibi, qonuniy talablarni bajarmaganlik yoki huquq-buzarlikni sodir etganlik uchun majburlov choralarini qo'llash tartibi o'z ifodasini topadi;

8) ***boshqaruv aktlarini qabul qiluvchi davlat organlari darajasi va ularning nomlanishiga qarab:***

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv aktlari (*farmonlar* va *farmoyishlar*);

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv aktlari (*qarorlar* va *farmoyishlar*);

d) respublika ijro hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan aktlar (*qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar, qoidalar, instruksiyalar, nizomlar*);

e) hokimlar tomonidan qabul qilinadigan aktlar (*farmoyishlar* va *qarorlar*).

9) ***boshqaruv aktini qabul qilish usuliga*** **ko'ra**:

a) *kollegial* aktlar, ya'ni ma'lum bir kollegial organ tomonidan maxsus majlisda ovoz berish orqali qabul qilingan aktlar.

Boshqaruvning kollegial aktlari qarorlar shaklida bo'lib, ma'muriyatning muhim va umumiy masalalarini hal etishga qaratiladi;

b) *yakka tartibda qabul qilingan* aktlar.

Qonun hujjatlarida mansabdor shaxslar tomonidan boshqaruv aktlarining qabul qilinishi nazarda tutilganligi sababli, amaliyotda ushbu aktlar (kollegial aktlarga qaraganda) ko'proq uchraydi. Yakka tartibdagi akt (yoki bitta mansabdor shaxs tomonidan imzolangan qaror) jamoa muhokamasidan, baholashi va kelishuvidan o'tgan akt hisoblanadi;

10) ***boshqaruv huquqiy aktlari qonunga mos kelish darajasiga (qonuniylik prinsipi talablariga rioya etilishiga), yuridik ahamiyati va haqiqatga to'g'ri kelishiga ko'ra***:

a) *huquqqa mos* yoki *qonuniy* (to'g'ri, ijtimoiy ahamiyatli, zaruriy, asoslantirilgan, jamiyat, davlat va fuqarolarga ijtimoiy foyda keltiradigan) aktlar.

Huquqqa mos boshqaruv aktlari — qonuniylik, asoslantirilganlik, maqsadga muvofiqlik va samaradorlikni ta'minlash maqsadida, ularga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi. huquqqa mos aktlar mazmuni jihatidan qonun talablariga to'la javob bersa ham ularda ma'muriy yoki sud tartibida shikoyat qilish imkoniyati mavjud bo'ladi;

b) *nizoli* aktlar, ya'ni ma'lum bir nizoga olib keluvchi yoki huquqqa xilof (qonunga zid) aktlar.

Aktlarning huquqqa xilofligi ko'zga tashlanmasa yoki aktning kamchiliklarini aniqlash uchun ma'lum bir tekshiruvlar talab qilinadigan bo'lsa, akt uning bekor qilingunicha amalda bo'ladi. Bu davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan qabul qilinadigan aktlarning *huquqqa mos kelishi prezumpsiyasi*ga ega ekanligini anglatadi.

Yu.M.Kozlov boshqaruvning huquqiy aktlari jumlasiga, normativ va individual aktlardan tashqari, aktlarning harakat doirasiga qarab: *respublika* va *mahalliy* aktlarni; huquqiy aktlarda ko'rsatib o'tilgan talablarni himoya qilishning huquqiy vositalariga ko'ra esa: *intizomiy javobgarlikni* (ya'ni, tegishli rahbarning intizomiy hokimiyatni amalga oshirishini) o'rnatuvchi aktlar va *ma'muriy sanksiyali* (ya'ni, ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini qo'llashni nazarda tutuvchi) aktlarni kiritadi.[1]

A.G.Chernyavskiy boshqaruvning normativ aktlarini shaxslar doirasiga qarab: a) *umumiy ahamiyatga ega bo'lgan aktlar*; b) *idoralararo aktlar*; d) *idora ichidagi aktlar*ga bo'ladi.

U o'zining ilmiy ishlarida davlat boshqaruv aktlarining yuridik xususiyatlariga qarab uch guruhini ko'rsatib o'tadi: a) oliy boshqaruv aktlari; b) sohaviy boshqaruv aktlar; d) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining aktlari.

Lekin boshqaruv aktlarining bunday bo'linishi munozaralidir, deb hisoblaydi. Chunki bunday bo'linishga etarli konstitusiyaviy va ma'muriy-huquqiy asoslar yo'q. Bundan tashqari, o'zini-o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaganligi sababli, ularning aktlari davlat boshqaruv aktlariga kirmaydi.[2]

X.R.Alimov ham boshqaruv aktlarining normativ va individual turlarga bo'linishini ko'rsatib o'tadi. Lekin shu bilan birga ***makonda***

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право. Учебник. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: «Юрист», 2003. С.1 49.

[2] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право: Учебник. — М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 210.

harakat qilishiga ko'ra: *markaziy* va *mahalliy* aktlarga; ***aktlarni qabul qiluvchi organlar kompetensiyasining xususiyatiga ko'ra***: *umumiy* va *sohaviy* boshqaruv organlari aktlariga; ***aktlarni qabul qiluvchi organlarga ko'ra***: *Vazirlar Mahkamasining* aktlariga, *vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa markaziy organlar* aktlariga, *mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining* aktlariga, *mahalliy sohaviy boshqaruv organlari* aktlariga bo'ladi.[1]

Demak, yuqoridagilarga asoslanadigan bo'lsak, boshqaruv organlari vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan va ma'lum bir yuridik oqibatlarga olib keladigan, shuningdek, ma'muriy-huquqiy normalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi boshqaruvning asosiy huquqiy shakli – bu ***normativ aktlar***dir.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi holat qanday?

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni[2]ga binoan *normativ-huquqiy hujjat* – bu qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

Mazkur qonunga binoan, *normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga* quyidagilar kiradi:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari;
2) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;
3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
4) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari;
5) mahalliy davlat hokimiyati organlari.

*Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari*ga esa quyidagilar kiritilgan:

a) *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.*

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emas;

---

[1] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / – Т.: «Адолат», 1999. 186–187-б.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001, 1-2-son, 8-m.

b) *O'zbekiston Respublikasining qonunlari.*

O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish orqali qabul qilinadi;

d) *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi[1];

e) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi;

f) *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonuni[2]ning 20-moddasiga binoan esa Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar hamda farmoyishlar qabul qiladi;

e) *vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari.*

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari o'z vakolatlari doirasida buyruqlar va qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar buyruq hamda qarorlar bilan tasdiqlanadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'g'risidagi 2002-yil 12-dekabr Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002, 12-son, 213-m.; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'g'risidagi 2002-yil 12-dekabr Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 200, 12-son, 215-m.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003, 9–10-sonlar, 138-m.

qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari bir necha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari bilan birgalikda yoki ularning bittasi tomonidan boshqalari bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining tarmoq bo'linmalari va hududiy organlari normativ-huquqiy tusdagi hujjatlar qabul qilishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

j) *mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.*

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek, yuqori turuvchi mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari asosida va ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.[1]

Normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlari hisoblanadi va ular O'zbekiston Respublikasining ***qonun hujjatlari majmui***ni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari — ***qonunlar*** hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari — ***qonun osti hujjatlari*** hisoblanadi.

Turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi boyicha o'zaro nisbati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organning vakolatiga va maqomiga, shuningdek, hujjatlarning turlariga muvofiq belgilanadi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993, 9-son, 320-m.

Normativ-huquqiy hujjat o'ziga qaraganda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shart.

Normativ-huquqiy hujjatlar bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qo'llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalari amal qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlik, davlat qo'mitasi, yoki idorasining ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga solish uchun maxsus vakolati bo'lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil darajadagi boshqa vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idorasining normativ-huquqiy hujjatiga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'ladi.

4-§. Boshqaruv huquqiy aktlariga qo'yiladigan talablar

Boshqaruv huquqiy aktlarining asosiy sharti — bu huquqiy aktlarning yuridik mazmuniga va ularni qabul qilish tartibiga qo'yiladigan talablarga mos kelishi hisoblanadi. Mazkur talablar asosida esa boshqaruv huquqiy aktlarining qonunga mos ravishda qabul qilinishi turadi.

Yu.M.Kozlovning fikricha, *boshqaruvning huquqiy aktlariga quyidagi talablar o'rnatiladi*:

1) boshqaruvning huquqiy aktlari — Konstitutsiya va qonunlarga, Prezident farmonlariga zid kelmasligi;

2) ijro hokimiyati subyektlari o'rtasida faoliyat yo'nalishi va vakolatlarning taqsimlanganligini inobatga olish;

3) yuqori ijro hokimiyati organlari huquqiy aktlarini inobatga olish;

4) kompetensiya doirasida tegishli davlat organi (mansabdor shaxs) tomonidan qabul qilinishi;

5) huquqiy asoslantirilgan bo'lishi, ya'ni unda huquqiy akti qabul qilishning maqsadi, asoslari va ulardan kelib chiqadigan yuridik oqibatlar aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lishi;

6) davlat boshqaruvi tizimidagi quyi organlar kompetensiyasini va operativ mustaqilligini cheklashi yoki buzishi mumkin emas;

7) davlat boshqaruvi sohasida fuqarolar va nodavlat tuzilmalarining qonunchilik hujjatlari bilan o'rnatilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini cheklashi yoki buzishi mumkin emas;

8) boshqaruvning huquqiy aktlariga o'rnatilgan qoidalar (jarayonlar)ga rioya qilgan holda qabul qilinishi va h.k.lar.[1]

A.G.Chernyavskiy ham, Yu.M.Kozlov singari boshqaruvning huquqiy aktlariga qo'yilgan talablarni deyarli bir xilda ko'rsatadi. Uning fikricha, boshqaruv huquqiy aktlari yuqori turuvchi ijro hokimiyati organlarining aktini inobatga olgan holda qabul qilinishi lozim.[2]

X.R.Alimovning fikricha esa davlat boshqaruv aktlari rahbarlikni amalga oshirish shakllaridan biri bo'lib, o'zining mazmuni bilan ijro etish va farmoyish berish faoliyatining u yoki bu masalasini hal etishni belgilab beradi. Boshqaruv aktlariga qo'yiladigan asosiy talab – bu ularning davlat siyosatiga mos kelishidir.

Boshqaruv aktlari davlat va jamiyatning kundalik hayotiga davlat siyosatini, xo'jalik, ijtimoiy-madaniy qurilish, xorijiy davlatlar bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashni tatbiq etishi lozim.

Davlat boshqaruvi aktlari qonuniylik prinsipidan kelib chiqqan holda, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

a) vakolatli organ tomonidan unga berilgan kompetensiya doirasida qabul qilinishi kerak;

b) nafaqat qonun hujjatlariga zid bo'lishi, balki o'zining mazmun-mohiyati bilan davlat, uning organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak;

d) belgilangan tartibda, ayrim hollarda esa qonun yoki yuqori turuvchi organ tomonidan o'rnatilgan shaklda qabul qilinishi kerak;

e) qonun yoki boshqa normativ aktda nazarda tutilgan tegishli masalani hal etish uchun qabul qilingan bo'lishi kerak.[3]

O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuniga binoan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqayotgan organ, qoida tariqasida, loyihani tayyorlash yuzasidan komissiya tuzadi. ***Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini tayyorlash***ga manfaatdor davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarning vakillari, ayrim fuqarolar jalb

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Юрист», 2003. С. 150.

[2] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право: Учебник. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 216.

[3] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Х.Р.Алимов, Л.И.Соловьева и др. / – Т.: «Адолат», 1999. С. 186–187.

etilishi mumkin. Normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organ normativ-huquqiy hujjatning loyihasini tayyorlashni davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarga, ayrim fuqarolarga belgilangan tartibda topshirishi yoki shartnoma asosida buyurtma berishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organ bir necha davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarga, ayrim fuqarolarga muqobil loyihalar tayyorlashni topshirishga yoki ular bilan shartnomalar tuzishga, shuningdek, eng yaxshi loyiha uchun tanlovlar e'lon qilishga haqlidir.

Iqtisodiyotning alohida tarmoqlari, davlat boshqaruvining boshqa sohalariga doir normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini tayyorlashga tegishli tarmoqlar yoki boshqaruv sohalarining holati va rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki idoralari jalb etiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash boyicha ishini muvofiqlashtirib turish, qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Normativ-huquqiy hujjatni tayyorlashda loyihani ishlab chiquvchi organ:

a) loyiha mavzusiga doir qonun hujjatlarining qo'llanilish tajribasini o'rganadi va hisobga oladi, huquqni tartibga solishga bo'lgan jamoatchilik ehtiyojini, qonun hujjatlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi sabablar va sharoitlarni aniqlaydi;

b) davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari, shuningdek, fuqarolarning takliflarini, ommaviy axborot vositalarining materiallarini, ilmiy muassasalar, olimlar va mutaxassislarning tavsiyalarini, jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa vositalari ma'lumotlarini umumlashtiradi va ulardan foydalanadi;

d) boshqa davlatlardagi qonunchilik yo'li bilan tartibga solish tajribasini hisobga oladi.

Qonun loyihalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda umumxalq muhokamasiga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari esa jamoatchilik yoki mutaxassislar muhokamasiga qo'yiladi.

Normativ-huquqiy hujjatning tayyorlangan loyihasi normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organga taqdimnoma bilan kiritiladi, taqdimnomada hujjatni qabul qilishning zarurligi asoslab beriladi, uni ishlab chiquvchilar ko'rsatiladi, hujjat mazmunining

qisqacha tavsifi beriladi, loyiha qaysi davlat organi, shuningdek, tashkilot bilan kelishilgan bo'lsa, shu organ va tashkilotlarning ro'yxati keltiriladi, kelishmovchiliklarning mazmuni hamda ular haqidagi asoslantirilgan fikr qisqacha bayon etib o'tiladi. Zarurat bo'lganda, normativ-huquqiy hujjat loyihasiga uni asoslash uchun moliyaviy-iqtisodiy hisob-kitoblar, statistika ma'lumotlari va boshqa axborotlar ilova qilinadi.

Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lmagan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va boshqa organlar yoki nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tayyorlangan qonun loyihalari, agar loyihani tayyorlash to'g'risidagi topshiriqda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga taqdim etiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi shart.

Huquqiy ekspertiza davomida normativ-huquqiy hujjatning loyihasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi tekshiriladi.

Huquqiy ekspertiza normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlagan organning yoki normativ-huquqiy hujjatni qabul qiladigan organning yuridik xizmati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ xususiyatga ega bo'lgan qarorlari loyihalarining yuridik ekspertizasi viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Kiritilgan loyihaning sifatiga baho berish uchun normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organning qaroriga binoan normativ-huquqiy hujjatning loyihasi boshqa xil (iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy, ekologiya va o'zga) ekspertizadan ham o'tkazilishi mumkin. Ekspertlar sifatida tegishli loyihani tayyorlashda ilgari bevosita ishtirok etmagan tashkilotlar va shaxslar jalb etiladi. Ekspertiza o'tkazish uchun boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan olimlar va mutaxassislar taklif etilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatning matni — lo'nda, oddiy va ravon tilda bayon etiladi. Normativ-huquqiy hujjatda foydalaniladigan tushunchalar va atamalar ularning amaldagi qonun hujjatlarida qabul qilingan mazmuniga muvofiq, turlicha sharhlash imkoniyatini istisno etadigan tarzda bir xilda qo'llaniladi. Eskirgan hamda ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Normativ-huquqiy hujjatda uni amalga oshirishning huquqiy vositalari, shu jumladan, moliyalashtirish manbalari, rag'batlantirish, mukofotlash va nazorat qilish chora-tadbirlari ko'rsatilishi mumkin.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolarning majburiyatlarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatda ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik choralari (agar bunday choralar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lmasa yoki maxsus hujjatda belgilanishi kerak bo'lmasa) nazarda tutiladi.

Normativ-huquqiy hujjatga uni qabul qilish sabablari va maqsadlarini tushuntirishdan iborat bo'lgan muqaddima kiritilishi mumkin. Normativ ko'rsatmalar muqaddimaga kiritilmaydi.

Qonunlarda normativ ko'rsatmalar tartib raqamiga ega bo'lgan moddalar tarzida bayon etiladi. Qonunlarning moddalari qismlarga bo'linishi mumkin. Moddalarning qismlarida bandlar, kichik bandlar va xatboshilar bo'lishi mumkin. Boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda normativ ko'rsatmalar tartib raqamiga ega bo'lgan bandlar tarzida bayon etiladi. Bandlar kichik bandlarga va xatboshilarga bo'linishi mumkin.

Hajm jihatdan yirik normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun jihatdan yaqin bo'lgan moddalari (bandlari) paragraflar va boblarga birlashtiriladi. Zarur hollarda boblar bo'limlarga va kichik bo'limlarga birlashtirilishi mumkin. Bo'limlar, kichik bo'limlar, boblar va paragraflar sarlavhalarga va tartib raqamlariga ega bo'ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda qonun hujjatlariga kiritilayotgan yuridik, texnikaviy va boshqa maxsus atamalarning ta'riflari berilishi mumkin.

Zarur hollarda normativ-huquqiy hujjatda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning ayrim qoidalari mazkur hujjatlarga havola qilingan holda aynan takrorlanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda, qoida tariqasida, xuddi shunday yuridik kuchga ega bo'lgan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning normativ ko'rsatmalari qayta aynan takrorlanmaydi.

Normativ-huquqiy hujjatning moddalarida (bandlarida) uning boshqa moddalariga (bandlariga), shuningdek, amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, ularning ayrim qoidalariga havolalar normativ ko'rsatmalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish zarurati bo'lgan hollarda yoki takrorlashlarga yo'l qo'ymaslik uchun qo'llaniladi.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuniga binoan **normativ-huquqiy hujjatning rasmiy matni quyidagi tarzda imzo qo'yib *tasdiqlanadi*:**

1) *O'zbekiston Respublikasining qonuni* – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarorlari – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarorlari – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi tomonidan;

4) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni* – O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan;

5) *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori* – O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan;

6) *vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari* – hujjatni qabul qilgan organ rahbari tomonidan;

7) *mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari* – tegishli hokim tomonidan.

Normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi rekvizitlarga ega* bo'la*di:

– hujjatning turi va nomi;

– hujjat qabul qilingan joy, sana va hujjat raqami;

– tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni imzo qo'yib tasdiqlashga rasman vakolati bo'lgan shaxslarning familiyasi; lavozimi va imzolari.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etadi.

Yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganligi munosabati bilan ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga zarur o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritiladi hamda ilgari qabul qilingan barcha hujjatlar yoki ularning qismlari, agar ular yangi normativ ko'rsatmalarga zid bo'lsa yoxud yangi hujjat bilan to'laligicha qamrab olingan yoki amalda o'z ahamiyatini yo'qotgan, lekin rasman o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilmagan bo'lsa, o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilmog'i kerak.

5-§. Boshqaruv huquqiy aktlarining harakati

Boshqaruvning huquqiy aktlari harakatga kelganida ma'lum bir yuridik oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Huquqiy aktlarni

harakatga keltiruvchi va harakatdan to'xtatuvchi vosita esa — bu huquqiy aktlarning ***yuridik kuchg***a ega bo'lishidir.

Boshqaruv huquqiy aktlarining yuridik kuchi — huquqiy aktlarning ijro hokimiyati subyektlari tomonidan ular oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishning ma'muriy-huquqiy shakli sifatida namoyon bo'lishini belgilab beradi.

Huquqiy aktlarning yuridik kuchi ularning rasmiy tarzda o'zgartirilgan yoki bekor qilingan vaqtga qadar amalda bo'lishini belgilab beradi. Ba'zi hollarda huquqiy aktning yuridik kuchga ega bo'lishi alohida ko'rsatib o'tilgan bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuniga binoan normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi kerak. hammaning e'tibori uchun rasman e'lon qilinmagan qonun asosida hech kim sudlanishi, jazoga tortilishi yoki mol-mulkidan mahrum qilinishi mumkin emas. Normativ-huquqiy hujjat rasman bayon tarzida e'lon qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Normativ-huquqiy hujjat rasman e'lon qilinganda uning barcha rekvizitlari ko'rsatiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy nashrlarda e'lon qilishga, shuningdek, ularni qonun hujjatlarining elektron ma'lumot tizimlari orqali tarqatishga bu hujjatlar rasmiy manbalarda e'lon qilinganidan so'ng hamda barcha rekvizitlari, e'lon qilingan rasmiy manbalari va kuchga kirish sanasini ko'rsatish sharti bilan ruxsat etiladi.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi», «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining to'plami», «Xalq so'zi» va «Народное слово» gazetalari O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

«O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlarining to'plami», «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining to'plami», «Xalq so'zi» va «Народное слово» gazetalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

«O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining to'plami», vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rasmiy nashrlari O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari mazkur organlarning rasmiy nashrlarida e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, agar hujjatlarning o'zida boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, rasman e'lon qilinganidan so'ng o'n kundan keyin kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilangan tartibda kuchga kiradi va ular e'lon qilinishi shart.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, agar hujjatning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng o'n kundan keyin kuchga kiradi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida barcha manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazilishi lozim. Normativ-huquqiy hujjatni manfaatdor shaxslar e'tiboriga etkazish normativ-huquqiy hujjat matni bilan moneliksiz (erkin) tanishish huquqini ta'minlovchi har qanday shaklda amalga oshirilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlar orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin vujudga kelgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Qonun, u amalga kiritilishiga qadar vujudga kelgan munosabatlarga nisbatan, agar bu hollar qonunda bevosita nazarda tutilgan bo'lsa, tatbiq etilishi mumkin. Agar qonun xatti-harakatlar sodir etilgan paytda javobgarlikka sabab bo'lmagan yoki yengilroq javobgarlikka sabab bo'lgan xatti-harakatlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligini belgilash yoki kuchaytirishni nazarda tutsa yoxud yuridik va jismoniy shaxslarga moddiy zarar keltirsa, qonunga orqaga qaytish kuchini berish mumkin emas.

Normativ-huquqiy hujjat, agar uning matnida boshqa izoh berilmagan bo'lsa, ***muddatsiz amal qiladi.***

Normativ-huquqiy hujjat amal qilishining vaqtinchalik muddati butun hujjat uchun yoki uning qismlari uchun belgilanishi mumkin. Bunday holda unda hujjat (yoki uning qismi) qaysi muddatga yoki qanday hodisa yuz berguniga qadar o'z kuchini saqlab qolishi ko'rsatilishi zarur.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ belgilangan muddat tugaguniga qadar hujjatning amal qilinishini yangi muddatga, boshqa hodisa yuz berguniga qadar uzaytirish to'g'risida yoki hujjatga muddatsiz tus berish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilishi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslariga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet ellik yuridik shaxslarga, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etiladi.

Normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) quyidagi hollarda amal qilishini tugatadi:

1) normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) mo'ljallangan muddat tugaganda yoki hodisa boshlanganda;

2) normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) qonunda belgilangan tartibda konstitutsiyaviy emas deb topilganda;

3) normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) o'z kuchini yo'qotgan deb topilganda;

4) normativ-huquqiy hujjat qonunda nazarda tutilgan hollarda bekor qilinganda.

6-§. Huquqiy aktlarni sharhlash

Huquqiy aktlardagi talablarni hayotga tatbiq etilishini ta'minlashda ushbu aktdagi normalarning mazmunini tushunib olish, anglab olish va sharhlash juda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Huquqiy aktlar to'g'ri sharhlanganda va ularning mazmuni tushunarli bo'lganda uning samarasini ko'rish mumkin. Shu sababli, vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy aktlar (normalar) bilan tartibga solish uchun birinchi navbatda uning ma'nosi va mazmuni aniqlash muhimdir.

Huquqiy aktlarni sharhlash quyidagi uchta muhim masalani o'z ichiga oladi:

1) tatbiq etiladigan huquqiy normalarni sharhlovchi subyektlarni aniqlash (bular — davlatning vakolatli organlari hisoblanadi);

2) tatbiq qilinadigan huquqiy normalarning mazmunini aniqlash (bunda mantiqiy, grammatik, tarixiy va sistematik uslublar qo'llaniladi);

3) tatbiq etiladigan huquqiy normalarning hajmi boyicha va yuridik kuchiga qarab sharhlash.[1]

---

[1] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi boyicha ta'lim olayotgan talabalar uchun \ Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U. — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000. 336—339-betlar.

Huquqiy normalarni sharhlaydigan subyektlarga quyidagilar kiradi: davlat hokimiyati vakillik organlari, davlat boshqaruv organlari, sud organlari, prokuratura va boshqa organlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar;

Davlat va huquq nazariyasida huquq normalarini sharhlashning quyidagi turlari ko'rsatib o'tilgan:

1) ularni qo'llaydigan subyektiga qarab ikkiga bo'linadi:

a) ***rasmiy sharhlash.*** Huquqiy normalarni rasmiy sharhlash vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu sharh barcha subyektlar uchun majburiy bo'ladi.

Rasmiy sharhlash *normativ sharhlash*da ifodalanishi mumkin. Normativ sharhlash – davlat hududida huquq normalarini bir xilda qo'llash maqsadida, mazkur huquqiy normani o'rnatgan davlat organi tomonidan sharhlanadi;

b) ***norasmiy sharhlash.*** Huquqiy normalarni norasmiy sharhlashning ko'rinishlaridan biri – bu *kazual sharhlash*dir. Bu sharhlash sud organlari tomonidan ma'lum bir ishlarni (fuqarolik, ma'muriy, jinoiy, xo'jalik) ko'rib chiqish vaqtida amalga oshiriladi. Sudning har bir ish boyicha chiqargan qarori (hukmi) huquqiy normani kazual sharhlash asosida amalga oshadi.

Norasmiy sharhlashga ilmiy sharhlash ham kiradi;

2) ***huquqiy normalarni sharhlash hajmi*** **boyicha** ular uchga bo'linadi:

a) *so'zni tom ma'nosida sharhlash* – tatbiq etilayotgan huquqiy normaning mazmunini yozilgan matniga qarab, hech narsa qo'shmasdan qo'llash tushuniladi;

b) *cheklangan sharhlash* – bunda tatbiq etilayotgan huquqiy normaning o'z matnida cheklanganligi belgilab qo'yiladi;

d) *keng ma'noda sharhlash* – bunda qo'llaniladigan huquqiy normaning mazmuni uning yozilgan matniga nisbatan kengroq qilib sharhlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonuniga binoan ***normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash*** – normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto'g'ri yoki mantiqqa zid tarzda qo'llanilgan hollarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq qonunlarning normalariga *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi* sharh beradi.

Qonun osti hujjatlariga ularni *qabul qilgan organlar* rasmiy sharh beradi.

Sharhlash jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarga tuzatishlar, qo'shimchalar va aniqlashtiruvchi normalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi hujjatlarning to'plamlari va majmualarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nashr etadi yoxud ularni boshqa organlar va tashkilotlar nashr etishi to'g'risida topshiriqlar beradi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarning bir tizimga solingan majmualarini nashr etadi, majmualarni nazorat holatida saqlaydi, ularga qo'shimchalar nashr etadi, ularni qayta nashr etadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni davlat tomonidan hisobga olish bunday hujjatlarni markazlashgan tarzda yig'ish va ro'yxatga olishdan, ularning fondlarini hamda bu hujjatlar haqidagi markazlashgan axborotlarni yaratish va nazorat holatida saqlab turishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini davlat tomonidan hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Boshqaruv huquqiy aktlari tushunchasi.
2. Boshqaruv huquqiy aktlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Boshqaruv huquqiy aktlarining yuridik ahamiyati.
4. Boshqaruv huquqiy aktlarining funksiyalari.
5. Normativ-huquqiy aktlar tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari.
6. Individul (yakka) huquqiy aktlar.
7. Aralash shakldagi huquqiy aktlar.
8. Boshqaruv huquqiy aktlarining tasnifi.
9. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi boyicha normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi va turlari.
10. Boshqaruv huquqiy aktlariga qo'yiladigan talablar.
11. Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihasini tayyorlash tartibi.
12. Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihasini ekspertizadan o'tkazish tartibi.
13. Normativ-huquqiy hujjatlarning matni.
14. Normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash tartibi.
15. Boshqaruv huquqiy aktlarining harakati.
16. Huquqiy aktlarni sharhlash.

14-bob. MA'MURIY-HUQUQIY SHARTNOMALAR

1-§. Ma'muriy-huquqiy shartnomalar tushunchasi

Boshqaruv faoliyatini (harakatlarini) amalga oshirishning huquqiy shakllaridan biri — bu ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzish hisoblanadi. Hozirgi qayta qurishlar jarayonida ma'muriy-huquqiy shartnomalarning ahamiyati — ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ommaviy huquqning, shuningdek, ommaviy-huquqiy munosabatlarda shartnomalar rolining o'sib borishi bilan izohlanadi.

Ommaviy-huquqiy normalarning o'rnatilishi nafaqat ijro hokimiyati sohasida intizom va javobgarlikni kuchaytirishga, balki shartnoma vositalarini qo'llash orqali boshqaruv vazifalarini hal etishning huquqiy mexanizmlarini yaratishga yo'naltirilgandir.

Ma'lumki, xususiy huquq sohasida shartnoma subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi odatiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar, qoida boyicha, fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi hamda uning ishtirokchilari teng huquqlarga ega bo'ladi.

Ommaviy-huquqiy tartibga solish esa normativ va imperativ xususiyatdagi ko'rsatmalar vositasida amalga oshiriladi. U umumiy maqsadlarga erishish va ommaviy manfaatlarni qondirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning irodasi va xulq-atvori (yurish-turishi)ga hokimiyat-boshqaruv ta'sirini ko'rsatadi.

Ommaviy huquqda huquqiy tartibga solishning alohida usuli hisoblangan — *shartnoma*lardan ham foydalaniladi. Ommaviy-huquqiy sohada shartnomalar, ommaviy manfaatlarni qondirish maqsadida, boshqaruv funksiyalarini (masalan, muvofiqlashtirish, bo'ysinuv, tashkil etish, taqsimlashni) o'z zimmasiga oladi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar muammosiga nafaqat moddiy ma'muriy-huquqiy normalar, ya'ni munosabat ishtirokchilari, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, ijro etish tartibini o'rnatuvchi normalar orqali, balki unga ma'muriy-protsessual huquq nuqtayi nazaridan ham yondashish lozim bo'ladi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar jarayoni – boshqaruvning ma'lum bir ko'rinishi sifatida, ma'muriy jarayon tuzilishiga kiradi.

Demak, *ma'muriy-huquqiy shartnoma* – bu ma'muriy-protsessual jarayonning bir ko'rinishi bo'lib, o'zining moddiy qismi (mazmuni)ga ega. Amaldagi qonunchilikda uning aynan prosessual qismini rivojlantirish, dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikada ma'muriy-huquqiy shartnomalarning dolzarbligi va ahamiyati – mamlakatning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi, mulkka bo'lgan munosabatning o'zgarishi, qattiq markazlashtirish va rejali taqsimlashdan voz kechish bilan belgilanadi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar:

birinchidan – ommaviy shartnomalarning bir turi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi;

ikkinchidan – ma'muriy-huquqiy shartnomada uning doimiy ishtirokchisi hisoblangan hamda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari va tartibga solish funksiyasiga ega bo'lmagan turli subyektlar (masalan, nodavlat korxona va tashkilotlar, fuqarolar) ishtirok etadi;

uchinchidan – ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzishning asosiy talablari sifatida quyidagilar nazarda tutiladi:

a) jamiyat va davlat (ommaviy) manfaatlarini qondirish;

b) ma'lum bir boshqaruv vazifalari va funksiyalarni amalga oshirishning ma'muriy tartibini o'rnatish;

d) boshqaruv organlari tomonidan nazoratning amalga oshirilishi;

e) majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan ikkinchi tomonning o'z majburiyatlarini bajarmagani yoki lozim darajada bajarmaganida, davlat organi (mansabdor shaxs)ning shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish imkoniyatiga ega bo'lishi;

f) vujudga kelgan nizolarni ma'muriy yurisdiksiya organlarida va sudda hal etish imkoniyatining o'rnatilishi va h.k.lar.

A.P.Korneyev va A.A.Abdurahmanovlarning ko'rsatib o'tishicha, ma'muriy-huquqiy shartnomalar – bu ma'muriy huquq normalariga asoslangan shartnomalar bo'lib, yagona maqsad sari ikki yoki undan ortiq rasmiy teng bo'lgan subyektlarning o'zaro kelishuvi asosida vujudga keladi; uning predmetini boshqaruv yoki tashkiliy harakatlarni sodir etish tashkil etadi; uning bir tomonida davlat boshqaruv organi yoki qonuniy vakil ishtirok etadi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalarda:

birinchidan – davlat boshqaruvi organlari ishtirok etadi;

ikkinchidan – uning mazmuni – tashkiliy-boshqaruv xususiyatiga ega;

uchinchidan – uning huquqiy asosini – ma'muriy huquq normalari tashkil etadi;

to'rtinchidan – uning talablari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, yuridik javobgarlik (ma'muriy, intizomiy yoki fuqarolik-huquqiy) vujudga keladi.[1]

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar muammosiga bag'ishlangan adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat mualliflar, ularning faqatgina vakolatlarning taqsimlanishi, ularning yuqoridan quyiga berilishi, ma'lum bir sohalarda turli subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, resurslardan foydalanish maqsadida ularni birlashtirish bilan bog'liq bo'lgan gorizontal munosabatlarda ifodalanishini ko'rsatib o'tishadi.

A.P.Alexin va Yu.M.Kozlovlarning fikricha, ma'muriy-huquqiy shartnomalar hali to'liq echimini topmagan yangi hodisa bo'lib, davlat boshqaruvi – yuridik-hokimiyat irodasining imperativligidan, shartnoma munosabatlari esa tomonlarning tengligidan kelib chiqadi.[2]

D.N.Baxrax ma'muriy-huquqiy shartnomalar tushunchasiga to'xtalib, «ma'muriy-huquqiy normalarga asoslangan va ommaviy manfaatlarni qondirish maqsadida ikki (yoki undan ortiq) ma'muriy huquq subyektlarining ixtiyoriy kelishilgan irodasi natijasida vujudga kelgan shartnoma bo'lib, unda hamma vaqt bir tomonda ma'muriy hokimiyat subyekti ishtirok etadi», deb ko'rsatadi.[3]

Ba'zi huquqshunos olimlari, ma'muriy-huquqiy shartnomalarga *ichki ishlar organlarining tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida mulkni himoyalash* boyicha yoki *boshqaruv tuzilmalarining o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida ma'lum bir mol-mulkni sotib olish* boyicha tuziladigan shartnomalarni kiritadi.[4]

Lekin mazkur shartnomalar ijro hokimiyatini amalga oshirishning huquqiy shakllariga hech qanday aloqasi yo'qdir, chunki bunda boshqaruv subyekti yuridik-hokimiyat vakolatidan foyda-

---

[1] Корнеев А.П. Абдурахманов А.А. Административные договоры: понятие и виды // ЖРП. 1998. №7. 86-б.; Иванов В.В. некоторые вопросы теории нормативного договора // Право и политика. 2000. №4. С. 33–35.

[2] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: «ЗЕРЦАЛО», 1998. С. 258–262.

[3] Бахрах Д.Н. Административное право. – М.: 1993. С. 132–135.

[4] Административное право. / Под ред. П.Т.Василенкова. – М.: 1990. С. 151–152.

lanmagan. Shu sababli, bunday shartnomalar ma'muriy-huquqiy emas, balki fuqarolik-huquqiy shartnomalaridir.

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy-huquqiy shartnomalarga, masalan, ta'lim sohasidagi davlat organi (muassis, ta'sischi) va unga bo'ysingan ta'lim muasasasi o'rtasida tuziladigan shartnoma kiritilgan. T.S.Krasilnikovning ko'rsatib o'tishicha, bunday boshqaruv shartnomalarining asosiy shartlarini:

a) ta'lim muassasasining va davlat organi (muassis, ta'sischi)ning ta'lim sohasidagi vazifalarni bajarish boyicha o'zaro majburiyatlari;

b) ta'lim muassasasi faoliyatining ta'sischi tomonidan moliyalashtirish tartibi;

d) ta'lim muassasasiga berilgan mol-mulkdan foydalanish tartibi;

e) ta'lim muassasasini tugatish, qayta tashkil etish va uning maqomini o'zgartirish tashkil etadi.

U ikki ko'rinishda tuzilishi mumkin:

1) mol-mulkni operativ boshqarish huquqi asosida mustahkamlash to'g'risidagi shartnoma;

2) ta'lim muassasasi bilan ta'sischi o'rtasidagi shartnoma.[1]

Ijro hokimiyati sohasida vakolatlarni taqsimlash yoki davlat organlari tomonidan bir-biriga vakolatlarning berilishi, turli masalalarni hal etishda muvofiqlashtirish yoki o'zaro munosabatlar boyicha tuzilgan shartnomalar – ma'muriy-huquqiy shartnoma-larning ayrim elementlari (xususiyatlari)ni o'zida ifoda etadi. Lekin ular ma'muriy-huquqiy shartnomalarning mazmun-mohiyatiga to'la mos kelmaydi.

Hozirgi kunga qadar, O'zbekiston Respublikasida, ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzish mexanizmini tartibga soluvchi qonunchilik mavjud emas. Bundan tashqari, ma'muriy-huquqiy shartnomalarning boshqaruv amaliyotida tutgan o'rni va ahamiyati, xususiyatlari, mazmuni, tuzish tartibi va ijro etish to'g'risida aniq ilmiy ishlanmalar ham mavjud emas.

Ma'muriy huquq nazariyasida ko'rsatib o'tilgan ma'muriy-huquqiy shartnomalarning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari ko'pgina munozaralarga olib keladi. Buning asosiy sababi esa ma'muriy-huquqiy shartnomalarning huquqiy asosga ega bo'lmaganligidadir.

---

[1] Красильников Т.С. Содержание административного договора в системе образования (на примере договора между образовательным учреждением и его учредителем) // История становления и современное состояние исполнительной власти в России / Отв. ред. Н.Ю.Хаманева. – М.: 2003. С. 317–319.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda (O'zR Fuqarolik kodeksidan tashqari) ma'muriy(ommaviy)-huquqiy shartnomalarni huquqiy tartibga soluvchi normalar ham nazarda tutilmagan. Faqatgina O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358-moddasida tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yo'lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va sh.k.) belgilab qo'yadigan shartnoma — *ommaviy shartnoma* deyiladi. Bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, deb ko'rsatilgan.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi hukumati ommaviy shartnomalarni tuzish va bajarishda taraflar uchun majburiy bo'lgan qoidalar (namunaviy shartnomalar, qoidalar va h.k.) chiqarishi mumkin.[1]

2-§. Ma'muriy-huquqiy shartnomalarning o'ziga xos xususiyatlari va turlari

Ma'muriy-huquqiy shartnomalarning mazmuni ularning xususiyatlarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Yuridik adabiyotlarda berilgan tushunchalarga tayanib, ***ma'muriy-huquqiy shartnomalar va ularning o'ziga xos xususiyatlariga*** quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *ma'muriy-huquqiy shartnomalar*ga maxsus majburiyatlar (shartlar)ni nazarda tutadigan va oddiy fuqarolik-huquqiy shartnomalar doirasidan tashqari chiqadigan shartnomalarni kiritish mumkin.

Mazkur shartnomalarda davlat va jamiyat manfaatlarini qondirishni nazarda tutgan davlat vazifalarini amalga oshirish ifodalanadi.

Bugungi kunda, ijro hokimiyati organlarining ma'lum bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olish to'g'risida qabul qilgan qarorlarini — *huquqiy akt* sifatida tan olish hamda uning majburiyligini qonunchilikda o'rnatish zarurati vujudga keldi. Bunday qaror-

[1] O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. — T.: «Adolat», 1996-y.

larning majburiy ijro etilishi, davlat budjeti mablag'laridan tegishli organlar orqali ta'minlanishi lozim.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalarning majburiy shartlari ikkinchi ishtirokchi tomonidan bajarilmaganligi — mazkur shartnomalarda ko'rsatib o'tilgan iqtisodiy sanksiyalarni harakatga keltirishi, shuningdek, ijro hokimiyati organi tomonidan shartnomaning bir tomonlama tartibda bekor qilinishiga olib kelishi lozim;

2) *ma'muriy-huquqiy shartnomalar*ga — davlat xizmati boyicha tuzilgan shartnomalarni kiritish lozim.

Davlat xizmati to'g'risidagi shartnomalarda ijtimoiy ehtiyojlarni va fuqarolarning manfaatlarini qondirish, jamoat tartibini saqlashni ta'minlash boyicha vakolatlar va funksiyalarning ijro hokimiyati organlaridan xo'jalik birlashmalariga va boshqa shaxslarga o'tkazilishi nazarda tutiladi;

3) *ma'muriy-huquqiy shartnomalar* ijro hokimiyati organlarining kontrol-nazorat vakolatlarini, shuningdek, shartnoma munosabatlariga kiruvchi ikkinchi tomonga nisbatan iqtisodiy sanksiyalarni qo'llash mumkinligini nazarda tutadi;

4) *ma'muriy-huquqiy shartnomalar*ga ijro hokimiyati organlarining turli xildagi mahsulotlarni yetkazib beruvchi korxonalar bilan tuzgan shartnomalarini ham kiritish mumkin. Lekin bunda korxonalarning soliq sohasida, kredit olishda, ma'lum bir budjet mablag'laridan foydalanishda imtiyozlarga ega bo'lishi nazarda tutilishi lozim;

5) ijro hokimiyati sohasida vakolatlarni taqsimlash va quyiga berish boyicha tuzilgan hamda o'z vakolatlarini beruvchi yuqori ijro hokimiyati organining bevosita nazorati ostida va shartnoma shartlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan tomonning javobgarligi nazarda tutilgan shartnomalarni — *ma'muriy-huquqiy shartnomalar*ga kiritish mumkin;

6) *ma'muriy-huquqiy shartnomalar*ni huquqiy tartibi quyidagilarni inobatga olishi lozim:

a) ma'muriy-huquqiy shartnomalar kompetensiya doirasida ijro hokimiyati organlari tomonidan yoki bunday shartnomalarni tuzish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs (boshqaruv organi rahbari yoki maxsus ishonchnoma asosida boshqa mansabdor shaxs) tomonidan tuzilishi mumkin. Agar shartnomaning ishtirokchisi sifatida kollegial organ namoyon bo'lsa, shartnoma tuzilgandan so'ng, u vakolatli organ mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim;

b) shartnoma munosabatlari ishtirokchilarining biri tomonidan majburiyatlarining bajarilmagani yoki lozim darajada bajarilmaganida, ijro hokimiyati organi tomonidan shartnomaning bir tomonlama tartibda bekor qilishi va aybdor tomonga nisbatan mazkur shartnomada nazarda tutilgan iqtisodiy va boshqa sanksiyalarni qo'llash vakolatiga ega bo'lishi lozim;

d) ijro hokimiyati organi shartnoma munosabatlariga kirishganida, uning ijro etilishini nazorat qilish, barcha hujjatlar bilan tanishib chiqish, shartnoma subyektlarining faoliyatini tekshirish vakolatiga ega bo'lishi kerak. Nazoratni amalga oshirish tartibi va uslublari shartnomaning o'zida nazarda tutilishi lozim;

e) ijro hokimiyati organi nazarda tutilmagan holatlarning vujudga kelishi bilan shartnomani bir tomonlama tartibda, uning moliyaviy va boshqa muhim shartlarini buzmagan holda, o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Mazkur shartnoma boyicha vujudga keladigan barcha nizolar ma'muriy va sud tartibida hal qilinishi lozim;

f) shartnoma munosabatlari subyektlari ustidan shikoyat qilish va prokuroming mazkur shartnoma va uning ijrosi ustidan protesti — ma'muriy sudlar tomonidan, ularning tashkil etilishiga qadar esa, tegishli sudlar (masalan, xo'jalik sudlari) tomonidan ko'rib chiqilishi lozim;

7) shartnomalarni tuzish va ijro etishda, belgilangan doirada, fuqarolik qonunchiligi bilan o'rnatilgan shartnomalarning umumiy talablaridan foydalanish lozim. Masalan, shartnoma shakli; shartnomalarda o'rnatiladigan muddatlar; shartnoma ishtirokchilari va ularning ma'muriy-huquqiy holati; shartnomalarni ijro etish; shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash; shartnoma shartlarini buzganlik uchun javobgarlik; shartnoma shartlarini o'zgartirish va uni bekor qilish va h.k.lar.

Yuridik adabiyotlarda *ma'muriy-huquqiy shartnomalarning turli ko'rinishlari* ko'rsatib o'tilgan. Jumladan:

1) ***yuridik xususiyatlari***ga ko'ra:

a) *huquqni o'rnatuvchi* shartnomalar (masalan, normativ tusdagi shartnomalar; axborot almashinuvi to'g'risidagi shartnoma);

b) *huquqni qo'llovchi* shartnomalar (masalan, yuridik faktlar sifatidagi shartnomalar);

2) ***shartnoma predmeti***ga ko'ra:

a) *kompetensiya* boyicha shartnomalar;

b) *o'zaro hamkorlik* (birgalikdagi faoliyat) boyicha shartnomalar;

d) *fuqaroning davlat xizmatiga kirishi* boyicha shartnomalar;

3) ***subyektlarning o'zaro munosabatlari***ga ko'ra:

a) *bir-biriga nisbatan kontrol-nazorat yoki boshqa maxsus vakolatlarga ega bo'lmagan subyektlar* o'rtasidagi shartnomalar;

b) *bir subyektning ikkinchi subyektga qaraganda maxsus vakolatga ega bo'lgan* ishtirokchilar o'rtasidagi shartnomalar.[1]

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy-huquqiy shartnomalar tushunchasi.
2. Ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzishning asosiy talablari.
3. Ma'muriy-huquqiy shartnomalarning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Ma'muriy-huquqiy shartnomalarning turlari.

[1] Корнеев А.П. Абдурахманов А.А. Административные договоры: понятие и виды // ЖРП. 1998. №7. 86-б.; Иванов В.В. некоторые вопросы теории нормативного договора // Право и политика. 2000. №4. С. 87–90.

15-bob. BOSHQARUVNING NOHUQUQIY SHAKLLARI

1-§. Boshqaruvning nohuquqiy shakllari tushunchasi

Boshqaruv faoliyatida ijro hokimiyati organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan barcha harakatlarni ham huquqiy aktlarni qabul qilish yoki ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzishga (ya'ni huquqiy shakllarga) kiritish mumkin emas. Boshqaruv faoliyatida amalga oshiriladigan ko'pdan-ko'p harakatlar (nohuquqiy shakllar) mavjudki, ular huquqiy shakllarning amalga oshirilishida xizmat qiladi.

Boshqaruv faoliyatining nohuquqiy shakllari – ijro hokimiyati organlarining davlat-hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq emas. Bunday shakllarni qo'llash yuridik oqibatlarni keltirib chiqarmaydi, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi yoki ularni o'zgartirmaydi. Shu sababli ham, bu shakllar «*nohuquqiy*» deb ataladi. Nohuquqiy shakl – huquqqa (qonunga) xilof shakl degani emas, balki biron bir huquqiy oqibatni keltirib chiqarmaydigan shakllardir.

Yu.M.Kozlovning fikricha, nohuquqiy shakllarni amalga oshirish – boshqaruvning huquqiy aktlarini qabul qilish bilan bog'liq bo'lmaganligi sababli, to'g'ridan-to'g'ri yuridik oqibatlarni vujudga keltirmaydi. Ular huquqiy shakllarga xos bo'lgan – ma'muriy huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi. Nohuquqiy shakllar huquqiy shakllarni qo'llashga yoki ularni keyinchalik amalga oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy harakatlardir.[1]

Deyarli barcha adabiyotlarda, nohuquqiy shakllarga bir xilda ta'rif berilgan, ya'ni ***nohuquqiy shakllar*** – bu davlat organlarining hokimiyat vakolatini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan va yuridik oqibatlarni vujudga keltirmaydigan boshqaruv faoliyatining shakli hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatining nohuquqiy shakllari ikkiga: *tashkiliy* va *moddiy-texnik* harakatlarga bo'linadi.[2]

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право. – М.: «Юрист», 2003. С.142–142.

[2] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С. 314–315.

2-§. Boshqaruvning nohuquqiy shakllari turlari

Boshqaruv faoliyati (harakatlari)ning nohuquqiy shakllari:

1) *tashkiliy harakatlar* yoki *tadbirlarni amalga oshirish* (masalan, majlislar o'tkazish, ilg'or va namunali tajribani, boshqaruvning salbiy holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish); *uslubiy-ko'rsatmalarni tayyorlash*; *joylarda ijrochilarga ko'maklashish* va boshqalardan iborat.

Tashkiliy harakatlar yoki tadbirlar boshqaruv faoliyati jarayonida qo'llanilib, huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi, o'zgartirmaydi yoki bekor qilmaydi. Ular boshqaruv funksiyalarini amalga oshirmaydi.

B.N.Gabrichidzening fikricha, ijro hokimiyatini amalga oshirish jarayonida tashkiliy (tashkiliy-ommaviy) harakatlar keng qo'llaniladi. Odatda, ularga – kundalik operativ-tashkiliy, tashkiliy-instruktorlik harakatlari, shuningdek, ijro hokimiyati sohasiga kiruvchi u yoki bu ishlarning holatini baholashni nazarda tutadigan kontrol ishlari, turli xildagi majlislarni, seminarlarni, davra suhbatlarini, tekshirishlarni o'tkazish, dasturlarni ishlab chiqish, yangi foydali tajriba bilan tanishish va boshqalar kiradi.[1]

Polyak huquqshunosi E.Starostsyak esa o'zining ilmiy ishlarida, mazkur shakllarni «*ijtimoiy-tashkiliy ma'muriy faoliyat*» sifatida ko'rsatib o'tadi.[2]

X.R.Alimovning ko'rsatib o'tishicha, tashkiliy tadbirlar (harakatlar)ni amalga oshirish – bu boshqaruv faoliyatining turli xildagi kundalik ko'rinishidir. Huquqda barcha holatlarning ham ifoda etilmaganligi sababli, tashkiliy harakatlar boshqaruvning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Tashkiliy harakatlar boshqaruv tizimi yuqori va quyi organlarining aniq va samarali ishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, ular ichki boshqaruv xususiyatiga ega. Shu bilan birga, ulardan ijtimoiy faoliyat organlariga, fuqarolarga ma'lum bir ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi.[3]

2) *moddiy-texnik harakatlar*, ya'ni davlat-xizmat faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan va ish yuritish, ro'yxatga olish, rasmiylashtirish, hujjatlar, ma'lumotlar, materiallarni ko'pay-

---

[1] Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 206–207.

[2] Старосьцяк Е. Правовые формы административной деятельности. – М.: 1959. С. 290–305.

[3] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др. / – Т.: «Адолат», 1999. С.176–177.

tirish va yuborish, axborotlar bilan ishlash, analitik hisobni yuritish, moddiy-texnik ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv faoliyatining shakllari.

Boshqaruv faoliyatining bu shaklini amalga oshirish nafaqat xodimlarning yuqori tayyorgarlikka ega bo'lishiga, balki davlat boshqaruvi organlarining ma'lum bir texnika bilan jihozlanganligiga ham bog'liqdir.

Moddiy-texnik harakatlar boshqaruv tizimini samarali tashkil etish va moddiy ta'minlashga, boshqaruv harakatlarini shakllantirishga, maxsus texnikani qo'llashga xizmat qiladi.

Moddiy-texnik operasiyalar ko'p qirrali bo'lib, boshqaruv jarayonini tayyorlash va amalga oshirishning muhim xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu nafaqat ijro hokimiyati organlari vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish jarayonini ta'minlovchi tayyorlov-texnik faoliyati hisoblanadi, balki ular huquqiy va maqsadga muvofiq yo'naltirilgan xususiyatga ham egadir.

Ba'zi yuridik adabiyotlarda, moddiy-texnik operatsiyalar tashkiliy harakatlardan farq qilgan holda, boshqaruv faoliyatining shakli sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan. Chunki ular ko'maklashish (yordam berish) xususiyatiga egadir. Bundan tashqari, ular ijro hokimiyatini amalga oshirishni ifoda etmaydi; bu harakatlarni boshqaruv xodimlari emas, balki xizmat ko'rsatuvchi personal amalga oshiradi.[1]

D.N.Baxraxning fikricha, ijro hokimiyati faqatgina ma'muriy-huquqiy shaklda amalga oshirilishi mumkin. Davlat boshqaruvi faoliyati esa ham huquqiy, ham nohuquqiy shaklda amalga oshiriladi. Ommaviy boshqaruvga to'xtaladigan bo'lsak, u davlat-hokimiyat vakolatlari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy shakllar va bu shakllarning amalga oshirilishini ta'minlovchi nohuquqiy shakllar orqali amalga oshiriladi.[2]

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Boshqaruvning nohuquqiy shakllari tushunchasi.
2. Boshqaruv nohuquqiy shakllarining vazifalari.
3. Tashkiliy harakatlar.
4. Moddiy-texnik harakatlar.

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: «ЗЕРЦАЛО», 1998. С. 237.

[2] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С. 314–315.

TO'RTINCHI BO'LIM

MA'MURIY-HUQUQIY USLUBLAR

16-bob. DAVLAT BOSHQARUVI USLUBLARI

1-§. Davlat boshqaruvi uslublari tushunchasi va xususiyatlari

Boshqaruv shakli (ijro hokimiyati yoki boshqaruv harakatlari shakli) masalasi bilan tanishib chiqish, boshqa huquqiy hodisaning – *boshqaruv uslublari*ni ham aniqlash lozimligini ko'rsatadi. ***Uslub*** – bu amaliy faoliyatning usuli, vositasi hisoblanadi. Boshqaruv shakllari va boshqaruv uslublarini bir-biridan ajratmagan holda ko'rib chiqish lozim.

Ma'muriy huquqning tartibga solish uslubi va ma'muriy huquqiy (boshqaruv) uslublar, nomlanishi jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Lekin bu holat ularning faqatgina tashqi ko'rinishidan yaqinligini ko'rsatadi. *Tartibga solish uslubi* – ma'muriy huquqning asosiy funksiyasi bo'lib, boshqaruv munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi vosita hisoblanadi. *Davlat boshqaruvi uslubi* esa boshqaruv subyektlari (ijro hokimiyati organlari) oldida turgan barcha vazifalarni, shu jumladan, tartibga solishni ham, amaliy hal etish vositasi hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi uslubi – ma'muriy huquq har qanday subyektining emas, balki ma'lum bir sohada boshqaruvni (ijro hokimiyatini) amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan subyektning funksiyasi hisoblanadi.

Boshqaruv organlari normativ tusdagi hujjatni qabul qilganida, bu ikkala vosita bir-biriga mos kelishi mumkin. Lekin tartibga solish uslubi o'zining mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan davlat boshqaruvi uslublaridan ajralib turadi. Huquqiy tartibga solish hamma vaqt normativdir. Shu sababli, uning vositalari (ko'rsatma berish, taqiq, vakolat berish) tartibga solinadigan munosabatlarning barcha subyektlariga nisbatan qo'llaniladi. Boshqaruv uslublari esa bunday vakolatga ega bo'lgan ijro hokimiyati organi (mansabdor

shaxs) tomonidan qo'llaniladi hamda ular yakkalashtirilgan, ya'ni individuallashtirilgandir.

Yuridik adabiyotlarda boshqaruv uslublari turlicha nomlangan bo'lishi mumkin, masalan, «*boshqaruv harakatlarini amalga oshirish uslublari*», «*boshqaruv faoliyati uslublari*», «*ma'muriy huquqiy uslublar*», «*ijro hokimiyatini amalga oshirish uslublari*» va hokazolar. Lekin bu tushunchalarning mazmuni bir xil, ya'ni davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan boshqaruvni (boshqaruv harakatlarini) amalga oshirish, tegishli obyektlar va shaxslarga ma'muriy ta'sir ko'rsatish maqsadida, qonunchilikda ruxsat etilgan doirada, qo'llaniladigan usul va vositalardir.

Demak, ***boshqaruv uslubi*** – davlat boshqaruvi faoliyatining maqsadlariga erishish, vazifalarini bajarish va funksiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan huquqiy vositalar hisoblanadi.

Boshqaruv shakli boshqaruv ta'siri usullarini o'z ichiga oladi. Masalan, boshqaruv organi tomonidan ma'lum bir sohada nazoratni amalga oshirish va javobgarlikni qo'llashi uchun mansabdor shaxsning majburiyatlarini o'rnatuvchi huquqiy akt qabul qilinishi lozim.

Shakl uslubga qaraganda birlamchi hisoblanadi.

Boshqaruv uslubi boshqaruv subyektining obyekt bilan o'zaro munosabatga kirishganligini aniqlash imkoniyatini beradi.

Boshqaruv uslubi boshqaruv shaklida, albatta, o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, boshqaruv shakli bo'lmaganida, boshqaruv uslublari, ya'ni boshqaruv subyektining obyektga nisbatan ta'siri o'z ma'nosini va o'zining formal mazmunini yo'qotadi, amalda emas, balki xayolda qoladi. Masalan, ma'lum bir shaxsni ma'muriy yoki intizomiy javobgarlikka tortishga yoxud davlat budjeti mablag'laridan ma'lum bir obyektni moliyalashtirishga qaratilgan boshqaruv faoliyati harakatlarini rasmiylashtirmasdan turib, ya'ni boshqaruvning tegishli huquqiy aktini qabul qilmasdan turib, amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababli, boshqaruv uslublari boshqaruv shakllari bilan va asosan huquqiy aktlarni qabul qilish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Davlat boshqaruvi tizimida boshqaruv uslublari muhim *huquqiy vosita* hisoblanadi.

Ma'muriy huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan, boshqaruv uslublari masalasini ikki ko'rinishda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan – boshqaruv uslublari mavjud bo'lishini va ularning boshqaruv sohasidagi ahamiyatini nazariy asoslash;

ikkinchidan – boshqaruv uslublarini amalga oshirish mexanizmini yaratish va normativ ta'minlash.

Boshqaruv uslublari – ijro hokimiyati organlari tomonidan davlat boshqaruvi maqsadlari, vazifalari va funksiyalarining amalga oshirilishini ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv uslublari yordamida davlat funksiyalari bevosita amalga oshiriladi. Uning vazifalari hal qilinadi, huquq-tartibot, fuqarolar va turli tashkilotlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta'minlanadi. Boshqaruv uslublari – iqtisodiyot (xo'jalik), ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilish sohalarida ommaviy boshqaruvni amalga oshirishning zaruriy elementi hisoblanadi.

Boshqaruv uslublari – boshqaruv ishi qanday amalga oshirilishini, boshqaruv maqsadiga uning qanday usul va vositalari orqali erishilishini belgilab beradi.

Boshqaruv uslublari – huquq subyektining boshqasiga nisbatan maqsadga muvofiq yo'naltirilgan ta'sir etish vositasidir.

Maxsus adabiyotlarda huquqshunos olimlar, boshqaruv uslublariga deyarli bir xilda yondashgan, boshqaruv uslublarining odatiy, ***o'ziga xos xususiyatlari***ga esa quyidagilar kiritilgan:

1) boshqaruv uslublarining mavjudligi – *davlat hokimiyati ijro etuvchi organlarini tashkil etishga asoslanadi*;

2) boshqaruv uslubining asosiy maqsadi yoki uning amaliy ahamiyati – *davlat boshqaruvini, boshqaruv vazifalari va funksiyalarining ijro hokimiyati organlari tomonidan amaliy bajarilishini ta'minlashdan iborat*;

3) boshqaruv uslublaridan *boshqaruv faoliyatida qo'llaniladi va foydalaniladi*;

4) *davlat boshqaruvi subyekti va obyekti o'rtasida maxsus huquqiy munosabatlar mavjud bo'ladi.*

Bu munosabatlarda davlat organi yoki mansabdor shaxs turli vositalar – ishontirish, tarbiyalash, tartibga solish yoki majburlash choralarini qo'llash orqali o'z vakolatini amalga oshiradi. Boshqaruv uslublari mazkur munosabatlarda boshqaruv subyekti va obyekti o'rtasida vujudga keladigan aloqa va munosabatlarni ifodalaydi;

5) *huquqiy aktlarda boshqaruv ta'siri o'rnatiladi, ya'ni boshqaruv uslubini qo'llash huquqiy tartibga solingan bo'ladi.*

Lekin boshqaruv amaliyotida huquqiy normalar bilan tartibga solinmagan (yoki ularda nazarda tutilmagan) uslublar (masalan, ishontirish, tarbiyalash) ham qo'llanilishi mumkin;

6) boshqaruv uslublari *boshqaruv subyektlariga tegishli bo'lgan kompetensiya va vakolatlarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi*;

7) boshqaruv uslublari *boshqaruv subyektlari tomonidan obyektga nisbatan qo'llaniladigan vakolatlarning; tegishli subyekt yuridik hokimiyat vakolatlarining xususiyatlarini namoyon etadi*;

8) *har bir aniq holatda boshqaruv ta'sirining mazmuni boshqaruv uslublari qo'llanilayotgan obyektning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi* (masalan, jismoniy shaxs yoki tashkilot, mulk shakli, vertikal bo'ysinuvning mavjudligi va h.k.lar);

9) boshqaruv uslublari har qanday boshqaruv ta'siri singari, *boshqaruv sohasida namunali (belgilangan) tartibni ta'minlaydi; ular tashkiliy xususiyatga ega va boshqaruv tizimida yuz berayotgan jarayonlarni tartibga soladi*;

10) *boshqaruv ta'sirini ko'rsatuvchi subyektlar tomonidan huquq ijodkorligi va individul-farmoyish berish vakolatlari amalga oshiriladi*;

11) boshqaruv uslublarining *doimiy harakatda bo'lishi, ya'ni ular boshqaruv tizimini, funksiya va vakolatlarning bajarilishini real ta'minlaydi*;

12) *qonunchilikda boshqaruv uslublarini qo'llashning belgilangan tartibi mavjud bo'ladi*;

13) *boshqaruv uslublarini qo'llashning tashkiliy-huquqiy shakllari yoki ularni ifodalashning huquqiy shakllari mavjud bo'ladi.*

Boshqaruv uslublar to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv shakllariga bog'liq bo'lib, ularda ifodalangan bo'ladi. Shu ma'noda, boshqaruv uslublari va boshqaruv shakllari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Masalan, ma'muriy majburlash uslubi aniq bir shaxsni ma'muriy jazoga (jarima, ma'muriy qamoq) tortishga qaratilgan individual aktni qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Boshqaruv uslublari ma'muriy huquq ijodkorligi shaklida ham, masalan, boshqaruv ta'sirini ta'minlash maqsadida ma'lum bir normativ huquqiy aktni tayyorlash va qabul qilishda ham namoyon bo'lishi mumkin;

14) boshqaruv uslublari – *boshqaruv subyektining obyektga nisbatan ta'siri o'ziga xos xususiyatlarga ega.*

Boshqaruv uslublari *to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishi* (masalan, huquqbuzarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki mansabdor shaxslarga intizomiy javobgarlikni qo'llash) yoki *egri ta'sir etishi* mumkin (masalan, qonunchilikda nazarda tutilgan davlat xizmatchilari uchun cheklovlarni amalda tatbiq qilish yoki, aksincha, rag'batlantirish choralarini qo'llash);

15) boshqaruv uslubida *boshqaruv obyektiga yakka yoki jamoa ta'sirini ko'rsatish mavjud bo'ladi*;

16) boshqaruv uslublarini qo'llashning *vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lishi, ya'ni boshqaruv ta'siri hamma vaqt ham uzoq muddatga emas, balki ma'lum bir muddatga mo'ljallangan bo'ladi.*

Yu.M.Kozlovning fikricha, boshqaruv uslublariga quyidagi xususiyatlar xos bo'lib hisoblanadi:

— *boshqaruv uslublari* ijro hokimiyatini amalga oshirish maqsadlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir;

— *ularda* davlat-boshqaruv faoliyati subyektlari bilan obyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqa ifodalanadi;

— *boshqaruv uslublari* ijro hokimiyati organlari tomonidan ularga berilgan kompetensiyani amalga oshirish uchun qo'llaniladi;

— *boshqaruv uslubi* o'zining aniq yo'nalishiga, yakka yoki jamoa obyektiga ega;

— *unda* boshqaruv munosabatlari ishtirokchilarining xulq-atvoriga boshqaruv (tartibga solish) ta'sirini ko'rsatish nazarda tutiladi;

— *ular* ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarda ommaviy manfaatlarni ifodalaydi;

— *boshqaruv uslubi* — yuridik hokimiyat vakolatining ma'lum bir qismini o'zida nazarda tutadi.[1]

Boshqaruv uslublari o'rtasida davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdor shaxslarining yuridik hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan *ma'muriy-huquqiy uslublar* muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyot sohasidagi boshqaruv tizimida *umumiy tartibga solish* yoki *ma'muriy-huquqiy tartibga solish uslublari* shakllanmoqda va huquqiy mazmunga ega bo'lmoqda. Ularda iqtisodiy munosabatlarga boshqaruv ta'sirini o'tkazishning kuchli va samarali potensiali mavjuddir. Jumladan, iqtisodiyotning turli sohalaridagi davlat kontroli va nazorati; sanoat sohalariga moliyaviy (budjet) yordam ko'rsatish; davlat tashkilotlarini samarali boshqarishni ta'minlash; monopoliyaga qarshi tartibga solish; xususiylashtirish jarayonlarining amalga oshirilishi; subyektlarga u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnomalar (litsenziyalar) berish va h.k.lar.

Ma'muriy-huquqiy uslublarning maqsadi — ommaviy manfaatlarni himoya qilish, huquqiy tartibotni, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan davlat tadbirlarini kuchaytirish, davlat boshqaruvida intizomni mustahkamlashdan iboratdir.

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право. — М.: «Юрист», 2003. 155-б.

2-§. Davlat boshqaruvi uslublarining turlari

Yuridik adabiyotlarda, davlat boshqaruvi tizimidagi ta'sir ko'rsatishning ikki asosiy (universal) uslubi: ***ishontirish*** va ***majburlash*** uslublari ko'rib chiqiladi. Amaliyotda bu uslublar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ishontirish – boshqaruv uslubi sifatida, *tushuntirish*, *tarbiyalash*, *rag'batlantirish* va boshqa axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan choralarni amalga oshirish orqali isonlarga ta'sir ko'rsatish hisoblanadi. Rag'batlantirish, masalan, davlat boshqaruvi sohasida ijro hokimiyatining fuqarolar, yuridik shaxslar, huquqiy munosabatlar turli subyektlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida qonuniylik va intizomni ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshqaruvning maqsad va vazifalariga erishish majburlash xususiyatidagi choralar yordamida ham ta'minlanishi mumkin. Bu holatda, boshqaruv obyekti, normativ-huquqiy aktlarda ko'rsatib o'tilgan tartibda harakat qilishga majbur bo'ladi.

Agar shaxslarning harakati huquqiy aktlarning talablariga mos kelmasa, davlat, uning organlari va mansabdor shaxslar majburlov choralarini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Ba'zi vaqtlarda bu choralar huquqiy tartibotni, jamoat tartibini, harakatlarni amalga oshirishning o'rnatilgan tartibini ta'minlovchi choralar sifatida namoyon bo'ladi.

Ayrim hollarda esa, majburlov choralari huquqbuzarlikni (nojo'ya xatti-harakatni) sodir etgan shaxsni jazolashga qaratilgan bo'ladi. Bu – intizomiy, moddiy, ma'muriy yoki jinoiy xususiyatdagi choralar sifatida namoyon bo'ladi.

Majburlov choralari shaxsning qonunga xilof xulqini cheklashga, shuningdek, turli ijtimoiy munosabatlardagi qonuniy tartibni qayta tiklashga qaratiladi.

Boshqaruv uslublari ***ma'muriy (to'g'ri)*** va ***iqtisodiy (tartibga soluvchi)*** uslublarga bo'linadi.

Ma'muriy uslublar – boshqaruv subyektining obyektga (fuqarolarga, yuridik shaxslar, davlat xizmatchilariga) bir tomonlama tartibda davlat-hokimiyat ta'sirini ko'rsatishi orqali ifodalanadi.

Boshqaruvni amalga oshiruvchi subyekt tegishli shaxslar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan va yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan huquqiy aktlarni qabul qiladi. Qabul qilingan qarorning, buyruqning yoki farmoyishning bajarilmaganligi intizomning buzilishi hisoblanib, aybdor shaxsga nisbatan qonunda belgilangan majburlov choralari qo'llaniladi.

Davlat boshqaruvi ideologiyasi o'z tarkibida to'g'ridan-to'g'ri hokimiyat ta'sirini ko'rsatishning ma'muriy uslublari mavjud bo'lishini talab etadi. Keng ma'noda, *boshqaruv uslublari* ijro hokimiyatining birligini, davlat boshqaruvi turli subyektlari o'zaro munosabatida tartib-intizomni, shuningdek, ijro hokimiyati organlari funksiyalanishining qonuniyligini ta'minlaydi.

Boshqaruv uslublari mazkur uslublar yo'naltirilgan shaxslarning ongiga, irodasiga va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Bu uslublarni amalga oshirish huquq subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ta'sirni, moddiy-mulkiy natijalarni keltirib chiqarmaydi.

Ma'muriy uslublarda obyektlar o'z xohishiga ko'ra boshqaruvni amalga oshirish imkoniyatiga ega emas, ular belgilangan ma'muriy tartib doirasida va qabul qilingan ko'rsatmalarni bajarishga majburdirlar.

Huquq subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish (ma'muriy) uslublaridan foydalanmasdan, davlat boshqaruvining maqsad va vazifalariga erishib bo'lmaydi. *To'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish* — bu ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan yuqori turuvchi mansabdor shaxs yoki boshqaruv subyekti tomonidan bo'yruq, farmoyishning qabul qilinishidir.

Ma'muriy uslublar boshqariluvchilarning moddiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni moddiy naf yoki moddiy rag'batlantirish olishni nazarda tutmagan.

Namunali xulq-atvorga o'rnatilgan ko'rsatmalarga ixtiyoriy rioya qilish orqali erishiladi, ya'ni bunda asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi *axloqiy* xususiyatga ega bo'ladi.

Iqtisodiy munosabatlarga to'g'ridan-to'g'ri (ma'muriy) ta'sir ko'rsatish davlatning iqtisodiy manfaatlari qondirilishini ta'minlashda zarurdir. Iqtisodiyot sohasiga davlatning ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan — iqtisodiy faoliyat ma'lum bir turlarining faqat davlat tomonidan amalga oshirilishi (masalan, soliq, bojxona faoliyati);

ikkinchidan — davlat tashkilotlari xo'jalik faoliyatini boshqarish va markazlashgan holda tartibga solish;

uchinchidan — davlat mulki obyektlarini boshqarish;

to'rtinchidan — iqtisodiyot sohasida davlat kontroli va nazoratini amalga oshirish;

beshinchidan — ro'yxatga olish, ruxsat berish (litsenziya) faoliyatini amalga oshirish va h.k.lar.

Ma'muriy uslublarni turli asoslarga ko'ra ***tasniflash*** mumkin. Jumladan:

1) ***ifodalash shakliga ko'ra*** ma'muriy uslublar:

a) *huquqiy* (normativ huquqiy aktlarda nazarda tutilgan va huquqiy mazmunga ega bo'lgan) uslublar;

b) *tashkiliy* (boshqaruv subyekti tomonidan tashkiliy-boshqaruv harakatlarini amalga oshirish) uslublariga bo'linadi;

2) ***ma'muriy-huquqiy xususiyatlarga asoslanib***, ular:

a) *normativ* (normativ huquqiy aktlarni qabul qilish maqsadida qo'llaniladigan) uslublar;

b) *individual* (yakka ma'muriy huquqiy aktlarni qabul qilishda qo'llaniladigan) uslublarga bo'linadi;

3) ***boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra*** ma'muriy uslublar:

a) *imperativ*, ya'ni taqiqlarni, to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy buyruqlarni, davlat-hokimiyat ko'rsatmalarini nazarda tutuvchi, shuningdek, tegishli harakatlarni sodir etish yoki tegishli xulq-atvorni amalga oshirishga majburlovchi uslublar;

b) *vakolat beruvchi*, ya'ni ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish yoki boshqaruvning tegishli aktini qabul qilishga ruxsat beruvchi uslublar;

d) *rag'batlantiruvchi* va *tavsiya beruvchi*, ya'ni rag'batlantirish yoki ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish boyicha tavsiyalarni beruvchi uslublarga bo'linadi.

Boshqaruvning ***tartibga soluvchi*** (***iqtisodiy***) uslublarini qo'llash orqali boshqaruv obyektlari tomonidan namunali xulq-atvorga erishilganida, ularning iqtisodiy yoki moddiy manfaatlarini qondirish ta'minlanadi. Boshqaruv subyekti boshqariluvchi obyektlarning individual (yakka) manfaatlariga ta'sir etish orqali boshqaruvning maqsad va vazifalarining bajarilishiga shart-sharoit yaratib beradi.

Moddiy (yoki iqtisodiy) tartibga solish orqali boshqariluvchi obyektlar tomonidan o'z faoliyatlarida o'rnatilgan tartib va ko'rsatmalarga rioya etishi ta'minlanadi. Shu tariqa *boshqaruvning ichki apparati* (masalan, davlat organlarida xizmatchilarni moddiy rag'batlantirish, mansabdor shaxslar uchun moddiy va mulkiy imtiyozlar berish) hamda *iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi* (masalan, iqtisodiyotga yangi ishlanmalarni joriy etishni tartibga solish, iqtisodiyotning ma'lum bir sohalarini qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlarini berish) ta'minlanadi.

Davlat organlari tomonidan boshqariluvchilarga samarali boshqaruv ta'sirini ko'rsatish — iqtisodiy uslublarni «*egri*» yo'l bilan qo'llash orqali erishiladi.

Boshqaruvni tartibga soluvchi (iqtisodiy) uslublari quyidagi *o'ziga xos xususiyatlar*ga ega:

a) boshqaruvning nazarda tutilgan natijalariga erishish uchun, boshqariluvchi shaxslarning ongi va irodasiga ta'sir ko'rsatish;

b) boshqariluvchi subyektlarning manfaatlariga, ehtiyojlariga ta'sir ko'rsatish orqali, ularning namunali xulq-atvorda bo'lishini ta'minlashning real boshqaruvini tashkil etish;

d) jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzishga qaratilgan harakatlar va qarorlarni ma'muriy hamda sud tartibida shikoyat qilinishini ta'minlash;

e) ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish va qarorlarni qabul qilishni belgilovchi boshqaruv aktlarini chiqarish;

f) boshqaruv harakatlarini amalga oshirish uslublari qaratilgan shaxslarga xatti-harakat (xulq-atvor)ni tanlash imkoniyatini berish;

g) tartibga solishning normativ o'rnatilishi va h.k.lar.

Boshqaruvning iqtisodiy uslublari, ma'muriy uslublar singari, faqatgina normativ hujjatlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Boshqaruv — bu uslublarining tartibga solish ta'siri — boshqaruv sohasidagi ularning muhimligi, ahamiyatliligi va samaradorligi bilan ifodalanishi kerak.

Ba'zi huquqshunos olimlar tomonidan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan egri (iqtisodiy) tartibga solishning quyidagi elementlari ham ko'rsatib o'tiladi: davlat axboroti va prognozi; davlat dasturlari, kontraktlar va buyurtmalar; baho, daromad, aholi bandligi, professional tayyorgarlikni tartibga solish; soliq va amortizatsiyaviy siyosat.

Ma'muriy va iqtisodiy uslublar turlicha mazmunga va ahamiyatga ega bo'lsalar ham, amaliyotda ular chambarchas bog'liqdir. Ular boshqaruv mazmuniga ega ekanligi; qo'llash subyektlari; boshqaruv ta'sirining obyekti; boshqaruvning maqsadiga erishish va vazifalarini bajarish; boshqaruv ta'sirini amalga oshirish shakli (ma'muriy yoki boshqaruvning huquqiy aktini qabul qilish) boyicha umumiy xususiyatlarga egadir. Shu bilan birga, davlat boshqaruvining turli sohalarida u yoki bu boshqaruv uslublaridan foydalanish ko'p uchrab turadi. Masalan, davlat xavfsizligi organlari yoki ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda ma'muriy uslublar ko'proq qo'llaniladi; ta'lim, fan va sog'liqni saqlash sohalarida ma'muriy uslublar bilan bir qatorda, iqtisodiy uslublar katta ahamiyatga ega bo'ladi; sanoat sohasida ma'muriy uslublarga qaraganda, iqtisodiy uslublar ko'proq qo'llaniladi.

Ma'muriy va iqtisodiy uslublar birgalikda boshqaruv ta'sirining tegishli usullar va vositalar tizimini tashkil etadi.

Davlat boshqaruvi sohasida foydalaniladigan odatiy (umumiy) uslublarga, D.N.Baxraxning fikricha, quyidagilarni kiritish mumkin:

1) boshqaruv faoliyatini tartibga solish; davlat boshqaruvi sohasida amalda bo'luvchi tegishli ko'rsatmalarni o'rnatish;

2) boshqaruv jarayoniga yangi boshqaruv texnologiyalarini va vositalarini kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;

3) u yoki bu harakatlarni amalga oshirish yoki tegishli qarorlarni qabul qilishda taqiqlarni, cheklovlarni va majburiyatlarni o'rnatish;

4) aniq bir vazifani bajarish zarurligi to'g'risida og'zaki yoki yozma farmoyish berish;

5) davlat mulki obyektlarini boshqarish;

6) ruxsat berish, ro'yxatga olish va litsenziyalash faoliyatini amalga oshirish;

7) davlat boshqaruvi organlariga bo'ysinuvchi tashkilotlarni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qarorlarni qabul qilish;

8) ma'lum bir sohalarni, ishlab chiqarishni, korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

9) monopoliyaga qarshi faoliyatni amalga oshirish;

10) sertifikatlashtirish, davlat statiskasi faoliyatini amalga oshirishning huquqiy tartibini, standartlarini o'rnatish;

11) ommaviy boshqaruv subyektlari talablarini qondirish to'g'risida qaror qabul qilish;

12) ijro hokimiyati organlari tizimi va tuzilishini qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish;

13) boshqaruv personalini shakllantirish va ular faoliyatining samaradorligini ta'minlash boyicha choralarni (lavozimga tayinlash, attestatsiya o'tkazish, xizmat boyicha yuqoriga ko'tarish, yangi malakaviy daraja berish, malakasini oshirishga yuborish, lavozimdan bo'shatish) amalga oshirish;

14) boshqaruv huquqiy aktlarini to'xtatish yoki bekor qilish;

15) ommaviy boshqaruv (ma'muriy) shartnomalarni tuzish zarurligi to'g'risida qaror qabul qilish;

16) davlat buyurtmasini joylashtirish;

17) davlat ro'yxatiga olish (ijro hokimiyati organlarining normativ hujjatlarini, mahalliy tuzilmalarning ustavlarini);

18) tartibga soluvchi boshqaruv faoliyatini, shuningdek, davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladigan nizolarni va boshqa boshqaruv ishlarini amalga oshirishning protsessual tartibi va jarayonini o'rnatish;

19) kontrol va nazorat faoliyatini amalga oshirish;

20) ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyatni amalga oshirish;

21) huquq ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish;

22) ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini qo'llash;

23) rag'batlantirish va boshqa tartibga solish tadbirlarini amalga oshirish;

24) moddiy javobgarlik choralarini qo'llash.[1]

Yu.M.Kozlov, boshqaruv uslublarining ishontirish va majburlash turlaridan tashqari, tegishli harakatlarning aniq maqsadlaridan kelib chiqqan holda, ularni uch guruhga bo'ladi:

birinchidan — ***boshqaruv ta'siri uslublari.*** Bunda boshqaruv subyekti va obyekti o'rtasidagi munosabatlarga xos bo'lgan barcha xususiyatlar bevosita o'z ifodasini topadi;

ikkinchidan — ***ijro hokimiyati organlari ishini tashkil etish uslublari.*** Bu uslublar apparat ahamiyatiga ega bo'lib, samarali boshqaruv ta'sirini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib beradi. Mazkur uslublarga huquqiy (masalan, apparat xodimlari o'rtasida javobgarlikni o'rnatish, vakolatlarni taqsimlash) va huquqiy bo'lmagan (masalan, matematik, ijtimoiy, tadqiqot) vositalar kiradi. Bunday uslublardan boshqaruv ta'siri doirasida foydalaniladi;

uchinchidan — ***boshqaruv harakatlarini amalga oshirish uslublari.*** Bu uslublar protseduraviy xususiyatga ega (masalan, boshqaruv qarorlarini qabul qilishning, kontrol-nazorat harakatlarini amalga oshirishning ma'lum bir uslublari mavjud).[2]

Ma'muriy-huquqiy uslublar (boshqaruv uslublari) turli ko'rinishlarda: xulq-atvor qoidalarini o'rnatishda; aniq vazifalarni berishda; ma'lum bir harakatlarni sodir etishni belgilashda; lavozimga tayinlashda; boshqaruv munosabatlari ishtirokchilarining qonuniy talablarini qondirishda; ma'lum bir harakatlarni taqiqlashda; turli xildagi ruxsatnomalar berishda; ro'yxatga olish faoliyatini amalga oshirishda; kontrol va nazorat olib borishda; moddiy va axloqiy rag'batlantirishda; moddiy sanksiyalarni qo'llashda; ma'muriy nizolarni hal etishda; davlat buyurtmalarini rasmiylashtirishda; ma'muriy majburlov choralarini qo'llashda va h.k.larda namoyon bo'lishi mumkin.

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. — М.: «Норма», 2004. С. 386—387.

[2] Козлов Ю.М. Административное право. — М.: «Юрист», 2003. С. 158—159.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Davlat boshqaruvi uslubi va ma'muriy huquqning tartibga solish uslubi.
2. Boshqaruv uslubi tushunchasi.
3. Boshqaruv uslubi va boshqaruv shaklining o'zaro munosabati.
4. Boshqaruv uslublarining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Davlat boshqaruvi uslublarining turlari.
6. Ma'muriy (to'g'ri) uslublar.
7. Iqtisodiy (tartibga soluvchi) uslublar.
8. Davlat boshqaruvi sohasidagi umumiy uslublar.

17-bob. ISHONTIRISH VA RAGBATLANTIRISH

1-§. Ishontirish – boshqaruv uslubi sifatida

Ishontirish – davlat boshqaruvini amalga oshirishning asosiy uslublaridan biri bo'lib, shaxslarning namunali irodasini shakllantirish yoki qayta shakllantirish maqsadida turli xildagi tushuntirish, tarbiyalash, tashkil etish ishlarini olib borishda namoyon bo'ladi. Ishontirish – boshqaruv subyektlarining huquqiy aktlarda ifodalangan talablarining shaxslar tomonidan ixtiyoriy amalga oshirilishida ifodalanadi. Boshqaruvning bu uslubi yordamida, qonun chiqaruvchi (huquq o'rnatuvchi) va fuqarolar irodasining birligiga erishiladi.

Ishontirish – bu ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladigan harakatlar jarayoni bo'lib, *e'tibor, ichki ishonch, shaxsning ongiga ta'sir etish, manfaatni shakllantirish* kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Fuqarolar, boshqaruv hokimiyati maqsad va vazifalari mazmuni to'g'risida aniq tushuncha hosil qilganida, ularning talablariga rioya qiladilar va qo'llab-quvvatlaydilar, shuningdek, ularni amalga oshirishga ongli va faol ishtirok etadilar.

Ishontirish uslubi yordamida insonlarning ongiga va irodasiga nazarda tutilgan (belgilangan) ta'sir ko'rsatiladi, huquqiy ko'rsatmalar va boshqaruv subyekti harakatlarining maqsadga muvofiqligiga hamda ularga bo'lgan e'tiborni shakllantirishga erishiladi.

Insonlarni qonunlarga, huquqiy tartib-intizomga rioya qilish, bo'ysinish ruhida tarbiyalash boshqaruv huquqiy aktlarini va harakatlarini ixtiyoriy amalga oshirilishini ta'minlashda katta ahamiyatga egadir. Ayrim hollarda, fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini bilishi, o'z-o'zidan huquqiy ko'rsatmalarning bajarilishiga, shaxsning intizomliligiga olib keladi.

Fuqarolarning ayrim guruhlari, huquqiy ko'rsatmalarning talablarini bajarmagan taqdirda ularga nisbatan noxush oqibatlarni olib kelishini anglagani sababli, mazkur talablarni ijro etadilar.

Huquqiy demokratik jamiyatda ishontirish – insonlarga boshqaruv ta'sirini ko'rsatishning asosiy uslubi hisoblanadi. Chunki:

— ***birinchidan*** — bu uslublar fuqarolarga nisbatan doimiy (yoki har kunlik) qo'llaniladi;

— ***ikkinchidan*** — o'rnatilgan talablarning ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi, insonlarni qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashni ta'minlaydi. Demokratik tartib — huquqiy aktlarni muhokama qilish va qabul qilishda, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarni keng ko'lamda jalb etish uchun imkoniyat beradi. Ijtimoiy-siyosiy faoliyat jarayonida va insonlarning shaxsiy amaliyotida vujudga kelgan *yuqori tashkilotchilik*, *shaxsiy javobgarlik* va *intizomlilik* — ishontirishni shakllantirishning vositalari hisoblanadi;

— ***uchinchidan*** — ilmiy-texnik taraqqiyot, demokratik jamiyat — insonlar xulq-atvorini tashqaridan (davlat, uning organlari tomonidan) tartibga solinishining o'zini-o'zi tartibga solish (boshqarish)ga o'tilishini talab etadi. Shaxs faoliyatining samaradorligi, birinchi navbatda, tashqi nazoratga muhtoj bo'lmagan ruhiy holatga bog'liqdir. Shu sababli, mehnat faoliyatida shaxsning o'z harakatlari ustidan ichki (o'zining) nazoratning amalga oshirilishi, uning ijtimoiy ahamiyati va maqsadini hamda oqibatlarini anglashi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tarbiyalash, o'zini-o'zi tartibga solish (boshqarish), o'zini-o'zi nazorat qilishda esa, ishontirishning turli shakllari katta ahamiyatga ega bo'ladi;

— ***to'rtinchidan*** — oxirgi vaqtlarda shakllangan omaviy axborot vositalari tizimi davlat va mahalliy boshqaruv apparati tomonidan olib borilayotgan tadbirlar to'g'risida va ularning mazmun-mohiyatini tushuntirish ishlarini olib borish imkoniyatini beradi. Matbuot, televidenie va radio fuqarolarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini yanada oshirdi;

— ***beshinchidan*** — ishontirish uslublarini qo'llash, davlat majburlov choralarini qo'llashga qaraganda, moddiy jihatdan ancha qulay vosita hisoblanadi.

Ishontirish uslublari turli-tumandir. Masalan, ishontirish uslubariga: ta'lim olish, targ'ibot, tashviqot, tushuntirish, tajriba almashish va boshqalarni kiritish mumkin. Fuqarolarga instruktaj (ko'rsatma berish ma'nosida), mitinglar, yig'ilishlar, reklama, murojaatlarga o'z vaqtida javob berish, ishlarni nobyurokratik tarzda hal etish ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Davlat, mahalliy va shaxsiy faoliyat yutuqlari va ijobiy natijalari to'g'risidagi axborotlar tizimini shakllantirish ham katta ahamiyatga egadir. Ishontirish shakllariga ko'rgazmalarni tashkil etish, konkurslarni o'tkazish, ma'lum bir dasturlarni, ommaviy tadbirlarni amalga oshirish ham kiradi. Insonlarning xulq-atvoriga

shaxsga bo'lgan ishonch, jamoadagi muhit, ishni aniq tashkil etish, samarali nazoratni amalga oshirish ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Insonlarga samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, aybdor shaxslarga o'z vaqtida va adolatli javobgarlik choralarini qo'llash, qonunga zid xatti-harakatlarga qarshi kurashishning yaxshi tashkil etilganligi ham ko'pchilikda namunali xulq-atvorning shakllanishiga, qonun talablariga mos xulq-atvorni amalga oshirishga (ishontirishga) xizmat qiladi va h.k.lar.

2-§. Rag'batlantirish tushunchasi va uning turlari

Boshqaruvning samarali uslublaridan yana biri — bu **rag'batlantirish**dir. Rag'batlantirish — *manfaatdorlik, ong* orqali insonlarning irodasini belgilangan foydali ishni bajarishga yo'naltiruvchi ta'sir etish usulidir. Rag'batlantirish ma'lum bir ishlarning bajarilishiga, moddiy va axloqiy manfaatdorlikning vujudga kelishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda, boshqaruvning rag'batlantirish uslubini tartibga soluvchi huquqiy normalar (qonunchilik) shakllangan bo'lib, rivojlanish jarayonidadir. Bunga konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat va boshqa huquq normalarini kiritishimiz mumkin. Huquqiy tartibga solingan rag'batlantirish, A.V.Malkoning fikricha, bu — ixtiyoriy, maqsadga muvofiq va xurmatga sazovor xulq-atvorni ma'qullashning yuridik shakli va chorasi bo'lib, uni amalga oshirish natijasida subyekt mukofotlanadi (ya'ni unga nisbatan foydali oqibatlar vujudga keladi).[1]

Amaldagi huquqiy normalar yordamida rag'batlantirish choralari; uni qo'llash asoslari; hokimiyat subyektining rag'batlantirish boyicha vakolati; rag'batlantirish tartibi mustahkamlangan.

Boshqaruvning rag'batlantirish uslubini tartibga solishda ma'muriy-huquqiy normalarni tutgan o'rni kattadir. Ular orqali rag'batlantirishning turli choralari, keng ko'lamdagi rag'batlantirish asoslari va rag'batlantiriluvchi shaxslar doirasi belgilab beriladi.

D.N.Baxraxning ko'rsatib o'tishicha, rag'batlantirish — ijro hokimiyati faoliyatining uslubi sifatida quyidagi *o'ziga xos xususiyatlar*ga egadir:

1) hokimiyat subyekti tomonidan ijobiy baholanadigan xizmat, xatti-harakat — rag'batlantirishning faktik asosi bo'lib hisoblanadi;

---

[1] Малко А.В. Теория государства и права в вопросах и ответах. — М.: 1997. С. 17.

2) rag'batlantirish sodir etilgan xatti-harakatlarni baholash bilan bog'liqdir;

3) rag'batlantirish ma'lum bir individual yoki jamoa subyektlariga nisbatan qo'llaniladi;

4) rag'batlantirish – axloqiy ma'qullash, huquqlar, imtiyozlar, moddiy qimmatliklar berishdan iboratdir;

5) u orqali rag'batlantiriluvchi irodasiga manfaatdorlik, emotsiya, ong orqali egri ta'sir ko'rsatiladi.[1]

Rag'batlantirish – ko'pgina insonlarda mavjud bo'lgan ularni faoliyatini baholash, xizmatini tan olish hamda ular amalga oshirayotgan faoliyatga e'tibor qaratish ehtiyoji bilan bog'liqdir.

Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishning umumiy prinsiplaridan, rag'batlantirishning – *asoslantirilganlik*, *operativlik* va *oshkoralik* prinsiplari kelib chiqadi. Ularga amal qilish rag'batlantirish uslubining samarali qo'llanilishini ta'minlaydi.

Rag'batlantirish faoliyatining oshkoraligi – rag'batlantirilgan shaxs uchun ham, uni o'rab turgan muhit uchun ham katta ahamiyatga egadir. U rag'batlantirilgan shaxsning obro'-e'tiborini oshiradi, o'rab turgan muhitning unga nisbatan bo'lgan munosabatini yaxshilaydi, ko'pgina shaxslarga namunali ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy tartibga solingan rag'batlantirish qonunlar, davlat rahbari, ijro hokimiyati organlari, davlat va nodavlat tashkilotlarining aktlari bilan o'rnatiladi.

Boshqaruv harakatlarini amalga oshirish uslubi sifatida, rag'batlantirish, tartibga soluvchilik ta'sirini ko'rsatish usullarining tizimini ifodalaydi. Ijobiy baholanadigan xatti-harakatlarning turlitumanligi sababli, ularga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish vositalari ham har xildir.

Rag'batlantiriluvchi shaxsga ta'sir ko'rsatishning barcha ijobiy tartibga solish vositalarini uch guruhga: a) *axloqiy*; b) *moddiy*; d) *aralash*ga bo'lish mumkin. Masalan, moddiy rag'batlantirishni olib ko'radigan bo'lsak, u qimmatli sovg'alar berishda ifodalanadi.

Rag'batlantirish choralari bir vaqtning o'zida ham moddiy, ham axloqiy bo'lishi mumkin. Masalan, bunday aralash shakldagi ta'sir ko'rsatishga (rag'batlantirishga) – muddatidan oldin navbatdagi darajani berishni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi[2]ning 180-moddasiga binoan, ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag'bat-

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С. 392–393.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1996, № 1-ilova.

lantirish choralari qo'llanilishi mumkin. Rag'batlantirish turlari, ularni qo'llash tartibi, afzallik va imtiyozlar berish jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartib-qoidalari va boshqa lokal hujjatlarda, jamoa kelishuvlarida, intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarda belgilab qo'yiladi. Xodimlar mehnat sohasida davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin. Ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar rag'batlantirish turlariga kirmaydi.

Yuqorida o'rnatilgan talab umumiy bo'lib, barcha sohada davlat va nodavlat tashkilotlari unga amal qilishi lozim. Aniq bir sohada qo'llaniladigan rag'batlantirish choralari bilan tanishib chiqadigan bo'lsak, rag'batlantirishning mazmun-mohiyati va ahamiyati to'g'risida tushunchalarni yanada boyitish mumkin. Masalan, qarang, «*Davlat xizmatchilarini rag'batlantirish*» (mazkur darslikning 10-bobi, 11-paragrafi).

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ishontirish tushunchasi.
2. Ishontirish uslublarining vazifalari.
3. Ishontirish uslublarining turlari.
4. Rag'batlantirish tushunchasi.
5. Rag'batlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga binoan rag'batlantirish choralari.

18-bob. MA'MURIY-HUQUQIY MAJBURLOV

1-§. Majburlov tushunchasi

Majburlov – bu bo'ysinuvchi subyektning irodasini rad etish va uning xulq-atvoriga tashqi ta'sir ko'rsatish hisoblanadi. O'rnatilgan tartibning (ko'rsatmaning) bajarilmaganligi sababli, hokimiyat subyektining irodasi buziladi. Hokimiyat subyekti irodasini qayta tiklash va bo'ysinuvga erishish maqsadida, ikkinchi subyektning irodasiga – axloqiy, mulkiy, tashkiliy, jismoniy ta'sir ko'rsatiladi.

Majburlov orqali – huquq tartibot, mulkchilik, fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari va manfaatlari, ommaviy hokimiyatning normal faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Majburlov – hokimiyatni amalga oshirishning asosiy uslubidir.

Jamiyatda majburlovning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ta'sir etish obyektiga qarab: ruhiy, moddiy, tashkiliy va jismoniy ta'sir etishga bo'linadi. Masalan, shaxsga, uning mulkiga qaratilgan ta'sir etish – *jismoniy*, ishdan bo'shatish, huquqdan mahrum etish, tashkilotni tugatish – *tashkiliy* ta'sir etish hisoblanadi. Lekin majburlovning bunday turlarga bo'linishi shartlidir.

Majburlov choralari huquqning individual subyektlariga ham, jamoa subyektlariga ham qo'llanilishi mumkin.

Majburlov choralarini yurdik tabiatiga ko'ra *qonuniy* va *qonunga zid* choralarga bo'lish mumkin. Qonuniy majburlov choralari – vakolatli davlat organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qonunga zid majburlov, masalan, boshqa davlatlarning agressiyasi, o'zga hududni bosib olishi, tashqi tazyiq va boshqalarda namoyon bo'lishi mumkin. Mamlakat ichida esa hokimiyat tuzilmalarining mansab suiiste'molliklari, vakolat doirasidan chetga chiqish, mansabdor shaxslarning xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan qarashida ifodalanishi mumkin.

Majburlov choralari, huquqshunoslarni, birinchi navbatda huquq tartibotni ta'minlash va davlat faoliyatining ma'lum bir uslubi sifatida qiziqtiradi. Huquqshunoslik fani huquqiy normalar asosida qo'llaniladigan hamda ommaviy hokimiyat ko'rsatmalariga rioya etilishiga olib keladigan ***huquqiy majburlov***ni o'rganadi.

Huquqiy majburlov:

— ***birinchidan*** — *insonlarning qonunga zid, jamiyat uchun zararli bo'lgan xulq-atvoriga nisbatan davlat organlarining ta'siri sifatida namoyon bo'ladi.* Majburlov choralari — huquqiy aktlarda ifodalangan iroda bilan uni buzgan shaxsning individual irodasi o'rtasidagi qarama-qarshilikka asoslanadi. Agar qonun talablarini buzadigan harakatlar sodir etilmasa, majburlov choralari ham mavjud bo'lmaydi. Aynan shu yerda huquqiy normaning chegarasi namoyon bo'ladi. Shtatning qisqarishi munosabati bilan ishdan bo'shatish, ijtimoiy ehtiyojlar uchun yerni olib qo'yish, sog'lig'ini yo'qotgan shaxsni avtomobil transportini boshqarish huquqidan mahrum etish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish erkinligini cheklash va h.k.lar insonlarga salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishiga qaramasdan, majburlov choralari hisoblanmaydi. Har qanday «noxush» oqibat ham, yuridik aktlarda ifodalangan bo'lishidan va shaxslarning ongli harakatlaridan kelib chiqqanligidan qat'i nazar, majburlov chorasi hisoblanmaydi.

— ***ikkinchidan*** — *qonun normalari talablarini buzgan huquqning aniq subyektiga nisbatan qo'llaniladi.* Bu — subyektning xulq-atvoriga tashqi ta'sir ko'rsatish bo'lib, huquqiy ko'rsatmalarni bajarishga majbur qiladi, yangi huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi, aybdorni va o'rab turgan muhitni tarbiyalashga xizmat qiladi.

— ***uchinchidan*** — *yurisdiksiyaviy, huquqni qo'llash aktlari orqali amalga oshiriladi.*

S.S.Alekseevning ko'rsatishicha, huquqiy normalarning o'zi, faqatgina majburlov imkoniyatini nazarda tutadi. Haqiqatda esa huquqiy tartibga solishning hokimiyat-majburlov xususiyati — huquqni qo'llash aktlarida ifodalanadi.[1]

— ***to'rtinchidan, huquq asosida qo'llaniladi.*** Huquqiy normalar — qanday choralar, qanaqa sharoitlarda, kim tomonidan va qanday tartibda amalga oshirilishini belgilab beradi.

Qonunchilik hujjatlari bilan hokimiyat organlari tomonidan qo'llaniladigan majburlov choralarining asoslari va xususiyatlari o'rnatiladi. Qonuniy asoslar mavjud bo'lganda qanday majburlov choralari va qanday tartibda qo'llanilishi normativ tartibda o'rnatiladi. Majburlov choralarini qo'llash jarayonini, majburlov subyektlari doirasi va ularning kompetensiyasini huquqiy tartibga solish katta ahamiyatga ega.

---

[1] Алексеев С.С. Механизм правового регулирования в обществе. — М.: 1966. С. 158.

Majburlov ta'sirini ko'rsatish jarayoni huquq bilan o'rnatiladi hamda fuqarolar va tashkilotlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning muhim kafolatlarini shakllantiradi.

Har qanday majburlov chorasini – huquq normasi bilan ruxsat etilgan shaxsning maqomini o'zgartirish ma'nosida tushunish lozim. Vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar, faqatgina huquqiy doirada, majburlov choralarini qo'llash huquqiga ega bo'ladi.

– ***beshinchidan,*** *huquqiy majburlovni tartibga solishda davlat «monopoliyasi» mavjud.*

Davlat qaysi organlar tomonidan, qanday tartibda va qanday majburlov choralarini qo'llashini tartibga soluvchi huquqiy aktlarni qabul qilish vakolatiga ega. Majburlovning maxsus apparatiga ega bo'lgan davlatgina, fuqarolarga va tashkilotlarga nisbatan majburlov choralarini qo'llashi mumkin.

Davlatning huquqiy normalari asosida fuqarolar va nodavlat tashkilotlariga o'zini himoya qilish huquqi beriladi, shuningdek, mahalliy va xususiy tashkilotlarga – intizomiy majburlovni qo'llash huquqi beriladi.

Rossiya Federatsiyasida davlatning majburlov choralarini qo'llash huquqi, masalan ma'muriy-huquqiy majburlovning ayrim choralari, mahalliy tashkilotlarga (xalq drujinachilari) va ba'zi bir jamoat tashkilotlariga (jamoat inspeksiyalari) berilishi mumkin.[1]

Nodavlat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, davlat ko'rsatmasiga binoan va davlatning bevosita nazorati ostida majburlov choralarini qo'llashlari mumkin.

Demak, ***huquqiy majburlov*** – huquq tartibotni ta'minlashning asosiy uslublaridan biri bo'lib, qonunda belgilangan tartibda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan huquqqa xilof xatti-harakatni sodir etgan huquqning aniq bir subyektiga qo'llaniladi.

Huquqiy majburlovning turli choralarga va ko'pgina o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi sababli, ularni turli asoslarga ko'ra tasniflash mumkin. Masalan, birinchi navbatda, ular sud va suddan tashqari qo'llaniladigan majburlov choralariga bo'linadi.

Majburlov choralarini o'rnatuvchi huquq tarmoqlariga ko'ra, ular davlat, fuqarolik, jinoyat, jinoyat-protsessual, mehnat va ma'muriy majburlovga bo'linadi.

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С.459.

Majburlov faoliyatining asosiy vazifasi – huquqiy tartibotni himoya qilishdir. *Huquqiy tartibot*[1] – bu jamiyatda o'rnatilgan tartibning bir qismi bo'lib, huquqiy normalarni amalga oshirish natijasida paydo bo'ladi, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munsabatlarni huquqiy vositalar orqali tartibga soladi. Qonuniylik huquqiy tartibot bilan uzviy bog'liq bo'lib, u orqali amalga oshiriladi.

2-§. Ma'muriy-huquqiy majburlov mazmuni va xususiyatlari

Ma'muriy huquq normalari – boshqaruv jarayonida huquqiy tartibotni ta'minlash maqsadida, keng doiradagi majburlov ta'siri choralarini mustahkamlaydi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, mazkur majburlov choralari nafaqat ma'muriy-huquqiy normalarni, balki amalga oshirilishi ijro hokimiyati subyektlari tomonidan ta'minlanadigan fuqarolik, mehnat, yer va boshqa huquq tarmoqlarining normalarini ham muhofaza qiladi.

Yuridik adabiyotlarda «*ma'muriy-huquqiy majburlov*» va «*ma'muriy huquq normalari bilan o'rnatiladigan majburlov choralari*» tushunchalari farqlanadi. Ma'muriy qonunchilik[2] – ma'muriy-huquqiy, intizomiy-huquqiy, ijtimoiy-huquqiy majburlov choralarini o'rnatadi.

Ma'muriy-huquqiy majburlov to'la hajmda, intizomiy majburlov choralari esa, qisman ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinadi. Bundan tashqari, ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinadigan intizomiy majburlov choralarini va intizomiy javobgarlik choralarini farqlash mumkin.

Huquq nazariyasiga binoan, javobgarlik – davlat majburlovining ko'rinishi, javobgarlik choralari esa, majburlov choralarining alohida turi hisoblanadi. Demak, ma'muriy-huquqiy majburlovning tarkibiy qismini ma'muriy javobgarlik, intizomiy majburlovning tarkibiy qismini intizomiy va moddiy javobgarlik tashkil etadi. Umuman olganda, ma'muriy huquq boyicha javobgarlik – ma'muriy huquq boyicha majburlovning bir qismidir.

---

[1] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi boyicha ta'lim olayotgan talabalari uchun / Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U.: / Mas'ul muharrir: X.B.Boboyev, H.T.Odilqoriyev / – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000-y. 376-b.

[2] Ma'muriy qonunchilik tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari. // Xojiyev Ye.T., Samijonov F.R. Ma'muriy qonunchilik tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: 2005. 5–20-b.

Yu.M.Kozlovning ko'rsatib o'tishicha, ma'muriy majburlov – asosiy maqsad emas, balki davlat majburlovining bir ko'rinishi bo'lib, undan huquqiy tartibotni himoya qilish va ta'minlashning oxirgi vositasi sifatida foydalaniladi. Ma'muriy majburlov choralaridan – huquqbuzarliklarni ogohlantirish va cheklash, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqishni, shuningdek, tegishli ravishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash vositasi sifatida foydalaniladi. Keng ma'noda, ma'muriy majburlash – ma'muriy-huquqiy normalarda ifodalangan xulq-atvor qoidalarining ijro etilishini ta'minlaydi.

Ma'muriy majburlov, odatda, suddan tashqari qo'llaniladigan choralar bo'lib, ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan ularning kundalik faoliyati jarayonida qo'llaniladi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, ular sud organlari tomonidan ham qo'llaniladi.[1]

Ijro hokimiyati organlari turli majburlov choralarini qo'llashda ishtirok etadilar. Ular o'z faoliyatlarini amalga oshirishda ma'muriy va intizomiy majburlov vositalaridan foydalanadilar. Ayrim hollarda, ijro hokimiyati organlari jinoiy-protsessual majburlov vositalaridan ham foydalanishlari mumkin. Masalan, ichki ishlar organlari yoki xavfsizlik xizmati organlari jinoiy ishlarni qo'zg'atib, dastlabki tergov harakatlarini olib boradilar va jinoiy-protsessual majburlov choralarini qo'llaydilar.

Ma'muriy-huquqiy majburlov choralari barcha ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan emas, balki qonun va qonunosti hujjatlari bilan belgilangan vakolatli davlat organlari (mansabdor shaxslari) tomonidan qo'llaniladi.

Ma'muriy-huquqiy majburlov ijro hokimiyati organlarining umumiy tizimiga kiruvchi huquqni muhofaza qilish organlarining funksiyasi hisoblanadi. Masalan, bunga ma'muriy-nazorat vakolatlariga ega bo'lgan barcha organlar kiradi.

Ma'muriy-huquqiy majburlov – umummajburiy xulq-atvor qoidalarini nazarda tutuvchi ma'muriy-huquqiy normalarga (masalan, harakatlanish xavfsizligi qoidalari, tabiatni muhofaza qilish qoidalari) rioya etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy-huquqiy majburlov – ma'muriy hokimiyatni amalga oshirish bo'lib, unda ijro hokimiyatini, davlat-boshqaruv faoliyati subyektlari yuridik hokimiyat vakolatlarini amalga oshirishning vositalari namoyon bo'ladi.

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право. – М.: «Юрист», 2003. С. 160–164.

Ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar)ning vakolatlari doirasida ma'muriy-huquqiy majburlov vositalarining mavjudligi, boshqaruv ta'sirining faqatgina majburlashga asoslanganligini anglatmaydi. Bu choralar yordamida ma'lum bir holatlarda (tabiiy ofatlar, favqulodda holatlarda) ijtimoiy hayotning normal sharoitlari ta'minlanadi; ular huquqni muhofaza qilish, ya'ni ijobiy (pozitiv) maqsadlarga xizmat qiladi va ayrim hollarda, jazo chorasi sifatida (majburlovning asl ma'nosida) qo'llaniladi.

Ma'muriy majburlov, X.R.Alimovning fikricha, insonlarning ongiga va xulq-atvoriga ruhiy yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish uslubi bo'lib, davlat boshqaruvi sohasida aybdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish, ma'muriy huquqbuzarliklarni ogohlantirish va cheklash maqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy majburlov:

a) odatda, davlat boshqaruvi organlari tomonidan qo'llaniladi; ayrim hollarda, sudya, vakillik organlari, shuningdek, jamoat birlashmalari tomonidan qo'llanilishi mumkin;

b) huquqni qo'llash organi bilan xizmat bo'ysinuvida bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi;

d) ularni qo'llovchi organlar doirasining kengligi;

e) insonlarni huquqiy tartibotga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash singari umumiy maqsadga qaratilgan – huquqbuzarlarni jazolash, huquqbuzarliklarni ogohlantirish va cheklash maqsadida qo'llaniladi;

f) shaxslarning huquqlarini cheklashga qaratiladi;

g) o'rnatilgan tartibga qarshi qaratilgan harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi;

h) protsessual tartibga ega;

i) ularni qo'llash jinoyatchilikni oldini olishga xizmat qiladi;

j) aksariyat hollarda, huquqbuzarlarga nisbatan, ayrim hollarda esa bunday xatti-harakatni sodir etmagan shaxslarga nisbatan (masalan, favqulodda hollatlarda, huquqbuzarlik sodir etilishini ogohlantirishda) qo'llanilishi mumkin;

k) ular boshqaruv faoliyatining barcha subyektlari emas, balki qonun hujjatlari bilan maxsus vakolat berilgan organlar tomonidan amalga oshiriladi.[1]

Yuridik adabiyotlarda, boshqaruv faoliyati subyektlari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy-huquqiy majburlov «*ma'muriy maj-*

[1] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Х.Р.Алимов, Л.И.Соловьева и др./ – Т.: «Адолат», 1999. С.193–195.

burlov» deb ko'rsatiladi. Lekin bu ikkala termin nomlanishi jihatidan biri-biriga o'xshab ketsa ham aynan bir narsaning o'zi emas. Chunki ma'muriy majburlov ma'muriy-huquqiy majburlovga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, huquqqa zid ko'rinishida (masalan, o'zboshimchalik, tazyiq) ham bo'lishi mumkin. Shu sababli, ma'muriy huquqning yoki boshqaruv faoliyatining asosiy uslubi to'g'risida gapirganda, aynan huquqiy majburlovni nazarda tutish lozim.

Ma'muriy-huquqiy majburlov – huquqiy majburlovning bir turi bo'lib, barcha *umumiy xususiyatlar* (huquqni qo'llash faoliyati sifatida namoyon bo'lishi, huquqiy tartibotni ta'minlashi, muhofaza qilinadigan huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshirilishi va h.k.lar)ga ega. Shu bilan bir vaqtda, uning sifat jihatlarini belgilab beruvchi *o'ziga xos xususiyatlari* ham mavjuddir. Jumladan:

1) ma'muriy-huquqiy majburlov choralari – ma'muriy-huquqiy vositalar bilan himoya qilinadigan normalarning buzilishiga olib keladigan va jamiyatda o'rnatilgan tartibga qarshi qaratilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) uchun qo'llaniladi;

2) ma'muriy-huquqiy majburlov – xizmat bo'ysinuvi dorasidan tashqarida, ya'ni ushbu huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida tashkiliy bo'ysinuvning mavjud bo'lmaganida, amalga oshiriladi;

3) ma'muriy · yurisdiksiyaning (ma'muriy-huquqiy majburlovning) ko'pgina subyektlar tomonidan amalga oshirilishi;

4) ma'muriy-huquqiy majburlov nafaqat jismoniy shaxslarga, balki tashkilotlar va jamoa subyektlariga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin;

5) ma'muriy-huquqiy majburlov – ma'muriy huquq normalari bilan har tomonlama tartibga solinadi. Ma'muriy huquq normalari ma'muriy-huquqiy majburlov choralarining turlarini, asoslarini va ularni qo'llash tartibini belgilab beradi.

Demak, ***ma'muriy-huquqiy majburlov*** – bu huquqiy majburlovning alohida turi bo'lib, huquqqa xilof qilmishga nisbatan ommaviy hokimiyat subyektlari tomonidan ma'muriy huquq normalarida nazarda tutilgan majburlov choralarining qo'llanilishidir. Ma'muriy-huquqiy majburlov – huquqiy tartibotni himoya qilishda, shuningdek, huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda katta ahamiyatga egadir. Bu shu bilan izohlanadiki, ichki ishlar organlari, davlat inspeksiyalari va boshqa ijro hokimiyati subyektlari tegishli tartib va qoidalarga rioya etilishi ustidan doimo nazoratni olib borib, ularning har qanday buzilishiga darhol ta'sir ko'rsatishlari

mumkin. Ma'muriy-huquqiy majburlov — jamiyat tartibiga tajovuz qiluvchi qilmishni to'xtatish va unga barham berishni, ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutuvchi ko'pgina cheklov (ehtiyot) vositalarini ham o'z ichiga oladi.

Ma'muriy-huquqiy majburlov vositalarining aksariyat hollarda, birinchi marotaba huquqbuzarlikni sodir etgan va bunday qilmishning jamiyat tartibiga qarshi qaratilganligini anglamagan fuqarolarga nisbatan qo'llanilganligi sababli, ularning jinoyatlarni oldini olishdagi tarbiyaviy ahamiyati juda yuqoridir. Amaliyotdan kelib chiqadigan bo'lsak, kam ahamiyatli huquqbuzarliklarga hech qanday ta'sir ko'rsatmaganlik, aybdor shxaslarga majburlov choralarini qo'llamaganlik — yangi huquqbuzarliklarning va jinoyatlarning sodir etilishi imkoniyatini oshiradi.

Ma'muriy-huquqiy majburlov choralari o'rtasida ishning mazmuniga qarab hal etishni nazarda tutuvchi mustaqil choralar ham mavjuddir. Masalan, bunga ma'muriy sanksiyalar kiradi. Shu bilan birga, ta'minlov, protsessual choralar ham mavjud bo'lib, ulardan ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini olib borishga shart-sharoit yaratib berish maqsadida foydalaniladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, majburlov — huquqiy tartibotni himoya qilish maqsadida qo'llaniladi. Lekin bunga, turli uslublarda erishiladi: huquqbuzarliklarni cheklash, huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan zararni qayta tiklash, jazo va h.k.lar. Shu sababli, majburlov choralarini qo'llash maqsadidan kelib chiqqan holda, ularni cheklov (ehtiyot) choralariga, qayta tiklash choralariga va jazo choralariga bo'lish mumkin.

3-§. Ma'muriy-huquqiy majburlov choralarining turlari

Ma'muriy-huquqiy majburlov — ma'muriy-huquqiy normalarda ifodalangan barcha xulq-atvor qoidalarini emas, balki davlat boshqaruvi sohasida umummajburiy qoidalarni o'rnatuvchi normalarning ijro etilishini ta'minlashga qaratilgandir.

Ma'muriy-huquqiy majburlov — davlat majburlovining ko'rinishi sifatida, jamoat tartibini saqlash va himoya qilishning, jamoat xavfsizligini ta'minlashning, davlat boshqaruvi sohasidagi boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning vositasi hisoblanadi. Bunda, ma'muriy-huquqiy majburlov, tegishli huquqbuzarliklarni ogohlantirish va cheklash maqsadini hamda kelajakda ma'muriy huquqbuzarlik uchun jazoni qo'llashni nazarda tutib, jazo funksiyalarini amalga oshiradi.

Majburlov choralarining «*ma'muriy-huquqiy*» deb nomlanishi, ularning odatda, suddan tashqari, ya'ni ma'muriy tartibda (maxsus vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi ijro hokimiyati organlari va mansabdor shaxslar tomonidan) qo'llanilishidan dalolat beradi.

Ma'muriy-majburlov choralarining ayrim turlari, faqatgina sud organlari tomonidan qo'llanilishi mumkin. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonun[1]ning 36-moddasiga binoan jinoyat ishlari boyicha tuman (shahar) sudi tarkibida ma'muriy ishlar boyicha sudyalar bo'lishi, nazarda tutilgan.

Ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini qo'llashni tartibga soluvchi ma'muriy-huquqiy normalar to'g'risidagi masala ham katta ahamiyatga ega. Bulardan foydalanish — fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini u yoki bu yo'sinda cheklashi mumkin.

Ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini amalga oshirish asoslari, shartlari va tartibi hamda u yoki bu holatlarda foydalanilishi mumkin bo'lgan choralar, ularni qo'llashga vakolatli bo'lgan davlat organlari (mansabdor shaxslar) qonun hujjatlari bilan aniq belgilab qo'yilishi lozim.

Ma'muriy-huquqiy majburlovni o'rnatuvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmunidan kelib chiqqan holda, ularni uch guruhga bo'lish mumkin:

a) ***ma'muriy ogohlantiruv choralari***;

b) ***ma'muriy cheklov (ehtiyot) choralari***;

d) ***ma'muriy jazo choralari***.

Ko'pgina huquqshunos olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida, ma'muriy-huquqiy majburlovning aynan mana shu choralarga bo'linishini nazarda tutadi. Ularning fikricha, ma'muriy ogohlantiruv choralariga — huquqbuzarlikni va boshqa zararli oqibatlarni bartaraf etish vositalari (masalan, karantin e'lon qilish, bojxona ko'rigidan o'tkazish, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish, majburiy davolash muassasasiga yuborish, chegaralarni yopish va h.klar) kiradi.[1]

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001, 1—2-sonlar, 10-m.

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. — «Зерцало», 1998. С.276—282.; Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Х.Р.Алимов, Л.И.Соловьева и др./ — Т.: «Адолат», 1999. С. 195—213.; Козлов Ю.М. Административное право. — М.: «Юрист», 2003. С. 160—164; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. — М.: «Норма», 2004. С. 464—471.

Oxirgi vaqtlarda ko'pgina mutaxassislar, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqishni ta'minlashning protsessual choralarini — ma'muriy-huquqiy majburlovning alohida mustaqil chorasi sifatida ko'rsatib o'tishadi. Bunday choralar, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lib, ma'muriy huquqbuzarliklarni cheklash, aybdorning shaxsini aniqlash, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish, o'z vaqtida va to'g'ri ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishni, ular boyicha qabul qilingan qarorlarni ijro etishni ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Bu choralar ma'muriy huquqbuzarlik ishlari boyicha dalillarning aniqlanishida va ularning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ma'muriy-huquqiy majburlovning — qayta tiklash ahamiyatga ega bo'lgan choralari ham mavjuddir. Bular ham huquqiy tartibotni tiklashga, huquqqa xilof xulq-atvorni tugatishga xizmat qiladi (masalan, o'zboshimchalik bilan qurilgan obyektni buzish, boqimandani undirish va h.k.lar).

Ma'muriy-huquqiy majburlovning, fuqarolar huquqlari va erkinliklariga rioya etish nuqtayi nazaridan, turli choralarga bo'linishidan qat'i nazar, ulardan ijro hokimiyati vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda foydalanish obyektiv zaruriyatdir. Ma'muriy-huquqiy majburlov choralari, ba'zi hollarda, boshqariluvchi tizim funksiyalanishining normal sharoitlarini ta'minlashning yagona vositasi sifatida namoyon bo'ladi, u orqali davlat-boshqaruv faoliyatining huquqni muhofaza qilish maqsadiga erishiladi.

4-§. Ma'muriy ogohlantiruv choralari

Ma'muriy ogohlantiruv choralari — majburiylik xususiyatiga ega bo'lgan choralar bo'lib, davlat boshqaruvi sohasida jamoat tartibi va xavfsizligini hamda boshqa zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni ogohlantirish maqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy ogohlantiruv choralari, masalan, ishlab chiqarishda, yo'l-transport harakatida to'qnashuvlar (avariyalar), yong'inlarning oldini olish; aholining sanitariya-epidemiologiya, havo va temir yo'ldagi xavfsizligini ta'minlash; tabiiy ofatlarda va favqulodda holatlarda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Ma'muriy ogohlantiruv choralari aniq ifodalangan profilaktik (ogohlantirish) xususiyatga ega bo'lib, ijro hokimiyati organlari va mansabdor shaxslarning yuridik hokimiyat vakolatlarini bir tomonlama tartibda bajarish jarayonida majburiy amalga oshiriladigan choralar hisoblanadi. Mazkur choralar, qoida boyicha, ma'lum bir taqiqlar va cheklovlar shaklida ifodalanadi. Ma'muriy ogohlantiruv choralari huquqbuzarlikning sodir etilishi holati bilan bog'liq bo'lmasdan, ularni bartaraf etishga qaratiladi, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganda qo'llaniladigan ma'muriy-huquqiy majburlovning boshqa choralarini vujudga keltiradi.

Ma'muriy ogohlantiruv choralari turli ko'rinishlarda ifodalanib, davlat boshqaruvi sohalarida ijro hokimiyatining turli subyektlari tomonidan qo'llaniladi.

Ma'muriy ogohlantiruv choralarining ko'p tarqalgan turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) *nazorat tartibidagi tekshiruvlarni amalga oshirish*;

b) *ogohlantirish tadbirlarini amalga oshirish to'g'risida majburiy ko'rsatmalar berish*;

d) *fuqarolarning ashyolarini va ularni shaxsiy ko'rikdan o'tkazish*;

s) *shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni ko'zdan kechirish*;

f) *karantin joriy etish*;

g) *transport va yo'lovchilarning harakatini to'xtatib turish*;

h) *shaxsning holatini aniqlash maqsadida tibbiy ko'rikdan o'tkazish* va h.k.lar.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks[1]ga binoan boshqa ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanib bo'linganidan keyin ma'muriy huquqbuzarlikni to'xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo'lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida tuzish imkoni bo'lmagan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish, ishlarning o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida shaxsni ko'rikdan o'tkazishga, uning ashyolari, transport vositalarini ko'zdan kechirishga va ashyo hamda hujjatlarni olib qo'yishga hamda ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga yo'l qo'yiladi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T.: «Adolat», 2005-y.

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish ichki ishlar organlarining, harbiy soqchilik, havo transportining, bojxona organlari va chegara qo'shinlarining vakolatli shaxslari, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa shunga vakolati bo'lgan boshqa organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsda bo'lgan shaxslar tomonidan va shu jinsdagi ikkita xolis guvoh ishtirok etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Ashyolarni ko'zdan kechirib chiqish ichki ishlar organlarining, harbiy soqchilik, havo transportining, bojxona organlarining, chegara qo'shinlarining, soliq organlarining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalarining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlarining, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek, tegishli vakolati bo'lgan organlarning boshqa vakolatli shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

Ashyolarni, ov qilish va baliq tutish qurollarini, qo'lga kiritilgan mahsulotlar va boshqa buyumlarni ko'zdan kechirish, odatda, shu ashyo va buyumlar kimning mulki yoki egaligida bo'lsa, o'sha shaxs ishtirokida amalga oshiriladi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, mazkur ashyolar, buyumlarni mulkdorsiz (egasisiz) ikkita xolis guvoh ishtirokida ham ko'zdan kechirib chiqilishi mumkin.

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish to'g'risida bayonnoma tuziladi yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga yoxud ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risidagi bayonnomaga tegishincha yozib qo'yiladi.

Bojxona muassasalarida shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish bojxonaga doir qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Huquqbuzarlarni ushlash, shaxsni ko'rikdan o'tkazish yoki ashyolarini ko'zdan kechirish vaqtida aniqlangan huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyolar bo'lmish ***ashyo va hujjatlar*** qonunda nazarda tutilgan organlarning mansabdor shaxslari tomonidan ***olib qo'yiladi***. Olib qo'yilgan ashyo va hujjatlar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilgunga qadar shunday ashyo va hujjatlarni olib qo'yish huquqi berilgan organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan belgilab beriladigan joylarda saqlanadi, ish ko'rib bo'linganidan keyin esa uni ko'rib chiqish natijalariga qarab, bu ashyo va hujjatlar belgilangan tartibda

musodara qilinadi yoki egasiga qaytarib beriladi yoxud yo'q qilib yuboriladi, ashyolar haq to'lab olib qo'yilgan taqdirda esa sotib yuboriladi.

Olib qo'yilgan orden, medal, faxriy unvonning ko'krakka taqiladigan nishoni qonuniy egasiga qaytarib beriladi, basharti, egasi noma'lum bo'lsa, unda tegishli organga jo'natiladi.

Bojxona qoidalari yoki soliq va valutaga to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda, basharti huquqbuzar O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lmasa, jarima undirilishini ta'minlash maqsadida uning ashyolari (qimmatli buyumlari) olib qo'yilishi mumkin.

Ashyo va hujjatlar olib qo'yilgan taqdirda bu xususda bayonnoma tuziladi yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga yoxud buyumlarni ko'zdan kechirib chiqish yoki ma'muriy yo'l bilan ushlab turish haqidagi bayonnomalarga tegishli yozuv yozib qo'yiladi.

Sodir etilgan huquqbuzarlik uchun kodeksga muvofiq transport vositasini, kichik hajmli kemani boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan mahrum etish tarzida ma'muriy jazo qo'llanilishi mumkin bo'lsa, huquqbuzardan uning ishi yuzasidan qaror chiqarilgunga qadar transport vositasi, kichik hajmli kemani boshqarish huquqini beruvchi guvohnoma, ovchilik bileti olib qo'yiladi va bu haqda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga, shuningdek, haydovchilik guvohnomasining taloniga, kema boshqaruvchisi guvohnomasining taloniga tegishlicha yozib qo'yilib, talonlar transport vositasi haydovchisiga, kema boshqaruvchisiga qaytarib beriladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomani olib qo'yish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, kichik hajmli kemalarni boshqarish huquqini beruvchi guvohnomani va ov qilish huquqini beruvchi guvohnomani olib qo'yish esa — O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, militsiya xodimlari ish ko'rib chiqilgunga qadar o'qotar qurolni, shuningdek, o'q-dorilarni olib qo'yishga haqlidirlar, bu xususda mazkur qurolning marka yoki modeli, kalibri, turkumi va tartib raqami, o'q-dorilarning miqdori va turi ko'rsatilgan holda bayonnomaga tegishli yozuv yozib qo'yiladi.

O'z xizmat burchini bajarish vaqtida huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan uning ashyolarini olib qo'yish, shaxsni ko'rikdan

o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirib chiqish juda zarur bo'lgan hollardagina qo'llaniladi.

Transport vositalarini ushlab turish va ko'rikdan o'tkazish qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ushlab turish sababi bartaraf etilgunga va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rilgunga qadar amalga oshirilishi mumkin. Bunday vakolatga quyidagilar ega: ichki ishlar organlari; harbiy avtomobil inspeksiyasining; O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlarining; O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining; O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalarining mansabdor shaxslari.

Ushlab qolingan transport vositalarini saqlash tartibi (Qurolli Kuchlarning, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlarning transport vositalaridan tashqari) hokimlar bilan kelishib turib, ichki ishlar organlari tomonidan belgilanadi.

Transport vositalarini ko'rikdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 31-yanvardagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizomga binoan, transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi organlari tomonidan mazkur Nizomga muvofiq o'tkaziladi. Texnik ko'rikdan o'tkazishning asosiy vazifalari bo'lib:

a) transport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari va qoidalariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish;

b) transport vositalarining texnik holati va uskunalari yo'l harakati xavfsizligi standartlari, qoidalari, normalariga muvofiqligini baholash;

d) transport vositalari sonini, ularning holatini, amalda mavjudligini, tegishliligini va boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarni aniqlashtirish;

e) yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash yuzasidan profilaktika ishlarini tashkil etish;

f) yo'l harakati va transport vositalaridan foydalanish sohasida huquqni buzishlar va jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va barham berish hisoblanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan va belgilangan tartibda YHX

bosh boshqarmasi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan transport vositalari, shuningdek, trolleybuslar va tramvaylar majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida ijro hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan ma'muriy ogohlantiruv choralardan biri — bu ***jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati***dir. Mazkur faoliyat O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida»gi Qonun[1] va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2002-yil 26-fevraldagi 51-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarida ma'muriy nazorat o'rnatish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnoma bilan tartibga solinadi. Amaldagi qonunchilikka binoan, *jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati* — tarbiyaviy oldini olish ta'sir choralarining majmuini ifodalab, nazorat ostidagilarga nisbatan qonunda ko'zda tutilgan cheklashlarni qo'llashdan iboradir.

Ma'muriy nazoratning asosiy maqsadi — ilgari sudlanganlar tomonidan takror jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, ularda ijobiy ijtimoiy yo'lga kirib olishini shakllantirishdan iboratdir.

Ma'muriy nazorat o'rnatilishi va amalga oshirilishi nazorat ostidagi kishining boshqa huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi, uning insoniy qadr-qimmatini kamsitmasligi, ish, o'qish va istiqomat joyida obro'sini to'kmasligi lozim.

Ma'muriy nazorat voyaga yetgan quyidagi shaxslarga nisbatan o'rnatiladi:

a) og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ularning jazoni o'tash davridagi xulq-atvori tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo'liga o'tishni aslo istamaganliklaridan dalolat bersa;

b) og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazo muddatini o'tab bo'lganlaridan so'ng ichki ishlar idoralarining

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993, 1-son, 33-m.

jamiyat uchun zararli kun kechirishni to'xtatish to'g'risidagi ogohlantirishiga qaramay, jamoat tartibini muntazam buzayotgan va fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazayotgan bo'lsalar;

d) o'ta og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga nisbatan.

Ma'muriy nazorat ostiga olingan shaxslarga nisbatan quyidagi cheklashlar qo'llanilishi mumkin:

a) kunning ichki ishlar idoralari belgilab qo'ygan vaqtida uy (kvartira)dan chiqib ketishini taqiqlash;

b) tuman (shahar)ning muayyan joylarida bo'lishini taqiqlash;

d) ichki ishlar idoralari (militsiya)ning ruxsatisiz tuman (shahar)dan tashqariga chiqib ketishni taqiqlash;

e) ro'yxatdan o'tish uchun har oyda bir martadan to'rt martagacha milisiyaga kelib uchrashish.

Yuqorida ko'rsatilgan cheklashlar nazorat ostida bo'lgan shaxsning turmush tarziga, oilaviy ahvoliga, avvalgi sudlanganligiga va uning shaxsini tavsiflovchi boshqa holatlarga qarab to'la hajmda yoki ayrim-ayrim yo'sinda qo'llaniladi.

Cheklashlar ro'yxati uzil-kesil hisoblanadi, unga qo'shimchalar qilish yoki kengaytirib sharhlash mumkin emas.

Ma'muriy nazoratni amalga oshirish nazorat ostidagi kishining istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralari (militsiya)ga yuklatiladi.

Sudyaning qarori *ma'muriy nazoratni o'rnatish uchun asos* hisoblanadi.

Ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risida taqdimnoma sudga quyidagilar tomonidan yuboriladi:

a) og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki va undan ko'proq marta hukm etilgan, jazoni ijro etish muassasalarida turgan shaxslarga nisbatan — jazoni ijro etish muassasasi boshlig'i tomonidan, mahkumning tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo'liga o'tishni aslo istamaganligidan dalolat beruvchi materiallar bo'lgan taqdirda, ozod etishdan kamida bir oy oldin;

b) o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun jazoni ijro etish muassasalaridagi shaxslarga nisbatan, - jazoni ijro etish muassasasi boshlig'i tomonidan, ozod etishdan kamida bir oy oldin;

d) jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslarga nisbatan — ichki ishlar idorasi boshlig'i tomonidan, shaxs jazoni ijro etish muassasasidan bo'shatilganidan keyin jamiyat uchun zararli tarzda kun kechirayotganligidan dalolat beruvchi materiallar asosida.

Ma'muriy nazoratni o'rnatish to'g'risidagi masala sudya tomonidan taqdimnoma olingan paytdan boshlab 10 kundan kechikmay hal qilinadi. Ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarorda nazorat belgilashga nimalar sabab bo'lganligi, nazorat muddati, nazorat ostidagi shaxsga nisbatan qo'llaniladigan cheklashlar, agar ma'muriy nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatishda belgilangan bo'lsa, uning tanlangan yashash joyiga yetib kelish muddati ko'rsatiladi.

Ma'muriy nazorat olti oydan bir yilgacha muddatga belgilanadi.

Ma'muriy nazorat muddati ichki ishlar idoralarining taqdimnomasiga binoan, har safar yana olti oyga uzaytirilishi mumkin, lekin uzaytirilgan nazorat muddati mazkur jinoyat uchun belgilangan sudlanganlik muhlatining tugashi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi uchun qonunda nazarda tutilgan muddatlardan oshmasligi lozim. Nazorat ostidagi shaxs o'ziga belgilangan vaqt ichida tuzalish yo'liga o'tmagan, jamoat tartibini buzayotgan, fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazayotgan yoki o'ziga nisbatan qo'llanilayotgan cheklashlarga rioya etmayotgan taqdirda ma'muriy nazorat muddatini uzaytirishga yo'l qo'yiladi.

Cheklashlar ro'yxati nazorat ostidagi kishining shaxsi, uning turmush tarzi va xulq-atvoriga qarab, lekin qonunda nazarda tutilgan cheklashlar doirasida qisqartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati jazoni o'tash davrida ma'muriy nazorat ostiga olinishi belgilangan shaxsni jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatish oldidan u tanlagan istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralariga bo'shatilayotgan kishining yetib borish vaqtini xabar qilgan holda sudyaning ma'muriy nazorat belgilash to'g'risidagi qarorini yuboradi.

Sudyaning ma'muriy nazorat belgilash yoxud nazorat muddatini uzaytirish va nazoratni amalga oshirish vaqtida qo'llaniladigan cheklashlarni o'zgartirish to'g'risidagi qarori nazorat ostida bo'lgan shaxsga ichki ishlar idorasi boshlig'i tomonidan, jazoni ijro etish muassasalarida bo'lgan shaxsga esa — jazoni ijro etish muassasasi boshlig'i tomonidan tilxat orqali bildiriladi. Bunda nazorat ostidagi shaxsga uning burchlari, ma'muriy nazorat qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik tushuntiriladi, nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilish oldidan belgilangan shaxsga esa — tanlangan istiqomat joyiga belgilangan muddatda yetib bormaganlik uchun javobgarlik tushuntiriladi. Nazorat ostidagi shaxsga, shuningdek, u ma'muriy nazoratdan bo'yin tovlab istiqomat joyidan o'zbo-

shimchalik bilan ketib qolganlik uchun javobgarlik tushuntirib beriladi.

Ma'muriy nazorat ostiga olingan shaxslarning fotosurati olinadi va ichki ishlar idoralarida hisobga olib qo'yiladilar. Zarur hollarda nazorat ostida bo'lgan shaxslarning barmoqlari izlari bostirib olinadi. Ma'muriy nazorat ostida bo'lgan har bir shaxs to'g'risida nazorat daftari yurgiziladi.

Ichki ishlar idoralari (militsiya) xodimlari ma'muriy nazoratni amalga oshirishda:

a) nazorat ostiga olinganlarning xulq-atvorini ular yashayotgan va ishlayotgan joyda muntazam nazorat qilib borishlari;

b) nazorat ostiga olinganlarni tanlangan istiqomat joyida ro'yxatdan o'tkazish va ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish yuzasidan zarur choralar ko'rishlari;

d) ular tomonidan jamoat tartibi buzilishi, boshqa fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur etkazilishini oldini olishlari hamda yo'l qo'ymasliklari;

e) ularga nisbatan belgilangan cheklashlar buzilganligi to'g'risida qonunda belgilangan tartibida bayonnomalar yozishlari shart.

Militsiya xodimlari ma'muriy nazoratini amalga oshirishda:

a) nazorat ostiga olingan shaxsning xulq-atvori to'g'risida ish beruvchidan, mazkur shaxs o'qiyotgan joyning ma'muriyatidan, u yashayotgan joydagi jamoat birlashmasi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organidan, shuningdek, fuqarolardan ma'lumotlar talab qilib olish;

b) nazorat ostida bo'lgan shaxsni ishga joylashtirish va unga turmush sharoiti yaratib berish to'g'risida tegishli davlat, jamoat va xo'jalik tashkilotlari oldiga masala qo'yish;

d) nazorat ostiga olingan shaxsni suhbat uchun militsiyaga chaqirish, zarurat bo'lganda bunday suhbatlarni ish beruvchining, jamoat birlashmasi va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organining vakillari, nazorat ostiga olingan shaxsning qarindoshlari, shuningdek, suhbat mavzuyiga aloqador shaxslar ishtirokida o'tkazish;

e) nazorat ostida bo'lgan shaxsdan ma'muriy nazorat qoidalarini ijro etish bilan bog'liq masalalar boyicha og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

f) nazorat ostida bo'lgan shaxsning turar joyini soat 6 dan 22 ga qadar borib ko'rish huquqiga egadirlar.

Ma'muriy nazoratni amalga oshirish yuzasidan ayrim tadbirlarni o'tkazishda ichki ishlar idoralariga yordam berish uchun ichki ishlar idoralarining shtatsiz xodimlari va jamoatchilikning boshqa vakillari jalb qilinishi mumkin.

Ma'muriy nazoratdan bosh tortayotgan shaxslarni qidirish sudya qaroriga binoan, militsiya tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'muriy nazorat quyidagi hollarda to'xtatiladi:

a) ma'muriy nazorat olib borish uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin, agar uni uzaytirishga asos bo'lmasa;

b) muddatidan ilgari, basharti nazorat ostida bo'lgan shaxs tuzalish yo'liga qat'iyan o'tganligi, ishda va turmushda o'zini yaxshi tomondan ko'rsatganligi aniqlangan bo'lsa;

d) nazorat ostida bo'lgan shaxsning sudlanganlik muhlati tugagan yoki sudlanganligi olib tashlangan hollarda.

Ma'muriy nazoratni «a» va «v» bandlarida nazarda tutilgan hollarda to'xtatish to'g'risida ma'muriy nazoratni amalga oshirayotgan militsiya xodimi tomonidan qaror chiqarilib, bu qaror ichki ishlar tuman, shahar, shahardagi tuman bo'limi (boshqarmasi) boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Ma'muriy nazoratni «b» bandida nazarda tutilgan hollarda muddatidan ilgari to'xtatish to'g'risida ichki ishlar idorasi boshlig'i tomonidan sudga asosli taqdimnoma yo'llanadi, taqdimnoma o'n kunlik muddatda ko'rib chiqilishi lozim.

Sudya yoki ichki ishlar idorasining ma'muriy nazoratni to'xtatish to'g'risidagi qarori nazorat ostida bo'lgan shaxsga e'lon qilinadi.

Ma'muriy nazorat ostida turgan shaxsga doir hisobga olish hujjatlari ichki ishlar idorasida nazorat to'xtatilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida saqlanadi.

Ma'muriy nazorat ostida turgan shaxs halol mehnat qilib kun kechirishi, jamoat tartibini buzmasligi, boshqa fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur etkazmasligi, *quyidagi qoidalarga rioya etishi shart:*

a) militsiyaning chaqiruviga binoan ko'rsatilgan muddatda borish hamda ma'muriy nazorat qoidalarini ijro etish bilan bog'liq masalalar boyicha og'zaki va yozma tushuntirishlar berish;

b) ishlash yoki yashash joyi o'zgarganligi to'g'risida, shuningdek, tuman (shahar)dan tashqariga ketayotgani to'g'risida ma'muriy nazoratni amalga oshirayotgan militsiya xodimlarini bir kecha-kunduzda xabardor qilish;

d) boshqa aholi manzilgohiga borganida va u yerda bir kecha-kunduzdan ko'proq vaqt turib qolganida mahalliy ichki ishlar (milisiya) bo'limida ro'yxatdan o'tish;,

e) qonunda nazarda tutilgan, unga nisbatan qo'llanilgan cheklashlarga rioya etish.

Ma'muriy nazorat ostiga olingan shaxslar belgilangan cheklashlarni buzganlari taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Ma'muriy nazoratdan bo'yin tovlab istiqomat joyidan o'zboshimchalik bilan ketib qolgan, shuningdek, ma'muriy nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilayotganda belgilangan hollarda tanlangan istiqomat joyiga muayyan muddatda uzrli sabablarsiz yetib kelmagan nazorat ostidagi shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Ichki ishlar organlari boshqa hildagi ma'muriy ogohlantiruv choralarini ham amalga oshirishlari mumkin. Jumladan:

— ma'lum bir asoslar mavjud bo'lganida, fuqarolarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirishi;

— yo'lovchilarning qo'l yukini va bagajini ko'zdan kechirish, zarur hollarda esa shaxsiy ko'rikdan o'tkazish;

— jamoat tartibiga biron-bir tarzda xavf vujudga kelganida, yo'llarda va ko'chalarda transport vositalari va yo'lovchilarning harakatlanishini cheklash yoki taqiqlash;

— insonlarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini himoya qilish maqsadida ularni ma'lum bir joylarga kirishini, undan chiqib ketishini yoki u joyni tark etishini talab qilish;

— transport vositalarini to'xtatish va boshqarish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni, transport vositasi va yuklarning hujjatlarini tekshirish;

— transport vositalari va yuklarni, haydovchi ishtirokida ko'zdan kechirish va h.k.lar.

O'zbekiston Respublikasida davlat sanitariya nazorati organlari tomonidan ham ma'muriy ogohlantiruv yo'sinidagi choralar qo'llanilishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi Qonun[1]ning 27-moddasiga binoan, ***davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar***ga quyidagi huquqlar berilgan:

a) davlat boshqaruvi idoralarida, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalardan, shuningdek, alohida shaxslardan yo'l qo'yilgan sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari buzilishiga barham berishni talab qilish;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992, 9-son, 355-m.

b) xalq xo'jaligi obyektlarini qurish va ularni qayta qurish loyihalarida sanitariya normalariga, qoidalariga va gigiena normativlariga rioya etilishini nazorat qilish;

d) mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalarga va alohida shaxslarga belgilangan tartibda:

— aholi punktlarini rejalashtirish va qurish loyihalari, xalq xo'jaligi obyektlarini joylashtirishning istiqbol rejalari boyicha, shuningdek, korxonalar, binolar va inshootlarni qurish, qayta qurish loyihalari boyicha xulosalar berish;

— qurilish uchun yer uchastkalari berish, ro'zg'orda va maishiy maqsadlarda suvdan foydalanadigan joylarni va oqova suvlar tozalanganidan keyin ularni tushirib yuborish shartlarini aniqlash, zaharli, kimyoviy, radioaktiv va boshqa moddalarni qayta ishlash va ko'mib tashlash masalalari boyicha xulosalar berish;

e) turarjoy binolari hamda madaniy-maishiy binolar, sanoat, qishloq xo'jalik va boshqa korxonalar, shuningdek, inshootlarning amaldagi sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga muvofiqligi haqida xulosalar berish;

f) bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan hamda o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bolalarning o'quv-mehnat soatlari va taxminiy mashg'ulot tartibi haqida taqdim etishgan takliflar yuzasidan xulosalar berish;

g) qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazar, ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlarini, boshqa muassasalar va tashkilotlarni maxsus ekspertizalar o'tkazishga jalb etish va bunga buyurtmachilar hisobidan haq to'lash;

h) sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari bajarilishini nazorat qilish maqsadida qaysi idoraga qarashli bo'lishdan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kirish;

j) qaysi idoraga qarashli bo'lishidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalarning rahbarlaridan va alohida shaxslardan:

— sanitariya normalarini, qoidalarini, epidemiyaga qarshi tartibotni muntazam suratda bajarmayotgan va ishlab chiqarishning hamda bajarilayotgan ishlarning xususiyatlarini hisobga olib, yuqumli, paraziтar kasalliklarni tarqatish xavfini tug'diradigan shaxslarni ishdan chetlashtirishni;

— atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan yuqumli va parazitar kasallik bilan og'rigan bemorlarni kasalxonaga yotqizishni;

— profilaktika va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishni;

— obyektlarning sanitariya holatini aniqlash hamda aholi salomatligining holatini epidemiologiya jihatdan tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va tushuntirishlarni berishni talab qilish huquqiga egadirlar;

i) gigiena ekspertizalari, laboratoriya tadqiqotlari o'tkazish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini, buyumlarni, predmetlar va materiallarni olish, shuningdek, bevosita obyektlarning o'zida, laboratoriyada va asboblar yordamida zarur tekshirishlar o'tkazish.

Ma'muriy ogohlantiruv choralarining yana bir ko'rinishi — bu ma'lum bir hududlarda ***karantin e'lon qilish*** hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'simliklar karantini to'g'risida»gi Qonun[1]ga binoan, *o'simliklar karantinining asosiy vazifalari* — o'simliklarning tashqi va ichki karantini boyicha davlat tadbirlari tizimini amalga oshirishdan iborat bo'lib, bu tadbirlar quyidagilarga qaratiladi:

1) respublika hududini chet mamlakatlardan kirib kelib, xalq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalardan, o'simlik kasalliklari va begona o'tlardan muhofaza etish;

2) karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalarni, o'simlik kasalliklari va begona o'tlarni vaqtida aniqlash, ularning yoyilishiga yo'l qo'ymaslik va ularni yo'q qilish, shuningdek, respublikaning bu zararkunandalar, kasallik va begona o'tlardan xoli mintaqalariga ular kirib borishining oldini olish;

3) qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa o'simlik mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash, realizatsiya qilish va ulardan foydalanishda o'simliklar karantiniga oid qoidalar va tadbirlarga rioya etilishi hamda ularning amalga oshirilishi ustidan davlat nazoratini olib borish.

O'simliklar karantini davlat inspektori quyidagi huquqlarga ega:

a) temir yo'l stansiyalari va avtovokzallar (avtostansiyalar), aeroportlar, daryo portlari (pristanlari), pochtamtlar, omborlar, tegirmonlar hududiga, passajir va yuk vagonlariga, samolyotlarga, daryo floti kemalariga, ko'rgazmalar, botanika bog'lari, ilmiy-tad-

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1995, 9-son. 188-m.

qiqot institutlari, tajriba stansiyalari, jamoa xo'jaliklari, dehqon (fermer) xo'jaliklari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hududlariga, fuqarolarning tomorqa uchastkalariga, shuningdek, urug'lar, o'simliklar va o'simlik mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi korxonalarga moneliksiz kirish;

b) laboratoriya ekspertizalari o'tkazish uchun urug'lardan, o'simliklardan va o'simlik mahsulotlaridan namunalar olish. Karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar aniqlangan taqdirda mahsulotlarni olib chiqib ketib, ulardan foydalanishni cheklash va karantin tadbirlari tizimini bajarish yuzasidan kerakli topshiriqlar berish;

d) karantin o'rnatilgan hududlardan karantin sertifikatlarisiz olib chiqilgan urug'larni, o'simliklarni va o'simlik mahsulotlarini ushlash, olib qo'yish, zarurat bo'lsa, olib kelingan joyiga qaytarib yuborish;

e) bojxonalar, temir yo'l stansiyalari, avtovokzallar (avtostansiyalar), aeroportlar, daryo portlari (pristanlari), pochtamtlar va boshqa tashkilotlarning ma'muriyatidan kelayotgan va jo'natilayotgan, qonunga muvofiq karantin tadbirlari qo'llaniladigan yuklar to'g'risida ma'lumotlar talab qilish, zarur bo'lsa, ular tasarrufidagi hududda urug'larni, o'simliklarni va o'simlik mahsulotlarini ko'zdan kechirish hamda zararsizlantirish uchun transport vositalari, yordamchi ishchilar, xizmat binolari va yordamchi materiallar berishni talab qilish.

Karantin obyekti aniqlangan hollarda tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat inspektori tavsiyasiga binoan mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari bilan ayrim xo'jaliklar, jamoa xo'jaliklari, dehqon (fermer) xo'jaliklari, korxonalar, temir yo'l stansiyalari, aeroportlar, daryo portlari, qishloq va shaharchalarning hududi nosog'lom deb e'lon qilinib, ularda karantin yoki zarur cheklashlar o'rnatiladi.

Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni o'simliklar karantini boyicha nosog'lom deb e'lon qilish va ularda karantin yoki boshqa cheklashlar o'rnatish tegishli o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlari tavsiyanomasiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori yoki O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining tavsiyanomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Karantin o'rnatish to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng karantin e'lon qilingan xo'jaliklardan urug' va ko'chatlarni karantin sertifikatlarisiz karantindagi zararkunandalardan, o'simlik kasalliklaridan va begona o'tlardan xoli bo'lgan boshqa xo'jaliklarga sepish va ekish maqsadida olib chiqish man etiladi.

Karantin o'rnatilgan hududlardan karantin sertifikatlarisiz olib chiqib ketilgan urug'lar, o'simliklar va o'simlik mahsulotlari olib qo'yiladi hamda texnikaviy (sanoat yo'li bilan) qayta ishlash yoki umumiy ovqatlanish korxonalarida foydalanish uchun tayyorlov tashkilotlariga beriladi, zarur hollarda esa zararsizlantiriladi, jo'natuvchiga qaytarib yuboriladi yoki yo'q qilib tashlanadi.

Karantin o'rnatilgan hududdagi (aholi punkti, tuman, viloyat) tomorqa uchastkalaridan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlov tashkilotlari orqaligina olib chiqib ketishga yo'l qo'yiladi, zararlangan mahsulotlar bundan mustasno (ulardan qay tarzda va qanday shartlarda foydalanishni o'simliklar karantini davlat inspektori karantin qoidalariga muvofiq belgilaydi).

Hududda o'rnatilgan karantin yoki cheklash belgilangan karantin tadbirlari o'tkazib bo'linganidan hamda karantindagi zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar o'choqlari batamom yo'q qilinganidan keyingina o'simliklar karantini boyicha tegishli bosh davlat inspektorlarining tavsiyanomasiga binoan karantin yoki cheklashlarni o'rnatgan tuman, shahar, viloyat va Toshkent shahar hokimlari qarori bilan yoki O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining tavsiyanomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bekor qilinadi.

5-§. Ma'muriy cheklov (ehtiyot) choralari

Ma'muriy cheklov choralari — huquqqa xilof harakatlarni tugatish (to'xtatish) va uning zararli oqibatlarini bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi. Bu choralar, ma'muriy ogohlantiruv choralari singari, turli ko'rinishlarga ega bo'lib, davlat boshqaruvining turli sohalarida ijro hokimiyati subyektlari tomonidan qo'llaniladi.

Ma'muriy cheklov choralariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) huquqqa xilof harakatni to'xtatish to'g'risidagi talab;

2) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni ma'muriy tartibda ushlab turish;

3) atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasallikka duchor bo'lgan shaxsni majburiy davolash;

4) infeksion kasallarni vaqtincha ishdan chetlashtirish;

5) transport vositasining holati o'rnatilgan talablarga javob bermaganida, undan foydalanishni taqiqlash;

6) jamoat xavfsizligini ta'minlash boyicha o'rnatilgan talablarga rioya etmagan holda amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash va boshqa ishlarni taqiqlash yoki cheklash;

7) bevosita jismoniy ta'sir ko'rsatish;

8) ommaviy tartibsizliklarni va bir guruh shaxslarning noqonuniy harakatlarini to'xtatish uchun maxsus vositalarni qo'llash;

9) vakolatli shaxsning o'qotar qurolidan foydalanishi va boshqalar.

Ma'muriy tartibda ushlab turish. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi[1]ga binoan boshqa ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanib bo'linganidan keyin ma'muriy huquqbuzarlikni to'xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo'lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida tuzish imkoni bo'lmagan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish, ishlarning o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur *shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish*ga yo'l qo'yiladi.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida bayonnoma tuzilib, unda: bayonnoma tuzilgan sana va joy, bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi; ushlab turilgan shaxs haqidagi ma'lumotlar; uni ushlab turish vaqti, joyi va uning asoslari ko'rsatiladi.

Bayonnoma uni tuzgan mansabdor shaxs va ushlab turilgan shaxs tomonidan imzolanadi. Ushlab turilgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga shu haqda yozib qo'yiladi.

Ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning qarindosh-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat xabardor qilib qo'yiladi. Voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar, albatta xabardor qilinadi.

*Ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga vakolatli organlar (mansabdor shaxslar)*ga quyidagilar kiradi:

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T.: «Adolat», 2005-y.

1) ichki ishlar organlari;
2) chegara qo'shinlari;
3) harbiy soqchilikning katta mansabdor shaxsi;
4) harbiy avtomobil inspeksiyasining mansabdor shaxslari;
5) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlarining mansabdor shaxslari;
6) bojxona organlari xizmatchilari;
7) harbiy patrul;
8) davlat soliq organlarining mansabdor shaxslari;
9) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalarining mansabdor shaxslari

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish *uch soatdan ortiq davom etishi mumkin emas.* Ma'muriy ushlab turish muddati huquqbuzar bayonnoma tuzish uchun olib kelingan paytdan, mastlik holatidagi shaxs uchun esa — uning xushiga kelgan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Ayrim hollarda alohida zarurat munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ma'muriy yo'l bilan ushlab turishning boshqacha muddatlari belgilanishi mumkin.

Chegara tartibini yoki O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o'tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar bayonnoma tuzish uchun uch soatgacha muddatga ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsini va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan hollarda esa — ushlash paytidan boshlab yigirma to'rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma'lum qilib, *uch sutkagacha* yoki huquqbuzarda o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, prokurorning sanksiyasi bilan *o'n sutkagacha* muddatga ushlab turilishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilgan ayrim holatlarda, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan yoxud o'zining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirgan shaxslar. huquqbuzarlik to'g'risidagi ishi ma'muriy ishlar boyicha sudya yoki ichki ishlar organi boshlig'i (boshliq o'rinbosari) tomonidan ko'rib chiqilgunga qadar, lekin *24 soatdan ko'p bo'lmagan* muddatga ushlab turilishi mumkin.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati huquqbuzarni bayonnoma tuzish uchun olib kelish paytidan boshlanadi, mast holdagi shaxslar uchun esa — ular hushyor tortgan vaqtdan boshlanadi.

Ma'muriy tartibda ushlab turishni aniq bir davlat organi tomonidan qo'llanilishi jarayoniga e'tibor beradigan bo'lsak, uning

mazmun-mohiyatini to'la tushunib olish mumkin. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 1999-yil 28-apreldagi 02/20-52 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Bojxona qonun hujjatlarini buzgan shaxslarni ma'muriy ushlab turish tartibi to'g'risida»gi Nizomga binoan bojxona organlari xodimlari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 198-moddasi (hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaslik yoki xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilish) va 227-moddasida (bojxonaga doir qonun hujjatlarini buzish) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni bartaraf etish maqsadida, shaxsini aniqlash, joyning o'zida tuzish mumkin bo'lmaganda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish, ishni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqishni ta'minlash hamda bojxona qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarga doir qarorlar ijrosi boyicha ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari qo'llanib bo'lganda, huquqbuzarliklarni, shuningdek, shaxsi aniqlanmagan, o'zi haqida anketa ma'lumotlarini ma'lum qilmaydigan yoki yolg'on ma'lumotlar beradigan huquqbuzarlarni ma'muriy ushlab turishga haqlidirlar.

Ma'muriy ushlab turish amalga oshirilganda bojxona organi xodimi:

a) bojxona qonun hujjatlarini buzganligi uchun ushlangan shaxsni bojxona organining navbatchilik xonasiga olib keladi;

b) bayonnoma tuzadi, unda quyidagilar ko'rsatiladi: uni tuzish sanasi va joyi; bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi; ushlangan huquqbuzarning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar; ushlab turish vaqti, joyi va asosi;

d) uni imzolaydi va xolislar hamda huquqbuzarlarga imzo chekishni taklif qiladi. Ushlangan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortganda unga bu haqda qayd etadi. Bayonnoma ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishga tikib qo'yiladi;

e) zarur hollarda huquqbuzar shaxsan topshirilishini, unda bo'lgan buyumlar ko'zdan kechirilishini va huquqbuzarlik quroli yoki bevosita obyekti bo'lgan ashyolar va hujjatlar topilganda olib qo'yilishini, shuningdek, o'qotar va sovuq qurollar, o'q-dorilar, giyohvandlik, tez ta'sir etuvchi va zaharli moddalar musodara qilinishini tashkil etadi (o'tkazadi). Ashyolar, qo'l yuki bagajlar va boshqa buyumlarni tezkor navbatchi odatda ular mulki yoki egaligida bo'lgan shaxs hozirligida ko'zdan kechiradi. Zudlik bilan chora ko'rish talab qilinadigan hollarda mazkur ashyolar, buyumlar mulkdor (egasi) yo'qligida ikki xolis ishtirokida ko'zdan kechirilishi mumkin.

Shaxsni ko'zdan kechirish ushlangan shaxs bilan bir jinsda bo'lgan shaxs tomonidan, shu jinsga mansub ikki xolis hozirligida amalga oshiriladi.

Shaxsni ko'zdan kechirish va ashyolarni tekshirib chiqish, ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish to'g'risida belgilangan tartibda bayonnomalar tuziladi va ma'muriy ushlab turish to'g'risidagi bayonnomaga tegishli yozuv qayd etiladi;

f) barcha olib qo'yilgan ashyolar va buyumlar hamda ularning individual belgilari (raqami, seriyasi, rangi va h.k.) ko'rsatilgan bayonnoma ko'zdan kechirish va olib qo'yishni amalga oshirgan shaxs, xolislar va huquqbuzar tomonidan imzolanadi. Huquqbuzar bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda unda bu haqda yozuv qayd etiladi. Bayonnoma ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yig'majildida saqlanadi;

g) huquqbuzarning sog'lig'i holatini, shuningdek, uni ushlab turish munosabati bilan og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni (ishlab chiqarishning to'xtab qolishi, qozonning portlashi, isitish tarmoqlarining muzlab qolishi va hokazolar, shuningdek, bolalar yoki doimiy parvarishga muhtoj shaxslarni ularning hayotiga xavf soladigan vaziyatda qoldirish va h.k.) aniqlaydi;

h) ushlangan shaxs va to'plangan materiallarni (bojxona qonun hujjatlarini buzganlik, ma'muriy ushlab turish to'g'risidagi bayonnomalar, aniqlangan huquqbuzarlik to'g'risidagi bildirgi, huquqbuzar tushuntirishlari, tovarga ilova qilinuvchi va boshqa hujjatlarni) bojxona organining tezkor navbatchisiga topshiradi.

Huquqbuzar ozod etilganda olib qo'yilgan barcha ashyolar, hujjatlar, boyliklar va pullar unga qaytariladi, huquqbuzarlik quroli yoki bevosita obyekti bo'lgan buyumlar, ashyolar va hujjatlar, qidiruvda bo'lgan, fuqarolik oborotidan olib qo'yilgan, shuningdek, musodara qilinadigan yoki pulini to'lab olib qo'yiladigan buyum va ashyolar hamda qalbaki hujjatlar bundan mustasnodir.

Qaytarilgan ashyolar, hujjatlar va boshqa boyliklarni olgani haqida huquqbuzar olib qo'yilganligi ko'rsatilgan bayonnomaga imzo chekadi. Ushlangan shaxslarning iltimosiga ko'ra ularga ushlab turish vaqti va sabablari ko'rsatilgan ma'lumotnomalar beriladi.

Huquqbuzarlik quroli yoki bevosita obyekti bo'lgan, ushlangan shaxsdan olib qo'yilgan ashyo va hujjatlar olib qo'yilgani to'g'risida yozuv qayd etilgan bayonnoma bilan birga bojxona organining navbatchilik qismida, kaliti tezkor navbatchida bo'ladigan maxsus javonda saqlanadi.

Olib qo'yilgan ashyo va hujjatlar (qurol-yarog' va o'q-dorilardan tashqari) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi materiallar bilan birgalikda mazkur ishni olib borishga vakolatli bojxona organi xodimiga topshiriladi va Bojxona qonun hujjatlarini buzishlar to'g'risidagi materiallarni ro'yxatga olish jurnalida unga imzo chektiriladi.

Ushlangan shaxslardan olib qo'yilgan qurol-yarog' va o'q-dorilarni bojxona organining tezkor navbatchisi o'zining shaxsiy muhri bilan surg'uchlangan maxsus temir javonda saqlaydi, so'ngra bojxona organi boshlig'ining yozma topshirig'iga binoan mazkur qurol-yarog' buyumlarini saqlash vazifasi zimmasiga yuklangan xodim tezkor navbatchida saqlanayotgan kvitansiya koreshogiga imzo chekkandan so'ng ular topshiriladi.

Agar tekshirish, ushlangan kishini shaxsan ko'zdan kechirish yoki uning ashyolarini qarab chiqish paytida shaxsning harakatlarida jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatadigan ma'lumotlar mavjudligi aniqlansa yoki u qidirishda bo'lsa, shuningdek, buyum va ashyolarni g'ayriqonuniy tarzda saqlasa (fuqarolik oborotidan olib qo'yilgan buyum va ashyolar, o'g'irlangan mol-mulkni) yoxud qalbaki hujjatlarga ega bo'lsa, tezkor navbatchi aniqlangan faktlar to'g'risida bojxona organi boshlig'iga axborot beradi va uning ko'rsatmasiga binoan mavjud materiallar va olib qo'yilgan buyum hamda ashyolarni tegishli jurnalda (daftarda) imzo chektirib olib, bundan keyin tekshirish va jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun surishtiruv boshlash uchun tayinlangan shaxsga topshiradi.

Ma'muriy ushlab turishni amalga oshirish jarayonida bojxona organlari xodimlari sodir etgan xatti-harakatlar ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Majburiy davolash. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 12-dekabrda qabul qilingan «Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida»gi Qonun[1]ga binoan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemorlarni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi maxsus davolash-oldini olish muassasalarida majburiy davolash belgilab qo'yiladi.

Jamoat tartibini, boshqa shaxslarning huquqlarini buzayotgan yoxud aholining osoyishtaligiga, salomatligiga va ma'naviyatiga xavf

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993, 1-son. 36-m.

tug'dirayotgan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemorlarga nisbatan majburiy davolash qo'llanadi.

Shaxsni surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemor deb topish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda tegishli davolash muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxs majburiy davolashga jo'natish uchun tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortgan hollarda, u ichki ishlar idoralarining ko'magida o'n kun muddat ichida narkologiya muassasasida majburiy tarzda tekshirilishi kerak.

Mazkur toifadagi shaxslarni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi materiallar tibbiy xulosa bo'lgan taqdirda ichki ishlar idoralari tomonidan ularning o'z tashabbusiga ko'ra, yoki bemorning oila a'zolari yoxud qarindoshlarining, mehnat jamoalarining, sog'liqni saqlash muassasalarining, iltimosnomalari asosida tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi.

Mazkur qonunda ko'rsatilgan shaxslarni majburiy davolashga jo'natish masalasi yigirma kunlik muddat ichida bemor yashab turgan joydagi yoki narkologiya muassasasi joylashgan yerdagi sud tomonidan bemor ishtirokida hal etiladi. Bemor uzrsiz sabab bilan kelmasa, u ichki ishlar idoralari orqali majburiy tarzda olib kelinadi.

Sudning majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qarori ustidan qaror chiqarilgan shaxs yoxud uning himoyachisi shikoyat qilishi yoki prokuror tomonidan kassatsiya tartibida yetti kunlik muddat ichida yuqori turuvchi sudga norozilik bildirilishi mumkin.

Shikoyat berilishi yoki prokuror tomonidan kassatsiya tartibida norozilik bildirilishi sud qarorining ijrosini to'xtatib turadi.

Sudning shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qarori ichki ishlar idoralari tomonidan bu qaror qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab kechi bilan o'n kunlik muddat ichida ijro etiladi.

Majburiy davolash muddati to'g'risidagi masala davolash muassasasi tomonidan komissiyadan o'tkazish tartibida, bemor davolashga joylashtirilgach besh kun ichida hal etiladi.

Bemor davolanayotgan davolash muassasasining komissiyasi qabul qilgan qaror asosida bemorni majburiy davolash to'xtatiladi.

Majburiy davolashni o'tayotgan va davolashga hamda mehnat terapiyasiga vijdonan munosabatda bo'layotgan shaxslarga qonunda belgilangan tartibda ta'til berilishi mumkin.

Shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi sudning qarori uni ishdan bo'shash nafaqasi to'lamay ishdan bo'shatish uchun asos bo'ladi.

Majburiy davolanishga yuborilgan shaxslar avvalgi yashash joyidagi turar joy maydonidan foydalanish huquqini saqlab qoladilar.

Davolash muassasasida bo'lish vaqti mehnat stajining uzilishiga olib kelmaydi va umumiy mehnat stajiga qo'shiladi.

Davolash muassasalaridan majburiy davolashdan qaytgan shaxslarni ishga joylashtirish Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ommaviy tadbirlar o'tkazishda qo'llaniladigan choralar

O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-yanvardagi «Ommaviy tadbirlarni o'tkazish Qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 15-son Qarori[1]ga binoan, ushbu g'oidalar ommaviy tadbirlarni o'tkazish paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilishga qaratilgan hamda ommaviy tadbirlar o'tkazish tartibini va ular qatnashchilari munosabatlarini tartibga soladi. Mazkur qoidalar maqsadlari uchun ko'ngilochar, teatr-tomosha, konsert, sport, reklama dasturlari va boshqa dam olish dasturlarini, shuningdek, kamida 100 kishi ishtirokida umumxalq, diniy, professional bayramlarni o'tkazish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ochiq va yopiq inshootlarda, maydonlarda, binolarda va boshqa joylarda tashkil etiladigan kishilarni to'plash — *ommaviy tadbir* deb e'tirof etiladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar ommaviy tadbirlarni o'tkazish tashkilotchilari bo'lishlari mumkin.

Tashkilotchilar, artistlar, sportchilar va dasturda nazarda tutilgan tomoshali chiqishlarni (harakatlarni) bevosita amalga oshiruvchi boshqa shaxslar hamda tomoshabinlar — *ommaviy tadbirlar qatnashchilari* hisoblanadi.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoat tartibi muhofaza qilinishini va xavfsizlikni ta'minlash ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ommaviy tadbirlar o'tkazish vaqtida ichki ishlar organlari:

---

[1] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2003, 1–2-sonlar. 10-m.

1) tadbirlarni o'tkazish chog'ida jamoat tartibini muhofaza qilish va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash yuzasidan ommaviy tadbirlarni o'tkazish tashkilotchilari bilan shartnomalar tuzish;

2) tadbir o'tkaziladigan joyga odamlar xavfsizligiga tahdid qiluvchi buyumlar va ashyolar olib kirilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qatnashchilar, shu jumladan, maxsus texnik vositalar qo'llanilgan holda, ularning havfsizligini amalga oshirish;

3) ommaviy tadbirlar tashkilotchilaridan, inshootlar va tadbirlar o'tkaziladigan boshqa obyektlar ma'muriyatidan:

inshootdagi o'rinlar sonidan yoki tomoshabinlar va tadbir qatnashchilari uchun tayyorlangan joylardan ortiqcha chiptalar sotmaslikni va maxsus ruxsatnomalar tarqatmaslikni;

o'tish joylari va evakuatsiya yo'llari har xil buyumlar bilan to'sib qo'yilmasligini;

inshoot ichida va unga tutashib ketgan hududda spirtli ichimliklar bilan savdo qilish taqiqlanishi talab qilish;

4) obyektlar ma'muriyatiga obyektga keluvchilar, ayniqsa, yoshlar va o'smirlar bilan qatnashchilar va tomoshabinlarning o'zini tutish qoidalariga rioya etishlari boyicha ko'rgazmali tashviqot, mahalliy retranslatsiya tarmog'i va boshqa vositalardan foydalangan holda vaqti-vaqti bilan tushuntirish ishlari olib borish majburiyatini yuklash;

5) yong'in xavfsizligi talablari bajarilishini;

6) inshootlar ma'muriyatining puxta tayyorgarlik ko'rgan xodimlarining kuchlari bilan nazorat-o'tkazish rejimi tashkil etilishini, qatnashchilar va tomoshabinlar ular tomonidan sotib olingan chiptalar, maxsus ruxsatnomalar va taklifnomalarga muvofiq tribunalar va sektorlarga joylashtirilishini tashkil etishini talab etish kabi huquqlarga ega.

X.R.Alimov ma'muriy cheklov choralarini ikki toifaga bo'lib, ikkinchi toifaga ichki ishlar organlarining maxsus ma'muriy cheklov harakatlarini, ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, bu choralar ma'muriy cheklovning boshqa choralari bilan bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlarda qo'llanilishi mumkin. Maxsus ma'muriy cheklov choralariga quyidagilar kiradi: a) o'qotar qurolini qo'llash; b) sambo uslublarini qo'llash; d) ta'sir ko'rsatishning boshqa vositalari.[1]

---

[1] Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Х.Р.Алимов, Л.И.Соловьева и др./ – Т.: «Адолат», 1999. С.199–213.

6-§. Ma'muriy qayta tiklov choralari

Ma'muriy qayta tiklov choralari – yetkazilgan zararni qoplash, oldingi holatni tiklash maqsadida qo'llaniladi. Shu sababli, bu choralarning turi va hajmi ko'p jihatdan, huquqqa xilof harakat orqali yetkazilgan zarar hajmi va xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, qayta tiklov choralariga, o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va boshqa obyektlarni buzish, o'zboshimchalik bilan egallab olingan turar joydan majburiy chiqarish, tashkilotdan qonunga zid ravishda olingan mol-mulkni olib qo'yish, boqimandani, penyani undirish va h.k.lar kiradi.

O'zboshimchalik bilan qurilgan obyektlar (uy, chorbog', garaj, omborxona va h.k.lar) majburiy tartibda buzilishi mumkin. Ob'ektlarni buzishdan oldin, hokimiyatning tegishli subyekti tomonidan huquqbuzar ogohlantiriladi. Agar huquqbuzar o'z kuchi va vositalari yordamida obyektni buzmasa, yer uchastkasini belgilangan tartibga keltirmasa, majburiy holda tegishli organ tomonidan aybdorning hisobidan obyekt buziladi.

Moliyaviy sanksiyalar: boqimandani undirish va penya ham ma'muriy qayta tiklov chorasiga kiradi. *Boqimanda* – bu budjetga yoki davlat budjetdan tashqari jamg'armalariga o'z vaqtida kiritilmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning summasidir. Boqimanda aniqlanganda, soliq xizmati organlari belgilangan muddatda boqimandani qoplash boyicha soliq to'lovchiga yozma shakldagi talabni yuboradi. Agar, ko'rsatilgan talab bajarilmasa, boqimanda soliq to'lovchining mulkiga qaratilishi mumkin.

Penya – to'lanishi kechiktirilgan summaning har bir kuniga belgilanadigan ma'lum bir miqdorda undiriladigan pul summasi hisoblanadi. Umumiy qoidagi ko'ra, penya – boqimanda vujudga kelgan vaqtdagi davlat organi tomonidan belgilangan foiz miqdorida bo'ladi. Penyani to'lash – qayta tiklov sanksiyasining bajarilishi hisoblanadi. Qayta tiklov sanksiyalarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular ixtiyoriy ravishda ijro etilishi mumkin. Hech qanday hokimiyat organining aralashuvisiz, aybdor subyekt huquqqa xilof harakat oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplashi mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Majburlov tushunchasi.
2. Huquqiy majburlov va uning o'ziga xos xususiyatlari.

3. Ma'muriy-huquqiy majburlov tushunchasi.
4. Ma'muriy-huquqiy majburlovning xususiyatlari.
5. Ma'muriy-huquqiy majburlov choralarining turlari.
6. Ma'muriy ogohlantiruv choralari tushunchasi va maqsadi.
7. Shaxsni ko'rikdan o'tkazish.
8. Ashyo va hujjatlarni olib qo'yish.
9. Transport vositalarini ushlab turish va ko'rikdan o'tkazish.
10. Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati.
11. Davlat sanitariya nazorati.
12. Karantin e'lon qilish.
13. Ma'muriy cheklov choralari tushunchasi va maqsadi.
14. Ushlab turish.
15. Majburiy davolash.
16. Ommaviy tadbirlar o'tkazishda qo'llaniladigan choralar.
17. Ma'muriy qayta tiklov choralari.

BESHINCHI BO'LIM

MA'MURIY JAVOBGARLIK

19-bob. MA'MURIY HUQUQBUZARLIK

1-§. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi va yuridik xususiyatlari

Aksariyat yuridik adabiyotlarda ma'muriy javobgarlikni qo'llashning ikki asosi ko'rsatib o'tilgan: *birinchidan*, qonun – huquqiy (normativ) asosi sifatida; *ikkinchidan*, ma'muriy nojo'ya xatti-harakat (huquqbuzarlik) – faktik asosi sifatida.

Huquqshunos olim D.N.Baxraxning ko'rsatib o'tishicha, har qanday yuridik javobgarlik asosi uchga bo'linadi: a) *normativ asos* (uni tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi); b) *faktik asos* (huquq subyektlarining huquqqa xilof qilmishi); d) *protsessual asos* (aniq subyektlarga nisbatan sanksiyalarni qo'llash boyicha hokimiyat subyektlarining aktlari).[1]

Bizningcha, D.N.Baxrax tomonidan ko'rsatib o'tilgan javobgarlikning normativ asosi bilan prosessual asosi aynan bir mazmunga ega. Protsessual aktlarni alohida kategoriya sifatida ko'rsatib o'tishga hojat yo'q. Chunki protsessual aktlar normativ aktlarning bir ko'rinishi, tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli, ma'muriy javobgarlikni qo'llashning asosini ikki yo'nalishda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ma'muriy javobgarlikning bu ikkala asosi ham O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1-moddasida ma'muriy javobgarlikning ***huquqiy (normativ) asosi*** mustahkamlab qo'yilgan (*Qarang, mazkur darslikning 21-bob.*

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 10-moddasiga binoan esa ma'muriy huquqbuzarlik

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 484–485.

deganda ***(faktik asosi)*** – qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Huquq nazariyasiga ko'ra, har qanday yuridik javobgarlikning asosini – qonunga xilof, aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik), ya'ni huquqbuzarlik tashkil etadi. Huquqbuzarliklar o'zining mazmuni, yuridik xususiyatlari va tarkibiga ega bo'lib, turli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Huquqbuzarlik *ijtimoiy ma'noda*, fuqarolar, jamiyat huquqlari va qonuniy manfaatlariga xavfni vujudga keltiruvchi xulq-atvor bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va ularning buzilishiga olib keladi. Huquqbuzarlik qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladigan xulq-atvor bo'lib, uning natijasida jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga moddiy yoki ma'naviy zarar yetkaziladi. Huquqbuzarlik – o'rnatilgan xulq-atvor qoidalarining buzilishida ifodalanadi.

Davlat boshqaruvi sohasida sodir etiladigan va ko'p uchraydigan huquqbuzarlik ko'rinishlaridan biri – bu *ma'muriy huquqbuzarlik*dir.

Ma'muriy huquqbuzarlikning mazmuni – amaldagi qonunchiligimizda aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, quyidagi *umumiy xususiyatlarga ega*dir:

birinchidan – ma'muriy huquqbuzarlik – ***ijtimoiy zararli*** hisoblanadi, ya'ni ularning sodir etilishi bilan jamiyat va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga ma'lum bir moddiy va ma'naviy zarar yetkaziladi;

ikkinchidan – ma'muriy huquqbuzarlik – ***ma'muriy huquqqa xilof*** hisoblanadi, ya'ni bunday xatti-harakatlarni sodir etish qonun hujjatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan.

Ayrim hollarda, ma'muriy huquqbuzarlik ma'muriy-huquqiy normalarni buzish ma'nosida talqin qilinadi. Lekin shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, ma'muriy-huquqiy normalar turli ko'rinishga ega, masalan, namunali xulq-atvor qoidalarini o'rnatuvchi – tartibga soluvchi ma'muriy-huquqiy normalar va bu qoidalarning buzilishi uchun javobgarlikni o'rnatuvchi – muhofaza etuvchi ma'muriy-huquqiy normalar.

Huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda, odatda, uch ko'rinishdagi: intizomiy, ma'muriy va jinoiy jazo sanksiyalaridan foy-

dalaniladi. Mazkur sanksiyalar barcha huquq tarmoqlarida muhofaza qilish vazifasini bajaradi. Masalan, ma'muriy javobgarlik konstitutsiyaviy, moliya, mehnat, fuqarolik, yer va boshqa huquq tarmoqlarining tartibga soluvchi normalarini muhofaza qilish maqsadida qo'llaniladi.

Shu sababli, ma'muriy huquqbuzarlik umumiy ma'muriy-huquqiy normalar buzilishi sifatida emas, balki aniq — tartibga soluvchi normalar buzilishi sifatida talqin qilinishi lozim;

uchinchidan — ma'muriy huquqbuzarlik — bu ***qilmish***dir.

Ma'muriy huquqbuzarlik — bir yoki bir necha insonlarning ongli va irodali harakati yoki harakatsizligida ifodalanadi;

to'rtinchidan — ma'muriy huquqbuzarlik — ***jismoniy shaxs*** tomonidan sodir etiladigan qilmishdir. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti sifatida faqatgina jismoniy shaxslar namoyon bo'lishi mumkin (qurilish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning subyekti sifatida *yuridik shaxslar*ning namoyon bo'lishi mazkur darslikning 21-bob 7-§da yoritib berilgan);

beshinchidan — ma'muriy huquqbuzarlikda — ***aybning mavjudligi***, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik — qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladigan ongli, irodali qilmish hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda, ikki termin — «*huquqbuzarlik*» va «*buzish*» tushunchalari qo'llaniladi. Buzish — huquq normalari talablarini buzilishini yoki unga rioya etilmaganlikni anglatadi. U huquqbuzarlikdan farqli ravishda, tartibga soluvchi va muhofaza qiluvchi ma'muriy-huquqiy normalarning buzilishida namoyon bo'ladi. Bunday xatti-harakatlar muomalaga layoqatsiz, aqli noraso, o'z harakatlarining oqibatini tushuna olmaydigan shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkinligini e'tiborga oladigan bo'lsak, aybsiz hisoblanadi. Huquqbuzarlik esa — huquqqa xilof, aybli qilmishdir;

oltinchidan — ma'muriy huquqbuzarlik — ***jazoga sazovor*** qilmishdir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 10-moddasining 1-qismiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik deganda — *qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan* qilmish tushuniladi.

Sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qonun hujjatlarida javobgarlik, nazarda tutilgan taqdirdagina, bunday xatti-harakatlar huquqbuzarlik sifatida e'tirof etilishi mumkin. Javobgarlikka tortish — huquqbuzarlikning asosiy xususiyatlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 10-moddasining 2-qismiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti *bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda*, amalga oshiriladi. Lekin jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladigan holatlar mazkur kodeksda nazarda tutilmagan. Faqatgina, kodeksning 271-moddasi 8-bandida ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs xususida shu fakt yuzasidan *jinoyaiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa*, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuritishni boshlash mumkin emasligi, boshlangan ish esa tugatilishi lozimligi belgilangan.

Sodir etilgan qilmish bir vaqtning o'zida jinoyat va huquqbuzarlik bo'lishi mumkin emas. Eski qonun hujjatida ham, yangi qonun hujjatida ham jinoyatning ustunligiga e'tibor berilgan. Sodir etilgan qilmish jinoyatning va ma'muriy huquqbuzarlikning xususiyatlariga ega bo'lsa, bu qilmish ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tan olinishi mumkin emas. Huquqshunos bu holatni hamma vaqt esda saqlashi lozim.

Bundan tashqari, yuridik adabiyotlarda «*huquqbuzarlik*» va «*nojo'ya xatti-harakat*» terminlari ko'rsatib o'tilgan. Bu terminlar mazmuni va xususiyatlari jihatidan o'xshab ketadi. Lekin huquqbuzarlik keng tushuncha bo'lib, huquq nazariyasiga binoan, barcha huquqbuzarliklar jinoyat yoki nojo'ya xatti-harakat sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ma'muriy, intizomiy huquqbuzarliklar — ma'muriy, intizomiy nojo'ya xatti-harakat sifatida namoyon bo'ladi.

2-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning o'ziga xos xususiyatlari

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, davlatning huquqiy tizimi, odatda, uch guruh: jinoiy, ma'muriy va intizomiy jazo sanksiyalari bilan muhofaza qilinadi. Jumladan, aniq holatlarga qarab saylov huquqini, mulkchilikni, mehnat, sanitariya, ekologiya qoidalarini buzish uchun jinoiy yoki ma'muriy yoxud intizomiy javobgarlik qo'llanilishi mumkin. Ushbu javobgarliklarning ***birinchi*** — o'xshashlik tomoni shundan iboratki, ular huquqiy tartibotni muhofaza qiladi;

ikkinchidan — bu javobgarlik sanksiyalari qonunlar bilan o'rnatilgan;

uchinchidan — ular huquqqa xilof aybli qilmish (huquqbuzarliklar) uchun qo'llaniladi;

to'rtinchidan – qonun hujjatlarida javobgarliklarni qo'llash jarayoni va javobgarlikni qo'llovchi organlarning vakolatlari ko'rsatib o'tilgan;

beshinchidan – ularni qo'llash aybdor shaxsga nisbatan «*noxush*» oqibatlarni, shuningdek, ma'lum bir muddatda javobgarlikka tortilganlikni (masalan, jinoyatda sudlanganlik, ma'muriy va intizomiyda bir yillik muddat) olib keladi.

Demak, jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlik ko'pgina o'xshash tomonlarga egadir. Lekin qonuniylik tartibini ta'minlashda huquqbuzarlikni to'g'ri tasniflash, aybdor shaxsni qonuniy va asoslantirilgan jazoga tortish maqsadida, huquqbuzarlik ko'rinishlarini farqlash lozim bo'ladi.

Jinoyat nojo'ya xatti-harakatdan (ma'muriy, intizomiy) bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu birinchi navbatda, *huquqqa xilof qilmishning ijtimoiy xavfi va turi.*

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasiga binoan ushbu kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan - ***jinoyat*** deb topiladi.

Ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar etkazish real xavfni keltirib chiqaradigan qilmish - ***ijtimoiy xavfli qilmish*** deb topiladi.

To'g'ri, har qanday huquqqa xilof qilmishdan kelib chiqadigan moddiy, ya'ni jamiyatga keltiriladigan zarar darajasi birinchi o'rinda turadi. Aynan unga qarab huquqqa xilof qilmishning turi: jinoiy, ma'muriy yoki intizomiy huquqbuzarlik ekanligi masalasi hal qilinadi. Ikkinchidan esa mazkur javobgarliklarni farqlashda turli protsessual normalar orqali tartibga solinganligi, shuningdek, sudlanganlik va ma'muriy yoki intizomiy javobgarlikka tortilganlik masalasi e'tiborga olinadi.

Yuridik adabiyotlarda, huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfi masalasi boyicha ikki xil yondashuv mavjud. Ko'pgina huquqshunos olimlar, huquqbuzarliklarning barchasi ijtimoiy xavfli, ya'ni jinoyatlar – ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan, nojo'ya xatti-harakatlar esa kam ahamiyatli huquqbuzarlik, deb ko'rsatishadi.

Ba'zi huquqshunos olimlar ko'rsatishicha, huquqbuzarliklar o'rtasida miqdoriy daraja (ijtimoiy xavfning yuqori yoki kam ahamiyatliligi) emas, balki aniq sifat farqlari mavjud. Jinoyat ijtimoiy xavfli, nojo'ya xatti-harakatlar esa ijtimoiy xavfli emas.

Huquqbuzarlikning ijtimoiy xavfi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi masala tegishli davlat organlari vakolatiga

kirib, huquqbuzarlik tarkibining xususiyatlarini aniqlash orqali hal qilinadi.

Nojo'ya xatti-harakatlarni ijtimoiy xavfli qilmishga kirishi yoki kirmasligi masalasi ancha vaqt davomida munozarali bo'lib kelmoqda. Ijtimoiy xavfli qilmishning aniq darajalari o'rnatilmas ekan, yagona qarorga kelish mushkuldir. Masalan, belgilanmagan joydan ko'chani kesib o'tish, transportda chiptasiz yurish, harbiy ro'yxatda turish majburiyatini bajarmaganlik va boshqa shunga o'xshash xatti-harakatlar ijtimoiy xavfli deb topilsa, «*ijtimoiy xavfli*» degan so'zning tushunchasi nima, bu tushunchaning chegarasi qaerda, degan savol vujudga keladi.

Ijtimoiy xavfli qilmish – bu ijtimoiy munosabatlarga ma'lum bir zarar keltiradigan yoki keltirishi mumkin bo'lgan qilmishdir. Bunday xatti-harakatlarning yig'indisi ma'lum bir tarixiy sharoitda, jamiyatning mavjud bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, barcha huquqbuzarlikni (shuningdek, ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlarni) ijtimoiy xavfli qilmish deb topish mumkin emas.

Ba'zi bir huquqshunos olimlar, ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlarda ijtimoiy xavf mavjud bo'lishini, butunlay inkor etishadi. Lekin shu holatga ham e'tibor berish kerakki, umumiy qoidaga to'g'ri kelmasa ham ba'zi bir nojo'ya xatti-harakatlar ijtimoiy xavfni vujudga keltirishi mumkin.

Nojo'ya xatti-harakatlar, odatda, ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ega bo'lmasdan, ***ijtimoiy zararli qilmish*** hisoblanadi.

Demak, jinoyatning nojo'ya xatti-harakatdan asosiy farqi, unda qilmish ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

Masalan, aynan bitta ko'rinishga ega bo'lgan, lekin ikki xil javobgarlikni vujudga keltiradigan huquqbuzarlikni, ya'ni jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik o'rtasidagi farqni, ijtimoiy xavflilik darajasida ko'rish mumkin. Jumladan, O'zR MJtKning 41-moddasiga binoan *haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish* – ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi. O'zR JKning 140-moddasiga binoan esa *haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, basharti, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa*, jinoyat hisoblanadi. Bunda, haqorat qilish harakati ma'muriy jazo qo'llanilgandan so'ng, qayta sodir etilishi ijtimoiy xavfni (jinoiy qilmishni) vujudga keltiradi.

Qonun chiqaruvchi ma'muriy huquqbuzarliklarga tavsif berar ekan, jinoyatlardan farqli o'laroq, ularni ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar deb atamagan (Qarang, O'zR MJtKning 10-moddasi

1-qismi). Bu bilan huquqbuzarliklar mazkur ikki turining sifat farqlari qayd etilgan.

Ma'muriy huquqbuzarliklar o'rtasida jinoyatlarga tutashib ketadiganlari va ularga yaqin turadiganlari ham mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi chegarani aniqlash muammosi vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi Maxsus qismining ko'pgina ifodalari ma'muriy huquqbuzarliklar bilan ularga yaqin jinoyatlar o'rtasidagi aniq chegaraga ega emas yoki ana shunday chegaralar hamma vaqt ham ko'zga tashlanavermaydi. Ular faqat Jinoyat kodeksi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalari qiyoslanganda namoyon bo'lishi mumkin.

Ayrim hollarda, ma'muriy huquqbuzarlik bilan jinoyatlar o'rtasidagi farqlovchi xususiyatlar (chegara chiziqlari) sifatida: *birinchidan*, og'ir oqibatlarning mavjudligi, ana shunday oqibatlarning ro'y berishi mumkinligi; *ikkinchidan*, huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan zararning miqdori; *uchinchidan*, ma'muriy jazo qo'llanilgandan so'ng takroran huquqbuzarlikni sodir etish va boshqalar ko'rsatib o'tiladi.

Qilmish jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tasniflangandan so'ng, javobgarlikka tortish tartibi, jazo chorasi va boshqalarda namoyon bo'luvchi *ikkinchi darajali xususiyatlar* vujudga keladi.

Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga binoan 16 yoshga to'lgan fuqarolar, Jinoyat kodeksiga binoan esa ayrim jinoyatlar uchun 13 yoshga to'lgan fuqarolar javobgarlikka tortiladi;

· ma'muriy javobgarlikda uni qo'llash jarayoni soddalashtirilgan (masalan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga bayonnomani tuzish orqali ma'muriy jazoni qo'llash mumkin), jinoyatda esa jinoyat protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshirish lozim;

· ma'muriy javobgarlik sud va boshqa davlat organlari tomonidan, jinoiy javobgarlik esa faqatgina sud organlari tomonidan qo'llanishi mumkin va h.k.lar.

Ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlar bilan intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarni taqqoslaganda, ularning ikkalasi ham ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanmasligini e'tiborga olish lozim. Lekin ularning formal xususiyati — huquqqa xilofliligi nuqtayi nazaridan kelib chiqqanda, ma'lum bir farqli tomonlar mavjud. Ma'muriy huquqbuzarlik bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlar: uning tarkibi, sanksiyalar tizimi va boshqalar ma'muriy huquq bilan tartibga

solinadi. ***Intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar***ga qarshi kurashish — *mehnat qonunchiligi bilan*, harbiy xizmatchilarning, yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar hamda ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslarning intizomiy javobgarligi — *ma'muriy qonunchilik (intizom ustavlari) bilan*, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning esa — *jinoyat ijroiya qonunchiligi bilan* tartibga solinadi. Bunda intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarning tarkibi umumiy holda ko'rsatib o'tilgan, ya'ni aniqlashtirilmagan.

Intizomiy javobgarlik, odatda, xizmat vazifalarini bajarmaganlikdan yoki lozim darajada bajarmaganlikdan vujudga keladi. Ma'muriy javobgarlik esa umumiy qoidaga binoan, davlat boshqaruvi sohasidagi umumajburiy qoidalarning bajarilmaganligidan yoki lozim darajada bajarilmaganligidan kelib chiqadi. Demak, ma'muriy javobgarlik tomonidan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar doirasi, intizomiy javobgarlikka qaraganda, kengroqdir.

Intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar uchun intizomiy javobgarlik vakolatli rahbar (yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxs) tomonidan o'ziga bo'ysungan shaxsga nisbatan, ma'muriy javobgarlikda esa — vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan xizmat boyicha bo'ysinuv mavjud bo'lmagan holatlarda qo'llaniladi.

Demak, ma'muriy huquqbuzarlik (nojo'ya xatti-harakat) tushunchasi jinoyat va intizomiy nojo'ya xatti-harakat tushunchalariga yaqin turishi bilan bir vaqtda, turli asoslarga ko'ra farqlanuvchi va o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ham egadir.

3-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning yuridik tarkibi tushunchasi

Huquqqa xilof, aybli va jazoga sazovor qilmishning xususiyatini o'zida ifoda etgan barcha huquqbuzarlik ham ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi. Gap shundaki, aniq bir qilmishda *ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi* mavjud bo'lmasligi mumkin va bu holat qilmishni sodir etgan shaxsning javobgarlikka tortilishiga olib kelmaydi.

Yuridik adabiyotlarda, «*huquqbuzarlikning yuridik xususiyatlari*» va «*huquqbuzarlik tarkibini ifodalovchi xususiyatlar*» tushunchalari ko'rsatib o'tilgan. Huquqbuzarlikning yuridik xususiyatlari — bu qilmishning huquqqa xilofligi, aybning mavjudligi va jazoga sazovorligi hisoblanadi (oldingi paragraflarga qarang).

Huquqbuzarlik tarkibini ifodalovchi xususiyatlar esa – bu – qonun hujjatlarida mustahkamlangan va sodir etilgan qilmishni huquqbuzarlik sifatida ifodalash mumkin bo'lgan xususiyatlardir.

Yuridik javobgarlikning asosi sifatida huquqbuzarlikning namoyon bo'lishi, uning subyektiv va obyektiv xususiyatlarga ega bo'lishiga bog'liqdir.

Bu ikkala tushunchani farqlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Masalan, transportda 16 yoshga to'lmagan bolaning chiptasiz yurishi – huquqbuzarlikning yuridik xususiyatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Lekin huquqbuzarlik tarkibining asosiy xususiyatlaridan birining (masalan, huquqbuzarlik subyekti) bo'lmaganligi javobgarlikni vujudga keltirmaydi.

Huquqbuzarlik tarkibini ifodalovchi o'zaro yaqin xususiyatlar birlashib, *huquqbuzarlik tarkibi elementlari*ni tashkil etadi.

Huquqshunos olim Yu.M.Kozlovning fikricha, ma'muriy huquqbuzarlikni tavsiflashda uning yuridik tarkibi katta ahamiyatga egadir. Ma'muriy huquqbuzarlikning yuridik tarkibi – bu uning ichki tuzilishini anglatuvchi yuridik xususiyatdagi elementlar yig'indisidir.[1]

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi tushunchasini anglash va uni aniqlash – ma'muriy javobgarlikka tortishning qonuniyligini ta'minlaydi, ma'muriy huquqbuzarlikning boshqa huquqbu-zarliklardan farqini belgilab beradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi – bu ma'muriy huquqlari bilan o'rnatilgan xususiyatlarning yig'indisi bo'lib, ularning mavjud bo'lishi bilan aniq bir qilmishlar – ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tan olinadi.

Har qanday huquqbuzarlik tarkibi singari, ma'muriy huquqbuzarlik ham: *huquqbuzarlikning obyekti* va *obyektiv tomoni, subyekti* va *subyektiv tomoni* kabi xususiyatlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

4-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning obyekti

Ma'muriy huquqbuzarlikning obyekti – bu ma'muriy huquq normalari bilan o'rnatilgan va muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida nafaqat ma'-

[1] Козлов Ю.М. Административное право. – М.: «Юрист», 2003. С. 170–174.

muriy huquq normalari bilan, balki ma'muriy-huquqiy vositalar bilan muhofaza etiladigan boshqa huquq tarmoqlari (konstitutsiyaviy, moliya, yer, mehnat va h.k.lar) normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ham vujudga keladi. Shu sababli, ma'muriy huquqbuzarlik obyektiga — ma'muriy javobgarlik normalari bilan himoya qilinadigan har qanday munosabatlarni kiritish mumkin.

Ma'muriy huquq nazariyasida huquqbuzarlik obyekti, odatda. uch guruhga bo'linadi:

birinchidan — ma'muriy huquqbuzarlikning *umumiy obyekti* — davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar. Masalan, O'zR MJtKning 10-moddasi 1-qismida ma'muriy huquqbuzarlik obyekti umumiy holda — «*shaxs, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, mulkchilik, davlat va jamoat tartibi, tabiiy muhit*» ko'rsatib o'tilgan;

ikkinchidan — ma'muriy huquqbuzarlikning *turdosh obyekti* — mazmuni va o'zaro yaqin xususiyatlariga qarab yagona tizimga keltirilgan obyektlardir. Masalan, O'zR MJtKning maxsus qismida ma'muriy huquqbuzarliklar quyidagi guruhlarga birlashtirilgan:

1) fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar;

2) aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar;

3) mulkka tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar;

4) tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar;

5) sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar;

6) qishloq xo'jaligidagi huquqbuzarlik, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzish;

7) transportdagi, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar;

8) fuqarolarning turarjoy huquqlariga taalluqli, kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi huquqbuzarliklar;

9) savdo tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbuzarliklar;

10) odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar;

11) jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar;

12) boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar;

uchinchidan — ma'muriy huquqbuzarlikning *bevosita obyekti* — huquqbuzarlik oqibatida bevosita zarar yetkazilgan, aniq obyekt hisoblanadi. Masalan, O'zR MJtKning 40-moddasida mustahkam-

langan tuhmat huquqbuzarligining bevosita obyekti — fuqaroning sha'ni va qadr-qimmati hisoblanadi; yoki 237-moddasiga binoan harbiy xizmatga yoki muqobil xizmatga chaqirilishdan bosh tortishda ifodalangan huquqbuzarlikning bevosita obyekti bo'lib — boshqaruv jarayonida o'rnatilgan tartib, ya'ni fuqarolarning harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash majburiyati hisoblanadi.

5-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni

Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni — bu huquqqa xilof qilmishdir, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik obyektiga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik, uning xususiyatlari, shuningdek, uni sodir etish (yoki sodir etmaganlik) sharoitlari hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik obyektiv tomondan ikki ko'rinishga ega:

birinchidan — ma'muriy huquqbuzarlikni *harakat* natijasida sodir etish. Harakat — insonning faol xulq-atvori hisoblanadi. Aksariyat ma'muriy huquqbuzarliklar, obyektiv tomondan shaxslarning harakati orqali sodir etiladi. Masalan, tuhmat, haqorat qilish, engil tan jarohati yetkazish, o'rnatilgan turli umummajburiy qoidalarni buzishda ifodalangan huquqbuzarliklar — harakatlar natijasida sodir etiladi;

ikkinchidan — ma'muriy huquqbuzarlikning *harakatsizlik* natijasida kelib chiqishi. Harakatsizlik — insonning passiv xulq-atvori bo'lib, odatda, belgilangan vazifani, majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlikda ifodalanadi. Masalan, mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqmaganlik, ota-onalarning bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish boyicha majburiyatlarni bajarmaganlik, hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaganlikda ifodalangan huquqbuzarliklar — harakatsizlik natijasida kelib chiqadi.

Huquqbuzarlikni sodir etish sharoitlari, ma'muriy huquqbuzarlik obyektiv tomonining elementi sifatida, uni sodir etish vaqti va uslubini nazarda tutadi. Masalan, O'zR MJtKning 90-moddasi 2-qismida ov qilish qoidalarini buzishning shartlari, ya'ni tegishli ruxsati bo'lmay turib yoki taqiqlangan joylarda yoxud taqiqlangan muddatlarda, taqiqlangan qurollar yoki uslublar bilan ov qilish yoki baliq tutish ko'rsatib o'tilgan.

D.N.Baxraxning ko'rsatib o'tishicha, ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni — huquq normalari bilan nazarda tutilgan, mazkur huquqbuzarlikning tashqi ko'rinishini ifodalaydigan xusu-

siyatlar yig'indisidir. Obyektiv tomon – qilmishni huquqbuzar tashqi xulq-atvorining ko'rinishi sifatida ifodalaydi. Obyektiv tomon xususiyatlariga: huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik va ularning sodir etilishi bilan vujudga kelgan zararli oqibat kiradi. Masalan, transport vositalari haydovchilari tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzish – harakat tezligini oshirish (*harakat*), yo'l belgilariga rioya etmaslik (*harakatsizlik*)da ifodalanuvchi turli xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Bunday *qilmishlar natijasi*da: yo'l harakati xavfsizligiga xavf solinishi, boshqa yo'l harakati ishtirokchilarining harakatlanishiga halaqit berish, avariya holatini vujudga keltirish yoki yo'l-transport hodisalarini sodir etilishiga olib kelishi mumkin.[1]

Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomonining tarkibiy qismlariga, huquqqa xilof qilmish (harakat yoki harakatsizlik) va vujudga kelgan zararli oqibatdan tashqari, *sodir etilgan qilmish va undan kelib chiqadigan zararli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanshi* ham kiradi. Bunday bog'lanishni aniqlash – zararli oqibatlarning kelib chiqishi sharoitlarini, zararli oqibatlarning aynan mana shu yoki boshqa qilmish oqibatida vujudga kelganligini, qilmishning vujudga kelgan oqibatlarga qay darajada ta'sir etganligini va boshqalarni aniqlashga xizmat qiladi. Lekin ma'muriy huquqbuzarlikda sababiy bog'lanishni aniqlashga hojat yo'q, chunki qoida boyicha vujudga kelgan zararli oqibatlar *nomoddiy* va odatda, *ijtimoiy zarar* yoki *ijtimoiy xavfli* ko'rinishida bo'ladi. Shu sababli, huquqqa xilof qilmish bilan uning oqibati o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligiga shubha tug'ilmaydi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar ikki ko'rinishga: ***formal*** yoki ***moddiy tarkibli huquqbuzarlik***larga bo'linadi.

Moddiy zarar kelib chiqishini nazarda tutmaydigan ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi – *formal tarkibli* ma'muriy huquqbuzarlik deb ataladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar, jinoyatlardan farqli ravishda, aksariyat hollarda formal tarkibda bo'lib, uni sodir etish natijasida moddiy zarar kelib chiqishi yoki kelib chiqmasligidan qat'iy nazar, javobgarlik nazarda tutiladi. Masalan, transport vositasi haydovchisi tomonidan harakat tezligini oshirish natijasida hech qanday moddiy zarar kelib chiqmagan bo'lishi mumkin, lekin bu harakatni sodir etish ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanib, unga nisbatan ma'muriy javobgarlik qo'llaniladi.

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С.498–507.

Formal tarkibli ma'muriy huquqbuzarliklardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida bir necha *moddiy tarkibli* huquqbuzarliklar ham nazarda tutilgan. Bunday huquqbuzarliklarni sodir etish natijasida moddiy zarar kelib chiqqan bo'lishi kerak. Masalan, mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish — moddiy tarkibli huquqbuzarlik hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etilganligini aniqlashda, qonun chiqaruvchi, huquqbuzarlik obyektiv tomonining boshqa xususiyatlarini ham nazarda tutishi mumkin. Jumladan, sodir etilgan qilmishni ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tasniflashda, ushbu ***qilmishning qaysi vaqtda sodir etilganligi*** muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, O'zR MJtKning 192-moddasida tungi vaqtda — soat 23.00 dan 06.00 gacha — fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishini buzish, ya'ni baland ovoz bilan qo'shiq aytish, musiqa chalish, tovush signallari berish, xonadonlarda, turarjoylarning yo'laklari va eshiklarida, ko'chalarda ovozi baland qilib qo'yilgan televizorlar, radiopriyomniklar, magnitofonlar va ovoz chiqaruvchi boshqa apparaturalardan foydalanish, turar joy binolarida va ulardan tashqarida juda zarur bo'lmagani holda shovqin chiqaruvchi ishlar qilish, shuningdek, maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzuvchi boshqa harakatlarni sodir etish uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Agar, mazkur xatti-harakatlar boshqa vaqtda (soat 06.00 dan 23.00 gacha) sodir etilgan bo'lsa, ushbu huquqbuzarlikning tarkibini vujudga keltirmaydi.

Ayrim hollarda, ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilashda, ***huquqbuzarlikni sodir etish joyi***ni aniqlash zarur bo'ladi. Masalan, O'zR MJtKning 187-moddasida ko'chalarda, stadionlarda, hiyobonlarda, bog'larda, barcha turdagi jamoat transportida hamda spirtli ichimliklarni quyib sotishga ruxsat etilgan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan boshqa jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichganlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur moddada ko'rsatib o'tilgan joylardan tashqari, uyda yoki mehmonda spirtli ichimliklarni iste'mol qilish ushbu modda boyicha javobgarlikni vujudga keltirmaydi.

Huquqbuzarlikning qanday uslubda sodir etilganligi ham ma'muriy huquqbuzarlikning tarkibini vujudga keltiruvchi xususiyatlardan biridir. Masalan, O'zR MJtKning 183-moddasida mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish,

fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, qonun chiqaruvchi, qilmishning — jamiyatga nisbatan yaqqol mensimaslik uslubida sodir etilishini ko'rsatib o'tadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikni takroran sodir etish — huquqbuzarlik obyektiv tomoni xususiyatlaridan biri bo'lib, ma'muriy jauvobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning ko'pgina moddalarida nazarda tutilgan. Lekin amaldagi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida takroran ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish tushunchasi berilmagan. Ma'muriy huquqbuzarlikni takroran sodir etish deganda, ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan bir yil davomida turdosh (bir xil yoki o'xshash) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etishni tushunish lozim. huquqbuzarlikni takroran sodir etish aybdor shaxsga nisbatan javobgarlik sanksiyalarida nazarda tutilgan og'irroq jazo chorasini qo'llashga sabab bo'ladi. Masalan, O'zR MJtKning 190-moddasiga binoan fohishalik bilan shug'ullanish — eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik obyektiv tomoninining yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari (*qilmishni sodir etish vaqti, joyi, uslubi, takroran sodir etish* va h.k.lar) barcha huquqbuzarliklarga ham xos emas, balki ular ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining ***fakultativ belgilari*** hisoblanadi.

Huquqbuzarlik tarkibining fakultativ belgilaridan farqli ravishda, *huquqqa xilof harakat* yoki *harakatsizlik*, ularni sodir etishdan kelib chiqadigan *zararli oqibat* hamda *zararli oqibat bilan qilmish o'rtasidagi sababiy bog'lanish* — ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining ***majburiy xususiyatlari*** hisoblanadi.

6-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 13-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

O'zR MJtKning 20-moddasiga binoan esa g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasolik holatida bo'lgan shaxs, ya'ni surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa xil kasallik oqibatida o'z harakatining (harakatsizligining) ahamiyatini idrok eta olmagan yoki boshqara olmagan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Demak, umumiy qoidagi ko'ra, ***ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti*** – bu 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida ma'muriy javobgarlikning subyektlari uch guruhga bo'lingan:

1) ***umumiy subyekt*** – har qanday 16 yoshga to'lgan jismoniy shaxs. Jumladan, O'zR MJtKning 13-moddasida ma'muriy javobgarlik subyekti umumiy holda ko'rsatib o'tilgan;

2) ***maxsus subyekt*** – umumiy subyektlarga qaraganda o'ziga xos xususiyatlarga (*qo'shimcha belgilarga*) ega bo'lgan subyektlardir. Ma'muriy huquqbuzarlikning maxsus subyektiga – mansabdor shaxslarni, haydovchilarni, voyaga yetmaganlarni va boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur shaxslar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Masalan, mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar ularning egallab turgan lavozimi yoki mansabi bilan yoxud ular zimmasiga yuklangan vazifalar (majburiyatlar)ning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi bilan bog'liq holda sodir etiladi. Mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi fuqarolarga (*umumiy subyekt*) qaraganda yuqori bo'ladi.

1-misol. O'zR MJtKning 175-4-moddasiga binoan ish haqini taqiqlangan shakllarda to'lash uchun faqatgina mansabdor shaxslargina javobgarlikka tortilishi mumkin. Chunki xodimlarga ish haqini berish majburiyati korxona, muassasa va tashkilotning mansabdor shaxsi zimmasiga yuklangan.

2-misol. O'zR MJtKning 125-moddasiga binoan foydalanish man etiladigan darajada nosozligi bo'lgan transport vositalarini boshqarish uchun faqatgina haydovchilar javobgarlikka tortilishi mumkin. Chunki haydovchigina – transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik 16 yoshga to'lgan fuqarolarga nisbatan qo'llanilishi belgilangan. Lekin 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolar – voyaga yetmaganlar toifasiga kirishini ham unutmaslik kerak. Ularning ma'muriy javobgarligi, odatda maxsus qoidalar bilan tartibga solinadi;

3) ***alohida subyekt*** – intizom ustavlari yoki xizmat to'g'risidagi nizomlar tatbiq qilinadigan shaxslar, masalan, harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar. Ma'muriy huquqbuzarlikning alohida subyektlari – maxsus subyektlarning alohida guruhini tashkil etadi. Alohida subyektlar ham maxsus subyektlar singari o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Qonun hujjatlarida ma'muriy huquqbuzarlikning u yoki bu subyektlari doirasiga qaratilgan javobgarlikning qo'shimcha asoslari yoki uning yuqori hajmi, boshqalariga nisbatan esa ma'muriy javobgarlikni qo'llashda cheklanishlar ko'rsatib o'tiladi. Masalan, O'zR MJtKning 53-moddasiga binoan sanitariya qonun hujjatarini, sanitariya normalarini, qoidalarini va gigiena normativlarini buzish, – fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. O'zR MJtKning 16-moddasiga binoan muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarga jarima solinishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida *xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar*ning ma'muriy javobgarligi ham nazarda tutilgan. Bu toifadagi shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik subyektlarining qaysi guruhiga kiradi, degan savol vujudga kelishi mumkin. Agar xorijiy fuqarolar diplomatik immunitet huquqidan foydalanmasa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi. Agar bunday huquqqa ega bo'lsa, ularning javobgarlik masalasi xalqaro shartnomalarda (yoki davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro bitimlarda) nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi. Demak, ular ma'muriy huquqbuzarlikning ham umumiy subyekti, ham maxsus subyekti sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga qaratilgan javobgarlikni nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Masalan, O'zR MJtKning 225-moddasida O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish, ya'ni O'zbekistonda yashash huquqini beradigan hujjatlarsiz yoki haqiqiy bo'lmagan hujjatlar bilan yashashi, vaqtincha yoki doimiy ro'yxatga turish, ko'chish yoki turar joy tanlash yuzasidan belgilangan tartibga rioya etmasligi, bo'lish muddati tugagach chiqib ketishdan bo'yin tovlashi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining hududi orqali tranzit tarzda o'tish tartibiga rioya qilmasligi uchun xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ma'muriy javobgarligi nazarda tutilgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan, faqatgina jismoniy shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ayrim davlatlarda esa, masalan, Rossiya Federatsiyasida, ma'muriy javobgalikka yuridik shaxslar ham tortiladi.

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti sifatida yuridik shaxslarning namoyon bo'lishi holati ham mavjud (*Qarang, ushbu darslikning 21-bob 7-§*).

7-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni

Har qanday huquqbuzarlik singari, ma'muriy huquqbuzarlik ham — huquqqa xilof ***aybli*** sodir etilgan qilmish hisoblanadi. Huquqbuzarning huquqqa xilof qilmishni sodir etishda aybi mavjud bo'lganida, uni javobgarlikka tortish mumkin bo'ladi. Ayib — bu sodir etilgan qilmishga nisbatan shaxsning ruhiy munosabatidir. Ayb ikki shaklda: qasd va ehtiyotsizlikda ifodalangan bo'lishi mumkin. Ayb — ma'muriy huquqbuzarlik subyektiv tomonining majburiy xususiyati hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni — bu huquqbuzarlik subyekti (jismoniy shaxs)ning huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hamda uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik aybning ikki shaklida ham, ya'ni *qasddan* va *ehtiyotsizlikdan* sodir etilishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 11-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo'lsa, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetgan, yuz berishini istagan bo'lsa yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ***qasddan*** sodir etilgan deb hisoblanadi.

Masalan, O'zR MJtKning 61-moddasida mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Ushbu qilmish qasddan sodir etiladi. huquqbuzar mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish kabi harakatlarning huquqqa xilof ekanligini biladi, uni sodir etish orqali korxonaga zarar yetkazilishiga ko'zi etadi va uning yuz berishini istaydi.

Ma'muriy huquqbuzarlikni qasddan sodir etish ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin:

a) *to'g'ri qasd*, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi *g'ayrihuquqiy ekanligini biladi, uning zararli oqibatlariga ko'zi etadi* va *uning yuz berishini istaydi*;

b) *egri qasd*, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi *g'ayrihuquqiy ekanligini biladi, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetadi* va *bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi.*

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 12-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa, yoxud bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ***ehtiyotsizlik orqasida*** sodir etilgan deb hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikni ehtiyotsizlik orqasida sodir etish quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

a) *o'ziga ishonish* — shaxsning o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylaydi;

b) *beparvolik* — shaxsning qonunda ko'rsatilgan oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'ra bilishi lozim va mumkin bo'lgani holda ularni oldindan ko'ra bilmagani.

Ma'muriy huquqbuzarlikni ehtiyotsizlik natijasida sodir etishdan *aybsiz zarar keltirish*ni farqlash lozim. Aybsiz zarar keltirish javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining aksariyat moddalarida ayb shakllari to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilmagan hamda ma'muriy javobgarlik ayb shaklidan qat'i nazar vujudga keladi. Masalan, 88-moddaga binoan qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarish chog'ida yonilg'i moddalar va binokorlik materiallarini to'plash, maxsus texnik qurilmalarsiz ochiq alanga oldirib ularni yoqish, bitum eritishda atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik — qasddan sodir etilganmi yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganmi, ma'muriy javobgarlikka asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining ayrim moddalarida qasd to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilmagan bo'lsa ham, uning qasddan sodir etilganligi qilmishning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, 188-moddaga binoan voyaga yetmagan shaxsni tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga, irodasiga ta'sir qiladigan moddalar yoki vositalarni iste'mol etishga jalb qilish — faqat qasddan sodir etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining ayrim moddalarida esa ayb shakllari aniq ko'rsatib o'tiladi. Masalan, 52-moddaning birinchi qismida ehtiyotsizlik orqasida yengil tan jarohati yetkazish, ikkinchi qismida esa qasddan yengil tan jarohati yetkazish uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ma'muriy huqubuzarlikning *maqsad* va *motiv* singari fakultativ belgilari ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Masalan, 141-moddaga binoan haydovchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish *maqsadida* foydalanishi, ma'muriy javobgarlikni vujudga keltiradi. Bunday maqsadning bo'lmaganligi esa, javobgarlikka olib kelmaydi. Va aksincha, masalan, 56-moddaga binoan giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni o'tkazish *maqsadini ko'zlamay* oz miqdorda g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish — ma'muriy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Demak, shaxsning sodir etgan qilmishini ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tasniflash uchun birinchidan, ma'muriy huquqbuzarlikning yuridik xususiyatlari — huquqqa xiloflilik, aybning mavjudligi, jazoga sazovorligi va ikkinchidan, yuridik tarkibi — ma'muriy huquqbuzarlikning obyekti va obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni mavjud bo'lishi kerak.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy javobgarlikni qo'llash asoslari.
2. Ma'muriy javobgarlikning huquqiy asosi.
3. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi.
4. Ma'muriy huquqbuzarlikning umumiy xususiyatlari.
5. Ma'muriy huquqbuzarlikning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyat.

7. Ma'muriy huquqbuzarlik va intizomiy nojo'ya xatti-harakat.
8. Ma'muriy huquqbuzarlikning yuridik tarkibi tushunchasi.
9. Ma'muriy huquqbuzarlikning obyekti.
10. Ma'muriy huquqbuzarliknig obyektiv tomoni.
11. Ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti.
12. Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni.

20-bob. MA'MURIY JAVOBGARLIK

1-§. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari va uning prinsiplari

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kiritilgan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1-moddasiga binoan ***ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari***:

1) ushbu kodeks;

2) O'zbekiston Respublikasi qonunlari;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari;

5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

6) Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari;

7) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengashining qarorlari;

8) xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlaridan iborat.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifasi — inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek, bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, qonun hujjatlari, qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratdir:

a) qonuniylik prinsipi.

Qonuniylik – davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq harakat qilishini anglatadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarini ko'rib chiquvchi barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar fuqarolarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda hamda uning talablarini bajarish maqsadida amalga oshiradilar.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxs qonun hujjatlarida belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.

Davlat organi yoki mansabdor shaxsning biron bir harakati qonun doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas. Barcha holatlarda ham ular qonun normalariga asoslanib ish ko'rilishini, adolatli va obyektiv jazo tayinlanishini ta'minlashlari lozim.

Vakolatli davlat organi (mansabdor shaxs)ning qonun talablariga mos va asoslantirilgan qarori bilan shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortish mumkin;

b) fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi.

O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Fuqarolarga o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishda, davlat organlarida ma'lum bir ishlarning ko'rib chiqish vaqtida, bir xildagi shart-sharoitlar yaratib beriladi;

d) demokratizm prinsipi.

Demokratizm prinsipining mazmuni shundan iboratki, unga ko'ra har bir ma'muriy huquqbuzarlik ishlari oshkora ko'rib chiqilib, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs: ish materiallari bilan tanishib chiqishga, izohlar berishga, dalillar keltirishga, o'z iltimosini bayon etishga, ishni ko'rib chiqish vaqtida advokatning yordamidan foydalanishga, o'z ona tilida so'zlashishga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Odatda, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning axloqini tuzatish, uni qayta tarbiyalashga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari jalb qilinadi;

e) insonparvarlik prinsipi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarini ko'rib chiquvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar ma'muriy jazo va boshqa huquqiy ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash vaqtida, jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamasligi kerak.

Biron bir shaxs qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo'llash orqali javobgarlikka tortish maqsadiga erishib bo'lmaydigan taqdirdagina, og'irroq jazo choralarini qo'llashlari mumkin;

f) odillik prinsipi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar ma'muriy javobgarlikni belgilashda, ma'muriy huquqbuzarlikning xususiyati, huquqbu-zarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda, adolatli va qonuniy jazo belgilanishini ta'minlashi lozim.

Shaxs aynan bitta ma'muriy huquqbuzarlik uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Bu — odillik prinsipining asosiy elementi bo'lib, qonuniylikni, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiladi;

g) ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipi.

Shaxsning sodir etgan xatti-harakati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tan olinadigan bo'lsa, unga nisbatan ma'muriy javobgarlikning qo'llanilishi shartdir.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasida O'zbekiston Respublikasi: ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplarini aniqlaydi va umumiy qoidalarini belgilab beradi; ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakat yoki harakatsizlikni, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organlar tizimini (mansabdor shaxslarni), mazkur ishlarni yuritish va chiqarilgan qarorlarning ijrosi

tartibini belgilaydi; ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasining vakolatlarini belgilaydi; viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyat vakillik organlari hamda hokimlari ma'muriy javobgarlik nazarda tutiladigan qaror qabul qilishlari mumkin bo'lgan masalalar doirasini belgilaydi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari:

1) jamoat tartibini saqlashga doir masalalar yuzasidan, basharti bu masalalar Kodeks bilan tartibga solinmagan bo'lsa, shuningdek, tabiiy ofatlar va epidemiyalarga qarshi kurash masalalari boyicha ularni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan qarorlar qabul qilish;

2) ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan quyidagi qoidalarni belgilash:

a) ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini, shuningdek, hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish qoidalarini;

b) hayvonlarni karantinga qo'yish qoidalarini va boshqa veterinariya-sanitariya qoidalarini;

d) it va mushuk boqish qoidalarini;

e) shaharlarni va boshqa aholi punktlarini obodonlashtirish qoidalarini;

f) shaharlardagi daraxtlarni shikastlantirish yoki ularni o'z-boshimchalik bilan kesib tashlashni;

g) yonilg'i-moylash materiallari bilan, dori-darmon vositalari yoki tibbiy buyumlar bilan qo'lda savdo qilish yoxud shaharlarda belgilanmagan joylarda qo'lda savdo qilishni;

h) bozorlarda savdo qilish qoidalarini.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga, fuqarolarni ongli, intizomli bo'lish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlar ishlab chiqadilar va ularni amalga oshiradilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga ham muvofiq qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta'minlab, o'z

hududlarida barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ishlarini muvofiqlashtirib turadilar, ichki ishlar organlari, voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar hamda ularga hisobdor ma'muriy huquqbuzarlik bilan kurash olib boruvchi boshqa organlar faoliyatiga rahbarlik qiladilar.

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun hech kim qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibdan boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish chorasiga tortilishi mumkin emas.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish qonuniylikka rioya qilish asosida olib boriladi.

Tegishli vakolat berilgan organlar va mansabdor shaxslar ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralarini o'z vakolatlari doirasida qo'llaydilar.

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash chog'ida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi vakolatli yuqori turuvchi organlar va mansabdor shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi bilan, prokuror nazorati bilan, shikoyat berish huquqi bilan ta'minlanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bu huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyda amal qilib turuvchi qonun hujjatlari asosida javobgarlikka tortiladi. Ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar *orqaga qaytish kuchiga egadir*, ya'ni ushbu hujjatlar chiqqunga qadar sodir etilgan huquqbuzarlik hollariga ham taalluqlidir. Ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni belgilovchi yoki javobgarlikni kuchaytiruvchi hujjatlar esa orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmaydi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rilayotgan vaqt va joyda amal qilib turgan qonun hujjatlari asosida yuritiladi.

Demak, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, boshqa ma'muriy-huquqiy normalar singari, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, shuningdek, turli huquq sohalari (konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat, moliyaviy, fuqarolik va h.k.lar) normalarini amalga oshirilishini va himoya qilinishini ta'minlashni nazarda tutadi.

Ma'muriy javobgarlikni tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati — O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi bo'lib, respublika miqyosidagi ma'muriy javobgarlik normalarini tartibga soladi, ya'ni:

birinchidan — ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy holatlari va prinsiplarini mustahkamlaydi;

ikkinchidan – respublika miqyosida umummajburiylik xususiyatiga ega bo'lgan qoidalarning buzilishi uchun ma'muriy javobgarlikni o'rnatadi;

uchinchidan – ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish jarayonini tartibga soladi;

to'rtinchidan – ma'muriy jazo turlarini va ma'muriy-protsessual majburlov choralarini o'rnatadi.

Deyarli barcha ma'muriy javobgarlikni belgilovchi huquqiy normalar, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi doirasida umumlashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari:

1) moddiy va protsessual huquqiy normalar tizimini o'zida ifoda etadi;

2) fuqarolarning ma'muriy javobgarligini nazarda tutadi;

3) ma'muriy va sud tartibida ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan ma'muriy javobgarliklarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik va Fuqarolik-protsessual kodekslaridan farqli ravishda, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, ikki xildagi huquqiy normalarni o'zida ifoda etgan:

a) javobgarlikning umumiy holatlarini va prinsiplarini, huquqbuzarlik tarkibini, ma'muriy jazo choralarini belgilab beruvchi – *moddiy huquqiy normalar;*

b) huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish va jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish jarayonini tartibga soluvchi – *protsessual-huquqiy normalar.*

2-§. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi

Ma'muriy javobgarlik – yuridik javobgarlikning alohida turi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida, ma'muriy javobgarlik ma'muriy-huquqiy majburlovning ko'rinishi bo'lib, uning barcha xususiyatlariga egadir.

Ma'muriy javobgarlikka yuridik javobgarlikning barcha xususiyatlari ham xosdir. U huquqiy normalar asosida o'rnatiladi, shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qo'llaniladi va vakolatli davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan o'rnatilgan protsessual tartibda huquqiy normalarda nazarda tutilgan sanksiyalarni qo'llashda ifodalanadi.

Ma'muriy javobgarlik masalasi ko'pgina huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, ularning aksariyati bu masalaga deyarli bir xilda yondoshgan: ***ma'muriy javobgarlik*** – bu ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy-protsessual tartibda ma'muriy jazoni qo'llashdir.[1]

A.P.Alyoxin ma'muriy javobgarlikni yuridik javobgarlikning barcha xususiyatlariga ega ekanligi bilan bir qatorda, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ham ko'rsatib o'tadi:

birinchidan, ma'muriy javobgarlik qonunlar bilan ham, qonunosti hujjatlari bilan ham o'rnatiladi, ya'ni u o'zining normativ-huquqiy asosiga egadir. Jinoiy javobgarlik – faqat qonunlar bilan, intizomiy javobgarlik – qonun va qonunosti hujjat-lari bilan, moddiy javobgarlik – mehnat va fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi;

ikkinchidan, ma'muriy javobgarlikning asosi bo'lib – ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi (qonun buzilishi va nojo'ya xatti-harakat qo'rinishida). Jinoiy javobgarlikda – jinoyat, intizomiy javobgarlikda – intizomiy nojo'ya xatti-harakat, moddiy javobgarlikda – moddiy zarar yetkazish hisoblanadi;

uchinchidan, ma'muriy javobgarlik subyekti sifatida fuqarolar, mansabdor shaxslar va yuridik shaxslar[2] namoyon bo'ladi. Jinoiy javobgarlikda – fuqarolar va mansabdor shaxslar, intizomiy javobgarlikda – xodim (jamoa subyektlarining intizomiy javobgarligi yuridik adabiyotlarda munozarali bo'lib kelmoqda), moddiy javobgarlikda – xodim (mehnat qonunchiligi boyicha), yuridik va jismoniy shaxslar (fuqarolik qonunchiligi boyicha) subyekt bo'lishi mumkin;

to'rtinchidan, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun – ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi. Jinoyat uchun – jinoiy jazo, intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun – intizomiy jazo, moddiy zarar yetkazish uchun – mulkiy jazo qo'llaniladi;

beshinchidan, ma'muriy javobgarlik qonun hujjatlariga binoan keng doiradagi davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.; «Норма», 2004. С. 484–485.; Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право: Учебник. – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. С. 225–228.

[2] O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan yuridik shaxslar ma'muriy javobgarlikning subyekti hisoblanmaydi.

qo'llaniladi. Jinoiy javobgarlik – sud organlari tomonidan, intizomiy javobgarlik – yuqori turuvchi davlat organi (mansabdor shaxs) tomonidan, moddiy javobgarlik – sud organlari tomonidan qo'llaniladi;

oltinchidan, ma'muriy javobgarlik sudlanganlik holatini yoki ishdan bo'shatishni vujudga keltirmaydi, jinoiy javobgarlikda – sudlanganlik vujudga keladi, intizomiyda – ishdan bo'shatish mumkin;

yettinchidan, ma'muriy javobgarlikni qo'llash uchun, bo'ysunuvning bo'lishi shart emas, intizomiy javobgarlikni qo'llashda esa bo'ysinuv mavjud bo'ladi.[1]

Yu.M.Kozlovning fikricha, ma'muriy javobgarlikka jazolash funksiyasi xos bo'lib, umumiy va individual ogohlantirish ahamiyatiga ega.[2]

Ma'muriy javobgarlik barcha fuqarolar uchun tatbiq qilinadigan umummajburiy qoidalarni buzganlik yoki rioya etmaganlik uchun qo'llaniladi. Ular turli-tuman ko'rinishlarga ega bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, davlat va jamoat tartibi va xavfsizligi; tabiatni muhofaza qilish; mulkchilik; standartlashtirish; statistika va hisob-kitob; harakatlanish xavfsizligi va transport vositalaridan foydalanish; harbiy ro'yxat; chegara tartibi; kontrabandaga qarshi kurash; valuta muomalasi va boshqa qoidalar. Umummajburiy qoidalar turli vakolatli ijro hokimiyati organlari tomonidan o'rnatiladi.

Ma'muriy javobgarlik, odatda, ma'muriy-huquqiy normalarning talablari buzilgan taqdirda vujudga keladi. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilik, ma'muriy javobgarlikning mehnat, moliya, yer, hatto konstitutsiyaviy huquq normalarining buzilishi uchun ham qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, ma'muriy javobgarlikning sohalararo ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlik masalalari huquqshunos olimlar Alimov X.R., Stasko V.N., Li A.A., Xvan L.B. va boshqalarning ishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, Alimov X.R.ning ko'rsatishicha, ma'muriy javobgarlik – ommaviy-huquqiy tabiatga ega bo'lib, davlat oldidagi javobgarlik hisoblanadi. Bu –

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. Учебник. – «Зерцало», 1998. С. 282–283.

[2] Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. – 2-е изд. – М.: «Юрист», 2003. С. 165–167.

xizmat boyicha bo'ysunmagan, aybdorlarga nisbatan davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan davlat oldidagi javobgarlikdir.[1]

Odatda, javobgarlik turlari deganda, uning tarkibiy tuzilishiga kiruvchi jazo choralari nazarda tutiladi. Lekin bu ikkala «*javobgarlik*» va «*jazo*» terminlarining mazmuniga e'tibor beradigan bo'lsak, ular turli tushunchalarda ifodalanadi. Javobgarlik jazoga qaraganda, kengroq doiradagi munosabatlarni qamrab oladi. Javobgarlik jazo choralari bilan bir vaqtda va boshqa huquqiy ta'sir etish choralarini ham o'z ichiga oladi.

Ma'muriy javobgarlik ***huquqbuzarning ongi va irodasiga (xulq atvoriga) ta'sir etish darajasi***ga qarab quyidagilarga bo'linishi mumkin:

1) *jismoniy* ta'sir etishni nazarda tutuvchi ma'muriy javobgarlik;

2) *moddiy* ta'sir etishni nazarda tutuvchi ma'muriy javobgarlik;

3) *ruhiy* ta'sir etishni nazarda tutuvchi ma'muriy javobgarlik.

Ma'muriy javobgarlikni ***qo'llovchi organlar vakolat doirasi***dan kelib chiqqan holda, ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

1) *sud organlari* tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlik;

2) *davlat boshqaruvi organlari (yoki vakolat berilgan organlar)* tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlik.

Ma'muriy javobgarlikni ***vujudga keltiruvchi asoslar***ga ko'ra, uning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:

1) *ma'muriy huquqbuzarlik* uchun qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlik;

2) *kam ahamiyatli qilmishlar* uchun qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlik.

Ma'muriy javobgarlikning bunday turlarga bo'linishi shartli hisoblanadi. Ba'zi huquqshunos olimlar, ma'muriy javobgarlik turlari sifatida jazo choralarini, ba'zi birlari, javobgarlik turlarini turli asoslarga qarab bo'linishini (yuqorida ko'rib chiqqanimizdek), uchinchilari esa ma'muriy javobgarlik turlariga umuman to'xtalib o'tmagan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga asoslanib, ma'muriy javobgarlikning huquqbuzarlik subyektlariga ko'ra, quyidagi turlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

---

[1] Административное право Республики Узбекистан: Учебник для юридических вузов // Авт. коллектив: Х.Р.Алимов, Л.И.Соловьева и др. / – Т.: «Адолат», 1999. С. 227–228.

1) *voyaga yetmaganlarning* ma'muriy javobgarligi;

2) *mansabdor shaxslarning* ma'muriy javobgarligi;

3) *xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning* ma'muriy javobgarligi;

4) *xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning* ma'muriy javobgarligi.

Ko'p yillar davomida, ma'muriy javobgarlikning huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda tutgan o'rni oshib bordi. Oxirgi vaqtlarda esa u yanada faol namoyon bo'la boshladi. Ma'muriy javobgarlik boshqaruv sohasida davlatning jazo sanksiyalarini qo'llashning asosiy shakliga aylandi.

Ma'muriy javobgarlik, o'zining normativ-huquqiy bazasiga ega bo'lib, hozirgi jarayonda u takomillashtirilmoqda. Yangi loyihada ma'muriy javobgarlikni tartibga soluvchi qonun hujjati, ma'muriy jarayonni tartibga soluvchi yangi qonun hujjati ishlab chiqilmoqda.

3-§. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 14-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javogarligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-sentabrdagi «Voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi 360-sonli Qarorida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy-tarbiyaviy ishlar susaytirib yuborilganligi, ular ustidan bo'lgan nazoratning bo'shligi, ish bilan ta'minlash va boshqa muammolar qoniqarli darajada hal etilmayotganligi oqibatida ko'plab yoshlar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etish, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, diniy aqidaparastlik yoki turli zararli oqimlar, guruhlar ta'siriga tushib qolish kabi salbiy holatlar uchrab turganligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Yoshlarni ijtimoiy mehnatga jalb etish, tarbiyalash, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mutasaddi bo'lgan o'zini-o'zi boshqarish organlari, o'quv muassasalari va boshqa idoralarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mahalliy hokimliklar huzuridagi mavjud komissiyalar o'z faoliyatini deyarli to'xtatib qo'yganligi ta'kidlangan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, bu yo'nalishda mas'ul bo'lgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi «Voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiyalar haqida»gi nizom hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiya tarkibini tasdiqladi.

Voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiyalar o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsiz qolish va huquqbuzarliklarning oldini olish organlari hisoblanadilar.

Voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiyalar — voyaga yetmaganlarning nazoratsiz, qarovsiz qolishlari, huquqbuzarliklari va jamiyat uchun zararli xatti-harakat qilishlarining oldini olish, bularga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogika jihatdan reabilitatsiya qilish maqsadida tuziladi.

Voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiyalar tumanlar, shaharlar, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tuziladi.

Komissiyalar rais (tuman, shahar, viloyat hokimi o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining o'rinbosari), rais o'rinbosari, mas'ul kotib va komissiyaning 6—12 a'zosi tarkibida tuziladi. Komissiya a'zolari soni komissiyaning ish hajmiga qarab belgilanadi.

Komissiyaning mas'ul kotibi kundalik ishlarni va komissiya qarorlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Tumanlar, shaharlar va viloyatlar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi komissiyalarda boshqa ishlardan ozod mas'ul kotib lavozimi, zaruriyat bo'lganda esa voyaga yetmaganlar bilan ishlash boyicha inspektor lavozimi joriy etiladi.

Komissiyaga tarkibiga oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, ichki ishlar, mehnat organlari, xotin-qizlar qo'mitasi, kasaba uyushmalari, nodavlat, notijorat tashkilotlari, mudofaaga ko'maklashish jamiyati, mehnat jamoalari, madaniy-ma'rifiy va boshqa muassasalarning vakillari kiradilar.

Komissiyalar tarkibida: voyaga yetmaganlar o'rtasida madaniy-tarbiyaviy ishlar boyicha, umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari va boshqa o'quv muassasalarining o'quvchilari bilan ishlash boyicha, bolalar va o'smirlarni ishga joylashtirish va maishiy turmushini yaxshilash masalalari boyicha, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan chiqarilgan va tarbiyalash koloniyalaridan ozod qilingan o'smirlar ustidan nazorat o'rnatish boyicha seksiyalar tashkil etilishi mumkin.

Komissiyalar o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar boyicha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladilar.

Voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiyalarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

1) voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning nazoratsiz, qarovsiz qolishi hamda ular o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning kelib chiqishi sabablari, shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini amalga oshirish;

2) davlat idoralari, o'zini-o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlarining voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari yuzasidan faoliyatini muvofiqlashtirish;

3) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligining ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari va Ichki ishlar vazirligining muassasalarida voyaga yetmaganlarning saqlanishi, ularni o'qitish, tarbiyalash shart-sharoitlari ustidan nazoratni tashkil etish;

4) voyaga yetmagan yoshlarning ongini, tafakkurini shakllantirish, yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida ma'naviyat va ma'rifat ishlarini jonlantirish;

5) jazoni ijro etish joylaridan ozod bo'lib kelgan yoki maxsus o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan voyaga yetmaganlarni turar joy va ish bilan ta'minlashda yordam berish, shuningdek, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish boyicha qonunda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Tuman (shahar) komissiyalari zimmasiga:

a) 14 yoshga to'lmasdan turib jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar sodir etgan, 13 yoshga to'lgandan keyin og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirgan voyaga yetmaganlar bundan mustasno;

b) 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davrda ular uchun jismoniy javobgarlik nazarda tutilmagan, jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar sodir etgan;

d) 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davrda jinoyat alomatlari bo'lgan xatti-harakatlar sodir etib, ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish rad qilingan yoki jinoiy ish to'xtatilgan;

e) 16 yoshgacha bo'lgan davrda yo'l harakati qoidalarini buzgan;

f) jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlar sodir etgan;

g) umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida (umumiy ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida) o'qishdan bosh tortgan;

hj) jamiyat uchun katta xavf bo'lmagan jinoyat sodir etganida tergovchi yoki prokurorning qarori yoxud sud ajrimi asosida javobgarlikdan ozod qilingan;

j) O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmagan shaxslar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vazifasi yuklanadi.

Tuman (shahar) komissiyalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi ***ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llashlari***, ya'ni:

1) voyaga yetmaganga jabrlanuvchidan *uzr so'rash majburiyatini yuklash* to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritishi;

2) *ogohlantirib qo'yishi*;

3) 15 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo'lsa va zarar miqdori belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa *moddiy zararning o'rnini qoplash* yoki *uni bartaraf etish majburiyatini yuklash*i yoki belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan moddiy zararni o'z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklashi;

4) 16 yoshga to'lgan va mustaqil ish haqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan shaxsga O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javogarlik to'g'risidagi kodeksida, Qoraqalpog'iston Respublika-sining davlat hokimiyati va boshqaruvining oliy organlari chiqargan hujjatlarda, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlari qarorlarida ko'zda tutilgan hollarda va miqdorlarda *jarima solish*i;

5) voyaga yetmagan shaxsni o'z ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga, shuningdek, ularning roziligi bilan *mehnat jamoasi yoki jamoat tashkiloti kuzatuviga topshirish*i;

6) voyaga yetmagan shaxs jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar qilgan yoki ijtimoiy axloq qoidalarini qasddan va muntazam ravishda buzib kelgan taqdirda komissiya ichki ishlar organlari bilan birgalikda voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga yuborish masalasini ko'rib chiqish to'g'risida sudga iltimos qiladi. 11 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs *maxsus maktab-internatga yuborilishi*, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs esa *maxsus kasb-hunar kollejiga yuborilishi* mumkin.

Har bir aniq holat boyicha qabul qilingan ta'sir choralari to'g'risida komissiyalar voyaga yetmaganning yashash, o'qish yoki ish joyi boyicha huquqni buzishlarning oldini olish bo'linmalari tomonidan voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish ishlarini ta'minlash uchun ichki ishlar organlarining tegishli hududiy organlarini xabardor qilishga majburdir.

Tuman (shahar) komissiyalari voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan, voyaga yetmagan shaxsni mast bo'lishga olib kelganligi, voyaga etmaganlar katta yoshdagilar tomonidan tilanchilikka, fohishabozlikka, qimor o'yinlariga, spirtli ichimliklar ichishga, giyohvand yoki psixotrop moddalar bo'lmagan, biroq intellektual iroda faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalar yoki vositalarni iste'mol qilishga jalb qilinganligi, shuningdek, 16 yoshga to'lmagan o'smirlar yo'l harakati qoidalarini buzganligi, tilanchilik, fohishabozlik, qimor o'yinlari bilan shug'ullanganligi, jamoat joylarida mast holda paydo bo'lganligi, teng ravishda ular spirtli ichimliklar, giyohvand yoki psixotrop moddalar bo'lmagan, biroq intellektual iroda faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar va moddalar iste'mol qilganliklari yoxud boshqa xil huquqbuzarlik hollarini sodir etganliklari uchun quyidagi ta'sir choralarini qo'llashlari, ya'ni:

jamoat izzasi berishi;

ogohlantirib qo'yishi;

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan miqdorlarda *jarima solishi*;

favqulodda hollarda bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita xavf solinganda ish sud tomonidan hal etilgungacha *bolani vaqtincha ota-onasidan yoki ular vasiyligida bo'lgan boshqa shaxslardan olib qo'yish* to'g'risida vasiylik va homiylik organlariga taqdimnoma kiritishi mumkin.

Komissiya ota-onalarning muomala layoqatini cheklangan deb topish, ota-onalarni ota-onalik huquqidan mahrum etish, bolalarni

o'z ota-onalaridan ularni ota-onalik huquqidan mahrum etmasdan olib qo'yish, shuningdek, bolalarning ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lib, shu bolalari bilan birgalikda yashashlari mumkin emas deb topilgan taqdirda, ularni boshqa turarjoy bermasdan ko'chirib yuborish to'g'risida tuman (shahar) sudiga da'vo bilan murojaat qilish huquqiga egadir.

Voyaga yetmagan shaxslarni maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga yuborish komissiyaning bolalarning ota-onalari yoki ota-onasi o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligini olmay turib chiqargan qarori asosida sudning ajrimi boyicha amalga oshirilishi mumkin. Maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga yuborish to'g'risidagi ishlar, albatta, prokuror ishtirok etgan holda ko'rib chiqiladi.

Voyaga yetmagan shaxslarni o'z ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar bo'la turib «Mehribonlik» uyiga yoki maxsus maktab-internatga yuborish ularning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar roziligisiz favqulodda hollardagina (ular uzoq vaqt bo'lmaganlari, kasal bo'lganlari, jinoyat sodir qilib, hukm etilganliklari taqdirda va hokazo hollarda) amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, komissiya ota-onalardan yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslardan o'z bolalarini boqish uchun qilingan xarajatlarni undirib olish uchun qonunda belgilangan tartibda tegishli mablag'lar undirib olish haqida ham qaror qabul qiladi. Favqulodda hollarda komissiyaning iltimosiga ko'ra undirib olinadigan bu haqning miqdori qonunda belgilangan tartibda kamaytirilishi mumkin.

Tuman (shahar) komissiyalari o'z bolalarini tarbiyalashga noto'g'ri munosabatda bo'layotgan yoki komissiya chiqargan qarorning bajarilishiga to'sqinlik qilayotgan ota-onalarga yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarga ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash haqida, shuningdek, bolalar va o'smirlar huquqbuzarlik qilishlari uchun sharoit yaratib berayotgan yoxud voyaga yetmagan shaxslarni jinoyat va jamiyatga qarshi boshqa nojo'ya harakatlar qilishga undayotgan yoki jalb etayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tegishli davlat organlariga taqdimnoma bilan kiradilar.

Ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanilayotganida tuman (shahar) komissiyasi huquqbuzarlik holatining xususiyatini va sabablarini, voyaga yetmagan shaxsning yoshini va uning hayot sharoitlarini, uning huquqbuzarlik qilishda qay darajada ishtirok etganligini, shuningdek, uning turmushidagi, maktabdagi va ishdagi xulq-atvorini albatta hisobga olishi lozim.

Komissiyaning voyaga yetmaganlar ishi boyicha ogohlantirish berish to'g'risidagi qarori *bir yil mobaynida* amal qiladi. Basharti ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilgan voyaga yetmagan shaxs ana shu muddat ichida yangi huquqbuzarlik sodir etmasa, *ta'sir ko'rsatish chorasi tugallangan* deb hisoblanadi. Ta'sir ko'rsatish chorasini qo'llagan komissiya o'z qaroriga binoan, basharti ana shunday ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilgan voyaga etmagan shaxs namunali axloqi bilan o'zining tuzalganligini ko'rsatgan taqdirda, jazoni bir yil o'tmasdan ham olib tashlashi mumkin.

Komissiyaning voyaga yetmagan shaxsni o'z ota-onasi, ular o'rnini bosuvchi shaxslar yoki jamoat tarbiyachilari nazoratiga yoxud mehnat jamoasi, jamoat tashkiloti kuzatuviga topshirish to'g'risidagi qarorining amal qilish muddati, basharti voyaga yetmagan shaxs o'zining namunali axloqi va ishga hamda o'qishga bo'lgan halol munosabati bilan o'zining tuzalganligini isbot etsa, mazkur shaxslar yoki tashkilotlar iltimosiga binoan istagan vaqtda bekor etilishi mumkin.

Tuman (shahar) komissiyasining *jarima solish* to'g'risidagi qarori shu qaror topshirilgan kundan boshlab *15 kun mobaynida* ana shunday jarima solingan shaxs tomonidan to'lanishi lozim, bunday qaror ustidan shikoyat yoki protest berilgan taqdirda esa mazkur shikoyat yoki protest qondirilmaganligi haqida ma'lumotnoma olingan kundan boshlab 15 kundan kechiktirmay to'lanadi.

16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar mustaqil ish haqiga ega bo'lmasa, jarima ularning ota-onalaridan yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslardan undirib olinadi.

Jarima muddatida to'lanmagan taqdirda, komissiyaning jarima solish to'g'risidagi qarori jarima summasini fuqarolik-protsessual qonunchilik bilan belgilangan qoidalarga muvofiq shunday jarima solingan shaxsning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan majburiy tartibda ushlab qolish uchun yuboriladi.

Basharti jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo'lsa yoki solingan jarimani boshqa sabablarga ko'ra uning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan undirib olishning iloji bo'lmasa, jarima komissiyaning jarima solish to'g'risidagi qarori asosida undiruvni huquqbuzarning shaxsiy mol-mulkiga, shuningdek, umumiy mulkdagi uning ulushiga qaratish yo'li bilan tuman (shahar) sudi sud ijrochisi tomonidan undirib olinadi.

Voyaga yetmagan shaxslar *maxsus maktab-internatlarda* 15 yoshga yetguncha saqlanadilar, *maxsus kasb-hunar kollejlarida* esa 18 yoshga yetgunga qadar saqlanadilar.

Voyaga yetmagan shaxslar maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida to axloqan tuzalganlariga qadar saqlanadilar, lekin bu muddat uch yildan ortib ketmasligi kerak.

Maxsus maktablarning 15 yoshga to'lgan, ammo axloqan tuzalmagan o'quvchilari shu maktablar joylashgan yerdagi tuman (shahar) komissiyasi tomonidan maxsus kasb-hunar kollejlariga yuborilishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxslarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida bundan keyin bo'lishlarining maqsadga muvofiq-nomuvofiqligi masalasi vaqt-vaqti bilan, lekin yiliga kamida bir marta shu muassasalar joylashgan yerdagi tuman (shahar) komissiyalari tomonidan mazkur komissiyalarning o'z tashabbusi bilan, ana shu muassasalar ma'muriyatining taqdimnomasi yoki voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar iltimosiga binoan ko'rib chiqiladi.

Tarbiya koloniyasidan ozod bo'lib qaytgan voyaga yetmagan shaxs istiqomat qilayotgan joydagi komissiya mazkur shaxs 18 yoshga yetgunga qadar uni ishga yoki o'qishga joylashtirish choralarini ko'radi va uning axloqini nazorat qilib boradi.

Tarbiya koloniyasidan ozod bo'lgan voyaga yetmagan shaxsni tarbiyaviy mulohazalar sababli ilgarigi istiqomat joyiga yuborish maqsadga muvofiq emas deb topilgan favqulodda hollarda uni ishga joylashtirish koloniya ma'muriyatining taqdimi bilan shu tarbiya koloniyasi joylashgan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya koloniyadan ozod bo'lgan voyaga yetmagan shaxsni u yordam so'rab murojaat qilgan kundan boshlab 10 kun muddatdan kechiktirmay ishga yoki o'qishga joylashtirish masalasini hal qilishi shart.

Komissiyalar — O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda topshirilgan ishlarni; O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni; ichki ishlar organlari va xalq ta'lim organlari taqdimi boyicha berilgan ishlarni; kasaba uyushmasi, umumta'lim maktablari huzuridagi ota-onalar qo'mitalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoat birlashmalari taqdimnomasi boyicha topshirilgan ishlarni; fuqarolarning arizalari boyicha ko'riladigan ishlarni; o'z tashabbusi bilan ko'riladigan ishlarni qarab chiqadilar.

Komissiyalar ishlarni ular komissiyaga tushgan paytdan boshlab ko'pi bilan 15 kun ichida ko'rib chiqadilar.

Voyaga yetmagan shaxslarning huquqbuzarlik qilganligi to'g'risida tuman (shahar) komissiyasi ko'rib chiqishi lozim bo'lgan materiallar komissiyaning raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan oldindan o'rganib chiqiladi va ular: ishni komissiya majlisida qarab chiqish; ishga oid materiallarni qo'shimcha suratda tekshirish yoki tushgan arizalar, taqdimnomalar boyicha tekshirib chiqish; ish komissiya majlisida ko'rilgunga qadar voyaga etmagan shaxsga ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash; unchalik zararli bo'lmagan huquqbuzarlik to'g'risidagi materiallarni, basharti huquqbuzarga nisbatan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'linsa, voyaga yetmagan ana shu shaxs yashab yoki o'qib turgan joy boyicha fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga yoki jamoat birlashmalariga topshirish xususida qaror qabul qiladilar.

Huquqbuzarlik to'g'risidagi ish komissiyada qarab chiqilgunga qadar voyaga yetmagan shaxs o'z ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar kuzatuviga topshirilishi mumkin, «Mehribonlik» uyida, maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi voyaga yetmagan shaxs esa shu muassasalar ma'muriyatining nazoratiga berilishi mumkin. 11 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar jamoat uchun xavfli bo'lgan og'ir nojo'ya harakat sodir etgan taqdirda va shu munosabat bilan uni darhol yakkalab qo'yish zarurati tug'ilganda, bu shaxs komissiya raisi yoki uning o'rinbosari bergan yozma ko'rsatmaga asosan ko'pi bilan o'ttiz kunlik muddatga voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan qabul-taqsimot-xonaga joylashtirilishi mumkin.

Ishini komissiya ko'rishi kerak bo'lgan voyaga yetmagan shaxs ruhiy jihatdan sog'lom ekanligiga shubha tug'ilgan taqdirda, mazkur shaxs tibbiyot kuzatuvidan o'tish uchun yuboriladi.

Komissiya ishlarni tayyorlash va qarab chiqish paytida voyaga yetmagan shaxsning yoshini, mashg'ulotini, yashab turgan va tarbiyalanayotgan sharoitini, huquqbuzarlik qilganligi faktini va uning sodir etilganini tasdiqlovchi dalillarni, shuningdek, huquqbuzarlik qilishga da'vat etuvchi katta yoshdagi kishilar va boshqa qatnashchilar bo'lgan-bo'lmaganligini, voyaga yetmagan shaxslarga ilgari ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilgan-qo'llanilmaganligini aniqlashi zarur.

Komissiya voyaga yetmagan ,shaxsning huquqbuzarlik sodir qilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni batafsil tekshirib, ularni bartaraf etish choralarini ko'rishi shart.

Komissiya ishni qarab chiqish uchun zarur ma'lumot va hujjatlarni talab qilib olishi, shuningdek, komissiyada ko'riladigan masalalar yuzasidan izohlar olish uchun mansabdor shaxslar va fuqarolarni chaqirishi mumkin.

Mansabdor shaxslar va fuqarolar komissiya chaqirig'i boyicha uzrsiz sabablar bilan kelmagan taqdirlarida komissiya ishni ko'rishni qoldirib, ularni o'zlari ishlab yoki o'qib turgan joydagi ma'muriyat, jamoat tashkilotlari orqali keltirish choralarini ko'rishi mumkin.

Ishi ko'rilayotgan voyaga yetmagan shaxs, shuningdek, uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar komissiyaga uzrsiz sabablar bilan kelishdan bosh tortgan taqdirda, ular ichki ishlar organlari orqali olib kelinishi mumkin.

Ish ko'rishga tayyor deb topilgach, shu ishni tayyorlash vazifasi topshirilgan komissiyaning raisi, rais o'rinbosari yoki a'zosi ish qarab chiqilishidan oldin voyaga etmagan shaxsni, uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarni, zarur hollarda esa tarbiya muassasalarining vakillarini barcha materiallar bilan tanishtirib chiqadi, komissiya majlisiga kimlarni chaqirish kerakligini belgilab oladi hamda ish ko'riladigan vaqt va joyni aniqlaydi.

Komissiya majlisi bo'ladigan kun prokurorga ma'lum qilinadi.

Komissiyaning majlisi komissiya tarkibining yarmidan ko'pi hozir bo'lgan taqdirda haqiqiy deb hisoblanadi.

Komissiyaning majlisida ishi ko'rilayotgan voyaga yetmagan shaxs, shuningdek, uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar, zarur hollarda esa o'quv-tarbiya muassasalarining vakillari bo'lishi shart.

Komissiya ish yuzasidan to'plangan materiallarni qarab chiqadi, voyaga yetmagan shaxs, uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarning, jabrlanuvchi va guvohlarning tushuntirishlarini tinglaydi, so'ngra ishning barcha holatlarini har tomonlama ko'rib chiqib, ***quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi***:

1) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash;

2) ishni to'xtatish;

3) ishni ko'rishni qoldirib, qo'shimcha tekshiruv o'tkazish;

4) ishni tergov yoki surishtiruv organlariga topshirish.

Komissiya majlisida bayonnoma yuritilib, unda majlis bo'lgan kun va joy, ko'rib chiqilayotgan ishning mazmuni, ishni ko'rishda qatnashayotgan shaxslarning majlisga kelgan-kelmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning bergan izohlarining qisqacha maz-

muni, ishga oid boshqa ma'lumotlar, shuningdek, qabul qilingan qarorni o'qib eshittirish va uning ustidan shikoyat berish va muddatlarini tushuntirish to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Bayonnomaga raislik qiluvchi va kotib imzo chekadilar.

Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiya ishi ko'rilayotgan shaxslarning ishlaydigan yoki yashaydigan joyida sayyor majlislar ham o'tkazishi mumkin.

Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashuvchi komissiya a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Komissiyaning qarori yozma shaklda bo'lib, u dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim.

Ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash to'g'risidagi qarorda — komissiyaning nomi; ishni ko'rib chiqish vaqti; ishi ko'rib chiqilayotgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar; ishni qarab chiqish chog'ida aniqlangan holatlar; qilingan huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ akt va shu ish yuzasidan qabul qilingan hal qiluvchi qaror ko'rsatilgan bo'ladi.

Komissiyaning qarori ustidan o'zi haqida shu qaror chiqarilgan shaxs, shuningdek, jabrlanuvchi qaror chiqqan kundan boshlab 10 kun muddatda tegishli tuman (shahar) hokimiga shikoyat berishi mumkin. Hokimning mazkur shikoyat yuzasidan chiqaradigan qarori 15 kundan kechiktirmay qabul qilinishi lozim va u qat'iydir.

Komissiyaning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqargan qarori ustidan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda shikoyat berilishi mumkin.

Komissiyaning qaroriga va shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga prokuror protest norozilik bildirishi mumkin. Prokurorning protest bildirishi shu protest ko'rib chiqilgunga qadar mazkur qarorning va shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorining ijrosini to'xtatib turadi.

4-§. Mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 15-moddasining ikkinchi qismiga binoan ***mansabdor shaxs*** — bu mulk shaklidan qat'i nazar korxona, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan hamda rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat vazifalari yoki moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan shaxsdir.

Mansabdor shaxslar:

a) *boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash;*

b) *tabiiy muhitni;*

d) *aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga;*

e) *bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga* rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Mansabdor shaxslar — ma'muriy javobgarlikning maxsus subyektlaridan biri bo'lib, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar turli ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin:

birinchidan — o'z xatti-harakatlari bilan o'rnatilgan umumajburiy qoidalarni buzishlari (ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etishlari);

ikkinchidan — mansabdor shaxslarning o'z bo'ysinuvida bo'lgan shaxslarga o'rnatilgan qoidalarga zid keladigan ko'rsatmalarni berishlari;

uchinchidan — umumajburiy qoidalarga rioya qilishni ta'minlash mansabdor shaxsning xizmat vazifalariga taalluqli bo'lsa, o'z bo'ysinuvida bo'lgan shaxslar tomonidan mazkur qoidalarga rioya etilishini ta'minlamaganliklari.

Mansabdor shaxs sifatida ma'muriy javobgarlikka tortish vaqtida, amaldagi qonunchilik talabiga ko'ra, quyidagilarni:

a) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning korxona, muassasa yoki tashkilotda ma'lum bir lavozimni egallab turganligini;

b) unga rahbarlik qilish, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat qilish vazifalari yuklatilgan bo'lishini;

d) unga moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq vazifalar yuklatilgan bo'lishini aniqlash lozim.

Mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar, odatda *ehtiyotsizlik*da ifodalanadi. Mansabdor shaxs, o'z harakatlarining zararli oqibatlarga olib kelishini oldindan ko'ra bilsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylaydi yoki bunday oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'ra bilmaydi, holbuki bularni ko'ra bilishlari lozim. Mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar turli xildagi vazifalarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, mansabiga sovuqqonlik bilan qaraganligi natijasida sodir etilgan harakatsizliklarda ifodalangan bo'lishi mumkin.

Mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik *qasddan* sodir etilishi ham mumkin. Bu ayb shakli masalan, mansabini suiiste'mol qilishda ifodalanishi mumkin.

Mansabdor shaxslarning ma'muriy huquqbuzarligi, ayni vaqtda, uning xizmat qoidalarini buzish, ya'ni intizomiy nojo'ya xatti-harakatni sodir etish ham hisoblanadi. Intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun mehnat qonunchiligida intizomiy javobgarlik (intizomiy jazo choralari) nazarda tutilgan.

Lekin shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, bitta huquqbuzarlik uchun faqatgina bitta javobgarlik chorasini qo'llash mumkin, ya'ni mansabdor shaxsning o'rnatilgan qoidalarni buzishiga (huquqbuzarlikni sodir etishiga) nisbatan ikkita javobgarlikni qo'llash mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan mansabdor shaxslarga nisbatan — ***jarima*** tariqasidagi ma'muriy jazo qo'llanilishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jarima miqdori, fuqarolarga qo'llaniladigan jarima miqdoridan oshiq belgilangan.

Davlat xizmatchilari, shu jumladan, mansabdor shaxslarning javobgarligi to'g'risida batafsil tushunchalar, mazkur darslikning 10-bob 12-§ida yoritib berilgan.

5-§. Harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning javobgarligi

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 16-moddasiga binoan, harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga kirmaydigan, intizom ustavlari yoki intizom to'g'risidagi maxsus qoidalar tatbiq etiladigan boshqa shaxslar, ana shu ustav yoki qoidalarda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun intizomiy javobgar bo'ladilar, boshqa hollarda, esa umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan, ***harbiy xizmatchilar***ga – O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari saflarida, Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlarida va Milliy xavfsizlik xizmati qo'shinlarida (chegara qo'shinlarida) haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan shaxslar kiradi. O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati organlarining oddiy askarlari va boshliqlari tarkibidagi shaxslar ham harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan. Ichki ishlar organlari, shu jumladan, milisiyaning oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ham ma'muriy huquqbuzarlik uchun ularga teng darajada javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» gi Qonuni[1]ga binoan, harbiy xizmatchilar va ***yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar***[2] harbiy intizom va jamoat tartibini buzganliklari uchun qo'mondonlar (boshliqlar) oldida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom ustavi boyicha javobgar bo'ladilar.

Harbiy intizomni va jamoat tartibini buzishga qaratilgan huquqbuzarliklar jumlasiga, o'rnatilgan har qanday umummajburiy qoidalarni buzishni kiritish mumkin.

Tegishli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar harbiy xizmatchilar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganini aniqlagan vaqtda, huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar va boshqa ishga taalluqli materiallarni aybdorning Qurolli Kuchlar Intizom ustavi boyicha javobgarligi masalasini hal qilish uchun boshliqlarga beradilar.

Harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan quyidagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun, *umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlik*ni qo'llash mumkin:

1) yo'l harakati qoidalarini buzganda;

2) ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash qoidalarini buzganda;

3) bojxona qoidalarini buzganda.

Amaldagi qonun hujjatlarida harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilmaydigan ma'muriy javobgarlik choralari ham ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, ***birinchidan***, harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxs-

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002, 12-son, 217-m.

[2] Amaldagi qonunchilikka binoan, harbiy xizmatni o'tashga majbur bo'lgan fuqarolar yig'inga chaqirilgan vaqtda harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan.

larga nisbatan ma'muriy qamoq jazosi qo'llanilmaydi; ***ikkinchidan***, muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarga jarima solinishi mumkin emas.

6-§. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ma'muriy javobgarligi

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 17-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Immunitetga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan ushbu Kodeksning O'zbekiston Respublikasi qatnashchi bo'lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo'lmagan qismi qo'llaniladi.

Xorijiy fuqaro – bu O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmagan va xorijiy davlat fuqaroligi mavjud bo'lgan jismoniy shaxsdir.

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning[1] 11-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar – ***fuqaroligi bo'lmagan shaxslar*** deb hisoblanadi.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari bir xildagi huquq va majburiyatlarga egadir, qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan cheklovlar bundan mustasno.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan vaqtlarida sodir etgan ma'muriy huquqbuzarliklari uchun qonun hujjatlari bilan o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

Xorijiy fuqarolarning ma'muriy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu ayrim toifadagi xorijiy fuqarolarning ***immunitet huquqi***ga ega bo'lishidir.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan hamda O'zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan xalqaro shartnomalarga binoan xorijiy fuqarolar ma'muriy yurisdiksiyadan immu-

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992, 3-son, 159-m.

nitetga (daxlsizlik) ega bo'lishlari mumkin. Ular tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik ishlari diplomatik yo'l bilan hal etiladi. Bu toifadagi xorijiy fuqarolar jumlasiga: *diplomatik vakolatxonalarning boshliqlari* (elchilar, ishonchli vakillir) va *xorijiy davlatlar vakolatxonalarining diplomatiya xodimlari*: maslahatchilar, savdo vakillari, savdo vakillarining o'rinbosarlari, harbiylar, harbiy-havo va harbiy-dengiz attashelari va ularning yordamchilari, attashelarning birinchi, ikkinchi, va uchinchi kotiblari va diplomatik vakolatxonalarning arxivchi-kotiblari.

Immunitet huquqi diplomatik vakolatxonalar boshliqlarining oila a'zolariga va diplomatiya xodimlariga mansub shaxslarning oila a'zolariga ham (agar ular mazkur shaxslar bilan birga yashasalar va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmasalar) tatbiq etilishi mumkin.

Bundan tashqari, konsullik vakolatxonalarining boshliqlari (bosh konsullar, konsullar, konsullarning o'rinbosarlari) va boshqa konsullik lavozimidagi shaxslar ham immunitetga ega bo'lishlari mumkin. Ular o'zlarining xizmat faoliyatiga taalluqli sohalarda ma'muriy yurisdiksiya immunitetidan foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 23-moddasi 3-qismiga binoan qonun hujjatlarida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ***O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish*** nazarda tutilishi mumkin

7-§. Yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi

Oxirgi vaqtlarda, yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi muammosi vujudga keldi. Mazkur masala huquqshunos olimlarning turli munozaralariga olib keldi. Ba'zi huquqshunos olimlar yuridik shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatsa, ikkinchi guruh olimlar, uni inkor etadi.

Ba'zi davlatlarning, masalan, Rossiya Federatsiyasida, yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarlik masalasi — ma'muriy javobgarlikni tartibga soluvchi asosiy qonunida mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan yuridik shaxslar ma'muriy javobgarlik subyekti hisoblanmaydi.

Lekin 2000-yil 15-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning

javobgarligi to'g'risida»gi Qonuni[1] qabul qilindi. Mazkur qonun bilan qurilish sohasidagi yuridik shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik qo'llanilishi belgilab berildi.

Jumladan, qonunga binoan, ***qurilish sohasidagi huquqbuzarlik*** – bu yuridik shaxslar tomonidan aholi punktlarini, binolar va inshootlarni rejalash va qurish bosh rejalarining, loyihalarining buzilishi, davlat standartlari, qurilish normalari va qoidalari, texnik shartlariga, qurilish va binokorlik materiallari sanoati sohasidagi boshqa normativ hujjatlarning talablariga binolar, imoratlar, inshootlarning, ularning qismlari yoki konstruksiya ayrim elementlarining chidamliligi, mustahkamligi, puxtaligi, ishlab chiqarilayotgan binokorlik materiallari, konstruksiyalari va buyumlarining chidamlilik parametrlari pasayishi va yo'qotilishiga sabab bo'lgan tarzda rioya etilmasligi, shuningdek, obyektlarni qurish va ularni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan tartibini buzadigan xatti-harakat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan loyihalash, qurilish-montaj ishlarini bajaruvchi, binokorlik materiallari, konstruksiyalari va buyumlarini ishlab chiqaruvchi, qurilishda buyurtmachi hisoblanuvchi yoki bir yo'la buyurtmachi va pudratchi vazifalarini bajaruvchi yuridik shaxslarga ***qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy tartibda jarima solinadi.***

Yuridik shaxsning javobgarlikka tortilishi uni o'zi yo'l qo'ygan qoidabuzarliklarni bartaraf etish va zararning o'rnini qoplash majburiyatidan, shuningdek, aybdor mansabdor shaxslarni intizomiy, ma'muriy, fuqaroviy-huquqiy va jinoiy javobgarlikka tortishdan ozod etmaydi.

Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan tartibda ko'rib chiqish va jarima solish huquqiga:

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining raisi va uning o'rinbosarlari;

Davlat arxitektura-qurilish nazorati bosh boshqarmasi boshlig'i va uning o'rinbosarlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shuningdek, viloyatga bo'ysinuvchi shaharlar arxitektura va qurilish bosh boshqarmalarining boshliqlari hamda davlat arxitektura-qurilish

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001, 1–2-sonlar, 21-m.

nazorati inspeksiyalarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari egadirlar.

Qurilish sohasida yo'l qo'yilgan huquqbuzarlik uchun yuridik shaxsdan jarima undirish tegishli mansabdor shaxslarning qarori asos bo'ladi.

Yuridik shaxs jarimani jarima solish to'g'risidagi qaror chiqarilgan kundan e'tiboran *o'n besh kundan kechiktirmay* to'lashi kerak.

Yuridik shaxs o'ziga nisbatan chiqarilgan jarima solish to'g'risidagi qarorga rozi bo'lmagan taqdirda, bu qaror ustidan bo'ysinuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki sudga qonun hujjatlariga muvofiq shikoyat qilishi mumkin. Bunda jarima solish to'g'risidagi qarorning amal qilishi shikoyatni ko'rib chiqish muddatiga to'xtatib turiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari.
2. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplari.
3. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasida O'zbekiston Respublikasi vakolatlari.
4. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining vakolatlari.
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va uning vazifalari.
6. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi.
7. Ma'muriy javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari.
8. Ma'muriy javobgarlik turlari.
9. O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi.
10. Voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiyalarning asosiy vazifalari.
11. Voyaga yetmaganlar ishlari boyicha komissiyalar tomonidan qo'llaniladigan ta'sir choralari.
12. Mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi.
13. Harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning ma'muriy javobgarligi.
14. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ma'muriy javobgarligi.
15. Yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi.

21-bob. MA'MURIY JAZO

1-§. Ma'muriy jazo choralari va uning maqsadi

Ma'muriy jazo – ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan davlat javobgarligining chorasi bo'lib, yangi huquqbuzarliklarning sodir etilishini oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy jazo – ma'muriy majburlovning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ma'muriy jazo ma'muriy majburlovning boshqa choralaridan farqli ravishda, o'ziga xos maqsadga ega bo'lgan jazo sanksiyalari bo'lib, protsessual tartibda qo'llaniladi. Ma'muriy jazo ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bilan, ma'muriy majburlovning boshqa choralari esa turli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Ma'muriy jazo – turli huquq tarmoqlari (konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat, moliya, fuqarolik, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual. huquq) normalarini buzganlik uchun qo'llaniladi. Uni qo'llash orqali shaxsga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatiladi, aybdorning huquqiy maqomi vaqtincha cheklanadi (masalan, ma'lum bir huquqlar cheklanishi, qo'shimcha majburiyatlar yuklanishi mumkin), shuningdek, jazoga tortilganlik holatini vujudga keltiradi. Bundan tashqari, ma'muriy jazo sodir etilgan huquqbuzarlikka nisbatan davlat tomonidan rasmiy va oshkora salbiy baho berish hisoblanadi.

Jazolash – ma'muriy jazoning asosiy maqsadi emas, balki huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, huquq tartibotni ta'minlash, yangi qonunga xilof qilmishlarning sodir etilishini oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ma'muriy jazo, ma'lum bir ma'noda, jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yu.M.Kozlovning fikricha, ma'muriy jazo choralari – ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash maqsadida qo'llanilmaydi. Agar ma'muriy huquqbuzarlik orqali jismoniy yoki yuridik shaxsga moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa, huquqbuzarlik ishini ko'rib chiquvchi davlat organi ma'muriy

jazoni tayinlash bilan bir vaqtda, mulkiy zararni undirish boyicha masalani hal etishi mumkin. Mulkiy zararni undirish fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish tartibida amalga oshiriladi.[1]

B.V.Rossinskiyning ko'rsatib o'tishicha, ma'muriy jazo choralarini mazmuniga qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

a) *axloqiy-huquqiy* choralar (masalan, ogohlantirish);

b) *mulkiy* choralar (masalan, ma'muriy jarima, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish yoxud uni musodara qilish);

d) *shaxslarning shaxsiy huquqlarini cheklashga qaratilgan* choralar (masalan, ma'muriy qamoq, ma'muriy tarzda chiqarib yuborish);

e) *tashkiliy* choralar (masalan, maxsus huquqdan mahrum qilish).[2]

Ma'muriy jazo – u yoki bu shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishga ma'naviy ta'sir ko'rsatishni (masalan, ogohlantirish) yoki huquqbuzarga moddiy ta'sir ko'rsatishni (masalan, jarima) nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 22-moddasiga binoan ***ma'muriy jazo***– javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Kodeksning 23-moddasiga binoan esa ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun quyidagi ***ma'muriy jazo choralari*** qo'llanilishi mumkin:

1) jarima;

2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish;

3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish;

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право. Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Юрист», 2003. С. 174–175.

[2] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С. 510.

4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish;

5) ma'muriy qamoqqa olish.

Jarimadan tashqari barcha ma'muriy jazo choralari, faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanishi mumkin.

Qonun hujjatlarida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun ajnabiy fuqarolarni va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni *O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish* nazarda tutilishi mumkin.

Ma'muriy jazo — ***asosiy*** va ***qo'shimcha*** jazo choralariga bo'linadi. *Asosiy ma'muriy jazo choralari* — bu ma'muriy jazo choralarining boshqa turlariga qo'shimcha ravishda tayinlanishi mumkin bo'lmagan jazo choralaridir. Masalan, jarima, maxsus huquqdan mahrum qilish va ma'muriy qamoq faqat asosiy jazo choralari sifatida qo'llanilishi mumkin.

Qo'shimcha jazo choralari esa ma'muriy jazoning boshqa choralariga qo'shimcha ravishda belgilanishi mumkin bo'lgan choralar bo'lib hisoblanadi.

O'zR MJtKning 24-moddasiga binoan, ashyolarni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish yoki musodara qilish ham asosiy, ham qo'shimcha ma'muriy jazo tariqasida, boshqa ma'muriy jazo choralari esa faqat asosiy jazo tariqasida qo'llanilishi mumkin. Bitta ma'muriy huquqbuzarlik uchun asosiy yoki ham asosiy, ham qo'shimcha jazo chorasi qo'llanilishi mumkin.

2-§. Ma'muriy jarima

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 25-moddasiga binoan ***jarima*** — ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir.

Jarima — mulkiy xususiyatga ega bo'lgan jazo chorasi bo'lib, aybdor shaxsdan davlat hisobiga undirib olinadigan ma'lum bir pul summasida ifodalanadi.

Jarima — ma'muriy javobgarlikning samarali choralaridan biri bo'lib, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiquvchi barcha davlat organlari tomonidan o'rnatilgan protsessual tartibda qo'llaniladi.

Jarima — ma'muriy jazoning asosiy jazo chorasi hisoblanadi. U boshqa jazo choralarining o'rniga qo'llanilishi mumkin emas.

Amaldagi qonunchilikka binoan jarima bilan bir vaqtda qo'shimcha jazo chorasi (masalan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish) qo'llanilishi mumkin.

Jarima O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks maxsus qismida nazarda tutilgan deyarli barcha ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llanilishi mumkin.

Jarima tarzidagi ma'muriy jazo chorasi huquqbuzarning ongiga ta'sir ko'rsatib, uning mulkiy manfaatlariga zarar yetkazishda ifodalanadi.

Jarimaning asosiy ko'rsatkichi — bu uning miqdoridadir. Jarima miqdorini aniq bir summada ko'rsatib o'tish mumkin emas. Bunga sabab, birinchi navbatda pul qadrsizlanishi, milliy valutaning beqarorligidir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida jarima miqdori huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jumladan, O'zR MJtKning 25-modda 2-qismiga binoan jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa bu huquqbuzarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Fuqarolarga yoki mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan ma'muriy jarimalar mavjud bo'lib, ular miqdorlariga qarab farqlanadi.

*Fuqarolarga solinadigan jarima*ning eng kam miqdori eng kam ish haqining ellikdan bir qismidan kam bo'lmasligi, eng ko'p miqdori eng kam ish haqining besh baravaridan oshmasligi kerak. Qonunlarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba'zi huquqbuzarliklar uchun fuqarolarga — eng kam ish haqining yuz baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin.

*Mansabdor shaxslarga esa jarima*ning eng kam miqdori eng kam ish haqining — o'ndan bir qismidan kam bo'lmasligi, eng ko'p miqdori eng kam ish haqining o'n baravaridan oshmasligi kerak.

Qonunlarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba'zi huquqbuzarliklar uchun mansabdor shaxslarga — yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlikning muayyan turlari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar sanksiyalarida jarimaning miqdorlari huquqbuzarliklarning darajasidan kelib chiqib aniqlashtiriladi. Bunda jarima miqdorlari ma'muriy jazo chorasining maz-

kur turi uchun belgilangan eng ko'p va eng oz miqdordan oshib ketmasligi kerak. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan sanksiyalarning aksariyatida jarimaning eng ko'p miqdori, ayrim sanksiyalarda esa eng ko'p va eng oz miqdori nazarda tutilgan.

Jarima huquqbuzar tomonidan unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab *o'n besh kundan kechiktirmay*, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest (norozilik) bildirilgan taqdirda — shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirmay to'lanishi lozim.

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mustaqil ish haqi bo'lmagan taqdirda, jarima ularning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslardan undirib olinadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun solingan jarima huquqbuzar tomonidan O'zbekiston Respublikasi jamg'arma banki muassasasiga to'lanadi, huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida undirib olinadigin jarima bundan mustasno.

Huquqbuzar jarimani belgilangan muddat ichida to'lamagan taqdirda, jarima solish to'g'risidagi qaror fuqarolik-protsessual qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan qoidalarga muvofiq jarimani uning *ish haqi yoki boshqa maoshidan, nafaqasidan yoki stipendiyasidan* majburiy tartibda undirib olish uchun yuboriladi.

Basharti jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo'lsa yoxud jarimani huquqbuzarning ish haqi yoki boshqa daromadidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan boshqa sabablarga ko'ra undirib olishning iloji bo'lmasa, uni undirib olish sud ijrochisi tomonidan jarima solish to'g'risida tegishli organ (mansabdor shaxs) chiqargan qaror asosida huquqbuzarning shaxsiy mulkidan, shuningdek, umumiy mulkdagi uning hissasidan undirib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Jarima O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ijro hujjatlari boyicha undirib olinishi mumkin bo'lmagan molmulkdan undirib olinishi mumkin emas.

Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyning o'zida undirib olinishi mumkin. Masalan, yo'l harakati xavfsizligi organining mansabdor shaxsi yo'l harakati qoidalarini buzgan haydovchiga nisbatan o'sha joyning o'zida jarima tariqasidagi ma'muriy jazoni qo'llashi mumkin.

Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyning o'zida undirib olingan taqdirda huquqbuzarga qat'iy moliyaviy hisobot hujjati hisoblangan belgilangan nusxadagi kvitansiya beriladi.

Jarima solish to'g'risidagi qarorga muvofiq jarima to'la-to'kis undirib olingach, uning ijro etilganligi haqida belgi qo'yilib, shu qarorni chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga qaytariladi.

3-§. Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 26-moddasiga binoan ***ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish*** – shu ashyoni majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirishdan iboratdir.

O'qotar qurollar va o'q-dorilarning haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish asosiy tirikchilik manbayi ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Ma'muriy huquqbuzarliklar sohasida haqini to'lash sharti bilan olib qo'yishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bevosita ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli bo'lgan yoki shunday narsa bo'lgan ashyoga qaratilishi mumkin.

Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish – mulkiy xususiyatga ega bo'lgan jazo chorasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi ikkinchi qismida mulkdorning faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Mulkdan mahrum etish deganda – mulkchilik huquqining majburiy tartibda bekor qilinishi tushuniladi. Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazosi ham aynan mulkchilik huquqini bekor qilishga olib keluvchi asoslardan biri hisobianadi. Shu sababli, ushbu jazo chorasi faqatgina sud tomonidan tayinlanishi mumkin.

Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish – ham asosiy, ham qo'shimcha jazo chorasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. U asosiy jazo sifatida faqatgina O'zR MJtKning 220-moddasi 1-qismida qurol saqlashga ichki ishlar organlaridan ruxsati bo'lgan fuqarolarning o'qotar qurollar va o'q-dorilarni saqlash yoki tashish qoidalarini buzganlik uchun qo'llaniladi. Qo'shimcha jazo chorasi sifatida esa O'zR MJtKning 142-moddasi 2-qismida yuk saqlash kamerasiga portlovchi, tez alangalanuvchi, zaharli va badbo'y

moddalar va ashyolarni topshirganlik uchun yoki 222-moddasida nazarda tutilgan ovchilik jamiyatidan chiqqanliklari munosabati bilan ichki ishlar organlari o'qotar ov qurollari va o'q-dorilarni saqlash uchun bergan ruxsatini bekor qilgan fuqarolarning bunday qurollar va o'q-dorilarni sotishdan bo'yin tovlagani uchun qo'llaniladi.

Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish – mazmuni jihatidan o'zaro bog'langan harakatlarni amalga oshirishdan iboratdir:

– **birinchidan,** ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsdan ma'muriy huquqbuzarlik qurolini yoki shunday narsa bo'lgan ashyoni olib qo'yish;

– **ikkinchidan,** belgilangan tartibda ma'muriy huquqbuzarlik qurolini yoki shunday narsa bo'lgan ashyoni sotish;

– **uchinchidan,** ma'muriy huquqbuzarlik qurolini yoki shunday narsa bo'lgan ashyoni sotishdan tushgan puldan tegishli xarajatlarni chegirib tashlagan holda, ashyoning sobiq egasiga topshirish.

Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yiladigan ashyolar jumlasiga, masalan, O'zR MJtKning 142-moddasiga binoan yonuvchan, zaharlovchi, tez alangalanuvchi, portlovchi hamda zaharli moddalar va ashyolar yoki 222-moddasiga binoan o'qotar ov qurollari va o'q-dorilar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 336-moddasiga binoan haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish to'g'risidagi qaror asosida olib qo'yilgan narsalarni sotish uchun vositachi do'konga yoki olib qo'yilgan mol-mulk turgan joydagi shunday maqsad uchun maxsus belgilab qo'yilgan do'konga topshiriladi.

O'qotar qurollarni va o'q-dorilarni haqini to'lab olib qo'yish to'g'risidagi qaror ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi.

4-§. Musodara qilish

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 27-moddasiga binoan ***ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish*** – shu ashyoning haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat.

Musodara qilish chorasi:

a) tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar boyicha sudyasi tomonidan;

b) bojxona organlari tomonidan — aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinganda va saqlanganda, shuningdek, eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga olib chiqib ketilayotgan hollarda;

d) soliq organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari tomonidan — aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar saqlanganda, realizatsiya qilinganda, shuningdek, yashirin ravishda ishlab chiqarilganda qo'llaniladi.

O'qotar qurollar va o'q-dorilarni, boshqa ov qurollarini musodara qilish asosiy tirikchilik manbayi ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 337—339-moddalariga binoan, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyo bo'lgan narsani musodara qilish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti sud ijrochilari hududiy bo'limlari tuman (shahar) bo'linmalarining sud ijrochisi tomonidan ijro etiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa bo'lgan musodara qilingan narsani sotish va yo'q qilib tashlash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ashyoni musodara qilish to'g'risidagi qaror ijro etilganligi qayd qilingan holda quyidagilarga qaytariladi:

— uni chiqargan ma'muriy ishlar boyicha sudyaga;

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilayotgan, eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinayotgan va saqlanayotgan aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni musodara qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan bojxona organining mansabdor shaxsiga;

— saqlanayotgan, realizatsiya qilinayotgan, yashirin ravishda ishlab chiqilayotgan aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkagolli ichimliklarni musodara qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan soliq organining mansabdor shaxsiga.

5-§. Maxsus huquqdan mahrum qilish

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 28-moddasiga binoan ***muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish chorasi*** tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar boyicha sudyasi tomonidan uch yilgacha muddatga qo'llaniladi. Bunday huquqdan mahrum qilish muddati o'n besh kundan kam bo'lmasligi kerak.

Maxsus huquqdan mahrum etish muddati — kunlar, oylar, yillar bilan hisoblanadi.

Transport vositasini boshqarish hamda ov qilish — shaxsda ***maxsus huquq***ning mavjud bo'lishini talab etadi. Jumladan, *transport vositasini boshqarish huquqi*ni olish uchun, belgilangan tartibda malakaviy imtihonni topshirish va haydovchilik guvohnomasini olish lozim.

Transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish — bunday huquqqa ega bo'lgan jismoniy shaxsga nisbatan qo'llanilib, ma'lum bir muddatda tegishli faoliyat bilan shug'ullanish mumkin emasligini belgilab beradi.

O'zR MJtKning 125-moddasiga binoan ***transport vositalari***ga — barcha turdagi avtomobillar va traktorlar, boshqa xil o'ziyurar mashinalar, tramvay va trolleybuslar, shuningdek, mototsikllar va boshqa mexanik transport vositalari kiradi.

Maxsus huquqdan mahrum etish — mazkur ***huquqdan foydalanish tartibining bir necha marotaba yoki qo'pol buzilishi*** uchun qo'llaniladi. Masalan, O'zR MJtKga binoan transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etish quyidagilar uchun qo'llaniladi:

1) mexanizatorlar tomonidan qishloq xo'jaligi mashinalaridan texnik jihatdan foydalanish va texnika xavfsizligi qoidalarini qo'pol ravishda buzish (112-modda);

2) kichik hajmli kemalar va ular turadigan bazalardan (inshootlardan) foydalanish qoidalarini buzish (119-modda 2-qismi);

3) transport vositalari haydovchilarining harakat tezligini oshirib yuborishi, yo'l belgilari va yo'l harakatining boshqa qoidalari talablariga rioya qilmasligi (128-modda 4-qismi);

4) transport vositalari haydovchilarining harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi guruh bo'lib harakat qilishda qatnashishi (129-modda 2-qismi);

5) transport vositalari haydovchilarining temir yo'lning o'tish joylaridan o'tish qoidalarini buzishi (130-modda 2-qismi);

6) transport vositalarini mast holda boshqarish (131-modda, 1, 2, 4-qismlari);

7) kema haydovchilarining kichik hajmdagi kemalarni mast holda boshqarishi (132-modda);

8) transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar[1] yetkazilishiga olib kelsa (133-modda);

9) haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini buzishi transport vositalarining yoki boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi (134-modda);

10) transport vositalari haydovchilarining mastligi yoki mast emasligini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi (136-modda, 1, 2-qismlari);

11) yo'l-transport hodisasi yuz bergan joydan ketib qolishi (137-modda).

Nogironligi sababli transport vositalaridan foydalanadigan shaxslarga nisbatan transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilish chorasi qo'llanilishi mumkin emas.

Agar transport vositalarini alkogol ichimlikdan, giyohvandlik vositasi ta'siridan mast bo'lgan holda yoki o'zgacha tarzda mast bo'lgan holda boshqarish hollari (131-modda 1,2,4-qismlari), shuningdek, o'zlari ishtirokchi bo'lgan yo'l-transport hodisalari sodir etilgan joydan ketib qolish hollarida (137-modda) nogiron shaxslarni ham transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish mumkin.

Maxsus huquqning ikkinchi ko'rinishi — bu ***ov qilish huquqi***dir.

Shaxsni ov qilish huquqidan mahrum etish — ov qilish qoidalarining ayrim buzilishlari uchun, ya'ni O'zR MJtKning 90-modda 2-qismi tegishli ruxsati bo'lmay turib yoki taqiqlangan joylarda yoxud taqiqlangan muddatlarda, taqiqlangan qurollar yoki uslublar bilan ov qilish va baliq tutishga oid boshqa qoidalarni muntazam ravishda buzganlik uchun qo'llaniladi.

Asosiy tirikchilik manbayi ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan ov qilish huquqidan mahrum etish chorasi qo'llanilishi mumkin emas.

Maxsus huquqdan mahrum qilish — shaxsning huquqini cheklash bilan bog'liq bo'lganligi sababli, faqatgina ***ma'muriy ishlar*** **boyicha** ***sudya*** tomonidan qo'llanilishi mumkin.

---

[1] Ancha miqdordagi moddiy zarar deganda, eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan oshib ketgan zarar tushuniladi. (O'zR MJtKning 133-modda, 2-qismi).

Maxsus huquqdan mahrum qilish — ***15 kundan 3 yil muddatgacha*** belgilanishi mumkin.

O'zR MJtKning 340—344-moddalariga binoan maxsus huquqdan mahrum etish jazosi:

a) *transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etish* to'g'risidagi qaror — ichki ishlar organlarining mansabdor shaxslari tomonidan;

b) *kema haydovchilarini kichik hajmli kemalarni boshqarish huquqidan mahrum etish* to'g'risidagi qaror — O'zbekiston Respublikasi kichik hajmli kemalar davlat inspeksiyasi organlarining mansabdor shaxslari tomonidan;

d) *ov qilish huquqidan mahrum etish* to'g'risidagi qaror — ov qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan ijro etiladi.

Transport vositalarini yoki kichik hajmli kemalarni boshqarish huquqidan mahrum etish to'g'risidagi qaror haydovchilik guvohnomasini, shuningdek, uning talonini olib qo'yish yo'li bilan ijro etiladi.

Basharti haydovchi yoki kema haydovchisi transport vositalarining yoki kichik hajmli kemalarning ayrim turlarini boshqarish huquqidangina mahrum etilgan bo'lsa, haydovchilik guvohnomasiga va uning taloniga transport vositalarining yoki kichik hajmli kemalarning qaysi turlarini boshqarish huquqidan mahrum etilganligi yozib qo'yiladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalarni olib qo'yish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan, kichik hajmli kemalarni boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalarni olib qo'yish tartibi esa — O'zbekiston Respublikasi kichik hajmli kemalar davlat inspeksiyasi tomonidan belgilanadi.

Ov qilish huquqidan mahrum etish to'g'risidagi qaror ovchilik biletini olib qo'yish yo'li bilan ijro etiladi.

Ov qilish huquqidan mahrum etilgan shaxs ovchilik biletini topshirishdan bo'yin tovlagan taqdirda ov qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar ovchilik biletini belgilangan tartibda olib qo'yadilar.

Muayyan muddatga transport vositasini boshqarish huquqidan yoki ov qilish huquqidan mahrum etilgan shaxs mehnatga halol munosabatda bo'lishi va namunali xulq-atvori bilan o'zini ko'rsatgan taqdirda, unga jazo qo'llagan ma'muriy ishlar boyicha sudya belgilangan muddatning kamida yarmi o'tgach, korxona, muassasa

va tashkilot ma'muriyati iltimosi bilan bunday huquqdan mahrum etish muddatini qisqartirishi mumkin.

Transport vositalarini haydovchilar va ov qilish qoidalarini buzgan shaxslar maxsus huquqdan mahrum etish to'g'risida qaror chiqarilgan kundan boshlab shunday huquqdan mahrum etilgan deb hisoblanadilar.

Maxsus huquqdan mahrum qilish muddati o'tgach, shuningdek, bu muddat belgilangan tartibda qisqartirilgan taqdirda, shunday ma'muriy jazo chorasiga tortilgan shaxsga undan olib qo'yilgan hujjatlar belgilangan tartibda qaytarib beriladi.

Transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilgan haydovchi haydovchilik guvohnomasini topshirishdan bosh tortgan taqdirda, bu huquqdan mahrum etish muddati guvohnoma olib qo'yilgan kundan boshlab, lekin qaror chiqargan organ belgilagan mahrum etish muddati tugashidan kechiktirmasdan hisoblanadi.

6-§. Ma'muriy qamoqqa olish

Ma'muriy qamoqqa olish — ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan qattiq ma'muriy jazo chorasi bo'lib, ma'lum bir muddatga shaxsni jamiyatdan ajratib qo'yishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 29-moddasiga binoan *ma'muriy qamoqqa olish* — uch sutkadan o'n besh sutkagacha muddatga, favqulodda holat tartibi sharoitida esa jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun — o'ttiz sutkagacha muddatga qo'llaniladi. Ma'muriy qamoqqa olish tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar boyicha sudyasi tomonidan, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, shuningdek, harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Ma'muriy qamoqqa olish — ayrim ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladi. Jumladan, O'zR MJtKga binoan ***ma'muriy qamoq*** quyidagi huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladi:

1) giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay oz miqdorda g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish (56-modda);

2) tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish (60-modda);

3) mayda bezorilik (183-modda);

4) jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish maqsadida saqlash (184-modda);

5) fuqarolarining jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishi (164–1-modda);

6) jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish (187-modda 2-qismi);

7) militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik (194-modda 2-qismi);

8) militsiya xodimlarining o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish (195-modda);

9) yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish (201-modda);

10) g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarning faoliyatida qatnashishga undash (202–1-modda);

11) favqulodda holat tartibining talablarini buzish (204-modda);

12) favqulodda holat tartibi sharoitida jamoat tartibiga tajovuz qilish (205-modda);

13) diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (240-modda);

14) diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish (241-modda);

Ma'muriy qamoqqa olish chorasi quyidagilarga qo'llanilishi mumkin emas:

a) homilador ayollarga;

b) uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga;

d) o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga;

e) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga;

f) birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga.

O'zR MJtKning 345–346-moddalariga binoan ma'muriy qamoqqa olish to'g'risidagi qaror chiqarilgandan keyin darhol ijro etiladi.

Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar ichki ishlar organlari belgilab qo'ygan joylarda qamoqqa saqlanadilar. Ma'muriy qamoqqa olish to'g'risidagi qarorni ijro etish chog'ida qamoqqa olinganlar shaxsiy ko'rikdan o'tkaziladilar.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati ma'muriy qamoq muddatiga qo'shib hisoblanadi.

Ma'muriy qamoqni o'tash O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar jismoniy ishlarga jalb qilinadi.

Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar mehnatidan foydalanishni tashkil etish tuman (shahar) hokimliklariga yuklatiladi.

Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarga qamoqda bo'lgan vaqtlari uchun doimiy ish joylaridan ish haqi to'lanmaydi.

7-§. Ma'muriy jazoni tayinlash

Ma'muriy jazo — ma'muriy huquqbuzarliklar uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan doirada va tartibda qo'llaniladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi sanksiyalarda — jazo chorasi va uning ruxsat etilgan normalari (hajmi) ko'rsatib o'tiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiquvchi davlat organi (mansabdor shaxs):

birinchidan, ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi modda sanksiyasida ko'rsatib o'tilgan jazoni tayinlashi mumkin;

ikkinchidan, ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi modda sanksiyasida ko'rsatib o'tilgan qo'shimcha jazoni tayinlashi yoki tayinlamasligi mumkin;

uchinchidan, ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi modda sanksiyasida ko'rsatib o'tilgan jazoning quyi va yuqori hajmlari doirasidan kelib chiqqan holda qo'llashi mumkin.

Vakolatli davlat organi (mansabdor shaxs) jazoni qo'llash chog'ida, sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishi lozim.

O'zR MJtKning 31-moddasiga binoan ***ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarga*** quyidagilar kiradi:

1) aybdorning o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi;

2) aybdorning huquqbuzarlikning zararli oqibatlari oldini olishi, yetkazilgan ziyonni ixtiyoriy ravishda to'lashi yoki keltirilgan zararni bartaraf qilishi;

3) huquqbuzarlikning kuchli ruhiy hayajon ta'siri ostida yoki og'ir shaxsiy, oilaviy yoxud boshqa sharoitlar vujudga kelganligi oqibatida sodir etilishi;

4) huquqbuzarlikning tahdid yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jihatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi;

5) huquqbuzarlikning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi;

6) huquqbuzarlikning homilador ayol yoki o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) boshqa holatlarni ham javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.

Davlat organi (mansabdor shaxs) ma'muriy jazo chorasini qo'llayotganda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda va sababini albatta ko'rsatib, O'zR MJtKning Maxsus qismidagi moddalarning jazo belgilash qismida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham yengilroq jazo chorasini qo'llashi mumkin.

Sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo'lgan taqdirda, shu ishni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin.

O'zR MJtKning 32-moddasiga binoan ***ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarga*** quyidagilar kiradi:

1) g'ayrihuquqiy harakatlarni to'xtatish vakolati bor shaxslar tomonidan qo'yilgan talabga qaramay, bunday harakatlarni davom ettirish;

2) ma'muriy jazo chorasiga tortilgan shaxsning bir yil mobaynida yana o'sha xildagi huquqbuzarlikni sodir etishi, xuddi shuningdek, huquqbuzarlikning ilgari sudlangan shaxs tomonidan sodir etilishi;

3) voyaga yetmagan shaxsni huquqbuzarlikka tortish;

4) huquqbuzarlikning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi;

5) huquqbuzarlikning tabiiy ofat sharoitida yoki boshqa favqulodda holatlarda sodir etilishi;

6) huquqbuzarlikning mast holda sodir etilishi. Ma'muriy jazo chorasini qo'llanuvchi organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikning xususiyatiga qarab mazkur aybni og'irlashtiruvchi holat deb topmasligi mumkin.

Bitta shaxs ikki yoki undan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan taqdirda, ma'muriy jazo har bir huquqbuzarlik uchun alohida-alohida qo'llaniladi.

Basharti shaxs bir necha ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lib, shu haqdagi ishlar bir vaqtning o'zida ayni bir organ (mansabdor shaxs) tomonidan ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, bu shaxsga nisbatan qo'llaniladigan uzil-kesil jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi.

Basharti shaxs O'zR MJtKning maxsus qismidagi bir necha modda bilan ma'muriy javobgarlik belgilangan va ular to'g'risidagi ishlarni har xil organ (mansabdor shaxs) ko'radigan harakat (harakatsizlik) sodir etgan bo'lsa, unga nisbatan jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi.

Ma'muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Ushbu muddatlar ashyolarni bojxona munosabatlarini tartibga soladigan qonun hujjatlari asosida musodara qilish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs *ma'muriy jazoga tortilmagan* deb hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida keltirilgan zararni qoplashi shart.

Basharti ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish oqibatida jismoniy shaxsga, korxona, muassasa, tashkilotga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi yoki davlatga yetkazilgan mulkiy zarar belgilab qo'yilgan eng kam ish haqidan ko'p bo'lmasa, organ (mansabdor shaxs) jazo qo'llash paytida aybdor bu zararni qoplashi to'g'risidagi masalani ham hal etishga haqlidir, ma'muriy ishlar boyicha sudya esa — bu masalani yetkazilgan zarar miqdoridan qat'i nazar hal qilaveradi.

Boshqa hollarda ma'muriy huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan mulkiy zararni qoplash fuqarolik-huquqiy tartibida hal qilinadi.

Ma'muriy jazoni qo'llash — ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni bajarilmaganligi uchun ma'muriy jazo qo'llanilgan vazifani bajarishdan ozod etmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan *zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat* va *aqli norasolik* holatida sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi va ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Jumladan, O'zR MJtKning 18-moddasiga binoan, ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, lekin ***zaruriy mudofaa*** holatida, ya'ni shaxsni yoki mudofaalanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan shunday tajovuz qilayotgan shaxsga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilish vaqtida, basharti bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi.

O'zR MJtKning 19-moddasiga binoan, normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, huquqlarga hamda qonun bilan himoya etiladigan manfaatlarga zarar yetkazgan, ***oxirgi zarurat*** holatida, ya'ni shaxsga yoki mazkur shaxsning yoxud boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid etayotgan xavfni, basharti bu xavfni o'sha holatda boshqacha choralar bilan bartaraf etib bo'lmasa hamda yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, bartaraf etish uchun sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi.

O'zR MJtKning 20-moddasiga binoan, g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida ***aqli norasolik*** holatida bo'lgan shaxs, ya'ni surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa xil kasallik oqibatida o'z harakatining (harakatsizligining) ahamiyatini idrok eta olmagan yoki boshqara olmagan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Aqli norasolik shaxsning g'ayrihuquqiy harakatni yoki harakatsizlikni sodir etish vaqtidagi shunday ruhiy holatiki, u mazkur qilmish uchun javobgarlikni qo'llash imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

• Aqli norasolikning mezonlari qonunchilikda aniq sanab o'tilgan bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

a) *surunkali ruhiy kasallik* — davolab bo'lmaydigan yoki qiyin davolanadigan ruhiy kasallik hisoblanadi. Masalan, shizofreniya, epilepsiya — surunkali ruhiy kasalliklardir;

b) *ruhiy faoliyati vaqtinchalik buzilganligi* surunkali ruhiy kasallikdan farqli ravishda, nisbatan tez o'tib ketadigan va tuzalish bilan tugallanadigan ruhiy kasallikdir. Bunga og'ir ruhiy larzalar natijasida kelib chiqadigan reaktiv holatlar, patologik mastlik va boshqalar kiradi;

d) *aqli zaiflik* — ruhiyatning muhim kamchiliklaridan bo'lib, o'z xatti-harakatlarining xususiyatiga va ularni sodir etishning ehtimol tutilgan oqibatlariga baho berishga to'sqinlik qiladi. Aqli zaiflik inson tug'ilgan paytdan bo'lishi yoki bolaligidan paydo bo'-

lishi yoxud avj olib boruvchi qandaydir ruhiy kasallikning natijasi bo'lishi mumkin. Aqli zaiflik – idiotiya – aqliy jihatdan rivojlanmaganlikning eng chuqur darajasi, imbesiallik – aqliy zaiflikning o'rtacha darajasi va debillik – aqliy zaiflikning yengil darajasi shaklida ifodalanishi mumkin;

e) *boshqa kasalliklar* – ruhiy buzilishning og'ir shakli bilan bog'liq bo'lgan turli kasalliklar, psixopatiyaning ayrim shakllari, yuqumli kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan ruhiy xastaliklar.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs tibbiy ko'rikdan o'tishi hamda yuqorida sanab o'tilgan kasalliklarning mavjudligi haqida ruhiy shifokorning xulosasi bo'lishi lozim.

Agar ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsda ruhiy kasallik mavjudligi haqida ma'lumot bo'lsa, ishni ko'rib chiquvchi organ ekspertiza tayinlashi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning aqli noraso ekanligi aniqlanganda, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish boshlanishi mumkin emas, boshlangan ish esa to'xtatilishi kerak.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy jazo tushunchasi va maqsadi.
2. Ma'muriy jazo choralari.
3. Asosiy ma'muriy jazo.
4. Qo'shimcha ma'muriy jazo.
5. Ma'muriy jarima.
6. Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish.
7. Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish.
8. Muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish.
9. Ma'muriy qamoqqa olish.
10. Ma'muriy jazoni tayinlash.
11. Ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar.
12. Ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar.
13. Zaruriy mudofaa.
14. Oxirgi zarurat.
15. Aqli norasolik.

22-bob. MA'MURIY HUQUQ BO'YICHA INTIZOMIY VA MODDIY JAVOBGARLIK

1-§. Intizomiy-huquqiy majburlov tushunchasi va xususiyatlari

Intizomiy-huquqiy majburlov – huquqiy majburlovning bir ko'rinishi bo'lib, unga ijro hokimiyatini amalga oshirish uslubining barcha xususiyatlari hisoblandi. Shu bilan birga, intizomiy-huquqiy majburlovning sifat jihatlarini belgilovchi, shuningdek, uni majburlov faoliyatining mustaqil turi sifatida ifodalovchi o'ziga xos xusyatlari ham mavjuddir. Jumladan:

birinchidan, intizomiy-huquqiy majburlov choralari intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar uchun, ayrim hollarda esa boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda qo'llaniladi;

ikkinchidan, intizomiy-huquqiy majburlov suddan tashqari tartibda qo'llanilib, ijro va farmoyish berish faoliyatining ko'rinishi hisoblanadi;

uchinchidan, intizomiy-huquqiy majburlov barcha rahbarlar tomonidan (davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan o'ziga bo'ysungan xodimga nisbatan) amalga oshiriladi;

to'rtinchidan, intizomiy-huquqiy majburlov doimiy tashkiliy aloqalarda bo'luvchi shaxslarga (masalan, xizmatchilar, xodimlar, harbiy xizmatchilar va h.k.larga) nisbatan qo'llanilishi mumkin;

beshinchidan, intizomiy-huquqiy majburlov keng doiradagi axloqiy-huquqiy ta'sir ko'rsatish choralarini o'z ichiga oladi;

oltinchidan, intizomiy-huquqiy majburlov «*intizomiy*» hokimiyat subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Odatda, bunday hokimiyatga rahbarlar egadir. Ayrim hollarda esa qonun hujjatlari bilan boshqa shaxslar ham ega bo'ladi. Masalan, harbiy xizmatchilarga nisbatan intizomiy majburlovni boshliqdan tashqari, garnizon komendanti ham qo'llash vakolatiga ega bo'lishi mumkin. Qoida boyicha, huquqbuzarga nisbatan intizomiy ta'sir choralari bevosita yoki yuqori turuvchi rahbar tomonidan qo'llaniladi;

yettinchidan, intizomiy-huquqiy majburlov bir necha huquq tarmoqlari bilan: mehnat, ma'muriy, jinoyat-ijroiya huquqi bilan tartibga solinadi.

Aksariyat hollarda, intizomiy-huquqiy majburlov qonun hujjatlari bilan, ayrim hollarda esa qonunosti aktlari bilan tartibga solinadi;

sakkizinchidan, intizomiy-huquqiy majburlov choralari aniq shaxslarga qo'llaniladi.

Intizomiy-huquqiy majburlov individuallik, ya'ni yakka tartibda amlga oshirish xususiyatiga ega. Intizomiy-huquqiy majburlovda ko'pgina sanksiyalar va tartiblar mavjud bo'lib, ma'lum bir guruh shaxslarga qaratiladi. Shaxslarning tutgan mavqeyiga qarab, intizomiy-huquqiy majburlovning maxsus sanksiyalarini ham ko'rsatib o'tish mumkin. Masalan, soldatlar va generallarga, talabalar va aspirantlarga qo'llaniladigan intizomiy ta'sir ko'rsatish choralari mavjud.

Demak, ***intizomiy-huquqiy majburlov*** – ijro va farmoyish berish faoliyatida intizomiy hokimiyat subyektlari tomonidan, huquq normalariga asoslangan holda, bo'ysinuvchi shaxslarga nisbatan intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar sodir etganligi uchun qo'llaniladigan davlat majburlovidir.

Intizomiy-huquqiy majburlov *huquq tarmoqlarining normalari bilan tartibga solinganligiga qarab*, bir necha turlarga bo'linishi mumkin:

a) korxona va muassasalarda xodimlarga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy majburlov – *mehnat huquqi*;

b) davlat organida xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy majburlov – *ma'muriy huquq*;

d) ozodlikdan mahrum etish joylarida mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy majburlov – *jinoyat ijroiya huquqi* bilan tartibga solinadi.

D.N.Baxraxning fikricha, ma'muriy huquq uch guruh subyektlarga nisbatan intizomiy ta'sir etish choralarini tartibga soladi:

a) *militarlangan xizmatchilarga nisbatan* (harbiy xizmatchilarga, harbiy xizmatchilar toifasiga kiradigan shaxslarga, ichki ishlar xodimlariga);

b) *ta'lim olayotgan shaxslarga nisbatan* (o'quvchilar, talabalar, aspirantlar);

d) *ma'muriy huquq normalari asosida vaqtincha ozodligi cheklangan shaxslarga nisbatan.*[1]

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. – М.: «Норма», 2004. С. 533.

Ta'sir etish usuliga ko'ra, intizomiy-huquqiy majburlovni quyidagilarga bo'lish mumkin: 1) *jazo ko'rinishiga ega bo'lgan*; 2) *qayta tiklashga qaratilgan*; 3) *boshqa* intizomiy ta'sir etish choralari.

Birinchi guruh intizomiy ta'sir etish choralari qo'llanilganida — intizomiy javobgarlik vujudga keladi; qayta tiklash choralari qo'llanilganda esa, ya'ni yetkazilgan zarar qoplanganida — moddiy javobgarlik vujudga keladi.

Boshqa intizomiy ta'sir etish choralari deganda, intizomiy javobgarlikka kirmaydigan hamda zararni undirish bilan bog'liq bo'lmagan choralar nazarda tutiladi. Masalan, ishdan chetlashtirish, mehnat ta'tilini qisqartirish, navbatdagi darajani berishni kechiktirish, talabani sinov va imtihonlarga qo'ymaslik va boshqalar.

2-§. Ma'muriy huquq boyicha intizomiy javobgarlik

Intizomiy javobgarlik — bu intizomiy hokimiyat subyektlari tomonidan ularga bo'ysingan shaxslarga nisbatan ularning intizomiy huquqbuzarliklari uchun intizomiy jazo choralarini qo'llashdir.

Intizomiy javobgarlik yuridik javobgarlikning bir turi bo'lib, uning barcha xususiyatlariga ega. Bundan tashqari, *ma'muriy huquq boyicha intizomiy javobgarlik* — intizomiy majburlovning ko'rinishi hisoblanadi.

Ma'muriy huquq boyicha intizomiy javobgarlik quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

birinchidan, intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar uchun, ayrim hollarda boshqa huquqbuzarliklar uchun (masalan, harbiy xizmatchining ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganida) qo'llaniladi;

ikkinchidan, jazo sanksiyalarini, ya'ni intizomiy jazo choralarini qo'llashda ifodalanadi;

uchinchidan, intizomiy hokimiyat subyekti, ya'ni bevosita yoki yuqori turuvchi rahbar tomonidan o'ziga bo'ysungan shaxsga nisbatan qo'llaniladi;

to'rtinchidan, intizomiy javobgarlikni qo'llash asoslari va tartibi turli huquq tarmoqlari bilan belgilanadi. Aksariyat shaxslarning intizomiy javobgarligi, mehnat va ma'muriy huquq bilan tartibga solinadi.

Ma'muriy huquq boyicha intizomiy javobgarlik, odatda, intizom ustavlari bilan hamda ma'muriy-huquqiy aktlar bilan tartibga solinadi.

Ma'muriy-huquqiy normalar asosida intizomiy javobgarlikka keng doirdagi shaxslar, ma'muriy jamolarning a'zolari tortilishi mumkin.

Qoida boyicha, ma'muriy-huquqiy normalarga asoslangan intizomiy javobgarlik — intizomiy nojo'ya xatti-harakatning sodir etilishi bilan vujudga keladi. ***Intizomiy nojo'ya xatti-harakat*** — bu jamiyatga qarshi qaratilgan, ma'lum bir ijtimoiy zararni keltirib chiqaradigan, aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi.

Intizomiy javobgarlikning turlari qonun hujjatlari bilan o'rnatiladi. Ularning *asosiy maqsadi* — huquqbuzarliklarning oldini olish bo'lib hisoblanadi.

Intizomiy javobgarlik aybdor shaxsning holatiga negativ (salbiy) ta'sir etadi hamda ma'lum bir muddatga javobgarlikka tortilganlik holatini vujudga keltiradi.

Intizomiy javobgarlik jamoa doirasida amalga oshirilganligi sababli, ular turli ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan:

a) *axloqiy-huquqiy sanksiyalar* (masalan, ogohlantirish);

b) jamoa bilan shaxs o'rtasidagi *aloqalarni o'zgartiruvchi* yoki *bekor qiluvchi sanksiyalar* (masalan, quyi lavozimga o'tkazish, ishdan bo'shatish).

Ushbu choralar faqatgina shaxsning ma'lum bir jamoada (davlat va nodavlat tashkilotlarida) faoliyat ko'rsatishi vaqtida qo'llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, intizomiy javobgarlik choralari subyektlarning doirasiga qarab ham turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, talabalar, tinglovchilar, aspirantlar uchun — ogohlantirish, xayfsan, qattiq xayfsan, talabalar safidan o'chirish; ichki ishlar organlarining oddiy askar va kichik rahbarlar tarkibiga kiruvchi xodimlari uchun esa ogohlantirish, xayfsan, qattiq xayfsan, past lavozimiga o'tkazish, ma'lum bir rag'batlantirishdan mahrum etish, maxsus unvonidan bir pog'ona pasaytirish, ichki ishlar organidan bo'shatish va h.k.lar.

3-§. Ma'muriy huquq boyicha intizomiy ishlarni yuritish

Intizomiy ishlarni yuritish — bu intizomiy javobgarlikni qo'llash boyicha tegishli subyektlarning huquq normalari bilan tartibga solingan faoliyatidir.

Intizomiy ishlarni yuritish — intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan intizomiy jazoni qo'llashga qaratilgan intizomiy hokimiyat subyektining huquq normalari bilan tartibga solingan faoliyati hisoblanadi.

Intizomiy ishlarni yuritish normalari – intizomiy javobgarlik to'g'risidagi moddiy-huquqiy normalarni qo'llash imkoniyatini beruvchi protsessual mexanizmdir. Bu – ma'muriy-yurisdiksiyaviy faoliyatning, shuningdek, yuridik jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababali, intizomiy ishlarni yuritish protsessual jarayon va protsessual faoliyatni yuritishning umumiy qoidalariga tayanadi.

Intizomiy ishlarni yuritish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Jumladan, davlat xizmatchilarini, ta'lim oluvchilarni va boshqalarni intizomiy javobgarlikka tortish ma'muriy-protsessual normalar bilan tartibga solinadi.

D.N.Baxrax, intizomiy ishlarni yuritishning xususiyatlariga to'xtalib, uning quyidagi asosiy bosqichlarini ko'rsatib o'tadi: a) *xizmat tekshiruvi (tergovi)*; b) *intizomiy ishni ko'rib chiqish*; d) *ishni qayta ko'rib chiqish*; e) *jazoni ijro etish*.[1]

*Birinchi bosqich*da – intizomiy nojo'ya xatti-harakat sodir etilganligi, shaxsning aybi aniqlanadi.

*Ikkinchi bosqich*da – rahbar to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, aybdor shaxsga intizomiy javobgarlikni qo'llash to'g'risida buyruq chiqaradi.

Uchinchi bosiqichda, buyruq ustidan shikoyat berilgan bo'lsa, intizomiy ish qayta ko'rib chiqiladi.

*To'rtinchi bosqich*da – belgilangan intizomiy javobgarlik ijro etiladi.

Xizmat tekshiruvlari (tergovi) – bunga asos mavjud bo'lganida, ya'ni jamoa xodimining huquqqa xilof xatti-harakatlari to'g'risida ma'lumot bo'lganida, rahbarning o'zi tomonidan yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan olib boriladi. Bu jarayonda – nojo'ya xatti-harakat sodir etilganligi, qanday holatlarda sodir bo'lganligi, qilmish qanday maqsadlarda amalga oshirilganligi, undan kelib chiqqan oqibatlar, shaxsning aybi darajasi aniqlanadi.

Intizomiy ish yuritilayotgan vaqtda ma'lum bir nojo'ya xatti-harakatni sodir etishda ayblanayotgan shaxsdan tushuntirishlar olinishi kerak. Tushuntirish berish – bu asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoyalanishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Tushuntirish berishdan bosh tortish – ish yuritishni to'xtatmaydi.

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 536–540.

Agar xizmat tekshiruvlari intizomiy hokimiyat subyekti tomonidan emas, balki boshqa organ yoki mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, uning natijalari rahbarga og'zaki bildirilishi, ma'lumotnoma berilishi, raport va boshqalar vositasida rasmiylashtirlishi shart.

Intizomiy ishlarni yuritishda intizomiy hokimiyat subyektlari quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

birinchidan, maqsadga muvofiq emas yoki shaxsni aybdor emas deb topib, sodir etilgan qilmishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaslik;

ikkinchidan, intizomiy jazo choralariga kirmaydigan ta'sir choralarini qo'llash, ya'ni majburiyatni bajarish lozimligini ko'rsatishi, ogohlantirishi yoki qattiq ko'rsatmalar berish;

uchinchidan, hujjatlarni ko'rib chiqish uchun mazkur tashkilotda tuzilgan jamoat tuzilmalariga yuborish;

to'rtinchidan, aybdor shaxsga intizomiy jazoni qo'llash;

beshinchidan, rahbar yoki intizomiy javobgarlikni qo'llovchi boshqa shaxs unga berilgan intizomiy hokimiyatning yetarli emasligi to'g'risidagi qarorga kelgan bo'lsa, yuqori turuvchi intizomiy hokimiyat subyektiga aybdor shaxsga nisbatan qattiq intizomiy jazo choralarini qo'llashi uchun hujjatlarni yuborish;

oltinchidan, aybdor shaxsning xatti-harakatlarida jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, tegishli vakolatli organga hujjatlarni yuborish.

Umumiy qoidaga ko'ra, intizomiy javobgarlik *yozma shakldagi buyruq* chiqarish orqali qo'llaniladi. Ba'zi hollarda esa masalan, harbiy xizmatchilarga yoki ichki ishlar organlariga intizomiy javobgarlik (ogohlantirish, xayfsan) *og'zaki shaklda* tayinlanishi mumkin.

Amaliyotda intizomiy javobgarlikni qo'llash to'g'risidagi *buyruq* quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin:

a) aniq bir shaxsni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida maxsus buyruq qabul qilinishi mumkin;

b) maxsus bitta buyruq bilan bir necha shaxs intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin;

d) tekshirish o'tkazish natijalari to'g'risidagi buyruqning alohida bir bandida, intizomiy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan bo'lishi mumkin;

e) kollegial organ qarori bilan intizomiy javobgarlikka tortish belgilangan bo'lishi mumkin.

Intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi buyruq — ma'muriy-huquqiy aktlarning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu akt qabul qilinishi vaqtidan kuchga kiradi.

Buyruq har qanday ma'muriy-huquqiy akt singari, qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Bunga: aybdor shaxs tomonidan berilgan shikoyat; prokuror protesti; yuqori mansabdor shaxs tomonidan yoki buyruqni qabul qilgan mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi asos bo'lib xizmat qiladi.

Buyruqni o'zgartirish yoki bekor qilish vakolatiga uni qabul qilgan mansabdor shaxs, yuqori turuvchi mansabdor shaxs yoki sud egadir. Odatda, intizomiy ustavlarda va boshqa aktlarda intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning sudga murojaat qilishi nazarda tutilmaydi. Lekin bunday huquq, ularning konstitutsiyaviy huquqlaridan kelib chiqadi.

Shikoyat berilgan taqdirda, yuqori turuvchi mansabdor shaxs yoki sud uni ko'rib chiqib, asossiz deb topishi va buyruqni o'z kuchida qoldirishi mumkin. Agar qabul qilingan buyruq asossiz deb topilgan bo'lsa, u to'liq yoki qisman bekor qilinishi mumkin. Amaliyotda shikoyatni ko'rib chiquvchi yuqori mansabdor shaxsning buyruqni qabul qilgan mansabdor shaxsga uni qayta ko'rib chiqishi uchun yuborishi, keng qo'llaniladi.

Buyruqni ijro etish, ko'pgina hollarda tanlangan intizomiy javobgarlik chorasiga bog'liq bo'ladi. Ko'pgina intizomiy javobgarliklar (masalan, ogohlantirish, xayfsan) axloqiy-huquqiy mazmunga ega bo'lib, ular ma'lum qilish, e'lon qilish orqali ijro etiladi. Agar rahbar tomonidan tashkiliy xususiyatdagi intizomiy javobgarlik (masalan, egallab turgan lavozimidan pasaytirish, ishdan bo'shatish) tayinlangan bo'lsa, u amalda aniq va belgilangan tartibda ijro etilishi kerak.

Ayrim hollarda, intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi buyruqning qabul qilinishi bilan, aybdor shaxsning maxsus huquqiy holati — jazoga tortilganlik vujudga keladi. Bunda:

a) javobgarlikka tortilganlik olib tashlanmaguncha, shaxsga nisbatan rag'batlantirish choralarini qo'llash mumkin emas;

b) intizomiy javobgarlikka tortilganlik holatini muddatidan oldin bekor qilish;

d) intizomiy javobgarlikka tortilganlik muddati davomida yangi nojo'ya xatti-harakatning sodir etilishi — intizomni takroran buzish deb tan olinishi hamda og'irroq jazo choralarini qo'llashga olib kelishi mumkin;

e) intizomiy javobgarlikka tortilganlik muddati shaxsga navbatdagi darajani berishga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Intizomiy javobgarlikka tortilganlik muddati, odatda, bir yilni tashkil etadi. Agar shaxs bir yil davomida qayta huquqbuzarlik

(nojo'ya xatti-harakat)ni sodir etmasa, u intizomiy javobgarlikka tortilmagan hisoblanadi. Intizomiy javobgarlikka tortilganlik muddati — intizomiy jazoni qo'llash to'g'risidagi buyruq chiqqan kundan boshlab hisoblanadi. Og'zaki shaklda tayinlangan intizomiy javobgarlik esa bir oylik muddatdan so'ng olib tashlangan hisoblanadi.

Qayta huquqbuzarlik (nojo'ya xatti-harakat)ni sodir etish — tamom bo'lmagan intizomiy javobgarlikka tortish muddatini tugatadi. Intizomiy javobgarlikni qo'llash to'g'risidagi yangi buyruqning qabul qilinishi bilan esa ikkala javobgarlik boyicha muddat boshlanadi.

4-§. Ma'muriy huquq boyicha moddiy javobgarlik

Ma'muriy va intizomiy javobgarlik choralari, odatda, huquqbuzarlikni oldini olish maqsadida qo'llaniladi hamda jazo xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. ***Moddiy javobgarlik*** esa — bu qayta tiklash xususiyatidagi sanksiyalarni qo'llash bo'lib, yetkazilgan mulkiy zararni qoplash uchun qo'llaniladi. Shu sababli, ma'muriy huquq boyicha moddiy javobgarlik — davlatga haqiqatdan ham zarar yetkazilgan bo'lsa, vujudga kelishi mumkin.

Moddiy javobgarlik davlatga yetkazilgan zarar:

a) to'g'ri va aniq;

b) xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida;

d) huquqqa xilof qilish orqali;

e) aybli;

f) huquqqa xilof xatti-harakat bilan yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lganida, qo'llanilishi mumkin.

Moddiy javobgarlik sanksiyalari intizomiy javobgarlikdan farq qilgan holda, ayb darajasiga emas, balki huquqqa xilof aybli xatti-harakatning sodir etilishidan kelib chiqqan zarar hajmiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, yetkazilgan zarar to'liq yoki qisman qoplanishi mumkin.

Moddiy javobgarlik sanksiyalari jamoat ta'siri choralari bilan almashtirilishi mumkin emas. Intizomiy va ma'muriy javobgarlikda esa qonunda belgilangan tartibda jazo choralarini jamoat ta'siri choralari bilan almashtirishga yo'l qo'yiladi.

Jazo sanksiyalari va qayta tiklash xususiyatidagi sanksiyalar birbirini to'ldirib, bitta shaxsga nisbatan bir vaqtning o'zida qo'llanilishi mumkin. Masalan, harbiy xizmatchilardan yetkazilgan zararni undirib olish — intizomiy majburlovning bir turi hisobla-

nadi. Harbiy xizmatchilar tomonidan yetkazilgan zararni qoplash, mazkur xatti-harakat uchun ularning intizomiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishidan yoki tortilmasligidan qat'i nazar, amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquq normalari bilan nafaqat moddiy javobgarlik asoslari, balki javobgarlikka tortish tartibi ham belgilanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Intizomiy-huquqiy majburlov tushunchasi.
2. Intizomiy-huquqiy majburlovning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Intizomiy javobgarlik.
4. Intizomiy javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Intizomiy nojo'ya xatti-harakat.
6. Intizomiy ishlarni yuritish tushunchasi.
7. Intizomiy ishlarni yuritish bosqichlari.
8. Ma'muriy huquq boyicha moddiy javobgarlik.

OLTINCHI BO'LIM

MA'MURIY JARAYON

MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR BO'YICHA ISH YURITISH

23-bob. MA'MURIY JARAYON

1-§. Huquqiy jarayon va uning xususiyatlari

Umumiy qoidadan kelib chiqadigan bo'lsak, ***jarayon*** – bu qandaydir holatlarning, hodisalarning ketma-ketlikda almashinuvi, nimaningdir rivojlanishi bo'lib, kimyoviy, biologik va ijtimoiy ko'rinishlarga ega bo'ladi. Barcha jarayonlar ichida *ijtimoiy jarayon* alohida ahamiyatga egadir. Ijtimoiy jarayon – ishlab chiqarish, ijodiy, yuridik (huquqiy) va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ijtimoiy jarayonning boshqaruv, tashkiliy va stixiyali (masalan, migratsiya: bozor) ko'rinishlari ham mavjuddir.

Huquqshunos olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida huquqiy faoliyatning bir necha turlarini farqlashadi, masalan, huquqiy jarayon, shartnomaviy faoliyat, ish yuritish.

E.G.Lukyanova o'zining monografiyasida, huquqiy jarayon va u bilan bog'liq bo'lgan protsessual huquq tushunchasiga bir necha yondashuvlarni ko'rsatib o'tadi. Jumladan, uning fikricha:

1) *huquqiy jarayon* – bu odilsudlov organlarining yurisdiksiyaviy va boshqa muhofaza etuvchi faoliyatidir: *protsessual huquq* – odil sudlovni amalga oshirish jarayonida ularning faoliyati bo'yicha yoki odil sudlovni amalga oshirishga tayyorlash faoliyati bo'yicha vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat:

2) *huquqiy jarayon* – vakolatli davlat organlari va boshqa subyektlarning yurisdiktsiyaviy va boshqa muhofaza etuvchi faoliyatidir. *Protsessual huquq* deganda esa huquq to'g'risidagi nizolarni hal etish va huquqiy majburlovni qo'llashga qaratilgan faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi tushuniladi:

3) *huquqiy jarayon* – vakolatli davlat organlarining huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatidir: *protsessual huquq* – huquq ijodkorligi va moddiy huquq normalarini qo'llash jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni («tashkiliy» ijtimoiy munosabatlarni) tartibga soladi:

4) *huquqiy jarayon* – moddiy-huquqiy normalarni amalga oshirish shaklidan qat'i nazar, bajarish jarayonidir. *Protsessual huquq* – moddiy huquq normalarini amalga oshirish bo'yicha «instruksiya» (ko'rsatma) hisoblanadi:

5) *huquqiy jarayon* – davlat organlarining barcha huquqiy faoliyatidir (huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash, ta'sis etish, kontrol, farmoyish berish). *Protsessual huquq* esa bu faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi hisoblanadi.[1]

D.N.Baxraxning ko'rsatishicha, ijtimoiy jarayonda *huquqiy jarayon* o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

a) bu – ongli va maqsadga muvofiq yo'naltirilgan faoliyatdir:

b) bu faoliyat – davlat hokimiyati subyektlari tomonidan hokimiyat vakolatlarining amalga oshirilishida ifodalanadi:

d) bu faoliyat – ma'lum bir huquqiy natijalarga erishish, aniq va yakka tartibdagi masalalarni hal etish maqsadida amalga oshiriladi:

e) bu faoliyat belgilangan tartibda ma'lum bir hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi:

f) bu faoliyat – huquqiy normalar bilan tartibga solingan bo'ladi.[2]

I.V.Panovaning ko'rsatishicha, huquqiy jarayon – ijtimoiy jarayonning bir ko'rinishi sifatida, ommaviy hokimiyat subyektlarining normativ-huquqiy faoliyati hisoblanadi va u sud hamda boshqa jarayonlarni o'z ichiga olgan protsessual shaklda amalga oshiriladi. Huquqiy jarayon quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

a) bu faoliyatga hokimiyat xususiyati xosdir. Bunda davlat organlarining hokimiyat vakolatlari amalga oshiriladi;

b) bu faoliyat – huquqiy normalar bilan to'liq tartibga solingandir;

---

[1] Лукьянова Е.Г. Теория процессуального права. – М.: «Норма», 2003. С.41–42.

[2] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 542–545.

d) bu — maqsadli yo'naltirilgan, ongli ravishda va ma'lum bir masalalarni hal etishda huquqiy natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyatdir.[1]

V.D.Sorokinning fikricha, jarayon — huquqiy kategoriya bo'lib, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

birinchidan, jarayon — bu davlat hokimiyat faoliyatining ifodalanishidir. Boshqacha aytganda, jarayon — bu shunday faoliyatki, uning yordamida davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunchilikda ko'rsatilgan huquqiy shaklga ega bo'ladi;

ikkinchidan, jarayonning har qanday turi — bu dinamik (harakatchan) tushuncha bo'lib, tegishli davlat hokimiyati organlari faoliyatining murakkabligini ko'rsatadi;

uchinchidan, jarayonning asosiy xususiyati shundan iboratki, bu har qanday hokimiyat faoliyati emas, balki mazmuni, maqsadi va undan kelib chiqadigan oqibatlariga ko'ra huquqiy hisoblanadi;

to'rtinchidan, jarayon huquqiy faoliyat sifatida, ma'lum bir tartibga solinganlikni talab etadi. Tartibga solish — turli davlat organlari protsessual faoliyatining asosiy tomonlarini qamrab oladi va huquq tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan protsessual normalar orqali amalga oshiriladi;

beshinchidan, jarayonning fuqarolik, jinoyat va ma'muriy tartibga solishning huquqiy uslubi bilan bog'liqligi.[2]

Jarayonni faqatgina huquqiy faoliyat deb ko'rsatuvchi olimlar, boshqa barcha huquq normalari bilan tartibga solingan faoliyatni — *ish yuritish* sifatida tushuntirib o'tishadi. Jumladan, N.Yu.Shvedovaning fikricha, ish yuritish — xatti-harakatlarning rasmiy belgilangan tartibi, nimanidir bajarish, muhokama qilishdir.[3]

Ushbu tushuncha huquqiy jarayon tushunchasiga qaraganda kengroq bo'lib, huquqiy ishlar bilan bir vaqtda, nohuquqiy ishlar[4]ni ham yuritishda namoyon bo'ladi, shuningdek, u bir marta amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Huquqiy jarayon, dav-

---

[1] Панова В.И. Актуальные проблемы административного процесса в Российской Федерации. Автореф. дис. ... докт. юрид. наук. Екатеринбург, 2000. С. 6.

[2] Сорокин В.Д. Административно-процессуальное право: Учебник. — СПб.: Издателство «Юридический центр Пресс», 2004. С. 177—186.

[3] Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. — М.: 1995. С.616.

[4] Nohuquqiy ishlar deganda — davlat organlarining o'z vazifa va funksiyalarini amalga oshirish vaqtida qo'llaydigan va huquq normalariga asoslangan, lekin huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydigan harakatlarni tushunish lozim. Davlat boshqaruvining nohuquqiy shakllari (darslikning 15-bobi).

latning boshqa huquqiy faoliyati singari, huquqiy ish yuritishning bir qismi hisoblanadi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyatini ma'lum bir tartibda jarayonlashtirish davlat tomonidan protsessual normalarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi.

Protsessual qonunchilik (normalar)ning mavjud bo'lishi – huquqiy jarayonning asosiy belgisi hisoblanadi. Davlat hokimiyati faoliyati to'g'ri va to'liq huquqiy tartibga solingan, ma'lum bir tartibda jarayonlashtirilgan bo'lishi kerak.

Jarayonlashtirish – butun davlat va mahalliy faoliyatning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Jumladan:

birinchidan, huquq ijodkorligi subyektlarining fikricha, mazkur qoidalar davlat hokimiyatini amalga oshirish texnologiyasini, uning funksiyalanishi algoritmlarini mustahkamlaydi;

ikkinchidan, jarayonlashtirish – hokimiyatni chegaralash bo'lib, hokimiyat harakatlarini unifikatsiyalashga va uning oshkoraligini oshirishga xizmat qiladi. Protsessual qonunchilikni rivojlantirish huquqiy davlatning qonuniylik prinsipini amalda ro'yobga chiqarishni ta'minlaydi;

uchinchidan, protsessual normalar orqali masalalarni hal etish tartibi, huquqlar va qonuniy manfaatlarni amalga oshirish kafolatlari, himoya qilish huquqi ta'minlanadi. Bunda ma'muriy ta'sir etish obyektlarining protsessual-huquqiy munosabatlar subyektlariga aylanishi jarayonini kuzatish mumkin.

Huquqiy jarayon bir necha asoslarga qarab, guruhlarga bo'linishi mumkin. Jumladan:

1) ***hokimiyat faoliyati subyektiga qarab***:

a) *ovoz berish jarayoni* (prezident saylovi, vakillik organlariga saylov, referendum);

b) *vakillik hokimiyatini amalga oshirish jarayoni* (masalan, huquq ijodkorligi);

d) *ijro hokimiyatini amalga oshirish jarayoni* (masalan, huquqni qo'llash);

e) *sud hokimiyatini amalga oshirish jarayoni* (masalan, odilsudlov va h.k.lar).

2) ***mazmuniga ko'ra:***

a) *huquq ijodkorligi* jarayoni;

b) *tartibga solish (operativ-farmoyish berish)* jarayoni;

d) *yurisdiksiyaviy* jarayon.

Protsessual qonunchilik yordamida hokimiyat faoliyatining quyidagi tomonlari tartibga solinadi:

1) hokimiyat munosabatlari ishtirokchilari tomonidan qaysi harakatlar qanday ketma-ketlikda amalga oshirilishi mumkinligi;

2) faoliyatning printsiplari va maqsadi;

3) protsessual munosabatlar ishtirokchilarining doirasi, ularning huquq va majburiyatlari;

4) ma'lum bir masalalarning, harakatlarning tegishliligi;

5) huquqiy masalalarni hal etish jarayonida qabul qilinadigan hokimiyat aktlari qanday tartibda va hujjatlarda o'z ifodasini topishi;

6) protsessual harakatlarni amalga oshirish muddatlari;

7) dalillarning turlari va manbalari;

8) protsessual normalarga rioya etish kafolatlari, qabul qilinadigan aktlarning qonuniyligi va asoslantirilganligi, ma'lum bir qoidalarni buzganlik uchun protsessual va boshqa sanksiyalar;

9) protsessual harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni qoplash tartibi va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan elementlar — protsessual shaklning tuzilmaviy qismlaridir. Ularning barchasi umumlashgan holda protsessual shaklning, protsessual qonunchilikning asosini tashkil etadi. Demak, protsessual shakl — bu protsessual normalar tizimi bo'lib, jarayon ishtirokchilari harakatlariga qo'yiladigan talablarning yig'indisini belgilab beradi hamda maqsadga muvofiq hokimiyat aktlarining qabul qilinishi va ijro etilishiga olib keladi.

2-§. Ma'muriy jarayon tushunchasi

Huquqiy jarayonning keng tarqalgan ko'rinishi — bu *ma'muriy jarayon*dir. Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy jarayon, ijro hokimiyati organlarining ma'muriy protsessual shaklda amalga oshiriladigan va aniq bir huquqiy masalalarni hal etishga qaratilgan — *hokimiyat faoliyati* sifatida ko'rsatib o'tiladi. Bu birinchi navbatda, ma'muriy jarayonning ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinganligiga asoslanadi.

Ma'muriy jarayon huquqiy jarayonning barcha umumiy xususiyatlariga ega. Lekin shu bilan birga uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir:

birinchidan, ma'muriy jarayon — ijro organlarining maqsadga muvofiq yo'naltirilgan hokimiyat faoliyatidir;

ikkinchidan, ijro organlarining hokimiyat faoliyati qonun hujjatlariga asoslanib, ularga tegishli bo'lgan aniq masalalarni hal etishga qaratilgan;

uchinchidan, ma'muriy jarayon natijasi bo'lib, ma'muriy-huquqiy aktning qabul qilinishi hisoblanadi;

to'rtinchidan, ijro organlarining hokimiyat vakolatlari ma'muriy huquq, xususan, uning protsessual normalari bilan tartibga solinadi;

beshinchidan, ma'muriy jarayon, qoida bo'yicha, soddalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq.

Bundan tashqari, ma'muriy jarayonning o'ziga xos xususiyatlariga — ma'lum bir ishlarning yozma yoki og'zaki tartibda olib borilishini, sirtdan ko'rib chiqilishini ham kiritish mumkin.

Demak, *ma'muriy jarayon* — ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan hamda ma'muriy-huquqiy aktlarni qabul qilish va ijro etish orqali ma'lum bir ishlarni hal etishga qaratilgan ijro organlarining hokimiyat faoliyatidir

Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy jarayon bilan bir qatorda, «*ma'muriy-protsessual faoliyat*» tushunchasi ham ko'rsatib o'tilgan. Ma'muriy-protsessual faoliyat quyidagilardan iborat:

a) ***ma'muriy huquq ijodkorligi jarayoni*** — ijro hokimiyati organlarining ma'muriy-protsessual shaklda o'rnatilgan tartibda ma'muriy normativ aktlarni qabul qilishga qaratilgan faoliyatidir;

b) ***ma'muriy huquqni qo'llash jarayoni*** — ijro hokimiyati organlarining qonun hujjatlarini ijro etishga qaratilgan va ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan operativ-farmoyish berish hamda huquqni qo'llash aktlarini qabul qilish va ijro etish faoliyatidir;

d) ***ma'muriy yurisdiksiyaviy jarayon*** — ijro hokimiyati organlarining turli subyektlar o'rtasidagi nizolarni hal etish, shuningdek, ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan ma'muriy va intizomiy majburlov choralarini qo'llashga qaratilgan faoliyatidir.

«Ma'muriy jarayon» va «Ma'muriy-protsessual faoliyat» bir-biriga yaqin va bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Lekin har qanday ma'muriy jarayon faoliyati ma'muriy-protsessual faoliyat hisoblanmaydi.

Yu.M.Kozlov ko'rsatishicha, ma'muriy-protsessual faoliyat tushunchasiga ikki xilda yondashish mumkin:

a) ma'muriy jarayon (keng ma'noda) — butun davlat boshqaruvi faoliyatini o'z ichiga oladi;

b) ma'muriy jarayon (tor ma'noda) — moddiy normalar sanksiyalarini qo'llash bo'yicha faoliyatni o'z ichiga oladi.

Yu.M.Kozlov, ma'muriy-protsessual faoliyatni, uning yuqoridagi ko'rinishlaridan kelib chiqqan holda, ikkiga bo'ladi:

1) *ma'muriy ish yuritish.*

Uning mazmunini ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslari) tomonidan ma'muriy huquq normalarida belgilangan ish yuritish bo'yicha farmoyish berish harakatlarini amalga oshirish tashkil etadi.

2) *ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyat.*

Uning mazmunini — ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslari) tomonidan yurisdiksiyaviy harakatlarni amalga oshirish tartibida, huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajarish tashkil etadi.[1]

Ma'muriy jarayon, odilsudlov (fuqarolik, jinoiy, xo'jalik) singari, hokimiyat organi tomonidan qanday masalalarning hal etilishiga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Hal etilayotgan ishlarning mazmuni — ma'muriy-protsessual shaklga yoki uning ayrim elementlari xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Agar har qanday jarayon doirasida ma'lum bir ishlar hal etiladigan bo'lsa, unda maxsus protsessual qoidalarning zaruriyati vujudga keladi. Aynan mana shu xususiyatlarga qarab jarayonda, uning o'ziga xos bo'lgan qismi — *ish yuritish* ajratiladi. Davlat hokimiyati organlari, ma'lum bir ma'muriy jarayon doirasida, turli xildagi ishlarni hal etishiga to'g'ri keladi. Ularni umumiy protsessual qoidalar bilan tartibga solish mushkuldir. Shu sababli, ma'muriy faoliyatning o'ziga xos turlari, ya'ni ma'lum bir ishlarni hal etishning maxsus protsessual qoidalari mavjud bo'lib, ularning yig'indisi — ish yuritish faoliyatini tashkil etadi. Masalan, shikoyatlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralarini tayinlash faoliyatlari ko'pgina umumiy xususiyatlarga ega, lekin bu faoliyat turlari maxsus qoidalarga ham muhtoj bo'ladi.

Demak, ***ma'muriy ish yuritish*** — ma'muriy jarayonning bir qismi bo'lib, umumiy va maxsus protsessual normalar yordamida ma'lum bir ishlarni hal etishga qaratilgan ma'muriy faoliyatning alohida turi hisoblanadi.

Ma'muriy ish yuritish bir necha ko'rinishlarga ega. Jumladan:

1) Ma'muriy huquq ijodkorligi jarayonida:

a) Prezident aktlarini qabul qilish;

b) hukumat aktlarini qabul qilish;

d) markaziy ijro hokimiyati organlari aktlarini qabul qilish;

e) ijro hokimiyati subyektlarining aktlarini qabul qilish bo'yicha ish yuritish.

---

[1] Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. — 2-е изд., прераб. и доп. — М.: «Юрист», 2003. С. 180—183.

2) Ma'muriy huquqni qo'llash (operativ-farmoyish berish) jarayonida:

a) shaxsiy tarkibni butlash bo'yicha (masalan, harbiy xizmatga chaqirish, davlat lavozimiga, o'quv yurtiga qabul qilish);

b) davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha;

d) rag'batlantirish choralarini qo'llash bo'yicha;

e) resurslarni (masalan, kvartira, pul mablag'lari, yer uchastoklarini) taqsimlash bo'yicha;

f) ruxsat berish bo'yicha (masalan, litsenziya, ruxsatnoma, boshqarish huquqini berish);

g) ro'yxatga olish bo'yicha (masalan, transport vositalarini, xorijiy fuqarolarni, ko'chmas mulkni);

h) mahsulotlar va xizmatlar sifatini tekshirish bo'yicha;

i) nazorat va boshqalar bo'yicha ish yuritish.

3) Ma'muriy yurisdiksiyaviy jarayonda:

a) fuqarolarning shikoyatlari bo'yicha;

b) ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha;

d) intizomiy;

e) ijro etish;

f) ma'muriy cheklov (ehtiyot) choralarini qo'llash bo'yicha ish yuritish.

Turli ish yuritish faoliyatlarini jarayonlashtirish bir xilda amalga oshirilmaydi. Ba'zi hollarda ish yuritish aniq va to'liq protsessual shaklga ega bo'ladi. Boshqa hollarda esa faoliyat to'liq tartibga solinmagan bo'ladi.

Har qanday ish yuritish — ma'muriy huquqning tegishli institutlari moddiy normalari bilan bog'liq bo'ladi. Protsessual normalar esa mana shu institutlarga xizmat qiladi.

3-§. Ma'muriy jarayonning umumiy bosqichlari

Ma'muriy jarayon — uzluksiz amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, turli xildagi ziddiyatlarga qaramasdan, ma'lum bir harakatchanlik xususiyatiga ega. Ma'muriy jarayon — ma'lum bir bosqichlarning ketma-ketligiga, ularning takrorlanib turishiga asoslanadi.

Huquq subyekti, o'z oldida turgan maqsadga erishish uchun, belgilangan ketma-ketlikda ma'lum bir harakatlarni amalga oshiradi.

Har qanday jarayon singari, ma'muriy jarayonga ham, *bosqichlilik* xususiyati xosdir. Bosqichlar biridan keyin ikkinchisining kelishini, oldingi bosqichning keyingi bosqichni tayyorlashini naza-

rada tutadi. Odatda, yangi bosqich undan oldingi bosqichning tugaganidan so'ng, vujudga keladi.

Bosqich – bu umumiy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan ma'muriy faoliyatning mustaqil qismidir. Har bir bosqich – o'ziga xos maqsadga ega bo'lib, protsessual harakatlarning umumiy maqsadiga erishish yo'lida xizmat qiladi. Har bir bosqich o'ziga xos bo'lgan:

a) subyektlar doirasiga;

b) axborotni to'plash va undan foydalanishga;

d) tayyorlanadigan hujjatlarga;

e) qabul qilinadigan qarorlarga;

f) sodir etiladigan turli harakatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ko'pgina ma'muriy jarayonlarda, hokimiyat vakolatlaridan obyektiv, maqsadga muvofiq va qonuniy foydalanilishini ta'minlash uchun turli subyektlarning ishtirok etishi belgilanadi. Masalan, bu yurisdiksiyaviy faoliyatda yaqqol namoyon bo'ladi: birinchi subyekt bayonnoma tuzadi, ikkinchisi qaror qabul qiladi, uchinchisi qaror yuzasidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqadi va h.k.lar.

Ma'muriy jarayonni umumiy holda tahlil qiladigan bo'lsak, uning kamida uch bosqichdan iborat ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin:

birinchidan, ***ma'lum bir holatni baholash***;

ikkinchidan, ***ma'muriy aktni tayyorlash va qabul qilish***;

uchinchidan, ***huquqiy aktni ijro etish***.

Ma'muriy jarayon bosqichlarini yanada aniqlashtirish ham mumkin. Masalan, davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida davlat organlari o'z faoliyatlarini quyidagi bosqichlarda:

a) vujudga kelgan yoki hal qilinishi lozim bo'lgan muammoni aniqlash;

b) mazkur muammoni hal etishning rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

d) uni atroflicha o'rganish va obyektiv baho berish;

e) asoslantirilgan qarorlarni qabul qilish;

f) qarorni ijro etish yoki ijrosini tashkil etish va ta'minlash;

g) qaror ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish;

i) qaror ijro etilganligi to'g'risidagi hisobotni talab qilish bosqichlarida amalga oshiradilar.[1]

---

[1] Xojiyev E.T., Samig'jonov F.R. Ma'muriy qonunchilik tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: 2005, 12–13-betlar.

Birinchi bosqich – turlicha nomlangan bo'lishi mumkin (masalan, xizmat tekshiruvi, ro'yxatga olish, berilgan shikoyatlarni tekshirish va h.k.lar), lekin barcha holatlarda ham bu bosqich – zarur bo'lgan axborotlarni to'plash, ularni rasmiylashtirish va baholashdan iborat bo'ladi. Ma'muriy faoliyatning bunday boshlang'ich harakatlarisiz, biron bir qarorni qabul qilib bo'lmaydi.

Jarayonning birinchi bosqichi – ma'lum bir qarorlarni (masalan, tasdiqlash, rag'batlantirish, jazo qo'llash) qabul qilishda zarur bo'lgan harakatlar yig'indisi bo'lib hisoblanadi. Bunda – huquqiy tashabbus, ma'lum bir holatlarga baho berish va unga huquqiy ta'sir etish vositalari, qaror loyihasini tayyorlashga qaratilgan harakatlar sodir etiladi.

Birinchi bosqichda – ma'lum bir ishlarning holati, muammolar, ularni hal etish yo'llari aniqlanadi. Qaror loyihasini tayyorlash vaqtida muammoni hal etishning ma'muriy-huquqiy tartibga solish vositasi tanlanadi, rasmiylashtiriladi, kelishib olinadi va muhokama qilinadi.

Ikkinchi bosqich – qaror qabul qilish bo'lib hisoblanadi. Kollegial organlarda qaror muhokama qilinadi va ovozga qo'yiladi. Ayrim hollarda, qaror – ish jarayoni tartibida, so'rov o'tkazish orqali qabul qilinadi. Aksariyat qarorlar esa yakka tartibda qabul qilinadi. Bu bosqichning asosiy xususiyati shundaki, tayyorlangan qaror loyihasi o'rganib chiqiladi va imzolash orqali qabul qilinadi. Bundan tashqari, qaror loyihasini o'rganish jarayonida unga o'zgartirish kiritilishi mumkin yoki bekor qilinishi mumkin.

Qaror qabul qilish – bu nimaningdir kelajagini, qandaydir harakatni sodir etishni belgilashdir. Qarorda uning ko'rsatmalarini aniq belgilab o'tish katta ahamiyatga egadir.

Ikkinchi bosqich qarorni rasmiylashtirish orqali tugallanadi.

Uchinchi bosqich – ijro etish – qarorni ijrochiga, manfaatdor shaxslarga yetkazishdan boshlanadi. Bu – shaxsan tanishtirish (og'zaki, jo'natish, nusxasini topshirish va h.k.lar) orqali amalga oshiriladi. Agar qaror adresatlari doirasi keng bo'lsa, qaror bir necha nusxalarda ko'paytirilishi va yuborilishi yoki ommaviy axborot vositalarida, maxsus to'plamlarda e'lon qilinishi mumkin.

Ijro etish – eng murakkab bosqichlardan biri. Aynan unda, rahbarning ishchanlik, tashkil etish, boshqarish, jamoaning kelishuv asosida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ishni oxirigacha yetkazish kabi xislatlari namoyon bo'ladi.

4-§. Ma'muriy-protsessual normalar

Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy-protsessual huquq bo'yicha turlicha yondashuvchlar mavjud. Masalan, ba'zi huquqshunos olimlar, ma'muriy-protsessual huquqni – huquq tizimining mustaqil tarmog'iga kiritadi.[1] Boshqalari esa ma'muriy-protsessual huquq – bu ma'muriy huquqning ichki sohasi hisoblanadi, deb ko'rsatadi.

D.N.Baxraxning fikricha esa ma'muriy-protsessual huquq – ma'muriy huquq tarkibida bo'lgan va hokimiyat faoliyatini tartibga soluvchi keng doiradagi normalardan iborat bo'lib, yagona tizimga keltirilmagandir.[2]

V.D.Sorokin ma'muriy-protsessual huquq muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borib, uni o'zining predmeti, tizimi va tartibga solish uslubiga ega bo'lgan huquq tizimining mustaqil tarmog'i sifatida ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, ma'muriy-protsessual normalar – bu vakolatli davlat organlari tomonidan o'rnatilgan, ijro hokimiyati organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy qoidalardir.[3]

Ma'muriy ish yuritish faoliyatining turli ko'rinishlarga (huquq ijodkorligi, rag'batlantirish, ruxsat berish, yurisdiksiyaviy va h.k.lar) ega bo'lganligi sababli, protsessual normalar aksariyat hollarda, ma'muriy huquqning boshqa institutlari protsessual normalari bilan emas, balki tegishli institutlarning moddiy normalari bilan bog'liqdir. Jarayonlashtirishni keng doirda amalga oshirish bilan esa protsessual normalarni yanada yaqinlashtirish, unifikatsiya qilish va yagona tizimga keltirish mumkin bo'ladi.

D.N.Baxrax ko'rsatib o'tishicha, ma'muriy-protsessual qonunchilikni alohida tarmoqqa ajratish, amaliyotda foydadan ko'ra, ko'proq zarar keltirishi mumkin. Chunki bunday ajratish bir butun normalarni ikki bo'lakka, ya'ni moddiy va protsessual normalarning alohidalashuviga olib keladi.[4]

Hozirgi vaqtda ma'muriy-protsessual huquq – ma'muriy huquqning ma'lum bir institutlari doirasida tizimlashtirilgan keng doiradagi protsessual normalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

---

[1] Панова И.В. Административно-процессуальная деятельность в Российской Федерации. Саратов, 2001. С. 76–80.

[2] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С.549–552.

[3] Сорокин В.Д. Административно-процессуальное право: Учебник. – СПб.: Издательство «Юридический центр Пресс», 2004. С.74–110.

[4] O'sha joyda.

Sobiq ittifoq davridagi yuridik adabiyotlarda, ma'muriy-protsessual normalar va uning tasnifi bo'yicha turli fikrlar bildirilgan. Jumladan, XX asrning 50-yillarida S.S.Studenikin tomonidan ma'muriy-protsessual normalarning ikki guruhga bo'linishi ko'rsatib o'tilgan:

a) boshqaruv organlari tomonidan u yoki bu masalani hal etish tartibini belgilab beruvchi normalar:

b) sud organlari tomonidan ijro-farmoyish berish faoliyatiga taalluqli bo'lgan masalalarni hal etish tartibini belgilab beruvchi normalar.

Lekin bunday tasnif to'liq bo'lmay, uni yanada aniqlashtirish talab etiladi. Chunki bu tasnifda ma'muriy-protsessual normalar, faqatgina predmet nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda bo'lingan.

70-yillarda esa N.G.Saliyeva ma'muriy-protsessual normalarga quyidagilarni kiritadi:

1) ma'muriy majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ishlarni hal etishning umumiy prinsiplarini belgilab beruvchi yoki mustahkamlovchi normalar;

2) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs huquqlarining kafolatlarini belgilab beruvchi normalar;

3) ijro va farmoyish berish organlari protsessual harakatlarini rasmiylashtirishga qaratilgan hujjatlarni tayyorlashni belgilab beruvchi normalar;

4) ishni olib borishning protsessual tartibini, shuningdek, qarorlarni qabul qilish tartibini belgilab beruvchi normalar;

5) qabul qilingan qaror ustidan tegishli boshqaruv organi yoki sudga shikoyat qilish tartibini belgilab beruvchi normalar.

Bu davrda, B.B.Xangeldiyev ma'muriy-protsessual normalarning uch guruhini ajratadi:

a) yuridik tabiatiga ko'ra jinoyat protsessual normalariga yaqin bo'lgan qoidalar;

b) fuqarolik jarayoniga yaqin bo'lgan qoidalar;

d) boshqa barcha normalar, ya'ni tashkil etish faoliyatini amalga oshirish jarayonining tartibini belgilab beruvchi normalar.[1]

---

[1] Студеникин С.С. Система государственного управления и вопрос о предмете административного права // Вопросы административного права. 1949. С. 44; Салищева Н.Г. Гражданин и административная юрисдикция. М.: «Наука», 1970. С. 18; Хангелдыев Б.Б. О систематизации административного законодательства // Сборник научных трудов. Вып. 2. Свердловск, 1964. С. 90.

D.N.Baxraxning fikricha, ma'muriy-protsessual huquq normalarini mazmuniga qarab bir necha guruhga bo'lish mumkin:

a) *ma'muriy huquq ijodkorligini ta'minlovchi* normalar;

b) *operativ-farmoyish berish, huquqni qo'llash faoliyatini ta'minlovchi* normalar;

d) *ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyatni ta'minlovchi* normalar;

e) *ma'muriy jarayonning biron bir guruhiga kirmaydigan* normalar.

Oxirgi guruh normalarinig mazmuni shundan iboratki, faoliyatning ma'lum bir tomonlarini protsessual normalar bilan tartibga solish, uning protsessual shaklga ega ekanligini anglatmaydi hamda bu faoliyat — protsessual faoliyat deb atalishi mumkin emas.[1]

V.D.Sorokin, normalarning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ma'muriy-protsessual normalarni quyidagilarga bo'ladi:

1) ma'muriy-protsessual normalar ***mazmuniga ko'ra***:

a) *iqtisodiyot va uning turli sohalarida* vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi normalar;

b) *ijtimoiy-madaniy sohalarda* vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi normalar;

d) *ma'muriy siyosiy sohalarda* vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi normalarga bo'linadi;

2) ***tartibga solish hajmiga ko'ra*** ma'muriy-protsessual normalar:

a) davlat boshqaruvining barcha sohalarida qo'llaniladigan *umumiy normalar*;

b) yagona soha doirasida qo'llaniladigan *maxsus normalar*ga bo'linadi.

3) ma'muriy-protsessual normalar ***yuridik kuchiga ko'ra*** turli darajadagi davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qoidalarga bo'linadi. Masalan, qonunlarda ko'rsatib o'tilgan ma'muriy-protsessual normalar, ma'lum bir davlat organlarining (vazirlik, davlat qo'mitasi) normativ hujjatlarida nazarda tutilgan normalarga qaraganda, yuqori yuridik kuchga ega.

4) ma'muriy-protsessual normalar tatbiq etiladigan ***huquq subyektlari doirasi***ga ko'ra:

a) *fuqarolarning xulq-atvorini* belgilab beruvchi normalar;

b) *ijro hokimiyati organlari faoliyatini* tartibga soluvchi normalar;

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004. С. 551.

d) *turli mulk shakliga asoslangan korxona va muassasalar faoliyatini* tartibga soluvchi normalar;

e) *siyosiy va siyosiy bo'lmagan jamoat birlashmalari faoliyatini* tartibga soluvchi normalarga bo'linadi.

5) ***ma'muriy ish yuritishning turlariga qarab*** ma'muriy-protsessual normalar:

a) *ijro hokimiyati organlari tomonidan normativ hujjatlarni qabul qilish* bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;

b) *davlat boshqaruvi sohasida fuqarolarning va tashkilotlarning murojaatlari* bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;

d) *ma'muriy huquqiy shikoyatlar va nizolar* bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;

e) *rag'batlantirish* bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;

f) *ruxsat berish* bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;

g) *litsenziya berish* bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;

h) *ijro etish* bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;

i) *ma'muriy huquqbuzarlik* bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;

j) *davlat boshqaruvi sohasida intizomiy ishlar* bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalarga bo'linadi.

6) ma'muriy-protsessual normalar ***dispozitsiyasining mazmuniga ko'ra***:

a) *faol shaklda ifodalangan va namunali xulq-atvorda bo'lishga majbur etadigan* normalar;

b) *huquq subyektiga xulq-atvorni tanlash imkoniyatini beruvchi*, ya'ni vakolat beruvchi normalar;

d) *passiv shaklda ifodalangan va ma'lum bir xulq-atvorni taqiqlab qo'yadigan* normalarga bo'linadi.

7) ***makonda (hududda) harakatiga ko'ra*** ma'muriy-protsessual normalar:

a) *sohaga taalluqliligidan qat'i nazar, butun hududda* harakat qiladigan normalar;

b) *ma'lum bir hududlarda* harakat qiladigan normalarga bo'linadi.

8) ***vaqt bo'yicha harakatiga ko'ra*** ma'muriy-protsessual normalar:

a) *amalda bo'lish muddati belgilanmagan*, ya'ni tegishli davlat organi tomonidan bekor qilinmaguncha harakatda bo'ladigan normalar;

b) ma'lum bir muddatga mo'ljallangan normalarga bo'linadi.[1]

Demak, ***ma'muriy-protsessual normalar*** — bu vakolatli davlat organlari tomonidan o'rnatilgan, ijro hokimiyati organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi va aniq ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalaridir.

Ma'muriy-protsessual normalarni turli asoslarga ko'ra guruhlarga bo'lish, ya'ni tasniflash mumkin. Ularning barchasi umumiy maqsadga — davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonini o'rnatishga va tartibga solishga qaratilgandir.

5-§. Ma'muriy-protsessual munosabatlar

Ma'muriy-protsessual munosabatlar — jamiyatda vujudga keladigan huquqiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, huquqiy normalarda nazarda tutilgan aniq subyektlar o'rtasidagi yuridik aloqalarni anglatadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar — unda ishtirok etuvchi subyektlarning belgilangan xulq-atvorda bo'lishini nazarda tutadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar — hamma vaqt ma'muriy-protsessual normalar asosida vujudga keladi. Albatta, huquqiy normaning mavjud bo'lishi, huquqiy munosabatni vujudga kelishiga yetarli emas. Huquqiy munosabatning vujudga kelishi uchun huquq subyekti (huquq layoqati va muomala layoqati) va yuridik faktlarning (harakat, harakatsizlik, hodisa) mavjud bo'lishi ham talab qilinadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlarni amalga oshirish barcha huquqiy munosabatlar singari, davlatning ta'sir choralari bilan ta'minlanadi. Ular turli-tuman bo'lib, faqatgina majburlov choralari bilan chegaralanmaydi. Ijro hokimiyati organlari faoliyatida vujudga keladigan aksariyat ma'muriy-protsessual munosabatlarni amalga oshirishda davlatning majburlov choralarini qo'llash zaruriyati mavjud emas.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'muriy-protsessual munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni huquqiy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida ifodalashga imkon beradi. Lekin bu xususiyatlar ma'muriy-protsessual munosabatlarning mazmunini to'liq yoritib bera olmaydi. Shu sababli, asosiy e'tiborni, uning alohida xususiyatlarining qisqacha tavsifiga qaratish lozim. Jumladan:

---

[1] Сорокин В.Д. Административно-процессуальное право: Учебник. — СПб.: Издателство «Юридический центр Пресс», 2004. С. 74—110.

birinchidan, ma'muriy-protsessual munosabatlar – davlat boshqaruvi sohasida ijro hokimiyati organlarining vakolatlarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladi hamda moddiy normalar singari, aniq ifodalangan boshqaruv xususiyatiga egadir;

ikkinchidan, bu munosabatlar – protsessual huquqiy munosabatlardir. Agar ma'muriy-protsessual munosabatlarning birinchi xususiyati ularni moddiy normalarga yaqinlashtirsa, ikkinchi xususiyati bu ikkala norma o'rtasidagi aniq chegarani belgilab beradi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar ma'muriy-moddiy munosabatlardan farq qilgan holda, quyidagi xususiyatlarga ega:

a) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan *vujudga kelishining xususiyatiga qarab* farqlanadi. Masalan, moddiy munosabatlar vujudga kelishi uchun huquq normasi, huquq subyektliligi va yuridik faktning mavjud bo'lishi talab qilinadi. Ma'muriy-protsessual munosabatlarning vujudga kelishi uchun esa yana bir huquqiy normaning ko'rinishi – protsessual normalarning mavjud bo'lishi kerak, ya'ni bu munosabatlar – moddiy normalar bilan bir vaqtda protsessual normalar mavjud bo'lganida vujudga kelishi mumkin. Moddiy normaning bo'lmaganligi, ma'muriy-protsessual munosabatlarning predmeti yo'qligini vujudga keltiradi, protsessual normaning bo'lmaganligi esa umuman bunday munosabatlar vujudga kelishini inkor etadi;

b) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan huquqiy normalardan kelib chiqadigan *tartibga solinishi xususiyatiga qarab* farqlanadi. Masalan, protsessual normalar moddiy normalardan farqli ravishda, subyektlar amalga oshiradigan harakatlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan «*dinamik*» munosabatlarni tartibga soladi. Protsessual munosabatlar ishtirokchilarining harakati qonunda belgilangan tartibda va ketma-ketlikda amalga oshiriladi;

d) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan *o'zining ahamiyati bilan* ham farqlanadi. Ma'muriy-protsessual munosabatlarning asosiy vazifasi – bu tegishli moddiy normalar amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir;

e) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan *o'zining tuzilishiga ko'ra* farqlanadi. Ma'muriy-protsessual munosabatlar murakkab tuzilishga ega. Protsessual munosabatlarda bir necha subyektlar ishtirok etib, harakatlarni ketma-ketlikda amalga oshirish orqali munosabat kengayib, riovojlanib boradi hamda o'zining yuridik mazmunini, tarkibini o'zgartiradi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqanda, ma'muriy-protsessual munosabatlarni *asosiy* va *ko'maklashuvchi (yordamchi)* munosabatlarga ajratish mumkin.

Protsessual munosabatlarning ishtirokchilari mazkur munosabatlarda turlicha o'rinni egallaydi va ularning huquqiy maqomi o'zgarib turadi;

f) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan *subyektlar doirasiga qarab* ham farqlanadi. Protsessual munosabatlarning ishtirokchisi sifatida moddiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari, shuningdek, moddiy munosabatlarda ishtirok etmagan boshqa ishtirokchilar ham namoyon bo'lishi mumkin.

Ma'muriy-protsessual munosabatlarni, normalar singari, bir necha asoslarga qarab tasniflash mumkin. Jumladan:

1) ***mazmuniga ko'ra*** ma'muriy-protsessual munosabatlar;

a) *iqtisodiyot va uning turli sohalarida* vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlar;

b) *ijtimoiy-madaniy sohalarda* vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlar;

d) *ma'muriy siyosiy sohalarda* vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlarga bo'linadi.

2) ***ma'muriy ish yuritish turlariga ko'ra*** ma'muriy-protsessual munosabatlar:

a) *ijro hokimiyati organlari tomonidan normativ hujjatlarni qabul qilish* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

b) *davlat boshqaruvi sohasida fuqarolarning va tashkilotlarning murojaatlari* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

d) *ma'muriy huquqiy shikoyatlar va nizolar* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

e) *rag'batlantirish* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

f) *ruxsat berish* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

g) *litsenziya berish* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

h) *ijro etish* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

i) *ma'muriy huquqbuzarlik* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

j) *davlat boshqaruvi sohasida intizomiy ishlar* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar.

3) ***sohaga taalluqliligiga ko'ra*** ma'muriy-protsessual munosabatlar:

a) *ma'muriy-huquqiy moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar;

b) *fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solingan moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar;

d) *mehnat huquqi normalari bilan tartibga solingan moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar;

e) *moliya huquqi normalari bilan tartibga solingan moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar;

f) *oila huquqi normalari bilan tartibga solingan moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar va h.k.lar.

4) ma'muriy-protsessual munosabatlar ***ishtirokchilari huquqlari va majburiyatlarining o'zaro munosabatiga ko'ra***:

a) *gorizontal* munosabatlar — bir-biriga bo'ysunmagan va bitta huquqiy darajadagi subyektlar o'rtasida vujudga keladi. Masalan, biron bir normativ hujjatni tayyorlashda ikki subyekt o'rtasida, kelishuv asosida vujudga keladigan munosabatlar;

b) *vertikal* munosabatlar — bo'ysinuv asosida vujudga keladi. Ma'muriy-protsessual munosabatlarga, moddiy munosabatlar singari, yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab rivojlanishining farqi yo'q;

d) *diagonal* munosabatlar — vertikal munosabatlarga o'xshab ketadi. Lekin undan farqli ravishda, turli organlar tizimiga kiruvchi yuqori va quyi subyektlar o'rtasida vujudga keladi.

*Ma'muriy jarayon ishtirokchilari*ga — individual ishtirokchilarni — fuqarolarni (xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham), ijro hokimiyati organlari va ularning tuzilmaviy bo'linmalarini, jamoat birlashmalarini, davlat xizmatchilarini, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan boshqa shaxslarni (masalan, sud) kiritish mumkin.

Demak, ***ma'muriy protsessual munosabatlar*** — bu ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinadigan, ijro hokimiyati organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi va aniq ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan huquqiy munosabatlardir.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar bir necha asoslarga qarab turli guruhlarga ajratilishi mumkin.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar — aniq subyektlar va boshqa ma'muriy jarayon ishtirokchilari o'rtasida huquqiy aloqalarning vujudga kelishida ifodalanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Huquqiy jarayon tushunchasi.
2. Huquqiy jarayonning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Jarayonlashtirish tushunchasi.
4. Huquqiy jarayon turlari.

5. Protsessual qonunchilikning vazifalari.
6. Ma'muriy jarayon tushunchasi.
7. Ma'muriy jarayonning o'ziga xos xususiyatlari.
8. Ma'muriy-protsessual faoliyat tushunchasi.
9. Ma'muriy ish yuritish tushunchasi.
10. Ma'muriy ish yuritish turlari.
11. Ma'muriy jarayonning umumiy bosqichlari.
12. Ma'muriy-protsessual normalar tushunchasi.
13. Ma'muriy-protsesasual normalarning tasnifi.
14. Ma'muriy-protsessual munosabatlar tushunchasi va xususiyatlari.
15. Ma'muriy-protsesasual munosabatlarning turlari.

24-bob. MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR BO'YICHA ISH YURITISH

1-§. Ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritishning vazifalari, prinsiplari va umumiy qoidalari

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 269-moddasiga binoan, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning ***asosiy vazifalari***ga quyidagilar kiradi:

1) har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'la va obyektiv ravishda aniqlab chiqish;

2) bu ishni qonun hujjatlariga muvofiq holda hal etish;

3) chiqarilgan qarorning ijrosini ta'minlash;

4) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlash;

5) huquqbuzarliklarning oldini olish;

6) fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash;

7) qonuniylikni mustahkamlash.

Har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama va to'la aniqlab chiqish shuni anglatadiki, huquqbuzarlik ishini to'g'ri ko'rib chiqish uchun, zarur bo'lgan barcha holatlarni aniqlash lozim. Bunday holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligini aniqlash;

b) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybdorlik darajasini aniqlash;

d) ma'muriy huquqbuzarlikning ma'muriy javobgarlikni vujudga keltirishini aniqlash;

e) mulkiy zarar keltirilganligini aniqlash;

f) ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarining mavjudligini aniqlash;

g) huquqbuzar to'g'risidagi, shuningdek, ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlarni aniqlash;

h) ishni to'xtatishga olib keladigan holatlarning mavjudligini aniqlash va boshqalar.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha har bir holatni *o'z vaqtida* aniqlash — ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya etishni nazarda tutadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritish mazmuni nafaqat ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama va to'la aniqlab olishni, balki uning ***obyektivligi***ni ham talab qiladi. Bu toifadagi ishlarni ko'rib chiqishning asosiy prinsiplaridan biri — bu obyektivlikdir. Ushbu prinsipdan kelib chiqqan holda, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar barcha holatlarni aniqlashlari shart. Obyektivlik ishga nisbatan adolatsizlik, taxminlarga asoslangan holda javobgarlikka tortilayotgan shaxsning manfaatini ko'zlab guvohlik beradigan holatlarni mensimaslikni istisno etadi. Bundan tashqari, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishning obyektivligi — ushbu jarayon ishtirokchilariga, ularning shikoyatlari va boshqa murojaatlariga nisbatan hurmat bilan qarashni nazarda tutadi.

Amaliyotda ushbu printsipni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi bilan bir qancha kafolatlar o'rnatilgan (masalan, huquqbuzarlik ishlari qayta ko'rib chiqilishi mumkin) ma'lum bir holatlarda ishni ko'rib chiquvchi davlat organi (mansabdor shaxs) — hujjatlarni talab qilib olishi, ekspertiza o'tkazishi, ishni obyektiv hal qilish uchun tekshiruvlar o'tkazishi va boshqa choralarni ko'rishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarliklar ishlarini ***qonun hujjatlariga binoan hal etish*** — ma'muriy faoliyatda qonuniylikni ta'minlashning asosiy qoidalaridan biri hisoblanadi. Mazkur qoidaning mohiyati — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasidan kelib chiqadi, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs, faqatgina qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan asoslarda va tartibda ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha ***chiqarilgan qarorlarni ijro etish*** ham — ish yuritishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Ma'muriy javobgarlikka tortish bo'yicha qarorlarni ijro etmaganlik yoki to'liq ijro etmaganlik, huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning samarasini pasaytiradi, qonuniylik prinsipiga putur yetkazadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishda — ***ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish sabablarini va shart-sharoitlarini aniqlash***, uning ogohlantirish va bartaraf etish funksiyasi hisoblanadi. Ma'muriy-yurisdiksiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi davlat or-

ganlari va mansabdor shaxslar nafaqat huquqbuzarlik sabablarini aniqlashlari, balki ushbu sabab va sharoitlarni bartaraf etish choralarini ham ko'rishlari lozim. O'zR MJtKning 313-moddasiga binoan, ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlaganda, bu sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risidagi taqdimnomani tegishli korxona, muassasa, tashkilot rahbariga kiritadi. Rahbar taqdim kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organga (mansabdor shaxsga) ko'rilgan choralar haqida ma'lum qilishi shart.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritish – O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni, shuningdek, qonuniylikni mustahkamlashni nazarda tutadi.

O'zR MJtKning 270-moddasiga binoan, quyidagi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, ***ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni boshlash mumkin emas, boshlangan ish esa tugatilishi lozim***:

1) ma'muriy huquqbuzarlik hodisasi yoki alomati yo'q bo'lsa;

2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish paytida shaxs o'n olti yoshga to'lmagan bo'lsa;

3) g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan shaxs aqli noraso bo'lsa;

4) shaxs harakatni zaruriy mudofaa holatida yoki oxirgi zarurat holatida qilgan bo'lsa;

5) amnisiya akti chiqishi, agar u ma'muriy jazo chorasini qo'llashni bekor qilsa;

6) ma'muriy javobgarlikni belgilovchi hujjat bekor qilingan bo'lsa;

7) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytiga kelib, qonunda nazarda tutilgan muddatlar o'tib ketgan bo'lsa;

8) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs xususida shu fakt yuzasidan ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida vakolatli organ (mansabdor shaxs) qaror chiqargan bo'lsa yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni tugatish to'g'risida chiqarilgan qaror bekor qilinmagan bo'lsa, shuningdek, mazkur fakt yuzasidan jinoyat to'g'risidagi ish qo'zg'atilgan bo'lsa;

9) shaxs ishi yuritila boshlangan paytda vafot etgan bo'lsa.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish — barcha fuqarolarning jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, irqi, millati, tili, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida va shu ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) oldida ***tengligi*** asosida ko'rib chiqiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish — ***o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda*** yuritiladi. Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan ishtirokchilar tarjimon orqali ish materiallari bilan to'liq tanishish va ishni mohiyati bo'yicha ko'rib chiqish chog'ida qatnashish huquqi, shuningdek, o'z ona tilida so'zlash huquqi bilan ta'minlanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish — ***ochiq ko'riladi***. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishning tarbiyaviy va ogohlantiruvchi rolini oshirish maqsadida, bunday ishlar huquqbuzarning ish, o'qish joyidagi jamoalarida yoki yashash joyida ko'rib chiqilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish chog'ida qonunlarning ijrosi ustidan ***prokuror nazorati*** amalga oshiriladi. Prokuror nazoratni olib borish jarayonida:

a) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atishga;

b) ish materiallari bilan tanishib chiqishga;

d) ish yuritish vaqtida organlar (mansabdor shaxslar)ning harakatlari qonuniyligini tekshirishga;

e) ishni ko'rib chiqishda qatnashishga;

f) ishni ko'rib chiqish vaqtida vujudga kelgan masalalar xususida iltimosini bayon etishga, xulosalar berishga;

g) ma'muriy huquqbuzarliklar uchun tegishli organlar (mansabdor shaxslar) ta'sir ko'rsatish choralarini to'g'ri qo'llaganligini tekshirishga;

h) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qabul qilingan qarorga yoki shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga protest keltirishga;

i) qonunda nazarda tutilgan boshqa harakatlar qilishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning[1] 6-moddasiga binoan, prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o'tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qo-

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001, 9—10-sonlar, 168-m.

nunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, qonunga rioya etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayotgan talablarini bajarish — barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

Dalillar. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishga oid dalillar — har qanday faktik ma'lumotlardan iborat bo'lib, organlar (mansabdor shaxslar) shu ma'lumotlarga asoslanib:

birinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik holati yuz bergan yoki bermaganligini:

ikkinchidan, muayyan shaxsning uni sodir etishda aybdorligini:

uchinchidan, ishni to'g'ri ko'rib chiqish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni qonunda belgilangan tartibda aniqlaydi.

Bu ma'lumotlar quyidagi vositalar bilan belgilanadi:

a) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma;

b) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari;

d) jabrlanuvchi, guvohlarning ko'rsatmalari;

e) ekspert xulosasi;

f) ashyoviy dalillar;

g) ashyo va hujjatlarni olib qo'yish to'g'risida tuzilgan bayonnoma;

h) boshqa materiallar.

Organ (mansabdor shaxs) dalillarga ishning hamma holatlarini har tomonlama, to'la va obyektiv jamlab tekshirishga asoslangan o'zining ichki ishonchi bilan qonunga amal qilgan holda baho beradi.

Qilmishning sodir etilishi faktiga tegishli har bir alohida olingan dalil hamda hosil qilingan barcha aniq ma'lumotlarga baho berilishi shartdir.

Basharti ishni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarlik holatida jinoyat alomatlari bor degan xulosaga kelsa, materiallarni prokurorga topshiradi.

O'zR MJtKning 285-moddasida ***ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni ta'minlash choralari*** ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra boshqa ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanib bo'linganidan keyin ma'muriy huquqbuzarlikni to'xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo'lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida tuzish imkoni bo'lmagan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish, ishlarning o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'-

minlash va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur shaxsni ma-muriy yo'l bilan ushlab turishga, shaxsan ko'rikdan o'tkazishga, uning ashyolari, transport vositalarini ko'zdan kechirishga va ashyo hamda hujjatlarni olib qo'yishga yo'l qo'yiladi. *Qarang, mazkur darslikning 19-bobi, 4–5§lar.*

2-§. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlar (mansabdor shaxslar) va ishlarning taalluqliligi

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 242-moddasiga binoan, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni:

1) tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi, xo'jalik sudlari;

2) shaharcha, qishloq va ovul fuqarolarning o'zini-o'zi bosh-qarish organlari qoshidagi ma'muriy komissiyalar;

3) voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi tuman (shahar) komissiyalari;

4) ichki ishlar (militsiya) organlari (mansabdor shaxslari), dav-lat inspeksiyasi organlari (mansabdor shaxslari) va ushbu Kodeks bilan vakolat berilgan boshqa organlar (mansabdor shaxslar) ko'rib chiqadilar.

Ma'muriy komissiyalar va voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar o'z vakolatlariga kiradigan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni komissiya tarkibi a'zolarining kamida yarmi bo'lganida ko'rib chiqishga hamda kodeksda ko'zda tutilgan ma'muriy jazolarni o'z vakolatlari doirasida qo'llashga va oddiy ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilishga haqlidirlar.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chi-qishga vakolati bo'lgan mansabdor shaxslar kodeksda nazarda tutilgan ma'muriy jazo choralarini o'z vakolatlari doirasida va faqat xizmat burchini bajarib turgan vaqtdagina qo'llashlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 245–268-2-moddalarida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning taalluqliligi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra:

1. ***Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar*** – Kodeksning 40-48, 52, 56-62, 64, 66, 67-moddalarida, 76-moddasida (suv xo'jaligi insho-otlariga zarar yetkazishga oid qismi), 90-moddaning ikkinchi qis-

mida, 94, 99, 100-108, 110, 111-moddalarida, 112-moddasida (transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etishga oid qismi), 119-moddaning ikkinchi qismi, 127-moddaning ikkinchi qismi, 128-moddasining to'rtinchi qismi, 129-moddasining ikkinchi qismi, 130-moddasining ikkinchi qismi, 131-moddasining birinchi, ikkinchi va to'rtinchi qismlari, 132-134-moddalari, 136-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari, 137-moddasida, 142-moddasining ikkinchi qismi, 146-moddasining uchinchi qismi, 148-moddasida (ajratilgan mintaqalarda va yog'och ko'priklardan 100 metrgacha bo'lgan masofada olov yoqish, taxta to'shamali ko'priklarda chekish uchun), 149, 150-moddalari, 151-modda-sining ikkinchi qismi, 152-moddasining ikkinchi va uchinchi qismi, 155, 157-161, 163-moddalari, 164-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 166, 167, 169, 170-moddalari, 173-moddasida, 175-moddasining beshinchi qismi, 175-1, 175-3-moddalarida, 176-moddasining ikkinchi qismi, 177, 179-184, 184-1, 185-186-moddalarida, 187-moddasining ikkinchi qismi, 189-191, 193-200, 200-1, 201, 202, 202-1, 203-210, 216, 217, 218, 219-1-moddalari, 220-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari, 222, 226, 227, 228-moddalari (muhrlar (plombalar) tabiatni muhofaza etishga oid qonun hujjatlari buzilganligi uchun qo'yilgan hollar bundan mustasno), 230-234, 237, 238-240, 241, 241-1-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar. Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar, basharti huquqbuzar huquqbuzarlik faktini inkor etsa, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi boshqa ishlarni ham bevosita ko'rib chiqadilar.

2. ***Xo'jalik sudlari*** — xo'jalik nizolarini hal etish chog'ida ma'muriy huquqbuzarlikni aniqlagan hollarda ushbu Kodeks 175-moddasining uchinchi qismida, 176-1, 180 va 181-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar.

3. ***Adliya organlarining mansabdor shaxslari*** — paxta xaridi bo'yicha kontraktatsiya shartnomalari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektga mulkiy zarar yetkazilganligi fakti aniqlangan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzadilar. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ko'rib chiqish uchun qonunda belgilangan tartibda xo'jalik sudiga yuboriladi.

4. Tuman markazidan olisda va borish qiyin bo'lgan yerdagi shaharcha, qishloq va ovullardagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qoshida tuzilgan ***ma'muriy komissiyalar*** — Kodeks-

ning 56, 60, 64, 65, 69, 102-108, 110, 111-moddalarida, 148-moddasi (ajratilgan mintaqalarda va yog'och ko'priklardan 100 metrgacha bo'lgan masofada olov yoqish, yog'och ko'priklar va taxta to'shamali ko'priklarda chekish uchun), 149, 159, 160, 161, 163, 186-188, 200, 203, 209, 231, 232, 234, 235, 236, 238-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar.

5. ***Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi tuman (shahar) komissiyalari*** – voyaga yetmagan shaxslar tomonidan Kodeksning 194-moddasida nazarda tutilganidan bo'lak sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar. Ushbu Kodeksning 61, 125-138, 183-185, 220, 221-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar mazkur ishlar kelib tushgan organ (mansabdor shaxs) ishni shu komissiyalar qarab chiqishi uchun topshirgan hollardagina ko'rib chiqadilar. Voyaga yetmaganlarning ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarga taalluqli ushbu Kodeksning 47, 188-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ham ko'rib chiqadilar.

6. ***Ichki ishlar organlariga*** – Kodeks 113-moddasining birinchi, ikkinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlari, 114, 115-moddalari, 116-moddasining birinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlari, 121-123, 125-131, 135, 136, 138-142-moddalari (transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish yoki musodara qilish tarzidagi ma'muriy jazo qo'llash belgilangan huquqbuzarliklar bundan mustasno), 144, 145-moddalari, 146-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 147, 156, 161, 183-moddalari, 187-moddasining birinchi qismi, 188-moddasi (voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga taalluqli ishlar bundan mustasno), 192, 204, 205-moddalari, 220-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlari, 221, 223, 224, 225-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquq-buzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar ichki ishlar organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar:

a) tuman, shahar, shahardagi tuman va transportdagi ichki ishlar bo'limlari (boshqarmalar) boshliqlari yoki ularning o'rinbosarlari, shuningdek, ichki ishlar organlari tizimidagi militsiyaning hududiy (transport) bo'linmalari boshliqlari;

b) metropolitenni muhofaza qilish bo'yicha ichki ishlar bo'limining boshlig'i yoki uning o'rinbosarlari;

d) temir yo'l vokzallari va aeroportlardagi bo'linmalarning, ichki ishlar organlarining chet elga chiqish, kelish va fuqarolik bo'limlari (boshqarmalari)ning boshliqlari va ularning o'rinbosarlari;

e) militsiya uchastkasi boshliqlari, militsiyaning uchastka katta inspektorlari va uchastka inspektorlari;

f) davlat avtomobil nazorati bo'linmasi (bo'limi, boshqarmasi) boshlig'i yoki uning o'rinbosari, ma'muriy amaliyot katta inspektori (inspektori), tuman, shahar, shahardagi tuman ichki ishlar bo'limi (boshqarmasi)da Davlat avtomobil nazorati bo'linmasi (bo'limi) bo'lmagan taqdirda — Davlat avtomobil nazorati katta inspektori, u bo'lmagan taqdirda — ichki ishlar bo'limi boshlig'i yoki uning o'rinbosari;

g) yo'l-patrul xizmati komandiri yoki uning o'rinbosari;

h) davlat avtomobil inspektori, yo'l-patrul xizmatining inspektori va yo'l harakati qoidalariga hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga oid boshqa normativlarga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa inspektorlar.

7. ***Davlat yong'indan saqlash nazorati organlariga*** — Kodeksning 84, 124, 211-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar Davlat yong'indan saqlash nazorati organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar:

a) O'zbekiston Respublikasi yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektori va uning o'rinbosarlari;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, obyektlar yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektorlari va O'zbekiston Respublikasi yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektorining katta yordamchilari;

d) O'zbekiston Respublikasi yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektorining yordamchilari;

e) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektorlarining katta yordamchilari;

f) xizmat ko'rsatilayotgan shaharlar, tumanlar va obyektlarning yong'indan saqlash nazorati davlat katta inspektorlari;

g) xizmat ko'rsatilayotgan shaharlar, tumanlar va obyektlarning yong'indan saqlash nazorati davlat inspektorlari.

8.) ***Temir yo'l transporti organlariga*** – Kodeksning 113, 114-moddalarida, shuningdek, 53, 121-124, 142, 144, 145-moddalarida, 146-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (temir yo'l transportida huquqbuzarlik sodir etganlik uchun) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Metropoliten organlariga ushbu Kodeksning 115-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Quyidagilar temir yo'l transporti va metropoliten organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar:

a) stansiya boshlig'i va uning o'rinbosari, vokzal boshlig'i va uning o'rinbosari, lokomotiv (vagon) deposining boshlig'i, yo'lovchilar poezdining boshlig'i (yo'lovchilar poezdining mexanik-brigadiri);

b) yo'lovchilar poezdining nazoratchi-taftishchisi, yo'lovchilar poezdining taftishchi-yo'riqchisi, daromadlarni nazorat qilish bo'yicha taftishchi, yo'l ustasi, yo'l distansiyasi boshlig'i, signalizatsiya va aloqa distansiyasi boshlig'i;

d) harbiylashtirilgan soqchilik boshlig'i va uning o'rinbosari, yong'inning oldini olish bo'yicha otryad (komanda, o't o'chirish poezdi) boshlig'i va uning o'rinbosari, katta yo'riqchi va yo'riqchi, komandaning, o't o'chirish poezdining, harbiylashtirilgan soqchilikning bo'linmasi (qorovul) boshlig'i;

e) bosh sanitariya shifokori (tibbiy-sanitariya xizmati boshlig'ining o'rinbosari), Markaziy sanitariya-epidemiologiya stansiyasining bosh sanitariya shifokori, sanitariya-epidemiologiya stansiyasining bosh sanitariya shifokori.

9. ***Havo transporti organlariga*** – Kodeksning 53, 121, 122, 124, 145-moddalarida, 146-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (havo transportidagi huquqbuzarlik qismi), 116-moddasida (fuqarolar aviatsiyasi organlari qaramog'idagi aerodromlarda yoki ana shunday aerodromlar joylashgan hududda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun), 117-moddasida, 142-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 144-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar havo transporti organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar:

a) Milliy aviakompaniyaning Bosh direktori va uning o'rinbosarlari, aviakompaniya uchish majmuining direktori va uning

o'rinbosari, aeroportda yo'lovchi va yuk tashish xizmati boshlig'i, aviakompaniya Bosh inspeksiyasi boshlig'i, Bosh inspeksiya bo'lim boshliqlari va nazoratchisi, havo kemasi komandiri;

b) Milliy aviakompaniya nazorat-taftish bo'limining boshlig'i va uning o'rinbosari, shu bo'limning taftishchilari, Milliy aviakompaniyaning tibbiy-sanitariya xizmati boshlig'i;

d) aeroportning harbiylashtirilgan soqchilik otryadi va alohida komandasining boshlig'i;

e) fuqarolar aviatsiyasi boshqarmasi (hududiy boshqarmasi) nazorat-taftish bo'limining katta taftishchisi, tijorat taftishchisi, taftishchisi, aviakorxona (aeroport) yo'lovchi va yuk tashishni tashkil etish xizmatining boshlig'i, fuqarolar aviatsiyasi sanitariya-epidemiologiya stansiyasining bosh shifokori, aviakorxona (aeroport) harbiylashtirilgan soqchilik alohida komandasining boshlig'i.

10. ***Suv transporti organlariga*** – Kodeksning 53, 121, 122, 124, 145-moddalarida, 146-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (suv transportidagi huquqbuzarlik uchun), 118, 120-moddalarida, 142-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Port boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, pristan va vokzallarning boshliqlari, port, pristan va vokzallarning navbatchi ma'murlari, port hududlari boshliqlari va shlyuz boshliqlari, kemalarning kapitanlari, ularning yordamchilari va shturmanlari, kema qatnovi inspeksiyalarining katta inspektorlari va inspektorlari, kema taftishchilari, port, pristan joylashgan yerdagi harbiylashtirilgan idoraviy soqchiligining yuqori mansabdor shaxsi (birlashgan otryad boshlig'i, otryad boshlig'i, komandir, yong'indan saqlash yo'riqchisi) suv transporti organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar.

11. ***O'zbekiston Respublikasining Davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiyasi organlari***ga – Kodeksning 119-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiyasining boshqarmasi (bo'limi) boshlig'i va uning o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarning davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiyalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, davlat kichik hajmdagi kemalar inspektorlari Davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiyasi organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar.

12. ***Shahar va shaharlararo yo'lovchilar tashiydigan avtomobil transporti va elektr transporti organlariga*** – Kodeksning 121-124, 142-145-moddalarida, 146-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (shahar, shaharlararo avtomobil transportida va elektr transportida sodir etilgan huquqbuzarliklar qismi) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Shahar va shaharlararo yo'lovchilar tashiydigan avtomobil transporti va elektr transporti nazoratchi-taftishchilari, chipta tekshiruvchilari va tegishli vakolati bo'lgan boshqa xodimlari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar.

13. ***Mehnat bo'yicha davlat huquqiy va texnik inspektorlari*** – Kodeksning 49-51, 229-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasi qo'llashga quyidagilar haqlidirlar:

a) mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun mehnat bo'yicha davlat huquqiy inspektorlari;

b) mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzganlik uchun mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari;

d) mehnat normalari va mehnat shart-sharoitlari qoidalarini buzganlik uchun mehnat shart-sharoitlari davlat ekspertizasi mansabdor shaxslari.

14. ***O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi organlariga*** – Kodeksning 125-moddasida, 128-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 130-moddasida, 131-moddasining ikkinchi qismida, 135, 136, 138-141 moddalarida (transport vositalarining haydovchilari – harbiy xizmatchilar va yig'inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan), 235, 236-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar:

a) tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari boshliqlari va tuman (shahar) muqobil xizmat bo'limlari boshliqlari;

b) harbiy avtomobil inspeksiyasining boshlig'i, katta inspektori, inspektori.

Transport vositalarining haydovchilari - harbiy xizmatchilar va yig'inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar sodir etgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi bayonnomalar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar va-

zirligi bilan birgalikda belgilab qo'yadigan tartibda harbiy avtomobil inspeksiyasiga yuboriladi.

15. ***Davlat sanitariya nazorati organlariga*** – Kodeksning 53, 54, 55-moddalarida, 85-moddasida (atmosfera havosiga yo'l qo'yiladigan eng yuqori normativdan ortiq darajada zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatganlik va atmosfera havosiga biologik organizmlar chiqarib tashlaganlik, shuningdek, maxsus vakolat berilgan davlat organlarining ruxsatisiz atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatganlik va atmosfera havosiga biologik organizmlar chiqarib tashlaganlik uchun, agar bu huquqbuzarliklar sanitariya-gigiena qoidalarini buzish bo'lsa), 86, 88, 89, 95-moddalarida (agar atmosfera havosiga fizikaviy ta'sir ko'rsatilgan bo'lsa va bu huquqbuzarliklar sanitariya-gigiena qoidalarini buzish bo'lsa), 87-moddasida (avtomobillar, samolyotlar, kemalar va boshqa harakatlanuvchi vositalar hamda qurilmalarni ishlatish paytida shovqin darajasi belgilangan normativdan ortib ketganligi uchun), 96-moddasida (sanitariya-ekologik ekspertizasi qismida), 178-moddasida (iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik qismida) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Davlat sanitariya nazorati organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasi qo'llashga quyidagilar haqlidirlar:

a) O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya shifokori va uning o'rinbosarlari;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat sanitariya shifokorlari hamda ularning o'rinbosarlari, tumanlarga bo'lingan shaharlarning bosh davlat sanitariya shifokorlari va suv transportidagi havzalar bosh davlat sanitariya shifokorlari;

d) tumanlarning, tumanlarga bo'linmagan shaharlarning bosh davlat sanitariya shifokorlari hamda suv transportidagi portlar va suv yo'llari uchastkalari bosh davlat sanitariya shifokorlari.

16. ***O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmatining sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi tibbiy xizmatlariga*** – Kodeksning 53, 54, 55-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar (shu jumladan, sanitariya-gigiena qoidalarini va atmosfera havosini muhofaza qilish normalarini buzganlik) to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidirlar:

a) Mudofaa vazirligi bosh sanitariya shifokori – markaziy sanitariya-epidemiologiya laboratoriyasining boshlig'i va uning o'rinbosari;

b) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tibbiyot boshqarmasi bosh sanitariya shifokori va uning o'rinbosari (respublika sanitariya-epidemiologiya stansiyasi boshlig'i), Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tibbiyot bo'limining bosh sanitariya shifokori va uning o'rinbosari (sanitariya-epidemiologiya stansiyasi boshlig'i), viloyatlar, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari tibbiyot bo'limlarining bosh sanitariya shifokorlari va ularning o'rinbosarlari (sanitariya-epidemiologiya stansiyalarining boshliqlari), O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ichki qo'shinlar boshqarmasining bosh sanitariya shifokori va uning o'rinbosarlari (sanitariya-epidemiologiya stansiyasi boshlig'i va katta epidemiolog-shifokor);

d) Milliy xavfsizlik xizmati harbiy-tibbiy xizmat sanitariya-epidemiologiya stansiyasi boshlig'i.

17) ***Davlat veterinariya nazorati organlariga*** – Kodeksning 109-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar davlat veterinariya nazorati organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasi qo'llashga haqlidirlar:

a) O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori va uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar (Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlari) bosh davlat veterinariya inspektorlari, temir yo'l bosh davlat veterinariya inspektori;

b) tumanlar, shaharlarning davlat veterinariya inspektorlari, chegara tekshiruvi veterinariya punktlarining boshliqlari, dezinfeksiya-yuvish stansiyalari va punktlaridagi veterinariya nazorati boshliqlari, uchastka veterinariya shifoxonalarining, veterinariya uchastkalarining, veterinariya-sanitariya uchastkalarining mudirlari, veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalarining mudirlari.

18. ***Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga*** – Kodeksning 55, 70-moddalarida, 71-moddasida (tabiatni muhofaza qilish qoidalari bundan mustasno), 72-moddasida (termal suvlarga doir qismida), 97, 98-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar Davlat inspeksiyasi nomidan ma'muriy huquqbuzarlik

to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasi qo'llashga haqlidir:

a) inspeksiya boshlig'i va uning o'rinbosari;

b) tarmoq inspeksiyalarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari;

d) mintaqaviy konchilik-texnik inspeksiyalarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari;

e) davlat inspektorlari.

19. ***O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlariga*** — Kodeksning 63-moddasida, 65-moddasining ikkinchi qismida (qishloq xo'jaligi yerlarini va boshqa yerlarni yaroqsiz holga keltirganlik bundan mustasno), 68-moddasida (shaharlar va posyolkalarning yerlariga, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarga, suv fondi yerlariga oid qismi), 70-moddasida, 71-moddasida (tabiatni muhofaza qilishga oid qismida), 72-moddasida (termal suvlarga doir qismi bundan mustasno), 73-moddasida, 74-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida, 75-moddasida (irrigatsiya tarmoqlaridan olinadigan suvlarni hisobga olish bundan mustasno, shuningdek, davlat suv kadastrini yuritishning belgilangan tartibini buzganlik uchun), 77—84-moddalarida, 85-moddasida (sanitariya-gigiena qoidalarini buzish deb hisoblanuvchi atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish, biologik organizmlarni atmosfera havosiga chiqarib tashlash bundan mustasno), 86—89-moddalarida (atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish bundan mustasno), 89—1-moddasida, 90-moddasining birinchi qismida, 91—93, 95-moddalarida, 96-moddasida (davlat ekologiya ekspertizasi qismida), 148-moddasida (ajratilgan mintaqalarda va yog'och ko'priklardan 100 metrgacha bo'lgan masofada olov yoqqanlik, yog'och ko'priklar va taxta to'shamali ko'priklarda chekkanlik uchun ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bundan mustasno), 162-moddasida, 178-moddasida (iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik qismida), 214-moddasida (tabiatni muhofaza qilishga oid qismida), 228-moddasida (tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganda muhrlar (plombalar) qo'yilgan hollar) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidirlar:

a) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining bosh davlat inspektorlari, ularning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, viloyatlar, Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitalarining bosh davlat inspektorlari, ularning o'rinbosarlari;

b) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, viloyatlar, Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitalarining katta davlat inspektorlari, tumanlararo, tumanlar, shaharlar inspeksiyasining boshliqlari;

d) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, viloyatlar, Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitalarining davlat inspektorlari, davlat qo'riqxonalari va davlat milliy tabiat bog'larining muhofaza qilish xodimlari.

20. ***Bojxona organlariga*** — Kodeksning 227-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Bojxona boshliqlari va ularning o'rinbosarlari bojxona organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini qo'llashga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinayotgan va saqlanayotgan aktsiz markasi qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotni musodara qilishga haqlidirlar.

21. ***O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tizimining davlat aloqa inspeksiyasi organlariga*** — Kodeksning 151-moddasining birinchi qismida, 152-moddasining birinchi qismida, 153, 154, 156-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining Davlat aloqa inspeksiyasi boshlig'i, shuningdek, O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi Davlat aloqa inspeksiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo'linmalari boshliqlari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidir.

22. ***Davlat soliq organlariga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalariga*** — Kodeks 164-birinchi va to'rtinchi qismlarida, 168, 171-moddalarida, 172, 174-moddalarida, 175-moddasining birinchi, ikkinchi,

uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 175-4-moddasida, 176-moddasining birinchi qismida, 176-2, 179-1-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Davlat soliq organlarining boshliqlari, ularning o'rinbosarlari hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig'i, uning o'rinbosari, Departament hududiy boshqarmalarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, tuman va shahar bo'limlarining boshliqlari ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralarini qo'llashga haqlidirlar.

23. ***O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi organlariga*** – Kodeksning 175-1-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi boshlig'i, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalarining boshliqlari hamda ularning o'rinbosarlari Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidirlar.

24. ***Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi qoidalarga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarga*** – Kodeksning 178-moddasida (iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga oid qismi), 212, 213-moddalarida, 214-moddasida (tabiatni muhofaza qilishga doir qismi bundan mustasno) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi qoidalarga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidirlar:

a) standartlar va o'lchov vositalari ustidan nazorat qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat inspektori, Qoraqalpog'iston Respublikasi bosh davlat inspektori, viloyatlar, Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari va ularning o'rinbosarlari;

b) standartlar va o'lchov vositalari ustidan nazorat qiluvchi davlat inspektorlari.

25. ***Qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasi organlariga*** – Kodeksning 112-moddasida, 139-moddasida (qishloq xo'jalik tex-

nikasiga taalluqli qismi) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasining boshlig'i va uning o'rinbosari, bosh va yetakchi mutaxassislari, viloyatlar inspeksiyalarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, tuman inspeksiyalarining boshliqlari qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasi organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini (boshqarish huquqidan mahrum qilish bundan mustasno) qo'llashga haqlidirlar.

26. ***O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining organlariga*** – Kodeksning 65-moddasida (yerlarni ishlab chiqarish va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan ifloslantirganlik bundan mustasno), 68-moddasida (shaharlar va posyolkalarning yerlari, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, suv fondi yerlari bundan mustasno), 69-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga quyidagilar haqlidirlar:

a) O'zbekiston Respublikasi yerlardan foydalanish va ularning muhofaza etilishini nazorat qilish bo'yicha bosh davlat inspektori va uning o'rinbosarlari;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlari yerlardan foydalanish va ularning muhofaza etilishini nazorat qilish bo'yicha davlat inspektorlari.

27. ***«O'zsuvnazorat» Respublika suv inspeksiyasi organlariga*** – Kodeksning 74-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida, 75-moddasida (irrigatsiya tarmoqlaridan olinadigan suv miqdorini hisobga olish, shuningdek, davlat suv kadastri yuritishning belgilangan tartibini buzishga oid qismi), 76-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar qishloq va suv xo'jaligi vazirligining «O'zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasi organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidirlar:

a) «O'zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasining boshlig'i va uning o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar suv inspeksiyalarining boshliqlari, suv inspeksiyalarining katta inspektorlari;

b) suv inspeksiyalarning tuman inspektorlari.

28. ***Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish davlat markazi organlariga*** — Kodeksning 104-1-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan organlar nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidirlar:

a) qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori;

b) qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat markazi inspektorlari, qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish bo'yicha viloyatlar davlat inspektorlari;

d) qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish bo'yicha tumanlar inspektorlari.

29. ***O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi organlariga*** — Kodeksning 215-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining raisi va uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, tumanlar, shaharlar statistika bo'limlarining boshliqlari ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan organlar nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidir.

30. ***Bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organlariga*** — Kodeksning 215—1-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Quyidagilar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan organlar nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidirlar:

a) iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi raisi va uning o'rinbosarlari;

b) iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi hududiy boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari.

31. ***O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qo'mitasining davlat probir palatasi organlariga*** – Kodeksning 219-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qo'mitasi davlat probir palatasining boshlig'i davlat probir palatasi organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidir.

32. ***Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish organlariga*** – Kodeksning 178, va 178-1-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga quyidagilar haqlidirlar:

a) monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasining raisi va uning o'rinbosarlari;

b) monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish hududiy organlarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari.

33. ***Arxitektura va qurilish organlariga*** – Kodeksning 178-moddasida (iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga oid qismi) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga quyidagilar haqlidirlar:

a) O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining raisi va uning o'rinbosarlari;

b) arxitektura va qurilish hududiy organlarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari.

3-§. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi bayonnoma vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 280-moddasiga binoan, buzilishi ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish qonun hujjati bilan zimmasiga yuklatilgan tegishli organning vakolatli mansabdor shaxsi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani tuzadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomada: shu bayonnoma tuzilgan sana va joy, bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi: huquqbuzarning shaxsiga oid ma'lumotlar: ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va bu huquqbuzarlikning mohiyati, ana shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat: agar guvohlar va jabrlanuvchilar bo'lsa, ularning familiyalari va yashash manzillari: huquqbuzarning tushuntirishi: ishni hal qilish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi. Basharti huquqbuzarlik tufayli moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa, bu ham bayonnomada ko'rsatiladi.

Bayonnoma uni tuzgan shaxs va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan imzolanadi: guvohlar va jabrlanuvchilar bo'lgan taqdirda esa — bayonnoma mazkur shaxslar tomonidan ham imzolanadi.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga bu haqda yozib qo'yiladi. huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomaning mazmuni yuzasidan bayonnomaga ilova qilinadigan tushuntirish va mulohazalarini berishga, shuningdek, mazkur bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish sabablarini bayon yetishga haqlidir.

Bayonnomani tuzish vaqtida huquqbuzarga uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu xususda bayonnomaga yozib qo'yiladi.

Bayonnoma boshqa hujjatlar va ish bo'yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuboriladi.

Basharti fuqaro o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmasa va unga joyning o'zida solinadigan jarimaning miqdori eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan oshmasa, yo'l harakati qoidalarini buzganlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan esa bir qismidan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga hollarda bayonnoma tuzilmaydi. Jarima to'laganligi to'g'risida aybdorga belgilangan shakldagi kvitansiya beriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish maqsadida, basharti bayonnoma tuzish zarur bo'lib, uni huquqbuzarlik qilingan joyda tuzish mumkin bo'lmasa, huquqbuzar militsiya xodimi yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzishga vakolatli boshqa shaxs tomonidan militsiyaga yoxud fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi binosiga ushlab keltirilishi mumkin.

Transport vositalaridan foydalanish, harakat tartibi va xavfsizligini saqlash, transportda yuklarni but saqlashni ta'minlash borasidagi qoidalar, transportda yong'indan saqlash qoidalari, sanitariya-gigiena va epidemiyaga qarshi kurash-sanitariya qoidalari buzilgan taqdirda huquqbuzar, agar unda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar va u haqda zarur ma'lumotlar berishi mumkin bo'lgan guvohlar bo'lmasa, vakolatli shaxs tomonidan militsiyaga ushlab keltirilishi mumkin.

O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganda bayonnoma tuzish maqsadida, basharti huquqbuzarning shaxsini huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida aniqlash mumkin bo'lmasa, o'simlik va hayvonot dunyosini asrash va undan foydalanish ustidan nazorat olib boruvchi organlarning xodimlari, alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarning mansabdor shaxslari, shuningdek, militsiya xodimlari shunday huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni militsiyaga yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi binosiga ushlab keltirishlari mumkin. Huquqbuzar tabiatni muhofaza qilish jamoatchi inspektorlari, ovchilik jamoatchi inspektorlari, baliqlarni muhofaza qilish jamoatchi inspektorlari va o'rmonlarning jamoatchi inspektorlari tomonidan ham ushlab keltirilishi mumkin.

Yuridik shaxslarning qo'riqlanadigan obyektlariga, boshqa xil mol-mulkiga tajovuz qilish bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda huquqbuzar harbiylashtirilgan soqchilik xodimlari tomonidan huquqbuzarlik harakatiga barham berish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash va huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish uchun harbiylashtirilgan soqchilik xizmati binosiga yoki militsiyaga ushlab keltirilishi mumkin.

Huquqbuzarni olib kelish iloji boricha qisqa muddatda amalga oshirilishi lozim.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi binosiga olib kelingan shaxs bu yerda bir soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emas.

4-§. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishda — ma'muriy javobgarlikki tortilayotgan shaxs, jabrlanuvchi, qonuniy vakillar, advokat, guvoh, ekspert, tarjimon va boshqalar ishtirok etadi.

Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs — ish materiallari bilan tanishib chiqishga, izohlar berishga, dalillar keltirishga, o'z iltimosini bayon etishga, ishni ko'rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga, o'z ona tilida so'zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko'rib chiqiladi. Mazkur shaxsga ishni ko'rib chiqish joyi va vaqti haqida xabar qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lgan va undan ishni ko'rib chiqishni kechiktirish xususida hech qanday iltimos tushmagan hollardagina ish uning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin.

Basharti sodir etgan huquqbuzarligi uchun ushbu kodeksda ma'muriy qamoqqa olish, ashyolarini musodara qilish yoki haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish choralarini qo'llash nazarda tutilgan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vaqtida ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning qatnashishi shart. Mazkur shaxs bunday ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda qatnashishdan bo'yin tovlagani taqdirda u ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning ajrimiga binoan ichki ishlar (militsiya) organi tomonidan majburan olib kelinishi mumkin. Eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulot O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilishi bilan bog'liq bo'lib, musodara chorasi qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish bojxona organi tomonidan alohida hollarda, agar ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lsa yoki uning qayerdaligini aniqlashning iloji bo'lmasa, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik yo'li bilan ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxs — ***jabrlanuvchi*** deb topiladi. Jabrlanuvchi ishga oid hamma materiallar bilan tanishib chiqishga, ko'rsatmalar berishga, dalillar keltirishga, iltimoslar qilishga, ishni ko'rib chiqish paytida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga, o'z ona tilida so'zlashga va tarjimon xizmatidan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Voyaga yetmagan yoki o'zining jismoniy nuqsonlari yoxud ruhiy kasalliklari sababli ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar yuzasidan o'z huquqini o'zi amalga oshirolmaydigan — ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning yoki jabrlanuvchining

manfaatlarini ular uchun mazkur shaxslarning ***qonuniy vakillari*** (ota-onalari, er yoki xotinlari, voyaga yetgan bolalari, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar) ifodalashga haqlidirlar. Qonuniy vakillar ish materiallari bilan tanishishga va manfaatlarini o'zlari ifoda etayotgan shaxs nomidan iltimoslar qilishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidirlar.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda shu huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni ushlab turish paytidan boshlab ***advokat*** qatnashishi mumkin. Advokat ishga oid materiallar bilan tanishib chiqishga, uni taklif qilgan shaxsning topshirig'iga binoan va uning nomidan iltimoslar qilishga va ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha aniqlanishi kerak bo'lgan biron bir holatdan voqif bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday shaxs shu ish yuzasidan ***guvoh*** sifatida chaqirilishi mumkin. Ishni yuritayotgan organning (mansabdor shaxsning) chaqiruviga binoan guvoh ko'rsatilgan vaqtda kelishi, haqqoniy ko'rsatuvlar berishi, shu ish xususida o'ziga ma'lum bo'lgan hamma narsalarni aytib berishi va qo'yilgan savollarga javob berishi shart.

Ekspert – ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan maxsus tushunchaga ega bo'lish zarurati tug'ilgan hollarda tayinlanadi. Ekspert ishni yuritayotgan organning (mansabdor shaxsning) chaqirig'i bo'yicha kelishi va o'z oldiga qo'yilgan savollar yuzasidan xolis xulosalar berishi shart. Ekspert ekspertiza predmetiga oid ish materiallari bilan tanishib chiqishga, xulosa berish uchun iltimoslar qilishga, javobgarlikka tortilayotgan shaxsga, jabrlanuvchiga, guvohlarga ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organning (mansabdor shaxsning) ruxsati bilan ekspertiza predmetiga oid bo'lgan savollarni berishga, ishni ko'rib chiqish vaqtida qatnashishga haqlidir.

Tarjimon – ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan tayinlanadi. Tarjimon mazkur organning (mansabdor shaxsning) chaqirig'iga binoan kelishi, o'ziga topshirilgan tarjimani to'la-to'kis hamda aniq bajarishi shart.

O'zR MJtKning 301-moddasiga binoan jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va tarjimonlar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organ (mansabdor shaxs) huzuriga kelishlari munosabati bilan ularning qilgan *xarajatlari* belgilangan tartibda qoplanadi.

Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va tarjimonlar sifatida chaqirilgan shaxslarning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organ (mansabdor shaxs) huzuriga kelishlari munosabati bilan ular ishda bo'lmagan vaqtda o'z ish joyidagi maoshi belgilangan tartibda saqlanadi.

Ekspert va tarjimon xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan hollardan tashqari, o'zining vazifalarini bajarganligi uchun mukofotlanish huquqiga egadir.

Ma'muriy javobgarlikka qonunga xilof ravishda tortilganlik natijasida fuqaroga yetkazilgan zarar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqqan organning (mansabdor shaxsning) aybidan qat'i nazar davlat tomonidan to'liq hajmda to'lanadi.

Zararni qoplash huquqi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish tugatilgan taqdirdagina vujudga keladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organ (mansabdor shaxs) fuqaroga buzilgan huquqlarini tiklash tartibini tushuntirib berishi va ma'muriy javobgarlikka qonunga xilof ravishda tortilganligi natijasida fuqaroga yetkazilgan zararni qoplash uchun qonunda nazarda tutilgan choralarni ko'rishi shart.

5-§. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish – ishni ko'rib chiqishga tayyorlashdan boshlanadi. Ishni ko'rib chiqish vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs):

1) mazkur ishni ko'rib chiqish o'zining vakolat doirasiga kirish-kirmasligi;

2) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligi;

3) ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi shaxslar uni ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida xabardor qilingan-qilinmaganligi;

4) zarur qo'shimcha materiallar so'rab olingan-olinmaganligi;

5) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs, jabrlanuvchi, qonuniy vakillar, advokat qilgan iltimoslar to'g'risidagi masalalarni hal etadi.

Aksariyat holatlarda, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish shu ***huquqbuzarlik sodir etilgan joyda*** ko'rib chiqiladi.

Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni huquqbuzarning istiqomat joyida ko'rib chiqadilar.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish boshqa joyda ko'rib chiqilishi ham nazarda tutilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish mazkur ishni ko'rib chiqishga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma va ishga oid boshqa materiallar olingan kundan boshlab ***o'n besh kunlik muddat ichida*** ko'rib chiqiladi.

Ishni ko'rib chiqish shu ishni ko'ruvchi organning tarkibini e'lon qilish yoki mansabdor shaxsni tanishtirishdan boshlanadi.

Ishni ko'rib chiquvchi organning majlisida raislik qiluvchi yoki ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxs qanday ish ko'rib chiqilishi lozimligini, ma'muriy javobgarlikka kim tortilayotganligini e'lon qiladi, ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi shaxslarga ularning huquqlari va vazifalarini tushuntiradi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani o'qib eshittiradi. Majlisda ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi shaxslarning so'zlari eshitiladi, keltirilgan dalillar o'rganiladi va tushgan iltimoslar hal etiladi. Ishni ko'rib chiqishda prokuror qatnashgan taqdirda uning xulosasi o'qib eshittiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs):

a) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan-etilmaganligini;

b) huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyni;

d) mazkur shaxs uni sodir etishda aybdor-aybdor emasligini;

e) uning ma'muriy javobgarlikka tortilish-tortilmasligini;

f) javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar bor-yo'qligini;

g) mulkiy zarar yetkazilgan-yetkazilmaganligini;

i) ishni to'g'ri hal etishda ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashi shart.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytida tegishli organ ***bayonnoma*** yuritadi. Unda:

1) majlis bo'lgan sana va joy;

2) ishni ko'rib chiquvchi organning nomi va tarkibi;

3) ko'rilayotgan ishning mazmuni;

4) ishda qatnashuvchi shaxslarning hozir bo'lgan-bo'lmaganligi haqidagi ma'lumotlar;

5) ishni ko'rishda qatnashuvchi shaxslarning tushuntirishlari, ularning iltimoslari va bu iltimoslarni ko'rib chiqish natijalari;

6) ishni ko'rib chiqish paytida o'rganilgan hujjatlar va ashyoviy dalillar;

7) qabul qilingan qarorni o'qib eshittirish to'g'risidagi ma'lumotlar va qaror ustidan shikoyat berish tartibi va muddatlari tushuntirilganligi ko'rsatilgan bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning, jabrlanuvchining va o'zga manfaatdor shaxslarning iltimosiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishning mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi qanday borayotganligi belgilangan talablarga muvofiq ravishda yuritiluvchi bayonnomada aks ettiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish bayonnomasi tegishincha organ majlisidagi raislik qiluvchi va kotib tomonidan yoki ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi.

Organ (mansabdor shaxs) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqib, shu ish yuzasidan ***qaror chiqaradi.***

Qarorda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

a) qaror chiqargan organning (mansabdor shaxsning) nomi;

b) ish ko'rib chiqilgan sana;

d) ishi ko'rib chiqilayotgan shaxs xususidagi ma'lumotlar;

e) ishni ko'rib chiqish paytida aniqlangan holatlarning bayoni;

f) mazkur ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat;

g) ish yuzasidan qabul qilingan qaror.

Basharti ma'muriy huquqbuzarlik uchun organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ma'muriy jazoni qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish paytida aybdordan yetkazilgan mulkiy zararni undirib olish masalasi ham hal etiladigan bo'lsa, ish yuzasidan chiqarilgan qarorda undirib olinishi lozim bo'lgan shu zararning miqdori, uni undirib olish muddati va tartibi ko'rsatiladi.

Ish yuzasidan chiqarilgan qarorda olib qo'yilgan ashyolar va hujjatlar, shuningdek, ushlab turilgan transport vositalari to'g'risidagi masala ham hal etilgan bo'lishi lozim.

Qaror majlisda ishtirok etayotgan kollegial organ a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror mansabdor shaxs tomonidan, organning qarori — majlisda raislik qiluvchi va kotib tomonidan imzolanadi.

Jazo qo'llash to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ma'muriy huquqbuzarlik haqidagi bayonnomaga tegishli yozuv yozib qo'yiladi.

Organ (mansabdor shaxs) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqib, ***quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi***:

1) ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida;

2) ishni yuritishni tugatish to'g'risida.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ishni ko'rib chiqish tugashi bilanoq darhol e'lon qilinadi.

Qarorning nusxasi uch kun ichida ustidan shu qaror chiqarilgan shaxsga, shuningdek, o'zining iltimosiga ko'ra jabrlanuvchiga topshiriladi yoki jo'natiladi.

Qarorning nusxasi tilxat bilan beriladi, basharti qarorning nusxasi jo'natilsa, bu haqda ishga tegishli yozuv yozib qo'yiladi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash haqida chiqarilgan qarorni shu huquqbuzar ishlab yoki o'qib turgan joydagi ma'muriyat e'tiboriga yetkazadi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) qabul qilingan qaror to'g'risida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzgan mansabdor shaxsning e'tiboriga yetkazadi.

6-§. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 314-moddasiga binoan, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida ustidan shu qaror chiqarilgan shaxs, jabrlanuvchi, shuningdek, ularning qonuniy vakillari va advokat tomonidan ***shikoyat berilishi*** mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) yoki ma'muriy ishlar bo'yicha tuman (shahar) sudyasiga, sudyaning ma'muriy ishlar bo'yicha qarori ustidan esa — tuman (shahar) sudi raisiga yoki yuqori turuvchi sudga shikoyat berilishi mumkin. Xo'jalik sudining ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori ustidan O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik-protsessual kodeksida belgilangan tartibda shikoyat qilinadi.

Shikoyat ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qaror qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) orqali yoki bevosita shikoyat yo'llangan sudga yuboriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs) shikoyatni olgach, uni uch sutka ichida ish bilan birga ushbu moddaga muvofiq shikoyatni ko'rib

chiqish huquqiga ega bo'lgan organga (mansabdor shaxsga) yuboradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat bergan shaxs *davlat boji to'lashdan ozod etiladi.*

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shu qarorning nusxasini olgan kundan boshlab ***o'n kun*** ichida shikoyat berilishi mumkin. Mazkur muddat uzrli sabablar bilan o'tkazilib yuborilgan taqdirda, bu muddat shikoyatni ko'rib chiqishga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Prokuror ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan:

1) tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi qarori ustidan — tuman (shahar) sudi raisiga yoki yuqori turuvchi sudga;

2) boshqa organ (mansabdor shaxs) qarori ustidan — qaror chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) protest bildirishi mumkin.

Xo'jalik sudining ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori ustidan O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik-protsessual kodeksida belgilangan tartibda protest keltiriladi.

Belgilangan muddatda shikoyat berish ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorning ijrosini shikoyat ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib turadi, ma'muriy qamoq jazosi qo'llash to'g'risidagi qaror va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda undirib olinadigan jarima solish hollari bundan mustasnodir.

Prokurorning protest bildirishi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qabul qilingan qaror ijrosini protest ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib turadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususidagi berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni vakolatli organlar (mansabdor shaxslar), shikoyat va protest tushgan kundan boshlab ***o'n kun*** muddat ichida ko'rib chiqadilar.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) chiqarilgan qarorning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshiradi.

Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest bo'yicha ish ***kassatsiya instansiyasi*** sudyasi tomonidan sud raisi topshirig'iga binoan ko'rib chiqiladi.

Kassatsiya instansiyasi sudi sudyasining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest bo'yicha hal qiluv qarori qaror shaklida chiqariladi va chiqarilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) quyidagi ***hal qiluv qarorlari***dan birini qabul qiladi:

1) chiqarilgan qarorni o'zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldiradi;

2) chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni qayta ko'rib chiqish uchun yuboradi;

3) chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni yuritishni to'xtatadi;

4) jazo chorasini kuchaytirmagan holda uni ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normativ hujjatda nazarda tutilgan doirada o'zgartiradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qarorni bekor qilish yoki o'zgartirish uchun:

a) organ (mansabdor shaxs) tomonidan ishni to'liq bo'lmagan holda yoki bir tomonlama ko'rib chiqilishi;

b) organ (mansabdor shaxs) hal qiluv qarorining hamda O'zR MJtK maxsus qismining qo'llanilgan normalari va ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan boshqa normativ hujjatlar ishning faktik holatlariga mos kelmasligi;

d) ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish qoidalarining jiddiy buzilishi: qo'llanilgan ma'muriy jazoning adolatsizligi asos bo'lib hisoblanadi.

Mazkur ishni ko'rib chiqishga vakolati bo'lmagan organ (mansabdor shaxs) tomonidan chiqarilgan qaror bekor qilinadi, ish esa vakolatli organga (mansabdor shaxsga) ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror yuzasidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest bo'yicha qabul qilingan ***hal qiluv qarorida***:

a) u chiqarilgan vaqt va joy: shikoyat yoki protestni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxs;

b) prokuror va boshqa ishtirok etayotgan shaxslar;

d) shikoyat bergan shaxs yoki protest bildirgan prokuror;

e) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan qarorning hamda shikoyat, protestning mohiyati;

f) chiqarilayotgan qarorni asoslanishi;

g) shikoyat yoki protest yuzasidan qaror ko'rsatilishi lozim.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestga doir hal qiluv qarorining nusxasi o'zi haqida ana shu qaror chiqarilgan shaxsga ***uch kun*** muddat ichida yuboriladi, jabrlanuvchiga esa — uning iltimosiga binoan yuboriladi. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida prokurorga ma'lum qilinadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan berilgan shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga prokuror protest bildirishi mumkin.

Shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga protest mazkur qarorni chiqargan organdan (mansabdor shaxsdan) yuqori turuvchi organga kiritiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishni tugatish bilan qarorni bekor qilish undirib olingan pul summalarini, haqi to'lab olib qo'yilgan va musodara qilingan narsalarni qaytarib berishga, shuningdek, ilgari qabul qilingan qaror bilan bog'liq boshqa cheklashlarni bekor qilishga sabab bo'ladi. Narsani qaytarib berish mumkin bo'lmagan hollarda uning qiymati, basharti bu narsalar tadbirkorlik uchun mo'ljallangan bo'lsa, boy berilgan foydasi ham qoplanadi.

Fuqaroni ma'muriy qamoqqa olish g'ayriqonuniy ravishda qo'llanilganligi natijasida yetkazilgan zarar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

7-§. Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorni korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar ijro etishi majburiydir.

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror, basharti ushbu Kodeksda va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlarida o'zgacha qoida belgilanmagan bo'lsa, chiqarilgan paytdan boshlab ijro etilishi lozim.

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorga shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda bu qaror berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest qanoatlantirishsiz qoldirilgandan keyin ijro etilishi kerak. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida undirib olinadigan jarima solish to'g'risidagi qaror bundan mustasnodir.

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror uni chiqargan organ (mansabdor shaxs) tomonidan ijro etishga qaratiladi.

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ijro etiladi.

Bir shaxsga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida bir necha qaror chiqarilgan hollarda ularning har biri mustaqil ravishda ijro etiladi.

Ma'muriy qamoqqa olish yoki jarima solish (joyning o'zida undirib olinadigan jarima solish bundan mustasno) tarzida ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorni darhol ijro etishga imkon bermaydigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, shu qarorni chiqargan organ (mansabdor shaxs) uning ijrosini bir oygacha muddatga kechiktirishi mumkin.

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs):

1) amnistiya akti e'lon qilinib, u ma'muriy jazo chorasini qo'llashni yo'q qilsa;

2) ma'muriy javobgarlikni belgilovchi normativ hujjat bekor qilingan bo'lsa;

3) ustidan qaror chiqarilgan shaxs vafot etgan bo'lsa, uning ijrosini tugatadi.

Basharti ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror chiqarilgan kundan boshlab ***uch oy davomida*** ijro etishga qaratilmagan bo'lsa, u holda bunday qaror ijro etilmaydi.

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorning ijrosi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni shu qarorni chiqargan organ (mansabdor shaxs) hal etadi.

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorning to'g'ri va o'z vaqtida ijro etilishini nazorat qilish shu qarorni chiqargan organ (mansabdor shaxs) zimmasiga yuklatiladi.

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish, *mazkur darslikning 22-bobi 2–6-§larda batafsil yoritib berilgan.*

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning asosiy vazifalari.
2. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni boshlash mumkin bo'lmagan holatlar.

3. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning prinsiplari.

4. Prokuror nazorati.

5. Dalillar.

6. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni ta'minlash choralari.

7. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan organlar (mansabdor shaxslar).

8. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarning taalluqliligi.

9. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma.

10. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar.

11. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish.

12. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish.

13. Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish.

YETTINCHI BO'LIM

DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIK VA INTIZOMNI TA'MINLASH

25-bob. DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIK VA INTIZOMNI TA'MINLASH TARTIBI

1-§. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizom tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'z taraqqiyot yo'lini erkin belgilash imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning ko'rsatishicha: «Biz uchun mustaqillik – o'z erkinligimizni anglashgina emas, balki avvalo, o'z hayotimizni, o'z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish yo'lidir».[1]

O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning xalqi manfaatlariga mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir. Bozorga o'tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning roli jiddiy o'zgaradi. Bozor iqtisodiyotining o'zini-o'zi tartibga soluvchi mexanizmlari tobora katta rol o'ynaydi.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, suveren davlatchilikka erishish, yangi iqtisodiy negizning shakllanishi, xalqning ijtimoiy va ma'naviy jihatdan uyg'onishi sobitqadam va astoydil harakat qilish yo'li bilan g'oyat katta qiyinchiliklarni yengib o'tish orqali amalga oshiriladi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlagan, yangi jamiyat barpo etish borasida o'z andozasini ishlab chiqqan. Bunda ilk asos vazifasini kishilarning o'z qadriyatlari tizimi va aniq maqsadni ko'zlab tutilgan yo'l, milliy an'analar va tarixiy shart-sharoit, real ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhit, odamlarning tarkib topgan turmush tarzi va dunyoqarashi o'tagan.

---

[1] I.A.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1997-y.

Demokratik prinsiplarga asoslangan erkin bozor munosabatlariga o'tish – izchil tarzda eskicha tartiblarga barham berish, uning o'rniga yangi bozor tartiblarini asta-sekin joriy eta borish, iqtisodda, siyosatda, madaniy-ma'naviy hayotda tub islohotlarni amalga oshirish yo'li bilan jamiyatni yangilash orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqurroq idrok etish, ularning hayotiy zarurligini aniq-ravshan anglab yetish lozim.

Mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda tub o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan, qonunchilik bazasini shakllantirishga kirishdi hamda u asosda o'zining davlat tuzilishini qura boshladi. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni bo'lgan – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va uning asosida ishlab chiqilgan qonunlarning ustunligi o'rnatildi. Mazkur konstitutsiyaviy normadan kelib chiqqan holda, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar amaldagi qonunchilikka og'ishmay rioya qilishlari lozim. Aks holda, jamiyat va davlat, oxir oqibat fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida davlat faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tuzilmasi, ularning huquqiy holati, o'zaro munosabatlari qayta ko'rib chiqilib, zamon talablari darajasida tashkil etilmoqda.

Jamiyatning rivojlanishi bilan turli xildagi yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kelib, ularni huquqiy tartibga solish muammosi vujudga keladi. Bu jarayonda davlat organlarining tutgan o'rni kattadir.

Davlat oldida turgan asosiy vazifalardan biri sifatida – davlat organlarining, ularda mehnat qiluvchi xizmatchilarning faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalasi vujudga keldi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ko'rsatib o'tganlaridek: «Yangi sharoitda davlatning, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining g'oyat muhim vazifasi siyosiy partiyalar, nodavlat, ijtimoiy strukturalar, fuqarolik jamiyatining endigina paydo bo'lib kelayotgan xilma-xil institutlari bilan ishlash va hamkorlik qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topishdan iboratdir.

Butun davlat hokimiyati organlari ishining samaradorligini saqlab qolgan holda hokimiyat vakolatlarining markaz ixtiyoridan

soqit qilish, bu vakolatlarning bir qismini markazdan mintaqalarga, mahalliy hokimiyat organlariga olib berish yo'llarini izlab topish zaruratga aylanib bormoqda».[1]

Davlat organlarining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarining samarali amalga oshirilishi, ko'p jihatdan, ularning faoliyatida qonuniylik va intizomning ta'minlanganligiga yoki unga qay darajada rioya etilayotganligiga bog'liqdir.

Qonuniylik deganda — davlat organlari faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi tushuniladi. Intizom deganda esa davlat organlari faoliyatida o'rnatilgan tartibga rioya qilinishini ta'minlash tushuniladi.

Davlat organlari o'zlarining faoliyatlarini Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib, ularni ro'yobga chiqarish maqsadida amalga oshiradilar.

Qonuniylik — demokratik huquqiy jamiyat mavjud bo'lishi va rivojlanishining asosiy belgisidir. U — fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, demokratik institutlarni, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va amalga oshirishni, davlat apparatini qurish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun zarurdir.

Qonuniylik — davlat mexanizmining barcha elementlari (davlat organlari, davlat tashkilotlari, davlat xizmatchilari), fuqarolik jamiyati (jamoat, diniy va boshqa birlashmalar), shuningdek, fuqarolar uchun majburiydir.

Yuridik adabiyotlardá ko'rsatib o'tilishicha, *qonuniylik* — bu davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar tomonidan qonunlarga va ularga asoslangan boshqa huquqiy aktlarga qat'iy rioya qilish (ijro etish) hisoblanadi.

Qonuniylik deganda, Q.T.Xolmo'minov fikricha, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari hamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amaldagi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarning aniq va og'ishmay bajarilishidir. Qonuniylikning asosiy vazifasi — mamlakatning ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun mulkning turli shakllariga yo'l ochish va ularni qo'riqlash, fuqarolarning huquqlari, ekrinliklari va burchlarini mustahkamlashdir.[2]

---

[1] I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: «O'zbekiston», 1997-y.

[2] Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun / Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U.: / Mas'ul muharrir: X.B.Boboyev, H.T.Odilqoriyev / — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000-y. 375–376-b.

Lekin bunday tushuncha qonuniylikning mazmunini to'liq yoritib bera olmaydi.

D.N.Baxraxning ko'rsatishicha, qonuniylik mazmunini aniqlashda, birinchi navbatda, qonunlarning sifatiga e'tibor qaratish, ya'ni uning ijtimoiy munosabatlarga, huquqqa mos kelishini aniqlash kerak. *Qonunlar* – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi o'ziga xos vosita sifatida, jamiyatda mavjud bo'lgan iqtisodiy darajaga, tashkilotchilik, madaniyat va axloqiy qoidalarga mos bo'lishi kerak. Qonuniylik – davlat huquqining jamiyat va fuqarolar manfaati yo'lida legalizatsiyalash vositasi bo'lishi kerak.

Qonuniylik – bu yuqori sifatli huquqiy normalarning yetarlicha mavjud bo'lishi va barcha huquq subyektlari tomonidan unga qat'iy rioya etishidir.[1]

Yu.M.Kozlov, davlat boshqaruvida qonuniylikning quyidagi xususiyatlar bilan izohlanishini ko'rsatib o'tadi:

– birinchidan, *barcha uchun qonunlarning umummajburiyligi.* Aynan unda qonun talablarining ustunligini, uning oliy yuridik kuchini ko'rish mumkin. Hech kimga qonunni chetlab o'tishiga yoki qonundan o'zini ustun qo'yishiga ruxsat berilmaydi;

– ikkinchidan, *qonuniylikning yagonaligi*;

– uchinchidan, *qonuniylik va maqsadga muvofiqlikning mos kelishi.* Qonunning o'zi, maqsadga muvofiqlikni namoyon bo'lishining yuqori darajasidir;

– to'rtinchidan, *qonuniylik va aholi huquqiy madaniyatining chambarchas bog'liqligi*;

– beshinchidan, har qanday qaror qabul qilganda, *qonuniylik va adolat bir o'rinda turishi* lozim;

– oltinchidan, davlat boshqaruvida qonuniylik uni buzganlik uchun *javobgarlik muqarrar* belgilanganida, ta'minlanishi mumkin.[2]

A.A.Karmolitskiyning fikricha, qonuniylik – davlat boshqaruvi jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

birinchidan, boshqaruv jarayonida davlat organlarining iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilishga rahbarlik qilish singari faoliyati amalga oshiriladi. Qonuniylikka rioya qilish – mazkur tizim oldida turgan vazifa va funksiyalarning samarali amalga oshirilishini belgilab beruvchi asosiy vosita hisoblanadi;

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С.703–707.

[2] Козлов Ю.М. Административное право. – М.: «Юрист», 2003. С. 210– 215.

ikkinchidan, boshqaruv subyektlari o'zlarining funksiyalari va vakolatlarini amalga oshirish orqali huquqni qo'llash faoliyatini olib boradilar. Bu boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish bilan bog'liqdir;

uchinchidan, boshqaruv faoliyati ko'pgina subyektlar (ijro hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi. Ular fuqarolar bilan, turli xildagi tashkilotlar bilan munosabatga kirishadi. Aynan ularning qonunga rioya qilishi va o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni aniq va to'g'ri ijro etishi, jamiyat hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi;

to'rtinchidan, boshqaruv organlari jamiyat hayotining turli sohalarini qamrab oluvchi huquq ijodkorligi faoliyatini amalga oshiradilar. Davlat boshqaruvi organlari tomonidan normativ hujjatlarning qabul qilinishi, birinchi navbatda qonuniylikka asoslanadi. Davlat organlari huquq ijodkorligi faoliyatining qonun doirasida olib borilishi, ular kafolatini mustahkamlaydi;

beshinchidan, boshqaruv organlari ma'muriy majburlov choralarini qo'llash sohasida keng vakolatlarga egadir. Davlat organlari ma'muriy yurisdiksiyani amalga oshira borib, vujudga kelgan nizolarni mustaqil hal etadilar, davlatning majburlov choralarini qo'llash orqali huquqbuzarlarga ta'sir ko'rsatadilar.[1]

O'zbekiston Respublikasida qonuniylikni ta'minlash bir necha kafolatlar tizimi bilan ta'minlanadi. Jumladan, kafolatlarning iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy kafolatlar tizimi mavjuddir. Davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida barcha subyektlar faoliyati aynan shularga tayanadi.

Davlat boshqaruvining samarali amalga oshirilishi nafaqat qonuniylik bilan, balki boshqaruv jarayoni ishtirokchilarining intizomga rioya qilishi bilan ham ta'minlanadi. Intizom nafaqat qonunlarga, balki yuqori turuvchi davlat organlarining normativ hujjatlari bilan o'rnatilgan tartibga ham rioya qilinishini ta'minlaydi.

A.A.Karmolitskiyning fikricha, *davlat intizomi deganda* – davlat va uning vakolatli organlari tomonidan o'rnatilgan tartib va qoidalarga barcha fuqarolarning ongli ravishda bo'ysinishi, xulq-atvor qoidalariga rioya qilishidir, davlat xizmatchilarining esa umumiy va mansab majburiyatlarini hamda rahbarlarning qarorlarini bajarishi tushuniladi.[2]

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: «Зерцало», 1998. С. 361.

[2] O'sha joyda.

Davlat intizomi – boshqaruv jarayonida ishtirok etuvchi barcha subyektlar faoliyatini tashkil etish va ularning hamkorlikda harakat qilishini belgilab beruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Davlat boshqaruvi jarayonida qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, davlat intizomni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

2-§. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlash uslublari

Davlat boshqaruvi faoliyati sohasida qonuniylik prinsipining harakatda bo'lishi – tashkiliy-huquqiy vositalar tizimi bilan ta'minlanadi. Yuridik xususiyatlari va mazmuni jihatidan har xil bo'lgan bunday vositalarning yig'indisi – *qonuniylikni ta'minlash uslublari*ni tashkil etadi.

Qonuniylikni ta'minlash – bu:

birinchidan, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida qonuniylik talabidan chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik;

ikkinchidan, qonunbuzilishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash;

uchinchidan, aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish;

to'rtinchidan, buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni qayta tiklash;

beshinchidan, qonunbuzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish:;

oltinchidan, qonun buzilishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida, ma'lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Aksariyat yuridik adabiyotlarda, davlat boshqaruvi jarayonida qonuniylik va intizomni ta'minlashning asosiy uslubi sifatida – *kontrol* va *nazorat* ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, D.M.Ovsyankoning fikricha, davlat organlari faoliyatida qo'llaniladigan turli huquqiy va tashkiliy shakl va uslublar, amaliy usullar – qonuniylikni ta'minlash uslublari hisoblanadi hamda bu – *kontrol* va *nazorat*dir.[1]

A.A.Karmolitskiyning fikricha esa davlat boshqaruvida qonuniylik tashkiliy-huquqiy vositalar orqali ta'minlanadi. Mazmuniga ko'ra ular – qonuniylik va intizomni ta'minlash uslublarini, uning tizimini anglatadi. Qonuniylikni ta'minlash jarayonida davlat organlari o'z vakolatlari doirasida *kontrol*ni hamda uning ko'ri-

[1] Козлов Ю.М., Попов Л.Л. Административное право. – М.: «Юрист», 2000.

nishlari bo'lgan *nazorat* va *ijro etishni tekshirish*ni amalga oshiradilar.[1]

A.A.Karmolitskiy boshqa huquqshunos olimlardan farqli ravishda, qonuniylik va intizomni ta'minlashning uchinchi uslubini – *ijro etishni tekshirish*ni ham kiritadi.

D.D.Sabriya, davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash uslublariga kontrol (ijro etishni tekshirish) va nazorat bilan bir vaqtda *shikoyat qilish huquqi*ni kiritadi. [2]

X.R.Alimov esa davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlashning uslublari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

a) davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan kontrol va ijro etishni tekshirish;

b) prokuratura organlarining umumiy nazorati;

d) sud organlarining faoliyati;

e) ma'muriy nazorat;

f) jamoat nazorati;

g) davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunga zid harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat qilish.[3]

Demak, yuqoridagilarga asoslanadigan bo'lsak, huquqshunos olimlari davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlashning asosiy uslublari sifatida – ***kontrol, nazorat, tekshirish*** va ***shikoyat qilish***ni ko'rsatib o'tishadi.

Kontrol – qonuniylik va intizomni ta'minlash uslubi sifatida yoki davlat organlarining funksiyasi, ya'ni boshqaruv faoliyatining turi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Kontrol – ijtimoiy boshqaruv tizimida katta ahamiyatga ega bo'lib, u hokimiyat subyektlarining mavjud holatlari to'g'risida, qarorlarning ijro etilganligi haqida ma'lumotlarni olishda xizmat qiladi.

Kontrol – ijro intizomini mustahkamlashda, amalga oshirilgan ishni baholashda, ma'lum bir jarayonni operativ tartibga solishda qo'llaniladi.

Kontrol mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

---

[1] Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: «Зерцало», 1998.

[2] П.Т.Василенков. Административное право. – М.: «Юридическая литература», 1990.

[3] Административное право Республики Узбекистан: Учебник для юридических вузов // Авт. коллектив: Х.Р.Алимов, Л.И.Соловьева и др./ – Т.: «Адолат», 1999. С. 343–348.

1) kontrol ostiga olingan obyektlar faoliyati ustidan kuzatish, ular tomonidan qoidalar va ko'rsatmalarning bajarilishi, mavjud holatlar to'g'risida obyektiv ma'lumotlar olish. Ma'lumotlar hisob va hisobot hujjatlarini o'rganish, tekshirish, invertarizatsiya, taftish, tushuntirishlar va boshqa shakllarda olinadi;

2) to'plangan axborotlarni baholash, yo'nalishlarni belgilash, istiqboldagi rejalarni ishlab chiqish;

3) qonuniylik va intizomni buzish holatlarini, zararli oqibatlarni, maqsadga nomuvofiq harakatlar va xarajatlarni bartaraf etish bo'yicha ma'lum bir choralarni ko'rish, shuningdek, huquqbuzarlikni oldini olish maqsadida huquqqa xilof faoliyatni to'xtatish:

4) huquqbuzarliklarning hisobini olib borish, ularni sodir etilishi sabablari va sharoitlarini aniqlash;

5) aybdor shaxslarni aniqlash, ularni javobgarlikka tortish. Kontrolni amalga oshiruvchi organlar aybdor shaxsning javobgarligini o'zlari hal etishlari mumkin yoki bu masalani vakolatli davlat organi (mansabdor shaxs)lariga kiritishlari mumkin.

Kontrol – rahbarlik (boshqaruv) faoliyatining ajralmas elementi hisoblanadi. Kontrolni amalga oshirish jarayonida:

a) kontrol ostiga olingan obyektning holati tahlil qilinadi va unga baho beriladi;

b) hal etilmay qolgan masalalar aniqlanadi;

d) amaliy tajriba umumlashtiriladi va qo'llaniladi;

e) ijro etuvchilarga turli xildagi yordam beriladi.

Shu bilan birga, kontrol – rahbarlik darajasini oshirishni, uning to'g'riligi va samaradorligini tekshirish vositasi ham hisoblanadi.

Demak, kontrol – davlat organlari oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini, ularning faoliyatida qonuniylik va intizomning ta'minlanishini belgilovchi asosiy vositadir.

Qonuniylik va intizomni ta'minlash jarayonida qonunbuzilishini ogohlantirish va cheklashda kontrolning o'rni kattadir.

Kontrol davlat boshqaruvi jarayonida qo'llaniladigan boshqa uslublardan (nazorat, tekshirishdan) farq qilgan holda, quyidagi *o'ziga xos xususiyatlarga ega*dir:

– kontrolni amalga oshiruvchi organ (mansabdor shaxs) va kontrol ostiga olingan obyekt o'rtasidagi aloqalarning vertikalligi, ya'ni bu munosabatlar bo'ysunuvga asoslanadi;

– kontrol – qonuniylik va intizomni ta'minlash bilan bir vaqtda, maqsadga muvofiqlikni aniqlash uchun ham qo'llaniladi;

– kontrolni amalga oshiruvchi organ (mansabdor shaxs) obyektning qarorlarini bevosita bekor qilish vakolatiga ega bo'ladi;

– kontrolni amalga oshiruvchi organ (mansabdor shaxs) kontrol obyektining faoliyatida qonun buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa, uni bartaraf etish, aybdorni aniqlash va unga nisbatan ta'sir etish choralarini qo'llash vakolatiga ega bo'ladi.

Kontrol turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1) hisobotlarni, ma'lumot va axbortlarni ko'rib chiqish;

2) kontrol ostiga olingan obyektning harakatlarini kuzatish, ekspertiza, tekshirish;

3) ma'lum bir lavozim yoki mansabni egallovchi shaxslarning shaxsiy va ishchanlik xususiyatlarini o'rganish;

4) kontrol ostiga olingan obyektning faoliyatini muvofiqlashtirish;

5) shikoyatlarni ko'rib chiqish va boshqalar.

Bundan tashqari, kontrolni olib borish vaqtiga qarab, u uchga bo'linadi:

a) *boshlang'ich kontrol* – faoliyat boshlanmasdan oldin amalga oshiriladi. Unda faoliyatni amalga oshirishga imkon beruvchi asoslar ko'rib chiqiladi (masalan, loyihalar, litsenziya). Boshlang'ich kontrol – qonun buzilishlarini ogohlantiruvchi vosita hisoblanadi;

b) *joriy kontrol* – faoliyat bevosita amalga oshirilayotgan vaqtda, faoliyatning o'rnatilgan yoki tasdiqlangan tartibiga rioya etilishi ustidan olib boriladi. Joriy kontrol vaqtida aniqlangan kamchiliklar (qonun buzilishlari), faoliyat olib borilishi bilan bir vaqtda, bartaraf etiladi, aybdor shaxslar javobgarlikka tortiladi. Joriy kontrol – bu faoliyatga operativ ta'sir etish hisoblanib, qonun buzilishlarini oldini olish va sodir etilayotganlarini to'xtatishga qaratilgan;

d) *davomiy kontrol* – ma'lum bir davrda amalga oshirilgan faoliyat ustidan olib boriladi. Davomiy kontrol orqali faoliyatga umumiy baho beriladi, uning natijalari aniqlanadi, yakuniy xulosalar ishlab chiqiladi va h.k.lar.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida kontrol tushunchasi berilmagan.

Yuridik adabiyotlarda, kontrol va nazorat tushunchalari farqlanadi. Jumladan, D.N.Baxrax fikricha, kontrol hajmidan kelib chiqqan holda, agar faoliyatning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi tekshirilayotgan bo'lsa, bu – kontrol, agar faoliyatning qonuniyligi tekshirilayotgan bo'lsa, bu – nazoratdir. Nazorat – bu qisqartirilgan kontroldir.[1]

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004. С. 710–712.

Nazorat – maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan o'ziga bo'ysinmagan obyekt faoliyatida qonuniylik va intizomni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatining bir turidir. Nazorat olib borish jarayonida nazorat ostiga olingan obyektning faoliyatiga faqatgina qonuniylik nuqtayi nazaridan baho beriladi. Nazoratni amalga oshirish vaqtida nazorat ostiga olingan obyektning ma'muriy-xo'jalik faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat maxsus davlat nazorati organlari tomonidan yoki prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat jarayonida aniqlangan kamchiliklar, qonun buzilishlari bevosita hal qilinmaydi yoki aybdor shaxslar bevosita javobgarlikka tortilmaydi.

Nazorat vaqtida aniqlangan kamchiliklar, qonun buzilishlari to'g'risida nazorat olib borilgan organ (tashkilot) bo'ysingan yuqori organga yoki tegishli davlat organlariga (masalan, sud, prokuratura organlariga) murojaat qilish mumkin.

Davlat nazorati, ko'pgina yuridik adabiyotlarda, ikkiga bo'lingan: ***prokuror nazorati*** va ***ma'muriy nazorat***.

Davlat boshqaruvi jarayonida qonuniylik va intizomni ta'minlashda ma'muriy nazorat – davlat organlari faoliyatining alohida turi bo'lib, ijro hokimiyatining maxsus vakolatli davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'muriy nazorat – davlat organlari, mansabdor shaxslar, davlat va nodavlat korxona, muassasa va tashkilotlari, shuningdek, fuqarolar tomonidan umummajburiy qoidalarga qat'iy rioya etishlari ustidan olib boriladigan davlat nazoratidir.

Ma'muriy nazorat davlatning boshqa nazorat turlaridan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

birinchidan, nazorat olib borilayotgan obyekt faoliyatidagi qonuniylikka rioya etilishi bilan bog'liqdir;

ikkinchidan, nazoratni olib boruvchi davlat organi bilan nazorat ostiga olingan o'rtasida tashkiliy jihatdan bo'ysinuvning bo'lishi shart emas;

uchinchidan, uni amalga oshiruvchi davlat organlari doirasi kengroqdir;

to'rtinchidan, turli tashkiliy va huquqiy shakllarda amalga oshiriladi;

beshinchidan, nazoratni olib borishning maxsus uslublariga ega.

Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlashda ***jamoat nazorati***ning tutgan o'rni kattadir. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan «Fuqaro-larning

o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun[1]ning 10-moddasiga binoan *shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini* – qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, shuningdek, o'z qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan ekan, albatta, bu jarayonda davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda, qonuniylik va huquq tartibotni ta'minlashda fuqarolar ishtiroki keng ta'minlanishi lozim. Bu jarayonda fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratini yanada takomillashtirish lozim bo'ladi. Jamoatchilik nazoratini kengaytirish davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar va jamiyat oldidagi mas'uliyatini yanada oshiradi, ularning qonun asosida hamda qonun doirasida harakatlanishini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi jarayonida qonuniylik va intizomni ta'minlashda – ***fuqarolarning shikoyat qilish huquqi*** ham katta ahamiyatga egadir. Amaldagi qonunchilikka binoan fuqarolar davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunga zid xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga egadir (*Qarang*, ushbu darslikning 6-bobi, 4-§).

3-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nazorati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat boshqaruvi sohasida nazoratni amalga oshirish bo'yicha keng vakolatlarga egadir. Jumladan, Konstitutsiyaning 93-moddasiga binoan ***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti***: fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir: ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi: respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi: vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi: respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi va h.k.lar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-fevraldagi «Respublika davlat nazorati tizimini takomillashtirishga oid ba'zi

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1999, 5-son, 110-m.

tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga binoan, davlat nazorati tizimini yanada takomillashtirish, uni bozor munosabatlari talablariga muvofiq holga keltirish, nazorat qiluvchi organlar ishidagi parallelizmni bartaraf etish maqsadida va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasiga muvofiq – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat nazorati qo'mitasi va uning joylardagi organlari tugatildi, *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining devonida Nazorat inspeksiyasi* va tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimliklarining apparatlari tarkiblarida *nazorat inspeksiyalari* tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 17-fevraldagi Farmoniga binoan esa ijro intizomini mustahkamlash va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini bajarish maqsadida – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida nazorat bo'yicha ***muvofiqlashtiruvchi Kengash*** tashkil etildi.

Ushbu Kengash – har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmonlar va farmoyishlarning hamda hukumatning muhim qarorlari bajarilishini ko'rib chiqadilar: chorak yakunlari bo'yicha davlat boshqaruvi organlaridagi ijro intizomi haqida maxsus ma'lumotnomalar tayyorlaydi. Ma'lumotnomalar, tegishli qarorlar qabul qilish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim etiladi.

Mazkur Farmon bilan muvofiqlashtiruvchi Kengashning – hukumat a'zolari, Markaziy bank Raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilari rahbarlik qiladigan respublika komissiyalari va kengashlari faoliyatiga alohida e'tibor qaratishlari lozimligi, belgilab qo'yildi.

Muvofiqlashtiruvchi Kengashning ishchi organi sifatida – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni Nazorat inspeksiyasi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni Nazorat inspeksiyasi va joylardagi nazorat inspeksiyalar *faoliyatining asosiy vazifasi* sifatida quyidagilar belgilandi:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari va hukumat qarorlari ijrosi ustidan ta'sirchan nazoratni tashkil etish;

b) nazorat organlarining ishidagi parallelizm va takrorlashni bartaraf qilish;

d) respublikada bozor munosabatlari vositalarini ro'yobga chiqarishga va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi «Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari huzuridagi nazorat inspeksiyalari tuzilmasini tartibga solish to'g'risida»gi Qaroriga binoan, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari huzuridagi nazorat inspeksiyalarining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 2001-yil 1-yanvardan boshlab viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlarining o'rinbosarlari — nazorat inspeksiyalarining rahbarlari lavozimlari tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati qarorlarining bajarilishini nazorat qilish, tegishli hududlarda nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, ijro intizomini takomillashtirish masalalari viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari zimmasiga yuklandi.

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarining bajarilishini *nazorat qilish bo'yicha bo'limlari* tashkil etildi va ular bevosita viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga bo'ysindirildi.

Nazorat bo'limlariga — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarining bajarilishini nazorat qilish, shuningdek, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlash-tiruvchi hududiy komissiyalar bilan birigalikda korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyatini o'rganish bo'yicha o'tkazilayotgan tekshirishlarni tartibga solish masalalari yuzasidan takliflar tayyorlash funksiyalari yuklandi.

4-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nazorati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan ***O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi*** — oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — *Qonunchilik palatasi* (quyi palata) va *Senatdan* (yuqori palata) iborat.

Konstitutsiyaning 78-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi:

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qabul qiladi, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritadi;

O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi hamda davlat strategik dasturlarini qabul qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilaydi;

boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga soladi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qiladi va uning ijrosini nazorat etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi hisob palatatsining hisobotini ko‘rib chiqadi;

xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qiladi va boshqalar.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o‘z vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan *qo‘mitalar*ni saylaydi.

«O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi 2002-yil 12-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni[1]ga binoan, ***Qonunchilik palatasi qo‘mitalari:***

1) qonun loyihalarining dastlabki tarzda ko‘rib chiqilishini va ularni Qonunchilik palatasida ko‘rib chiqishga tayyorlashni amalga oshiradi;

2) qonunlarning loyihalari yuzasidan xulosalar beradi, qonun loyihasini Qonunchilik palatasining majlisi kun tartibiga kiritish,

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002, 12-son, 215-m.

uning ustida ishlashni davom ettirish yoki asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi;:

3) O'zbekiston Respublikasining Davlat **budjeti** loyihasi yuzasidan xulosalar va takliflar beradi: kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlari tuzadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini jalb etadi;

4) qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari vakillarining ular tomonidan kiritilgan qonun loyihasiga taalluqli masalalar yuzasidan fikrlarini eshitadi;

5) kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartish yoki qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

6) davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi;

7) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayot-gani haqidagi axborotlarini eshitadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan *qo'mitalar*ni saylaydi.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi 2002-yil 12-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni[1]ga binoan, ***Senat qo'mitalari:***

1) Qonunchilik palatasi tomonidan Senatga ma'qullash uchun topshirilgan qonunlar yuzasidan xulosalar beradi;

2) O'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan o'z tashabbusi bilan va Senatning topshirig'iga binoan, Senat hujjatlari loyihalarini ishlab chiqadi;

3) Qonunni majlis kun tartibiga kiritish yoki uning ustida ishlashni davom ettirish yoxud asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002, 12-son, 213-m.

4) O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti loyihasi yuzasidan xulosalar va takliflar beradi: davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari va boshqa xulosalarni, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi;

5) Qonunchilik palatasi tomonidan kiritilgan qonunlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlari tuzadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini jalb etadi;

6) Kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek, Senat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartish yoki qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

7) Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Senat hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqidagi axborotlarini eshitadi.

5-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nazorati

«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi 2003-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni[1]ga binoan ***O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi*** – O'zbekiston Respublikasi hukumati – O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Qonunning 7-moddasiga binoan, Vazirlar Mahkamasi – vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining hujjatlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hollarda ularni bekor qilish huquqiga ega. (*Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar, darslikning 9-bobi, 5-§da berilgan.*)

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003, 9–10-sonlar, 138-m.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari hamda uning Apparati topshiriqlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning Prezidiumi qarorlari va topshiriqlarining tarkibiy bo'linmalar tomonidan o'z vaqtida ijro etilishi yuzasidan nazoratni tashkil etishni ta'minash maqsadida – ***O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparatining Nazorat bo'limi*** tashkil etildi. Nazorat bo'limi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 2-dekabrdagi 564-sonli qarori[1]ga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparatining Nazorat bo'limi to'g'risida»gi Nizom asosida amalga oshiradi.

Ushbu Nizomga binoan, Nazorat bo'limi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri rahbarligida amalga oshiradi. Bo'lim o'z faoliyatini – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparatining boshqa tarkibiy bo'linmalari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa organlar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Nazorat bo'limining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari hamda uning Apparati topshiriqlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning Prezidiumi qarorlari va topshiriqlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparati Rahbari topshiriqlarining tarkibiy bo'linmalar tomonidan o'z vaqtida ijro etilishi bo'yicha ishlarni tashkil etish;

2) elektron ish yuritish va hujjatlar aylanishi tizimi asosida hujjatlar va topshiriqlarning o'z vaqtida ijro etilishini hisobga olish, ularning aylanishi, tahlil va nazorat qilish yagona tizimi amalga oshirilishini ta'minlash;

3) Bosh vazir kotibiyati, Bosh vazirning o'rinbosarlari apparatlari, Vazirlar Mahkamasining departamentlari va bo'limlarida ijro nazoratini tashkil etishga metodik rahbarlik qilish;

4) ishlarni muvofiqlashtirish va Vazirlar Mahkamasi Apparatining barcha tarkibiy bo'linmalarida ijro intizomi ahvolini o'rganish,

---

[1] «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami». 2004-yil, 48–49-son, 496-modda.

mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda zarur yordam ko'rsatish, kamchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini, uning o'rinbosarlarini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparati Rahbarini va tarkibiy bo'linmalar rahbarlarini xabardor qilish;

5) respublika vazirliklari, idoralari va hokimliklariga elektron ish yuritish va hujjatlar aylanishi tizimini joriy etish asosida hujjatlarning bajarilishini ro'yxatga olish, hisobga olish, ularning aylanishi, tahlil va nazorat qilish yagona tizimini takomillashtirish masalalarida metodik yordam ko'rsatish;

6) Vazirlar Mahkamasi apparati tarkibiy bo'linmalarining tarmoq axborot resurslaridan, shu jumladan, Internet resurslaridan maqsadli va samarali foydalanish bo'yicha ishlarini muvofiqlashtirish.

6-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini ijro etish va nazorat qilishning asosiy qoidalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi «Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida respublika komissiyasi o'tkazgan tekshirishda ijro intizomi pastligining ko'plab hollari, respublika boshqaruv organlari, mahalliy hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalarining tashkilotchilik va nazorat faoliyatida jiddiy kamchiliklar aniqlanganligi qayd etilgan.

Ushbu qarorga binoan boshqaruv apparati barcha bo'g'inlarining tashkilotchilik, ijro va nazorat faoliyatini takomillashtirish, rahbarlar va mutaxassislarning ijro intizomini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining hamda hukumat qarorlarining o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qo'llaniladigan chora-tadbirlar belgilandi.

Bundan tashqari, Bosh vazir kotibiyati, axborot-tahlil departamentlari va boshqa tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirib borishni ta'minlash, ular ishining samaradorligini oshirish va ijro intizomini mustahkamlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi apparati tuzilmasiga *apparat rahbari* lavozimi kiritildi. Vazirlar Mahkamasi apparati rahbari maqomiga ko'ra – Bosh vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Bosh vazir kotibiyati, axborot-tahlil departamentlari o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha – tegishli ravishda Bosh vazirga

va uning o'rinbosarlariga: tashkiliy masalalar va ijro intizomi masalalari bo'yicha – Vazirlar Mahkamasi apparati rahbariga bo'ysinadi.

Vazirlar Mahkamasi apparati rahbari:

1) Bosh vazir kotibiyati, axborot-tahlil departamentlari va funksional bo'limlar ishlarini muvofiqlashtiradi;

2) Vazirlar Mahkamasi farmoyishlari va qarorlari loyihalarini tayyorlash hamda imzolash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kotibiyatiga va Bosh vazirga taqdim etadi;

3) Vazirlar Mahkamasi komplekslarida va apparatning tarkibiy bo'linmalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari va topshiriqlarining bajarilishi bo'yicha ijro intizomini mustahkamlaydi;

4) Bosh vazir o'rinbosarlari bilan birgalikda tegishli apparatning tarkibiy bo'linmalariga bosh mutaxassis va yetakchi mutaxassis kadrlarni tanlaydi;

5) apparat mutaxassislari va xodimlarining ish va kasb malakasi darajasini oshirish maqsadida ularni muntazam ravishda attestatsiyadan o'tkazadi va h.k.lar.

Mazkur qarorga binoan, boshqaruv barcha bo'g'inlarining ijro intizomini takomillashtirish va mustahkamlash bo'yicha faoliyatida yagona tizimni va uzluksiz jarayonni ta'minlash maqsadida – hukumat apparatida, vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashida, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida tarmoq boshqaruv organlarida hamda mahalliy hokimiyat organlarida «*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarining ijrosini tashkil etish va nazorat qilishning asosiy qoidalari*» tasdiqlandi.

Ushbu qoidalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, barcha darajalardagi hokimliklar apparatlari uchun ***normativ hujjat sifatida*** ishlab chiqilgan. *Uning maqsadi* – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyishlari va topshiriqlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari ijro etilishi va ularning amalga oshirilishini nazorat qilishni tashkil etishning yagona tizimi va uslubiyotini ta'minlashdan iborat.

Asosiy qoidalar – ishni tashkil etishning amaliy shakllarini o'z ichiga oladi, yuqorida aytib o'tilgan hujjatlarda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish muddatlarini va pirovard natijalarga erishish uchun shaxsan javobgar mansabdor shaxslarni belgilab beradi.

Asosiy qoidalarga binoan, nazorat qilinadigan va bajarilishi tekshiriladigan hujjatlarga – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari, bayonnomalari, topshiriqlari (yozma va og'zaki): O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kotibiyatining topshiriqlari: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining topshiriqlari: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, majlislari bayoni va boshqalar kiradi.

Hujjatlarning ko'rsatib o'tilgan turlarining bajarilishi bo'yicha ishlarni tashkil etish Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar hokimliklari apparatlari va korxonalarning rahbarlari, mansabdor shaxslari, tegishli tarkibiy bo'linmalari va mas'ul xodimlari tomonidan ta'minlanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan hujjatlarning bajarilishi uchun - Bosh vazir, Bosh vazirning o'rinbosarlari, vazirlar, idoralarning rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari shaxsan javob beradilar. Zimmasiga hujjatlarni nazorat qilish yuklangan rahbar, vazifalarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

Hujjatlarning bajarilishini va nazorat qilinishini tashkil etish quyidagilar orqali ta'minlanadi:

1) respublikani, tarmoq va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim va ustuvor masalalari, shuningdek, uzoq davrga mo'ljallangan hujjatlar bo'yicha nazorat rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

2) tasdiqlangan muddatlarda tegishli tarkibiy bo'linmalar, mansabdor shaxslar va xodimlar tomonidan amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

3) bajarilishini vazirliklar, idoralar, boshqaruvning hududiy tarmoq organlari va joylardagi hokimiyat organlarida, bevosita korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda maqsadli o'rganish;

4) vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining yuqorida aytib o'tilgan hujjatlarni bajarish yuzasidan qabul qilingan o'z qarorlarining bajarilishini ko'rib chiqish;

5) respublika tarmoqlari va hududlarida ishlarning ahvolini kompleks o'rganish, Vazirlar Mahkamasi Komplekslari majlislarida ularning yakunlarini ko'rib chiqish;

6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyishlari va topshiriqlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarida qo'yilgan vazifalar o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlamagan rahbarlar, mansabdor shaxslar va xodimlarga nisbatan shaxsiy javobgarlik choralarini ko'rish..

Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hujjatlarda belgilangan muddatlarda birinchi shaxsning imzosi bilan nazorat topshiriqlari (hujjatlar) bajarilishi to'g'risidagi xolis va qisqacha axborotni Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot-tahlil departamentlari va bo'limlarga taqdim etishlari shart. Rahbarlar axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi va uning ishonchliligi uchun shaxsan javob beradilar.

Hujjat (topshiriq) bajarilishini nazorat qilish yuklangan Bosh vazirning o'rinbosari — tegishli axborot-tahlil departamenti, boshqaruvning tarmoq organlari va joylardagi hokimiyat organlarining:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bajarilishini muntazam o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;

b) kamchiliklarning oldini olish va muammoli masalalarni hal etish bo'yicha zarur tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish;

d) aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy chora-tadbirlar ko'rish yuzasidan ishlarning muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari apparatining *nazorat bo'linmalari*:

1) nazoratga olinadigan hujjatlar va bandlar qat'iy hisobga olinishini ta'minlaydilar;

2) tarkibiy bo'linmalarda hujjatlarni bajarishning ahvolini doimiy ravishda tahlil qiladilar;

3) tegishli rahbarlarni ular tomonidan amaliy chora-tadbirlar ko'rilishi uchun ijro intizomining ahvoli to'g'risida muntazam xabardor qiladilar.

7-§. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar normativ hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 9-oktabrdagi «Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar normativ hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga binoan, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar normativ hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash maqsadida:

1) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi, mazkur boshqaruv organi tizimiga kirmaydigan korxonalar va tashkilotlar uchun majburiy kuchga ega bo'lgan yoki idoralararo tusdagi (umumiy majburiy tusdagi) normativ hujjatlari ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab o'n kun o'tgandan keyin, agar hujjatning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, kuchga kiradi va bajarilishi kerak;

2) davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan normativ hujjatlar kuchga kirmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi hamda tegishli huquqiy munosabatlarni tartibga solish, undagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun fuqarolar, mansabdor shaxslar, korxonalar va tashkilotlarga biror bir jazo qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi;

3) normativ hujjatning davlat ro'yxatidan o'tkazish tartib raqami va sanasi ko'rsatilmagan holda tarqatilishi va e'lon qilinishi taqiqlanadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning fuqarolarning, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlariga taalluqli umummajburiy tusdagi normativ hujjatlari «O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ hujjatlari Axborotnomasi» — «Бюллетень нормативных актов министерств, государственных комитетов и ведомств Республики Узбекистан»da, albatta, e'lon qilinishi kerak.

Mazkur qaror asosida *O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga*:

— vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ hujjatlar qabul qilish va qo'llash, shuningdek, qabul qilingan normativ hujjatlarni e'lon qilish va manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish bo'yicha ishini nazorat qilish;

— vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarga o'n kun muddatda bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritish yoki davlat ro'yxatidan o'tmagan hujjatlarni bekor qilish, buzilgan huquqlarni tiklash, yetkazilgan zararlarni qoplash to'g'risidagi da'volar bilan sud organlariga murojaat qilish, shuningdek, aybdor mansabdor shaxslarni tegishli javobgarlikka tortish masalasini hukumat oldiga qo'yish huquqi berildi.

Adliya vazirligiga yuklangan vazifalarni ta'minlash uchun Adliya vazirligi markaziy apparatining vazirliklar, davlat qo'mitalari

va idoralarning normativ hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'limi negizida ikki bo'limdan iborat Idoraviy normativ hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasi tashkil etildi.

Qarorga binoan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar normativ hujjatlarini huquqiy ekspert izadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish belgilandi. Unga binoan, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar[1]ning normativ hujjatlarini ularning amal qilish muddatidan (doimiy yoki vaqtincha) hamda ulardagi ma'lumotlarning xususiyatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi *huquqiy ekspertiza*dan va *davlat ro'yxati*dan o'tkazadi.

Vazirliklar va idoralarning umummajburiy tusdagi:

— fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi;

— idoralararo tusga ega bo'lgan;

— mazkur boshqaruv organi tizimiga kirmaydigan korxonalar va tashkilotlar uchun majburiy kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlari huquqiy ekspert izadan va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Belgilangan tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladigan standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar, shuningdek, standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarga tegishli bo'lmagan texnik qoidalar va normalar Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi. Qoidalar va normalarni texnik hujjatlarga tegishli deb topish Adliya vazirligi bilan kelishuv bo'yicha amalga oshiriladi.

Vazirliklar va idoralar normativ hujjatlarini qabul qilishda huquqiy ekspert izadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ularni o'n kun mobaynida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etadilar.

Davlat ro'yxatidan o'tmagan normativ hujjatlar qo'llanilganligi aniqlangan taqdirda Adliya vazirligi tegishli vazirlik yoki idoraga ushbu hujjatni bekor qilish va bajarishdan chaqirib olish to'g'risida taqdimnoma kiritadi. Vazirliklar va idoralar o'n kun muddatda Adliya vazirligining talabini bajarishlari shart.

Bir nechta vazirlik va idora qabul qilgan normativ hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazishga taqdim etish hujjatni tasdiqlaganlar orasida birinchi bo'lib ko'rsatilgan organga yuklanadi.

---

[1] Idoralar deganda — vazirlik yoki davlat qo'mitasi hisoblanmagan, ijro etish va (yoki) farmoyish berish funksiyalari, shuningdek, umumiy majburiy tusdagi normativ hujjatlarni qabul qilish huquqi berilgan boshqaruvning umumdavlat organlari yoxud maxsus vakolatli boshqaruv organlari (agentliklar, komissiyalar, markazlar, boshqarmalar va boshqalar) tushuniladi.

Normativ hujjatlar – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Normativ hujjatlar idoraviy normativ hujjatlarni tayyorlash va ularni qabul qilish qoidalari talablariga muvofiq tayyorlanishi va qabul qilinishi kerak.

Vazirliklar va idoralar o'z vakolatlari doirasida normativ hujjatlarni buyruqlar, qarorlar, nizomlar, qoidalar, yo'riqnomalar va ko'rsatmalar shaklida qabul qiladilar.

Normativ yozma ko'rsatmalar (xat, telefonogramma, xususiy masalalar bo'yicha tushuntirishlar va boshqalar)ning huquqiy hujjat hisoblanmagan hujjatlarga, shuningdek, yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan hujjatlarga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Vazirliklar va idoralar huquqiy tartibga solishni talab qiladigan masalalar paydo bo'lgan taqdirda, agar ushbu masalalarni normativ tartibga solish o'z vakolatlariga kirsa, tegishli normativ hujjatlarni o'z vaqtida qabul qilishlari kerak. Adliya vazirligi vazirliklar va idoralarga tegishli normativ hujjatni qabul qilish zarurligi, uni ishlab chiqish muddati haqida taqdimnoma kiritishga haqlidir.

Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarini bajarish yuzasidan normativ hujjat qabul qilish muddati, agar boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, bir oydan oshmasligi kerak.

Normativ hujjatda mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasining qaysi qonunini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaysi qarorini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi Farmonini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarorini (ularning moddalari yoki bandlarini) bajarish yuzasidan yoki ular asosida chiqarilayotganligi majburiy tartibda ko'rsatiladi.

Normativ hujjat tuzilmasi huquqiy tartibga solish mavzusi izchil rivojlantirilishini, shuningdek, bo'lajak hujjat bir xilda tushunilishi va qo'llanilishini ta'minlashi kerak.

Normativ hujjat o'z mazmuniga mos qisqacha nomlanishi kerak.

Agar normativ hujjat qabul qilinishi maqsadlari va sabablari tushuntirilishi talab etilsa, unda kirish qismi beriladi. Normativ tusga ega bo'lgan qoida kirish qismga kiritilmaydi.

Normativ hujjat mazmuni va hajmiga bog'liq ravishda, odatda, o'z nomiga ega bo'ladigan qismlar va bo'limlarga bo'linishi mumkin.

Normativ hujjat qoidalari aniq va yorqin adabiy tilda bayon qilinishi kerak. Foydalaniladigan tushunchalar va atamalar turlicha talqin qilinishini istisno qilish uchun ularning amaldagi qonun hujjatlarida qabul qilingan ahamiyatiga muvofiq bir xilda qo'llaniladi. Zarur hollarda maxsus atamalar va tushunchalarning qisqacha ta'rifi beriladi, umumiy qabul qilingan qisqartmalar qo'llanadi va boshqa qisqartirishlar tushuntiriladi. Eskirgan va ko'p ma'noli so'zlar va iboralar, obrazli qiyoslashlar, majozlar, sifatlashlar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Normativ hujjatlarda amaldagi qonun hujjatlari qoidalari so'zma-so'z takrorlanishi taqiqlanadi. Normativ hujjatlar matniga amaldagi qonun hujjatlariga havola qilish kiritilishiga faqat istisno hollardagina yo'l qo'yiladi.

Mazkur normativ hujjatning boshqa bandlariga, shuningdek, vazirliklar va idoralarning ilgari qabul qilingan normativ hujjatlariga havola qilish ularning o'zaro aloqasini ko'rsatish yoki takrorga yo'l qo'ymaslik zarur bo'lgan hollardagina qo'llaniladi.

Normativ hujjatning har bir bandida bitta normativ ko'rsatma bo'lishi kerak. Hujjatning har bir mustaqil bandi to'liq va tugallangan mazmunga ega bo'lishi kerak.

Agar normativ hujjatda ro'yxatlar, jadvallar, grafiklar, xaritalar, sxemalar, hujjatlar, blankalar namunalari keltirilsa, ular, odatda, ilovalarda berilishi kerak. Normativ hujjatning tegishli bandlarida ushbu ilovalarga havola qilinadi.

Amaldagi normativ hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan hal etish mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish shaklidagi hujjatlar qabul qilinadi.

Normativ hujjatda quyidagi rekvizitlar bo'lishi kerak:

— hujjat shaklining belgilanishi;

— tartibga solish mavzusini belgilovchi nom;

— hujjatning tartib raqami, qabul qilingan sanasi va joyi;

— vazirlik yoki idora rahbarining yoxud uning vazifasini bajaruvchi shaxsning ushbu organ muhri bilan tasdiqlangan imzosi.

Agar normativ hujjatning qabul qilinishi mazkur organ tomonidan ilgari qabul qilingan normativ hujjatlar o'z kuchini yo'qotishi e'tirof etilishini yoki ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini talab etsa, unday holda ushbu qoidalar taqdim etilgan normativ hujjatda yoxud boshqa hujjatda aks ettirilishi kerak.

Normativ hujjatga:

– normativ hujjatni chiqarish uchun asoslar (vazirlik va idora vakolati, normativ hujjatga kirgan masalalarni hal etishni topshirish yoki bunday huquq berish yuzasidan yuqori organning qarori, hujjat qabul qilinishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan boshqa holatlar);

– mazkur organ tomonidan ushbu masala bo'yicha ilgari qabul qilingan normativ hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

– ushbu masala bo'yicha ilgari boshqa organlar tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar va davlat ro'yxatidan o'tkazishga taqdim etilgan hujjat qabul qilinishi munosabati bilan ularni o'zgartirish yoki o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etish to'g'risida takliflar tayyorlash haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan ma'lumotnoma ilova qilinadi.

Tayyorlangan normativ hujjat vazirlik yoki idora rahbari tomonidan imzolangunga qadar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirilishi kerak.

Taqdim etilgan normativ hujjatga ushbu organning yuridik xizmati rahbari tomonidan viza qo'yilgan, ilova qilingan ma'lumotnoma esa imzolangan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi taqdim etilgan normativ hujjatni olingan kundan boshlab 30 kun ichida huquqiy ekspert izadan o'tkazadi.

Zarurat bo'lsa, ekspert izadan o'tkazishda Adliya vazirligi qo'shimcha hujjatlarni talab etish, shuningdek, normativ hujjatlar bo'yicha xulosalar berish uchun mutaxassislar va ilmiy xodimlarni shtatdan tashqari ekspertlar sifatida jalb qilish huquqiga ega bo'ladi.

Normativ hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazish Adliya vazirining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Agar normativ hujjat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lsa yoxud manfaatdor organlar bilan kelishish majburiy hisoblanganda bunday organlar bilan kelishilmagan bo'lsa, normativ hujjatni ro'yxatdan o'tkazish rad etilishi mumkin.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilgan normativ hujjatlar Adliya vazirligi tomonidan tegishli xulosalar bilan ularni taqdim etgan organga qaytariladi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilgan normativ hujjatlar Adliya vazirligining xulosalari hisobga olingan holda puxta ishlangan taqdirda davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun takroran taqdim etilishi mumkin. Bunda qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining far-

monlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarini bajarish yuzasidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi taqdimnomasiga ko'ra qabul qilingan normativ hujjatlarni mukammallashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazishga takroriy taqdim etish muddati bir oydan oshmasligi kerak.

Normativ hujjatning asl nusxasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin unga berilgan ro'yxatdan o'tkazish tartib raqami bilan birgalikda uni taqdim etgan organga qaytariladi, ikki nusxasi hisobga olish va e'lon qilish uchun Adliya vazirligida qoladi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari o'zgargan taqdirda vazirliklar va idoralar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan o'z normativ hujjatlarini qonunchilikka muvofiqlashtirishi hamda huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun tegishli o'zgartirish va qo'shimchalarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etishlari kerak. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi vazirliklar va idoralardan ularning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan normativ hujjatlarini qonunchilikka muvofiq holga keltirishni talab qilishga haqlidir.

Vazirliklar va idoralar ushbu holda o'n kun muddatda huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun o'zlari qabul qilgan normativ hujjatlardagi o'zgartirish va qo'shimchalarni Adliya vazirligiga taqdim etishga majburdir. Ushbu qoida bajarilmagan taqdirda Adliya vazirligi normativ hujjatni davlat reyestridan chiqarishga haqlidir, bu normativ hujjatni yuridik kuchga ega emas deb hisoblash uchun asos bo'ladi.

Normativ hujjatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ushbu hujjatni qabul qilgan organ tomonidan yoxud bunga vakil qilingan organ tomonidan mazkur hujjat qabul qilingan tartibda amalga oshiriladi.

Nizoli masalalar paydo bo'lgan, shuningdek, normativ hujjatni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan yangi holatlar aniqlangan taqdirda, Adliya vazirligi masala belgilangan tartibda hal etilishigacha normativ hujjatning (yoki uning tegishli qismining) amal qilishini to'xtatishga haqlidir.

Normativ hujjatlarni qabul qilgan organ tugatilgan yoki qayta tashkil etilgan taqdirda uning hujjatlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanishi, ularning tarqatilishi, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi haqidagi masalalar uning huquqiy vorisi yoki yuqori turuvchi organ tomonidan hal etiladi.

Vazirliklar va idoralar tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab o'n kun muddatda barcha manfaatdor shaxslarga yetkazilishi kerak. Normativ hujjatni manfaatdor shaxslarga yetkazish normativ hujjatning matni bilan to'siqsiz (erkin) tanishish huquqini beruvchi har qanday shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Mazkur qoida bajarilmagan taqdirda Adliya vazirligi vazirlik yoki idora tomonidan tegishli chora-tadbirlar ko'rilmaguncha normativ hujjatning amalda bo'lishini to'xtatib qo'yishga haqlidir.

Belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va nashr etilishi (e'lon qilinishi) kerak bo'lgan normativ hujjatlar davlat ro'yxatidan o'tkazilguniga qadar bajarish uchun yuborilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning holati to'g'risidagi ma'lumotlar «Xalq so'zi» – «Народное слово» gazetalarida muntazam ravishda e'lon qilib borilishi shart.

8-§. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi Qonuni[1]ga binoan ***xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish*** quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

a) tekshirish, shu jumladan taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish;

b) statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish;

d) idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazish.

Ushbu qonuning 3-moddasiga binoan:

nazorat qiluvchi organlar – xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar va idoralar;

tekshirish – xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda o'z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1999, 1-son, 8-m.

tekshirishlarni qayd etish daftari – o'tkazilgan tekshirishlar to'g'risidagi axborot yozib qo'yiladigan maxsus daftar;

taftish – moliya va soliq masalalari bo'yicha qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliq, davlat statistika organlariga hamda banklarga taqdim etiladigan hisobga olish va hisobot ishlarining to'g'riligi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalterlik, moliya va boshqa hujjatlarini tekshirish;

muqobil tekshirish – operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'liq bo'lgan va turli xo'jalik yurituvchi subyektlardagi yoki bir xo'jalik yurituvchi subyektning turli bo'linmalaridagi hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv;

nazorat tartibida tekshirish – xo'jalik yurituvchi subyektlarning ilgarigi tekshirishda ko'rsatilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etishi ustidan nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirishi hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish, quyidagi ***asosiy prinsiplar*** asosida amalga oshiriladi:

1) nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va oshkoralik;

2) yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

3) xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga aralashmaslik.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish *nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari* tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazilishlari lozim.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishiga belgilangan namunadagi maxsus guvohnoma va qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgani taqdirda yo'l qo'yiladi.

Tekshiruvga – auditorlik tashkilotlari va (yoki) ekspertlar jalb etilgani taqdirda, nazorat qiluvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan nazorat qiluvchi organ va auditorlik tashkiloti va (yoki) ekspert o'rtasidagi shartnomaning ko'chirma nusxasi, albatta taqdim etiladi. Shartnomada auditor va (yoki) ekspertning familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi va lavozimi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Auditor va (yoki) ekspert xulosasining to'g'riligi va uning qonun hujjatlariga muvofiqligi uchun auditorlik tashkiloti va (yoki) ekspertning javobgarligi tuziladigan shartnomaning zaruriy sharti hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvlari va ekspertizalarni o'tkazish xarajatlari nazorat qiluvchi organlar hisobiga amalga oshiriladi.

Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi va u chiqargan qarorlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishga doir qismi nazorat qiluvchi organlar uchun majburiy hisoblanadi.

Maxsus vakolatli organning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

2) xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishning, shu jumladan, kompleks tekshiruvlar hamda taftishlarning nazorat qiluvchi organlar bir-birining ishini takrorlashiga yo'l qo'ymaydigan muvofiqlashtiruvchi rejalarini ishlab chiqish;

3) nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvlar o'tkazishning muvofiqlashtiruvchi rejalariga rioya qilishini nazorat qilish hamda rejadan tashqari tekshiruvlar maxsus vakolatli organ bilan kelishmay o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik.

Nazorat qiluvchi organlar tomonidan yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rejali tekshirish, shu jumladan, taftishdan o'tkazish uchun quyidagilar ***asos*** bo'ladi:

a) maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishni o'tkazishning muvofiqlashtiruvchi rejasidan ko'chirma;

b) nazorat qiluvchi organning muvofiqlashtiruvchi reja asosida chiqargan buyrug'i.

Prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish uchun — *qo'zg'atilgan jinoiy ish* mavjudligi asos bo'ladi. Bunda tekshiruvga xo'jalik yurituvchi subyektning faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishi bilan bog'liq faoliyati qamrab olinishi mumkin bo'lib, bu haqda tekshiruvni tayinlash to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini ***rejadan tashqari tekshirish uchun*** — maxsus vakolatli organning tekshirilayotgan obyekt nomini, tekshiruv o'tkazish maqsadi, muddatlari hamda uni o'tkazish sabablarining asosliligi ko'rsatilgan holda rejadan tashqari tekshirish o'tkazish to'g'risida chiqargan qarori, shuningdek, tekshirishni amalga oshiruvchi tegishli mansabdor shaxslar tarkibi va tekshiruvni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i asos bo'lib xizmat qiladi.

Rejadan tashqari tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan quyidagi hollarda o'tkaziladi:

a) agar tekshiruvni o'tkazish zarurati O'zbekiston Respublikasi hukumati qaroridan kelib chiqqanda;

b) nazorat qiluvchi organga xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qonunlar va boshqa qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushganda;

d) favqulodda vaziyatlar vujudga kelishining oldi olinayotganda;

e) sanitariya-epidemiologiya vaziyati murakkablashganda, shuningdek, qo'shni davlatlardan yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishi ehtimoli vujudga kelganda.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirish — soliq organlari hamda boshqa nazorat qiluvchi organlar tomonidan ularning vakolatlari doirasida va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni ularning xo'jalik faoliyatini taftish qilish bilan bog'liq bo'lmagan holda tekshirish — tegishli nazorat qiluvchi (yong'inga qarshi, sanitariya, veterinariya, energetika nazorati va boshqa) organlar tomonidan, qoida tariqasida, bir marta o'tkaziladigan kompleks tekshiruv davomida amalga oshiriladi.

Kompleks tekshiruvlar maxsus vakolatli organ tasdiqlagan rejalar asosida o'tkaziladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ***muqobil tekshirish***lar jinoyat ishlari yuzasidan tergov olib borish jarayonida tekshirish tayinlash to'g'risidagi qaror asosida yoxud nazorat qiluvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli organning qaroriga binoan amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda muqobil tekshirishlarga ularning tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt bilan o'zaro munosabatlari yuzasidangina yo'l qo'yiladi.

Nazorat tartibida tekshirish — nazorat qiluvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli organ yoki uning hududiy bo'linmalari bilan kelishilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tekshiruvchilarning qonuniy talabiga binoan tekshirish o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallar va hujjatlarni taqdim etishga, ularni tekshirish obyektlariga kiritishga, tekshiruvchilarga o'z vazifalarini bajarishlari uchun ko'maklashishga majburdirlar.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining qonuniy talablari tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarish uchun majburiydir.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo'jalik yurituvchi subyektlarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga *aralashishga haqli emas.*

Agar nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligini aniqlasalar, ular o'zlariga berilgan vakolat doirasida va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq chora-tadbirlarni ko'rishlari mumkin. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik holati mavjudligidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foydalanishga haqli emas.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning – O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi a'zolarining faoliyatini tekshirish uning vakillari ishtirok etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 6-aprelda tasdiqlangan «Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirishlar o'tkazish va Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizomga binoan, nazorat qilish organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ***barcha turdagi tekshirishlari*** (ayni bir vaqtdagi tekshirish, taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish va boshqalar), shu jumladan yong'in, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya xavfsizligi, energiya nazorati xizmati, tabiatni muhofaza qilish, karantin va o'simliklar himoyasi, tovarlar bilan savdo qilish qoidalariga rioya qilishni tekshirish faoliyatiga nisbatan qo'llaniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish muddati 30 kalendar kundan oshib ketishi mumkin emas. Istisno hollarida, bu muddat Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi qaroriga ko'ra uzaytirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 21-apreldagi 166-son qaroriga muvofiq kichik va o'rta biznes korxonalarining, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi a'zolarining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatlarini barcha tekshirishlar – Palata yoki uning hududiy tuzilmalari yuridik xizmatlarining majburiy ishtirokida amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektni rejali tarzda tekshirish Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining qaroriga binoan yiliga ko'pi bilan bir marta amalga oshirilishi mumkin.

Budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga soliqlar va to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'la miqdorda to'lovchi, boshqa tartib va qoidalarga rioya qiluvchi, auditorlarning har yilgi tegishli xulosalariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tekshirish nazorat qiluvchi organlar tomonidan, qoida tariqasida, ko'pi bilan ikki yilda bir marta amalga oshiriladi.

Gorizontal tekshirishlar va taftishlar o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarda muqobil tekshirishlarni o'tkazish esa faqat ularning tekshirish obyekti bilan o'zaro munosabatlari doirasidagina yo'l qo'yiladi.

Hujjatlarni olib qo'yish va ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning talabi bo'yicha taqdim etish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi, prokuratura organlari esa bu holda O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga ham asoslanadilar. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar asl nusxasi olib qo'yilgan hujjatlarning saqlanishi uchun javobgardirlar. Hujjatlarning asl nusxasini olib qo'yishda nazorat organlarining vakolatli shaxslari xo'jalik yurituvchi subyektlarga ularning asl nusxasidan bosh buxgalter yoki xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlangan ko'chirmalar olishga imkoniyat berishlari lozim.

Nazorat organlari va ularning mansabdor shaxslari, mutaxassislar va yoki auditorlar (auditorlik firmalari) xo'jalik yurituvchi subyektni tekshirish natijasida ma'lum bo'lgan tijorat siri ma'lumotlarini oshkora qilganliklari uchun qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Tekshirishni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tekshirish boshlanishidan oldin xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarini (yakka tadbirkorni) tekshirish maqsadi va shartlari bilan tanishtirishi, qonunchilik bilan belgilangan hujjatlarni taqdim etishi, ***Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi***ga tegishli yozuvlar kiritishi lozim.

Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi raqamlangan va varaqlar soni ko'rsatilib, xo'jalik yurituvchi subyektning (yakka tadbirkor uchun agar u mavjud bo'lsa) muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi mulkchilik shaklidan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yuritiladi. Tekshirish boshlanishidan oldin xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari (yakka tadbirkor) nazorat organining mansabdor shaxsiga tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobini tegishli ustunlarini to'ldirish uchun taqdim etadi.

Nazorat organining vakolatli shaxsi tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirishdan bosh tortsa, xo'jalik yurituvchi subyekt tekshirish o'tkazishga yo'l qo'ymaslikka haqlidir.

Nazorat organlari tekshirishni nazorat organi rahbari tomonidan tasdiqlangan tekshirish o'tkazish rejasiga muvofiq amalga oshiradi. Tekshirish uni o'tkazish rejasi yoki nazorat organi vakolatlari doirasidan tashqariga chiqmasligi lozim.

Tekshirish natijalari dalolatnoma bilan zarur hollarda esa aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatma bilan rasmiylashtiriladi.

Dalolatnoma va ko'rsatmani rasmiylashtirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishning muvofiqlashtirish rejasidan ko'chirma, nazorat organi rahbari tomonidan tasdiqlangan tekshirish o'tkazish buyrug'i va rejasi, jinoiy ish qo'zg'atish to'g'risidagi qaror nusxalari xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga (yakka tadbirkorga) ularni olganligi haqidagi tilxat asosida topshiriladi. Shuningdek, tekshirish o'tkazish uchun mutaxassis va/yoki auditor (auditorlik firmasi) jalb qilingan taqdirda nazorat organi va mutaxassis va/yoki auditor (auditorlik firmasi) o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi taqdim etiladi.

Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi to'ldirilgandan va tekshirish tugagandan so'ng mansabdor shaxs — tekshirish rahbari va xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari (yakka tadbirkor) unda qayd qilingan yozuvlarni sana va vaqt ko'rsatilgan imzosi bilan tasdiqlaydilar.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tekshirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi bo'yicha shaxsiy, jinoiy javobgarlikkacha bo'lgan javobgarlik nazorat organlarining rahbarlari va vakolatli shaxslari zimmasiga yuklatiladi.

Huquqi buzilgan xo'jalik yurituvchi subyekt unga keltirilgan zararni to'liq undirilishini talab qilishi mumkin.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy qarorlari yoki boshqa harakatlari natijasida xo'jalik yurituvchi subyektga yetkazilgan zararlar, shu jumladan, boy berilgan foyda, qonun hujjatlarida begilangan tartibda qoplanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt aybdor mansabdor shaxsning noqonuniy aralashuvi natijasidagi yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani, shuningdek, ma'naviy zararni qoplashni sud orqali talab qilishga haqli.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining harakatlari va qarorlari ustidan bevosita sudga yoki bo'ysinish tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga shikoyat qilinishi mumkin.

Shikoyatni berish nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsining harakatlarini to'xtatib qo'ymaydi. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining harakatlari va qarorlari ustidan qilingan shikoyatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» ma'ruzasi[1]da iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalaridan biri sifatida – *xususiy tarmoqning jadal rivojlanishini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko'payishini ta'minlash* ko'rsatib o'tildi.

Bundan tashqari, bu sohadagi eng muhim vazifalar sifatida: *birinchidan,* davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada ko'proq cheklash, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo'lgani kabi, bizda ham tekshirishlar natijalari bo'yicha moliyaviy va ma'muriy jazolarni (misol uchun, xo'jalik subyekti faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan katta miqdorda jarima solish, korxona faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hisob raqamidan foydalanishni taqiqlash va hokazolarni) faqat sud tomonidan tayinlash tizimiga o'tish: *ikkinchidan*, xo'jalik subyektlariga nisbatan qo'llanadigan jazo choralari tizimini to'liq qayta ko'rib chiqish, qasddan sodir etilmagan va katta bo'lmagan qoidabuzarliklar uchun jazo choralarini kamaytirish va tadbirkorlar yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda to'liq qoplagan hollarda jazoni qo'llashdan voz kechish va boshqalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga binoan, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash, sud-huquq tizimini yanada erkinlashtirish, nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvini kamaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlari

[1] I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: «O'zbekiston», 2005.

himoya qilinishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati asossiz cheklanishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi talablariga so'zsiz rioya etish maqsadida — 2005-yilning 1-iyulidan boshlab tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini faqat sud orqali qo'llanish tartibi joriy etildi. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) belgilangan tartibda faqat davlat soliq xizmati organlari, ular tomonidan tekshirish davomida soliq va valutaga oid jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda esa — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

Nazorat organlarining rahbarlari va mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlarini o'z vakolatlari va nazorat sohasi doirasidan tashqari masalalar bo'yicha har qanday tekshiruvlar o'tkazganligi uchun shaxsan javobgar, hatto jinoiy javobgar ham bo'ladilar.

Faqat qo'zg'atilgan jinoiy ish yuzasidan tekshirishni tayinlash to'g'risidagi qaror yoki shunday tekshiruvlarni o'tkazish to'g'risida nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organning qarori mavjud bo'lgandagina qonunda ko'zda tutilgan hollarda tadbirkorlik subyektining tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt bilan o'zaro munosabatlarinigina muqobil tarzda tekshirishga yo'l qo'yiladi.

Muqobil tekshirishlarni o'tkazish chog'ida tadbirkorlik subyektlariga borish va ulardan tekshirishga taalluqli bo'lmagan moliya-buxgalteriya yoki boshqa hujjatlarni talab qilish man etiladi.

Davlat organlarining noqonuniy qarorlari yoki shu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida tadbirkorlik subyektiga yetkazilgan zararning o'rni sud qarori asosida to'la hajmda bevosita ana shu davlat organlari tomonidan, birinchi navbatda, ularning budjetdan tashqari jamg'arma mablag'lari hisobiga qoplanishi lozim.

Zararlarning o'rnini qoplash sud qarori bilan ana shu yetkazilgan zarar uchun aybdor bo'lgan davlat organlarining mansabdor shaxslariga, qonun hujjatlarida belgilangan tartib va miqdorlarda yuklanishi mumkin.

Tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi xo'jalik nizolari xo'jalik sudi yoki hakamlar sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi nazorat organlari mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlari huquqlarini va qonuniy manfaatlarini buzganliklari uchun jazo muqarrarligini,

ularning hatto jinoiy javobgarlikka tortilishini ta'minlagan holda, tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari so'zsiz bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirishi, belgilandi.

Mazkur Farmonga binoan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan faqat sud tartibida qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralariga quyidagilar kiradi:

1) faoliyatni tugatish;

2) faoliyatni to'xtatib qo'yish. Favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'iga boshqa haqiqiy xavf-xatar vujudga kelishining oldini olish munosabati bilan faoliyatni ko'pi bilan o'n ish kunigacha to'xtatib qo'yish hollari bundan mustasno;

3) banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish borasida aniqlangan hollar bundan mustasno;

4) moliyaviy sanksiyalarni qo'llash. Soliq va yig'imlarni to'lash muddatini o'tkazib yuborganlik uchun penya qo'shish, shuningdek, tadbirkorlik subyekti sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybiga iqror bo'lish va moliyaviy sanksiya jarimalarini ixtiyoriy ravishda to'lash hollari bundan mustasno;

5) huquqbuzarlik predmetlarini davlat daromadiga o'tkazish;

6) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish litsenziyalari (ruxsatnomalari)ni o'n ish kunidan ko'proq muddatga to'xtatib qo'yish yoki amal qilishini tugatish va bekor qilish (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining komissiyalari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziyalar bundan mustasno).[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi farmoniga binoan, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, xalqaro amaliyotga muvofiq hisobot tizimi va uni taqdim etish tartibini takomillashtirish, shuningdek, qo'shimcha hisobotni noqonuniy talab etish hollariga yo'l qo'ymaslik maqsadida — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat mulk qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi va Savdo-sanoat palata-

[1] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005, 23–24-son, 167-modda.

sining 2005-yil 1-iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan soliqlar, yig'imlar, ajratmalar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha barcha hisob-kitoblarni davlat soliq xizmati organlariga har oyda taqdim etishni har chorakda taqdim etishga o'tkazildi.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 5-oktabrdagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga binoan, tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni tashkil qilish tizimini takomillashtirish va tekshirishlar sonini keskin qisqartirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishi uchun nazorat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirish maqsadida – mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini har to'rt yilda ko'pi bilan bir marta, boshqa tadbirkorlik subyektlarini esa har uch yilda ko'pi bilan bir marta reja asosida tekshirish o'tkazilishi belgilandi.

Yangi tashkil qilingan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini ular davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab ikki yil mobaynida reja asosida tekshirish o'tkazilmaydi.

Hududiy soliq organlari tomonidan boshqa tumanlar (shaharlar)da ro'yxatga olingan tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish binolari, savdo shoxobchalari qayerda joylashganidan va xizmatlar ko'rsatiladigan (ishlar bajariladigan) joydan qat'i nazar, ularning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish takrorlanishiga yo'l qo'yilmagan holda, tadbirkorlik subyekti ro'yxatga olingan joydagi tegishli soliq organlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyektlari tekshirish natijalari bo'yicha nazorat organlarining taqdimnomalarini bajargan, shuningdek, yetkazilgan zararni belgilangan muddatda va to'liq hajmda ixtiyoriy ravishda qoplagan, shu jumladan, penyani to'lagan taqdirda ularga nisbatan moliyaviy jazo choralari qo'llanilmaydi.

Nazorat organlarining mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlari ruxsatsiz tekshirilganligi va ularning xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashilganligi uchun yetkazilgan iqtisodiy zararning o'rni qoplangan holda javobgarlikka, hatto jinoiy javobgarlikka ham tortiladilar.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005, 23–24-son, 168-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi nazorat va huquqni muhofaza qilish organlarining tekshirishlarni tayinlash va o‘tkazish borasida belgilangan tartibga qat’iy rioya etish, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yo‘lidagi faoliyati ustidan muntazam nazoratni amalga oshirishi belgilandi.[1]

9-§. O‘zbekiston Respublikasida sud nazorati

O‘zbekiston Respublikasi Konyatitutsiyasining 106-moddasiga binoan, ***O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati*** – qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha oliy sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo‘jalik sudlaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi. «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi 1995-yil 30-avgustdagi Qonuni[1]ga binoan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi – qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radigan sud hokimiyati organi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud:

1) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respub-

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2005, 40-son, 303-modda.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1995, 9-son, 178-m.

likasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan o'zining vakolatlari doirasiga kiritilgan boshqa ishlarni ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sud faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilgan holda ishlarni hal etadi va xulosalar beradi.

Konstitutsiyaviy sud — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimiga binoan Oliy Majlisning Senati tomonidan sud Raisi, Rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo'shgan holda Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosidan iborat tarkibda saylanadi. Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. Oliy Majlis Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sud *besh yil muddatga saylanadi.*

Konstitutsiyaviy sud doimiy ishlaydigan organdir.

Konstitutsiyaviy sudning majlislari zaruratga qarab o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sodiqlik, mustaqillik, kollegiallik, oshkoralik va sudyalar huquqlarining tengligi — *Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplaridir.*

Konstitutsiyaviy sud hamda uning sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysinadilar.

Konstitutsiyaviy sudda ishlarni qarab chiqish va qarorlar qabul qilish kamida to'rt sudyadan iborat tarkibda kollegial amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sudning majlislari, qoida tarzida, ochiq o'tkaziladi.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan masalalarni qarab chiqish va qarab chiqilayotgan masalalar bo'yicha ovoz berishda Rais, Rais o'rinbosari va Konstitutsiyaviy sudning a'zolari sudyalar sifatida teng huquqlarga egadirlar.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Konstitutsiyaviy sudning normativ va boshqa hujjatlarni, ularning nusxalarini taqdim etish to'g'risidagi, qarab chiqilayotgan

masalalar yuzasidan tushuntirish va maslahatlar berish xususidagi talablari ular yuborilgan organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sud qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Bu huquq Konstitutsiyaviy sud tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri, Oliy Majlis Senatining Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to'rtdan bir qismidan iborat deputatlar guruhi, Oliy Majlis Senati a'zolari umumiy sonining kamida to'rtdan bir qismidan iborat senatorlar guruhi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, Oliy xo'jalik sudining raisi va Bosh prokurori Konstitutsiyaviy sudda ko'rib chiqish uchun masalalar kiritish huquqiga ega. Masala Konstitutsiyaviy sudning kamida uch sudyasi tashabbusi bilan ham kiritilishi mumkin.

Agar olingan materiallar qo'yilayotgan talablarga javob bersa, Konstitutsiyaviy sud ular olingan kundan e'tiboran yetti kunlik muddatdan kechiktirmay masalani o'rganib chiqishga kirishadi.

Konstitutsiyaviy sudda tegishli material olingan paytdan boshlab kechi bilan uch oy ichida ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri, uning o'rinbosarlari, Oliy Majlis Senatining Raisi, uning o'rinbosarlari, Bosh vazir, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Adliya vaziri qatnashishlari mumkin. Ular ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon etishga haqlidirlar.

Konstitutsiyaviy sudning majlisiga zarur ma'lumot yoki materiallarga ega shaxslar, ekspertlar va mutaxassislar chaqirilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviyligi shubha tug'dirgan ko'rib chiqilayotgan aniq masalalar yuzasidangina *to'xtam*ga keladi.

Konstitutsiyaviy sud normativ hujjatning konstitutsiyaviyligini tekshirib, bir vaqtning o'zida tekshirilgan normativ hujjatga asos-

langan yoxud uning qoidalarini takrorlaydigan normativ hujjatlar xususida ham, garchi Konstitutsiyaviy sud qarab chiqishi uchun kiritilgan masalada ular xususida so'z yuritilmagan bo'lsada, to'xtamga kelishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sudning to'xtami ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Sudya ovoz berishda betaraf qolishga yoki qatnashmaslikka haqli emas.

Majlisda qatnashayotgan sudyalarning ko'pchiligi yoqlab ovoz bergan bo'lsa, Konstitutsiyaviy sudning to'xtami qabul qilingan deb hisoblanadi. Ovozlar teng bo'linib qolgan takdirda raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sudning to'xtamiga qo'shilmagan Konstitutsiyaviy sudning sudyasi o'z fikrini yozma tarzda bayon qilish va uni Konstitutsiyaviy sud majlisi bayoniga qo'shib qo'yishga haqlidir.

Davlatlararo shartnomaning va normativ hujjatning konstitutsiyaviyligi yuzasidan ko'rib chiqilgan ishning mohiyati bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning to'xtami – *qaror* deb ataladi. Qarorlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi. Boshqa hollarda Konstitutsiyaviy sudning to'xtami – *xulosa* deb ataladi yoki boshqacha shaklda ham bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari, xulosalari va boshqa to'xtamlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi va shu paytdan kuchga kiradi.

Konstitutsiyaviy sudning to'xtami qat'iy va uning ustidan shikoyatga o'rin bo'lmaydi.

Konstitutsiyaviy sudning to'xtami uning o'z tashabbusi bilan quyidagi hollarda qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin:

a) to'xtam qabul qilingan paytda Konstitutsiyaviy sudga noma'lum bo'lgan yangi muhim holatlar ochilsa;

b) to'xtam qabul qilinishiga asos bo'lgan konstitutsiyaviy norma o'zgargan bo'lsa;

d) Konstitutsiyaviy sud to'xtam belgilangan ish yuritish tartibini buzgan holda qabul qilingan deb topsa.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun *Konstitutsiyaviy sud devoni* tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni[1]ga binoan, ***O'zbekiston Respublikasida sud*** –

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001, 1–2-sonlar, 10-m.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasida *odil sudlov* faqat sud tomonidan amalga oshiriladi.

Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysinadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga bironbir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi – fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rishi mumkin. Apellyatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi:

a) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

b) sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi;

d) sudlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rais, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, sudlov hay'atlari raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan iborat bo'lib, quyidagi tarkibda ish olib boradi:

1) *O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi* — eng yuqori sudlov instansiyasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlarining raislaridan iborat tarkibda ish olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi, adliya vaziri, sudyalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi — ishlarni nazorat tartibida ko'radi: sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomalariga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining tarkibini, sudlov hay'atlarining tarkibi va raislarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibini tasdiqlaydi: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining ishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek, sudlov hay'atlarining faoliyati haqidagi ma'ruzalarni tinglaydi: Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi raislarining qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlarini bajarish to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot organining tahrir hay'ati tarkibini tasdiqlaydi: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati reglamentini tasdiqlaydi.

2) *O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati* — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan belgilanadigan miqdorda tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati tarkibiga lavozim bo'yicha kiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati — ishlarni nazorat tartibida ko'radi: sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi: Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi raislarining shu sudlar faoliyati to'g'risidagi va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari va apparatining ishini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi.

3) *Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati.*

4) *Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati.*

5) *harbiy hay'at.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari:

a) ishlarni birinchi instansiyada, apellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi;

b) sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi;

d) qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

e) sud statistikasini tahlil qiladi;

f) qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi — o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, apellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi: tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining sud faoliyati ustidan nazorat olib boradi, sud amaliyotini umumlashtiradi: sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi: sudlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi: qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi — qonun bilan o'z vakolatlari doirasiga berilgan fuqarolik ishlarini ko'radi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi — qonun bilan o'z vakolatlari doirasiga berilgan jinoyat ishlarini hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'radi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining raisi — sud majlislarida raislik qiladi, sudyalar o'rtasida ishlarni taqsimlaydi: sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishlariga rahbarlik qiladi, qonun buzilishini, huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor

shaxslarga taqdimnomalar kiritadi: sud xodimlari va xalq maslahatchilari malakasini oshirish ishini tashkil etadi: fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini tashkil etadi: sud idorasi ishiga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi: qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari tizimi — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay'ati lavozim bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosari hisoblanadigan Harbiy hay'at raisi, harbiy hay'at raisining o'rinbosari va sudyalardan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi viloyat sudi huquqida ish olib boradi hamda rais, rais o'rinbosari, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi.

Okrug va hududiy harbiy sudlar tuman sudi huquqida ish olib boradilar va rais, sudyalar, xalq maslahatchilaridan, zarurat bo'lganda esa rais o'rinbosaridan ham iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari:

1) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning, Milliy xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek, o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni;

2) harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruv organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarini va harbiy boshqaruv organlari hamda harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlarni;

3) alohida holatlarga ko'ra umumiy yurisdiktsiya sudlari faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini:

4) davlat sirlariga taalluqli ishlarni;

5) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ishlarni ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi — xo'jalik sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'ja-

lik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining tushuntirishlari xo'jalik sudlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, quyi xo'jalik sudlari faoliyatini tekshiradi, xo'jalik sudlarining ishini tashkil etish ijobiy tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rais, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, sudlov hay'atlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalaridan iborat bo'lib, quyidagi tarkibda ish olib boradi:

1) *O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi* —O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi raisidan iborat tarkibda ish olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy sudi raisi, adliya vaziri, sudyalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi — sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomalariga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosatining tarkibini, sudlov hay'atlarining tarkibini va raislarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining kotibini tasdiqlaydi: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosatining ishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudlov hay'atlari faoliyati haqidagi ma'ruzalarni tinglaydi: Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari raislarining qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlarini bajarish to'g'risidagi ma'ruzalarni tinglaydi: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy

xo'jalik sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi matbuot organining tahrir hay'ati tarkibini tasdiqlaydi: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi va Rayosati reglamentini tasdiqlaydi: qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlari xo'jalik sudlari, ushbu tushuntirishlar berilgan qonun hujjatlarini qo'llayotgan boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

2) *O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosati* – O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi belgilaydigan miqdorda tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosatining tarkibiga lavozim bo'yicha kiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosati – ishlarni nazorat tartibida ko'radi: sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi: Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari raislarining qonun hujjatlarini qo'llash to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi: xo'jalik sudlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining sudlov hay'atlari va apparati ishini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi: qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

3) *Fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati:*

4) *Ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining sudlov hay'atlari: a) ishlarni birinchi instansiyada va kassatsiya tartibida ko'radi; b) sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi; d) qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi; e) sud statistikasini tahlil qiladi; f) qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari – rais, rais o'rinbosarlari va sudyalardan iborat bo'ladilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudida, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarida zarur hollarda sudlov hay'atlari tuzilishi mumkin.

10-§. O'zbekiston Respublikasida prokuror nazorati

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni[1]ga binoan ***O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi*** – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysinuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida ***qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat***ni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining ***asosiy vazifalari:***

1) qonun ustuvorligini ta'minlash;

2) qonuniylikni mustahkamlash;

3) fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish;

4) huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokuratura organlari o'z faoliyatini quyidagi ***asosiy yo'nalishlar bo'yicha*** amalga oshiradi:

1) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

2) fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

3) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

4) tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

5) jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib boorish;

6) sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001, 9–10-sonlar, 168-m.

ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

7) soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

8) ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

9) qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining *asosiy prinsiplari* – birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir.

Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysinishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir, shuningdek, u o'z bo'ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir.

Prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunlarning talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chekinish, qanday asoslarga ko'ra qilinishidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysingan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi.

Prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o'tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, qonunga rioya etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun *majburiydir.*

Prokuratura organlari o'z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari mazkur organlarning talabiga muvofiq bepul beriladi.

Prokurorning talablari ustidan shikoyat qilinishi ularning ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.

Prokuratura organlari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadilar, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar.

Prokuror fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi.

Prokuror o'ziga tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni tekshirish vazifasini zarur hollarda tegishli davlat boshqaruvi, nazorat va tekshirish organlariga, korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirish hamda ulardan tekshirishga taalluqli barcha materiallar bilan birga tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab etish huquqiga ega.

Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha prokuror qaror qabul qiladi, bu qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan fuqaroning ariza va shikoyati yoki yuridik shaxsning murojaati yuzasidan qaror qabul qilinganidan keyin prokuratura organlarida ular bo'yicha ish yuritish tugatiladi, yangi ochilgan holatlar bundan mustasnodir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysinuvchi prokurorlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan tegishli organlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tegishincha O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etish huquqiga ega.

Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli va quyi organlari majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etishga haqli.

Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat:

— O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi;
– viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
– tumanlar va shaharlar prokuraturalari;
– viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi:
– tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, shuningdek, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning vakolat muddati – *besh yil.*

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi*ga – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinbosariga, o'rinbosarlariga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining katta yordamchilari va yordamchilari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo'limlarning boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori – prokuratura organlariga rahbarlik qiladi va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga — qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida muntazam ravishda: o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida — zudlik bilan: prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida har olti oyda axborot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda prokuror (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari va prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi tegishli prokurorning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tuziladigan hay'atlar maslahat organlari bo'lib, ular qonuniylik va jinoyatchilikning holatiga, prokuratura organlarining faoliyatiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosiga, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga doir va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tuzilmaviy bo'linmalari rahbarlarining va boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi.

Qonunlar ijrosi ustidan nazorat. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi — *nazorat predmeti* hisoblanadi.

Qonunlar ijrosini tekshirish — qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek, qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Prokuror qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida o'z vakolatlari doirasida:

1) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarning, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, harbiy qismlarning hududi va xonalariga moneliksiz kirishga, hujjatlar va materiallarni ko'rishga, tekshirishlar o'tkazishga, tekshirish uchun qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar va boshqa hujjatlarni, qonuniylikning holati to'g'risidagi va uni ta'minlashga doir chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlarni talab qilishga;

2) davlat organlari, harbiy qismlar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish, taftish o'tkazishni, idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o'tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga;

3) mansabdor shaxslar va fuqarolardan qonun buzilishi xususida og'zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga haqlidir.

Xo'jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatga prokurorning bevosita aralashishiga, shuningdek, idoraviy boshqaruv va tekshiruv organlarining vazifalarini bajarishiga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi — *nazorat predmeti* hisoblanadi.

Prokuror o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajara borib:

1) fuqaroning huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi arizalar, shikoyatlar hamda boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi;

2) arizachilarga ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish tartibini tushuntiradi;

3) fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish va bartaraf etish, qonunni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda yetkazilgan zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'radi.

Fuqaroning huquq va erkinliklarining buzilishini jinoiy xususiyatga ega deb bilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda prokuror jinoyat ishi qo'zg'atadi hamda uni sodir etgan shaxslar qonunga binoan jinoiy javobgarlikka tortilishiga doir choralarni ko'radi.

Fuqaroning huquq va erkinliklarining buzilishi ma'muriy huquqbuzarlik xususiyatiga ega bo'lgan hollarda prokuror ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atadi yoki zudlik bilan huquqbuzarlik to'g'risidagi ma'lumotni va tekshiruv materiallarini ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga beradi.

Fuqaroning sud tartibida himoya qilinadigan huquq va erkinliklari buzilsa, lekin fuqaro sog'lig'iga, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquq va erkinliklarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, da'voni prokuror taqdim etadi va sudda quvvatlaydi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat. Jinoyatlar to'g'risidagi arizalar va xabarlarni ko'rib chiqish hamda hal qilish va tergovni olib borishning qonun hujjatlarida belgilangan protsessual tartibi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari – *nazorat predmeti* hisoblanadi.

Qonunlarning jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar ijro etishlari ustidan nazorat qilish jarayonida prokuror o'z vakolatlari doirasida:

1) surishtiruv va dastlabki tergov organlaridan tekshirish uchun jinoyat ishlarini, surishtiruv, tezkor-qidiruv faoliyatining hujjatlari va materiallarini hamda boshqa ma'lumotlarni talab qiladi;

2) sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal etish to'g'risidagi qonun talablari ijrosini har oyda kamida bir marta tekshiradi;

3) tergovchilar va surishtiruvchilarning noqonuniy hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi;

4) jinoyatlarni tergov qilish, ehtiyot chorasini tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish, jinoyat tavsifini belgilash, ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etib yashiringan shaxslarni qidirish to'g'risida yozma ko'rsatmalar beradi;

5) surishtiruv organlariga fuqarolarni ushlash, majburiy keltirish, qamoqqa olish, qidirish, tintuv o'tkazish, olib qo'yish va boshqa tergov harakatlarini bajarish to'g'risidagi, shu jumladan prokuror yoki prokuratura tergovchisi ish yurituvida bo'lgan ishlar

yuzasidan qarorlarni ijro etishni topshiradi, jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun zarur choralar ko'rish to'g'risida ko'rsatmalar beradi;

6) surishtiruvda, dastlabki tergovda ishtirok etadi hamda zarur hollarda har qanday ish bo'yicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki tergovni to'la hajmda amalga oshiradi;

7) tergov hamda ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash muddatini uzaytiradi;

8) jinoyat ishlarini surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qo'shimcha tergov o'tkazish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalari bilan qaytaradi;

9) har qanday jinoyat ishini surishtiruv organidan olib tergovchiga beradi, shuningdek, uni bir dastlabki tergov organidan boshqasiga, bir tergovchidan boshqasiga o'tkazadi;

10) surishtiruvchini yoki tergovchini, agar u ishni tergov qilish chog'ida qonun buzilishiga yo'l qo'ygan bo'lsa, surishtiruv yoxud dastlabki tergovni davom ettirishdan chetlatadi;

11) qonunda nazarda tutilgan hollarda, tergov harakatlari olib borilishiga sanksiya beradi;

12) jinoyat ishlarini qo'zg'atadi yoki ularni qo'zg'atishni rad etadi, jinoyat ishlarini tugatadi yoxud ular yuzasidan ish yuritilishini to'xtatadi;

13) qonunda nazarda tutilgan hollarda tergovchining ishni tugatishiga rozilik beradi;

14) ayblov xulosasini yoki qarorini tasdiqlaydi, ishni sudga yuboradi;

15) qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prokurorning jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bergan tergovoldi tekshiruvi o'tkazish, jinoyat ishlari qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq ko'rsatmalari surishtiruv va dastlabki tergov organlari uchun majburiydir.

Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat. Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi muassasalarda shaxslar saqlanishining qonuniyligi: ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish tartibi va sharoitlari haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi: ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, mahkumlarning, shuningdek, jinoyat-huquqiy

ta'sirning boshqa choralari qo'llanilgan shaxslarning qonunda belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishi: jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini qo'llayotgan organ va muassasalar, mansabdor shaxslar faoliyatida qonun hujjatlariga rioya etilishi — *nazorat predmeti* hisoblanadi.

Prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o'z vakolatlari doirasida:

1) ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylariga, qamoqqa olish, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish muassasalariga, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etuvchi muassasalarga va voyaga yetmaganlarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga moneliksiz va istalgan vaqtda hamma xonalar bilan tanishish sharti bilan kirishga, shaxslarga nisbatan ushlab turish, qamoqqa olish, shuningdek, jinoiy jazo yoki jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari qo'llanilishiga asos bo'lgan hujjatlar bilan tanishishga;

2) ushlab turish, qamoqda saqlash joylarida, qamoqqa olish, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish muassasalarida, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etuvchi muassasalarda, voyaga yetmaganlarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida noqonuniy saqlab turilgan shaxslarni darhol ozod qilishga;

3) agar qamoqda saqlanayotgan, qamoq jazosiga, intizomiy qismga jo'natishga, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo choralari qonunga nomuvofiq bo'lsa, bu choralarni bekor qilishga va o'z qarori bilan bunday shaxslarni intizomiy bo'linmalardan darhol ozod qilishga;

4) ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, mahkumlardan va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari qo'llanilgan shaxslardan ushlab turish, qamoqda saqlash, jazoni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi organlar hamda muassasalarning vakillari ishtirokida ham, ulardan xoli holda ham so'rabsurishtirishga;

5) ushlab turish, qamoqda saqlash, jazoni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi organlar hamda muassasalar ma'muriyatlarining buyruqlari, farmoyishlari va qarorlari, tezkor-qidiruv tadbirlarining qonunga muvofiqligini tekshirishga;

6) ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, mahkumlarning va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari qo'llanilgan shaxs-

larning huquqlarini ta'minlaydigan sharoitlar yaratilishini ushlab turish, qamoqda saqlash, jazoni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi organlar hamda muassasalar ma'muriyatidan talab qilishga;

7) jazoni ijro etuvchi muassasa boshlig'ining mahkumlarga alohida holatlarda muassasa tashqarisiga chiqishga ruxsat berish to'g'risidagi, o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumni tarbiya koloniyasida qoldirish to'g'risidagi, mahkuma ayollarning jazoni ijro etish muassasasi tashqarisida yashashi to'g'risidagi qarorlarini tasdiqlashga haqli.

Prokuror ushlab turilgan, qamoqqa olingan, ozodlikdan mahrum etilgan hamda jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralariga tortilgan shaxslarning jazoni ijro etuvchi organ yoki muassasa ma'muriyatiga, boshqa davlat organlariga, jamoat birlashmalariga, mansabdor shaxslarga shikoyat hamda arizalar bilan murojaat qilish huquqlari to'g'risidagi qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Prokuror o'ziga tushgan shikoyat yoki arizani belgilangan muddatda ko'rib chiqishi, zarur chora-tadbirlar ko'rishi hamda o'z qarori to'g'risida arizachiga ma'lum qilishi shart.

Sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlari. Fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instansiya sudlarida ishlar ko'rilayotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Prokuror sudlarda jinoyat ishlari ko'rilayotganda davlat ayblovini quvvatlaydi.

Prokuror sudda dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, qonunning qo'llanishi xususida o'z fikrini bildiradi.

Ishlar sudlarda ko'rilayotganda ishtirok etayotgan prokurorning vakolatlari protsessual qonunlar bilan belgilanadi.

Prokuror sud protsessining boshqa ishtirokchilari bilan teng huquqlardan foydalanib, sudyalarning mustaqilligi hamda protsessual qonun hujjatlari normalariga qat'iy rioya etish prinsipiga amal qilishi shart.

Sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qarori qonuniy kuchga kirgan har qanday ishni prokuror o'z vakolatlari doirasida suddan talab qilib olish huquqiga egadir. Prokuror yoki uning topshirig'iga binoan prokuratura organlarining boshqa xodimlari sudlarda bunday ishlarning har qanday toifasini o'rganib chiqish huquqiga ega.

Ayblov xulosasini, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan prokuror yoki yuqori turuvchi prokuror jinoyat ishi sudda ko'rish uchun tayinlanguniga qadar ishni suddan chaqirib olish huquqiga ega.

Prokuror protsessual qonunda belgilangan tartibda o'z vakolatlari doirasida sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qaroriga protest keltirishga haqli.

Protest keltirish prokurorning vakolat doirasidan chetga chiqib ketadigan hollarda u protest keltirish to'g'risidagi taqdimnoma bilan yuqori turuvchi prokurorga murojaat etadi.

Prokuror nazorati hujjatlari. Protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv — *prokuror nazorati hujjatlari*dir.

Qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda ***protest*** keltiriladi.

Protest kelib tushgan vaqtdan boshlab o'n kunlik muddatdan kechiktirmay ko'rib chiqilishi shart. Qonunbuzarlikni darhol bartaraf etish talab qilingan alohida hollarda prokuror protestni ko'rib chiqishning qisqartirilgan muddatini belgilashga haqli. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida uch kunlik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Protest kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma'lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

Protest shu hujjatni qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) yoki yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan rad etilganda, shuningdek, protest qonunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmagan taqdirda, prokuror ana shu hujjatni qayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. Sudga ariza protest rad etilganligi to'g'risidagi xabar olingan paytdan boshlab yoki protestni ko'rib chiqish uchun qonunda belgilangan muddat o'tganidan keyin bir oylik muddat ichida berilishi mumkin.

Prokuror tomonidan sudga ariza berilishi protest keltirilgan hujjatning amal qilishini ariza sudda ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib qo'yadi.

Prokuror mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab jinoyat ishi, ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida ***qaror*** chiqaradi.

Prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror chiqaradi.

Ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan boshlab o'n besh kun ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi shart. Uni ko'rib chiqish natijalari haqida uch kunlik muddatda prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi ***taqdimnoma***ni – qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi.

Taqdimnoma darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim.

Taqdimnoma kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma'lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

Prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ***ariza*** bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Prokurorning arizasi sud tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

Prokuror arizasidan davlat boji olinmaydi.

Prokuror fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida ***yozma ravishda ogohlantiradi*** hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi.

Ogohlantiruv to'g'risida prokuror yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga), shuningdek, ogohlantiruv e'lon qilingan shaxsning ish, o'qish joyi bo'yicha ish beruvchiga (ma'muriyatga) yoki yashash joyidagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organiga ma'lum qilishga haqli.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizom tushunchasi.
2. Davlat boshqaruvida qonuniylikning o'ziga xos xususiyatlari.

3. Qonuniylikni ta'minlash tushunchasi.
4. Qonuniylikni ta'minlash uslublari.
5. Kontrol tushunchasi va turlari.
6. Nazorat tushunchasi va turlari.
7. Ma'muriy nazorat.
8. Jamoat nazorati.
9. Fuqarolarning murojaat qilish huquqi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nazorati.
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nazorati.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nazorati.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini ijro etish va nazorat qilishning asosiy qoidalari.
14. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idorlar normativ hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash.
15. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish.
16. O'zbekiston Respublikasida sud nazorati.
17. O'zbekiston Respublikasida prokuror nazorati.

ATAMALAR

Aksiyadorlik jamiyati – Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi subyekt.

Ancha miqdordagi moddiy zarar – eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan oshib ketgan zarar.

Ariza – fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosi bayon etilgan murojaati.

Attestatsiya – xizmatchilarning professional, ishchanlik va shaxsiy xislatlariga baho berish, uning xizmat-lavozim talablariga mos kelishini tekshirish.

Boshqaruv uslubi – davlat boshqaruvi faoliyatining maqsadlariga erishish, vazifalarini bajarish va funksiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan huquqiy vositalar.

Boshqaruv funksiyalari – boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan aniq yo'naltirilgan ta'siri.

Boshqaruv huquqiy aktlari – ijro hokimiyati subyektlarining bir tomonlama hokimiyat ko'rsatmalarini ifodalash, yuridik oqibatlarni vujudga keltirishni nazarda tutuvchi va bajarilishi majburiy bo'lgan aktlar.

Buyruq – ma'muriy huquqda yakkaboshchilikka asoslangan huquqiy hujjat: muayyan tashkilot oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llaniladi.

Vazirlar mahkamasining qarorlari – Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi yoki o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari.

Vazirlar mahkamasining farmoyishlari – Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari.

Vazirlik – ijro hokimiyati tizimining asosiy organlaridan biri: belgilangan sohada davlat siyosatini va boshqaruvini amalga oshiruvchi, mazkur sohadagi ijro etuvchi organlarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ.

Vakolat beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar – davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilariga yuridik

hokimiyat ko'rsatmalari doirasida o'z ixtiyori bo'yicha harakat qilish imkoniyatini beruvchi normalar.

Vertikal ma'muriy-huquqiy munosabatlar – ma'muriy-huquqiy tartibga solishning mohiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvi faoliyatiga xos bo'lgan boshqaruv subyekti va obyekti o'rtasidagi subordinatsiyaviy aloqalar.

Gomeostazis – tizim va muhit o'rtasidagi harakatchan tenglikni ta'minlash, ta'sir etuvchi omillarga qaramasdan uning sifat jihatdan aniqligini saqlash, tizim elementlari, shuningdek, tizim va tashqi muhit o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga barham berish.

Gorizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlar – bir tomonning ikkinchi tomonga nisbatan yuridik-hokimiyat irodasining ustunligi mavjud bo'lmagan munosabatlar: tomonlarning bir xildagi huquqiy darajaga ega ekanligi: bir tomonning ikkinchi tomonga qaratilgan yuridik-hokimiyat irodasining bo'lmasligi.

Davlat boshqaruvi (tashkiliy nuqtayi nazardan) – boshqaruv subyekti (davlat, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar)ning boshqaruv obyekti (jamiyat, fuqarolar)ga nisbatan hokimiyat ta'siri: qonun asosida va uni amalga oshirish maqsadida turli sohalarda (ijtimoiy-madaniy, xo'jalik va ma'muriy-siyosiy qurilish) davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshiruvchi ijro hokimiyati organlarining maqsadga muvofiq tashkil etilgan, qonunosti, ijrochilik-farmoyish berish va tartibga solishga qaratilgan faoliyati.

Davlat intizomi – boshqaruv jarayonida ishtirok etuvchi barcha subyektlar faoliyatini tashkil etish va ularning hamkorlikda harakat qilishini belgilab beruvchi asosiy vositalardan biri.

Davlat mexanizmi – davlat organlari va boshqa tashkilotlarining davlat hokimiyatini, vazifa va funksiyalarini amalga oshirishning yaxlit ierarxik, ya'ni bo'ysinuvga asoslangan tizimi.

Davlat organlari – davlat funksiyalarini amalga oshiradigan va hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining bo'g'ini.

Davlat tashkiloti – o'zining boshqaruv organlariga hamda o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan ma'lum bir xodimlar jamoasi.

Davlat xizmati (ijtimoiy ma'noda) – ijtimoiy kategoriya, davlat tashkilotida ma'lum bir lavozimni egallab turgan shaxs tomonidan davlatning ko'rsatmasiga ko'ra ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirish.

Davlat xizmati (siyosiy ma'noda) – davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat: davlatning maqsad va vazifalariga barcha ishlab chiqilgan siyosiy kuch orqali erishish: jamiyatdagi muvozanatning asosiy ko'rinishi.

Davlat xizmati (huquqiy ma'noda) — davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy o'rnatish: mansab majburiyatlari, xizmatchilarning vakolatlari, davlat organlarining kompetensiyasi bajarilishini ta'minlash.

Davlat xizmati funksiyalari — davlat xizmati instituti huquqiy normalarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishi: davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy tartibga solish maqsadiga erishish hamda davlat xizmatining ijtimoiy va davlat-huquqiy rolini bajarish.

Davlat xizmatchisi — davlat ma'muriyati apparatida bevosita yoki bilvosita ma'lum bir haq evaziga domiy yoki vaqtincha xizmat majburiyatlarini amalga oshiruvchi shaxs.

Davlat yurisdiktsiyasi — sud va ma'muriy organlarining o'z vakolatlaridan kelib chiqib ishlarni ko'rib chiqish va hal etish huquqi.

Davlat qo'mitasi — ijro hokimiyatining markaziy organlaridan biri: kollegiallik asosida tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiruvchi va faoliyatning ma'lum bir sohasida tartibga solish vazifasini bajaruvchi organ.

Yozma buyruq, ko'rsatma — huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatni amalga oshirish, ya'ni boshqacha emas, balki aynan shunday harakat qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri yuridik majburiyatni zimmaga yuklash.

Jamoa subyektlari — turli ko'rinishdagi davlat va nodavlat tashkilotlari.

Jamoat birlashmasi — o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma.

Jarayon — qandaydir holatlarning, hodisalarning ketma-ketlikda almashinuvi, nimaningdir rivojlanishi.

Jarima — ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirish.

Idoralar — vazirlik yoki davlat qo'mitasi hisoblanmagan, ijro etish va (yoki) farmoyish berish funksiyalari, shuningdek, umumiy majburiy tusdagi normativ hujjatlarni qabul qilish huquqi berilgan boshqaruvning umumdavlat organlari yoxud maxsus vakolatli boshqaruv organlari (agentliklar, komissiyalar, markazlar, boshqarmalar va boshqalar).

Ijro hokimiyati — abstrak siyosiy-huquqiy kategoriya: davlat hokimiyati mavjudligini ko'rsatadi: qonunlarni va uning norma-

larini hayotga tadbiq qilish maqsadida amalga oshiriladi, davlat organlarining doimiy funksiyalanishini, insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlaydi.

Ijro hokimiyati organlari – davlat ijro hokimiyatining bir bo'g'ini, davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan hamda davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot: qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni ijro etish va ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladigan, boshqaruv harakatlarining maxsus shakl va uslublaridan foydalanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradigan tashkilot.

Ijro hokimiyati organlari tizimi – ijro hokimiyati organlarining yig'indisi va ular o'rtasida kompetensiyani taqsimlash asosida o'zaro munosabatlarning tizimi.

Ijtimoiy Boshqaruv – ijtimoiy aloqalarni tashkil etish: ijtimoiy hayotga yoki uning ko'p yoxud ayrim sohalariga ta'sir etish, ijtimoiy ishlarni boshqarish.

Individual subyektlar – fuqarolar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Intizomiy javobgarlik – intizomiy hokimiyat subyektlari tomonidan ularga bo'ysingan shaxslarga nisbatan ularning intizomiy huquqbuzarliklari uchun intizomiy jazo choralarini qo'llash.

Intizomiy ishlarni yuritish – intizomiy javobgarlikni qo'llash bo'yicha tegishli subyektlarning huquq normalari bilan tartibga solingan faoliyati.

Intizomiy nojo'ya xatti-harakat – jamiyatga qarshi qaratilgan, ma'lum bir ijtimoiy zararni keltirib chiqaradigan, aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik).

Intizomiy-huquqiy majburlov – ijro va farmoyish berish faoliyatida intizomiy hokimiyat subyektlari tomonidan, huquq normalariga asoslangan holda, bo'ysunuvchi shaxslarga nisbatan intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar sodir etganligi uchun qo'llaniladigan davlat majburlovi.

Ichki davlat boshqaruvi – ijro hokimiyati organlari tomonidan mazkur organlar tizimini tashkil etish va faoliyat yuritishining huquqiy tartibotini ta'minlashi.

Ishontirish – davlat boshqaruvini amalga oshirishning asosiy uslublaridan biri: shaxslarning namunali irodasini shakllantirish yoki qayta shakllantirish maqsadida turli xildagi tushuntirish, tarbiyalash, tashkil etish ishlarini olib borish.

Karantin – davlat tomonidan mamlakatga yuqumli epidemik kasalliklar va qishloq xo'jalik zararkunandalarini olib kirishga barham berish bo'yicha sanitariya chora-tadbirlari.

Kasaba uyushmalari – ko'ngilli jamoat tashkiloti bo'lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o'z a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan mehnatkashlarni birlashtiradi.

Kibernetika – boshqaruv, aloqa, kontrol, tartibga solish, qabul qilish, saqlash va axborotni qayta ishlash kabi masalalarni o'rganuvchi fan.

Kompetentsiya – davlat organining vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va javobgarligining tizimi.

Kontrol qilish funksiyasi – davlat boshqaruvi tizimi va uning tuzilishining o'rnatilgan standart va normalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini o'rnatish, davlat organlari faoliyatini va ayrim boshqaruv subyektlari harakatining natijalarini, davlat boshqaruvida belgilangan va amalga oshirilgan holatlarni o'rganish va baholash.

Litsenziat – faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Litsenziya – litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq).

Litsenziya da'vogari – litsenziyalovchi organga faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

litsenziya talablari va shartlari – faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziat tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarning majmui.

Litsenziya shartnomasi – faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da'vogari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o'rtasida tuziladigan shartnoma.

Litsenziyalar reyestr – berilgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma'lumotlar bazalari majmui.

Litsenziyalash — litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish va ko'rib chiqish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar kompleksi.

Litsenziyalovchi organlar — qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar.

Majburiyat yuklovchi ma'muriy-huquqiy normalar — norma gipotezasida nazarda tutilgan sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda, muayyan harakatlarni albatta amalga oshirish lozim bo'lgan yuridik hokimiyat ko'rsatmalari.

Majburlov — bo'ysinuvchi subyektning irodasini rad etish va uning xulq-atvoriga tashqi ta'sir ko'rsatish

Man etish, taqiqlash — amalda bu ham ko'rsatma, ammo u teskari, ya'ni huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatlarni amalga oshirmaslik bo'yicha yuridik majburiyatni zimmaga yuklash.

Mansabdor shaxs — mulk shaklidan qat'i nazar korxona, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan hamda rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat vazifalari yoki moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan shaxs.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat — bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati.

Maxsus boshqaruv — ma'lum bir sohalarga va tarmoqlarda amalga oshiriladigan boshqaruv.

Maxsus normalar — aholining muayyan guruhiga yoki aniq belgilangan doiradagi subyektlarga taalluqli bo'lgan normalar.

Ma'muriy javobgarlik — ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy-protsessual tartibda ma'muriy jazoni qo'llashdir.

Ma'muriy jazo — javobgarlikka tortish chorasi, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy jarayon — ijro hokimiyati organlarining ma'muriy protsessual shaklda amalga oshiriladigan va aniq bir huquqiy masalalarni hal etishga qaratilgan hokimiyat faoliyati.

Ma'muriy ish yuritish – ma'muriy jarayonning bir qismi, umumiy va maxsus protsessual normalar yordamida ma'lum bir ishlarni hal etishga qaratilgan ma'muriy faoliyatning alohida turi.

Ma'muriy qayta tiklov choralari – yetkazilgan zararni qoplash, oldingi holatni tiklash maqsadida qo'llaniladigan choralar.

Ma'muriy qamoqqa olish – ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan qattiq ma'muriy jazo chorasi, ma'lum bir muddatga shaxsni jamiyatdan ajratib qo'yish.

Ma'muriy muomala layoqati – shaxslarning o'z qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) bilan huquqlarga ega bo'lishi va amalga oshirishi, o'zlariga va boshqa shaxslarga majburiyatlarni vujudga keltirishi, ularni bajarishi hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishi.

Ma'muriy nazorat – davlat organlari, mansabdor shaxslar, davlat va nodavlat korxona, muassasa va tashkilotlari, shuningdek, fuqarolar tomonidan umummajburiy qoidalarga qat'iy rioya etishlari ustidan olib boriladigan davlat nazorati.

Ma'muriy ogohlantiruv choralari – davlat boshqaruvi sohasida jamoat tartibi va xavfsizligini hamda boshqa zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni ogohlantirish maqsadida qo'llaniladigan choralar.

Ma'muriy protsessual munosabatlar – ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinadigan, ijro hokimiyati organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi va aniq ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan huquqiy munosabatlar.

Ma'muriy uslublar – boshqaruv subyektining obyektga bir tomonlama tartibda davlat-hokimiyat ta'sirini ko'rsatishi.

Ma'muriy hokimiyat vakillari – davlat xizmatchilarining alohida guruhi: o'z vakolatlari doirasida boshqa shaxslarga, xizmat bo'ysinuvidan qat'i nazar, bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni beradi.

Ma'muriy huquq – huquq tizimining mustaqil tarmog'i, davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi.

Ma'muriy huquq ijodkorligi jarayoni – ijro hokimiyati organlarining ma'muriy-protsessual shaklda o'rnatilgan tartibda ma'muriy normativ aktlarni qabul qilishga qaratilgan faoliyati.

Ma'muriy huquq layoqati – huquq subyekti umumiy huquq layoqatining bir turi: qonunchilik bilan o'rnatilgan va davlat tomo-

nidan kafolatlangan hamda aniq bir subyektning turli huquqiy munosabatlarda ishtirok etish qobiliyati.

Ma'muriy huquqbuzarlik – qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi qayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish – shu ashyoni majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirish.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish – shu ashyo haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazish.

Ma'muriy huquqbuzarlikning obyekti – ma'muriy huquq normalari bilan o'rnatilgan va muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar.

Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni – huquqqa xilof qilmish, huquqbuzarlik obyektiga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik, uning xususiyatlari, shuningdek, uni sodir etish (yoki sodir etmaganlik) sharoitlari.

Ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti – 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs.

Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni – huquqbuzarlik subyekti (jismoniy shaxs)ning huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hamda uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati.

Ma'muriy huquqni qo'llash jarayoni – ijro hokimiyati organlarining qonun hujjatlarini ijro etishga qaratilgan va ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan operativ-farmoyish berish hamda huquqni qo'llash aktlarini qabul qilish va ijro etish faoliyati.

Ma'muriy cheklov choralari – huquqqa xilof harakatlarni tugatish (to'xtatish) va uning zararli oqibatlarini bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan choralar.

Ma'muriy yurisdiksiyaviy jarayon – ijro hokimiyati organlarining turli subyektlar o'rtasidagi nizolarni hal etish, ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan ma'muriy va intizomiy majburlov choralarini qo'llashga qaratilgan faoliyati.

Ma'muriy yustitsiya – sud va boshqa davlat organlari tomonidan ma'muriy-huquqiy nizolarni hal etishning alohida tartibi,

unda davlat boshqaruv organlari harakatlari ustidan keltirilgan shikoyatlar ko'rib chiqiladi va ular uchun majburiy bo'lgan qarorlar qabul qilinadi.

Ma'muriy-protsessual normalar – vakolatli davlat organlari tomonidan o'rnatilgan, ijro hokimiyati organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi va aniq ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari.

Ma'muriy-huquqiy majburlov – huquqiy majburlovning alohida turi, huquqqa xilof qilmishga nisbatan ommaviy hokimiyat subyektlari tomonidan ma'muriy huquq normalarida nazarda tutilgan majburlov choralarini qo'llash.

Ma'muriy-huquqiy normalar – ma'muriy huquq fani tizimining boshlang'ich elementi bo'lib, davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki tasdiqlanadigan hamda ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini (xatti-harakatini) belgilab beradigan qoidalar.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar – davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan va ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solingan huquqiy munosabatlar.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar – ma'muriy-huquqiy normalarga asoslangan va ommaviy manfaatlarni qondirish maqsadida ma'muriy huquqning ikki (yoki undan ortiq) subyektlarining ixtiyoriy kelishilgan irodasi natijasida vujudga kelgan shartnomalar: unda hamma vaqt bir tomonda ma'muriy hokimiyat subyekti ishtirok etadi.

Moddiy javobgarlik – qayta tiklash xususiyatidagi sanksiyalarni qo'llash, yetkazilgan mulkiy zararni qoplash.

Moddiy ma'muriy-huquqiy normalar – davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha bo'ladigan munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari hajmi va mazmunini, javobgarligini belgilovchi normalar.

Moddiy-texnik harakatlar – davlat faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan va ish yuritish, ro'yxatga olish, rasmiylashtirish, hujjatlar, ma'lumotlar, materiallarni ko'paytirish va yuborish, axborotlar bilan ishlash, analitik hisobni yuritish, moddiy-texnik ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv faoliyatining shakllari.

Muassasa – bu ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tusdagi vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan tashkilot.

Muvofiqlashtirish funksiyasi – turli davlat boshqaruvi organlari (davlat xizmatchilari) faoliyatini davlat boshqaruvining umumiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun yo'naltirish.

Muqobil tekshirish – operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'liq bo'lgan va turli xo'jalik yurituvchi subyektlardagi yoki bir xo'jalik yurituvchi subyektning turli bo'linmalaridagi hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv.

Murakkab tizim – turli elementlar yig'indisidan iborat bo'lgan tizim.

Nazorat – maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan o'ziga bo'ysinmagan obyekt faoliyatida qonuniylik va intizomni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyati.

Nazorat qiluvchi organlar – xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar va idoralar.

Nazorat tartibida tekshirish – xo'jalik yurituvchi subyektlarning ilgarigi tekshirishda ko'rsatilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etishi ustidan nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirish.

Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini-o'zi boshqarish tashkiloti.

Normativ huquqiy akt – davlat vakolatli organining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umumiy majburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorlik akti.

Obyekt – subyektga qarama-qarshi bo'lgan hamda insonning amaliy va bilish faoliyati qaratilgan obyektiv reallik: huquqda qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat.

Protsessual ma'muriy-huquqiy normalar – tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari uchun moddiy ma'muriy-huquqiy normalarda nazarda tutilgan, davlat boshqaruvi sohasidagi yuridik huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tartibini belgilovchi normalar.

Rag'batlantirish – davlat organining, mansabdor shaxsning yoki boshqa subyektning xizmatchi ehtiyojlariga, manfaatlariga, irodasiga, amaliy holatiga, shuningdek, uning davlat-xizmat faoliyatiga ta'sir ko'rsatish: manfaatdorlik, ong orqali insonlarning irodasini belgilangan foydali ishni bajarishga yo'naltiruvchi ta'sir etish uslubi.

Rahbar – davlat organi, korxona va muassasaning funksiyalarini amalga oshirib: unga bo'ysindirilgan davlat xizmatchilari apparatining ish faoliyatini yo'naltiradi: ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, intizomiy javobgarlikka tortish, moliyaga hamda tovar-moddiy boyliklarga egalik qilish, rag'batlantirish, mazkur organ nomidan imzo chekish va boshqa yuridik ahamiyatli harakatlarni sodir etish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs.

Rahbarlik qilish funksiyasi – davlat organlari (davlat xizmatchilari), boshqariluvchi obyektlar faoliyatining va ayrim harakatlarining qoidalarini va normalarini o'rnatish

Rejalashtirish funksiyasi – davlat boshqaruvi tizimidagi u yoki bu jarayonlarning yo'nalishlarini, rivojlanishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, davlat funksiyalarining amalga oshirilishini belgilash

Reordinatsiyaviy ma'muriy-huquqiy munosabatlar – boshqariluvchi subyektning boshqaruv subyektiga, ya'ni quyidan yuqoriga qarab ta'sir etish (orqaga qaytish)ga asoslangan huquqiy munosabat.

Ruxsat berish – huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatlarni o'z xohishi bo'yicha amalga oshirishga imkoniyat yaratish.

Ruxsat berish tizimi – ma'muriy hokimiyat subyektlari bilan fuqarolar va tashkilotlar o'rtasida vujudga keladigan va huquqiy normalar bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar yig'indisi: o'rnatilgan qoidalar va talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni olib borish sharti bilan ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishga ruxsat berish.

Siyosiy partiya – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasi.

Subordinatsiya (bo'ysinuvlik) nazariyasi – ma'muriy huquq va xususiy huquqni farqlashdagi asosiy nazariya: huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarning xususiyatini belgilab beradi: munosabatlarni normativ hujjatlar bilan tartibga solishning bir tomonlama xususiyatiga ega ekanligi bilan tavsiflanadi: tashkil etish, cheklov va majburlov vositalari orqali davlatning (hokimiyat boshqaruv faoliyatining) ustunligini ifodalaydi.

Subordinatsiyaviy munosabatlar – boshqaruv subyekti yuridik irodasining avtoritarligiga asoslangan munosabatlar.

«Suveren» boshqaruv – ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini qo'llashni nazarda tutuvchi boshqaruv.

Taqiqlovchi ma'muriy-huquqiy normalar – u yoki bu harakatlarni amalga oshirishning taqiqlanishini belgilovchi normalar.

Taklif – fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarini o'z ichiga olgan murojaati.

Tartibga solish funksiyasi – davlat boshqaruvi tizimini va uning funksiyalanishini tashkil etish jarayonida boshqaruv uslublari va usullaridan foydalanish.

Taftish – moliya va soliq masalalari bo'yicha qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliq, davlat statistika organlariga hamda banklarga taqdim etiladigan hisobga olish va hisobot ishlarining to'g'riligi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalterlik, moliya va boshqa hujjatlarini tekshirish.

Tashqi davlat boshqaruvi – ijro hokimiyati organlari tomonidan «tashqi» vakolatlarni, ya'ni davlat ma'muriyati tuzilishiga kirmaydigan va huquq subyektlariga qaratilgan vakolatlarni amalga oshirish.

Tashkil etish funksiyasi – o'rnatilgan tartib va prinsiplarga asoslanib davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, boshqaruv tizimida boshqaruvchi va boshqariluvchining tuzilishini belgilash.

Tekshirish – xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda o'z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi.

Tekshirishlarni qayd etish daftari – o'tkazilgan tekshirishlar to'g'risidagi axborot yozib qo'yiladigan maxsus daftar.

Umumiy boshqaruv – har qanday boshqaruv faoliyatiga (sohasiga) qaratilgan va bir xil mexanizm, shakl va uslublarda amalga oshiriladigan boshqaruv.

Faoliyatning litsenziyalanayotgan turi – O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi.

Farmoyish berish funksiyasi – davlat organlari vakolatlarini va mansab majburiyatlarini amalga oshirish, davlat faoliyatining belgilangan tartibini ta'minlash bo'yicha vujudga keladigan boshqaruv munosabatlarini kundalik tartibga solish.

Fuqarolarning ma'muriy-huquqiy holati — fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi (ma'muriy-huquqiy munosabatlardagi) huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari, javobgarligining yig'indisi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi — fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyati.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxs — O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxs.

Xizmat — insonlarning, shuningdek, davlat va jamiyatning maqsadga muvofiq faoliyat yo'nalishlaridan biri.

Xususiy korxona — mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot.

Shakl — ma'lum bir hodisa yoki harakat mazmunining tashqi ko'rinishi.

Shikoyat — fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi bayon etilgan murojaati.

Yuridik faktlar — huquqiy munosabatlar vujudga kelishining shartlarini, holatlarini va mezonlarini belgilovchi harakat, harakatsizlik, hodisa.

Qonuniylik — davlat organlari faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi: demokratik huquqiy jamiyat mavjud bo'lishi va rivojlanishining asosiy belgisi.

Qonuniylikni ta'minlash — davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida qonuniylik talabidan chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik: qonunbuzilishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash: aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish: buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni qayta tiklash: qonunbuzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish: qonun buzilishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida, ma'lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat — bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati.

Hisobga olish funksiyasi – miqdor shaklida ifodalangan axborotlarni, moddiy resurslar harakatini, boshqaruv faoliyatini amalga oshirish natijalarini, davlat organlari vakolatlarini, davlat boshqaruv qarorlarini, boshqaruv uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarning mavjudligi va harakatini inobatga olish.

Xorijiy fuqaro – bu O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmagan va xorijiy davlat fuqaroligi mavjud bo'lgan jismoniy shaxs.

Huquq manbalari – huquqiy normalar ifodasining tashqi shakllari, huquq mavjud bo'lishining shakllari: jamiyat tomonidan huquqni tushunish xususiyati bilan belgilangan ijtimoiy normalarni majburiy deb bilish uslubi.

Huquq tizimi – huquqning ichki tuzilishi, tarkibi: huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatni hamda nisbatni belgilab beradi.

Huquq funksiyasi – ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir etishning asosiy yo'nalishi: huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. RAHBARIY ADABIYOTLAR

1.1. I.A.Karimov O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995.

1.2. I.A.Karimov O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy prinsiplari. – T.: «O'zbekiston», 1996.

1.3. I.A.Karimov O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1 – T.: «O'zbekiston», 1996.

1.4. .A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq VI sessiyasida qilgan «Adolat – qonun ustuvorligida» dokladi. «Xalq so'zi» gazetasi, 30.08.2001-y.

1.6. I.A.Karimov Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: «O'zbekiston», 2001.

1.7. I.A.Karimov Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish. – T.: «O'zbekiston», 2005.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2005-yil 7-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan yig'ilishidagi «Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi» ma'ruzasi. «O'zbekiston ovozi», gazetasi. 17.01.2005-y.

1.9. I.A.Karimov O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13 – T.: «O'zbekiston», 2005.

1.10. Inson, uning huquqi va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2005-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan ma'ruzasi.

1.11. Yerishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.A.Karimovning 2005-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi //«Xalq so'zi» gazetasi, 2006-yil 11-fevral.

1.12. I.A.Karimov Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir // «Qishloq hayoti», 2007-yil 13-fevral.

2. NORMATIV HUJJATLAR

2.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 8-dekabr 1992-yilda qabul qilingan / Konstitutsiyaga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan O'zR 28.12.1993-y. 989-XII son Qonuni, O'zR 24.04.2003-y. 470-II son Qonuni.

2.2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994-y. 2015-XII son Qonuni bilan tasdiqlangan. Keyingi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan birgalikda.

2.3. «Militsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 31.10.1990-y. 136-XII sonli Qonuni // O'zbekiston SSJning Oliy Kengash Axborotnomasi 1990-y. 31-33-son, 355-modda // O'zbekiston Respublikasi OM 06.05.1995-y. 73-I son Qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1995-y. 6-son, 121-modda, 203-bo'lim.

2.4. «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 02.07.1992-y. 632-XII sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi 1992-y. 9-son, 338-modda // O'zbekiston Respublikasi 03.12.2004-y. 714-II son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan.

2.5. «Kasaba uyushmalari, huquqlari va ularning faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 02.07.1992-y. 638-XII son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi 1992-y. 9-son, 344-modda // O'zbekiston Respublikasi 07.12.2001-y. 320-II son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002-y. 1-son, 20-modda.

2.6. «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 03.07.1992-y. 657-XII sonli Qonuni // O'zbekiston

Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi 1992-y. 9-son, 355-modda // O'zbekiston Respublikasi 06.05.1995-y. 70-I son Qonuni, 15.04.1999-y. 772-I son Qonuni, 31.08.2000-y. 125-II son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1995-y. 6-son, 118-modda, 1999-y. 5-son, 124-modda, 2000-y. 7-8-son, 217-modda.

2.7. «Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 09.12.1992-y. 750-XII sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi 1993 y. 1-son, 33-modda // O'zbekiston Respublikasi 20.08.1999-y. 832-I son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1999-y. 9-son, 229-modda.

2.8. «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 07.05.1993-y. 848-XII sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi 1993-y. 5-son, 232-modda.

2.9. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 02.09.1993-y. 913-XII sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi 1993-y. 9-son, 320-modda // O'zbekiston Respublikasi 30.08.1997-y. 485-I son Qonuni, 25.12.1998-y. 729-I son Qonuni, 03.12.2004-y. 714-II son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997-y. 9-son, 241-modda, 1999-y. 1-son, 20-modda.

2.10. «Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash xarajatlarini undirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 06.05.1995-y. 68-I sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1995-y. 6-son, 116-modda.

2.11. «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 30.08.1995-y. 103-I sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1995-y. 9-son, 178-modda // O'zbekiston Respublikasi 13.12. 2002-y. 447-II son, 30.08.2003-y. 535-II sonli Qonunlar bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003-y. 1-son, 8-modda, 9-10-son, 149-modda.

2.12. «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 30.08.1995-y. 108-I sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1995-y. 9-son, 183-modda.

2.13. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 26.04.1996-y. 223-I son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1996-y. 5-6-son, 61-modda // O'zbekiston Respublikasi 27.12.1996-y. 357-I son, 26.12.1997-y. 549-I son, 29.08.1998-y. 681-I son, 20.08.1999-y. 832-I son, 15.12.2000-y. 175-II son, 13.12.2002-y. 447-II son, 30.08.2003-y. 535-II sonli Qonunlar bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997-y. 2-son, 56-modda, 1998-y. 3-son, 38-modda, 9-son, 181-modda, 1999-y. 9-son, 229-modda, 2001-y. 1-2-son, 23-modda, 2003-y. 1-son, 8-modda, 9-10-son, 149-modda.

2.14. «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 26.11.1996-y. 337-I son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997-y. 2-son, 36-modda // O'zbekiston Respublikasi 20.08.1999-y. 832-I son, 12.12.2003-y. 568-II son, 30.04.2004-y. 621-II sonli Qonunlar bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1999-y. 9-son, 229-modda, 2004-y. 1-2-son, 18-modda, 5-son, 90-modda.

2.15. «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 24.12.1998-y. 717-I son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1999-y. 1-son, 8-modda // O'zbekiston Respublikasi 26.05.2000-y. 82-II son, 15.12.2000-y. 175-II son, 30.04.2004-y. 621-II son, 03.12.2004 y. 714-II sonli Qonunlar bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2000-y. 5-6-son, 153-modda, 2001-y. 1-2-son, 23-modda, 2004-y. 5-son, 90-modda.

2.16. «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (Yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 14.04.1999-y. 758-I son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1999-y. 5-son, 110-modda.

2.17. «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 14.04.1999-y. 763-I son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1999-y. 5-son, 115-modda // O'zbekiston Respublikasi 30.04.2004 y. 621-II son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004-y. 5-son, 90-modda.

2.18. «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 25.05.2000-y. 71-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2000-y. 5-6-son, 142-modda.

2.19. «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 14.12.2000-y. 160-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001-y. 1-2-son, 8-modda // O'zbekiston Respublikasi 12.12.2003-y. 568-II son, O'zbekiston Respublikasi 03.12.2004-y. 714-II son Qonun bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004-y., 1-2-son, 18-modda.

-2.20. «Sudlar to'g'risida»gi (Yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 14.12.2000-y. 162-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001-y. 1-2-son, 10-modda // O'zbekiston Respublikasi 07.12.2001-y. 320-II son, O'zbekiston Respublikasi 12.12.2003 y. 568-II son, O'zbekiston Respublikasi 03.12.2004-y. 714-II son Qonun bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002-y. 1-son, 20-modda, 2004-y., 1-2-son, 18-modda.

2.21. «Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 15.12.2000 y. 173-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001-y. 1-2-son, 21-modda // O'zbekiston Respublikasi 30.04.2004-y. 621-II son Qonun bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004-y. 5-son, 90-modda.

2.22. «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi 29.08.2001-y. 254-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001-y. 9-10-son, 165-modda.

2.23. «Prokuratura to'g'risida»gi (Yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 29.08.2001-y. 257-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001-y. 9-10-son, 168-modda // O'zbekiston Respublikasi 25.04.2003-y. 482-II son Qonun bilan o'zgartirishlar kiritilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003-y. 5-son, 67-modda // O'zbekiston Respublikasi 03.12.2004-y. 714-II son Qonun bilan o'zgartirishlar kiritilgan.

2.24. «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 06.12.2001-y. 310-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002-y. 1-son, 10-modda.

2.25. «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi (Yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 13.12.2002 y. 446-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003-y. 1-son, 7-modda.

2.26. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 25.04.2003-y. 480-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003-y. 3-4-son, 34-modda.

2.27. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi (Yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 29.08.2003-y. 524-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003-y. 9-10-son, 138-modda.

2.28. «Xususiy korxona to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 11.12. 2003-y. 558-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004-y. 1-2-son, 8-modda.

2.29. «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 29.04.2004-y. 609-II son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004-y. 5-son, 78-modda.

2.30. «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 30.04.2004-y. 617-II Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004-y. 5-son, 86-modda.

2.31. «Ba'zi davlat boshqaruv organlarining qayta tashkil etilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 15.09.2005-y. Qonuni.

2.32. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 3.01.2007-y. Qonuni // O'zR QxT, 2007, №1-2, 2-m.

2.33. Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 11.04.2007-y. Qonuni // O'zR QxT, 2007, № 15, 151-m.

2.34. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi (O'zR OM 1997-yil 29-avgustdagi qaroriga binoan tasdiqlangan).

2.35. Respublikada davlat nazorati tizimini takomillashtirishga oid ba'zi tadbirlar to'g'risida (O'zR Prezidentining 16.02.1994-y. PF-762-son Farmoni).

2.36. Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshi-

lash haqida (O'zR Prezidentining 25.06.1997-y. PF-1791-sonli Farmoni).

2.37. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida (O'zR Prezidentining 23.04. 1998-y. PF-1990-sonli Farmoni).

2.38. «Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.06.2000-y. PF-2612-son Farmoni).

2.39. «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.12.2003-y. PF-3358-son Farmoni).

2.40. «Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2003-y. PF-3366-son Farmoni)

2.41. «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi ayollarni ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.12.2004-y. PF-3521-son Farmoni).

2.42. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.06.2005-y. PF-3618-son Farmoni).

2.43. «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.06.2005-y. PF-3619-son Farmoni).

2.44. «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.06.2005-y. PQ-100-son Qarori).

2.45. «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2005-y. PF-3665-son Farmoni).

2.46. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.03.2007-y. Farmoni).

2.47. O'zR Prezidentining farmonlari, farmoyishlari va topshiriqlari, O'zR VM qarorlari va farmoyishlari ijrosini tashkil etish va ularning amalga oshirilishini nazorat qilishning Asosiy Qoidalari (O'zR VM 12.01.1999-y. 12-son Qaroriga ilova).

2.48. Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida (O'zR VM 12.01.1999-y. 12-son Qarori).

2.49. O'zR Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida (O'zR VM 29.03.1999-y. 140-son Qarori).

2.50. Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to'g'risida. (O'zR VM 25.07.2000-y. 283-son Qarori).

2.51. Ma'muriy-boshqaruv hodimlari sonini qisqartirish to'g'risida (O'zR VM 07.01.2003-y. 5-son Qarori).

2.52. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish Qoidalari (O'zR VM 13.01.2003-y. 15-son Qaroriga ilova).

2.53. Davlat boshqaruvi hududiy organlari tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida (O'zR VM 05.01.2004-y. 2-son Qarori).

2.54. Davlat va xo'jalik boshqaruvi respublika organlarining boshqaruv xodimlari sonini maqbullashtirish va qisqartirish to'g'risida (O'zR VM 05.02.2004-y. 1-son Qarori).

2.55. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasini tashkil etish to'g'risida (O'zR VM 12.10. 2004-y. 475-son Qarori).

2.56. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti to'g'risida (O'zR VM 14.02.2005-y. 62-son Qarori).

2.57. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida (O'zR VM 22.09.2006-y. Qarori).

2.58. Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarida ma'muriy nazorat o'rnatish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida Yo'riqnoma (O'zR AV 07.05.2002-y. 1135-son bilan ro'yxatga olingan O'zR IIV 26.02.2002-y. 51-son Buyrug'i.

3. MAXSUS ADABIYOTLAR

3.1. Административное право / Под.ред. Василенкова Р.Т. – М.: 1990.

3.2. Бахрах Д.Н. Административное право. – М.: 1993.

3.3. Алехин. А.Р., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. – М.: 1994.

3.4. Alimov X.R. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: 1995.

3.5. Манохин В.М., Адушкин Ю.С., Багишаев З.А. Российское административное право: Учебник. – М.: 1996.

3.6. Князев С.Д. Административное право: Учеб. пособие. Владивосток. 1997.

3.7. Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: «ЗЕРЦАЛО», 1998.

3.8. Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Алимов Х.Р., Соловьева Л.И. и др./ – Т.: «Адолат», 1999.

3.9. Административное право. – М.: «Юрист», 2000.

3.10. Административное право: учебник / Под ред. Козлова Ю.М., Попова Л.Л. – М.: «Юрист», 2000.

3.11. Xudoyberdiyeva V.J., Xojiyev Ye.T. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI nashriyoti, 2000.

3.12. Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Юрист», 2003.

3.13. Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. – М.: «Норма», 2004.

3.14. Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимен А.Н. Административное право: Учебник. – М.: ТК Велби. Изд-во «Проспект», 2004.

3.15. Сорокин В.Д. Административно-процессуальное право: Учебник. – СПб.: Издательство «Юридический центр Пресс», 2004.

3.16. Административное право: Учебник /Под ред. Попова Л.Л.. – М.: «Юрист», 2004.

4. QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

4.1. Манохин В.М. Государственная служба. – М.: 1966.

4.2. Салищева Н.Г. Гражданин и административная юрисдикция. – М.: «Наука», 1970.

4.3. Лазарев Б.М. Компетенция органов управления. – М.: Юрид. лит. 1972.

4.4. Аппарат управления государства. Ч.2. – М.: 1977.

4.5. Курашвили Б.П. Очерк теории государственного управления, – М.: 1987.

4.6. Атаманчук Г.В. Обеспечение рациональности государственного управления. – М.: 1990.

4.7. Фаёль А. Общее и промышленное управление // Управление – это наука и искусство. – М.: 1992.

4.8. Волошина В.В. Правовые проблемы регулирования государственной службы. – М.: 1993.

4.9. Лазарев Б.М. Государственная служба. – М.: 1993.

4.10. Фадеев В.И. Муниципальное право России. – М.: 1994.

4.11. Бахрах Д.Н. Государственная служба в Российской Федерации. Екатеринбург, 1995.

4.12. O'zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyatining oliy idoralari. // O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. – T.: «Adolat», 1995.

4.13. Ноздрачев А. Правоограничения государственных служащих // Право и экономика. 1995. №15.

4.14. Старилов Ю.Н. Служебное право. Учебник. – М.: «БЭК», 1996.

4.15. Кнорринг В.И. Искусство управления: Учебник. – М.: 1997.

4.16. Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: Курс лекций. – М.: 1997.

4.17. Конеев А.П., Абдурахманов А.А. Административные договоры: понятие и виды // ЖРП. 1998. №7. 86-б.

4.18. Тихомиров Ю.А., Котелевская И.В. Правовые акты: Учеб. практ. и справ. Пособие. – М.: 1999.

4.19. Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun / Boboyev X.B., Islomov Z.M., Choriyorov U. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000.

4.20. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sharhlar. – T.: «Adolat», 2000.

4.21. Иванов В.В. некоторые вопросы теории нормативного договора // Право и политика. 2000. №4.

4.22. Костенников М.В. Прововые акты органов исполнительной власти. Их разработка и принятие. – М.: 2000.

4.23. Панова В.И. Актуальные проблемы административного процесса в Российской Федерации. Автореф.дис. ... докт.юрид.наук. Екатеринбург, 2000.

4.24. Рихтер И., Шупперт Г.Ф. Судебная практика по административному праву: Учеб. Пособие. Пер. с нем. – М.: 2000.

4.25. Панова И.В. Административно-процессуальная деятельность в Российской Федерации. Саратов, 2001.

4.26. Красильников Т.С. Содержание административного договора в системе образования (на примере договора между образовательным учреждением и его учредителем) // История становления и современное состояние исполнительной власти в России / Отв. ред. Н.Ю.Хаманева. – М.: 2003.

4.27. Лукьянова Е.Г. Теория процессуального права. – М.: «Норма», 2003.

4.28. Xojiyev Yerkin. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI, 2004.

4.29. Xojiyev Ye.T., Samiqjonov F.R. Ma'muriy qonunchilik tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: 2005.

4.30. B.Mirboboyev, O.Husanov, A.Begmatov. O'zbekistonda davlat xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy masalalari. – T.: «Akademiya», 2005.

4.31. Xojiyev Yerkin. Ma'muriy javobgarlik. Ilmiy-ommabop risola. – T.: 2006.

4.32. Xojiyev Yerkin. Davlat boshqaruvi. Ilmiy-ommabop risola. – T.: 2006.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI 3

UMUMIY QISM

BIRINCHI BO'LIM

AVLAT BOSHQARUVI VA MA'MURIY HUQUQ

1-bob. **DAVLAT BOSHQARUVINING UMUMIY TAVSIFI** 6

1-§. Boshqaruv tushunchasi va turlari. Ijtimoiy boshqaruv 6

2-§. Davlat boshqaruvi tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari va turlari 15

3-§. Davlat boshqaruvi funksiyalari 21

4-§. Davlat boshqaruvining asosiy prinsiplari 25

5-§. Davlat boshqaruvi va ijro hokimiyati 32

2-bob. **MA'MURIY HUQUQ–HUQUQ TARMOG'I SIFATIDA** 36

1-§. Ma'muriy huquq tushunchasi 36

2-§. Ma'muriy huquq predmeti 39

3-§. Ma'muriy huquqning tartibga solish uslubi 41

4-§. Ma'muriy huquqning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o'rni 43

5-§. Ma'muriy huquq tizimi 46

6-§. Ma'muriy huquq manbalari 50

3-bob. **MA'MURIY-HUQUQIY NORMALAR** 57

1-§. Ma'muriy-huquqiy normalar tushunchasi va xususiyatlari 57

2-§. Ma'muriy-huquqiy normalarning tuzilishi 60

3-§. Ma'muriy-huquqiy normalarning tasnifi 63

4-§. Ma'muriy-huquqiy normalarning harakati 67

4-bob. **MA'MURIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR** .. 70

1-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari 70

2-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi 74
3-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning turlari 75

IKKINCHI BO'LIM

MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTLARI

5-bob. **MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTLARI TUSHUNCHASI, ULARNING HUQUQ LAYOQATI VA MUOMALA LAYOQATI** 82
1-§. Ma'muriy huquq subyekti tushunchasi 82
2-§. Ma'muriy huquq subyektlarining huquq layoqati va muomala layoqati 85
6-bob. **JISMONIY SHAXSLAR – MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA** 90
1-§. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ma'muriy-huquqiy holatining tushunchasi 90
2-§. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlari 93
3-§. Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari 100
4-§. Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish 102
5-§. Fuqarolarning murojaatlari 105
6-§. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ma'muriy-huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari 111
7-bob. **O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI** 118
1-§. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tushunchasi 118
2-§. Fuqarolar yig'inini chaqirish tartibi va fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini saylash 119
3-§. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tuzilishi va ularning vakolatlari 124
8-bob. **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI** 134
1-§. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik institutining vujudga kelishi 134
2-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi 135

3-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy holati ... 141
9-bob. **DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI** ... 148
1-§. Davlat organlari tushunchasi va xususiyatlari ... 148
2-§. Ijro hokimiyati organlari tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari ... 150
3-§. Ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari ... 156
4-§. Ijro hokimiyati organlarining tasnifi ... 159
5-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ... 164
6-§. Vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ... 173
7-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlari ... 182
10-bob. **DAVLAT XIZMATI VA DAVLAT XIZMATCHILARI** ... 191
1-§. Ma'muriy huquq va davlat xizmatining o'zaro munosabati ... 191
2-§. Davlat xizmati tushunchasi va mazmuni ... 194
3-§. Davlat xizmati prinsiplari ... 201
4-§. Davlat xizmati maqsadi, vazifalari va funksiyalari ... 204
5-§. Davlat xizmatchilari tushunchasi ... 211
6-§. Davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi va ular uchun o'rnatilgan kafolatlar ... 215
7-§. Davlat xizmatchilariga qo'yiladigan etik talablar, cheklovlar va taqiqlar ... 224
8-§. Davlat xizmatchilarining tasnifi ... 226
9-§. Davlat xizmatini o'tash tushunchasi va tartibi ... 230
10-§. Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish 235
11-bob. **NODAVLAT TASHKILOTLARI – MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA** ... 253
1-§. Nodavlat notijorat tashkilotlari ... 253
2-§. Jamoat birlashmalari ... 261
3-§. Siyosiy partiyalar ... 270
4-§. Kasaba uyushmalari ... 281

UCHINCHI BO'LIM

MA'MURIY-HUQUQIY SHAKLLAR

12-bob. **MA'MURIY-HUQUQIY SHAKLLAR VA ULARNING TURLARI** ... 287

1-§. Ma'muriy-huquqiy shakllar tushunchasi..... 287
2-§. Ma'muriy-huquqiy shakllarning turlari..... 291
13-bob. **BOSHQARUVNING HUQUQIY AKTLARI**.... 298
1-§. Boshqaruvning huquqiy aktlari tushunchasi va yuridik ahamiyati..... 298
2-§. Boshqaruv huquqiy aktlarining funksiyalari..... 303
3-§. Boshqaruv huquqiy aktlarining tasnifi..... 304
4-§. Boshqaruv huquqiy aktlariga qo'yiladigan talablar..... 315
5-§. Boshqaruv huquqiy aktlarining harakati..... 320
6-§. Huquqiy aktlarni sharhlash..... 323
14-bob. **MA'MURIY-HUQUQIY SHARTNOMALAR** 326
1-§. Ma'muriy-huquqiy shartnomalar tushunchasi.... 326
2-§. Ma'muriy-huquqiy shartnomalarning o'ziga xos xususiyatlari va turlari..... 330
15-bob. **BOSHQARUVNING NOHUQUQIY SHAKLLARI**..... 334
1-§. Boshqaruvning nohuquqiy shakllari tushunchasi 334
2-§. Boshqaruvning nohuquqiy shakllari turlari..... 335

TO'RTINCHI BO'LIM

MA'MURIY-HUQUQIY USLUBLAR

16-bob. **DAVLAT BOSHQARUVI USLUBLARI**..... 337
1-§. Davlat boshqaruvi uslublari tushunchasi va xususiyatlari..... 337
2-§. Davlat boshqaruvi uslublarining turlari..... 342
17-bob. **ISHONTIRISH VA RAGBATLANTIRISH**..... 349
1-§. Ishontirish — boshqaruv uslubi sifatida..... 349
2-§. Rag'batlantirish tushunchasi va uning turlari..... 351
18-bob. **MA'MURIY-HUQUQIY MAJBURLOV**..... 354
1-§. Majburlov tushunchasi..... 354
2-§. Ma'muriy-huquqiy majburlov mazmuni va xususiyatlari..... 357
3-§. Ma'muriy-huquqiy majburlov choralarining turlari..... 361
4-§. Ma'muriy ogohlantiruv choralari..... 363
5-§. Ma'muriy cheklov (ehtiyot) choralari..... 377
6-§. Ma'muriy qayta tiklov choralari..... 386

BESHINCHI BO'LIM

MA'MURIY JAVOBGARLIK

19-bob. **MA'MURIY HUQUQBUZARLIK** 388
1-§. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi va yuridik xususiyatlari 388
2-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning o'ziga xos xususiyatlari 391
3-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning yuridik tarkibi tushunchasi 395
4-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning obyekti 396
5-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni .. 398
6-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti 401
7-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni 404
20-bob. **MA'MURIY JAVOBGARLIK** 408
1-§. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari va uning prinsiplari 408
2-§. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi 413
3-§. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi 417
4-§. Mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi .. 427
5-§. Harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning javobgarligi 429
6-§. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ma'muriy javobgarligi 431
7-§. Yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi 432
21-bob. **MA'MURIY JAZO** 435
1-§. Ma'muriy jazo choralari va uning maqsadi 435
2-§. Ma'muriy jarima 437
3-§. Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish 440
4-§. Musodara qilish 441
5-§. Maxsus huquqdan mahrum qilish 443
6-§. Ma'muriy qamoqqa olish 446
7-§. Ma'muriy jazoni tayinlash 448
22-bob. **MA'MURIY HUQUQ BO'YICHA INTIZOMIY VA MODDIY JAVOBGARLIK** 453
1-§. Intizomiy-huquqiy majburlov tushunchasi va xususiyatlari 453
2-§. Ma'muriy huquq boyicha intizomiy javobgarlik. 455
3-§. Ma'muriy huquq boyicha intizomiy ishlarni yuritish 456
4-§. Ma'muriy huquq boyicha moddiy javobgarlik 460

OLTINCHI BO'LIM

MA'MURIY JARAYON

MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR BO'YICHA ISH YURITISH

23-bob. **MA'MURIY JARAYON** 462
1-§. Huquqiy jarayon va uning xususiyatlari 462
2-§. Ma'muriy jarayon tushunchasi 466
3-§. Ma'muriy jarayonning umumiy bosqichlari 469
4-§. Ma'muriy-protsessual normalar 472
5-§. Ma'muriy-protsessual munosabatlar 476
24-bob. **MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR BO'YICHA ISH YURITISH** 481
1-§. Ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritishning vazifalari, prinsiplari va umumiy qoidalari 481
2-§. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlar (mansabdor shaxslar) va ishlarning taalluqliligi 486
3-§. Ma'muriy huquqbuzarlik .to'g'risidagi bayonnoma 500
4-§. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar 502
5-§. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish 505
6-§. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish 508
7-§. Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish 511

YETTINCHI BO'LIM

DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIK VA INTIZOMNI TA'MINLASH

25-bob. **DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIK VA INTIZOMNI TA'MINLASH TARTIBI** 514
1-§. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizom tushunchasi 514

2-§. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlash uslublari..... 519
3-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nazorati.... 524
4-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nazorati.. 526
5-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nazorati..... 529
6-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini ijro etish va nazorat qilishning asosiy qoidalari..... 531
7-§. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar normativ hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash..... 534
8-§. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish..... 541
9-§. O'zbekiston Respublikasida sud nazorati..... 552
10-§. O'zbekiston Respublikasida prokuror nazorati... 562
A T A M A L A R..... 575
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... 589

ERKIN XOJIYEV, TO'LQIN XOJIYEV

MA'MURIY HUQUQ

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2008

Muharrir:	M.Mirkomilov
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musahhih:	Q. Avesbayev
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh. Mirqoshimova

Bosishga ruxsat etildi 12.09.2008. Bichimi 60x80 $^{1}/_{16}$.
«Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'38,5. Nashriyot hisob tabog'i 38,0.
Tiraji 1000. Buyurtma №___

607

«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi»da chop etildi.
700003, Toshkent shahri,
Olmazor ko'chasi, 171-uy.